Navoiy viloyati
hokimligi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**XALQARO AMIR TEMUR JAMOAT FONDI**

**NAVOIY VILOYATI HOKIMLIGI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

# “AMIR TEMUR MEROSI – MILLIY G‘URUR VA MA’NAVIY KUCH MANBAI”

**mavzusidagi mintaqaviy ilmiy-onlayn konferensiya**

## MATERIALLARI




**Navoiy – 2025-yil, 1-aprel**

“Amir Temur merosi – milliy g‘urur va ma’naviy kuch manbai” mavzusidagi mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy, 2026. – 320 b.

Ushbu to‘plam Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti “Tarix” kafedrasi tomonidan 2026-yil 1-aprel kuni o‘tkazilgan “Amir Temur merosi – milliy g‘urur va ma’naviy kuch manbai” mavzuidagi mintaqaviy ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrirlar:**

R.Qarshiyev – t.f.n., professor.
X.Qurbonov – t.f.n., v.v.b. professor.
Sh.Boboyorov - p.f.f.d. (PhD), dotsent.

**Taqrizchilar:**

R.Rajabov – Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi professori
Z.Hayitov – Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi dotsenti
R.Tolibov – Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi dotsenti

**Texnik muharrir:**

M.Norqobilov – Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Kengashining 2026-yil 26-martdagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

**© Navoiy davlat universiteti**

# KIRISH SO‘ZI

**M.B.Kalonov**
**Navoiy davlat universiteti rektori**
**iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Bugungi kunda tarix va zamonaviy taraqqiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash, ajdodlarimiz merosidan to‘g‘ri xulosa chiqarish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur shaxsi va uning siyosiy merosi bu borada bebaho manba hisoblanadi. Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon siyosatida ham muhim o‘rin egallagan buyuk shaxs sifatida tan olinadi. Uning tashqi siyosatdagi dono qarashlari, davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish borasidagi tajribasi bugungi globallashuv davrida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Amir Temur o‘z davrida nafaqat harbiy salohiyati, balki yuksak diplomatik mahorati bilan ham ajralib turgan buyuk davlat arbobi edi. U dunyo siyosatidagi kuchlar muvozanatini chuqur anglagan holda, bir vaqtning o‘zida Sharq va G‘arb davlatlari bilan munosabatlar o‘rnatgan. Masalan, u Fransiya qiroli Sharl VI va Kastiliya qiroli Genrix III Kastilskiy bilan ham diplomatik aloqalar olib borgan. Bu esa Amir Temurning xalqaro siyosatda qanchalik keng qamrovli faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Jumladan, Amir Temurning Yevropa davlatlari, xususan, Angliya qiroli Genrix IV bilan diplomatik aloqalari o‘sha davrda Sharq va G‘arb o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan muhim voqelik sifatida tarixda qolgan.

XIV asrning oxiri – XV asr boshlarida Amir Temur va Angliya o‘rtasida diplomatik yozishmalar amalga oshirilgan. Bu aloqalarning asosiy maqsadi o‘sha davrda Yevropa uchun katta tahdid hisoblangan Usmoniylar davlatiga qarshi ma’lum ma’noda o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish edi. Shu nuqtai nazardan, Amir Temur va Genrix IV o‘rtasidagi maktublar nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi muloqot, balki Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ilk diplomatik ko‘priklardan biri sifatida baholanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur Angliya qiroliga yo‘llagan maktublarida o‘zaro savdo aloqalarini rivojlantirish, elchilar almashish va hamkorlikni kuchaytirish kabi masalalarni ilgari surgan. Bu esa uning faqat sarkarda emas, balki xalqaro munosabatlarni chuqur anglagan siyosatchi ekanligini namoyon etadi.

Shu bilan birga, bu maktublar o‘sha davrdagi diplomatik uslub, siyosiy qarashlar va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar tarixi uchun muhim manba hisoblanadi. Amir Temur va Genrix IV o‘rtasidagi diplomatik yozishmalarning ayrim nusxalari bugungi kunda Britaniya kutubxonasi (British Library)da saqlanayotgani ma’lum. Ushbu noyob hujjatlar xalqaro diplomatiya tarixi, shu jumladan, Temuriylar davlati tashqi siyosatini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, Temuriylar davlati va hozirgi Turkiya hududida shakllangan davlatlar o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi do‘stona va strategik hamkorlik aloqalari ana shu tarixiy zaminda yanada mustahkamlanmoqda. Bu esa o‘tmishdan saboq olib, kelajakni birgalikda barpo etish yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur merosi va uning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rnini o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi zamonaviy siyosat va diplomatiya uchun ham muhim saboqlar beradi.

Amir Temur o‘z davrida nafaqat harbiy salohiyati, balki yuksak diplomatik mahorati bilan ham ajralib turgan buyuk davlat arbobi edi.

# SOHIBQIRON AMIR TEMURNING PIR VA USTOZLARI XUSUSIDA

**Shodmon Ahmadovich Hayitov**
**BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi,**
**Tarix fanlari doktori, professori**

Amir Temurning davlatni omilkorlik bilan boshqaruvida, harbiy to‘qnashuvlardagi g‘alabalarida, ilm-fan va madaniyatga homiylik qilishida hamda yuksak diplomatik mahorat egasi bo‘lib voyaga yetishida uning ustozlari va pirlarining roli beqiyosdir.

Aytish mumkinki, ustoz-shogirdlik, pir va muridlik borasida ham Amir Temur shaxsi o‘rnak bo‘larlidir.

Amir Temur ustoz va pirlarining hurmatini joyiga qo‘yishida padari buzrukvori Muhammad Tarag‘ay Bahodir vasiyatiga amal qilgan. Otasi bolalikdan unga: “o‘g‘lim sen pirlar bilan o‘ynashma, ular istasalar seni xonadoningacha qurita oladilar” deb vasiyat qilgan. Shu sababli Amir Temur bolaligidan ustozlaridan yaxshi ta’lim oldi, 7 yoshida Qur’oni karimni o‘qiy boshladi, 10 yoshida Temur qori deb nom oldi. Amir Temurning birinchi piri, otasiga ham pir bo‘lgan Shamsiddin Kulol (1288-1370 yy.) bo‘lib, “Temur” nomini ham shu pirdan olingan deyishadi. Huquqshunos olim, akademik Akmal Saidov ta’kidlashicha: “Amir Temur Sohibqiron nomi bilan mashhur. Ikki sayyora – Zuhal yulduzi bilan Mushtariyning yaqinlashuvi davrida dunyoga kelgan o‘g‘ilgina shunday nomni olishga musharraf bo‘lgan. Bu yulduzlar harakatidagi holat har sakkiz yuz yilda takrorlanadi. Bunday kunda tug‘ilgan baxtli zotlar dunyoda uchta bo‘lgan. Bular Iskandar Zulqarnayn, Muhammad (s.a.v) va undan sakkiz yuz yil keyin tug‘ilgan Amir Temurdir.” Hujjatlarda Amir Temur o‘zini Temurbek, Amir ul-A’zam, Ko‘ragoniy (xon kuyovi) deb atashlarini xush ko‘rgan. Taniqli tarixchi olim, professor T.A.Hidoyatov shaxsiy muloqotlarimizdan birida: “Amir Temurga “Temur” nomini otasining piri Shamsiddin Kulol bergan. Onasi Tegina begim Moh (1318-1354) 18 yoshida Temurni dunyoga keltirganda uning otasi Tarag‘ay Bahodir piri Shamsiddin Kulol bilan birga bo‘lgan. Shogirdi o‘g‘il farzand ko‘rgani xushxabari kelganida Qur’oni karimni ochgan pirning “Temur” nomiga ko‘zi tushgan va shogirdiga o‘g‘lingni nomini Temurbek deb qo‘ygin degan edilar. Temur birinchidan eng mustahkam unsur bo‘lib, dunyoga kelgan farzand Temurdek mustahkam bo‘lsin, hayotda sabotli, irodali bo‘lgin degan ekan”. Amir Temurning piri buyuk bo‘lishi ham uning nomi bilan bir qadar bog‘liq. Zeroki, payg‘ambarimiz Muhammad alayhi vassalam: “Ismlaringizni chiroyli qilinglar, Alloh insonga rizqni ismidan ham beradi” deganlar. Shamsiddin Kulolga Amir Temur chuqur izzat-hurmat ko‘rsatdi. Uni vafotidan so‘ng, Keshda otasining qabri qiblasi tomoniga dafn etib, ustiga maqbara qurdirdi. Amir Temur o‘z nomini birinchi piri Shamsiddin Kuloldan oldi.

Amir Temurning pirlaridan yana piri Sayyid Baraka (vafoti 1404 yil) bo‘lib, ruhiy va ma’naviy jihatdan bu inson hukmdorni doimo ruhlantirib turdi. Ushbu pirini Sohibqiron janglarda o‘zi bilan birga olib yurgan, pand-nasihat va maslahatlaridan doimo bahramand bo‘lgan.

Juda inoq bo‘lgan pir va ustod o‘rtasidagi yaqinlik 1370-yil 10-aprelda Termiz qurultoyida, ya’ni Amir Temur Movarounnahr hukmdori bo‘lgan kunda mustahkamlanib, 1404-yil Sayyid Baraka vafotiga qadar ota-o‘g‘il maqomi davom etdi. Sayyid Baraka Movarounnahr taxtini egallagan Amir Temurga hukmdorlik ramzlari bo‘lgan nog‘ora va tabl (bayroq) ni taqdim etdi. Amir Temurning quvonchli va qayg‘uli kunlarida doimo sadoqat bilan qat’iy fikrda turgan Sayyid Baraka 1403-yilning yozida Amir Temurni izlab Tog‘li Qorabog‘ga (Dog‘iston, Kavkaz) boradi. Amir Temur qo‘shinlari yozgi mashqlarni shu yerda o‘tayotgan edi. Ancha vaqtdan buyon uchrashmagan pir va ustoz bir muddat bir-birlarini quchoqlab yig‘lab, ko‘rishib turadilar. Sayyid Baraka Amir Temurning suyukli nevarasi Muhammad Sulton vafot etganida hukmdorga ta’ziya bildirmagan edi. Sayyid Baraka vafot etganidan so‘ng, Temur uni Temuriylar xilxonasiga, Samarqandga dafn etdi, amirning o‘zini esa vasiyatiga ko‘ra Sayyid Baraka oyog‘ining uchiga dafn etishgandi.

Amir Temur uchinchi piri Zayniddin Toyobodiy bilan 1381-yilda Xuroson yurishida uchrashdi. Z.Toyobodiy Hirot viloyati, Toyobod muzofoti Xarirud qishlog‘ida istiqomat qilib, diniy ulamolar va xalq orasida o‘zining donishmandligi, beqiyos aql-idroki bilan nom qozongandi. Temur davri tarixchilari Hofiz Abru, Ibn Arabshoh pir va shogird o‘rtasidagi uchrashuv haqida yozib qoldirishgan. Amir Temurning adolatparvar hukmdor sifatida davlatni adolat bilan boshqarishida

(“adolat” – arabcha atama bo‘lib, odillik, to‘g‘rilik ma’nosini beradi) pirining xizmati beqiyos. Unutmaslik kerakki, adolat-mavjud voqelik inson manfaatlari va huquqlariga mos yoki mos emasligining o‘lchov mezoni hisoblanadi. Zayniddin Toyobodiy Amir Temurga davlatni boshqarishda adolat bilan ish tutishni vasiyat qilib, uning qo‘liga “Rosti-rusti” (kuch adolatda) deb yozilgan uzukni taqib qo‘yadi. U Amir Temurga: “Taxt hammaga ham nasib qilmaydi. Allohning inoyati bilan sizga hukmdorlik nasib etibdi, yaratganning amri bilan davlatni adolat bilan boshqaring, bo‘tam. Mahsharda raiyat etagingizdan tutib shikoyat qilmasin”, degan Zayniddin Toyobodiy “Xudoni mulkida adolat bilan ish tutingkim shunday deyishdirlar: mamlakat kufr bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda turolmaydi”, deb Amir Temurga maktub ham yo‘llagan.

Sohibqiron Amir Temur piri vasiyat va maslahatiga amal qilib to‘rtta asosiy vazirlaridan ikkitasiga o‘zini tuzatib turishni tayinlagan. Maqsad adolatsiz qaror chiqarib qo‘ymaslik bo‘lgan. Shu sababli Amir Temur tuzuklarida: “Yaxshi podshoh podshohlik qilish uchun hech qachon yetarli vaqtga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun biz qudratli Alloh bizga muqaddas qarz sifatida topshirib qo‘ygan fuqaro foydasiga ishlashga majburmiz. Bu hamisha mening asosiy mashg‘ulotim bo‘lib qoladi. Negaki, qiyomat kuni faqirlar etagimdan tortib, mendan qasos olishni talab etishlarini istamayman” qabilidagi satrlar mavjud.

Xullas, Amir Temur uchta piridan uch narsani, Shamsiddin Kuloldan Temurbek nomini, Said Barakadan hukmdorlik ramzlari nog‘ora va tablni, Zayniddin Toyobodiydan davlatni boshqarishda adolat mezonini eslatib turuvchi “Rosti rusti” deb yozilgan uzukni qabul qilib olgandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Temur tuzuklari / Tahrir hay’ati: B.Abduhalilov va boshq. Forscha matndan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012.-184 bet.
2. Abdulloh Xotifiy. Temurnoma: Tarixiy – badiiy doston.- Toshkent: “Huquq va jamiyat”; 2021-196 bet.
3. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi I,II-kitob.- Toshkent: “Mehnat”, 1992.-328 bet; 312 bet.
4. L.Keren, A.Saidov. Amir Temur va Fransiya.-Toshkent: “Adolat”, 1996.- 85 bet.

## «ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ» -ТЕМУРИЙЛАР ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА МУҲИМ МАНБАИ

**Ғаффоров Шокир Сафарович**
**Тарих фанлари доктори, профессор**
**Самарқанд Давлат университети**

Маълумки, ўзбек халқи қадимий халқлар қаторида минг йиллар аввал тараққиёт эшикларини очиб, довруғи дунёга танилган йирик давлат тузилмаларини бунёд этди. Бу давлат тузилмаларида миллий давлатчилик асослари мавжуд. Улуғ аждодларимизнинг қадимий тажрибаларини ўрганиш миллий давлатчилик анъаналари тикланаётган бугунги даврда муҳим аҳамият касб этади. Қадимда аждодларимиз Бақтрия, Хоразм, Сўғдиёна, Довон, Қанғ, Қушон каби жуда кўплаб юксак тараққиётга эришган жаҳонда, ўз даврида кучли саналган давлатлар туздилар. «Қатъий қонунлар» деган маънони англатувчи «Авесто» китоби миллий тарихимизга оид энг қадимий сиёсий-иқтисодий, ҳуқуқий ва маънавий таълимотлар мажмуидир. Муғ тоғидан топилган қадимги Сўғдиёна давлати тарихига тегишли манбалар ҳам азалдан бизда кучли ва мукаммал давлатчилик асослари яратилганидан далолат беради.

Миллий тарихимизда залворли, миллий давлатчилигимиз ҳар тарафлама тараққий этган даврларидан бири - Амир Темур ва темурийлар давридир. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов Амир Темурнинг давлатчилик тажрибасига юксак баҳо бериб, жумладан: «Буюк стратегик, моҳир сиёсатчи, эскирган ижтимоий муносабатларнинг қатъий ислоҳатчиси, савдо-сотиқ, ҳунармандчилик ва маданиятнинг ҳомийси бўлган Амир Темур қонунлар ва урф-одатларга асосланган давлатни барпо этди»,[1]-деб унинг мустаҳкам давлат тузганлигини алоҳида таъкидлади.

*Тузук – қонун, туркий ҳалқлар орасида амалда бўлган қонун қоидалар.

[1] Каримов И.А.Амир Темур фахримиз, ғуруримиз. «Ўзбекистон», Тошкент, 1998, 28-бет.

«Темур тузуклари» илмий жамоатчиликни деярли 500-600 йил мобайнида қизиқтириб келмоқда. Шу боис, Биринчи Президентимиз И.Каримов ўз асарлари ва чиқишларида «Соҳибқирон тузуклари» ва «ўгитлари» га тез-тез мурожат қилган, зеро келажаги буюк давлат қураётган эканмиз, ўтмишнинг маънавий тамойиллари бизни адолатли йўллардан юксак тараққиётга олиб бориши, шубҳасиз. Худди шу маънода Биринчи Президентимиз И.А.Каримов ёзувчилар билан бўлган суҳбатида бу ҳақда зўр мамнуният билан қуйидагиларни таъкидлади: «Амир Темур тузукларини ўқисам, худди бугунги замоннинг катта-катта муоммоларига жавоб топгандек бўламан, шунинг учун стратегияни жуда пухта ўйлаш керак. Балки ота-боболаримиз қолдирган меросдан фойдаланиб ўзимизга хос, ўзимизга мос стратегияни ишлаб чиқиш керак бўлади»[2].

«Темур тузуклари» да Амир Темурнинг таржимаи ҳолидан ташқари, давлат ва қўшинлар тузилиши, уларни бошқариш, шунингдек, Чиғатой улусининг 50 йилдан ортиқ давр (1342-1405) даги тарихига доир қимматли маълумотлар келтирилган. Амир Темурнинг ўз фарзандлари ва набираларига, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаолиятларига насиҳат сифатида баён этилган. Бу асар тарбиявий характерга эга бўлиб, дастлаб эски ўзбек тилида ёзилган. «Темур тузуклари»да асар халқаро миқёсда кенг жамоатчилик эътиборига тушганлиги туфайли, 1783 йил инглиз, 1785 ва 1791 йилларда ҳинд, 1868 йилда форс, 1787 йилда француз, 1830 йилда яна инглиз, 1845 йилда урду, 1894, 1934 йилларда рус ва 1835, 1857 йилларда (аммо тўлиқ эмас) эски ўзбек тилида, 1991, 2011 йилларда ўзбек тилида нашр этилган.

«Темур тузуклари» икки қисмдан иборат бўлиб, биринчи қисми Амир Темурнинг давлат бошқарувини ташкил этиш, уни мустаҳкамлаш ҳамда мукаммал қуролланган қудратли қўшин тузиш борасидаги режалари ва қарорларидан иборатдир. Асарнинг 13 кенгаш (қисм) дан иборат иккинчи қисмида эса Соҳибқироннинг давлат ва қўшин қудратини ошириш, душманларни бартараф этиш юзасидан ўтказган кенгашлари ва амалга оширган ишлари ўз ифодасини топган.

«Тузукларда» баён этилишича, Амир Темур давлатининг асосини 12 та ижтимоий тоифа ташкил этган бўлиб, бу тоифалар қуйидагилардан иборатдир; 1. Сайидлар, уламо, шайхлар; 2. Билимдон, фозил кишилар, 3. Дуогўй, тақводорлар, 4. Амирлар, қўшин бошлиқлари; 5. Сипоҳ ва раият (қора халқ); Салтанат ишлари бўйича кенгашишга лойиқ кишилар; 7. Вазирлар, саркотиблар ва девон битикчилари; 8. Ҳакимлар, табиблар, мунажжимлар ва муҳандислар; 9. Муҳаддислар (ҳадис олимлари) ва ровийлар (тарихшунослар); 10. Сўфийлар ва орифлар; 11. Ҳунар ва санъат аҳли; 12. Савдогар ва сайёҳлар.[3]

«Тузуклар» да таъкидланишича, давлатни идора қилишда вазирлар, олимларнинг роли катта бўлган. Шунинг учун ҳам Амир Темур уларни танлашга алоҳида эътибор берган. Улар садоқатли, ахлоқий пок, адолатпеша, тинчликсевар ва ташаббускор бўлиши лозим эди. «Тузук» га кўра, вазирлар тўрт сифатга эга бўлиши шарт эди: 1. Тоза насллик ва улуғворлик; 2. Ақлу фаросатлилик; 3. Сипоҳ ва раият аҳолини, улардан хабордор бўлиш ва ғамхўрлик қилиш; 4.Сабру бардошли, хушмуомалали бўлиш.[4]

«Тузуклар» да таъкидланишича, Амир Темур бир чети Чину Мочинга,[5] иккинчи чети Шомга бориб тақалган улкан мамлакатни қуйида вазифалари кўрсатилган 7 нафар вазири ёрдамида бошқарган. 1. Мамлакат ва раият вазири; 2. Сипоҳ вазири; 3. Даромад ва харажатлар вазири; 4. Салтанат ишларини юритувчи вазир; 5. Қози калон; 6. Жалол ул-ислом-фавқулодда ҳуқуқларга эга бўлган вазир; 7. Вазири девони иншо – бошқа мамлакатлар билан ёзишмалар девони бошлиғи.[6] Эл-юрт ободлиги, халқнинг фаровонлиги, салтанатнинг устиворлиги кўп жиҳатдан шу вазирларнинг ишбилармонлиги ва раҳбарлик қобилятларига боғлиқ бўлган.

«Тузуклар» да кўрсатилишича, Амир Темур солиқ тизими ва ободончилик ишларига ҳам алоҳида эътибор берган. «Амир қилдимки, -деб ёзади соҳибқирон, - ҳосил пишиб етилмасдан бурун раиятдан молу жиҳот олинмасин. Ҳосил етилгач, ҳосилни учга бўлиб олсинлар. Агар

[2] Элни ватан маърифати бирлаштиради. И.А.Каримовнинг бир гуруҳ ёзувчилар билан учарашуви. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси 30 апрель № 8. 1993. 2-бет.

[3] Темур тузуклари. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991. 64-65 бетлар.

[4] Ўша жойда. 74-75 бетлар.

[5] Чину Мочин- Хитой. Чин-Хитойнинг марказий ва шарқий қисми; Мочин-Жанубий Хитой, мочиннинг бўлак номи Табғачдир. Ўрта Чинни Хитой, қуйи Чинни Қашғар дейишган.

[6] Темур Тузуклари. Тошкент, 1991. 85-бет.

раият солиқ тўпловчи юбормасдан, солиқни ўзи келтириб берса, у ҳолда у ерга солиқ тўпловчи юбормасинлар. Агарда олиқ-солиқ олишга юборишга мажбур бўлсалар, улар солиқларни буйруқ бериш ва яхши сўз билан олсинлар; калтак, арқон ишлатиб, ишни уриш, сўкишгача олиб бормасинлар…. амр этдимки, кимда-ким бирон саҳрони обод қилса ёки кориз (ер ости сувларини тортиб чиқарадиган иншоат) қурса, ёки бирон боғ кўкартирса, ёхуд бирон хароба бўлиб ётган ерни обод қилса, биринчи йили ундан ҳеч нарса олмасинлар, иккинчи йили ўз розилиги билан берган нарсаларни олсинлар, учинчи йили қонун-қоидага мувофиқ хирож олсинлар».[7] Амир Темур солиқ солиш тартиби, миқдори ва уни ундириш ишларини ҳам кузатиб борган. Солиқ ва ўлпон йиғувчиларнинг фаолияти устидан доимий назорат ўрнатган.

Амир Темур қўшинлари яхши қуролланган, ташкилий жиҳатдан мукаммал, жанг пайтида тактика ва стратегия усулларидан яхши хабардор бўлган. У ташкил қилган қўшинлар тизими Ўғизхон ва Чингизхон қўшинлариникига ўхшасада, давр талабига кўра анча такомиллашган эди. Қўшинлар отлиқ ва пиёда аскарлардан иборат бўлиб, ҳарбий сафарбарликка чақирилган пиёда сипоҳ ўзи билан қалқон, қилич, болта, найза камон, 30 дона ўқ ва бир ойга етарли озуқа билан келиши лозим бўлган. Отлиқ суворийлар ҳарбий сафарбарлик даврида ўзлари билан бирга иккитадан от, соябон, бел, ўроқ, арра, болта, жуволдиз, 100 дона игна, арқон, чарм меш, қозон олишган. Ҳар 10 кишига битта чодир олинган.

Амир Темурнинг олижаноб хислатларидан бири бошқаларнинг гуноҳларини кечира билиши эди. «Менга ёмонликлар қилиб - дейилади «Тузуклар» да, - бошим узра шамшир кўтариб, ишимда кўп зиён-зарар етказганларни ҳам илтижо билан тавба-тазарру қилиб, келгач ҳурматлаб, ёмон қилмишларини хотиримдан ўчирдим. Мартабаларини оширдим, улар билан муомалада шундай йўл тутдимки, агар хотираларида менга нисбатан шубҳаю қўрқув бўлса, бутунлай унут бўларди[8]. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, Амир Темур гуноҳ қилган кишиларни фақат уч маротабагача кечирган.

Амир Темур хиёнаткор, очкўз, нафси бузуқ, зиқна ва хушомадгўй кишилардан нафратланган. «Қайси бир сипоҳий туз ҳақи ва вафодорликни унутиб, - дейилади «Тузуклар» да – хизмат вақтида ўз соҳибидан юз ўгириб, минг олдинга келган бўлса, ундай одамни ўзимга энг ёмон душман деб билдим».[9] «Тузуклар»да дўстлик, вафодорлик, иймон ва эътиқод, инсонпарварлик ва бошқа инсоний фазилатларга риоя қилиш, фуқороларнинг шариат қонун-қоидаларига бўйсуниши уқтириб ўтилади. Қозиларнинг қонунларга тўла амал қилиши, тартиб бузарларни жазолаш, сипоҳлар ва аскарларни сақлаш, уларни озиқ-овқат ва маош билан таъминлаш масаласи, вазирлар ва уларнинг вазифалари, амирлар, сипоҳлар ва бошқаларнинг хизматларини тақдирлаш тартиблари каби турли масалалар бўйича муфассал маълумотлар берилади. Хулоса қилиб айтганда, «Темур тузуклари» Амир Темурнинг оғир ва мураккаб ҳаёти, ўзининг хукумронлиги даврида халқ ва жамият манфаати учун жон куйдириши, қудратли давлати ва қўшинларини бошқариш ҳақида маълумотлар билан бир қаторда жамиятни идора қилиш ҳақида зарур сабоқлар беради.

Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, халқига мурувватли бўлган соҳибқирон бемаврид, бўлар-бўлмасга мол-хирож каби солиқлар солинишига қарши бўлган ва имконият даражасида халқни солиқлар тўлашдан озод қилиб турган. Бу ҳақда «Тузуклар»да шундай дейилади: «Амир этдимки раиятдан мол-хирож йиғишда уларни оғир аҳволга солишдан ёки мамлакатни қашшоқликка тушириб қўйишдан сақланиш керак. Негаки, раиятни хонавайрон қилиш (давлат) хазинани камбағалланишга олиб келади. Хазинанинг камайиб қолиши эса, сипоҳнинг тарқалиб кетишига сабаб бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида, салтанатнинг кучсизланишига олиб боради».[10]

Темурийлар даврида Мовароуннахр ва Хуросон савдогарлари Осиё мамлакатлари, айни замонда Буюк ипак йўли орқали Европа мамлакатлари билан ҳам савдо алоқалар ўрнатишган. Савдо-сотиқ алоқаларида Темур ва темурийлар томонидан забт этилган кумуш, мис тангалар

[7] Темур тузуклари. Тошкент, 1991, 99-бет.
[8] Темур тузуклари. 55 бет.
[9] Ўша жойда … 56-57 бетлар.
[10] Темур тузуклари. Тошкент 1991. 98 бет.

катта аҳамиятга эга бўлган. Улар Мовароуннахрда савдо-сотиқ муомаласини тартибга солишга ижобий таъсир кўрсатган.

Темурийлар даврида цивилизация янги босқичга кўтарилди. Аввало давлатчилик қонун-қоидалар пухта шаклланди. Соҳибқирон фан, маданият, санъат, маъморчиликнинг ибратли ҳомийси бўлди. Самарқанд, Бухоро, Туркистон, Хирот ва бошқа шаҳарларда расадхоналар, масжиду мадрасалар қурилди, мактаблар очилди. Санъат ва адабиётга эътибор кучайди. Айниқса, кутубхоначиликни ривожлантиришга, нодир қўлёзмаларни сақлашга доир ишлар эътиборга лойиқдир. Темурий шаҳзодаларидан Мирзо Улуғбек, Мирзо Шохруҳ, Мирзо Бойсунғур ва Ҳусайн Бойқароларнинг кутубхоналари ҳам ноёб турли адабий-бадиий, илмий китобларга бойлиги билан Амир Темурнинг Самарқанддаги кутубхонасидан қолишмаган. Биргина Улуғбек расадхонаси қошидаги кутубхонада қарийиб 15 минг китоб сақланган.

Мирзо Улуғбек ва унинг атрофида жипслашган олимлар – Қозизода Румий, Жамшид ал-Коший, Муҳаммад Ҳавофий, Али Қушчи каби олимлар астрономия, математика ва бошқа аниқ фанлар соҳасида муҳим кашфиётлар қилдилар. Улуғбек илмий мактабининг энг катта ютуғи, аввало, астрономия, математика, геометрия каби фанлар соҳасида муҳим кашфиётлар қилади. Улуғбек расадхонасида 1018 та юлдузнинг каталоги тузилиб, уларнинг харакати ўрганилди. Улуғбекнинг юлдузлар жадвали жахон астраномлари учун муҳим манба сифатида кўп маданий марказларда, хусусан Лондон, Париж, Данчигда, 1917 йили Вашингтонда ва бошқа шаҳарларда илмий изоҳлар билан чоп этилди.

Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Саккокий, Лутфий, Кошифий, Беҳзод каби ноёб истеъдод эгалари буюк гуманистик асарлар яратган бўлсалар, Низомиддин Шомий, Шарофиддин Али Яздий, Ҳафизу Абру, Мирхонд, Хондамир ва бошқалар ватанимиз тарихига оид муҳим маълумотлар қолдирдилар.

Улуғ донишманд, давлат арбоби сифатида шуҳрат қозонган Алишер Навоий ўзининг бутун ижодий фаолиятини ўзбек адабий тилини такомиллаштириш билан бир қаторда, жамият фаровонлиги, инсон бахт-саодати, юрт ободлиги, билимли, ақлли ва заковатли кишиларни етиштиришга бағишлади, кўплаб шогирдлар етиштирди. Унинг асарларида салтанатни ҳалокатга олиб келувчи сабаблар кўрсатилган. Алишер Навоий хукмдорлар ва амалдорларнинг мамлакат ободонлиги ва фаровонлигини таъминлашга ундаган. Амир Темур ва Темурийлар давридаги моддий, маданий ва маънавий тараққиётнинг ўлка халқлари бирлигини таъминлаш ва халқимиз ҳаётида тутган ўрнини инобатга олиб, бу даврни асосли равишда мамлакатимиздаги иккинчи ренессанс (уйғониш) даври деб ҳисоблаш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз лозимки, Амир Темур томонидан ёзилган «Тузуклар» Амир Темур ва темурийлар даврида давлатчиликни ривожланишида муҳим аҳамият касб этган ва бу муҳим асар бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмасдир.

**Фойдаланилган Адабиётлар.**

1. Каримов И.А. Амир Темур ҳақида сўз. Тошкент: «Ўзбекистон», 1996.
2. Каримов И.А. Амир Темур давридаги бунёдкорлик ва ҳамкорлик руҳи бизга намуна бўлаверсин. ЮНЕСКО қароргоҳидаги «Темурийлар даврида илм-фан, маданият ва маорифнинг гуллаб яшнаши» кўргазмасининг очилиши маросимида сўзлаган нутқ. 1996 йил, 24 апрель, Париж // Амир Темур фаҳримиз, ғуруримиз. Тошкент: «Ўзбекистон», 1998.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: «Шарқ», 1996.
4. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (Қадимги ва ўрта асрлар). Т., «Ўқитувчи», 1991.
5. Амриддин Бердимуродов. Гўри Амир мақбараси. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1996.
6. Ҳамид Зиёев. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири., Тошкент, 2010.
7. Зиядулла Муқимов, Худойёр Маматов. Амир Темур тузукларида давлат ва ҳуқуқ масалалари. Тошкент, «Янги аср авлоди», Т.2001.
8. Зиёдулла Муқимов. Амир Темур тузуклари (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Самарқанд, 2008.
9. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари), Тошкент, «Меҳнат», 1992 йил.

10. Темур тузуклари. Форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Хабибулло Кароматов таржимаси, Б.Ахмедов таҳрири остида. Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

11. Темур тузуклари. Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2011.

12. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмад. Ҳайдарбек Бобобеков. Масъул муҳаррир: Барнобек Эшпўлатов. «Шарқ» нашриёт-матбаа бош таҳририяти, Тошкент, 1997.

## AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI

**Rajabov R.**
**Navoiy davlat universiteti professori**
**Muhammadiyev D.R.**
**Navoiy davlat universiteti talabasi**

*“Adolat va tartib-intizom bilan davlatni mustahkamladim, raiyat ahvolidan doimo ogoh bo‘ldim.”*
*— “Temur tuzuklari”dan*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sharoitida Sohibqiron Amir Temurning siyosiy maydonga chiqishi hamda uning davlat boshqaruvi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sohibqiron tomonidan hududiy yaxlitlikni tiklash yo‘lida qadimiy turkiy an`anaviy qonun qoidalarni amalda oshirish jarayoni izchil yoritiladi. “Temur tuzuklari”da bayon etilgan siyosiy, huquqiy va axloqiy tamoyillar uning nazariy asosini tashkil etgani ko‘rsatib beriladi. Amir Temur yaratgan boshqaruv tizimi o‘z davri uchun mukammal shakl bo‘lib, markazlashuv, adolat va kelishuv asosida boshqaruv tamoyillariga asoslangan holda keyingi turkiy imperiyalarning davlatchilik taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Movarounnahr, davlat boshqaruvi, markazlashgan hokimiyat, siyosiy tizim, “Temur tuzuklari”, shariat, yasa, turkiy davlatchilik, mo‘g‘ul an’analari, institutsional tizim, vazirlik tizimi, devon, ijtimoiy tuzilma, siyosiy barqarorlik, milliy ong, umumturkiy g‘oya, tarixiy jarayonlar.

**Abstract:** This article examines the state governance system of Amir Temur in the context of the political instability of 14 th century Movarounnahr. It analyzes the factors that led to the formation of a centralized state and highlights Temur’s role in unifying fragmented territories. The study focuses on the combination of Turkic-Mongol traditions and Islamic law as the foundation of his governance.Special attention is given to the three main pillars of his state system: a competent ruler, an effective administrative structure, and a strong military. The principles of justice, centralization, and consultation are also emphasized.In conclusion, Amir Temur’s governance model is evaluated as a strong and well-organized system that ensured political stability and influenced later state formations

Mamlakatimiz va jahon tarixida Sohibqiron davridagi davlat boshqaruv tizimi aholida o‘ringa ega. Amir Temurning siyosiy maydonga chiqishi Movarounnahr hududida uzoq vaqt davom etgan siyosiy beqarorlik, urug‘ qabila yo‘lboshchilarining mustaqil boshqaruvga intilayotgan sharoitida yuz berdi. Amir Temur hokimiyatga kelguniga qadar oliy hokimiyat butun bir xon urug‘iga mansub edi, ammo urug‘ qabila yo‘lboshchilari amalda xonga tobe emas edilar. XII–XIV asrlarda bu urug‘lar qabila yo‘lboshchilari muayyan hududlarga hokimlik qilgan bo‘lsalar-da, ular to‘laqonli siyosiy hokim sifatida shakllanmagan edi. Urug‘ qabila yo‘lboshchilari ma`lum bir hududda cheksiz hokimiyat egasi edilar va ular xon hokimiyatining kuchayib ketishiga yo‘l qo‘ymas edilar va qarshilik qilar edilar. Ularning hokimiyati ko‘proq qabilaviy va an’anaviy asosga tayangan bo‘lib, huquqiy jihatdan mustahkam tizim shakllanmagan edi. Muiniddin Natanziyning ma`lumot berishicha, XIV asr o‘rtalariga kelib, Chig‘atoy ulusi (1227–1370) chuqur inqirozga yuz tutib, mamlakat amalda bir-biri bilan kurashayotgan mayda mustaqil hokimliklarga bo‘linib ketdi. Xon

hokimiyati zaiflashib, siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Keshda Hoji Barlos, Xo‘jandda Boyazid Jaloyir, Balxda Amir Husayn, Shibirg‘onda Muhammad Xoja Apardi kabi mahalliy amirlar o‘zaro kelishmovchilikda hukmronlik qilib, bir-birlariga nisbatan kibr va dushmanlik kayfiyatida edilar. Bu davrdagi siyosiy beqarorlikning asosiy omillaridan biri – qariyb bir yarim asr davom etgan mo‘g‘ullar bosqini va uning og‘ir oqibatlari edi. Mo‘g‘ul istibdodi mamlakatda davom etar, tashqi xavf Tug‘luq Temurxon yurishlari kabi bosqinlar ehtimoli saqlanib qolgan edi. Shu bilan birga, Chig‘atoy ulusining ikkiga bo‘linishi natijasida Ikki daryo oralig‘ida mahalliy hukmdorlarning o‘z boshimchaligi kuchaygan, har bir kuchli qabila o‘ziga xayrixoh xon xonadoni vakilidan birini xon qilib ko‘tarishga intilgan. Siyosiy institutlar nihoyatda zaiflashgan bo‘lib, Chig‘atoy xonlari amalda yirik qabila boshliqlarining qo‘g‘irchog‘iga aylangan edi. Natijada davlat boshqaruvi tizimi izdan chiqqan, qonun ustuvorligi mavjud bo‘lmagan. Aholi bilan hokimiyat o‘rtasida huquqiy bog‘liqlik shakllanmagan, mamlakat ko‘proq shaxsiy sadoqat va kuchga asoslangan tizim orqali boshqarilgan. Shunday o g‘ir bir sharoitda Movarounnahr hududida yagona ichki bozor shakllanib borayotgan, savdo-iqtisodiy aloqalar asta-sekin rivojlanayotgan edi. Etnik jihatdan qarindosh bo‘lgan turkiy qabilalarning birlashuvi jarayoni davom etar, umumiy madaniy va til birligi shakllana boshlagan edi. Eng muhimi, Chingizxon bosqini va undan keyingi davrda ko‘chmanchi turkiy qabilalarining o‘troqlashuvi hamda VII – X asrlarda boshlangan islomlashuv jarayoni yanada mustahkamlanib, o‘troqlashuv jarayoni bilan birga kechayotgan edi. Shunga qaramay, bu davrda milliy ong, xalq birligi va umumturkiy g‘oya hali to‘liq shakllanmagan edi. Davlat huquqi va siyosiy tartib-qoidalar ham yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, hokimiyat ko‘pincha vaqtinchalik va shaxsiy kuch asosida qo‘lga kiritilar edi. Yuqorida keltirilgan omillar mustaqillikni davr talabiga aylantirib qo‘ygan edi. Aynan shunday tarixiy sharoitda Amir Temur siyosiy maydonga chiqdi

Garb tarixchi olimlari T. Lenz va G. Lourining ta’kidlashicha „Amir Temur saltanati nafaqat harbiy kuch bilan barqaror turgan, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda qadimiy turkiy an’analarining eng maqbul jihatlari saqlanib qolganligi ham davlatni mustahkamlashda muhim omil bo‘lgan”.

Hind olimasi M. Daydar ham davlat boshqaruv institutlarida o‘troq va ko‘chmanchi aholi madaniyatining aks etganini, har ikki qatlam madaniy an’analarining davlat tizimiga singdirilganini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bu omillar davlat mustahkamlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, u barcha sohalarda turkiy davlatchilik an’analari ustun bo‘lganini qayd etadi.

Fransuz olimi Jan-Pol Rou esa boshqaruv tizimida o‘troq va ko‘chmanchi aholi, turli diniy, milliy va etnik qadriyatlarning uyg‘unlashganini va ular manfaatlari o‘rtasida muvozanat topilganini ta’kidlaydi. Bu omillar mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda chig‘atoy zodagonlarining bilim va tajribasidan foydalangan, shu bilan birga ularning kuchini muvozanatlab, markaziy hokimiyat ustidan to‘liq nazorat o‘rnatishga erishgan. Shuningdek, Temur mo‘g‘ullar davrida zaiflashib qolgan islom dinining ta’sirini tiklash va kuchaytirishni, o‘z qo‘l ostidagi xalqlarning tinchligi, iqtisodiy barqarorligi, qonuniylik va adolatni ta’minlashni o‘z siyosatining asosiy maqsadlaridan biri qilib belgiladi. Amir Temur turkiy xalqlarning umumiy manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi va o‘z oldiga turkiy xalqlar yashayotgan barcha hududlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatish vazifasini qo‘ydi. Bu jarayon 1370-yilda bo‘lib o‘tgan qurultoyda uning Movarounnahr hukmdori deb e’lon qilinishi bilan yakunlandi.

Sohibqiron hokimiyatining boshqa urug‘ qabila yo‘lboshchilaridan farqi shundaki, uning hokimiyati jamoaviy yoki faqat hududiy emas, balki markazlashgan, siyosiy va milliy xarakterga ega edi. Amir Temur mamlakatni oddiy bosib olish yo‘li bilan egallagan hukmdor emas edi. Aksincha, u xalq ichida shakllanib borayotgan birlik tuyg‘usi, milliy ong va umumturkiy g‘oyani siyosiy maydonga olib chiqqan tarixiy shaxs sifatida namoyon bo‘ldi. Uning faoliyati nafaqat harbiy muvaffaqiyatlar, balki chuqur ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq edi.Temur o‘zidan oldingi hukmdorlarga hurmat bajo keltirgan holda, mavjud boshqaruv an’analarini to‘liq inkor etmadi. Temur tuzgan davlat boshqaruvi shakli o‘lkamizda qadimdan shakllangan turkiy davlatchilik ana’nalari, qadriyatlarini o‘zlashtirgan holda tuzildi. Xususan, Sohibqiron ko‘chmanchi turk jamiyatiga xos bo‘lgan “yasa” qonun-qoidalarini saqlab qoldi. Bu esa davlat boshqaruvida davomiylik tamoyilining saqlanishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, Amir Temur turk urug‘-qabilalarida avvaldan shakllanib borayotgan islomiy ma’naviy ongni mustahkamlashga alohida

e’tibor qaratdi. U islom olamida keng tarqalgan va e’tirof etilgan shariat ahkomlarini davlat boshqaruvining muhim asoslaridan biri sifatida qabul qildi.

Bu haqda “Temur tuzuklari”da quyidagicha bayon etiladi: “Bizning Oliy maqsadimiz Allohning dini va Muhammad (s.a.v.) sunnatlarini butun jahon bo‘ylab yoyish hamda islom shariatiga qat’iy amal qilishdan iboratdir.”Mazkur yondashuv Temur siyosatida diniy qadriyatlar va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi uyg‘unlikni yaqqol ko‘rsatadi.

Turk olimi, professor Ismoil Aka ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlab, Amir Temur faoliyatiga quyidagicha baho beradi:„ Musulmon muhitida tarbiya topgan va o‘zi ham musulmon bo‘lgan Amir Temur qadimgi turk va mo‘g‘ul an’analarini saqlab qolishga harakat qilgan, shu bilan birga “yasa”ni ham e’tibordan chetda qoldirmagan”. Uning ta’kidlashicha, mo‘g‘ullardagi “osmon ostida bitta quyosh va oy bo‘lsa, yer yuzida ham bitta hukmdor bo‘lishi kerak”, degan g‘oya Temur davrida ham davom etgan. Tarixchilardan biri Amir Temurga quyidagi fikrni nisbat beradi: “Dunyo ikki hukmdorga yetadigan darajada keng emas. Tangri qanday yagona bo‘lsa, sulton ham yagona bo‘lishi kerak”.

Amir Temur ushbu g‘oyani ilgari surganda o‘zining mutloq hokimiyatini emas balki, butun xalqining manfaat va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda markazlashgan davlatni barpo etishni ko‘zlagan. Chunki, faqat markazlashgan davlatgina mamalakat aholisining ijtimoiy - iqtisodiy manfaat va ehtiyojlarini to‘laqonli ta`minlay oladi. Bu fikrlar Temur hokimiyatining mutlaq va markazlashgan xarakterga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Amir Temur davlatchiligimiz taraqqiyotida beqiyos xizmat qilgan. U azaldan mavjud bo‘lgan turkiy davlatchilik ana`analari va qadriyatlarini saqlab qolgan holda va bu turkiy davlatchilik qadriyatlarining bir ko‘rinishi bo‘lgan Chingizxon davridan meros bo‘lib qolgan “yasa” qonunlarini va islom shariat ahkomlarini mohirona uyg‘unlashtira oldi. Ana shu turli manbalardan olingan boshqaruv tamoyillarining uyg‘unlashuvi davlatning asosiy qonuniy poydevorini mukammalligini tashkil etdi. Bu tizim o‘z ifodasini “Temur tuzuklari”da topgan bo‘lib, u davlat boshqaruvining muhim nazariy va amaliy asosiga aylangan edi. Ingliz tarixchisi A. K. Lambton o‘rta asr islom mamlakatlarida davlatchilik va hukmdorlik masalalariga bag‘ishlangan asarida davlatning diniy g‘oya va siyosat poydevoriga qurilishi odat, ayniqsa islomiy davlatlarda an’ana bo‘lib kelganligini alohida ta’kidlaydi.

Sohibqiron davlat boshqaruvining asosiy poydevorini uch ustunda ko‘radi:

Har tamonlama yetuk hukmdor;

Arkoni davlat;

Qo‘shin.

Sohibqiron Amir Temur bu xususida shunday deydi: “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash bilan, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim”. Amir Temur o‘zining boy siyosiy va harbiy tajribasidan kelib chiqib, davlat rahbari qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligini aniq va tizimli ravishda bayon etgan “…podsho o‘z hukmini mustaqil yuritishi, hech kim uning qaroriga aralasha olmasligi, davlat ishlarida yagona hukmdor bo‘lishi zarur…” ligini ta’kidlaydi va davlat hokimiyatini mustahkamlashida asos bo‘lgan o‘n ikki qoidani har bir hukmdor uchun zaruriy dasturulamal deb hisoblagan. Uning ta’kidlashicha, agar hukmdor ushbu tamoyillarga ega bo‘lmasa yoki ularga amal qilmasa, u saltanatdan bebahra qolishi muqarrar. Hukmdorning eng muhim fazilatlaridan biri qat’iyat va mustaqillikdir. Adolat esa Temur boshqaruv tamoyilining asosiy ustunidir. U davlatni “adolat shami” va “beg‘arazlik nuri” bilan boshqarish zarurligini ta’kidlaydi. Hukmdor kibrdan yiroq bo‘lishi, boy va kambag‘alni teng ko‘rishi, hech kimni boshqasidan ustun qo‘ymasligi kerak. Agar hukmdor o‘z raiyati yoki amaldorlarining mol-mulkiga tama qilsa, bu uning davlat poydevorini yemirishiga tengdir. Davlat boshqaruvida ogohlik va hushyorlik ham muhim o‘rin tutadi. Amir Temur o‘z tajribasida hatto yaqin majlisdoshlari orasida ham josuslar bo‘lganini qayd etib, doimo hushyorlikni tavsiya etadi. Shu bilan birga, Sohibqiron kengash va maslahatni davlat boshqaruvining muhim unsuri sifatida baholaydi. U “kengashsiz saltanatni johil odam ishiga” qiyoslab, hukmdor olimlar, tajribali siyosatchilar va donishmandlar bilan maslahatlashib ish tutishi zarurligini ta’kidlaydi. Biroq yakuniy qaror har doim hukmdorning o‘ziga tegishli bo‘lishi kerak. Hukmdor shaxsining ma’naviy qiyofasi ham alohida ahamiyatga ega. Amir Temur ikki katta illatdan ogohlantiradi: birinchisi – nafsga berilish, ikkinchisi – imkoniyatni qo‘ldan boy berish. Hukmdor

va’dasiga sodiq bo‘lishi, rostgo‘y bo‘lishi, haqiqatni yolg‘ondan ajrata bilishi va xato qilganlarni kechira olish darajasida bag‘rikeng bo‘lishi zarur.

Bundan tashqari, Amir Temur kuchli davlat qurishda kadrlar siyosatiga katta e’tibor qaratgan. U “asli toza, nasli pok” kishilarni lavozimga tayinlashni ma’qullagan, chunki bunday kishilar sadoqatli va ishonchli bo‘ladi. Aksincha, ayniqsa fitnachi va makkor amaldorlarni aniqlab, ularning faoliyatini nazorat ostida ushlab turishi lozimligini ta`kidlab, nasli nopok kishilar davlatga zarar yetkazishi mumkin deb hisoblagan. Shu bois vazir va amaldorlar tanlovida axloqiy poklik, tajriba va bilim muhim mezon sifatida qaralgan. Amir Temur davlat boshqaruvida markaziy boshqaruv apparatining asosini vazirlik tizimi tashkil etgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, davlat boshqaruvida yetti vazir ( Tarixchi olim Azamat Ziyo sakkizinchi vazirlik “adliya vazirligi“ ham bo‘lgan deb ta`kidlaydi) faoliyat yuritgan. Ushbu vazirlar moliya, harbiy ishlar, raiyatni boshqarish, davlat daromadlari va tashqi aloqalar kabi muhim strategik sohalarga mas’ul bo‘lganlar. Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvida amaldorlar sonining ehtiyojdan ortiqcha ko‘payib ketishini qat’iy nazorat qilgan. Davlat apparati yuqori darajada tashkil etilgan, ixcham va samarali boshqaruv tizimiga ega mukammal tuzilma sifatida shakllantirishga erishgan.Vazirlar faoliyati muayyan ierarxik tizim asosida tashkil etilib, ular devonbegi boshchiligidagi oliy boshqaruv organiga bo‘ysungan. Amir Temur oliy amaldorlarning faoliyatini doimo o‘z nazorati ostida ushlab turgan. Devonbegi markaziy ijroiya hokimiyatining muvofiqlashtiruvchi subyekti sifatida barcha vazirliklar faoliyatini nazorat qilgan va bevosita hukmdorga hisobot berib turgan.

Bu tizim davlat boshqaruvida qat’iy markazlashuv va samarali nazorat mexanizmlarini ta’minlagan. Har bir vazir o‘z sohasida mustaqil faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, umumiy siyosiy strategiya markaziy hokimiyat tomonidan belgilangan. Bu esa boshqaruv takrorlanishga yo’l qo’ymay tizimda muvozanat va uyg‘unlikni ta’minlagan. “Temur tuzuklari”da qayd etilishicha, vazir davlatning uch asosiy tayanchi – mulk, xazina va lashkarni muvozanatda ushlab turishi lozim. Bu esa vazirlik tizimi nafaqat ijroiya boshqaruv organi, balki davlat barqarorligini ta`minlash omillaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Temur davlatida markaziy boshqaruv bilan bir qatorda mahalliy boshqaruv tizimi ham rivojlangan. Viloyat va uluslarda mahalliy boshqaruv organlari faoliyat yuritib, ular markaziy hokimiyat siyosatini amalga oshiruvchi ijro etuvchi muhim bo‘g‘in vazifasini bajargan. Bu esa davlat boshqaruvida markaz va hududlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlagan. Amir Temur davlat boshqaruvi ta`limotida hukmdor shaxsining komilligi va boshqaruv tizimining mukammalligi o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. U yaratgan tizim adolat, markazlashuv, qat’iyat, maslahat va professional boshqaruv tamoyillariga asoslangan bo‘lib, kuchli va barqaror davlat barpo etishda muhim tarixiy tajriba sifatida e’tirof etiladi.

Sohibqiron ishlab chiqqan bu tizim keyingi turkiy imperiyalarning qonuniy asosi qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatib berdi . AQShlik sharqshunos X. Gibboning iborasi bilan aytganda, “XV asr birinchi choragidan boshlab to shu davrning oxirigacha islom olamida siyosiy kuchlarning qayta taqsimlanishi ro‘y berdi”.

XIV–XV asrlardagi usmonli turklar G‘arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikadan to Marokash chegaralarigacha hududlarni egallab oldilar. Safaviylar Eronida shialar davlatini tuzdilar. O‘rta Osiyoda o‘zbek davlatlari, Hindiston va Afg‘onistonda boburiy hukmdorlar davlati buyuk imperiya mavqeiga ega bo‘lib, o‘z qonun-qoidalari, diniy va boshqaruv tartiblari, siyosiy, iqtisodiy va madaniy poydevoriga temur tuzuklarini amalga tadbiq qilishda keng foudalanishga ega bo‘ldi. Turk tarixchisi Mustafa Alining yozishicha:

1. Qonuniy mustaqillik oliy hukmdorning tajribasi, hokimiyatning vazifalari va mas’uliyati, qo‘shinni nazorat qila olishi, huquq va xususiy mulkchilikni qat’iy himoya qilishi bilan asoslanadi.
2. Har bir musulmon hukmdor shariatga, uning ruhi va har bir harfiga amal qilishi lozim.
3. Umuman musulmon hukmdor adolat va haqiqatning qo‘riqchisi bo‘lgan qozidan yuqori turadi.

Amir Temur davlati muvaffaqiyatlarining sir-asrorlarini o‘rganish hozirgi davrda va kelgusida ham dolzarb bo‘lib qolaveradi. Chunki uning davlati har tomonlama yetuk va metin poydevorga ega tayangan davlat edi.

**XULOSA:**

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning siyosiy faoliyati Movarounnahr hududida uzoq davom etgan siyosiy parokandalik, boshqaruv tizimidagi inqiroz sharoitida markazlashgan davlat barpo etish zaruratidan kelib chiqqan holda shakllangan. U mavjud tarixiy sharoitni chuqur anglab, mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy bo‘linish, zaiflashgan markaziy hokimiyat va tashqi xavflarga barham berishga muvaffaq bo‘ldi. Amir Temur davlat boshqaruvida turkiy an`analarini mukammal aks ettirdi. U o‘zidan oldingi turkiy davlatchilikda mavjuda xos “yasa” qonunlarini saqlab qolgan holda, islom shariatini davlat boshqaruvining muhim normativ asosiga aylantirdi. Bu esa boshqaruv tizimida davomiylik va yangilanish uyg‘unligini ta’minladi. Bu uyg‘unlik xalqni tinch va farovon erkin bo‘lishi va har bir sohani rivojlanishiga olib keldi. Shuningdek, Sohibqiron davlat boshqaruvida markazlashgan hokimiyat, mutlaq rahbarlik, adolat va maslahat tamoyillariga alohida e’tibor qaratdi. “Temur tuzuklari”da bayon etilgan qoidalar davlatni samarali boshqarishning nazariy asosini tashkil etib, hukmdor shaxsining axloqiy fazilatlari va siyosiy mas’uliyatini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Amir Temur tomonidan shakllantirilgan boshqaruv tizimi nafaqat markaziy apparatning samarali faoliyatini, balki mahalliy boshqaruv organlari orqali davlatning yaxlitligini ta’minlashga xizmat qildi. Vazirlik tizimi, devon boshqaruvi va funksional taqsimot asosida tashkil etilgan institutsional tizim davlat barqarorligining muhim omiliga aylandi. Umuman olganda, Sohibqiron Amir Temur yaratgan davlat boshqaruvi o‘z davri uchun ilg‘or va samarali tizim bo‘lib, unda siyosiy, huquqiy va ma’naviy tamoyillar uyg‘unlashgan. Ushbu tajriba nafaqat o‘rta asrlar davlatchiligi uchun, balki bugungi kunda ham davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti uchun muhim tarixiy meros sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

1 . Temur tuzuklari. Fors tilidan tarjima: Alixon Sog‘uniy, Habibullo Karomatov. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi matbaa birlashmasi 1991.

2. Amir Temur davlat boshqaruvi. Sh. Uljayeva — Toshkent: Akademnashr, 2017.

3.Василий Бартольд. Царствование Тимура. — Санкт-Петербург: Императорская Академия наук, 1913; Москва: Ломоносовъ, 2014.

4 . Александр Якубовский. Тимур (Тамерлан). — Москва: Ломоносовъ, 2014.

5. Prof. Dr. İsmail Aka. Timur ve Devleti. — Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 2000

6 **.** Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy. **—** Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

7. Mustafa Ali. Essence of History. Translated by C. H. Fleischer. Princeton Univ. Press, 1986, p. 276.

8 . Gibb H. A. Studies on the Civilization of Islam. Beacon Univ. Press, Boston, 1962, p. 134.

9 . Lambton A. K. S. State and Government in Medieval Islam. Oxford, 1981, pp. 178–200.

## СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР КАРМАНАДА

**К.Йўлдошев**
**Педагогика фанлари доктори, профессор**
**Турон фанлар академияси академиги**

**Аннотация.** Мақолада Соҳибқирон Амир Темурнинг учинчи бор Хоразмга юриш қилганлиги ва шу пайтда Самарқандда нотинчлик бўлганлиги, шу муносабат билан Бухоро орқали қайтаётиб Кармана диёрида, Карманадаги Работи Малик карвонсаройида бўлганлиги, Кармана яқинидаги Қиёт қишлоғи атрофида катта жанг бўлгани ва унда шаҳзода Жаҳонгир Мирзо ғалаба қозонганлиги тўғрисида фикр юритилади. Мақолада келтирилган маълумотлар Низомиддин Шомий, Шарофиддин Али Яздий, Евгений Березиков, темуршунос олим Бўрибой Ахмедов ва бошқа олимларнинг асарларидан олинган.

**Abstract.** The article discusses the third campaign of Amir Temur to Khorezm, during which there was unrest in Samarkand, and in connection with this, on his way back through Bukhara, he visited the Karmana land, the Raboti Malik caravanserai in Karmana, and a major battle took place near the village of Kiyot near Karmana, in which Prince Jahongir Mirzo won. The information

presented in the article is taken from the works of Nizomiddin Shami, Sharofiddin Ali Yazdi, Evgeniy Berezikov, the Temur scholar Buriboy Akhmedov, and other scholars.

**Калит сўзлар:** Соҳибқирон, Марказий Осиё, Эрон, Кавказ, Озарбайжон, Ироқ, Шом, Кичик Осиё, Ҳиндистон, Мусте даври, стратегик, Шоҳ йўли, Зафарнома, Кеш, Хоразм, Мўғилистон, Оқ Ўрда, Жета, Кармана, Беклар, Кот, Хос, Бухоро, Добусия, отлиқ, жангчи, Сиғноқ, Ўрусхон, элчиси, совға – салом, тавба – тазарру, Қиёт, аскар, душман, Дашти Қипчоқ, музаффар, ўқ заҳми, моҳир қўмондон, Работи Малик карвонсаройи.

**Соҳибқирон Амир Темур Тарағай баҳодир ўғли** (1336–1405 й) Турон заминидан етишиб чиққан буюк давлат арбоби, ноёб тактикали ҳарбий саркарда, теран сиёсатчи ва улуғ цивилизация ривожига улкан ҳисса қўшган тарихий шахсдир. У Шарқ ва Ғарб тарихида "Соҳибқирон" – яъни «саодатли юлдуз остида туғилган буюк зафар эгаси» деган улуғ унвон билан шуҳрат қозонган. Амир Темур қурган салтанат XIV аср охири – XV аср бошларида Марказий Осиё, Эрон, Кавказ, Озарбайжон, Ироқ, Шом, Кичик Осиё, Ҳиндистоннинг шимолий ҳудудлари ва Рус ерларигача чўзилган улкан геосиёсий маконни қамраб олган. Соҳибқирон Амир Темур фақат моҳир саркарда бўлибгина қолмай, балки давлат бошқаруви, қонунчилик, иқтисодий ислоҳотлар, фан, меъморчилик ва маданият ривожига катта эътибор қаратган буюк шахс. Унинг "Темур тузуклари" асарида давлатни адолат, интизом ва қонун устуворлиги асосида бошқаришнинг мукаммал тизими баён этилади. Масалан: Бир тузукларида у ўзи ўрнатган тартиб-интизом ҳақида шундай ёзади: “Салтанатимда шу даражада адолатли тартиб ва интизом жорий қилдимки, агарда 10 ёшли болакайнинг қўлига олтин танга тўла бир тоғора туқазиб, уни сарҳадларимизни энг сўнгги чагарасига боришга буюрилса, тангаларнинг бир донаси ҳам йўқолмайди” [1].

Кармана Республикамиздаги қадимий шаҳарлардан бири ҳисобланади. Унинг тарихи милоддан аввалги 100 – 90 минг йилларга, яъни ўрта тош даври –даврига бориб туташади.

Шундай қадимий диёрда дунёни ларзага солган буюк Амир Темурдек шахс бўлганми деган савол кўпчиликни қизиқтиради, албатта. Биз ўз изланишларимиз даврида, бу масалани ўрганиб чиқиш жараёнида, кўплаб тарихий манбаларга мурожаат қилдик ва бир қадар ижобий натижаларга эришдик.

Амир Темур даврининг воқеанавис тарихчилари Соҳибқироннинг Кармана ҳудудида бўлганлиги тўғрисида кўплаб тарихий манбалар ёзиб қолдирганликларини гувоҳи бўлдик. Сунъий интеллектдан олинган маълумотларга кўра Амир Темурнинг Кармана (ҳозирги Навоий вилояти) ҳудудида бўлганлиги ва бу ернинг Темурийлар давридаги аҳамияти ҳақида тарихий манбаларда қизиқарли маълумотлар мавжуд.

Кармана ўзининг стратегик жойлашуви — Самарқанд ва Бухоро шаҳарларини боғловчи "Шоҳ йўли" устида жойлашганлиги сабабли, Амир Темур салтанати даврида муҳим стратегик аҳамиятга эга манзиллардан бири бўлган.

Соҳибқирон ўзининг ҳарбий юришлари давомида Карманада бир неча бор тўхтаб ўтган. Бу ерда қўшин дам олган ва кейинги юришларга тайёргарлик кўрилган.

Амир Темур ўз давлатини бошқаришда ҳудудий барқарорликка интилган. Кармана Бухоро ва Самарқанд ўртасидаги "дарвоза" вазифасини ўтагани учун, у ерда доимий назорат сақланган ва маҳаллий ҳокимлар бевосита марказга бўйсунган.

Тарихчи Шарафуддин Али Йаздийнинг “Зафарнома” асарида ҳам Амир Темурнинг Мовароуннаҳрдаги ҳаракатлари давомида Кармана ва унинг атрофидаги манзиллар тез-тез тилга олинади[2].

Соҳибқирон Амир Темурнинг Карманада бўлганлигини исботловчи асосий тарихий манба – Амир Темур даврида бевосита унинг топшириғи билан ёзилган тарихчи ва адабиётчи олим Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” асари ҳисобланади. Низомиддин Шомий Соҳибқирон билан бир неча марта учрашган, унинг жасорати ва шижоатини ўз кўзи билан кўрган, у билан суҳбатда бўлган.

Асарни ёзиш учун Амир Темур билан бирга юрган воқеанависларнинг ёзиб борган кундаликлари ва битиклари Низомиддин Шомий учун манба бўлиб хизмат қилган.

Асарда келтирилишича, 1375 йилда Амир Темур Кешда бўлган пайтда Хоразмда нотинчлик эканлиги тўғрисида хабар келиб, Юсуф Сўфи бир қанча тарафдорлари билан қўшин тўплаб, Бухоро устига юриш бошлагани билдирилади.

Амир Темур Хоразм томон отланар экан, “Мўғилистон ва Оқ Ўрда орасидаги муносабатлар бир қадар мураккаблашиб, мўғиллар Фарғона ҳамда Туркистон атрофида ғимирлаб қолишган эдилар. Моваравннаҳр ҳудудини хавф-хатардан қўриқлаш мақсадида ҳазрат Соҳибқирон дарҳол Амир Сори Буғо ва Одилшоҳни туманлари билан Жета ҳудудига юбора туриб, Амир Қамариддиннинг ҳатти – ҳаракатларидан воқиф бўлиб туришни тайинлайди”[3].

Амир Темур ишонган саркардалар хоинлик йўлига ўтадилар. Бу ҳақда Низомиддин Шомий асарда шундай келтиради: “Одилшоҳ вилоятни ҳоли топгач, Хитой Баҳодир ва Элчи Буғони олиб, Сори Буғо билан бирлашди ва ҳаммалари Амир Соҳибқиронга қарши бош кўтардилар, ўз эл ва лашкарларини йиғиб, Самарқанд қалъаси ва қўрғонини қамал қилмоқчи бўлдилар. Шаҳар аҳли ўқ-ёй ва новак заҳми билан уларни шаҳарни ўраб олишларига йўл қўймади. Қўрғон ҳокими Оқ Буғо Баҳодир эди. У Амир Соҳибқиронга хабар юборди. Бу вақтда Амир Соҳибқирон Котдан ўтиб, Хосга етган эди”[4].

Темуршунос олим Б.Ахмедовнинг ёзишича: Амир Темур бу хабарни эшитган чоғда “Юсуф Сўфининг элчиси катта совға – салому, тавба – тазарру ила битилган мактуб билан етиб келди”. Соҳибқирон шу ерда Хоразмга бошлаган учинчи юришини тўхтатиб, нотинч бўлган Самарқандга ўғли Жаҳонгир билан Кармана орқали йўлга тушади.

Одилшоҳ ва Сори Буғо ўзига яқин бўлган жалойир ва қипчоқ каби бир қанча элатларни тўплаб, Добусия қалъасидан ўтиб, Кармана яқинидаги Қиёт қишлоғи атрофларига яқинлашган эдилар.

Соҳибқирон лашкарлари билан келиб Работи Маликда тўхтайди. Ўғли Жаҳонгирни Кармана томон 20 минглик аскар билан душманга қарши йўллайди. “Жаҳонгир исёнчиларга Карманада етиб олди ва душманни бир зарба билан мағлубиятга учратди. Одилшоҳ билан Сори Буғо паноҳ излаб Сиғноққа – Ўрусхон ҳузурига қочдилар”[5].

Буюк Соҳибқирон Амир Темурнинг Карманада бўлганлигини келтирувчи яна бир тарихий манба Шарофиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” китоби ҳисобланади.

Ушбу китобдаги қуйидаги сатрлар Соҳибқироннинг Карманада бўлганлидан дарак беради: “Бекларким, ҳазрат Соҳибқирон аларни Жета сори йибариб эрди, Сори Буға билан Одилшоҳ вилоятни холи кўруб, бир-бири билан йаман андиша этиб, Хитойи Баҳодур билан Элчи Баҳодурни туттилар. Ва ҳамдиким, ҳазрат ани Андижон вилоятининг даруғаси қилиб эрди, алар билан иттифоқ қилди. Ва алар эллари билаким, жалойир ва қипчоқ эрди, барчани йиғиштуруб, Самарқанд устига юрдилар. Ва келиб шаҳарни қабол этиб тушдилар. Ва шаҳар эли ўқ заҳми била қўймадиларким, шаҳарнинг йақинида келгайлар. Ва Оқ Буғаким, шаҳарда ҳоким эрди, сурат соқеъани арзадошт этиб, ҳазратқа йибарди. Ҳазрат олий Кот (Хоразмнинг энг қадимги шаҳарларидан бўлиб, Амударёнинг ўнг соҳилида жойлашган, 995 йилгача, Хоразмшоҳлар давлатининг пойтахти Гурганчга (ҳозирги Туркманистонда Кўҳна Урганч) кўчирилгандан сўнг иккинчи даражали шаҳар бўлиб қолган, ҳозирги Беруний шаҳри) дин ўтуб, Хос (Хоразмда Котдан шимоли – ғарбда қарийиб 20 км масофадаги ўрта аср шаҳри, у Дархос деб ҳам аталган) га етиб эдиким, бу хабар етти. Андин қайтиб, амирзода Жаҳонгирни ўзидин илгари йибарди ва ўзи кейинда юриди. Ва Бухороға етканда андин ўтуб, Работи Маликка туштилар. Шаҳзода Кармана мавзеъида душманларға етиб, икки тарафдин сафлар тузатиб, уруш эттилар. Амирзода Жаҳонгир Тенгри иноятидин мухолифларға нусрат топиб, душманлар қочтилар ва Дашти Қипчоққа бориб, Ўрисхонға сиғиндилар. Ва ҳазрат Соҳибқирон музаффар ва мансур келиб Самарқандда тушди”[6].

Ўзбекистоннинг таниқли адибларидан бири Евгений Березиков ҳам ўзининг “Буюк Темур” номли роман-бадиасида бу воқеаларни шундай тасвирлайди: “Шаҳзода Жаҳонгирга йигирма минг отлиқ жангчи билан Бухоронинг Шимолий томонидан ўтиб, душманнинг орқа томонидан пайдо бўлиб қолишга кўрсатма берилди. Темурнинг ўзи эса Марказий йўналишни танлади ва тезда Бухоро яқинидаги Работи Маликда чодирни тикди. Худди шу маҳал Жаҳонгир Кармана яқинидаги душман қўшинларига юзма-юз келди ва дарҳол жангга киришди.... Моҳир қўмондон бўлиб етишаётган шаҳзода Жаҳонгир вазиятни тўғри баҳолади. У бир зарб билан Сора Буғо лашкарларини икки қисмга бўлиб ташлади. Жанг тақдири ҳал бўлган эди. Сори Буғо қолган - қутган отлиқ жангчиларини олиб Самарқандга шошди. Унга пешвоз чиқаётган Одилшоҳни эса Амир Темурнинг ўзи бошқараётган лашкар кутиб олди”[7].

Шундай қилиб, жаҳоннинг 30 дан ортиқ давлатларини ўзига бўйсундирган буюк бобомиз, Соҳибқирон Амир Темур бизнинг Кармана тупроғига қадами текканлигини фахр билан айта оламиз.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1.Амир Темур Кўрагон “Тузуки Темурий” – Тошкент, 1999.
2.Шарафуддин Али Йазди. Зафарнома Тошкент, “Янги аср авлоди” 2023.
3.Б.Ахмедов. Амир Темур, Тошкент, 1995, 191бет
4.Низомиддин Шомий. Зафарнома, Тошкент, 1995. 99 бет.
5.Б.Ахмедов. ўша китоб, 191, 192 бетлар
6.Шарафуддин Али Йазди. Зафарнома Тошкент, “Янги аср авлоди”2023. 117 бет.
7.Евгений Березиков. Буюк Темур. Роман-бадиа. Тошкент, 1996. 325 бет

## ИСПАН ЭЛЧИСИ РУЙ ГОНСАЛЕС ДЕ КЛАВИХОНИНГ “САМАРҚАНДГА, ТЕМУР САРОЙИГА САЁҲАТ КУНДАЛИГИ 1403-1406 ЙИЛЛАР” КИТОБИДА СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУРНИНГ ШАХСИЙ ҚИЁФАСИ

**Ҳайитов Шодмон Аҳмадович**
**БухДУ, тарих фанлари доктори, профессор.**
**Туйев Фазлиддин Эркинович**
**БухДПИ, т.ф.ф.д. (PhD), доцент.**

Соҳибқурон Амир Темурнинг ҳаёт йўли, ҳарбий маҳорати, давлатни бошқариш санъати ҳақида, шахсий хислатлари хусусида Ўзбекистонда ҳам, хорижда ҳам кўплаб тарихий ва адабий асарлар, илмий ва илмий публицистик мақолалар яратилди. Амир Темурнинг ташқи қиёфаси қадди-қомати, бўйи-басти унинг замондошлари томонидан замондошлари хотираларида баён этиб ўтилган Лэон ва Кастилия (Испания) қиролининг элчиси Гонсалес Клавихо (у Гомез Себезар ва Аланзо Пайез ҳамда 11 та хизматчи ҳамкорлигида) Амир Темур билан шахсий мулоқотларда бўлган, у билан юзма-юз келган шахслардан бири ҳисобланади. Испан ҳукумдори Энрики III (Генрих III Арагон) даврида мамлакат кучайиб (у 1379-йилда туғилган, 1393-1406-йилларда тахтни бошқарган) у 1402-йилда Амир Темур элчиси Муҳуммад ал-қози (Муҳаммад Кеший, Муҳаммад ал-кеший)ни қабул қилган, унга қўшиб уз элчиси Гонсалес де Клавихони Самарқандга – Темурбек ҳузурига юборган. Гонсалес де Клавихо испан аслзода (оқ суяк)лардан бири бўлиб, унинг отаси ҳам қирол саройида хизмат қилган. 1403-йил 22-май Испаниянинг Ҳадис портидан Темур пойтахти томон йўлга чиқиб, 1403-йил 8-сентабрда Самарқанд атрофидаги Мисрия қишлоғига етиб келган. Гонсалес де Клавихонинг ҳамроҳи магистр Томес Себезар йўлда касалланиб вафот этди. Бу ҳақда Гонсалес: “Темур табиблари тиббиёт соҳасида моҳир эканлар. Бироқ Гонсалесни узоқ йўл бўйлаб кўтариб юришган бўлсада, уни сақлаб қолишни иложи бўлмади” – деб ёзган.

Гонсалес де Клавихо, араб тарихчиси Ибн Арабшох, араб тарихчиси (тунеслик) Ибн Халдун, архиепископ Иоанн (жами 4киши) Амир Темур билан юзма юз келиб, ўз хотираларида у ҳақда маълумотлар ёзиб қолдиришган. Гонсалес де Клавихонинг хотира китоби 154 варақ бўлиб (309 сахифада) кейинчалик бир неча бор қисқартириб турли тилларда нашр етилган. Гонсалес де Клавихо 3 ой Самарқандда бўлган, 5 марта Амир Темур билан учрашган. Клавихо билан Амир Темур 20 га яқин мамлакатларнинг елчиларини Боғи Дилкушода қароргохи Кўксаройда қабул қилган. Элчилар орасида Миср элчиси хам бўлиб, у Амир Темурга совға-саломлар қаторида жирафа хам олиб келган. Амир Темур 1404 йлда Хитойга харбий юришга тайёрланаётган эди. Хитой салтанатида Мин сулоласи хукумронлик қилиб (1368-1644 йил) императорлар ўз давлатини “Ўртадаги салтанат” (Среднная Империя) деб аташар, атрофидаги давлатлардан ўзига тобе сифатида ўлпон талаб этишарди. Бу хукмронлик Сохибкирон Амер Темурниг нафсониятига тегиб, элчилар сафида энг бошда, юқорида турган. Хитой элчисини пастга ўтказишни буюрган. Элчилар қабулида Амир Темур бирма-бир барча давлатларнинг элчилари билан учрашиб улардан совға-саломларни қабул қилиб олган. Амир Темур билан юзма-юз келган. Гонсалес де Клавихо Соҳибқирон бир оёғини судраб олиши, қарилик сабаб кўзлари хиралашиб қолганини, лекин кўзларида ўткир

нигоҳ ва шиддат билан қараш сақланганини қайд этган. Амир Темур Гонсалес де Клавихога яқин келиб уни таниганидан сўнг, бу Европа давлатидан келган элчини “Дунёнинг нариги чеккасидан келган”, “ўғли” деб мурожаат қилган. Амир Темур ўз даврининг бўйи-басти, қадди-қомати баланд (170,7 см), қизил юзли, елкаси кенг, боши катта, қарашларида нигоҳи ўткир киши бўлганлиги, унинг вужудидан куч ва ғайрат ёниб турганлиги ҳақида Ибн Арабшох ҳамда архиепископ Иоанн хотираларида ёзиб қолдирилган. Ибн Арабшох Амир Темурнинг отаси “Тарағай Баҳодирга 10 та, Темурбекнинг ўзида 50 та навкарнинг кучи бор эди” -деб қолдиргани бежиз эмас. Бироқ Амир Темур Ибн Халдун (1332-1406) ва Гонсалес де Клавихо билан учрашган пайтида кексайиб, 70 ёшга яқин бориб қолган эди. Ибн Халдун (тунислик араб тарихчиси) ҳатто, Амир Темурнинг чўлоқ оёғини зўрға судраб босишини, отга эса ҳамроҳлари ёрдамида мингашганини ёзиб қолдирган. Гонсалес де Клавихо Амир Темурни фақат элчиларни қабул қилганида эмас, элчи ва яқинларига меҳмондорчилик ҳурматини кўрсатганида (Гонсалес де Клавихо 10 дан зиёд байрамлар ва издиҳомларда иштирок этган) ҳам кўрган. У Амир Темурни қабул маросимида, байрамларда кийиниши, шоҳона салобати, жиддий тортиб мулоқотда бўлишини ўз “Кудалиги”да тасвирлайди. У 1404 йил 22-сентабрда Самарқанд атрофидаги истироҳат маскани Конигилда муҳташам зиёфатда иштирок этган. Амир Темур саройининг маликаси Сароймулкхоним (Бибихоним, Катта хоним), Хонзодабегим (Кичик хоним)лар ҳам ушбу зиёфатда иштирок этгани, уларнинг қиёфаси, тўёна кийими, аёлларга кўрсатилган иззат-ҳурмат ҳақида элчи қизиқарли маълумотлар ёзиб қолдирган. Сароймулкхоним юзи оппоқ қоғозга ўхшаб қўриниши (кўп миқдорда пудра ишлатган), унинг кўйлагини 15 нафар канизак кўтариб борганлиги, бу малика давранинг энг юқори тўрига бориб жойлашганини Клавихо чиройли жумлаларда баён этган.

Клавихо шарқона кийиниш маданияти самарқандликларга ярашиб турганлиги, улар ёрқин рангларда бўлиб об-ҳаво ва табиат манзараси билан уйғунлигига диққатини қаратган 1402-йилда испан қироли Энрике ҳузурига юборилган Амир Темур элчиси Муҳаммад Ал-Коший Клавихо билан Самарқандга қайтиб келганида испанча (европача) кийиниб олган ва ҳаммани ҳайратда қолдирган эди.

Амир Темур Клавихо бошчилигидаги испан элчилари ва бошқа давлатлардан келган элчиларни неваралариниng никоҳ тўйларига таклиф этган. Бу элчилар кўзи олдида Соҳибқироннинг 6 ти невараси уйлантирилган. Оила қурган неваралар орасида энг ёши Улуғбек Мирзо (1394-1449) бўлиб, у 10 ёшда эди ва Ўзбекхоннинг невараси Ханика бегимга (баъзи манбаларда Оға бегим / Оғобегим шакли ҳам учрайди) унаштирилган. Амир Темур тўйда иззатли меҳмонлар олдига бориб меҳмондорчилик илтифотини кўрсатган. Тўй-базмларда дастурхонга тортилган ноз-неъматлар мўл-кўллиги ҳақида ёзар экан, Гонсалес де Клавихо қўйларни бутун ҳолатда пиширib келинганини (эҳтимол тандир кабобдир) ёзади. Тўйга ташриф буюрмай элчилар қароргоҳида қолганларга Темур назоратида шунча кўп гўшт ва мевалар бериб юборилганки, бу таомлар уларга 6 ойга етиши Клавихо томонидан қайд этилган.

Хуллас, Гонсалес де Клавихо 1403 йил 22 май денгиздан сафарга чиқиб (Кадис - сафар бошланган жой), Родос (греч. Ρόδος), Константинополь (ныне Стамбул), Трапезунд (Trabzon)дан ўтиб ўнлаб шаҳар ва қишлоқлар орқали 1404 йил 8 сентябрда Самарқандга келган. У 2 ой 13 кун Самарқандда бўлиб, сўнгра Испанияга қараб йўлга чиққан. У 10 минг км. йўл босиб, 1406 йил март ойида Лион ва Кастилияга етиб келган. Гонсалес де Клавихо ўз мамлакатига етиб келишидан 1 йилу 1 ой олдин Соҳибқирон Амир Темур Хитой ҳарбий сафари пайтида Ўтрор чегара шаҳрида (1405 йил 18 феврал) вафот этган эди.

Таъкидлаш жоизки, Гонсалес де Клавихонинг “Кундалиги” Амир Темур шахсияти, унинг давридаги тарихни ўрганишда энг муҳим ишончли манба сифатида қимматлидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Руй Гонсалес де Клавихо. Амир Темур Испания элчиси нигоҳида. Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Акмал Саидов. Таржимон У. Жўраев. -Тошкент: “Zamin nashr” нашриёти, 2019. -176 бет.

2. Руй Гонсалес де Клавихо. Самарқандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). // Масъул муҳаррир: Муҳаммад Али, таржимон. Очил Тоғаев. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2010. -147 бет.

3. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасидан: Рисола. Б.Аҳмедов, У.Уватов, Ғ.Каримов ва бошқалар. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. -312 бет.

4. Темур Тузуклари / форсча матндан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2012. -184 бет.

5. Ибн Арабшоҳ. Ажойб ал-мақдум фи тарихи таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) 1-китоб. Тошкент: “Меҳнат”, 1992. -328 бет.

6. Л. Керен, А. Сандов. Амир Темур ва Франсия. -Тошкент: “Адолат”, 1996. -88 бет.

7. Муҳаммадиев Н. Испан элчисининг саёҳатномаси. // Халқ сўзи, 2005. 7 апрел.

## TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQAND

**Qarshiyev Rustam Mordonovich**
**Tarix fanlari nomzodi, professor**
**Navoiy davlat universiteti**

Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari tarixida Temur va temuriylar davri alohida o‘rin tutadi. Bu davr iqtisodiyot va madaniyatning barcha sohalarida Uyg‘onish davri hisoblanadi. Z. M. Bobur Samarqandni uch marta boshqargan edi. Samarqand Sug‘d (Sug‘diyona)ning qoq yuragida vujudga kelgan. U haqiqatan ham tarixiy qabilalar ittifoqining tayanch nuqtasi sifatida bunyod etilgan. Bu shahar asrlar osha o‘rta Zarafshonning rivojlanishida muhim nuqta bo‘lib qoldi. Shaharning joylanishidagi strategik, iqtisodiy afzalliklar, ajoyib iqlim sharoiti, Movarounnahrning shimolidagi qulay geografik holat shubhasiz, ana shunga katta imkon beradi. Zarafshon vodiysining tabiatini Samarqand aholisi butun O‘rta Osiyoda birinchi o‘ringa qo‘yar edi. 1970-yili biz, samarqandliklar, butun jahon jamoatchiligi bilan birgalikda shahrimizning 2500 yilligini nishonlaganimiz tasodif emas edi. Endilikda esa mustaqil O‘zbekiston arxeologlari akademik A. Asqarov boshchiligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida bizning shahrimizning yoshini 3000 yil, deb belgilashga erishdilar.

Samarqandni butun musulmon Sharqining durdonasi, deb ham ataydilar. Samarqandning butun olamga taralgan shon-shuhrati Amir Temur tomonidan uning poytaxt etib tanlanishiga sabab bo‘ldi. Vaholanki, avvallari u o‘zining ona shahri Shahrisabzda o‘rnashib olishga bor kuchi bilan harakat qilgan edi. Mana endi u otasi, onasi va to‘rt o‘g‘lidan ikkitasini: Jahongir va Umarshayx bilan Samarqandda. U poytaxt — taxt-saroyi sifatida Samarqandda birinchilar qatorida Oqsaroy va boshqalarni qurdi.

Ma’lumki, 1220-yilda Chingizxon qo‘shinlari Samarqandni zabt etib, uni butunlay vayron etdilar. Shu jumladan, bosqinchilar sug‘orish kanalini, ya’ni suv tarmoqlarini ham buzib tashladilar. Bu sug‘orish kanali shahar aholisini 1500 yil mobaynida suv bilan ta’minlab kelgan edi. Bunday vayrongarchilik natijasida shahar aholisi to‘rtdan birga va hatto undan ham ko‘proqqa kamayib ketdi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab shahar aholisi asta-sekin ko‘paya boshladi. Samarqand aholisi sonining qayta o‘sib borishida Sohibqiron Amir Temurning xizmati juda beqiyosdir. U 1370-yildan boshlab Movarounnahrning oliy boshqaruvchisi bo‘lib qoldi. Shu paytdan boshlab Sohibqiron Samarqandni obodonlashtirishga astoydil kirishdi. Ana shu paytga kelib u “Sohibqiron” va “Amir” unvonlariga muyassar bo‘lgan edi. Akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold yozganidek, “Samarqand Temur zamonida dunyoning birinchi shahri bo‘lib qolishi kerak edi”. Bu fikrning ifodasi sifatida Samarqand tevaragida eng yirik musulmon mamlakatlarining nomini olgan Bag‘dod, Damashq, Misr, Sheroz, Sultoniya va shu kabi qator qishloqlar bunyod etildi. Mo‘g‘ullar tomonidan birinchi bor vayron etilgandan keyin 150 yil o‘tgach, shahar olti darvozali qal’a devori bilan o‘rab olindi. Samarqand tarixida birinchi bor to‘rt qavatli Ko‘ksaroy qasri, Bo‘stonsaroy qasri, Nuriddin Bosid maqbarasi qurildi. Amir Temur bu saroylarning har birini kichik bir qal’aga aylantirdi.

Shunday qilib, Temur va temuriylar davridagi Samarqand tarixi Movarounnahr saltanatida alohida o‘rin tutadi. Xuddi mana shu davrda birinchi bor ajoyib me’morchilik yodgorliklari paydo bo‘lgan edi. Ular bilan Samarqand etti mo‘jizali shahar sifatida tarixga kirdi. Amir Temur qurdirgan me’morchilikning ajoyib yodgorligi Bibixonim katta masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, mashhur Shohizinda qabristonini eslab o‘tish kifoya. Mirzo Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasi, shahar tashqarisida bunyod etilgan, o‘n beshta bog‘ ham ana shunday ajoyib me’morchilik yodgorliklaridir.

Sohibqiron Amir Temur Kushondorbos maqbarasi qurilishiga yuksak iqtisodiy va siyosiy did bilan yondashgan. U go‘yo Makka va Madinani eslatuvchi muqaddas qadamjo barpo etmoqni niyat qilgan edi. Amir Temurning fikricha, muqaddas Shohizinda Makkaning o‘rnini bosishi lozim edi. Uning poytaxti Samarqand esa, jahonning birinchi shahri bo‘lib qolishi kerak edi.

Samarqandning yuragi — Registonning obodonlashtirilishi Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liqdir. 1417-yilda Mirzo Ulug‘bek monumental yodgorliklardan biri bo‘lgan Registon maydonidagi madrasaga birinchi g‘ishtni qo‘ygan edi. O‘sha zamonlardan beri to hozirgi kunlargacha Registon turli katta yig‘inlar o‘tkaziladigan joy bo‘lib qoldi. Me’morchilik sohasida esa butun feodal Sharqning ulkan me’morchilik san’ati namunasi hisoblanadi. O‘zbek olimi, ulkan davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek me’morchilikka doir yirik bir asar yaratdi. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi va madrasasi negizida XV asrning 30-yillarida tariximizda birinchi o‘zbek fanlar akademiyasi vujudga keltirildi. Shu munosabat bilan mavlono Alisher Navoiy Ulug‘bek haqida bunday deb yozgan edi:

Temirxon naslidan Mirzo Ulug‘bek,
Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek,
Rasadkim bog‘ida zeb jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.

## МУСТАҚИЛЛИК, МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ВА АМИР ТЕМУР ОМИЛИ

**Ойбек Абдимўминов,**
**тарих фанлари доктори (DSc), доцент**

**Мустақиллик ва ўзликни англаш сари.** Ўзбекистон мустақиллиги миллий қадриятларнинг қайта тикланиши ва қадр топиши учун сиёсий ва маънавий имконият яратди. Мустақиллик насимлари туфайли азалий ва абадий қадриятларимиз, муқаддас динимиз, урф-одатларимизнинг дунёга бўй кўрсатиши учун ҳам замин яратди. Шунингдек, жаҳон тарихида ўчмас из қолдирган, дунё илм-фани, маданияти, маънавияти, тамаддунига беқиёс ҳисса қўшган буюк аждодларимизнинг илмий ва ижодий мероси ҳам қайта тикланди. Бир сўз билан айтганда тарихий адолат ва ҳақиқат қарор топди. Шу билан бир қаторда улуғ аждодларимизнинг беқиёс, нодир илмий ва ижодий меросини, амалга оширган улуғ тарихий ишларини жаҳон миқёсида танитиш борасида ҳам қатор ишлар амалга оширилди.

Ватанимиз тарихидаги улуғ алломалар, мутафаккирлар, миллий ва диний қадриятларни қайта тиклаш, уларни сақалаб қолиш, келажак авлодларга етказиш борасида кенг халқаро алоқалар ҳам йўлга қўйилди. Бу борда Ўзбекистон кўплаб халқаро маданий ва илмий ташкилотлар билан ўзаро самарали алоқаларни йўлга қўйган. Хусусан, БМТнинг фан, таълим ва маданият масалалари бўйича махсус ташкилоти ЮНЕСКО ана шундай ташкилотлар жумласидандир.

Ўзбекистон ва ЮНЕСКО ҳамкорлигида бир қатор қадимий шаҳарлар, буюк алломалар, тарихий шахслар, миллий қадриятларнинг юбилей саналари халқаро миқёсда нишонланди. Ўзбекистонда ЮНЕСКО доирасида тарихий шахслар юбилей саналарини халқаро миқёсда ўтказиш тадбирлари дастлаб шоҳ ва олим, темурийлар сулоласи вакили Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллигини нишонлаш билан бошланди[11]. Бу борада БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси ва ЮНЕСКО билан алоҳида қўшма тадбирлар тадбирлар режаси ишлаб чиқилиб, Мирзо Улуғбек юбилей санаси халқаро миқёсда нишонланди.

Амир Темур ҳақли равишда нафақат Ўзбекистон тарихида, балки жаҳон тарихида ҳам улкан из қолдирган буюк тарихий шахсдир. Шу сабабли ҳам АҚШлик олим, сиёсат арбоби Америка ташқи сиёсатининг асосий жиҳатлари ҳақида ёзилган “Буюк шахмат тахтаси” китобининг муаллифи Збигнев Бжезинский “бу мамлакатнинг (Ўзбекистоннинг) янги сиёсий элитаси янги давлатни соҳибқирон Амир Темур ўрта асрларда барпо этган улкан империянинг бевосита вориси деб эълон қилди. Амир Темур давлатининг пойтахти Самарқанд дини ислом, илму нужум ва санъатни ўрганиш бобида машҳур минтақавий марказга айланган эди”[12], деб қайд этган эди. Ҳақиқатдан ҳам Амир Темур Ўзбекистон тарихидаги буюк сиймо, тарихий шахс, давлат ва сиёсат

[11] ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 824-йиғма жилд, 2-варақ.
[12] Бжезинский З. Буюк шахмат тахтаси. – Тошкент: 2022. – Б. 180.

арбоби бўлиши билан бирга фан ва маданият ҳомийси, улуғ бунёдкор ҳукмдор сифатида умумжаҳон тарихида намоён бўлади.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.Каримов ҳақли равишда таъкидлаганларидек, “Мамлакатимиз истиқлолга эришгач, Амир Темур шахси яна Ватан ва миллат тимсолига айланди. Истиқлолимизнинг ҳар бир тадбирида, мустақил давлатимизнинг ҳар бир қадамида ул буюк зот руҳи бизга ҳамроҳу ҳамнафас бўлиб қолмоқда. ...Амир Темур–бизнинг шаън-шавкатимиз, ғурур-ифтихоримиздир. Амир Темур–халқимиз даҳосининг тимсоли, маънавий қудратимиз рамзи”[13]га айланди. 1996 йил мамлакатимизда “Амир Темур йили” деб эълон қилинди. 1996 йил 29 декабрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. 1996 йил соҳибқирон Амир Темурнинг 660 йиллик таваллуди халқаро миқёсда бевосита ЮНЕСКО билан ҳамкорликда нишоланланди. ЮНЕСКО қароргоҳида “Темурийлар даврида фан, маданият ва маърифатнинг гуллаб-яшнаши” мавзусидаги кўргазма очилди.[14] Кўргазмага ташриф буюрганлар хусусан, Франция Президенти Жак Ширак, ЮНЕСКО Бош директори Ф.Майор ва бошқалар Амир Темур ва темурийлар даври илмий ва маданий мероси, шунингдек, темурийлар даврига бағишланган нодир асарлар, халқ амалий санати намуналари билан танишдилар. Дунёнинг турли ҳудудларидан келган темуршунос олимлар иштирокидаги “Темурийлар даврида фан, маданият ва маърифатнинг гуллаб-яшнаши” мавзусидаги конференцияда 16 та йирик илмий маърузалар[15] тингланиб, соҳибқирон Амир Темурнинг буюк бунёдкор, ижодкор шахс, фан ва маданият ҳомийси, улуғ маънавий салоҳият соҳиби эканлиги жаҳон олимлари томонидан халқаро миқёсда эътироф этилди.

Шуни ҳам таъкидлаш ўринлики, соҳибқирон Амир Темур таваллудининг 660 йиллиги муносабати билан уни жаҳон миқёсида тариғибот ва ташвиқот қилишда ўзининг муносиб ҳиссасини қўшган ЮНЕСКОнинг ўша вақтдаги директори жаноб Федерико Майор Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1996 йил 10 апрелдаги фармони билан халқимизнинг юксак “Дўстлик” ордени билан мукофотланди. Агар тарихга назар ташласак, ҳазрат соҳибқирон Амир Темурнинг шавкатли, азалий буюклик ва даҳолик қудрати мужассамлашган пойтахти, сайқали рўйи замин Самарқанд шаҳрига 1404 йил испан элчиси Руи Гонсалез де Клавихо ташриф буюриб, ўзаро алоқаларни, дўстлик ришталарини боғлаган бўлса, тақдирнинг ва тарихнинг ҳукми билан орадан қарийиб 600 йил ўтиб яна бир испан фарзанди Федерико Майор Европа заминининг Амир Темур шахсига бўлган ҳурматини яна бир бор намоён этди. Шу боисдан ҳам ЮНЕСКОнинг собиқ Бош директори Федерико Майор “Оламда шундай номлар бўладики, улар кишини хаёлга чўмдиради, уларнинг сеҳрли номларни эшитганинг ёки ёзувини кўрганинг ҳамон дарҳол таъсир эта бошлайди. Хаёлот сари етаклайдиган номлар орасида тасаввуримизни ром этадиган бир ном бор, у ҳам бўлса Самарқанддир. ...Амир Темурнинг Самарқанддаги саройида бўлган Испания элчиси Руи Гонсалес де Клавихонинг эсдаликларни ўқир эканман, Марказий Осиё мазкур қисмининг XIV аср маданияти–меъморчилик бойликларини, шеърият нафосатини, техник ва илмий топқирлигини, ушбу маданиятга афсонавий жаҳонгир Амир Темурнинг таъсирини кашф этдим.”[16], деб таъкидлади.

**Тарихга қайтиб...** Амир Темур даврида ва Ғарбий Европанинг Франция, Англия, Испания каби давлатлари ҳукумдорлари билан олий даражада дипломатик ёзишмалар олиб борилган. Олти асрдан ортиқ вақт илгари айни шу ердан Мовароуннаҳр ҳукмдори Амир Темур Европа монархлари билан эркин ва хавфсиз савдони таъминлаш мақсадида фаол алоқалар ўрнатган эди[17].

Амир Темур Султония шаҳрини забт этганидан сўнг архиепископ Иоанн Амир Темурнинг Европадаги ишончли элчиси сифатида дипломатик муносабатларда катта рол ўйнаган. 1403 йилда Парижда бўлган Иоанн Амир Темурнинг муҳри босилган ва зарҳал ҳарфлар билан битилган

---

[13] Каримов И. Янгича фикрлаш ва ишлаш-давр талаби. 2-жилд, Тошкент, «Ўзбекистон», 1997 йил, 167-бет.

[14] Муродов Ҳ., Муҳаммадиев Н., Жамолов Ғ. Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти сафида. Т.: 2000 й, 40-бет.

[15] Рахимов М. Ўзбекистонннинг тарихий ва маданий меросни тиклаши ва бу борада ҳалқаро ҳамкорлик.// Мустақил Ўзбекистон тараққиётининг ғоявий асослари. Тошкент, «Шарқ», 2001 йил, 163-бет; Мумминов А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари. Тошкент, “Янги аср авлоди” 2003 йил, 145-бет.

[16] Қаранг: Амир Темур жаҳон тарихида. Париж 1996 йил, 4-бет.

[17] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанддаги «Марказий Осиё - Европа Иттифоқи» биринчи саммити олдидан «Euronews»га берган интервьюси. https://president.uz/uz/lists/view/8009

мактубни Франция қироли Карл VI га топширади. Мактубда “Биз Сизнинг давлатингиз доимо гуллаб-яшнашини дўстона тилаб қоламиз... Сизнинг саводогарлар биз томонга келсинлар ва биз уларни иззат-икром билан кутиб олайлик ва бизларнинг савдогарларимиз Сизлар томонга бориб, ўз иззат икромларини топсинлар. Ахир дунёни савдогарлар фаровон қиладилар”, деган сўзлар битилган.

Ўз навбатида Франция қироли Карл VII ҳам Амир Темурга 1403 йилнинг ўзида жавоб мактубини йўллайди. Ушбу мактубда “олампаноҳ, музаффар ҳукмдор Темурбекка салом ва тинчлик тилаймиз. Сиз зоти олийларига кўп христианларга кўрсатган марҳамат ва дўстлигингиз учун миннатдорчилик билдирамиз. Кези келганда биз ҳам ўз навбатимизда Сизнинг одамларингизга бундан ортиқ марҳамат кўрсатишга тайёрмиз” деган сўзлар ёзилган эди.

Англияда Лакастерлар сулоласининг йирик вакили Генрих IV ҳукмронлиги йилларида Мовароуннаҳр ҳукмдори Амир Темурнинг довруғи аллақачон Ғарб Европа мамлакатларига тарқалган эди. Европа ҳукмдорлари Усмонли турклар империяси таҳдидидан хавфсираб ўша даврдаги энг шавкатли ҳукмдор Амир Темур билан элчилик алоқаларини ўрнатишга ҳаракат қилганлар. Ўз навбатида Амир Темур учун ҳам Ғарб мамлакатлари билан элчиликлар алмашиш манфаатли эди. Шу сабабли ҳам бу икки ҳукмдорлар ўртасида 1403 йилда ўзаро мактублар алмашилди. Архиепископ Иоанн Амир Темурнинг Ғарбий Европа мамлакатларидаги элчиси сифатида 1403 йилда соҳибқироннинг мактубини Англия қироли Генрих IV га етказади.

Англия қиролининг шу йили Амир Темурга ёзган жавоб мактубида “ўзаро алоқаларимиз доирасини кенгайтириш, мамлакатларимиз савдогарларининг бир-бирлари билан қадимда ота-боболаримиз даврида бўлганидек келдиларини тикламоқ ва бунга шарт-шроит яратмоқ ниятида эканимизни билдирмоқчимиз. Бу сўзларни улуғ ҳукмдор сизга бўлган дўстлигимиз белгиси тариқасида айтарканмиз, илтифот билан сўрардикки, бундан буён бизнинг савдогарларимиз сизнинг ерларингизда хавф-хатарсиз, эмин-еркин юришлари учун шароит яратиб бергайсиз” деган сўзлар битилган эди.

Англия билан алоқалар ўрнатиб, савдо-сотиқни жонлантириш йўлида олиб борилган ҳаракатларда темурий шахзода Мироншоҳнинг ташаббуслари улкан эди. Мироншоҳ Ғарбий Европа мамлакатлари билан ўзаро савдо алоқаларини ривожлантириш мақсадида христиан руҳоний ва савдогарларининг дахлсизлигини таъминлашга ҳаракат қилди. Шунинг учун Мироншоҳ Ғарбда “католик динининг ҳомийси” сифатида шуҳрат қозонди. Таъкидлаш керакки, Амир Темур ва темурийлар салтанатида миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик масалаларга устивор аҳамият берилган.

Кастилия (Испания) қироли Генрих III де Трастамара (1390-1407) ўз даврида Шарқнинг буюк давлати ҳисобланган соҳибқирон Амир Темур давлати билан дипломатик алоқалар ўрнатиб ёзишмалар олиб боради. Қирол Генрих III Шарқ мамлакатлари билан жуда қизиқиб қолган эди. У дастлаб 1402 йил Паё Сотомаёр ва Эрнан Санчес Паласуелос бошчилигидаги элчиларни Амир Темурнинг Кичик Осиёдаги қароргоҳига жўнатади. Испан элчилари соҳибқирон томонидан яхши қабул қилиниб, қирол номига ёзилган мактуб ва совғалар билан кузатилади. Уларга Амир Темурнинг Муҳаммадқози Кеший исмли элчиси қўшиб жўнатилади. Ушбу элчиларга жавобан испан қироли 1403 йилда Руи Гонзалес де Клавихо бошчилигида иккинчи маротаба ўз элчисини йўллайди.

Клавихонинг Амир Темур ҳузурига элчилик саёҳати узоқ, хавф-хатар ва машаққатлар билан тўла сафар бўлди. Клавихо ва унинг ҳамроҳлари Испаниянинг жануби-шарқий тарафида жойлашган Кадис шаҳридан елканли кемада Ўрта ер денгизи бўйлаб суздилар, сўнгра Стамбул, Трабзон, Арзирум, Табриз, Теҳрон, Машҳад, Марв на Балх орқали қуруқликда йўл босдилар. Улар Термиз қаршисида Амударёдан ўтиб, Кеш орқали 1404 йилнинг 31 августида Самарқандга келдилар. Пойтахт Самарқандда Амир Темур қароргоҳида бўлган Руи Гонзалес де Клавихо 1406 йилда Испанияга қайтиб келади ва қирол Генрих III де Трастамарага ҳисоботини топширади. Кейинчалик бу ҳисоботлар аввал Испанияда кейинчалик Европада испан ва лотин тилларига таржима қилиниб “Буюк Темур тарихи”, “Темур қароргоҳи” ва “Самарқандга саёҳат кундалиги” номлари билан нашр этилади. «Кундаликлар»да Шарқнинг мамлакат ва шаҳарлари, халқининг турмуши, Амир Темур барпо этган бинолар қасрлар, масжидлар, мадрасалар, хонақоҳлар савдо расталари, темурийлар давлатининг турли мамлакатлар билан сиёсий ва савдо алоқалари, Темур саройида амалда бўлган тартиб-қоидалар ва бошқа муҳим маълумотларни келтириб ўтган. Гонсалес де Клавихо “Кундалик”лари биринчи марта 1582 йили Испаниянинг Севиля шаҳрида “Буюк Темурнинг ҳаёти ва фаолияти” номи билан чоп этилди. Шундан сўнг дунёнинг турли тилларига таржима қилинди ва кўп маротаба нашр этилди.

**Тарих такрорланади.** Тарихдан ибрат олиш зарур. Тарихий ходисалар ўз ўзидан содир бўлмайди. Ҳар бир жараённинг, воқеликнинг ўз тарихий қонуниятлари мавжуд. Вақтлар, кунлар, ойлар, йиллар ҳатто асрлар ўтса ҳамки тарих ва тақдир қонунияти ўзаро боғлиқ бўлиб қолаверади. Испаниялик сайёҳ Калвихонинг Самарқандга сайёҳатидан сўнг қарийиб орадан олти юз йил вақт ўтиб бошқа бир испан фарзанди Федерико Майор ЮНЕСКО Бош директори сифатида Самарқандда, Тошкентда ва Парижда Амир Темур юбилейни халқаро миқёсда нишонлаш ишларига бош қўшди. Тарихнинг буюклиги шундадир. Демак тарихдан ибрат олиш зарур.

**Янги Ўзбекистон ва Амир Темур омили.** "Янги Ўзбекистон" шароитида Амир Темур шахсини ва унинг меросини қайта тиклаш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Бу жараён нафақат тарихий хотирани тиклаш, балки мамлакатнинг мафкуравий асосларини мустаҳкамлаш, миллий ғурурни уйғотиш ва халқни буюк келажак сари сафарбар этиш мақсадларини ўз ичига олади. Жумладан, шларни нафақат ҳарбий, балки Темурдек буюк саркарда ва давлат арбобининг тарихий мероси, ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган “Темурбеклар мактаби” ташкил этилди. Самарқанддаги Амир Темур мақбараси ва Амир Темур музейини таъмирлаш, ободонлаштириш ва экспозициясини бойитиш. Музейда Темур давлатига оид янги экспонатларни намойиш этиш ишлари амалга оширилди. Амир Темур ва Темурийлар даврига оид тадқиқотларнинг фаоллашди. "Темурийлар даври"га оид маданий ва бадиий асарлар яратилди. Амир Темур даври Иккинчи Ренессанс сифатида эътироф этилиб, бугунги ривожланишнинг мафкуравий асоси сифатида кўрсатилмоқда. Темурнинг буюк давлатчилик анъаналари, илм-фан ва маданиятни ривожлантиришга бўлган эътибори бугунги "Янги Ўзбекистон"нинг шиорига айланмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “ўн бешинчи асрда Соҳибқирон Амир Темур бобомиз асос солган ва унинг муносиб авлодлари давом эттирган муҳташам салтанат, юртимизда иккинчи Уйғониш, яъни иккинчи Ренессанс даврини бошлаб берди”[18].

Ўзбекистон Президенти “Буюк давлат арбоби ва саркарда, илм-фан, маданият ва санъат ҳомийси Соҳибқирон Амир Темур таваллудининг 690 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги Қарорни[19] имзолади. Қарорнинг асосий мақсади буюк аждодимиз асос солган Иккинчи Уйғониш даврининг миллий ва умуминсоний моҳияти, ёш авлодни Янги Ўзбекистон бунёдкорлари этиб тарбиялаш борасидаги улкан ўрни ва таъсирини инобатга олиб, ушбу йўналишда амалга оширилаётган ташкилий-амалий, илмий ва маънавий-маърифий ишларни янги сифат босқичига кўтариш ҳисобланади[20].

2026 йил Ўзбекистонда бўлиб ўтган Наврўз байрами тантаналарида Амир Темур давлати байроғи кўтарилди. Соҳибқирон Амир Темур давлати байроғининг (кўк фонда учта халқа тасвирланган байроқ) кўтарилиши шунчаки рамзий ҳаракат эмас, балки чуқур ижтимоий-сиёсий ва мафкуравий маънога эга воқеликдир.

Ўзбекистон сўнгги йилларда ўз давлатчилигини "Янги Ўзбекистон — Учинчи Ренессанс" ғояси асосида қурмоқда. Амир Темур давлати эса Иккинчи Ренессанснинг чўққиси ҳисобланади. Тарихий байроқнинг кўтарилиши — бугунги Ўзбекистон ўзини нафақат 1991 йилда ташкил топган ёш давлат, балки кўп минг йиллик қудратли давлатчилик анъаналарининг бевосита вориси эканлигини намойиш этишдир.

Байроқ — миллий бирлик тимсоли. Амир Темур байроғининг Наврўздек умумхалқ байрамида намойиш этилиши халқнинг, айниқса ёшларнинг тарихий хотирасини уйғотиш, миллий ғурур ва ифтихор туйғусини кучайтиришга хизмат қилади. "Куч — адолатдадир" тамойилининг сиёсий асоси Амир Темур давлатининг бош шиори бўлган "Куч — адолатдадир" ибораси бугунги ислоҳотларнинг ҳам мафкуравий асосига айланган. Байроқнинг кўтарилиши — давлат бошқарувида адолат, қонун устуворлиги ва халқ манфаатлари устувор эканлигини рамзий маънода қайта тасдиқлашдир.

Амир Темур даври Марказий Осиёнинг ягона сиёсий, иқтисодий ва маданий макон сифатида гуллаб-яшнаган даври эди. Бугунги кунда Ўзбекистон минтақавий интеграциянинг локомотиви

---

[18] Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // https://president.uz/uz/lists/view/2180

[19] Ўзбекистон Республикаси ПрезидентиниНгБуюк давлат арбоби ва саркарда, илм-фан, маданият ва санъат ҳомийси Соҳибқирон Амир Темур таваллудининг 690 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги Қарори. Янги Ўзбекистон. 2026 йил 6 февраль.

[20] Амир Темур таваллудининг 690 йиллиги Ўзбекистон ва хорижда кенг нишонланади // https://dunyo.info/uzk/undefined/690-letie-amira-temura-budet-shiroko-prazdnovatsya-v-uzbekistane-i-za

бўлишга интилмоқда. Соҳибқирон байроғининг кўтарилиши — минтақавий бирликни мустаҳкамлаш ва Ўзбекистоннинг тарихий марказ сифатидаги мақомини эслатишнинг бир йўлидир.

Амир Темур — жаҳон тан олган буюк саркарда. Унинг байроғи остида жангчилар ғолиблик руҳи билан тарбияланган. Наврўз тантаналарида бу байроқнинг пайдо бўлиши Ўзбекистон Қуролли Кучлари учун ҳам маънавий мадад ҳисобланади. Бу — замонавий ўзбек аскари ўзини Темур лашкарларининг вориси сифатида ҳис қилишига, миллий армиянинг жанговар руҳини оширишга хизмат қилади.

Наврўз тантаналарида Амир Темур байроғининг кўтарилиши юксак “Юмшоқ куч” (Soft Power) воситаси сифатида ҳам намоён бўлади. Бу халқаро ҳамжамият учун бу кучли визуал сигналдир. Дунё Ўзбекистонни нафақат хом ашё етказиб берувчи ёки транзит давлат, балки буюк цивилизация маркази сифатида кўра бошлайди. Темурийлар брендининг тикланиши мамлакатнинг халқаро имижини (брендини) кескин юқорига кўтаради. Бу маданий дипломатия орқали дунёнинг энг нуфузли ташкилотлари ва давлатлари билан тенг ҳуқуқли мулоқот қилиш имконини кенгайтиради.

Дарҳақиқат, Амир Темурни англаш ўзлигимизни англаш демакдир. Чунки, ҳазрат Амир Темур ва темурийлар даврида Мовароуннаҳрда ижтимоий, иқтисодий, маданий ва маънавий юксалиш, тариққиёт ва ривожланиш юз берди. Бунга эса бевосита соҳибқирон Амир Темур дахлдордир. Чунки, ул зотнинг ўзлари ҳам юксак ақлу заковат, маънавий салоҳият соҳиби бўлган.

## МИЛЛИЙ ДАВЛАТЧИЛИГИМИЗ ТИМСОЛИ

**Хуршид Қурбонов,**
**Навоий давлат университети доценти, тарих фанлари номзоди.**

Амир Темур ва унинг давлатчилигидаги бошқарув масаласи айнан бугунги мураккаб замонда дастурул-амал бўлишга лойиқ.

Зеро, тузукларда “Давлат ишларини салтанат қонун-қоидаларига асосланган ҳолда бошқардим...Салтанат ишларини муроса-ю мадора, мурувват ва сабр-тоқат билан юргиздим... Раият аҳволидан огоҳ бўлдим...” каби даъват ва услубиётларни беадоқ санаш мумкин.

Қарийб 7 асрким буюк давлат арбоби ва саркарда, илм-фан ва маданият ҳомийси Амир Темур шахсияти, унинг бошқарувдаги муҳорати, айниқса ҳарб санъати Ғарбу-Шарққа маълум ва машҳур.

Шуни алоҳида таъкиблаш лозимки, Ўзбекистон Президентини Амир Темур таваллудининг 690 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисидаги Қарорлари нафақат тарихчилар, балким бутун жамиятимиз зиёлилари, халқимиз орасида қизғин қарши олинди.

Тўғрисини таъкидлаш лозимки, бугун умумтаълим мактаблари, олий таълим муассасалари ва ҳарбий даргоҳларда Амир Темур шахси, давлатчилик бошқаруви, ҳарбий санъати ҳақидаги мавзуларни ўқитиш ҳам завқ, ҳам масъулият бағишлайди. Чунки, замонлар ўтсада фақат эзгулик билан эсланадиган ёки ўрганиладиган саркардалар, подшоҳлар жуд ҳам кўп эмас.

Бобокалонимиз Амир Темурнинг ўзга саркарда ва подшоҳлардан кескин фарқли жиҳати шуки, у бошқалардан фарқли ўлароқ босиб олган ёки тобе қилган ҳудудларда талончилик ишларини қилмади, аҳолини қулликка, аёлларни чўриликка дучор этмади, бойликлари ва маданиятини талон-тарож қилмади. Қаерда бўлмасин ўзаро дўстона муносабатларни мустаҳкамлади, савдо ва элчилик дипломатиясига асос солди.

Бугунги Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг ҳам замирида шу анъанана, шу қадрият асос бўлди, десак асло ҳато қилмаймиз.

Бир эсланг, 2016 йилдаёқ Президент Ш.Мирзиёев ташаббуси асосида давлатлар билан яқин қўшничилик муносабатлари тикланди, Марказий Осиё давлат раҳбарларининг ўзаро мулоқот учрашувларини жорий қилди. Бугун дунё саҳнида “Марказий Осиё – Европа”, “Марказий Осиё - АҚШ”, “Марказий Осиё - Россия”, “Марказий Осиё - Хитой”, “Марказий Осиё - Япония”, умуман олганда “Марказий Осиё - плюс” мулоқот формати юзага келди. Қадим Буюк ипак йўли – “мулоқаот йўли” сифатида Ғарбу-Шарқни қайта боғлади.

Қабул қилинган қарор илмий, маънавий ва стратегик аҳамиятга эга бўлиб, аввало Амир Темур ва у бошлаб берган Иккинчи ренессанс тараққиётида муҳим ўрин тутган алломалар, мутафаккирлар ва фан фидойиларининг илмий меросини чуқур ўрганиш, улар асосида “Темурийлар даврининг 100 нодир қўлёзмаси”, “Темурийлар даврининг 100 нодир дурдонаси” китоб-альбомларини чоп этиш, Темур ва темурийлар даври тарихи билан боғлиқ туркум китоблар, илмий ва илмий-оммабоп асарларни чоп этиш, Ислом Цивилизацияси марказида “Амир Темур ва темурийлар тамаддунининг жаҳон тарихи ва маданиятидаги ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги ҳалқаро илмий конференциясини ўтказиш қатъий белгилаб берилди.

Иккинчидан, Учинчи ренессансга қадам қўяётган, ҳаётимизнинг барча жабҳаларида туб ўзгаришлар юз бераётган бугунги кунда Соҳибқирон Амир Темурнинг шахсияти, буюк аждодимизнинг башарият тарихи ва Турон тамаддунидаги ўрни, уларнинг бой ва бетакрор меросини чуқур ўрганиш ва хорижда оммалаштириш – миллий давлатчилигимиз пойдеворининг мустаҳкам эканлигини дунёга ишонтириш билан белгиланади.

Учинчидан, Амир Темурнинг давлат бошқаруви, ислоҳотлари, вазирлар ва бошқарув кадрларни танлашдаги маҳорати, ҳарбий санъати ва жанг стратегияси, айниқса Европанинг тараққий этган давлатлари билан дипломатик ва элчилик алоқаларининг юз йилликларга бориб тақалишини нобатга олган ҳолда, янгича форматда талқин қилиш айни муддао.

Бугунги таҳликали, мураккаб ва хавф-хатарлар кўпайиб бораётган бир шароитда ўз даврида 27 мамлакатни ягона байроқ остида бирлаштириб, бошқарувнинг асл салоҳиятини намоён қила олган бобокалонимизнинг халқлар ва мамлакатлар ўртасидаги ўзаро дўстлик ва ҳурмат анъаналарини тараннум этиш мақсадга мавофиқ.

Айни пайтда қабул қилинган ушбу қарорнинг асл моҳияти ҳам шунда кўринади.

Жаҳон ҳамжамиятида “Буюк темурийлар” атамасининг халқаро илмий ислоҳ сифатида жорий қилиш орқали мамлакатимз қадимдан давлат бошқаруви асослари, жамият ислоҳоти пойдеворларининг маърифий асосда қурганлигини талқин қилиш мақсади ҳам муҳим ислоҳотдир.

Шу ўринда бир ҳолатни таъкидлашни жоиз билиб, “Темур тузуклари”ни Ўзбекистоннинг хориждаги барча элчихона ва консулликларида, улар орқали ўша мамалкатларнинг олий даргоҳларида тарғиботини ҳам кенагйтириш мақсадга мувофиқ.

Сўнгги сўз ўрнида, айтиш лозимки “Темур” исми Қуръони Каримнинг “Мулк” сурасидан олинган бўлиб “ларза” маъносини билдирар экан, бундан 690 йил аввал дунёни ларзага солиб келган буюк аждодимизнинг муносиб ворислари сифатида уч минг йиллик давлатчилигимиз тарихи, буюк аждодларимизнинг илмий-маънавий меросига таяниб Адолат кучда эмас, балким “Куч адолатда” эканлиги дунё оммасига шиор қилсалар ажаб эмас. Зеро, келажагини ёшлар зиммасига ишонган бугунги Янги Ўзбекистон жаҳон саҳнида муносиб ўринга эга бўлиши ва яқин келажакда жаҳон халқларига намуна сифатида кўрсатишига ишончимиз комил.

## АМИР ТЕМУР В ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Норов Шухрат Сувонович**
**доктор философии (PhD) по ист. наук, доцент, заведующий кафедрой**
**«Социально-гуманитарных дисциплин и физического воспитания»,**
**Навоийский государственный горно-технологический университет, Узбекистан,**
**г. Навои, Тел.+998907322327**
**Email: norov1976sh@gmail.com**
**ORCID 0009-0008-4617-706X**

***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekiston tarixida yosh avlod uchun timsol bo‘lib kelayotgan Amir Temur shaxsining tarixiy jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Amir Temurning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy-madaniy faoliyati, uning yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘usi va Vatanga muhabbatni anglash hamda shakllantirishdagi o‘rni alohida ta’kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Amir Temur, yoshlar, buyuk, ahamiyat va tarbiya.*

***Аннотация:*** *В статье рассмотрены исторические аспекты личности Аира Темура, который является в истории Узбекистана символом для подрастающего поколения. Отмечена политическая, социально-экономическая и духовно-культурная деятельность Амира Темура, в осмыслении и формирования у молодёжи чувства патриотизма и любви к родине.*

***Ключевые слова****: Аимир Темур, молодёжь, великий, аспект, воспитание.*

Обращение к историческим личностям в системе воспитания молодёжи является важным элементом формирования гражданской идентичности, нравственных ориентиров и культурной памяти [1]. В этом контексте личность великого Амира Темура (1336 – 1405), выдающегося государственного деятеля и полководца XIV века, занимает особое место в истории Центральной Азии и мировой цивилизации. Его деятельность рассматривается не только в политическом аспекте, но и как фактор культурного и научного развития региона. А целю данной статьи, является осуществить научно обоснованный анализ образа Амира Тимура как исторической личности и определить его потенциал в системе воспитания молодёжи с учётом принципов объективного историзма.

Амир Темур действовал в условиях политической фрагментации постмонгольского пространства. После распада державы Чингисидов регион переживал период нестабильности, что создавало предпосылки для формирования новой централизованной власти. Тимур, опираясь на военную организацию, дипломатические союзы и административные реформы, создал обширную государство со столицей в Самарканде. В историографии его образ представлен многогранно: с одной стороны – как великий освободитель, проводивший масштабные военные кампании, с другой – как государственный реформатор и покровитель науки и культуры [2]. Его правление стало периодом интенсивного градостроительства, развития ремёсел, архитектуры и исламской учёности.

С научной точки зрения важным аспектом является государственно-административная система Тимура. Он разработал свод норм и принципов управления, известный как «Амир Темур Тузуклари» (Тимуровские установления), где были отражены идеи справедливости, дисциплины, социальной иерархии и ответственности правителя перед обществом. Для воспитания молодёжи данный аспект значим в следующих измерениях: формирование лидерских качеств – стратегическое мышление, целеустремлённость, ответственность за принятые решения; дисциплина и организованность – как основа общественной стабильности; государственное мышление – понимание роли закона и институционального порядка [2].

Особое значение для воспитательного потенциала личности Тимура имеет его вклад в развитие науки и культуры. Самарканд стал центром притяжения учёных, богословов, архитекторов и мастеров из различных регионов. Именно в эпоху Темуридов были заложены основы культурного расцвета, продолженного его потомками, в частности Улугбек – выдающимся астрономом и правителем. Поддержка науки и образования демонстрирует стратегическое понимание роли интеллектуального развития общества. В воспитательном процессе это может служить примером приоритета знаний, научного поиска и просвещения.

С точки зрения истории, использование образа личности должно основываться на принципе многогранного исторического анализа. В деятельности Амира Темура присутствуют как созидательные, так и воспитательные аспекты. Хотя военные кампании сопровождались значительными человеческими потерями, они повествуются как героизм перед родиной, что требует объективного освещения в образовательном процессе. В этой связи, воспитательный потенциал личности Амира Темура, его наследников (сыновей, внуков и правнуков) заключается не в идеализации, а в комплексном осмыслении таких важных качеств, как значимости стратегического мышления; роли личной ответственности; понимания исторических последствий политических решений; осознания ценности мира и гуманизма [3].

В современных государствах Центральной Азии, в том числе в самом новом Узбекистане, образ Амира Тимура является частью национального исторического нарратива. В частности, в Узбекистан он рассматривается как символ государственности и культурного возрождения. Однако научный подход предполагает разграничение исторического факта и его

интерпретации в национальной идеологии. Формирование исторической памяти у молодёжи должно строиться на принципах: источниковедческой критики; междисциплинарного анализа; уважения к различным историческим точкам зрения; недопустимости мифологизации прошлого.

Историческая личность Амира Темура представляет собой сложный и многомерный феномен. Его деятельность оказала значительное влияние на политическое и культурное развитие Евразии XIV–XV веков. Также можно отметить то, что в воспитании молодёжи образ Амира Темура может быть использован как пример стратегического мышления, государственной ответственности и поддержки науки, при условии научно объективного подхода [4].

Таким образом, интерпретация исторической личности Амира Темура должна быть направлена на формирование у молодёжи аналитического мышления, гражданской зрелости и способности к историческому осмыслению прошлого в контексте современности. Осознание вклада великого государственного деятеля в развитие государства с социально-политической, духовно-культурной стороны.

**ЛИТЕРАТУРА И ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ**

1. Мирзиёев Ш.М., Определены дополнительные возможности для поддержки молодёжных инициатив / Диалог Президента Республики Узбекистан с молодёжью, 24 февраля 2026 года. URL:https://president.uz/ru/lists/view/8967 (дата обращения 04.03.2025 г.)

2. Хаитов Ш.А., Норов Ш.С., Сувонова Ж.Ш. Историческое значение региональных общественных движений Узбекистана в реализации государственной молодёжной политики (на примере Навоийской области) //apni. ru Редакционная коллегия. – 2021. – С. 16.

(дата обращения: 18.02.2026).

3. Норов Ш. С., Норова Д. Ш., Юлдашева У. С. Духовно-патриотическое формирование подрастающего поколения в новом Узбекистане //Актуальные исследования Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований". – №. 7. – С. 50-52. URL: https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&q=related:49FcwZHO93kJ:scholar.google.com/ (дата обращения: 12.01.2026).

4. Люсьен Керен. Амир Темур Салтанати. Ташкент: «O‘zbekiston». 2018. – С. 4-5.

# AMIR TEMUR DAVRIDA G‘ARBIY YEVROPA BILAN DIPLOMATIK VA SAVDO ALOQALAR

**Z.Tog‘ayev**
**NavDU Tarix kafedrasi dotsenti**
**t.f.f.d (PhD)**

**Annotatsiya:** Maqolada Temur imperiyasining G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan diplomatik va savdo aloqalari tahlil qilinadi. Ushbu aloqalar, xususan, Temurning Fransiya, Angliya va Ispaniya bilan tuzgan bitimlari, o‘zaro savdo shartnomalari, elchilar orqali amalga oshirilgan yozishmalar va diplomatik missiyalarni o‘z ichiga oladi. Temur va uning vakillari tomonidan amalga oshirilgan diplomatik tashriflar va savdo aloqalarining muvaffaqiyati, shuningdek, Temurning Xitoyga bo‘lgan yurishlari va bu jarayonda o‘zaro diplomatik aloqalar o‘rnatishning ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, Temurning vafotidan so‘ng ushbu aloqalarning uzilishi va O‘rta Osiyo va G‘arb o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy bog‘lanishlarning zaiflashishini ko‘rsatib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Temur, G‘arbiy Yevropa, diplomatiya, savdo aloqalari, elchilar, Fransiya, Angliya, Ispaniya, Samarqand, Temur imperiyasi, iqtisod, Xitoy.

**Аннотация**: В данной статье анализируются дипломатические и торговые отношения государства Амира Темура со странами Западной Европы. В частности, рассматриваются соглашения, заключённые Темуром с Францией, Англией и Испанией, взаимные торговые договоры, переписка через послов и дипломатические миссии. Особое внимание уделяется успешности дипломатических визитов и торговых связей, осуществлённых Темуром и его представителями, а также значению установления дипломатических отношений в ходе походов Темура в Китай. Кроме того, в статье показано, что после смерти Темура данные связи ослабли, что привело к снижению социально-экономических отношений между Центральной Азией и Западом.

**Ключевые слова:** Темур, Западная Европа, дипломатия, торговые отношения, послы, Франция, Англия, Испания, Самарканд, государство Темура, экономика, Китай.

**Abstract:** This article analyzes the diplomatic and trade relations of the Timurid Empire with the states of Western Europe. These relations include, in particular, the agreements concluded by Amir Timur with France, England, and Spain, mutual trade treaties, correspondence carried out through ambassadors, and diplomatic missions. The study also examines in detail the success of diplomatic visits and trade relations conducted by Timur and his representatives, as well as the significance of establishing diplomatic ties during Timur’s campaigns toward China. Furthermore, the article highlights the decline of these relations after Timur’s death and demonstrates the weakening of socio-economic connections between Central Asia and the West.

**Keywords:** Timur, Western Europe, diplomacy, trade relations, ambassadors, France, England, Spain, Samarkand, Timurid Empire, economy, China.

**Kirish.** XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahr murakkab davrni boshidan kechirdi. Mamlakat ichkarisida siyosiy barqarorlik zaiflashib, hokimiyat uchun kurash kuchaydi. Hududlar orasidagi kelishmovchiliklar ziddiyatlarga olib kelib, bu urushlarga sabab bo‘ldi. Natijada iqtisodiy tanazzul chuqurlashib, dehqon xo‘jaliklari va hunarmandchilik jiddiy zarar ko‘rdi. Bunday vaziyatdan foydalanishga urinayotgan Mo‘g‘uliston hukmdorlari Movarounnahr ustiga yurishlar uyushtirib, o‘z ta’sirini o‘rnatishga harakat qildi. Ularning zulmiga qarshi xalq harakati avj oldi. Ichki mojarolar avj olgan, bosqinchilarga qarshi isyonlar boshlanayotgan shunday murakkab sharoitda, siyosiy maydonda yangi kuch paydo bo‘ldi. Bu kuch – qisqa vaqt ichida ulkan imperiyani barpo etishga muvaffaq bo‘lgan Sohibqiron Amir Temur edi. U aynan shu davrda siyosat sahnasida ilk qadamlarini qo‘ya boshladi. Dastlabki amaliy harakatini u Balx shahriga joylashgan raqibi Amir Husayn ustidan yurish boshlashdan oldi. 1370-yilda Temur yaxshi tayyorlangan qo‘shini bilan Balxni qamal qilib, katta yo‘qotishlar berib, shaharni egallaydi. Movarounnahrning hukmdori Amir

Husayn o‘ldiriladi. Ushbu voqealar natijasida Temurning siyosiy mavqei mustahkamlanadi, chunki endi Movarounnahrda uning oldida kuchli raqib qolmaydi[1].

Shu yilning o‘zida Balxda qo‘shin boshliqlarining yig‘ilishida Temurning hukmronligi rasman tan olindi. Temurning piri Sayyid Baraka duoyi fotiha qilib, uni Movarounnahrning hukmdori - amiri deb e’lon qiladi.

Movarounnahrning yagona hukmdori bo‘lganidan so‘ng, Temur o‘z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishdi. Birinchi navbatda, u o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun mustahkam poytaxt yaratish zaruratini sezdi. Mahalliy mustahkam bo‘lmagan hukmdorlarning hujumlariga qarshi tura olish uchun kuchli qarorgoh kerak edi. Shu sababli, 1370-yilda Samarqandga kelgan Temur, bu yerda shahar devorlari, qal'alar va saroylar qurishni boshlaydi. Bu imoratlar, Movarounnahrda Mo’g‘ullar tomonidan vayron qilinganidan keyin 150 yil o‘tib, birinchi marta bunyod qilingan umumiy inshootlar edi. Shundan so‘ng, Temur mamlakatda qonun va tartibni joriy qilishga kirishadi. Shunday qilib, u ushbu harbiy qism va Barlos qabilasiga katta imtiyozlar beradi. Tashqi tomondan, Temur qonunlarni joriy qilishga harakat qilayotgan bo‘lsa-da, o‘zining davlat chegaralarini kengaytirishga ham kirishadi. Avvalo, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni, shuningdek, Farg‘ona va Shoshni birlashtirib, ularni o‘ziga bo‘ysundiradi[2].

Ammo, Movarounnahrni tahlikaga soluvchi Mo’g‘ullar xavfi to‘liq bartaraf etilmagan edi. 1372-yilda Temur Xorazmga hujum qilib, xorazmliklarni mag‘lub etgan, biroq ular bir necha bor unga qarshi ko‘tarilishgan. Shuning uchun Temur Xorazmga besh marta yurish qilgan. Nihoyat, 1388-yilda u Xorazmni butunlay qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Uning so‘nggi yurishi natijasida Urganch shahri vayron bo‘lib, uning aholisi Samarqandga ko‘chirilgan[8]. Shunday qilib, Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqligiga hamda o‘zaro nizolarga kuchli zarba berib, Sirdaryo vohasidan Orol dengizigacha bo‘lgan hududdagi xalqlarni yagona davlat tarkibiga birlashtirdi. Bu, albatta, Movarounnahr xalqlari uchun muhim ijobiy o‘zgarish bo‘ldi. Ammo Temurning harakatlari bu bilan tugamadi. Tez orada u qo‘shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o‘z davlati tarkibiga qo‘shish va markazlashgan ulkan saltanatni tashkil etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.Shunday qilib, Kichik Osiyoda ikki katta istilochi – o‘zining harbiy qudrati bilan yuksalgan Temur va G‘arbiy Yevropaga tahdid solib turgan Boyazidning manfaatlari to‘qnashadi. Bu siyosiy vaziyatda, Turkiyaga qarshi yuzaga kelgan dushman kuchlarining birlashishi tabiiy hol edi. Boyaziddan mag‘lub bo‘lib, o‘z yer va mulklaridan mahrum bo‘lgan Kichik Osiyo mamlakatlari amirlari Temurdan yordam so‘rab, uning Qorabog‘dagi o‘rdugohiga kelib qaror topadilar. Vizantiya va G‘alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari Temurga yordam so‘rab murojaat qiladilar. Turkiya sultoni Boyazidga qarshi birlashish uchun Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi noibi Ioann VII Paleolog va Genuya imperatori Manuil III vositasida Temurni Turkiyaga qarshi yurish boshlashga undaydilar[10].

Buning evaziga ular Temurga harbiy yurish vaqtida yordam berishga, shuningdek, Konstantinopol va Peraning Boyazidga to‘lab kelgan bojini bundan buyon Temurga to‘lashga va'da beradilar. Bu taklif Temur uchun juda foydali bo‘lganligi sababli, u bu vaziyatdan ustalik bilan foydalanadi va Turkiya sultoni Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyatni yaratadi.

Bu davrda Temur Boyazid bilan diplomatik yozishmalar olib borish bilan birga, Turkiya bilan bo‘lajak to‘qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venesiyaga sovg‘a-salomlar va maktublar yuborib, arxiepiskop Ioann Galonifontibus boshchiligida elchilar jo‘natadi. O‘zaro yordam masalasida Temur Konstantinopol noibi Ioann VII Paleolog bilan ham yozishmalar olib boradi. Temurning 1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo‘llagan xatida, Konstantinopol imperatori va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Temurga yordam berish, hatto unga “odamlar va har biri 20 tadan 40 tagacha harbiy kemalar bilan” yordam berish kabi majburiyatni o‘z zimmalariga olganliklari ta’kidlanadi. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o‘z kundalik daftarida qayd qilib o‘tgan[3].

Bu davrda Temur Fransiya qiroli Karl VI (1360-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) va Kastiliya hamda Leon qiroli Genrix III Trastamara (1390-1407)lar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, yozishmalar olib boradi[8]. Bu davlatlar orasida Fransiya Vizantiya taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa G‘alatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI o‘z navbatida Temurdan madad kutar va

u bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga urinar edi. Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, sohibqiron qirolni jiddiy qo‘llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, Temurning Kichik Osiyo va G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan dastlabki diplomatik yozishmalari va elchilik aloqalari uning G‘arbga Turkiya ustiga yurishi munosabati bilan boshlanib, ulardan asosan Boyazidga qarshi birgalikda kurashish rejalari ko‘zda tutiladi. Biroq, Anqara yaqinida turklarning ikki yuz minglik qo‘shini ustidan qozonilgan buyuk g‘alabadan so‘ng Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan bo‘lgan aloqalarining mazmuni tubdan o‘zgaradi. Endilikda u ular bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, elchilik va o‘zaro savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarga ahamiyat beradi. Vizantiya imperatoridan boj olib, uni bilvosita bo‘ysundirish bilan kifoyalangan Temur 1402-yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilik yuboradi.

Elchilikni zamonining mohir diplomati Arxiepiskop Ioann Galonifontibus boshqarar edi. Ioann orqali Temur, Karl VI va Genrix IV nomlariga maxsus maktublar yuboradi. Elchilar 1403-yil may oyida Parijga yetib borishadi. Bu yerda Ioann, tantanali bir tarzda, Temurning Turkiya ustidan qo‘zg‘atilgan g‘alabasi, Sulton Boyazidning asirga olingani va turklarning asirga olgan xristianlarni ozod qilish haqida xabar beradi. Shuningdek, ikki mamlakat o‘rtasida erkin savdo aloqalari o‘rnatishni va agar qirol va gersoglar rozi bo‘lsa, bu aloqalarni tegishli shartnoma yoki bitimlar bilan mustahkamlashni taklif qiladi. Buning uchun elchilik aloqalari barqaror bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Shu sababli Temur 1402-yil avgustda Fransiya qiroli Karl VI-ga yo‘llagan maktubida quyidagilarni alohida aytadi: “Kelajakda sizning odamlaringiz bizning yerlarimizga va bizning odamlarimiz sizning o‘lkangizga borib-kelib tursalar, eski ajdodlarimiz davridagi kabi, sizning va bizning nomimizni barcha joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirsa, biz juda xursand bo‘lamiz. Bundan tashqari, bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligini ta’minlashni kafolatlaymiz[4]”. Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunida Temurga yuborgan javob maktubida, Temurning takliflari Fransiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinganligini bildiradi[5]. Demak, Temurning Anqara jangidan keyin fransuz qiroli bilan olib borgan yozishmalari o‘zaro savdo shartnomasini tuzishga qaratilgan diplomatik aloqalar bo‘lib, bunda Vatikan vakili Arxiepiskop Ioann Galonifontibus muhim rol o‘ynagan. Chunki unga fransuz qiroli Karl VI ning javob xatini Temurga yetkazish mas’uliyati yuklatilgan edi. Temur davlati bilan Angliya o‘rtasida o‘zaro diplomatik aloqalar o‘rnatilishida ham Vatikan vakilining vositachilik roli katta bo‘lgan. Xuddi shu davrda u bu buyuk davlatning g‘arbiy viloyatlari hokimi Mironshoh (1366-1408) bilan Angliya qiroli Genrix IV o‘rtasida olib borilgan diplomatik yozishmalarda faol qatnashdi[11]. 1393-yilda Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz va Sultoniyani o‘z ichiga olgan xulogular tasarrufidagi mulklarga hokim qilib tayin etilgan Mironshoh Temurning keksayib qolgan davrida G‘arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o‘zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirgan va savdogarlarning daxlsizligini ta’minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirgan. Shu sababli G‘arbda Mironshoh tez orada “katolik dinining homiysi” sifatida shuhrat qozondi[8].

Temur, Mironshoh va Genrix IV o‘rtasidagi diplomatik yozishmalarda, Angliya bilan elchilik aloqalarini o‘rnatish va savdo-sotiqni rivojlantirish borasida, ayniqsa, Mironshohning roli katta bo‘lgan. Bu hol tabiiy edi, chunki buyuk Temur imperiyasining G‘arbiy davlatlar bilan olib borgan barcha aloqalari - elchilar, savdo karvonlari va boshqalar - asosan Mironshoh tomonidan boshqarilgan hududlar orqali o‘tgan. Bu viloyatlarning noibi, albatta, shundan manfaatdor bo‘lgan. Mironshoh qo‘l ostidagi hududlarning g‘arbiy chegaralari Yevropaning Bolqon yarim oroli orqali O‘rta Yer dengizi mamlakatlari bilan tutashgan edi[9]. Angliya qiroli 1403-yilning o‘rtalarida Temur va Mironshohga yo‘llagan javob maktubida ular bilan shartnoma tuzish niyatida ekanini bildirib, shu maqsadda Angliyaning holati va shart-sharoitlarini yaxshi bilgan Arxiepiskop Ioanni vakil qilib tayinlab, unga to‘liq ishonch bildirdi. Angliya qiroli Genrix IV 1403-yil 15-iyunda Temurga yozgan javob maktubida esa, “o‘zaro aloqalarimizni kengaytirish, davlatlarimiz savdogarlarining bir-biri bilan, ajdodlarimiz davrida bo‘lgani kabi, uchrashib turishlarini ta’minlash” niyatidalarini ta’kidlagan edi.

Misr va Turkiya sultonlari ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng, Temur G‘arbiy Yevropada yanada katta shuhrat qozondi. Yevropa mustabidlarining Sharqqa bo‘lgan qadimiy qiziqishi va intilishi yanada kuchaydi. Ayniqsa, Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda ham qiziqib qolgan edi. U, Temurning Turkiya sultoni Boyazidga qarshi olib borgan jangu jadallarini

diqqat bilan kuzatib borardi. 1402-yilning bahorida, Payo de Sotomayor va Ernan Sanches Palasuelos boshchiligida dastlab Ispaniya elchilari Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuborilgan. Elchilarga Temur va Boyazidlarning kuch-qudrati, boyligi, armiyasining soni va ular qo‘l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlari, dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar to‘plash topshirilgan edi. G‘alaba munosabati bilan, Sharq va G‘arbning ko‘plab davlatlari elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Temur tomonidan qabul qilindi va qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in'omlar bilan kuzatildi. Ularga qo‘shib, Temur Muhammadqozi ismli o‘z vakilini ham Ispaniyaga elchi qilib yuboradi.

Bunga javoban, Genrix III o‘zaro do‘stlik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida 1403-yilda Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilik yuboradi. Elchilikka Rui Gonzales de Klavixo boshchilik qiladi. 1403-yil 21-mayda Ispaniyadan jo‘nab ketgan elchilar dengiz orqali Konstantinopolga o‘tib, u yerdan Trapezundga, keyin quruqlik orqali Eronni kesib o‘tib Balxga yetib kelishadi[4]. Bu shahar yaqinida Amudaryodan kechib, avval Termiz va Kesh shaharlarida bo‘lishib, so‘ngra Samarqandga tashrif buyuradilar. Ispaniya elchilari Samarqandda Temur tomonidan tantanali qabul qilinib, ularga katta e'tibor va hurmat ko‘rsatiladi. Temurning Samarqand va uning atrofida bino qilgan hashamatli saroylar va bog‘larida o‘tkazilgan rasmiy qabul va tantanali marosimlarda, Ispaniya elchilari Xitoy, Hindiston, Rum, Zobuliston, Iroq, Shom, Misr, Oltin O‘rda, Saqlab (Russiya) kabi Sharq va G‘arbning ko‘plab mamlakatlaridan kelgan elchilardan yuqoriroq o‘tirib, alohida e'tibor qozonadilar. Rasmiy qabul vaqtida, Klavixo o‘z kundaligida shunday yozgan edi: “Xitoy podshosining elchisidan pastroqda o‘tirganini ko‘rib qolgan Temur, ularga to‘rga, Xitoy elchisini esa pastroqqa o‘tkazishni buyurdi”. O‘rta asr diplomatiyasida bunday rasmiyatchilikka alohida e'tibor berilgan[4].

Rasmiy qabul va tantanali marosimlarda elchilar uchun belgilangan maxsus joylar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning ramziy darajasini ifodalaydi. Klavixo boshchiligidagi Ispaniya elchilari 1404-yilning sentyabr-noyabr oylarida Samarqandda bo‘lib, Temurning Xitoyga tomon yurishi munosabati bilan, boshqa ko‘plab davlatlarning elchilari bilan bir qatorda, 1404-yilning 21-noyabrida Samarqanddan yuborildilar. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib keladi. Oradan bir oy o‘tgach, Klavixo Samarqand safaridagi voqealar haqidagi axborotni yozib, Kastiliya qiroli Genrix IIIga topshiradi. Ushbu axborot keyinchalik “Buyuk Temur tarixi” va “Temur qarorgohi Samarqandga saforot kundaligi” nomlari bilan ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi[9].

Temur vafotidan so‘ng, mamlakatda boshlangan siyosiy beqarorlik va uning mustaqil davlatlarga bo‘linishi G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan o‘rnatilgan bevosita savdo va elchilik aloqalarining asta-sekin susayishiga, va oxir-oqibat butunlay uzilishiga olib keldi. Bu jarayon, shubhasiz, O‘rta Osiyoning G‘arbiy Yevropa va unda shakllanayotgan jahon tashqi bozoridan ajralib qolishi, hamda O‘rta Osiyoliklarning dunyo xalqlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidan chetda qolishining boshlanishini anglatardi[3].

**Xulosa.** Temurning diplomatik faoliyati uning nafaqat Sharqda, balki G‘arb mamlakatlarida ham ta’sirli siyosat yuritishini ko‘rsatadi. Uning Fransiya, Angliya va Ispaniya kabi davlatlar bilan o‘rnatgan diplomatik aloqalari, o‘zaro savdo bitimlari va elchilar orqali olib borilgan yozishmalari, o‘sha davrda xalqaro siyosatda qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarini ta’minladi. Temurning G‘arbiy davlatlar bilan savdo va elchilik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari, uning siyosiy maqsadlari bilan uzviy bog‘liq edi. Bu aloqalar nafaqat uning davlati, balki butun mintaqalararo iqtisodiy va siyosiy integratsiyani kuchaytirishiga olib keldi. Temur o‘z davlati uchun nafaqat yangi savdo yo‘llarini ochdi, balki xalqaro maydonda katta siyosiy ta’sirga ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan diplomatik vositalarni ham samarali qo‘lladi. Shuning uchun, Temurning diplomatiya sohasidagi muvaffaqiyatlari, uning tarixdagi o‘rni va uning davlatining mustahkamlanishiga qo‘shgan hissasi, o‘rganishga arziydigan muhim jihatlardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Вдовина С.А. *Амир Темур в мировой истории.* — Ташкент: Шарк, 1996. — 256 с.
2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi: 2 jildlik. — Toshkent: Mehnat, 1992. — 320 b.
3. Keren L. Amir Temur saltanati. — Toshkent: Ma’naviyat, 1999. — 240 b.
4. Xolbekov M. Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. — Samarqand, 1996. — 180 b.
5. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. — Toshkent: Sharq, 1997. — 384 b.

6. Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi. — Toshkent: Sharq, 2000. — B. 151–234.
7. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). — Toshkent, 1996. — 220 b.
8. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. — Toshkent: Fan, 1996. — 300 b.
9. Xolbekov M. Amir Temur va uning ma’muriy tuzilmasi. — Samarqand, 2000. — 200 b.
10. Sagdullaev A. Amir Temur va uning davri. — Toshkent: Akademiya, 1999. — 280 b.
11. Sodiqov M. Amir Temur va uning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati. — Toshkent: Sharq, 1997. — 210 b.
12. Vamberi H. Buxoro yoki Movarounnahr tarixi. — Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1990. — 350 b.

## АМИР ТЕМУР ДАВЛАТ БОШҚАРОВ ТИЗИМИ КОНСТИТУТЦИОН ЭДИМИ?

**Холикулова Шахноза Боймухамматовна**
**Навоий давлат университети доценти, PhD**

Ўрта Осиё тарихида алоҳида ўрин эгаллаган буюк давлат арбоби Амир Темур томонидан барпо этилган давлат нафақат ҳарбий қудрати, балки мукаммал бошқарув тизими билан ҳам ажралиб туради. Замонавий сиёсий-ҳуқуқий назария нуқтаи назаридан қаралганда, Темурийлар давлати тўлиқ конституцион давлат бўлмаган бўлса-да, унда конституцион бошқарувга хос айрим муҳим белгилар мавжуд бўлганини кузатиш мумкин.

Юнеско Амир Темурнинг инсоният тарихидаги улкан хизматларини жаҳонга танитиш учун Ўзбекистон билан биргаликда жонбозлик кўрсата бошлади. Бу А.Темурни жаҳон тарихидаги ўрни ва ролини англатади. 1995 йил декабрда, 1996 йилни Амир Темур йили деб аташ тўғрисида фармон қабул қилди. “Темур тузуклари” бир неча тилларда чоп этилди. Амир Темур мақбараси тикланди. 1996 йил 22-24 апрел кунлари ЮНЕСКО доирасида Парижда халқаро тадбир ўтказилди[21].

Амир Темурнинг буюк давлат тузиш мақсадлари доираси Ўрта Осиёни бутун дунё маданий марказига айлантириш каби режаларни ҳам ўз ичига олган эди. Темур ўзининг сиёсий мақсади йўлида кўп ҳарбий ва ички сиёсий тадбирларни амалга ошириш билан бир қаторда жуда катта ижтимоий-маданий тадбирларни юзага чикарди. Усталарнинг техник билимлар ва ижодий изланишлари натижасида шаҳарлар киёфаси тубдан ўзгариб кетди. Дабдабали саройлар, ҳашаматли макбаралар, масжид ва ҳонакоҳлар, боғлар яратилди.

Амир Темур давлат бошқарувида қонун устуворлиги ва тартиб-интизомга алоҳида аҳамият берган. Бунинг ёрқин намунаси сифатида “Темур тузуклари”ни келтириш мумкин. Ушбу асарда давлат бошқаруви, ҳарбий тизим, мансабдор шахсларнинг вазифалари, жазо ва мукофот тизими аниқ белгилаб берилган[22]. Бу эса давлатни муайян ҳуқуқий меъёрлар асосида бошқаришга интилиш мавжуд бўлганини кўрсатади. Хусусан, у тажрибасига таяниб, кенгашнинг икки турли бўлишини, биринчиси – тил учида айтилгани, иккинчиси чин юракдан чиққани эканлигини айтади. «Тил учида айтилганини шунчаки эшитардим, – дейди у, – юракдан - айтилган маслаҳатни эса қалбим қулоғига қуярдим ва дилимга жойлардим». Подшоҳлар учун тўғри сўз, ҳаққоний хабарнинг фойдаси кўп, чунки ёлғон давлатни емиради. Амир Темур тўғри сўз кишига ҳурмат билан қарайди: «қайси киши ақлга сиққан бир ишни куюниб гапирса, суйиб эшитар эдим; кимки оқилона гапларни эрларча кескинлик билан сўзласа, унга солардим; ҳар кимдан кенгаш сўрар эдим, лекин айтилган ҳар бир маслаҳатнинг яхши ва ёмон томонлари ҳақида ўйлаб кўргач, тўғри ва савоблироғини танлаб олардим»[23].

Амир Темур давлат бошқарувида қонун устуворлигини биринчи ўринда қўйган. Буни асосий манба сифатида “Темур тузуклари” ни кўрсатиш мумкин. Ушбу асарда давлат бошқаруви қоидалари, ҳарбий тизим, мансабдор шахсларнинг вазифалари ва жазо-мукофот тизими аниқ белгилаб берилган. ‘Темур тузуклари”га кўра, ҳар бир мансабдор:

- ўз лавозими бўйича масъул бўлиши;

[21] Амир Темур – фахримиз, ғуруримиз. –Тошкент: “Ўзбекистон”. 1998й. -10-24 бетлар.
[22] Темур тузуклари – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1991. – **45–47 бетлар**
[23] Темур тузуклари. – Тошкент, 1996, 26-27-б.

- халқ манфаатини ҳимоя қилиши;
- давлат бошқарувида ҳалол ва адолатли бўлиши лозим[24].

Ҳокимиятнинг шахсий иродага боғлиқ бўлмаслиги, аниқ қоидалар ва жазо тизими орқали таъминланган. Бу ҳолат Темурийлар давлатида конституцион бошқарув элементлари мавжудлигини кўрсатади.

Амир Темур давлатда марказлашган бошқарувни жорий қилган. Ҳокимият қудрати марказда йиғилган бўлса-да, ҳар бир вилоят ва туман раҳбари белгиланган қоидалар асосида фаолият юритган[25]. Бу тизим: давлатда тартибни сақлаш; солиқ ва ҳарбий қудратни назорат қилиш; маҳаллий аҳолини адолатли бошқариш; элчилар ва мансабдорлар орқали марказий ҳокимият билан боғлиқликни таъминлаш; каби жиҳатларни таъминлаган.

Амир Темур салтанати, ўзбек халқи унинг давлатчилиги тарихида ўзининг марказлашган, мутлоқий монархия, яккаҳокимлигига асосланган империя давлати сифатида алоҳида ўрин тутади. Аммо давлатшунослик нуқтаи назаридан бу давлатни ўрта аср ғарбий Европанинг давлатлари каби мутлоқ монархия шаклидаги давлат дейишимиз мумкинми? Маълумки, бу давлат Кенгаш, машварат, раият аҳволини ҳисобга олувчи мусулмон ҳуқуқи ва қонун-қоидаларига таянган давлати эди.

“Темур тузуклари”, – деб ёзади Ҳ.Бобоев, – Темур кодекси, яъни Амир Темурнинг давлатни ва уни идора қилиш қонун-қоидаларининг тамойиллари тўпламидир»[26]. Асримиз бошида протекторат остидаги Бухоро амирлигини ўрганган Д.И.Логофет эса, уни Конституцион ҳужжат деб атайди ҳамда шу фикрга таянган ҳолда Конституцион Кодекс Туркистонда 600-500 йиллар илгари пайдо бўлган деб ҳисоблайди[27].

Амир Темур қурган давлат, аввало, ўзида сиёсий тизимнинг энг яхши шаклини мужассамлаштириши лозим эди. Чунки унинг назарида бошкариш маъмуриятини ташкил қилмай ва унинг фаолиятини тўғри йўлга қўймай туриб, жамиятни бошқариш, унинг ҳаётига исломий қадриятларни сингдириш, хизматни жорий қилиш, тўра ва тузукни мустаҳкам тутиш мумкин эмасди. Амир Темур давлати, айтиш мумкинки, Сомонийлар, Қорахонийлар, ғазнавийлар, Салжуқийлар ва Хоразмшоҳлар давлат тизимини қайтадан жонлантирди. Амир Темур давлати замонавий маънодаги конституцион давлат бўлмаган бўлса-да, унда қонун устуворлиги, тартиб-интизом ва мансабдор шахсларнинг масъулияти каби элементлар аниқ қоидаларга асосланган эди. “Темур тузуклари” ва дипломатик ёзишмалар давлат бошқарувини ҳуқуқий асослар билан таъминлаган ва уни тарихда ҳуқуқий давлатчиликнинг ўзига хос намунаси сифатида ажратиб кўрсатади.

## AMIR TEMURNING YEVROPA DAVLATLARI BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI

**NDU “Tarix” mutaxassisligi 1-bosqich magistri**
**Maxmudov Ahror**
**Ilmiy rahbar: dots.R.N.Tolibov**

Malumki, inson uchun hamma narsa tinchlik va xotirjamlikka bog'liq. Zero dunyodagi hamma xalqlar tinchlik istaydilar. Lekin mabodo harbiy harakatlar paydo bo'lar ekan, u albatta xalqaro munosibatlarni jiddiylashtiradi. Bu holda diplomatiya xizmati kuchayishi kerak. Diplomatlar zudlik bilan o'z davlatlari nomidan muzokara olib borishi shart.

Agar diplomatiya tarixiga nazar tashlasak, bu san`at qadim-qadimdan shakllanib, xalqlar va davlatlar o'rtasida tinchlikni mustahkamlashga xizmat qilib kelganligiga guvoh bo'lamiz. Ma'lumki, ulug' bobokalonlarimiz Beruniy, Farobiy, Amir Temur, A. Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi davlat arboblarimiz o'z faoliyatlari bilan xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga

[24] Шарафиддин Али Яздий. *Зафарнома*. – Тошкент: Фан, 1997. – **112–115-бетлар**
[25] Ибн Арабшоҳ. *Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур*. – Қоҳира, 1960. – **67–70 бетлар**
[26] Бобоев Ҳ.Б. Амир Темур ва темурийлар салтанати (XIV-XV асрларда сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихидан). – Тошкент: Камалак, 1996, 73-б. 3
[27] Логофет Д.И. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – Петербург. 1909. – С.206.

ulkan hissa qo'shganlar. Ularning ichida sohibqiron Amir Temurning tashqi siyosati va diplomatiyasi a'lohida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Amir Temur davlatchiligi tarixini, diplomatiyasi tarixini o'rganish yosh mustaqil davlatimizni himoya qilishga, tinchlikni saqlashga, mamlakatimizning kuch - qudratini oshirishga, obro'-etiborini jahonga yoyishga xizmat qiladi.

O'rta asr davri tarixida Amir Temur davlatchiligining o'ziga xos o'rni bor. Yuz yilga yaqin boshbodoqlik hukm surgan mamlakatda tartib o'rnatish, qonunlar joriy qilish oson ish emas edi. Binobarin xavf hali bartaraf etilmagan, Amir Temur orzularining ushalishiga to'sqinlik qilayotgan holatlar mavjud ediki, bular aslida undan mamlakat harbiy kuch - qudratini o'stirishga, qat'iy qonunlar joriy qilishni talab etar edi. Mana shu jarayonda Amir Temurning diplomatik mahorati shakllanib bordi. U o'z xalqining sevimli farzandi, xaloskori sifatida namoyon bo'ldi.

Turkiston sarhadlarida bu zaminda vujudga kelgan va faoliyat ko'rsatgan davlatlar hukmdorlari tomonidan amalga oshirilib, kelingan diplomatik munosbatlar qadim zamonlardan boshlaboq, “elchilik aloqalari” deb yuritilib kelingan. Bu tushuncha uzoq o'tmishga egadir. Mazkur tushuncha “ellar” orasidagi nizolarga barham berish, o'zaro yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yish tarzida vujudga kelgan va keyinchalik izchil qonun qoidalarga ega bo'lgan diplomatik munosabatlar tarzida namoyon bo'lgan. Bu tushuncha “Avesto”dan boshlanib, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asarida yangi mazmun bilan boyitilgan[28].

Keyingi davrlarda bu yo‘nalishda yaratilgan asarlardan biri Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul muluk” asari bo'lib, u XVII asrdagi Buxoro hukumdori Subhonquli Muhammad Bahodirxonga (1645-1680) bag'ishlangan Muallif uni “Dastur ul muluk” - “Podsholarga qo'llanma” deb nomlagan. O'z asarida elchilik masalalariga alohida etibor bergan, adibning o'zi bevosita diplomatik amaliyot bilan ham shug'ullangan.[1]

Darhaqiqat, diplomat bo'lish uchun ham shaxsning davlat milliy manfaatlarini ko'zlab o'zga mamlakatlarda faoliyat yuritishi talab qilinavermaydi. Davlatni boshqarayotgan shaxs ham o'zini buyuk diplomat sifatida namoyon qilishi mumkin. Amir Temur davlat arbobi, hukmdor, sarkarda bo'libgina qolmay diplomatiya san`atiga ham ega bo'lgan shaxs hisoblanadi. Sohibqiron yengilmas kuch - qudratga ega bo'lishiga qaramay xalqaro munosabatlarda diplomatiyaning samaradorligiga juda ham ishongan.

Diplomatik uslub tomonlar o'rtasida qarama - qarshiliklar yoki anglashilmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga, ko'pchilik hollarda oradagi gina - qudratlarga barham berishga, umuman yaxshi munosabatlar yo'lida paydo bo'lgan, turli g'ovlarni bartaraf etishga hamisha yo'l ochib bergan.

Masalan, Amir Temur, kuch ishlatishdan ko'ra tadbir ishlatishni afzal deb bilgan. “Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir amalga oshirishi mumkin” [2], - deb ta'kidlaydi u. Ya'ni boshqa yurtlarga yurish qilishda oldin uzoq vaqt diplomatik munosabatlar olib borib, jangsiz itoat etishni taklif qilgan. U qayerda hozir bo'lmasin o'sha yerda o'ziga xayrihoh odamlar topa olgan va ularning xizmatidan foydalana bilgan. G'animlarni shirinso'zlik, siylov bilan o'z tomoniga og'dirib olish va ularni rag'batlantirish usulidan foydalangan.

Amir Temur diplomatiyasining asosiy tamoyillariga kelsak, bular hozirgi zamon xalqaro munosabatlar prinsiplari va xalqaro huquq normalariga mos tushishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, u elchisi va elchilik daxlsizligi tamoyiliga to'la amal qilgan va o'z muloqotdoshlaridan ham shuni bajarishni talab etgan. “Elchiga yo'lim yo'q” degan aqida uning asosiy matlabi bo'lgan. Sohibqiron diplomatiyasining yana bir jihati bu tuzilgan bitimga va ahdga vafo qilish uning talablariga, oxirigacha rioya etish jarayonidir. Hozirgi zamon diplomatiyasining eng muhim tamoyili – xush muomilalik muloqotdoshiga nazokat bilan muomilada bo'lish hisoblanadi.

Zamonasining ikki qit'a orasida amalga oshgan mazkur muloqatlarni M.M Aleksandr , Z. V. To'g'onning “Timurs Osteuropapolitik”, I. I. Umnyakovning “Mejdunarodniye otnasheniya Sredney

[28] B. Manonov. O'zbek diplomatiyasining tarixiy – ma'naviy asoslari. O'zbekiston tarixi. Jurnali. 2002. № 2. 3-12-betlar

[1] Xoja Samandar Termiziy . Dastur ul muluk. T. 1997. 80-bet.

[2] Temur tuzuklari. T.: Navro'z. 1992. 13 – bet.

azii v nachale XV veka” va boshqa asarlardan o‘rganishimiz mumkin [3]. Mazkur asarlarda Amir Temurning G'arb davlatlari bilan munosabatlari tarixi bayon qilinadi.

Bu davrda Kichik Osiyo va Yevropada muhim voqealar yuz beradi. Usmonlar sultoni Boyazid Yildirim (1389-1402) va Amir Temur oralarida amalga oshgan o'zaro munosabatlar o'z tarixiga ega. Orada nizo paydo bo'lganligi sababli siyosiy muomalar naf bermaydi. Anqara jangi (1402- yil 27-iyul) nomi bilan kirgan bu jang ular o'rtasidagi nizolarga yakun yasaydi. Ana xuddi shu davrda Amir Temur bilan Yevropa davlatlari hukmdorlari orasida yozma muloqatlar ancha avj olganligini guvohi bo'lamiz. Har bir yozilgan maktub o'z tarixiga ega. Bugunda Amir Temur nomidan Fransiya qiroli Karl VI Valua (1380-1422) nomiga yozilgan ikki maktub bizgacha yetib kelgan. Undagi asosiy mazmun har ikki mamlakat savdogarlarning qatnovini yo'lga qo'yish borasidagi orzu-istaklardan iboratdir. Shuningdek, Vizantiya imperiyasi nomidan kelgan elchi Francheskoga bergan maktubidan shu narsa aniqki, mazkur imtiyoz Vizantiya imperiyasi umrini 1453 – yilga qadar taxminan yana 50 yilga uzaytirgan[2].

Amir Temur mamnuniyat bilan xorijiy savdogarlar bilan muloqot qiladi, ularga homiylik qiladi, yordam ko'rsatadi, ayniqsa mamlakat hududida nasroniylar va faranglarning xavfsizligini ta'minlab turadi. U o'z mamlakatida ularning erkin kun kechirishlarini ta'minlagan va u yerdagi qonunlardan foydalanishga, cherkovlar qurishga va ayniqsa, savdogarlarga xizmatlarni xuddi nasroniy xalqlarnikidek ado etishlariga imkon beradi.

Amir Temur savdo-sotiq borasida Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidangi quyidagi fikri diqqatga sazovordir: “Siz o'z savdogaringizni mening saltanatimga yuboring, biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'ymang. Sizga bundayn bo'lak tilagim yo'q. Zero, dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak” [2].

Amir Temur tashqi siyosatida xalqaro iqtisodiy-savdo aloqalarini keng miqyosda yo'lga qayish, undan barchani, avvalambor, Buyuk Ipak yo'lini xalqaro hayotidagi o'rnini qayta tikladi va xavfsizligini ta'minladi. Bu esa savdo-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Amir Temur davlatining Aragon va Kastiliya qirolligi bilan olib borgan munosabatlari tarixi ham g'oyat sermazmundir. Mazkur qirolliklar boshqa Yevropa davlatlari singari Amir Temurning g'arb safarini sinchikovlik bilan kuzatgan edilar. Amirning birin - ketin istilolari haqida xabar topishgach, Konstantin Rallis Paleolog boshchiligidagi elichilarni Aragon qiroli Marti O'rta Osiyoga yuboradi. Kastiliya qiroli Enrike III Trastamara (1390-1407) esa Payo de Sotomayorni Amir Temur huzuriga maktub bilan yuborgan. O'z navbatida Amir Temur ham bu elchilarni qabul qilib, ular orqali maktub jo'natadi. Maktublardan shu narsa aniqki, Yevropa davlatlari Temur davlati bilan savdo aloqalarni yo'lga qo'yishga intilgan. Ikkinchi tomondan esa, O'rta Yer dengizi taranzit yo'lida erkin harakat kafolati ilinjida harakat qilishgan.

Amir Temur nafaqat iqtidorli davlat arbobi, mohir lashkarboshi, balki qobiliyatli diplomat ham edi. U dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatish va uni mustahkamlash sohasidagi faoliyatini avj oldirdi. Fransuz va ingliz qirollarining maktublari bunga dalildir. Til, din, millatlarning har xilligi Amir Temurning dunyo mamlakatlari bilan diplomatik, savdo-sotiq munosabatlari o'rnatishiga halaqit bermadi.

Temur tarixichilar tasviricha, o'rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblardan bo'lgan. Uning “Temur tuzuklari” asari bu fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi. Bu asarda Temurning jamiyatga, birlashgan qudratli davlatning siyosiy-ijtimoiy prinsiplariga qarshi munosabatlar konkret ifodalangan. Amir Temur davr talabini, ya'ni mamlakatni mo'g'ul bosqinchilaridan tozalar, yagona, kuchli markazlashgan davlat tiklash kerakligini o'z vaqtida tushunib yetgan davlat arbobidir.

Sharqda yaratilgan Amir Temur va uning ulug' ishlari to'g'risidagi eng mukammal asar “Zafarnoma” muallifi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha: “Amir Temur olimu fuzalolarga qarata

---

[3] Umnyakov I. I. Mejdunarodniye otnasheniya Sredney Azii v nachale XV veka. Samarkand Ilmiy tuplam № 61. Veneshne politicheskiye svyazi Samarkanda s gosudarstvami Zapadnoy Yevropi. Istoriya Samarkanda. T. 1. T. 1969. str-173-195 Ismatullayev X. Vizantiya tarixida Amir Temurning tutgan o'rni. Muloqot 5-son, 1996. G'ulomov S. Amir Temur va Boyazid munosabatlari. Sharqshunoslik. 7 –son, T, 1996. 18-bet Keren L. Saidov A. Amir Temur va Fransiya. T. 1996.

[2] Умняков И. И. Внешние политические связи Самарканда с государствами Западной Европы. Т. 1956. стр-187-189.

[2] Samarqand tarixi. T. “Fan”. 1971. 181-bet.

murojaat qilib, fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan qadimda podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqarolarning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish davlatimizni kuchaytirishda, adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat” [1],- degan ekan. Ko'rinib turibdiki, Sohibqiron davlatni boshqarish ishlarida o'zgalarning maslahatlaridan ham o'rinli foydalangan.

Ko'hna tarix sahifalari bobokalonimizning millat va el-ulus manfaati bobida chekkan mislsiz zahmat hamda, ko'rsatgan shijoatlariga guvohlik , beradi. Sohibqiron Amir Temur o'z davlatchilik asoslarini yaratish, bunyod etish bilan birga, bu davlatni boshqarish va rahbarlik, yetakchi diplomatiya maktabini ham yaratdi. Amir Temuring olib borgan mustaqil tashqi siyosati hayot sinovlaridan toblanib, sayqallashib, keying davr rivojiga xizmat qilmoqda. Shu davr an'analari, bobokalonimiz o‘gitlari bugungi tashqi siyosatimizda hanuz amal qilib kelmoqda.

## AMIR TEMUR DAVLATINING JAHON SIYOSATIDAGI O‘RNI

**Qarshiyev Rustam Mordonovich**
**tarix fanlari nomzodi, professor**

**Muyedinova Maxfuza Yarashevna**
**Navoiy davlat universiteti**
**Tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi hodimi**

Temur mohir siyosatchi va yetuk davlat arbobi edi. U o‘zidan avval o‘tgan hukmdorlardan farqli o‘laroq davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyandi. Mamlakat va raiyatning turmushi, uning farovonligi yoki og‘ir ahvolga tushib qolishi ko‘p jihatdan markaziy davlat tizimi va uning ish uslubi, faoliyatiga bog‘liq. Amir Temur buni to‘g‘ri anglab, avvalambor, markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzdi, bu ishda u songa emas, balki sifatga e’tibor berdi. Davlat ishlariga imonli, diyonatli va tashabbuskor odamlarni tayinladi.

Mafkura ishiga aql-idrokli, vatanparvar, jasoratli, tadbirkor va umuman, har jihatdan yetuk shaxs boshchilik qilgan taqdirdagina u samarali bo‘lishi mumkin. Buyuk Amir Temur ana shunday ajoyib shaxslardan edi. U mustaqillik va ozodlik ramzi sifatida tan olingan. “Amir Temur tarixi” asarining muallifi Ibn Arabshoh sohibqironning fazilatlarini sharhlab, shunday yozgan edi: “Temur tengi yo‘q fe’l-atvori, chuqur mulohazali kishi bo‘lib, tafakkur dengizining qa’ri yo‘q va uning tadbiri tagiga na tekisligu, na g‘adir-budir orqali yo‘l topiladi”.

Mafkuraning siyosiy sohada tutgan muhim o‘rni 1370-yilda Amir Temur davlatining barpo etilishida to‘la namoyon bo‘ldi. Markazlashgan va qudratli davlatni yuzaga keltirish mafkuraning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bunga erishish uchun, avvalo, o‘zaro kelishmovchiliklarga va urushlarga barham berib, davlatni ichki tarafdan mustahkamlash zarur edi.

Amir Temur davlatining mafkurasida qo‘shinining kuch-qudratini va jangovarligini oshirish muhim o‘rinni egalladi. Avvalo, Amir Temurning o‘zi mohir jangchi va lashkarboshi, hamda sipohlarning jon-dili hisoblanib, ular bilan birga jang maydonlarida qahramonlik namunalarini namoyish etdi. U sipohlarni qurol-aslahalar, maosh va boshqa zarur narsalar bilan ta’minlashga alohida e’tibor berdi. Navkarlarning xizmatlari yuksak qadrlanib, jangda o‘zini ko‘rsatgan navkarlar uchun “Bahodir” unvoni ta’sis etildi. Harbiy xizmatga hatto ayollar ham jalb qilingan edi. Ibn Arabshoh bu haqda shunday yozadi: “Temur askarlari ichida ayollar ham bo‘lib, ular jang to‘s-to‘polonlari va shiddatli to‘qnashuvlarda matonat ko‘rsatardilar. Ular dushman erkaklariga qarshi turib, mardonavor urush qilar, jangda nayza sanchishda, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda mohir erkaklardan ko‘ra ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo‘lib, yo‘lda ketayotgan paytda uni dard tutsa, u o‘z jamoasidan ajralib, yo‘ldan chetga chiqardi va ulovidan tushardi. Ko‘zi yoriganidan so‘ng, chaqaloqni o‘rab olib, uloviga minardi va yana jamoasiga kelib qo‘shilardi”. Ko‘rinib turibdiki, ko‘rilayotgan davrda mafkuraning vatanga sodiqlik va jangovarlik

[1] “Temur tuzuklari”. T. 1996. 81-bet

g‘oyalari shu darajada bark urgan ediki, hatto ayollarni ham chulg‘ab olgan. Ayollarning jang maydonlaridagi qahramonona kurashlari kishini hayratga soladi. Ko‘zi yorigan ayollarning darhol jangga shaylanishi, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Ma’lumki, tarixiy asarlarda Amir Temur askarlarini “vahshiy” kishilar tarzida tasvirlash odat tusiga kirib ketgan. Vaholanki, Amir Temurning o‘zi yuksak axloq-odob egasi bo‘lgani uchun uning qo‘shini ham shunga monand ravishda nihoyatda tartibli va insofli bo‘lgan. Mafkuraning tom ma’noda umumxalq mafkurasi sifatida gavdalanishi va uning Amir Temur tomonidan nihoyatda bilimdonlik bilan boshqarilishi natijasida yengilmas milliy qo‘shin tashkil topdi. Tarixdan ma’lumki, chet ellik bosqinchilar Movarounnahrga bostirib kirib qirg‘inbarot va talon-taroj o‘tkazishgan. Amir Temur yovga uning o‘z yerida zarba berib, ulkan jahon miqyosiga olib chiqish maqsadida qator harbiy yurishlar uyushtirdi. Natijada, mafkurada ulug‘ davlatlilik harakati avjiga minib, jahonni larzaga solgan Temur imperiyasi tashkil topdi.

Hozirgi zamon nuqtai nazaridan qaraganda, g‘ayritabiiy bo‘lib tuyulsa-da, shuni aytish kerakki, o‘sha davrdagi sharoit u yoki bu davlatning hukmron yoki qaram bo‘lishini taqozo etardi. Ayniqsa katta tabiiy va ma’naviy boylikka ega bo‘lgan mamlakatlar shu ikki holatning biriga duch kelishi turgan gap edi. Amir Temur buni yaxshi anglagan holda tashabbus ko‘rsatib, ona yurtni bo‘lajak tashqi xavf-xatardan holi qildi. Bu o‘z davri uchun mohirlik bilan qo‘llanilgan to‘g‘ri siyosat edi, albatta. Bordiyu, Amir Temur davlati tasarruf doirasini keng mamlakatlarga yoymaganida, karvon yo‘llari va savdo markazlarining egasi bo‘lmaganida, u qudratli bo‘la olmas edi. Jamoa ongida mafkuraning “hukmron davlat”, ya’ni mamlakat qonun-qoidalari asosida boshqarishga qaratilgan harakat ko‘zga tashlanadi. O‘rta asrlar tarixida bu kamdan-kam uchraydigan voqealardandir. Shu bois, Amir Temur davlati mafkurasi o‘ziga xos ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ma’lumki, xalq mafkurasining asosini tayanch va boshqaruvchi hokimiyat tashkil etadi. Shu bois saltanatning xavfsizligi va kuch-qudratini ta’minlash hukmdorning muqaddas burchidir. Lekin bu har bir podshohning qo‘lidan kelavermasligi oqibatida bosqinchilar hukmronligi o‘rnatilgan vaqtlar ham bo‘lgan. Amir Temur esa o‘z zimmasidagi mas’uliyatni yaxshi anglagan holda, o‘z taxtining xavfsizligini saqlash bilangina ahamiyat bermay, balki Ispaniya, Angliya, Fransiya singari Yevropa davlatlari bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalar o‘rnatishga hamda ularni rivojlantirib borishga harakat qilgan.

Demak, davlat mafkurasi siyosiy hayotning barcha sohalarida o‘z ifodasini topgan. Chunonchi, Temur davrida mug‘illar zulmi orqasida qashshoqlashgan xo‘jalikni tiklash, savdo-sotiq rivojlantirish va farovon turmush yaratish muhim vazifa hisoblangan. Bu vaqtlarda sun’iy sug‘orish ishlari, yangi yerlarni o‘zlashtirish va umuman dehqonchilik keng ko‘lamda rivojlantirilgan. Amir Temur farmoniga binoan davlat dehqonlariga mablag‘, ishlab chiqarish qurollari va boshqa vositalar bilan ta’minlab turildi. Hunarmandchilikning barcha tarmoqlari o‘sdi va turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqarildi. Ichki va tashqi savdo rivojlanib, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya, Xitoy, Arabiston va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalari yuqori bosqichga ko‘tarildi.

## БХСР НОЗИРИ АБДУРАУФ ФИТРАТ ИЖОДИДА АМИР ТЕМУР СИЙМОСИ: МИЛЛИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР ВА ДАВЛАТЧИЛИК ҒОЯСИ

**З.Б. Жунаев**
Навоий давлат университети Тарих кафедраси доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

**Аннотация.** Ушбу мақолада жадид мутафаккири, БХСРда Маориф нозири сифатида фаолият юритган Абдурауф Фитрат ижодида Амир Темур сиймосининг тарихий, бадиий ва сиёсий-мафкуравий вазифалари таҳлил қилиниб, асосий эътибор Фитратнинг “Юрт қайғуси” насрий шеъри, айниқса “Темур олдинда” матни ҳамда “Темур сағанаси” драмасидаги маълумотларга қаратилди. Фитрат учун Амир Темур шунчаки ўтмиш ҳукмдори эмас, балки

миллий тарихий тафаккурни уйғотувчи, миллатни руҳий-сиёсий жиҳатдан сафарбар этувчи ва давлатчилик ғоясини маънавий жиҳатдан асословчи рамзий сиймо экани асосланади.

**Калит сўзлар:** Абдурауф Фитрат, Амир Темур, БХСР, жадидчилик, миллий тарихий тафаккур, давлатчилик, сиёсий сафарбарлик, “Юрт қайғуси”, “Темур олдинда”, “Темур саганаси”.

Абдурауф Фитрат XX аср бошларидаги Туркистон жадидчилигининг энг йирик намояндаларидан бири сифатида адабиёт, тил, маданият, тарих ва давлатчилик ҳақидаги қарашларни бир бутун миллий лойиҳа даражасига кўтарган мутафаккир эди. У Бухорода туғилиб, Истанбулда таҳсил олган, кейинчалик эса Бухоро Халқ Совет Республикасида маориф ва ташқи ишлар соҳаларида масъул лавозимларда фаолият олиб борган. Шу боис Фитрат меросини фақат адабий ҳодиса эмас, балки амалий сиёсий тафаккур билан боғлиқ интеллектуал тизим сифатида ўрганиш лозим.

Фитрат ижодида Буюк Соҳибқирон Амир Темур сиймоси алоҳида ўрин тутади. Муаллиф Амир Темурни тарихий хотира объекти сифатида эмас, балки йўқотилган миллий қудрат, давлатчилик иродаси ва маънавий уйғониш рамзи сифатида талқин қилади. 1917 йил жадид матбуоти ва сиёсий тафаккурида Темур ва Турон образларининг марказий ўрин эгаллай бошлагани Фитратдаги ушбу ёндашувнинг тасодифий эмаслигини кўрсатади.

Мазкур мавзуни ёритишда академик Наим Каримов ва адабиётшунос олим Бегали Қосимовларнинг хизматлари алоҳида аҳамият касб этади. Бегали Қосимов Фитратнинг “Темур саганаси” асари мавжуд бўлгани, аммо унинг тўлиқ нусхаси сақланмаганини қайд этади[29]. Бироқ, бу ҳолат асарнинг тарихий қийматини камайтирмайди; аксинча, унинг атрофида шаклланган илмий қизиқиш Абдурауф Фитратнинг Амир Темур мавзусига мурожаати миллий озодлик ва давлатчилик ғоялари билан чамбарчас боғлиқ бўлганини кўрсатади. Наим Каримов ҳам Темур мавзусининг Фитрат ижоди ва унинг даври миллий уйғониш ғоялари тизимидаги ўрнига эътибор қаратган[30]. У Темур сиймоси миллий ҳуррият, маънавий қудрат ва давлатчилик тимсоли сифатида талқин қилинганини таъкидлайди.

Фитратнинг Улуғ Темур ҳақидаги энг муҳим матнларидан бири “Юрт қайғуси (Темур олдинда)” насрий шеъридир. Манбаларга кўра, ушбу асар “Ҳуррият” газетасининг 1917 йил 31 октябрдаги 47-сонида илк бор босилган бўлиб, кейинчалик адибнинг “Танланган асарлар”и 1-жилдига киритилган[31]. Асарда лирик қаҳрамон Темур ҳузурига “бағрим ёниқ”, “юзим қора”, “кўнглим синиқ”, “бўйним букук” ҳолда келади. Бу мурожаат шунчаки тарихий эҳтиром эмас, балки миллатнинг ўз тарихи олдидаги маънавий масъулиятини англаш шакли сифатида намоён бўлади.

Асарнинг ички мантиғига кўра, миллат ўз таназзули учун фақат ташқи босқинчиликни эмас, балки ўзининг сусткашлиги ва иродасизлигини ҳам тан олиши керак. Шу жиҳатдан Темур образи Фитратда ахлоқий мезон ва тарихий виждон вазифасини бажаради. Айни пайтда, матндаги “мени қўлимни тут”, “белимни боғла”, “муқаддас фотиҳангни бер” каби ифодалар Темур сиймосининг руҳий-сиёсий сафарбарлик вазифасини яққол очиб беради[32].

Фитрат матнларида Темур сиймосининг яна бир муҳим вазифаси – сиёсий сафарбарликдир. Бу атама билан муайян сиёсий мақсад атрофида жамоани руҳий ва маънавий жиҳатдан ҳаракатга келтириш жараёни назарда тутилади. “Темур олдинда”да муаллиф Темурдан “мени қўйма”, “қўлимни тут”, “белимни боғла”, “муқаддас фотиҳангни бер” деб сўрайди; бу мурожаат шахсий нажот эмас, балки умуммиллий қайта тирилиш учун руҳий легитимация излашдир. Асарнинг сўнгги қасами – “Туроннинг эски шараф ва улуғлиғини қайтармасдан бурун аёғларингда ўтирмасман” – Темур сиймосини тўғридан-тўғри ҳаракат чақирувига айлантиради.

Фитратнинг Темурга мурожаати фақат шеър ва драмаларда қолиб кетмагани унинг БХСРдаги фаолиятидан ҳам кўринади. Фитрат Бухорода туркий тил ва маданий ислоҳотлар тарафдори бўлгани, янги таълим тизими ва маданий муассасаларни қўллаб-қувватлагани қайд

[29] Бегали Қосимов, Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. –Тошкент: Шарқ, 1994. 70-бет.
[30] O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2008 йил 23 май, № 21 (3953), 4-бет.
[31] Қаранг: Абдурауф Фитрат, Танланган асарлар, 1-жилд. –Тошкент: Маънавият, 2000. 33–35-бетлар.
[32] Ўша асар, 34-бет.

этилади. Америкалик тадқиқотчи Адиб Холид ҳам Бухоро ва Туркистон жадидлари учун миллат қурилиши тили, таълим, маданият ва сиёсий институтларнинг уйғунлигига таянганини таъкидлайди[33]. Абдурауф Фитрат 1921 йилдан маориф нозири, 1922 йилдан хорижия нозири ва бошқа қатор давлат лавозимларида ишлаб, Бухоронинг янги давлатчилик инфратузилмасини шакллантиришда қатнашди. Шу даврда унинг таъсири остида 1921 йил мартда таълим тили форсчадан туркийга ўтказилгани ва туркий/ўзбек тили республикада расмий мақомга эга бўлгани ҳақида манбалар хабар беради; у Германияга талабалар юбориш, қўлёзмалар тўплаш, Бухорода илмий ва маданий муассасаларни ташкил этиш ишларида ҳам фаол бўлган[34]. Бу жиҳатдан Темур сиймоси Фитратда тарихий рамздан амалий давлатчилик дастурига айланган, дейиш мумкин.

Дарҳақиқат, Абдурауф Фитратнинг Темурга мурожаати давлатчилик концепцияси билан ҳам узвий боғлиқ. Амир Темур бу ерда ҳарбий қудрат соҳиби сифатидагина эмас, балки марказлашган сиёсий ирода, миллий тартиб ва давлат тузиш қобилиятининг тарихий сифатида талқин қилинади. Шу маънода, Фитрат учун Темур образи ўтмишни идеаллаштириш воситасигина эмас, балки янги давр миллатини сиёсий жиҳатдан уйғотиш ва унда давлатчилик масъулиятини шакллантиришнинг маънавий механизми ҳисобланади. Турк тадқиқотчиси Ҳалим Кара таъкидлаганидек, мустақилликдан кейин Фитрат мероси миллий адабий ва маънавий бойлик сифатида қайта баҳоланди; бу ҳол унинг асарларидаги рамзий сиёсий юкнинг кучлилигини ҳам англатади[35]. Фитрат меросининг кейинчалик “миллий адабий мерос” сифатида реабилитация қилингани ҳақидаги таҳлили ҳам шу нуқтани билвосита тасдиқлайди..

Хулоса қилиб айтганда, Абдурауф Фитрат ижодида Амир Темур сиймоси камида уч муҳим вазифани бажаради:

- биринчидан, миллий тарихий тафаккурни уйғотувчи рамз сифатида;
- иккинчидан, миллатни руҳий ва сиёсий сафарбарликка чорловчи маънавий куч сифатида;
- учинчидан, давлатчилик ғоясини тарихий ва маънавий жиҳатдан асословчи тимсол сифатида.

Демак, Абдурауф Фитратнинг Буюк Амир Темурга мурожаати жадид миллий тафаккурининг муҳим концептуал механизмларидан бири сифатида баҳоланиши лозим десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз.

## САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙНИНГ АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДАГИ ИЛМИЙ МУҲИТ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

**М.Х.Норқобилов,**
**Навоий давлат университети “Тарих” кафедраси доценти,**
**фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

**Аннотация.** Ушбу мақолада ислом ва калом илми назарияси асосчиларидан бири бўлган Саъдуддин Тафтазонийнинг илмий қарашлари ҳақида фикр юртилади. Унинг илоҳиётшунослик тармоғининг ривожи йўлида рационал қарашлари, умуминсоний қадрият ҳисобланган илмга интилиш, ақлни улуғлаш, оламни англаш, ахлоқий камолотга эришув, ижтимоий адолат каби ғоялари барча асарларида бирламчи омил сифатида илгари сурилган.

**Калит сўзлар.** Калом, ақоид, фиқҳ, илоҳиётшунослик, рационал тафаккур, нақлий ва ақлий билимлар, ихтиёр эркинлиги ва ахлоқий танлов, ижтимоий адолат ва муроса маданияти.

Тарихий манбаларда келтирилганидек, XIV аср иккинчи ярми – XV асрга келиб Мовароуннаҳрда илм-фан, маданият ва таълим ривож топди. Амир Темур ва темурий шаҳзодалар мазкур жараён тараққиётини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаб, илмга рағбати

[33] Adeeb Khalid, Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR (Ithaca, NY: Cornell University Press, 2015), 69–70.
[34] Habib Borjian, “FEṬRAT, ʿABD-AL-RAʾŪF BOḴĀRĪ,” Encyclopaedia Iranica, 15 December 1999.
[35] Kara, Halim. “Reclaiming National Literary Heritage: The Rehabilitation of Abdurauf Fitrat and Abdulhamid Sulaymon Cholpan in Uzbekistan.” Europe-Asia Studies 54, no. 1 (2002): 123–142.

мавжуд бўлган ижтимоий қатлам вакилларининг таълим олишлари учун масжид, мадраса каби илм даргоҳлари қурилишига шароит ва имконият яратдилар. Бу даврда Самарқанд, Бухоро ва Ҳиротда кўплаб олимлар фаолият олиб бордилар. Айтиш мумкинки, шаклланган маданий муҳит таъсири остида “Самарқанд ва Мовароуннаҳрнинг бошқа йирик шаҳарлари илм-фан марказларига айланди”[36]. Уларда тарих, фалсафа, математика, астрономия, табобат, география каби дунёвий, тафсир, ҳадис, калом, фиқҳ каби исломий фанлар ҳамкорликда ривожланди. Самарқандда бутун Шарқ дунёсидан кўплаб олимлар жамландилар. Уларнинг ижодлари учун барча моддий-маиший шароитлар яратиб берилди. Яратилган шароит ва имкониятлар натижаси ўлароқ, Марказий Осиёдан етишиб чиққан олиму мутафаккирлар ўрта асрларда дунёвий ва исломий билимлар тараққиётига ўзларининг беқиёс ҳиссасини қўшдилар.

Мазкур ижтимоий воқеликлар Амир Темур даври маърифий ишларнинг давлат сиёсати даражасига кўтарилганлиги билан изоҳланади. Жумладан, буюк аллома Саъдуддин Тафтазоний ҳаёти ва ижоди билан бевосита боғлиқ бўлган соҳибқирон Амир Темур ҳукмронлиги даврида шундай сиёсий тенденция шакллантирилдики, пировардида, ривожланишга эришиш учун мазкур жараёнда қонун устуворлигини таъминлаш масаласи бирламчи омил бўлиб хизмат қилди. Хусусан, Амир Темурнинг жамият барқарорлигида адолат ва қонун устуворлигини таъминлаш тамойили ижтимоий зарурат эканлиги ҳақидаги хулосага келишига, Саъдуддин Тафтазонийнинг сиёсий-ҳуқуқий ғоялари маълум маънода назарий манба вазифасини бажарган. Қолаверса, Амир Темур томонидан барпо этилган марказлашган давлатдаги маънавий-маърифий, диний-ақидавий, ҳарбий ва сиёсий-бошқарувга оид ислоҳотларда Тафтазоний ўзининг прогрессив ғоялари билан унга елкадош бўлганлигини манбалар тўлалигича далиллайди. Мазкур масалада Соҳибқирон Амир Темур марказлашган ҳуқуқий давлат пойдеворини шакллантиришда маълум маънода Тафтазонийнинг ҳуқуқий қарашлари ижтимоий ҳаётда амалий тус олганлигини тадқиқот ишида кўриш мумкин. Ҳар қандай ғоя ва қарашлар жамият томонидан эътироф этилавермаслигини тарихий давр далиллайди. Шу жиҳатдан олганда, Тафтазонийнинг замон ва макон танламас ғоялари ўз даврида ҳам бугунги кунда ҳам давлат ва жамиятнинг барқарор ривожланишида муҳим восита эканлиги асосланган.

Амир Темур марказлашган давлат тепасига келиши биланоқ, Самарқанд шаҳридаги илм масканларида ўзининг тасарруфида бўлган вилоятлардан машҳур олиму-фузало, ҳунарманд ва маънавият вакилларидан иборат бўлган маърифий жамоани шаклланишида саъй-ҳаракатлар олиб борган.

Самарқандга келган олимларга илм билан шуғулланишлари учун барча имконият ва қулайликлар яратилган эди. Саройда Амир Темур ташаббуси билан ташкил этилган илмий мунозара ва баҳсларда иштирок этиб, ғолиб чиққан олим ҳамда бошқа ижод аҳиллари мунтазам рағбатлантирилиб борилган. Қолаверса, ташкил этилган илмий баҳсларда салоҳияти юқори бўлган олимлар янги очилган билим даргоҳларига таълим бериш учун мударрис сифатида юборилган.

Илм-фанга, маърифатга бўлган юксак эътибор боис, ўша даврдаги кўпгина олимлар Самарқандга бориб, ижодий фаолият билан шуғулланишни ўзлари учун шараф деб билишган. Мазкур ижодий муҳитда юзага келган омилларнинг барчаси ҳар қандай зиёга интилган инсонда илм эгаллашга бўлган иштиёқнинг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Оқибатда эса, “Самарқанд заминида фаолият кўрсатган Балхий ва Дамашқий, Бағдодий ва Марвазий, Тафтазоний ва Журжоний, Жазарий ва Шомий каби юзлаб мутафаккирларнинг номлари”[37] тарих сарварақларидан муносиб ўрин эгаллади.

Амир Темурнинг олимлар ва ўша даврида шаклланган илмий давра вакилларига юксак ҳурмат-эҳтироми, уларга яратилган имконият ва шароитлар, минтақада қатор маданий юксалиш омилларининг юзага келишига, пировардида иккинчи Уйғониш даврининг ижтимоий-сиёсий, тарихий илдизларини пайдо бўлишига замин яратди.

---

[36] Каримов И. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5-жилд, Т., “Ўзбекистон”, 1997

[37] Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллигига бағишланган тантанли маросимда сўзлаган нутқи. 25.08.2007 йил. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ubaydulla-uvatov-alloma-taftazoniy-samarqandda

Юқорида таъкидланган даврдаги илмий ижодий муҳит тўғрисида маълумот ва қимматли фактларни баён қилган Шарофиддин Роқимий шундай ёзади: “Соҳибқирон Амир Темур Кўрагон салтанати даври ва давлати рўзғорида... кўплаб истеъдодли сўз усталари, мумтоз фозиллар унинг идроки шамъи партавидан дониш чироғини ёққанлар”[38]. Шарофиддин Роқимий таърифлаган “мумтоз фозиллар”дан бири Саъдуддин Тафтазоний эди. Тинимсиз ҳаракат, илмий изланишлар ва даврнинг ижтимоий муҳити Тафтазонийни Марказий Осиё фалсафий тафаккури тараққиётида ўчмас из қолдирган мутафаккирлардан бирига айланишига сабаб бўлди.

Таъкидлаш жоизки, бирор бир олимнинг ҳаёти ва фаолиятини, илмий изланишларини ўрганишда у яшаган даврда жамиятдаги ижтимоий-сиёсий муҳит ва илм-фанга бўлган эътиборга тўхталиб ўтмоқ муҳим масалалардан биридир. Чунки шахснинг даҳо ёки оми (авом) бўлиб шаклланишида у яшаган даврнинг муҳити аҳамиятли жиҳат саналади.

Тафтазоний ислом оламида “саъд ал-милла ва ад-дин», “саъд ал-имом ал-аллома ал-фақиҳ ал-адиб ал-ҳанафий” каби номлар билан машҳур, шунингдек, кўплаб қомусий асарлари билан жаҳон илм-фанига катта ҳисса қўшган олим сифатида эътироф этилади. Олимнинг тўлиқ исми Масъуд ибн Умар ибн Абдуллоҳ ибн Шамсуддин ал-Қорий бўлган.

Саъдуддин Тафтазонийнинг таваллуди ва вафоти борасида турлича ёндашувлар мавжуд. Ўша даврнинг энг машҳур муаррихлари Абдураззоқ Самарқандий, Мирхонд ва Хондамирларнинг асарларида келтирилишича, “Тафтазоний ҳижрий сафар ойи 722 йилда, милодий 1322 йил февраль (сафар ойи)да шимолий-шарқий Эроннинг Нисо шаҳри Тафтазон қишлоғида дунёга келган”[39] (ҳозирги Туркманистон ҳудуди). Аксарият манбаларда мутафаккирнинг туғилган йили “1322 йил”[40] деб кўрсатилган. Биз Тафтазонийнинг таваллуди борасида аксарият муаррихларнинг якдил эътирофини инобатга олиб, 1322 йилда таваллуд топган деган фикрни асослаймиз ва қўллаб-қувватлаймиз. Мутафаккирнинг отаси ўз даврининг илмли шахслари бири бўлган ва узоқ йиллар қозилик лавозими ишлаган. Боболари ҳам илмий давра вакилларининг уламоларидан саналган. Тафтазонийнинг айрим манбаларда ёлғиз ўғли бўлганлиги айтилади. Мутафакккирнинг авлодлари орасида темурийлар даврида “шайхулислом”[41] лавозимида фаолият юритган илмли инсонлар етишиб чиққанлиги ҳақида маълумотлар келтирилган.

Шунингдек, Хайруддин Зириклий ва Шарафуддин Роқимий асарларида келтирилган маълумотларга кўра, аллома Тафтазоний Самарқанд шаҳрида 1390 йил 10 январда вафот этган ва Сарахсга дафн этилган. Мутафаккирнинг вафоти ҳақидаги маълумотлар мунозарали бўлганлиги сабабли, бу борада чуқур илмий тадқиқотларни талаб қилади.

Мутафаккирнинг ёшлигиданоқ илм олишга бўлган иштиёқи, қолаверса, илму-урфон тараққий этган ўрта аср марказий шаҳарларидаги илмий давралар, Тафтазоний илмий дунёқарашининг эрта шаклланишига сабаб бўлди. Хусусан, “ўз даврининг илм марказлари бўлган Самарқанд, Бухоро, Хоразм ва Сарахс каби шаҳарларда таниқли олимлардан таҳсил олиб, турли илмий мунозараларда иштирок этган”[42]лиги Тафтазонийнинг илм ва ижод саҳнасига қўйган дастлабки қадамлари эди. Мазкур ижтимоий воқелик ва муҳит сабабидан у илмнинг жуда кўп тармоқларида замонасининг пешқадамларидан бўлганлиги тарихий манбаларда кайд этилган.

Машҳур араб олими, социология фанининг асосчиси, тарихчи Ибн Халдун “Муқаддима” асарининг “Ақлий билимлар ва уларнинг таснифи” деб номланган параграфида қуйидагиларни айтади: “Мисрда ақлий билимларга оид бир қанча китобларга дуч келдим. Уларнинг эгаси Хуросоннинг Ҳиротдаги улуғларидан Саъдуддин Тафтазоний эди. Унинг калом илми, усулул фиқҳ, баён илмига оид асарлари бу соҳаларда юқори малакаси борлигини айтиб турибди»[43]. Доимо ишончли маълумотларга таянадиган Ибн Халдуннинг юқоридаги

[38] Шарофиддин Роқимий. Тарихи томм. Маънавият юлдузлари. 1998. –Б.21.
[39] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Самарқанднинг сара уламолари. Т.: «Hilol nashr». 2019. –Б.12.
[40] Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Таҳ. ҳай. М.Хайруллаев ва бошқ. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти Т.:1997. –Б.32
[41] Қодиров П. Юлдузли тунлар. Т.: Янги аср авлоди. 2021. -Б.289
[42] Юртимиз алломалари. -Т. Ниҳол нашриёти. 2014.-б.209.
[43] https://gaz.wiki/wiki/ru/Al-Taftazani

фикрлари Тафтазонийнинг маърифий билимлар назариётчиси сифатида эътироф этиш имконини беради.

Саъдуддин Тафтазоний ҳаёти ва илмий фаолиятини тадқиқ этиш мутафаккир яшаган давр тўғрисида чуқур илмий изланишларни тақозо этади. Шу билан бирга, Тафтазоний ижодиёти тарихини ёритишда холислик тамойилига амал қилиш шарт ва зарур. Жумладан, мутафаккир яшаган даврнинг ижтимоий муҳитида ислом дини ва жамиятда олимларнинг ўрни ва мавқеини, давлат ҳамда дин муносабатлари ҳақида тўла тасаввур ҳосил қилишга асос бўлади. Манбаларда Тафтазоний илмий мероси ижтимоий-тарихий шароитларга боғлиқ ҳолда тадқиқ этилганлиги таъкидланади. Шу жиҳатдан олганда, мутафаккир асарларининг салмоқли улуши Самарқандда, соҳибқирон Амир Темур саройида яратилганлиги алоҳида эътироф этиш жоиз. Жумладан, мутафаккирнинг ўз ўғлига атаб ёзган “Шарҳ ал-Мақосид” номли асари 1372 йилда Хоразмда, “Таҳзиб ал-мантиқ вал-калом” номли асари 1385 йилда Самарқандда ёзилганлиги ва бошқа шу каби қимматли ижод маҳсуллари Амир Темурнинг марказлашган давлат ташкил этганидан кейинги даврига тўғри келади. Тадқиқотда бу каби ҳолатлар Соҳибқирон Амир Темур давлатида илм-фан аҳилларига яратилган имконият ва шароитларнинг натижадорлигидан далолат эканлиги асосланган.

Юқорида таъкидланган ижтимоий-сиёсий ва маънавий омиллар Саъдуддин Тафтазоний илмий изланишларини ва ижод жараёнини Амир Темур даври ва давлати билан бевосита чегараланишига олиб келади. Натижада мазкур қарашлар мутафаккир илмий меросини тадқиқ қилишда бирёқламаликни келтириб чиқаради. Айтиш мумкинки, Тафтазоний ижоди фақатгина Амир Темурнинг марказлашган давлатидаги шароитлар билан боғлаб ўрганиш холислик тамойилларини бузилишига сабаб бўлади. Чунки Тафтазонийнинг илк ижод намунаси ҳисобланган «Шарҳ ат-тасриф ал-иззий» асари унинг айни ўспиринлик даврида, яъни 16 ёшидаёқ дунё юзини кўрган эди. 1338 йилда ёзиб тугатилган мазкур асарнинг яратилиши сабабидан Тафтазоний Мовароуннаҳр ва Хуросон мадрасаларида мударрислик қилиш имкониятини берувчи ёрлиқ (диплом-сертификат)ни қўлга киритган эди. Ваҳоланки, бу вақтда соҳибқирон Амир Темур 2 ёшда бўлган. Юқоридаги омиллар сабаб, ижтимоий ҳаёт ва ислом маърифатининг мукаммал ғояларини ўз асарларида жамлаган Саъдуддин Тафтазоний фалсафий тафаккур тараққиётига муносиб ҳисса қўшганлигини эътироф этиш ўринлидир.

Ўзини мутакаллимларданлигини эътироф этган Саъдуддин Тафтазоний ҳаёти ва илмий фаолиятида диққатга сазовор жиҳатлар тўғрисида қуйидагиларни таъкидлаш ўринли деб ҳисоблаймиз. Хусусан, мутафаккир асарларида илгари сурилган ижтимоий-фалсафий ва маънавий-маърифий мавзудаги ғоялар қуйидагилардан иборат:

- Инсондаги ихтиёр эркинлиги ва ахлоқий меъёрлар таснифи;
- Холиқ ва махлуқлик муносабатлари, яъни Яратувчининг яратилмишлар тақдири хусусидаги қазо ва қадар масалалари;
- Билиш назариясида ақл ва ҳиссиётнинг диалектик бирлиги;
- Оламнинг илмий манзарасини яратишда онтологик ёндашув;
- Нақлий билимлар амалиётида рационал тафаккурнинг ўрни.

Юқорида таъкидланган қарашлар мазкур тадқиқот ишининг долзарб масалалари сифатида тадқиқ этилган. Қолаверса, Тафтазоний калом илмини, фалсафа ва мантиқ билимларининг ривожига беқиёс ҳисса қўшганлигини эътироф этиш ўринли. Жумладан, бу даврда Марказий Осиё ва унга қўшни минтақаларда ақоид ва калом таълимотининг шаклланиши ва ривожланишида ўзига хос мактаб яратди. Мутафаккир ислом динида юзага келган ижтимоий-сиёсий зиддиятларга ечим топишда эҳтиёж сифатида пайдо бўлган калом таълимотини моҳиятан ва мантиқан ёритиб берди. Юқорида санаб ўтилган мавзуларга доир ислом оламида машҳур асарлар яратди. Тафтазоний асарлари рўйхатида нафақат исломий билимлар, балки мантиқ, грамматика, морфология, арифметика, геометрия каби фанларга тааллуқли дунёвий билимларнинг мавжудлиги, мутафаккирнинг фан ва дин борасида уйғунликка эришган буюк шахс эканлигидан далолат беради.

Юқорида таъкидлаб ўтилгани каби мутафаккир Саъдуддин Тафтазоний ўз илмий ва маънавий мероси орқали Қуръони Каримнинг шарҳи – тафсир, ислом ҳуқуқи – фиқҳ, ислом ақоиди – калом, араб грамматикаси – навҳ, нутқ маданияти – балоғат илми, мантиқ,

морфология, геометрия каби фанларни пухта ўзлаштирди ҳамда бу борада бебаҳо асарлар яратди.

Тафтазонийнинг ёшлигиданоқ илмга бўлган рағбати боис, у ислом оламидаги энг ёш олимлар қаторидан ўрин эгаллади. Юқорида таъкидлаганимиз каби, мутафаккир 1338 йилда, айни ўспиринлик чоғида – 16 ёшидаёқ, “Шарҳ ат-тасриф ал-иззий” номли асарини ёзиб тугатган. Маълумотларга қараганда, “унинг илмий-маънавий меросига оид асарларининг сони 30 та”[44]ни ташкил этади. Афсуски, мутафаккирнинг бизгача етиб келган асарларининг аксарияти форс ва араб тилларида ёзилган. Ҳалича ўзбек тилига тўлалигича таржима қилинмаган, чуқур тадқиқот ишлари олиб борилмаган, лекин ўйлаймизки, яқин йилларда бу иш амалга оширилади ва халқимизга тақдим қилиниб, маънавий меросдан баҳраманд бўлади. Бу соҳада олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларининг тараққиётига самарали ҳисса қўшади.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, Тафтазонийнинг илмий фаолиятида, дунёвий ва исломий фанлар тараққиётига қўшган ҳиссаси билан бирга юртимиздан етишиб чиққан буюк олимларнинг асарларига шарҳлар ёзиш амалиёти ҳам етакчи ўринни эгаллайди. У Абу Хафс Насафийнинг “Ақоид ан-Насафий”, Маҳмуд Замахшарийнинг “Тафсир ал-кашшоф” ва “Навобиғ ал-калом” ҳамда шу каби асарларга муфассал шарҳ ва ҳошиялар ёзган.

Мутафаккирнинг ўзидан олдинги ва ўзи билан замондош олимларнинг асарларига шарҳ ёзиш каби масъулиятли ва машаққатли меҳнати борасида сўз борганда қайд этиш керакки, олимнинг энг машҳур шарҳларидан бири сифатида эътироф этилаётган “Шарҳ ал-ақоид ан-Насафий” ҳали тўлиқ тадқиқ қилинмаган. Унда кўтарилган ақидавий масалалар тарихий контекст билан узвий боғлиқлиги таҳлил қилинмаган. Мазкур асарнинг Ўзбекистондаги қўлёзмалар фондларида сақланаётган нусхалари ва хорижий давлатлар фондларидаги мавжуд нусхалари ўртасида комплекс аналогия ишлари олиб борилмаган. Ваҳоланки, мазкур асар қарайиб VII аср мобайнида Марказий Осиё ва унга қўшни ҳудудлардаги диний таълим муассасаларида асосий дарслик сифатида ўқитилиб келинаётган бўлсада, таълим дастуридаги ижтимоий-фалсафий аҳамияти ва ўрни тадқиқ қилинмаган, кенг китобхонлар оммасига ҳавола қилинмаган. Қолаверса, “Шарҳ ал-ақоид ан-Насафия” Тафтазоний томонидан ёзилганидан то ҳозирга қадар ислом динининг ақидавий масалалари юзасидан пайдо бўлган муаммоли мавзуларга жавоб бериб келмоқда. Айниқса, халқимизга Шарқ маънавиятининг асосини ташкил этувчи муқаддас ислом динининг асл моҳиятини тўғри етказишда мазкур асар аҳамияти бениҳоя катта. Шу билан бирга мазкур асар ҳозирги кунда мавжуд турли кўринишдаги диний-сиёсий оқимлар ва деструктив руҳдаги мафкуралар, қарашлар, таълимотларга қарши курашда ғоявий қурол вазифасини ҳам бажариб келмоқда.

Тадқиқотларимиз жараёнида маълум бўлдики, “Шарҳ ал-ақоид ан-Насафий” асарининг турли нусхалари 14, 98, 116, 158, 172 рақамлар остида”[45] Ислом Университети (ҳозирги Ислом Академияси)да сақланиб келинаётганига гувоҳ бўлдик.

Мутафаккирнинг мантиқ илмига оид “Таҳзиб ал-мантиқ вал калом” асарида жамият вакилларининг одоб-ахлоқи, хулқ-атвори, ирода-ихтиёр эркинлиги каби ғояларни тарғиб қилувчи мантиқий масалалар ёритилган. Айнан шу масалаларда ўрта аср ижтимоий қатлам вакилларида турли хил фикр ва қарашлар мавжуд эди. Ўша давр файласуфлар қарашларидаги қазо ва қадар мавзуси, инсон ҳаёти ва фаолиятидаги эркинлик масаласи, яъни ихтиёрий эрк ҳар бир инсоннинг ўзига берилганми ёки Яратувчи томонидан тақдирга битилганми каби мунозарали саволлар авж олган эди. Шу нуқтаи назардан олганда, Тафтазонийнинг барча асар ва шарҳлари замон ва маконнинг ижтимоий эҳтиёжидан келиб чиқиб яратилганлигини англаш мумкин.

Хусусан, тарихчи олим Е.Э.Бертельс ўз тадқиқотларида форс-тожик адабиётининг буюк мумтоз шоири “Абдураҳмон Жомий шеърият ва нутқ санъатини Саъдуддин Тафтазоний асарларидан ўрганган”[46]лигини таъкидлайди.

Тадқиқотлар натижасида маълум бўлдики, Абдураҳмон Жомий Тафтазонийнинг “Мухтасар ал-маъоний”, “Мутаввал” номли филологик мавзусидаги асарларидан таъсирланиб,

[44] Буюк юрт алломалари. Т. O‘zbekiston. 2018. –Б. 223

[45] Буюк юрт алломалари. -Т. “O‘zbekiston” нашриёти. 2018 йил. –Б.224-бет.

[46] Ўзбекистонда ижтимоий фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. Т. Ўзбекистон. 1995 йил. 132-бет.

тил ва нутқ соҳаларига қизиқиши ортиб боради. Шунингдек, Абдураҳмон Жомий Тафтазонийнинг энг иқтидорли шогирларидан бири – “Шаҳобиддан Муҳаммад Жожармий”[47]дан морфология ва грамматика фанларидан таълим олганлиги, мутафаккир Тафтазонийнинг тил, адабиёт, шеърият, нутқ соҳасидаги билимлари ҳам юқори савияда шаклланганлигидан далолат беради.

Тафтазоний ижтимоий-фалсафий ғоялари, маънавий-маърифий мулоҳазалари ва умуман олганда унинг илмий мероси, иқтидорли шогирдлари томонидан чуқур илмий изланишлар асосида давом эттирилди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, тадқиқотимизда Саъдуддин Тафтазонийнинг фалсафий ва мантиқий қарашлари билан қадимги юнон фаласафаси ўртасида маълум маънода мутаносиблик мавжудлиги очиб берилган. Бу ҳолатни Тафтазонийнинг “ақлий ва мантиқий билишга катта эътибор берган”[48]лиги билан изоҳлаш мумкин. Аммо Тафтазоний маърифат масаласида антик давр фалсафаси билан чегараланиб қолмади. У ўз қарашларини шарқона характердаги фалсафий ғоялар билан уйғун ҳолатда ривожлантириб борди. Тафтазоний ўзининг ижтимоий-фалсафий, мантиқий, диний-ақидавий қарашлари билан Марказий Осиё халқлари ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихини янгидан-янги фалсафий ғоялар билан бойитди.

## AMIR TEMUR SALTANATIDA ILM - MA’RIFAT

**Sh.Toshturov**
**Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi dotsenti,**
**tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)**

Movarounnahrda ilm–ma’rifat sohasidagi ijobiy an’analar qariyb bir yarim asr davomida, ya’ni mo‘g‘ullar hukmronligi davrida tanazzulga yuz tutdi. Ana shunday bir sharoitda tarix sahnasiga chiqqan Amir Temur Movarounnahrni yana bir bor savdo-iqtisodiy, hanarmandchilik, ilmiy-adabiy muhit taraqqiy etgan markazga aylantirdi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov Amir Temurni buyuk shaxs sifatida baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “..Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo‘lmasa, betakror ma’naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo‘lmas edi. O‘zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asosini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o‘z davri, balki kelgusi avlod uchun ham katta ahamiyat kasb etadi”[49].

Sovetlar davrida Amir Temurning hayoti va faoliyatini o‘rganish u yoqda tursin, hatto uning nomini tilga olish ham mutlaqo taqiqlab qo‘yilgan edi. Bu mavzuda yaratilgan ba’zi bir ilmiy-badiiy asarlarda Amir Temur siymosi tarixiy haqiqatga zid ravishda biryoqlama, asosan qora bo‘yoqlarda aks ettirilar edi. Istiqlolga erishganimizdan keyin bu masalada ham tarixiy adolat qaror topdi. Muqaddas yurtimiz zaminida yashab o‘tgan ko‘plab ulug‘ siymolar qatori Amir Temur bobomizning nomi, sha’nu shavkati va merosi ham qayta tiklanib, bu buyuk zot haqidagi asl haqiqat xolis va haqqoniy yoritilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda, kitoblar yozilmoqda. Zero, Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug‘lash–tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir[50].

Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga

[47] Гафурова З.А. Этическое учение Абдуррахмана Джами. Диссертация. Специальность: 09.00.03 – История философии. Душанбе – 2019. –С.62.

[48] Аликулов Ҳ. Шарқ уйғониш даври ва фалсафий тафаккур ривожи. Т.:“MUMTOZ SO‘Z”. 2016. –Б.64.

[49] Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. -5 tom.T.:, O‘zbekiston, 1997. -B.181-191.

[50] Temur tuzuklari.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti -T.: O‘zbekiston., 2014. -B.5.

qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko‘zlab, el manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq ibratli fazilatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. U o‘zining Samarqanddagi saroyiga ilmu - fanning turli sohalari bo‘yicha iqtidorli olimu, shoirlarni chaqirib oldi. Shu yerda bir narsani aytish kerakki, Amir Temurning o‘zida ham ilmga ishtiyoq zo‘r bo‘lganligi uchun u tarixni, fiqh va harbiy ilmni yaxshi bilganlar, hamda me’morchilik, falsafa, tabobat ayniqsa yulduzshunoslikka qiziqar, shuningdek, she’riyat va musiqani yoqtirganlar hamda o‘zlari ham she’rlar yozganlar. Amir Temur o‘z ona-tilida – turk, o‘zbek tilidan tashqari fors va arab tillarida bemalol so‘zlashgan. Shuni aytish kerakki, Amir Temir yetti yoshga to‘lmasdanoq, bilim olishni boshlagan edi. Amir Temur Shayx Zayniddin Abubakr Toybodiy, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Sayid Amir Kulol kabi ulug‘ allomalar ta’limoti ta’sirida voyaga yetdi. U davlat boshqaruvida piri Zayniddin Toybodiyning quyidagi purhikmat so‘zlariga doimo amal qildi: “...Kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto‘g‘ri bo‘lgan johil odamga qiyos qilish mumkin: uning so‘zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanat boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yurgizgin, toki oqibatda nadomat chekib pushaymon bo‘lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo‘lgay, yana bir qismi bilib-bilmaslikka, ko‘rib-ko‘rmaslikka solish bilan bitur. (Xullas) tadbirlardan ogoh qilingandan keyin shuni aytish joizdirkim, qat’iylik, sabr, chidamlilik, hushyorlik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilgay. Vassalom”[51].

Amir Temur zamonasida Samarqand va Shahrisabzda hamda Hirotda yuzlab fozilu ulamolar, minglab ahlu hunar egalari ijod bilan mashg‘ul edilar. O‘sha davrda Amir Temur saroyida turli muddatlarda faoliyat ko‘rsatgan mashhur qomusiy olimlardan Qozizoda Rumiy, Mavlono Ahmad, Saduddin at Taftazoniy, Sayyid Sharif Muhammad al-Jurjoniy, Shamsuddin Muhammad ibn al Jajariy, Xoja Muhammad az Zohid al Buxoriy, Xoja Abdumalik Samarqandiy, Mavlono Ubayd, Mavlono Abdujabbor, Ahmad Kirmoniy, Hofizi Abru, G‘iyosiddin Ali, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, Saduddin at Taftazoniy (1389 yili Samarqandda vafot etgan) tafsir, fiqh, mantiq, islom aqidalari va boshqa ilmlarda zamonasining yagona kishisi bo‘lib ko‘pgina asarlar bitgan[52]. Shamsuddin al Jazariy iste’dodli hadis olimi. Xoja Muhammad az Zohid al Buxoriy (1419 yil vafot etgan) ulug‘ tafsirchi, hadischi, hofiz bo‘lib, Qur’onning yuz jildlik sharhini tuzgan. Mavlono Shamsuddin Munshiy esa mashhur kotib, turkcha, forscha, arabchadan davrining “Malik-ul-kalomi” bo‘lgan, Hoji Bandgir Tabriziy mohir hattotlardan, Hoja Abdumalik Samarqandiy mashhur shoir va ulamo. Amir Temur zamonasida “Ismoil” taxallusida she’rlar bitgan, Xusomuddin Ibrohimshoh Kirmoniy va Mavlono Jamoluddin tabobat ilmi sohiblari (Jamoluddin Shomda tabobat raisi bo‘lgan), Abdulqodir al Yafroniy va uning o‘g‘li Safiuddin musiqa san’ati mualliflari edilar. Ali Shayx shatranj bobida Amir Temur bilan shaxmat o‘ynagan allomalardandur. Mavlono Ahmad Qozizoda Rumiy bilan birga ishlagan iqtidorli astronom olim. Tojiddin as Salmoniy esa tarixiy asarlar yozgan Amir Temur devonining arboblaridandir. Mavlono Abdujabbor Amir Temurning tarjimoni, Shom (Suriya) olimlari bilan bo‘lgan suhbatda tarjimonlik qilgan, kamol fiqih, mashhur tadqiqotchi olim, hofizi Abru esa Amir Temur xizmatida munshiylik qilib, keyinchalik jug‘rofiya va tarixnavis olim sifatida tanilgan. G‘iyosiddin Ali Yazdiy diniy olim hisoblanib, Temurning Hindiston yurishiga qatnashgan, 1399 – 1403 yillar orasida Temur buyrug‘iga binoan ushbu yurish haqida “Kundalik” yozgan tarixchilardan Nizomiddin Shomiy esa (Amir Temur hayoti davrida 1405 yilgacha) unga bag‘ishlab “Zafarnoma” asarini yozib tugatgan edi. Samarqandda ushbu olimlar yordamida bilimini ortirgan va keyinchalik mashhur olim bo‘lib yetishgan ilmu toliblar ham bor ediki, ular orasida 12-20 yoshlik chog‘ida sakkiz yil Samarqandda yashagan Damashqlik Ibn Arabshohni ko‘rsatish mumkin. Amir Temur uni Shomni zabt etgach 1401 yili Samarqandga olib kelgan edi. Ibn Arabshoh Samarqandda fors, turk va mo‘g‘il tillarini o‘rgandi.

Sayid Sharif Jurjoniy va Shamsiddin al Jazariy kabi mashhur olimlardan ta’lim oladi. Keyinchalik 1436-1437 yillarda Amir Temur davri va uning faoliyati haqida “Ajoyib al maqdur fi ahboru Taymur”, (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”) nomli mashhur tarixiy - badiiy asarini yozib dunyoga taniladi. Ibn Arabshoh o‘sha: “Temur tengi yo‘q fe’l atvorli, chuqur mulohazali kishi bo‘lib, uning tafakkur dengizining qa’ri yo‘q. Olimlarga mehribon bo‘lib, Sayyidu

[51] Temur tuzuklari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashr.,1996. -B.24.
[52] Ibn Arabshoh. “Ajoyib al – maqdur fi-ahboru Taymur. Toshkent: Mehnat, 1992 y.

Shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan muqaddam ko‘rardi. Ularni har birini o‘z martabasiga qo‘yib, o‘z ikromu hurmatini unga izhor etardi. Dushmanlariga nisbatan achchiq yuzli, qabiq do‘stlari uchun asal singari shirin (so‘z) u, xushta’b edi. Amir Temur har qanday hunar va kasb bo‘lmasin , agar unda biron fazilat va sharofat bo‘lsa, shu kasb egalariga g‘oyatda mehr qo‘ygan edi. U tabiatan masharaboz shoirlarni yoqtirmas, munajjimu – tabiblarni (o‘ziga) yaqin tutib, ularning gaplariga e’tibor qilar, so‘zlarini tinglar edi. U o‘z fikrini peshlash maqsadida u mutassis shatranj o‘ynardi deb yozadi[53]. Amir Temur mashhur arab allomasi Ibn Xaldun bilan qurgan suhbatida ham asosan undan tarix haqida: arab podsholari, ularning qanday davlat boshqarishlari va siyosat yuritishlari, paytida Amir Temurning o‘zi ushbu bilimlardan yaxshi xabardor bo‘lgan holda, Ibn Xaldunni ham hayratda qoldiradi. Ayniqsa, Sohibqiron tomonidan uyushtirilib turiladigan olimu fuzalolarning kengashlaridan birida Amir Temurning so‘zlagan nutqiga e’tibor beraylik: “Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelaganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayotirsizlar. Menning maqsadim, mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqoroni turmushini yaxshilash, yurtimizda qurulishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o‘z maslahatlaringiz bilan ko‘maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiste’mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hakimlar tomonidan qisib qo‘yilishi kabi hollar hammadan ko‘ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma’lumot beringiz, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat qonunlariga muofiq chora tadbirlarni aytsangizlar yaxshi bo‘lur edi. Endilikda mamlakatda xotirjamlik o‘rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu oliyjanob ishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman”[54]. Amir Temurning ma’naviyatining yana bir qirrasi shunda ko‘rinadiki, u Amir Temurning “Temur tuzuklari” nomli mashhur asarni yaratdi.

Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko‘zlab, el manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq ibratli fazilatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Amir Temur o‘z “Tuzuklarni” yaratishda u o‘zicha o‘tgan sultonlarning qonunlarini o‘qib – o‘rganadi, donolardan so‘rab surishtiradi. Har qaysilarining yo‘l – yo‘riqlari, qiliq- qilmishlari, aytgan gaplarini xotirasida saqlaydi. Xush axloqlari, ma’qul sifatlaridan namuna olib, unga amal qiladi, yozib “Tuzuk”ka soladi. Davlatlarning tanazulga uchrash sabablarini surishtiradi va davlatu saltanat zavoliga sabab bo‘luvchi ishlardan saqlanish tadbirlarini ko‘rsatadi. Amr Temur o‘zining “Tuzuk”larida katta – kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid madrasa va xonaxoqlar qurish haqida ham alohida amir etgan. Bunday tartib-qoidalarga eng avvalo Temurning o‘zi rioya qilgan bo‘lib, ayni paytda va keyinchalik ularni Sohibqironning o‘g‘il va nevaralari, Temuriylar va ayonlari davom ettirdilar. Temurning va shaxsan o‘zi ham bir nechta madrasalar qurishga homiylik qilganligini aytib o‘tish ayni mudoodir. Masalan: Samarqandda “Bibixonim” madrasasi qurulishiga rozilik bergan, nevarasi Muhammad Sulton nomidan madrasa va xonaqa qurdirgan. Bordi-yu, bu madrasalarni qurishga Temurning suyukli xotini Saroymulkxonim va o‘shanda endi 17 yoshga kirgan nevarasi shahzoda Muhammad Sulton jazm qilganida ham, baribir qurulishni boshlashga va ularga ketgan asosiy sarf–xarajatlar Temur roziligi bilan uning xazinasidan ajratilgan edi. Shuningdek, Temur Shahrisabzda ham ulomalarni yosh avlodga dars berishi uchun yaxshi sharoit yaratib bergandi. Shahrisabzningtemur davrida “Qubbatul ilm val adab”, ya’ni “Adab ilmning gumbazi” deb nom olishi ham bejiz emas edi. Shuni alohida qayd qilish joizki Temur davrida Samarqand va Shahrisabz musulmon dunyosining ilm va ma’rifat markazlariga aylangan edi.

Amir Temurning “Tuzuklar”da madrasa va xonaqalardan tashqari shaharlarda kasallar uchun shifoxonalar qurish va ularga tabiblar tayinlash haqida ham amir etilgan. AmirTemur davrida ulamolardan bo‘lgan Mir Said Sharif Jurjoniy (1330-1414 yy.) avval Sherozda mudarrislik qilib, 1387 yildan Amir Temurning taklifi bilan Samarqandga kelgan va bu yerdagi “Dor ush – shifo”da o‘z faoliyatini davom ettirgan. Ko‘rib turganingizdek , Amir Temur davrida nafaqat madrasada, balki

[53] Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. -T.: Mehnat. 1992. -B.69-70

[54] Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T.: Fan, 1993. -B.23.

dorush – shifoda ham mudarrislar faoliyat ko‘rsatib tabobat ilmini rivojlanishiga o‘zlarini juda katta hissalarini qo‘shganlar. Amir Temur “Tuzuklar”iga amal qilib kasallar uchun shifoxonalar qurgan Temuriylar haqida gapiradigan bo‘lsak, unda Xuroson hukumdori Sulton Abu Sayyidning (1451–1469) katta xotini Milkat og‘ani ( u kishi Hirot shahrida dorush shifo quradi) hamda Shohruh Mirzoning nabirasi Mirzo Alouddavlani (u ham Hirotda shifoxona qurganligini) ko‘rsatish mumkin[55].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugun mamlakatimizda milliy davlatchilikni shakllantirish, xalqimiz farovonligini oshirish, farzandlarimiz uchun hech kimdan kam bo‘lmagan hayot barpo etish, yoshlarni jismonan, aqlan va ma’nan yuksaltirish borasidagi barcha islohotlar Amir Temur bobomizning dunyoqarashi va tutumlariga mohiyatan uyg‘undir.

## АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДА КАРМАНАНИНГ СТРАТЕГИК АҲАМИЯТИ. (Эссе, шахсий таъсуротлар ва субъектив фикрлар асосида)

**Навоий Инновациялар Университети профессори,**
**тарих фанлари доктори (DSc),**
**Савриев Жасур Фахриддинович**

Амир Темур (1336–1405) ва Кармана (ҳозирги Навоий вилояти ҳудуди) тарихи ўртасида муайян боғлиқлик мавжуд. Қуйида асосий жиҳатларни келтириб ўтмоқчиман. Кармана қадимдан Бухоро ва Самарқандни боғловчи муҳим йўл устида жойлашган. Амир Темур даврида бу ҳудуд Мовароуннаҳрнинг марказий қисмларидан бири сифатида стратегик аҳамиятга эга бўлган. Шу сабабли Темур давлатни мустаҳкамлаш жараёнида бу каби шаҳар ва қишлоқларга алоҳида эътибор қаратган. Амир Темур ва унинг авлодлари даврида Кармана атрофида ободончилик ишлари амалга оширилган. Темурийлар даврида: ирригация тизимлари яхшиланган, қишлоқ хўжалиги ривожланган, масжид ва мадрасалар барпо этилган. Темур давлати таркибида Кармана Бухоро вилояти ҳудудига яқин жойлашган муҳим маъмурий нуқта бўлган. У ерда маҳаллий ҳокимлар Темурийлар томонидан тайинланган. Темурийлар даврида илм-фан ва маданият ривожланган. Кармана ҳам бу умумий маданий юксалиш таъсирини ҳис этган ҳудудлардан бири ҳисобланади.

Карманада Амир Темурнинг шахсан ўзи томонидан қурилгани аниқ тасдиқланган йирик меъморий ёдгорликлар ҳозирги кунда мавжуд эмас. Бироқ ҳудуд Темурийлар даври тарихи билан боғлиқ бўлиб, қуйидаги жиҳатлар эътиборга лойиқ: Карманада Амир Темур номи билан боғлиқ аниқ меъморий иншоот (масалан, Самарқанддаги Гўри Амир ёки Бибихоним каби) мавжуд эмас. Манбаларда Карманада Темур қурдирган махсус сарой ёки масжид қайд этилмаган бўлсада айрим тарихий обидалар, Темурдан олдинги даврга тегишли бўлсада, Темурийлар даврида ҳам муқаддас қадамжо сифатида эъзозланган. Кармана, темурийлар давридаги “Амир Темур даврини ёритувчи асосий манба”лардан бўлмиш, Низомиддин Шомий – “Зафарнома”, Шарафиддин Али Яздий – “Зафарнома”, Ибн Арабшоҳ асарларида алоҳида марказ сифатида кенг тасвирланмайди, лекин Мовароуннаҳрнинг марказий ҳудудлари таркиби тарзида тилга олинади. Стратегик аҳамияти сифатида, Кармана Самарқанд–Бухоро йўлида жойлашгани сабабли, Темур қўшинлари ҳаракати ва давлат бошқарув тизимида муҳим транзит нуқта бўлган.

Жумладан, Работи Малик ва бошқа маиший аҳамиятга эга бўлган бинолар, савдо, дипломатик алоқалар ва қўшин ҳаракати учун муҳим ҳисобланган. Натижада, бу йўл харитаси орқали Буюк Ипак йўли қайта фаоллаштирилган. Самарқандни пойтахт қилган Темур савдо йўлларини муҳофаза қилиш ва тиклашга катта эътибор берган. Работи Малик каби карвонсарой-иншоотлар, Темур қўшинлари ва савдо карвонлари учун стратегик аҳамиятга эга бўлган. Темурийлар даврида Мовароуннаҳр халқаро савдо марказига айланди. Кармана эса ушбу йўлдаги ўрта нуқта сифатида иқтисодий ва ҳарбий жиҳатдан муҳим аҳамият касб этди. Жумладан, Савдо карвонлари учун дам олиш жойи, ҳарбий ҳаракатларда вақтинчалик

[55] O‘ralov A. O‘tmishdagi davolash va shifobaxsh muassasalar. T.: Fan, 1990. -B.12.

қароргоҳ, ҳамда ипак йўли инфратузилмасининг муҳим қисмларидан бири сифатида ўз аҳамиятини сақлаб келган.

Самарқанд пойтахтга айлангач, халқаро савдо марказига айланди. Хитой, Ҳиндистон, Эрон, Араб мамлакатлари ва Европа билан алоқалар кучайди. Элчиликлар ва савдо карвонлари мунтазам қатнаган. Бу йўлларда хавфсизлик сиёсати ҳам алоҳида назоратга олинган бўлиб, йўлларда қўшин ва назорат тизими жорий қилинди. Қароқчиликка қарши қаттиқ чоралар кўрилган. Карвонсаройлар таъмирланган ва янгилари қурилган. Шу сабабдан бўлса керак, Амир Темур савдони давлат қудратининг асосий омилларидан бири деб билган. Темур даврида (XIV–XV аср) Кармана Бухоро–Самарқанд ўртасидаги муҳим транзит нуқта бўлгани учун у ер орқали турли халқаро ва маҳаллий товарлар ўтган. Қуйидаги асосий товар турлари келтирилган: 1.Шарқдан келтирилган товарлар яъни Хитойдан, ипак ва ипак матолар, чинни (фарфор) идишлар, қоғоз, лакли буюмлар, 2. Ҳиндистондан эса, зираворлар (қалампир, дорчин, зардчоба), атторлик моллари, қимматбаҳо тошлар, 3. Эрон ва яқин шарқдан, атлас ва нафис матолар, шиша ва сирли идишлар, китоблар ва қўлёзмалар, қурол-аслаҳа, 4. Дашт ва туркий ҳудудлардан отлар (жанг ва савдо учун), қорамол ва чорва маҳсулотлари, терилар ва мўйналар. 5. Мовороунаҳрнинг ўзида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар яъни, ипак ва пахта матолари, зардўзлик буюмлари, қурол-яроғ, Кулолчилик маҳсулотлари, қоғоз (Самарқанд қоғози машҳур бўлган).

Шу сабали бу маҳсулотлар Кармана орқали ғарбга ва бошқа ҳудудларга тарқатилган. Темур даврида Самарқанд пойтахт сифатида марказ бўлган бўлса, Бухоро эса қадимий савдо ва илм маркази эди. Кармана ана шу икки шаҳар ўртасидаги асосий тўхташ нуқтаси бўлган. Работи Малик каби карвонсаройлар савдо ҳаракатини мунтазам таъминлаб турган. Карвонсарой ахборот маркази ҳам бўлган: йўл хавфсизлиги, сиёсий вазият, бозор нархлари ҳақида маълумотлари айнан шу ерда тарқалган десак хато бўлмайди. Темур даврида йўл хавфсизлиги муҳим стратегик нуқта бўлиб, Асосий йўлларда ҳарбий постлар бўлган, қароқчиларга нисбатан қаттиқ жазо қўлланган, агар йўлда талончилик бўлса, маҳаллий ҳоким жавобгар ҳисобланган. Бу сиёсат савдогарларда ишонч уйғотган. Бу ерда хитойлик, ҳинд, эронлик ва европалик савдогарлар учрашган.

**Карвон ҳаётининг ўзига хос жиҳатлари.**

Бир карвонда 50–500 тагача туя бўлиши мумкин.

Сафари бир неча ҳафта ёки ой давом этган.

Иқлим, чўл ва сув танқислиги катта синов бўлган.

Бир карвон — кичик “кўчма шаҳар” каби фаолият юритган.

**Тарихий далил.**

Испан элчиси Руй Гонсалес де Клавихо (1403–1406) Самарқандга сафар қилганда йўл хавфсизлиги ва савдо тартибини таърифлаган. Бу Темур даврида савдо тизими яхши йўлга қўйилганини кўрсатади.

**Работи Маликда бир кун.**

Қуёш чўл устида қизғиш нур соча бошлаган паллада, узоқдан туя қўнғироқларининг овози эшитилади. Қумли йўл бўйлаб узун карвон секин илгарилаб келмоқда. Олдинда — тажрибали йўлбошчи, унинг ортида юк ортилган туялар, икки ёнда эса қуролланган қўриқчилар. Дарвоза олдидаги посбон баланд овоз билан хабар беради:

— Карвон келди! Оғир ёғоч дарвоза очилади. Карвон ичкарига киради. Ҳовлида ҳаёт жонланади. Пешин пайти, Туялар ечилади. Юклар ҳужраларга жойланади. Савдогарлар чанқоқни босиш учун сардобадан сув ичишади. Айримлари намозга шошилади. Ҳовлининг бир бурчагида ҳинд савдогари ипак матоларини ёйиб кўрсатмоқда. Яна бирида эронлик усто шиша идишларини эҳтиёткорлик билан чиқармоқда. Туркий даштдан келган киши эса отларни мақтаб сотмоқда.Турли тиллар аралашиб кетган: туркий, форсий, арабий, ҳатто узоқ юртлардан келган меҳмонлар нутқи.

**Кечки суҳбатлар.**

Қуёш ботиш арафасида дарвоза ёпилади. Қўриқчилар навбатга туради. Ҳовлида кичик гуруҳлар ҳосил бўлади. Бир бурчакда Самарқанд бозори нархлари муҳокама қилинади. Яна бир жойда Хитой томондан келган янгиликлар сўзланади. Кимдир, соҳибқироннинг

навбатдаги юриши ҳақида гапирмоқда. Олов атрофида чой қайнайди. Саёҳат машаққатлари ҳақида ҳикоялар айтилади.

**Тун.**

Юлдузли осмон остида карвонсарой тинчланади. Деворлар ортида қўриқчилар навбат алмашади. Туялар чўккан ҳолда дам олади. Бу ер фақат дам олиш жойи эмас. Бу ер савдо, ахборот, маданият ва халқлар учрашуви нуқтаси. Эртага карвон яна йўлга чиқади. Олодинда Самарқанд ёки Бухоро бозорлари кутмоқда.

**Хорижий элчи Карманада.**

1404 йил атрофи. Мен- узоқ ғарб мамлакатидан келган элчи. Ортимда подшоҳимнинг мактуби ва совғалари бор. Олдимда эса - буюк Темур саройи. Чўл орқали сафар. Бир неча ҳафтадан бери карвон билан сафардамиз. Қумли саҳро, кескин шамол ва узоқ масофалар бизни синамоқда. Йўлбошчилар бу ерларни яхши билади. Улар Кармана яқинида йирик карвонсарой борлигини айтишди. Ниҳоят, уфқда баланд пештоқ кўринади. Безакли дарвоза - Работи Малик. Дарвоза олдида, Посбонлар бизни тўхтатади. Элчилик мақомимизни билдирувчи ҳужжатни кўрсатамиз.

Муомала жиддий, аммо ҳурмат билан дарвоза очилади. Ичкарида турли халқ вакиллари: ҳинд савдогарлари, туркий чорвадорлар, эронлик ҳунармандлар. Бу ерда дунё гўё бир ҳовлига жамланган. Маҳаллий амалдор мен билан суҳбатлашади:- Самарқандга йўл оляпсизми? Йўл хавфсиз. Соҳибқирон карвонларга кафолат берган. Унинг овозида ишонч бор. Йўллар қўриқланишини айтишади. Қароқчилар қаттиқ жазоланар экан. Кечқурун савдогарлар орасида ўтириб, Темурнинг қудрати ҳақида эшитаман. Айтишларича, у турли юрт усталарини, Самарқандга жамлаб, уни дунёда тенги йўқ шаҳарга айлантирмоқда. Юлдузли осмон остида ўйга толаман. Бу юртда тартиб ва интизом сезилади. Карвонсарой деворлари ортида хавфсизлик бор. Мен ўз кундалигимга шундай ёзиб қўяман: "Бу мамлакатда савдо йўллари муҳофаза қилинган. Шаҳарлари бой ва гавжум. Темур ҳукмронлигида тартиб кучли." Эрта тонг. Дарвоза яна очилади. Карвон Самарқанд томон йўл олади. Олдинда буюк пойтахт, кўк гумбазлар ва саройлар кутмоқда. Кармана ортида қолади, аммо мен учун у - Шарқ қудратининг биринчи дарвозаси бўлиб қолади.

## TEMURIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME’MORCHILIGINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Bobobekov Bahodir Qudratovich**
**Jizzax politexnika instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsenti, arxitektura fanlari nomzodi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Samarqand misolida Temuriylar shaharlarining tarixiy topografiyasi ko'rib chiqiladi. Amir Temur hukmronligi davrida arxitektura va shaharsozlik rivojlanishining asosiy jihatlari muhokama qilinadi. O'sha davrdagi ulug'vor binolar va shahar infratuzilmasining qurilishi tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Amir Temur, Samarqand, me'moriy yodgorliklar, restavratsiya, Go'ri Amir, Bibixonim masjidi, Shohi-Zinda ansambli, Ulug'bek rasadxonasi, Afrosiyob shaharchasi.*

Timuriylar davri shaharsozligi va me’morchiligi Markaziy Osiyo tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda shaharlarning rejalashtirilishi, arxitektura ansambllarining shakllanishi va shahar infratuzilmasining rivojlanishi yuqori darajaga ko‘tarildi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida timuriylar davri shaharlarining tarixiy topografiyasini o‘rganishda muayyan yutuqlarga erishildi. Jumladan, Afrasiyob shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu hududning o‘tmishdagi shahar hayotini tiklashga muhim imkoniyat yaratdi.

Afrasiyob relefining topografiyasida ko‘plab suv havzalari - havuzlar, maydonlar, ko‘chalar, asosiy kanallar, turar joy kvartallari hamda jamoat binolari aniq ajralib turadi. Bu arxeologik yodgorlik Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati va turmush tarzini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda saqlanib qolgan ma’lumotlar shahar hayotining turli jihatlarini - iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarni tiklashga xizmat qiladi.

Timuriylar davri shaharlari ko‘p hollarda XIII asrda mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan o‘rta asr shaharlarining rejaviy tuzilishiga tayangan holda qayta tiklangan. Ayrim shaharlar esa butunlay yangi hududlarda barpo etilgan. Masalan, Hirot va Isfahon shaharlari qadimiy xarobalar o‘rnida qayta shakllangan bo‘lsa, Samarqand mo‘g‘ullargacha mavjud bo‘lgan tashqi shahar - “shahri birun” hududida rivojlangan. Shu bilan birga, uning qadimiy markazi hisoblangan Afrasiyob shahar xarobasi asta-sekin tashlab ketilgan.

Timuriylar davri shaharlari topografik jihatdan bir nechta qismlarga bo‘lingan. Shaharning asosiy qismi - hisor bo‘lib, u mustahkam devorlar bilan o‘ralgan markaziy hudud hisoblangan. Bu yerda davlat boshqaruviga oid binolar, kazarmalar, jome masjidi, asosiy bozorlar, hunarmandchilik ustaxonalari va aholining asosiy qatlamlari yashagan uylar joylashgan. Hisordan tashqari hududlarda esa shahar atrofi zonalari shakllangan bo‘lib, ularda mahallalar va keng hududiy tumanlar mavjud bo‘lgan.

Shahar atrofidagi hududlarda savdo-hunarmandchilik ko‘chalari, hukmdorlar va zodagonlar saroylari, bog‘lar, xususiy mulklar hamda maqbaralar joylashgan. Bunday hududlar shaharning madaniy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Masalan, Samarqandda shahar ko‘chalari Registon maydoniga turli yo‘nalishlarda radial tarzda tutashgan. Ular shahar darvozalaridan boshlanib, asosiy markazga olib borgan.

XV asrda shahar ko‘chalarini arxitektura jihatdan tartibga solishga harakat qilingan. Ayrim ko‘chalar to‘g‘rilangan yoki qayta qurilgan bo‘lsa-da, mahallalar ichidagi ko‘chalar tarmog‘i ko‘pincha murakkab va notartib shaklda saqlanib qolgan. Bu holatni to‘liq bartaraf etish imkoni bo‘lmagani uchun me’morlar boshqa usuldan foydalanganlar. Ular shaharning asosiy nuqtalarida arxitekturaviy jihatdan mukammal ansambllar va keng maydonlar yaratib, shaharning umumiy kompozitsiyasini tartibga solishga erishganlar.

Timuriylar davri shaharlari mustahkam mudofaa inshootlari bilan ham ajralib turgan. Shahar devorlari, burjlar va darvozalar uzoqdan ko‘rinib turadigan ulkan siluetlar hosil qilgan. Ayrim shaharlarda bu inshootlar bugungi kungacha qisman saqlangan. Masalan, Hirotdagi Ixtiyoriddin qal’asi devorlari va burjlari hozirgacha mavjud. Timuriylar davri Merv shahrida esa tik devorlar va yarim doira shaklidagi burjlar qoldiqlari saqlangan.

Samarqand mudofaa inshootlari to‘liq saqlanmagan bo‘lsa-da, o‘rta asr miniatyuralarida ularning ko‘rinishi aks etgan. Unda shahar devorlari baland burjlar bilan mustahkamlangani, darvozalar yarim doira shaklidagi burjlar bilan himoyalangani va ular oldida ko‘tarma ko‘prikli xandaqlar mavjud bo‘lgani tasvirlangan.

Timuriylar davri qurilishida asosiy qurilish materiallari sifatida xom g‘isht, paxsa va giliy konstruksiyalar keng qo‘llanilgan. Bu materiallar iqlim sharoitiga mosligi va iqtisodiy jihatdan maqbulligi bilan ajralib turgan. Biroq bu davrda pishiq g‘ishtdan foydalanish ham keng tarqaldi. Tarixchi Hofizi Abruning ta’kidlashicha, Amir Temur Samarqandni “gil shahardan g‘isht shaharga” aylantirgan. Bu davr g‘ishti yuqori texnologik sifatga ega bo‘lib, uning o‘lchamlari odatda 24-28 sm kvadrat shaklda, qalinligi esa 4-6 sm bo‘lgan.

Shahar hayotida bozorlar muhim o‘rin tutgan. Bozorlar iqtisodiy va ijtimoiy hayotning markazi hisoblangan. Ular asosiy magistral ko‘chalar bo‘ylab yoki ko‘chalar kesishgan joylarda joylashgan. Bozor inshootlari odamlar va karvonlar harakati uchun qulay sharoit yaratish, yorug‘likni ta’minlash va bir vaqtning o‘zida quyosh va yomg‘irdan himoya qilish vazifalarini bajargan.

1404 yilda Samarqandda Amir Temur buyrug‘i bilan yangi bozor ko‘chasi qurilgan. Ispaniya elchisi Klavixoning yozishicha, bu ko‘cha juda keng bo‘lib, uning ikki tomonida ikki qavatli savdo do‘konlari joylashgan. Ko‘chaning ustki qismi yorug‘lik tushishi uchun oynachali gumbazlar bilan yopilgan.

Savdo infratuzilmasining muhim qismi karvonsaroylar hisoblangan. Ular shahar ichida, shahar atrofida va karvon yo‘llari bo‘ylab qurilgan. Bu inshootlar savdogarlar va sayyohlar uchun turar joy vazifasini bajargan. Ular ko‘pincha davlat hukmdorlari yoki boy savdogarlar tomonidan qurdirilgan.

Shahar infratuzilmasida suv ta’minoti ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Suv ochiq ariqlar yoki yer osti quvurlari orqali yetkazilgan. Aholi suv olishi uchun havuzlar, sardobalar va suv omborlari qurilgan. Samarqandda Abdi Darun va Xo‘ja Ahror maqbaralari yaqinidagi havuzlar XV asrga oid bo‘lishi ehtimol qilinadi.

Shaharlarda hammomlar ham muhim jamoat inshootlari hisoblangan. Ular nafaqat gigienik, balki ijtimoiy muloqot va dam olish maskani vazifasini ham bajargan. Ulug‘bek qurdirgan “Mirza hammomi” o‘zining arxitekturasi va bezagi bilan mashhur bo‘lgan.

Timuriylar davrida diniy va ma’rifiy binolar qurilishi ham keng rivojlangan. Masjidlar, madrasalar, xonaqohlar va maqbaralar shahar arxitekturasining asosiy elementlarini tashkil etgan. Samarqanddagi Bibixonim jome masjidi Sharq me’morchiligining eng ulkan namunalaridan biri hisoblanadi.

Madrasalar bu davrda nafaqat diniy ta’lim, balki ilm-fan markazlari sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. Ularda falsafa, astronomiya va matematika kabi fanlar ham o‘qitilgan. Ulug‘bek observatoriyasi esa bu davr ilmiy tafakkurining eng yorqin namunasidir.

Timuriylar davri me’morchiligining eng muhim yutuqlaridan biri yirik arxitektura ansambllarining yaratilishidir. Bu ansambllar shaharlarning markaziy qismlarida qurilib, me’moriy kompozitsiyaning mukammal namunasini namoyon etgan. Ular shaharning umumiy arxitektura qiyofasini belgilab, uning madaniy va ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Maxmudova A. Arxeolog olimlarning So‘g‘d hududida olib borilayotgan izlanishlarining tarixiy ahamiyati. Jamiyat va innovatsiya. – 2021 yil. – Toshkent.

2. Axmedov B.A. Mukminova R.G. Pugachenkova G.A. “Amir Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati)”. 1999 yil. -Toshkent.

3. Qarang: Amir Temur jahon tarixida. Mualliflar jamoasi. Parij, 1996 yil.

4. Suyunov S.S. Aslanov A. Sheroz qal’asi - Samarqand So‘g‘dning so‘nggi o‘rta asr yodgorligi. 2022 yil. – Toshkent.

## AMIR TEMURNING BUNYODKORLIK ISHLARI TARIXCHILAR NIGOHIDA

**Sh. Ravshanov,**
NavDU dotsenti, t.f.f.d.,(PhD)

Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi - Uchinchi Renessansga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o‘rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur va temuriylar davrida jamiyat va davlat rivoji bilan birgalikda qurilish ishlari, me'morchilik taraqqiyoti misli kurilmagan darajada o‘sdi va rivojlandi. Amir Temur va uning avlodlari davrida Samarqandda, Toshkentda, Buxoro, Shaxrisabz, Qarshi, Turkistonda, Xurosonning markazi Xirot, Mashxad, Nishopur, Qobul va boshqa shaharlarda, buyuk yaratuvchilik ishlari olib borilgan. Amir Temurning buyrug‘iga asosan 1365 yilda Qarshi, 1370 yilda Samarqand, 1380 yilda Kesh shaharlari atrofida mudofaa devorlari barpo etilgan. Amir Temurning uz ona yurti Keshda, buyuk alloma va mutafakkir Axmad Yassaviyga atab Turkistonda qurdirgan ajoyib, osmono‘par va muhtasham madrasalari o‘z davrida balki bugungi kunda ham salobat to‘kib turibdi.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida Oqsaroyning qurilishi haqida quyidagilarni bayon etgan: «Erta baxor fasli edi. O‘z quvvati bilan (tabiatni) gullatib yashnatuvchi me'mor ko‘katlar va maysazorlar shahrini obod qilishga kirishgan, atirgul butalaridan qasrlar yaratib la'lgun shoxchalar uchini baland ko‘targan va ularni firuza rang naqshli barglar bilan bezagan bir vaqtda... Oliy hazrat sohibqiron., gullaridan mushku anbar bo‘yi taraluvchi, suvidan gulob ta'mi keluvchi Keshning xushhavo va rom etguvchi zaminida shodlik nash’asini surib, orom olmoq azmi bilan bu erda saltanat taxtini o‘rnattirdi. So‘ng Shaxrisabz qo‘rg‘onini qurish haqida farmon berdi va (ishlarni) amirlaru lashkar ahli o‘rtasida taqsimladi. Qo‘rg‘on qurilishi uchun munosib keluvchi saodatli soatda uning poydevorini qurdilar. Shahar ichida esa qazoyu qadardek bajarilishi so‘zsiz bo‘lgan farmonga binoan bir qasr bunyodiga asos soldilar.

Shu o‘rinda Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asari o‘ttiz ikkinchi bobida ushbu madrasa qurilishi haqida to‘xtalib o‘tadi. “Bir mavzeni tanlab, ramazon oyining to‘rtinchisida (1399

yil 10-may)” mohir ustalar,binokor muxandislarga buyurdi, toki ular bu muborak imoratni tarxini tuzgaylar. Ular g‘oyat bir qutlug‘ soatda binoga asos soldilar. Uning asoslari va arkonlarini toshdan ko‘tardilar. Oliy hazrat ishtiyoqning zo‘rligidan shaxsan o‘zi imorat tepasida hozir bo‘lar va uning tez bitishiga o‘zining butun himmatini sarflar edi”[56]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur harbiy yurishlaridan ortib shaxsan o‘zi bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo‘lgan.

Ushbu go‘zallikda tengsiz Oqsaroy ispan elchisi Ryui Gonsales De Klavixo 1403 yili bu yerdan Samarqand tomon o‘tayotganda hali bitmagan edi. Ammo shunga qaramasdan u o‘z “Kundaliklar”ida Oqsaroyning go‘zalligidan hayratlanganligi va qoyil qolganligini yozadi: “Zero, butun bino zarhal va lojuvard bilan qoplangan bo‘lib, u erda saroyning shuncha bo‘lma va oromgohlarini ko‘rsatdilarki, ular haqida juda uzoq so‘zlash mumkin. Saroy ziynatlari oltindan va boshqa ranglardan hayratomuz ishlangan edi. Hatto mohir ustalari bilan jahonga mashhur bo‘lgan Parijda ham bu ish juda go‘zal hisoblangan bo‘lar edi”-deydi. Shu o‘rinda Klavixo, Amir Temur hunarli biror kishini Samarqandni tashlab ketishiga yo‘l qo‘ymaganligi va shaharda 150 mingdan ziyod aholi istiqomat qilganligini, shahar Ispaniyaning Seviliya shahridan kengroq ekanligini ta’kidlaydi.

Albatta Amir Temur birinchi navbatda poytaxti Samarqandni dunyoning eng go‘zal va obod, ko‘rkam va betimsol shaharlaridan biriga aylantirishni o‘zining bosh vazifasi deb bildi. Amir Temur uz saltanatining qo‘rgoni Ark qal’a, undagi betakror va go‘zal binolarni qurdirdi. Kuksaroy va Bustonsaroy deb elda mashhur bo‘lgan bu binolar shaharning ko‘rki hisoblangan. Shahar arki ichida bu binolardan tashqari masjid, o‘lkan kutubxona, shohona uy-joylar, Amir Temurning hazinasi va taxti, pul zarblanadigan maxsus joy, aslahasozlik ustaxonalari, hammomlar hamda zindon bo‘lib, atrofi qalin va baland devorlar bilan o‘ralgan. Amir Temur Samarqandni dunyoning eng ko‘rkam va go‘zal shaharlaridan biriga - yer yuzining “sayqali”ga aylantirishni o‘zining vazifasi deb bildi.

Manbalarda Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqandning to‘rt tomonida to‘rtta darvozasi bo‘lganligi tasvirlangan va shahar atrofi qazilgan xandaklarda zilol suvlar bilan o‘ralgan. Shaharning toza va ozodaligi juda ko‘p manbalarda madh etilgan. Jumladan, tarixchi Al-G‘azzoliyning yozishicha: “Muxtasiblar ko‘chaga tarvuz-qovun po‘choqlarini hamda boshqa chiqindilarni tashlab, yo‘lovchilar uchun sirpanish xavfini tug‘dirmasligini, oqava suvlar sachrab odamlarning kiyimlarini iflos qilmasligini, qassoblar ko‘chalarda yoki dukonlarning oldida mol so‘yib atrofni ifloslantirmasliklarini, har kim o‘z tomonidan kuragan qorni o‘zi tozalashini va boshqa obodonchilik ishlarini qattiq nazorat qilganlar” [57].

Birgina Afrosiyobning uzida Amir Temur hukmronligi davrida 80 ga yakin hammom, qulay va gavjum 5 ta bozor bo‘lgan. Tarixchi sayyoh Ibn Xaldunning hikoya qilishicha, Samarqandda “oqar suv kirmagan biror ko‘cha, biror hovli deyarli yo‘q edi, faqat ba'zi uylargina bog‘siz edi”. Odamlar ko‘chalarda ariqlarda oqib o‘tadigan toza zilol suvlardan ichimlik suvi o‘rnida foydalanganlar. Amir Temurning buyrug‘i bilan bir-biridan go‘zal undan ortiq bog‘lar barpo etilgan. Tarixchi Ibn Arabshoh Amir Temur bog‘lari to‘g‘risida bunday deb yozadi: “Temur Samarqandda ko‘pdan-ko‘p bo‘stonlar barpo qilib, baland va mustahkam qasrlar bunyod etdi. Ularning har qaysisi ko‘rkam va ajib suratda edi” deydi. Yana shu haqda 1404 yilning sentyabrida jahongir Amir Temurning qabulida bo‘lgan Ispaniyalik elchi Klavixo bu bog‘larda favvoralardan suv otilib turganligini, har bir boqqa kiriladigan darvoza juda keng, bu oltin va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilganligini yozadi”.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri ma’naviyati va madaniyati o‘zining hayotbaxshligi, tarbiyaviy kuchi, ta’siri bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Uning hayotbaxsh kuchi shundaki, bugungi yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik, bunyodkorlik g‘oyalarini mustahlkamlashda, qolaversa milliy mustaqillik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ bobomizning tarix oldidagi eng katta xizmati avvalo qudratli davlat barpo qilganligidir. Amir Temur va temuriylar davrini qancha tadqiq qilsak kam va hech qachon hamma davrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Shu nuqtai nazardan “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur hazratlari tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” gi[58] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ-46-son qarori

[56] Qarang: Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”,T. ,O’zbekiston. 1996 yil, 277- bet
[57] Berdimurodov A. Amir Temurning Samarqanddagi bog’lari, “Turkiston”, 1992 yil, 17 noyabr
[58] LexUZ.On-line/(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.02.2026-y., 07/26/46/0114-son)

qabul qilinganligi Amir Temur va temuriylar tarixini o‘rganishda muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

## “ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ” - МАЪНАВИЙ БАРКАМОЛЛИК, ЯРАТУВЧАНЛИК, БУНЁДКОРЛИК ҒОЯЛАРИ МАНБАСИ

**Ж.Мустафоев**
**НавДУ тарих кафедраси доценти,**
**тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

Аннотация. Мақолада Амир Темурнинг “Темур тузуклари” муҳим тарихий манба сифатида жамият ижтимоий, маданий ва маърифий тараққиётига қўшган ҳиссаси, Соҳибқироннинг яратувчилик ва бунёдкорлик ғояларини таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: “Темур тузуклари”, таьлим - тарбия, маьнавий комиллик, халқ маьнавияти, адолат мезони.

Амир Темур жаҳон тарихида нафақат қудратли ва гуллаб - яашнаган давлат барпо этган буюк саркарда ва давлат арбоби, балки бунёдкорлик, илм - маьрифат ҳомийси, фаровонлик учун, таьлим - тарбия, халққа тинч меҳнат шароити яратиш, умуман халқ маьнавиятининг юксалиши учун курашган буюк зот сифатида ҳам ном қозонган. Бу жиҳат Амир Темур фаолиятининг ҳар бир қиррасида яққол кўзга ташланади.

Амир Темур яратган “Темур тузуклари” да акс этган ҳар бир тузук инсонни маьнавий комилликка, тўғрилик, муруватлилик, эл - юртга меҳр муҳаббат, мардлик, қаҳрамонликка чорловчи даъват эканлигига гувоҳ бўламиз. “Темур тузуклари”да Амир Темурнинг давлат сиёсатини белгилашда ва уни амалда ҳаётга тадбиқ этишда “рости - русти” қоидаси асос қилиб олинди. “Рости - русти” ҳақиқат - тартиб, ҳақиқат - адолат маъносида бўлиб, барча ишда, одамлар орасидаги муносабатларда, умуман ҳаётда ҳақиқат қарор топиши, бу эса адолатнинг, яъни одил жамиятнинг тасдиқ этилишини таъминлаши лозим, деган маънони билдиради.

Соҳибқирон “рости - русти” ғоясини ўз тажрибасида такомиллаштириб ва уни янада ёрқинлаштириб, “Адолат кучда эмас, куч - адолатдадир” деган машҳур қоидани бунёд этди. У ўзининг “Темур тузуклари” асарини шу қоида асосида яратди ва умрининг охиригача ўз фаолиятида шу қоидага амал қилди.

“Темур тузуклари”нинг қўлёзма ва тошбосмалари тарихий манба сифатида бутун дунё мамлакатлари, жумладан, Англия, Франция, АҚШ, Финляндия, Эрон, Ҳиндистон, Туркия, Миср ва яна кўплаб бошқа давлатлар кутубхоналарида сақланмоқда.

Асар икки қисмдан иборат. Биринчи қисмда жаҳон тарихида машҳур фотиҳ, саркарда ва истеъдодли давлат арбоби сифатида ном қолдирган Амир Темурнинг етти ёшидан то вафотигача кечган ҳаёти ва фаолияти, ҳарбий юришлари ихчам тарзда баён этилган. Иккинчи қисм жаҳонгирнинг номидан айтилган ва унинг тахту - тожи ворисларига қаратилган ўзига хос васият ва панд - насиҳатлардан иборат. Бунда Амир Темур ўз фарзандлари, набиралари орқали йўриқларини, ўз ҳаётида шиор қилиб олган ўн икки қоидаси ёрдамида салтанат тахтига зебу - зийнат берганлигини ва келажак авлодларни ҳам шу ўн икки тузукка амал қилишларини кўрсатиб ўтади. Ушбу тузукларнинг ҳар бирини кўриб, таҳлил қиладиган бўлсак, унда тўғрилик, муруватлилик, эл - юртга меҳр - муҳаббат, мардлик, қаҳрамонлик ҳақидаги фикрларни кўришимиз мумкин. Ҳақиқатдан ҳам Амир Темур фаолиятининг маънавий омилларига назар солсак, унинг золимларга қарши курашганлиги, доимо ўз давлати фуқароларининг бой бўлиши учун барча чораларни кўрганлиги, юртни ташқи тажовузлардан ва ички фасотдан сақлаганлиги, мамлакат ривожи учун илму фанни ва таълим - тарбияни юксалтирганлиги, халқаро дўстлик муносабатларини яхши йўлга қўйганлигига гувоҳ бўламиз.

Биринчи тузукда Соҳибқирон ҳар ерда ҳар вақт ислом динини қувватлаганлигини баён этган. Бунинг далили сифатида унинг ўгитларида ҳам шу фикрни кўрамиз. “Салтанатим қонун - қоидаларини ислом дини ва кишиларнинг энг хайрлиси (Ҳазрати Муҳаммад) нинг шариатига боғлаб, иззату ҳурматлаш вожиб бўлган онҳазратнинг авлоди ва саҳобаларига муҳаббат билдирган ҳолда уларни мустаҳкамладим, салтанатим мартабасини қонун - қоидалар асосида шундай сақладимки, салтанатим ишларига аралашиб, зиён етказишга ҳеч бир кимсанинг

қурби етмасди[59]”. Ислом динини қўллаб - қувватлаб, унга нисбатан имонли бўлган инсон албатта хайрли ишларгагина қўл уради. Амир Темур ҳам ўзи яшаган даврдаги диний вазиятни англаб, ундан ўз сиёсатининг ахлоқий - ғоявий омили сифатида оқилона фойдалангани рад этиб бўлмас далилдир. Мазкур тузук орқали яна шу нарсага амин бўламизки, Амир Темурдек шахсга ислом дини катта имконят ва куч - қудрат берган. У ўзи яшаган жамиятда катта мавқега эга бўлган диний ва ахлоқий тажрибаларга қатъий риоя қилган ва бошқаларни ҳам шунга чорлаган.

Худи шунингдек, “Темур тузуклари”ни ўқиганимиз сари Соҳибқирон инсонларни ўз салтанатида юргизган бебаҳо сиёсати орқали фақат хайрли йўлга бошлаганлигига амин бўламиз. Тузуклардан яна бирида маслаҳат, кенгаш, тадбиркорлик, фаоллик, ҳушёрлик ва эҳтиёткорлик билан ғаним қўшинларини енгиб, мамлакатни ўзига бўйсундирганлигини ва салтанат ишларини мурувват ва сабр - тоқат билан ҳамда дўсту душман билан муросаю мадора қилганлигини батафсил баён этган. Демак, сир эмаски, давлат аъёнлари, олимлар, муайян соҳалар бўйича мутахассислар билан маслаҳатлар қилиб, аниқ хулосаларга келган. Шу боис Амир Темур ўз “Тузуклари”да: “Салтанат ишларининг тўққиз улуши машварат, тадбир ва кенгаш, қолган бир улуши эса қилич билан бажо келтирилишини” ўз фаолияти давомида англаганлигини ёзади[60]. Ушбу тузук авлодларни тадбиркорликка, ҳушёрликка, фаолликка, эҳтиёткорликка, сабр - тоқатли ва қатъий интизомли бўлишга даъват этади. Фуқароларнинг ҳақ - ҳуқуқларини поймол қилувчилар, ўғрилар, қароқчилар, порахўрлар, маиший бузуқлик ва ичкилик билан шуғулланувчиларга нисбатан шафқатсиз бўлишга чорлайди. “Тузуклар” ни ўқиб шу нарсага амин бўламизки, Амир Темур тартиб - интизомга риоя этишда, ўз давлатининг обрўси ва шарафи борасида қаттиққўл бўлиб, мазкур ишларда барқарор турарди. Ҳатто ўз авлодларига ҳам жоиз бўлганда тегишли чораларни қўллаган.

“Темур тузуклари”да Амир Темур ўз амирлари ва сипоҳийларининг меҳнатларини доимо қадрлаб келганлиги, улардан ҳеч қачон ҳеч нарсани аямаганлиги орқали уларни мардлигу мардонаворликка бошлаганини ва шунинг эвазига йигирма етти подшонинг тахтини қўлга киритилганини баён этади. Яна шуни таъкидлайдики, кўплаб мамлакатларнинг тахтларини эгаллашда ўз ҳузур - ҳаловатидан кечиб, меҳнатга ружу қўйганлигини, ранжу меҳнат эса инсонни доимо қадрлашини таъкидлайди. “Тузуклар”да яна шу нарса эътиборга лойиқки, Амир Темурнинг адолат ва инсоф борасидаги фикрлари инсониятнинг маънавий тарбиясида асосий мезондир. “Гуноҳкорга ҳам, бегуноҳга ҳам раҳм қилиб, ҳаққоният юзасидан ҳукм чиқардим. Хайр - эҳсон ишларим билан одамлар кўнглидан жой олдим, гуноҳкорнинг ўрнига бошқасига жабр - зулм ўтказмадим”[61], деган фикрлари унинг нафақат давлат ишларида, балки ҳаётда рўй бериши мумкин бўлган ҳар қандай шароитда ҳам адолатли ва инсофли бўлишга чақиради. У ўз “Тузуклари”да инсонларга хос бўлган дўстликни муқаддас билиб, “Ким менга дўстлик қилган бўлса, дўстлигини қадрини унутмадим ва унга мурувват, эҳсон, иззат - икром кўрсатдим. Кимки, менга душманлик қилсаю, кейин пушаймон бўлиб, илтижо билан ҳимоя истаб, тиз уриб олдимга келса, душманлигини унутиб, мурувват ва дўстлик кўрсатдим”[62], деган бебаҳо фикрларини баён этганки, бу фикрлар инсонларни дўстликка нисбатан садоқатли, душманга нисбатан кечиримли бўлишга, бу эса инсон маънавиятининг бир бўғини эканлиги фикримиз далилидир. Соҳибқирон баъзи кимсаларнинг марду мардоналиги учун кечира олган. Амир Темур инсониятга хос бўлган барча фазилатлар орасида яна бир фазилатни қадрлаганки, бу қавму - қариндошлик ришталарини мустаҳкамлаганлигидир. “Тузуклар”да бу жиҳатларга ҳам алоҳида эътибор қаратилганлигини “давлату - неъмат мартабасига эришганимда қавму - қариндошларимдан қариндошлик меҳрини узмадим. Ҳар кимни турли йўллар билан синадим, билиб олиб ва уларга шунга яраша муомала қилдим”, - деб айтиб ўтилганки, Соҳибқирон ҳар қандай кунда ҳам, жангу - жадалларда ҳам, тахт соҳиби бўлганда ҳам ўзига тегишли бўлган яқин инсонлрнинг ҳурмати ва иззатини жойига қўйган. Буни эса ҳаётнинг кўп иссиқ - совуғини кўриб, улардан сабоқ олиб, тажрибасини орттирганлигида кўрамиз. Ҳаттоки, Қуръони Карим ва Ҳадисларда улуғланган қавму - қариндошлик фазилатларини ва уларга қатъий амал қилишни, ота - онага, ака - укаларга, хешу - акрабога, оилага, фарзандларга, элу - улусга нисбатан меҳр - мурувватли бўлишни ўзининг маънавий баркамоллиги билан шуҳрат қозонган Амир Темур ушбу

[59] Амир Темур ўгитлари. –Тошкент: Наврўз. 1992 йил. –Б.20
[60] Темур тузуклари. –Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1996 йил. –Б.25
[61] Ўша асар, –Б.54
[62] Темур тузуклари. –Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт - матбаа бирлашмаси. 1991 йил. –Б.16

фазилатларни авлодларга маънавий мерос, панд - насиҳат сифатида ўз фаолиятида қўллаганларини “Тузуклар”да таъкидлаб кўрсатади. Ўн иккинчи тузукда вафодорлик, ишонч хислатларини ёқлаб фикр билдирган. Бунда Амир Темур қайси бир сипоҳий туз ҳақи ва вафодорликни унутиб, жанг ёки хизмат вақтида ўз соҳибидан юз ўгириб, иккинчи томонга мурожаат қилса, ундай одамларни энг ёмон душман деб билган.

Соҳибқирон Амир Темур ўз салтанатини бошқаришда, уни мустаҳкамлашда, унда учраган ҳар қандай кўнгилсиз муаммоларни бартараф этишда дини ислом, тўра, тузук асосида фаолият юритишга ҳаракат қилди. “Темур тузуклари” орқали ўз даврининг маънавий тараққиётига Ҳазрат Соҳибқирон бевосита ҳомийлик ва раҳнамолик қилди. “Темур тузуклари”нинг “Адолат кучда эмас, куч - адолатдадир” деган машҳур қоида замирида яратилиши унинг бобомиз асос солган марказлашган давлатда нафақат адолат талабларига риоя қилиш, балки маънавий қадриятларга ҳам алоҳида катта эътибор берилиб, уни шарқона фазилатлар замирида бойитилган.

Хуллас, юқоридаги фикрлардан кўриниб турибдики, “Темур тузуклари”да Амир Темур шахсиятига мансуб энг ажойиб шарқона хислатлар ва муҳими, жамият маънавияти, тинчлик, осойишталик, яратувчанлик, бунёдкорлик каби ғоялар яратилган.

## TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT

**Farg‘ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliztili)**
**Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**
**Muhammadova Nigora Dilmurod qizi**

**Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna**
**Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent**

**Annotatsiya.** Temuriylar davri (XIV-XV asrlar) Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat rivojida muhim davr hisoblanadi. Ushbu maqolada Amir Temur siyosati ostida ilmiy markazlar, madrasa va kutubxonalar faoliyati, shuningdek, san’at va me’moriy yutuqlar tahlil qilinadi. Temuriylar davrida shoirlar, tarixchilar va mutafakkirlarning ish faoliyati va ilmiy merosi, shuningdek, ular orqali jamiyat hayotidagi madaniy o‘zgarishlar ko‘rsatiladi. Maqola ilmiy manbalar asosida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishining xususiyatlarini yoritadi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar, Amir Temur, ilm-fan, madaniyat, madrasa, kutubxona, san’at, me’morchilik, tarix, shoirlar

**Absract.** The Timurid era (14th-15th centuries) was a significant period for the development of science and culture in Central Asia. This article analyzes the activities of scientific centers, madrasas, and libraries under Amir Temur’s rule, as well as achievements in art and architecture. The work of poets, historians, and intellectuals during the Timurid period and their cultural impact on society are discussed. The article highlights the characteristics of scientific and cultural development based on historical sources.

**Keywords:** Timurids, Amir Temur, science, culture, madrasa, library, art, architecture, history, poets

**Аннотация**. Эпоха Тимур (XIV–XV века) была значительным периодом для развития науки и культуры в Центральной Азии. В статье анализируются деятельность научных центров, медресе и библиотек при правлении Амир Тимура, а также достижения в искусстве и архитектуре. Рассматривается работа поэтов, историков и мыслителей и их влияние на культурную жизнь общества. Статья освещает особенности развития науки и культуры на основе исторических источников.

**Ключевые слова:** Тимуриды, Амир Тимур, наука, культура, медресе, библиотека, искусство, архитектура, история, поэты

Temur va temuriylar davrida ma`naviy madaniyat, ilm-fan g‘oyat darajada rivojlanadi. Ayniqsa, Amir Temurning o‘zi o‘qimishli, savodxon va ma`rifatparvar inson bo‘lgan. O‘z ona tilidan tashqari fors va mo‘g‘ul tillarini yaxshi bilgan Amir Temur mamlakati taraqqiyotida, xalqning madaniy va ma`naviy kamolotida ilm- fan va ma`rifatning ahamiyatini juda-juda qadrladi. Shu bois ulug‘ amir o‘z yurtida bo‘lsin, harbiy yurishlar qilib borgan mamlakatlarida bo‘lsin, ularning millati, irqidan qat`i nazar, kasb-hunar egalari, ustalar, me`morlar, olim-u fuzalolar , adabiyot va san`at arboblarini juda-juda qadrlar, ular bilan doimo maslahatlashar ularning fikr va xulosalariga doimo

quloq solar edi. Ma`naviy madaniyat xodimlarining ishlash, yashash va ijod qilishlari uchun barcha shart-sharotlarni yaratib berardi. Masalan, “Temur tuzuklari” da quydagilarni o‘qiymiz: “Yettinchi-sayyidlar, ulamo-yu mashoyih, oqil-u donolar, muhaddislar, xabarchilar tanlangan e`tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini joyiga qo‘ydim.

Sakkizinchi toifa- hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o‘z atrofimga to‘pladim.

Amir Temur va uning vorislari ilmga, bilimga katta e’tibor berganlar, olimlar va mutafakkirlarni himoya qilib, ularni saroy va ilmiy muassasalarga jalb qilganlar. Shu tufayli Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlar ilm va madaniyat markazlariga aylangan.

Bu davrda ilm-fan sohasida eng muhim yutuqlardan biri astronomiya va matematika bo‘yicha erishilgan natijalardir. Temuriylar davrining eng mashhur olimi Ulug‘bek bo‘lib, u Samarqandda rasadxona va madrasalar barpo etgan. Ulug‘bek rasadxonasida astronomik kuzatuvlar olib borilib, yulduzlar katalogi tuzilgan va astronomiya bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Ulug‘bekdan tashqari, bu davrda matematika va astronomiya sohasida Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid al-Kashiy va Ali Qushchi kabi olimlar ham faoliyat yuritgan. Ularning ishlari nafaqat musulmon olamida, balki keyinchalik jahon ilmiy merosida ham katta ahamiyat kasb etgan.

Temuriylar davrida ilm-fan faqat nazariy bilim bilan cheklanmay, ilmiy asarlar tarjima va nashr orqali keng ommaga yetkazilgan. Bu tarjima ishlari turkiy, forsiy va arab tillari o‘rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirgan, hamda ilmiy merosning boyishiga xizmat qilgan.

Ilm-fan sohasidagi yutuqlar tufayli Temuriylar davri Sharqdagi ilmiy markaz sifatida tanilgan bo‘lib, bu yutuqlar keyingi asrlar uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratgan. Ularning ilmiy an’analari bugungi kunda ham ilmiy va ma’naviy meros sifatida o‘rganiladi va qadrlanadi.

Temuriylar o‘zlarining madaniyat va ilmga bo‘lgan e’tibori bilan mashhur bo‘lishgan.

Temuriylar davrida ilm-fan rivojlanishi alohida ahamiyatga ega edi. Samarqand va Buxoro shaharlarida madrasalar va ilmiy markazlar faoliyat yuritgan. Masalan, Ulug‘bek rasadxonasi va uning astronomiya ishlari bu davr ilm-fanining yuksak darajasini ko‘rsatadi. Madrasalarda nafaqat diniy fanlar, balki matematika, astronomiya, tibbiyot va falsafa ham o‘qitilgan. Bu davrda ilmiy asarlar arab va fors tillarida yozilgan.

Temuriylar davrida adabiyot juda rivojlangan edi. Shayxlar, mutafakkirlar va shoirlar o‘z ijodlarini davom ettirgan. Jumladan, Mirzo Bedil, Jami va Alisher Navoiy kabi buyuk shoirlar bu davr madaniyatining yorqin vakillari hisoblanadi. Ular adabiyot orqali insoniy qadriyatlar, odob-axloq va sevgini targ‘ib qilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy o‘zbek tilini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Ilm fan va adabiyotning rivoji kitobat san`ati, yangi qo‘lyozma asarlarini ko‘chrib yozish , xattotlik, musavvirlik, lavha chizish, muravozlik kabi san`atlar taraqqiyotiga ham ijobiy ta`sir qiladi. Nafis kitob va xattotlik XIV- XV asrlarda yangi taraqqiyot boshqichiga ko‘tariladi va hattot Mir Ali Tabriziy nasta`liq xatini kashf qiladi. Samarqand va Xirotda temuriylarning saroy kutubxonalari tashkil qilinadi. Bu kutubxonalar hunarmandchilik korxonasi hisoblangan, ularda qo‘l yozma asarlarini to‘plash va saqlash ishlari bajarilgan.

Temuriylar davrining me’morchiligi va san’ati ham juda mashhur. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro va boshqa shaharlarda katta masjidlar, madrasalar, imoratlar va maqbaralar bunyod etilgan. Temuriylar me’morchiligi geometrik naqshlar, g‘isht va plitkalar bilan bezatilgan inshootlar bilan ajralib turadi. Masalan, go‘ri amir maqbarasi va Registon ansambli o‘sha davrning san’atining yorqin namunasidir. Amir Temur ko‘plab binolar masjidlar va madraslar qurdirgan. Bularga quydagilarni misol qilish mumkin: 1404- yilda Amir Temurning onasi Nekuzbibi sharafiga qurib bitkizilgan, go‘zalligidan tengsiz Oqsaroy. Amir Temur saltanatning qo‘rg‘oni- Ark qal`a, undagi betakror va go‘zal binolarni qurdiradi va sohibqiron Hindiston safaridan qaytgach, uning farmoni bilan Jome masjidi Bibixonim nomli masjid quriladi.

Temuriylar davrida madaniyat nafaqat ilm va san’at bilan, balki hayot tarziga ham ta’sir ko‘rsatgan. Saroylarda musiqiy majlislar, she’riy kechalar va ilmiy munozaralar o‘tkazilgan. Bu davr aholisining hayoti ilmiy va madaniy meros bilan boyitilgan edi. Shuningdek, kitob nashr etish, san’atkorlar va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash kabi an’analar rivojlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vatan Tarixi - Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov- Toshkent, 2010
2. Temur va Temuriylar davri madaniyati -Toshkent, 2012.
3. Amir Temur va Temuriylar davri tarixi - Bo‘riboy Ahmedov. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
4. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi – Toshkent, 2010.

# AMIR TEMUR TARIXIY MEROSINING ZAMONAVIY AHAMIYATI

**F.I.Shirinova. NavDU “Tarix” kafedrasi**
**katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)**

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Amir Temurning davlatchilik siyosati, iqtisodiy va madaniy faoliyati hamda uning tarixiy merosining hozirgi zamondagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Temuriylar davrida shakllangan davlat boshqaruvi tamoyillari, diplomatik munosabatlar va madaniy taraqqiyot jarayonlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari Amir Temur merosi hozirgi davlatchilik va milliy o‘zlikni anglash jarayonlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Temuriylar davlati, davlatchilik, madaniy meros, diplomatiya, soliq, bojxona, tarix.

Jahon tarixida o‘zining harbiy salohiyati, siyosiy zakovati va davlatchilik g‘oyalari bilan mashhur bo‘lgan tarixiy shaxslardan biri Amir Temur hisoblanadi. XIV asrda Markaziy Osiyo hududida kuchli markazlashgan davlat barpo etgan bu buyuk sarkarda tarixiy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temur faoliyati nafaqat harbiy yurishlar bilan, balki davlat boshqaruvini takomillashtirish, iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash va madaniy rivojlanishga qaratilgan siyosat bilan ham ajralib turadi. Temuriylar davrida Samarqand shahri ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylangan. Amir Temur davlat boshqaruvida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratgan. U davlat moliyasini mustahkamlash maqsadida soliq tizimini tartibga solgan.[63]

Hozirgi zamonda Amir Temur merosi tarixiy, siyosiy va madaniy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli uning faoliyatini zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tarixshunoslikda qabul qilingan ilmiy yondashuvlar asosida Amir Temur davlatchilik tizimi va uning zamonaviy ahamiyati o‘rganilib kelinmoqda. Uning davrida yaratilgan ko‘plab me’moriy yodgorliklar hozirgi kunda ham xalqimiz uchun tarixiy meros sifatida qadrlanadi. Amir Temurning davlat boshqaruvi tamoyillari, adolat va tartibga asoslangan siyosati, “Kuch adolatdadir” degan fikri hozirgi zamonda ham jamiyatni rivojlantirishda muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda Amir Temur merosi tarixiy tajriba sifatida o‘rganilib, davlat boshqaruvi, siyosiy strategiya va milliy o‘zlikni anglash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun Amir Temur faoliyatini ilmiy jihatdan o‘rganish va uning merosini zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Amir Temur o‘z davrida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat barpo etgan yirik siyosiy arbob sifatida tanilgan. U boshqaruv tizimini mustahkamlash uchun ma’muriy islohotlar o‘tkazib, davlatni bir nechta idoralar orqali boshqarish tizimini joriy etgan.[2] Temur davlat boshqaruvida adolat va qonun ustuvorligini asosiy tamoyil sifatida belgilagan. Uning siyosiy qarashlari “Temur tuzuklari” asarida aks etgan bo‘lib, unda davlatni boshqarish, harbiy tizim, soliq siyosati va jamiyat tartibi haqida muhim qoidalar keltirilgan.[3] Temuriy davlat tizimida: markazlashgan hokimiyat, harbiy-ma’muriy boshqaruv, soliq va iqtisodiy tizim, diplomatik munosabatlar kabi muhim elementlar mavjud bo‘lgan. Bu tizim o‘sha davr uchun samarali boshqaruv modeli hisoblangan. Temuriylar davlatida soliqlar davlat xazinasini to‘ldirish bilan birga iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vazifasini ham bajargan.“Temur tuzuklari” asarida soliq yig‘ishda adolat va tartibga amal qilish muhim ekanligi ta’kidlangan. Unda soliqlarni yig‘ishda aholini ortiqcha qiynamay, adolatli tarzda amalga oshirish zarurligi qayd etilgan.[64] Davlat iqtisodiyotini ta’minlashda muhim rol щynagan bir nechta soliq turlari amal qilgan. Bular: Xiroj – qishloq xo‘jaligi yerlaridan olinadigan asosiy soliq hisoblangan. Bu soliq davlat daromadining katta qismini tashkil etgan.[4] Zakot – musulmon aholidan olinadigan diniy soliq bo‘lib, u ijtimoiy yordam maqsadlariga sarflangan. Boj – savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi shaxslardan olinadigan soliq bo‘lgan. Bu soliq xalqaro savdo rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.[5] Tamg‘a – hunarmandlar va savdogarlardan olinadigan maxsus soliq turi hisoblangan. Bu soliqlar davlat moliyasini ta’minlash bilan birga mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish vazifasini ham bajargan. Joriy qilingan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati shunda ediki,

[63] Ахмедов Б. Амир Темур. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. Б-73.

[64] Темур тузуклари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1996.

undan nafaqat davlat iqtisodiyotini rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llanilgan, balki davlat armiyasini ta’minlash, yo‘llar va ko‘priklar qurish, shaharlar obodonchiligini ta’minlash uchun sarflangan.[65] Amir Temur soliq tizimini joriy etishda ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilgan. Soliqlar aholining iqtisodiy holatiga qarab belgilangan, ya’ni davlat aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga ham e’tibor qaratgan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Shuning uchun Amir Temur davridagi soliq tizimini o‘rganish tarixiy va iqtisodiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida iqtisodiy va madaniy yuksalish davri sifatida baholanadi. Amir Temur savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga alohida e’tibor bergan. Savdo yo‘llari, karvonsaroylar va bozorlar qurilishi savdoning rivojlanishiga xizmat qilgan.[4] Shu bilan birga, u shaharlarni obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirishga katta ahamiyat bergan. Samarqandni dunyodagi yirik madaniy markazlardan biriga aylantirish Temur siyosatida muhim o‘rin tutgan. Temuriylar davrida arxitektura, ilm-fan, adabiyot, san’at jadal rivojlangan. Bu davr ba’zan “Temuriylar Renessansi” deb ham ataladi.[5] Temur savdo yo‘llarini tiklash va xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratgan. Karvonsaroylar, ko‘priklar va bozorlar qurilishi savdo-iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilgan.[4] Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo munosabatlari Temuriylar davlati iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan. Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylangan.Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida iqtisodiy va madaniy yuksalish davri sifatida baholanadi. Amir Temur savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga alohida e’tibor bergan. Savdo yo‘llari, karvonsaroylar va bozorlar qurilishi savdoning rivojlanishiga xizmat qilgan.[4]Shu bilan birga, u shaharlarni obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirishga katta ahamiyat bergan. Samarqandni dunyodagi yirik madaniy markazlardan biriga aylantirish Temur siyosatida muhim o‘rin tutgan.[66] Zamonaviy davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan Temur siyosatidagi quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

1. Markazlashgan va samarali davlat boshqaruvi
2. Harbiy va siyosiy strategiya
3. Xalqaro diplomatiya
4. iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash.

Bu tamoyillar hozirgi siyosiy nazariyalarda ham muhim hisoblanadi. Mustakillikdan keyin Markaziy Osiyo davlatlarida Amir Temur merosini o‘rganishga katta e’tibor qaratildi. Amir Temur davlatchilik ramzi sifatida e’tirof etilmoqda. Amir Temur shaxsiyati nafaqat harbiy qo‘mondon sifatida, balki madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davrida shakllangan madaniy va ilmiy muhit keyinchalik Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar yetishib chiqishiga zamin yaratgan. Uning siyosiy falsafasida adolat va tartib asosiy o‘rin tutadi. “Kuch — adolatda” degan shior davlat boshqaruvida qonun ustuvorligining ahamiyatini ko‘rsatadi.[67] Hozirgi kunda Amir Temur tarixiy merosi:

- milliy o‘zlikni anglash
- davlatchilik an’analarini o‘rganish
- yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, Amir Temur tarixiy merosidan, uning soliq va bojxona siyosati tajribasidan dunyodagi undan keyin faoliyat olib borgan barcha davlatlar, amirlik va xonliklar davlat boshqaruvida unumli foydalanilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1996.
3. Axmedov B. Amir Temur. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
4. Bartold V. V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida. – Toshkent, 1963.
5. Azimov A. Temuriylar davri madaniyati. – Toshkent, 2001.
6. Manz A. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989.

[65] Темур тузуклари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1996.

[66] Azimov A. Temuriylar davri madaniyati. – Toshkent, 2001.

[67] Manz A. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR IMPERIYASI DAVRIDA TIBBIYOTGA DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDAGI E’TIBOR

**Xamrayeva Saodat Islomovna**
**NDU Tarix kafedrasi katta o’qituvchisi, t.f.f.d.(Phd)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida aholi salomatligiga e’tiborning davlat siyosati darajasida olib borilishi, shifoxonalar va tibbiy muassasalar faoliyati, temuriylar davrida tibbiyot ilmining rivoji, Ibn Sino merosining temuriylar davridagi o‘rni, dorishunoslik va gigiyena masalalari xususida fikrlar manbalarga tayanib bayon etilgan.

**Kalit soz**: tibbiyot, aholi, salomatlik, siyosat, jamiyat, temuriylar, hukmdorlar, Amir Temur, Ibn Sino, dorishunoslik.

**Abstract:** This article, based on available sources, presents views on the level of attention of state policy to public health during the reign of Amir Timur and the timurids, the activities of hospitals and medical institutions, the development of medical science during the Timurids, the role of the legacy of Ibn Sina during the timurids, as well as issues of medicine and hygiene.

**Key words**: medicine, population, health, politics, society, timurids, rulers, Amir Timur, Ibn Sina, medicine.

**Аннотация:** В данной статье, на основе имеющихся источников, представлены взгляды на уровень внимания государственной политики к общественному здравоохранению во время правления Амира Тимура и тимуридов, деятельность больниц и медицинских учреждений, развитие медицинской науки в период правления тимуридов, роль наследия Ибн Сины в период правления тимуридов, а также вопросы медицины и гигиены.

**Ключевые слова:** медицина, население, здоровье, политика, общество, тимуриды, правители, Амир Тимур, Ибн Сина, медицина.

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy, iqtisodiy va madaniy yuksalish davri sifatida alohida o‘rin tutadi. Bu davr Amir Temur va temuriylar sulolasi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, ilm-fan, madaniyat va ma’rifatning barcha sohalarida, jumladan tibbiyot ilmida ham yuksak taraqqiyot kuzatilgan. Davlat boshqaruvida aholining salomatligiga e’tibor berish, tibbiy xizmatlarni tashkil etish va tabiblar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash temuriylar siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Tibbiyotning rivoji jamiyat barqarorligi, harbiy qudrat va iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liq ekanini Amir Temur yaxshi anglagan. Shu bois u sog‘lom jamiyatni shakllantirish, aholining turli qatlamlari uchun tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘yishga alohida ahamiyat bergan. Bu an’ana keyinchalik temuriy hukmdorlar tomonidan davom ettirilgan [1. 45-b.].

Amir Temur va temuriylar davri Markaziy Osiyoda siyosiy va madaniy uyg‘onish davri bo‘lib, ilm-fan va tibbiyot davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlantirilgan. Temuriylar poytaxti Samarqand ilmiy va tibbiy markazga aylantirilgan. Bu davrda ilm-fan, jumladan tibbiyot sohasi ilmiy-tadqiqot asosida rivojlangan. Mashhur tabiblar va ularning asarlari saqlanib qolganligi bilan bu davr ilmiy merosi hozirgacha insoniyatga xizmat qilmoqda. Tibbiyot va sog‘liqni saqlash rivoji jarayonida dorishunoslik, jarrohlik va dori vositalari bilan ishlash ham muvaffaqiyatli olib borilgan. Aytish mumkinki:

- Temur va uning avlodlari nafaqat harbiy va siyosiy ishlarni, balki ilm-fan va tibbiyotni rivojlantirishni davlat strategiyasi darajasida qo‘llab-quvvatlagan.
- Tibbiyotga e’tibor shifoxonalar, dorixonalar, tibbiy kitoblar va shifokorlarni rag‘batlantirish orqali amalga oshirilgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda harbiy, ma’muriy va ijtimoiy sohalarni uyg‘un rivojlantirishga intilgan. Uning mashhur “Temur tuzuklari” asarida jamiyat hayotining turli sohalari qatorida xalq salomatligi masalalariga ham bilvosita e’tibor qaratilgan. Asarda adolat, tartib-intizom va inson salomatligi davlat barqarorligining asosiy omillari sifatida talqin qilinadi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Amir Temur harbiy yurishlar vaqtida tabiblar va jarrohlarni alohida guruh sifatida saqlaganini qayd etadi: “Sohibqiron har bir lashkar yurishida tabib va dorishunoslarni hamroh qilar, jarohat olgan askarlar darhol davolanar edi” [1.188.]. Bu ma’lumotlar Amir Temur davrida harbiy tibbiyot rivojlanganini, tibbiy xizmat tashkil etilganini

ko‘rsatadi. Shu bilan birga, shahar aholisi uchun ham tibbiy xizmat mavjud bo‘lib, yirik shaharlarda shifoxona va davolash maskanlari faoliyat yuritgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand, Hirot, Shahrisabz, Balx kabi shaharlar nafaqat siyosiy va madaniy, balki tibbiy markazlar sifatida ham rivojlangan. Manbalarda bu shaharlarda “dor ush-shifo” (shifoxona)lar faoliyat ko‘rsatgani qayd etilgan. Amir Temurning “Temur tuzuklari”da hukmdor har bir shaharda shifoxona qurishni buyurgani va u yerda tajribali tabiblar ishlashini ta’minlaganligini qayd etgan. Shifoxonalar aholining sog‘lig‘i va kasalliklarga qarshi kurashda muhim rol o‘ynagan. Bundan tashqari, Ibn Arabshohning ma’lum qilishicha, “Samarqandda bemorlar uchun maxsus binolar qurilgan bo‘lib, u yerda tabiblar bemorlarni bepul davolar, dorilar davlat xazinasi hisobidan berilar edi” [2.102.]. Bu holat tibbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanganini ko‘rsatadi. Shifoxonalarda turli kasalliklar, jumladan, yuqumli kasalliklar, jarohatlar va ichki a’zolar xastaliklari davolangan. Amir Temur va temuriylar davrida tibbiyotning davlat siyosati darajasida olib borilganligini Ibn Arabshoh ma’lumotlariga tayanib, hududlar bo‘yicha tahlil etilganda quyidagicha bo‘lganligini ushbu jadvalda ko‘rish mumkin:

| | **Shahar** | **Asosiy shifoxonalar / dor ush-shifo** | **Tibbiyotga oid davlat siyosati** | **Mashhur tabiblar va faoliyat** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Samarqand | Bemorlar uchun maxsus binolar, shifoxona | Bemorlar bepul davolangan, dorilar davlat hisobidan | Ibn Arabshoh qayd etgan tabiblar guruhi |
| 2. | Hirot | Madrasalarda tibbiyot fanlari, dor ush-shifo | Shohrux Mirzo ilm-fanga homiylik qilgan, shifokorlar qo‘llab-quvvatlangan | Tabiblar Ibn Sino ta’limotiga tayangan |
| 3. | Shahrisabz | Dor ush-shifo va hammomlar | Gigiyena va sanitariya qoidalari yo‘lga qo‘yilgan | Tabiblar va dorishunoslar faol |
| 4. | Balx | Shifoxona va dorixona | Epidemik kasalliklarni oldini olishga qaratilgan | Dorishunoslar o‘simlik va minerallar bilan dorilar tayyorlagan |
| 5. | Buxoro | Shifoxonalar, kutubxonalar | Madrasalarda tibbiyot o‘qitilgan, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan | Tabiblar Ibn Sino va boshqa klassiklar sharhlarini yozgan |

Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida (XV asr) tibbiyot ilmi yanada yuksaldi. Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlar ilm-fanga homiylik qilib, tabiblar va olimlarni qo‘llab-quvvatladilar. Bu davrda madrasalarda tibbiyot alohida fan sifatida o‘qitilgan. Ayniqsa, Hirot shahri temuriylar davrida tibbiyot ilmining yirik markaziga aylandi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida tabiblarning jamiyatdagi o‘rnini yuksak baholab, shifokorlikni insonparvar kasb sifatida ta’riflaydi: “Tabiblar xalq dardiga davo qilguvchi, jamiyatning eng foydali kishilari hisoblanur” [3.45.].

Temuriylar davri tibbiyoti Ibn Sino (Avitsenna) ta’limotiga tayangan. Uning “Qonun fit-tib” asari asosiy qo‘llanma sifatida tibbiy ta’limda keng foydalanilgan. Bu asar madrasalarda o‘qitilib, tabiblar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajargan. Tarixchi olim V.V. Bartold ta’kidlaganidek, “Temuriylar davri tibbiyoti Ibn Sino maktabining davomi bo‘lib, uning nazariy va amaliy asoslari to‘liq saqlab qolingan” [4.127.]. Shu bilan birga bu davrda Ibn Sino asarlariga sharhlar yozilgan, ular ko‘chirilib, aholi orasida keng tarqatilgan.

Temuriylar davrida dorishunoslik (farmakologiya) ham rivojlangan. Tabiblar dorilarni asosan o‘simliklar, minerallar va hayvon mahsulotlaridan tayyorlaganlar. Bozorlarda dorixonalar faoliyat yuritgan, maxsus dorishunoslar xizmat ko‘rsatgan. Gigiyena va sanitariya masalalariga ham katta e’tibor qaratilgan. Shaharlarda suv ta’minoti, hammomlar, tozalik qoidalari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa epidemik kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo‘lgan. Temuriylar hukmronlik qilgan hududlarda xalqni ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun ko‘pgina hovuz, kanal, ariqlar qazilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur va temuriylar davrida yuqumli kasalliklar tez-tez tarqab turar edi. Buning oldini olish uchun kerakli choralar ko‘rilgan. Xususan, tozalikka katta ahamiyat berilgan, ayniqsa, aholi ichimlik uchun foydalanadigan ariq va hovuzlardagi suvlar nihoyatda toza tutilgan.

Shu sababdan bo‘lsa kerak, shifoxonalarning shimol tarafida Doral-huffoz orasida hovuz bo‘lib, undan tabiblar bemorlarni davolashda foydalanishgan. Albatta, bular temuriylar davrida barcha sohalar kabi tibbiyot ilmi ham salmoqli rivojlanganini tasdiqlaydi. [5. https://ishonch.uz ].

Ilmiy va amaliy tibbiyot faoliyatida tabiblarning ham roli katta bo‘lgan. Ular nafaqat kasallarga yordam ko‘rsatgan, balki siyosiy ijtimoiy barqarorlik va harbiy yurishlarda sog‘liqni saqlash xizmatlarini ta’minlagan. *“*Amir Temur va uning vorislari saroyda doimiy faoliyat yurituvchi tabiblar bo‘lgan. Ularga yuqori maosh, obro‘-e’tibor berilgan.” [6.1409.]

Xullas, Amir Temur va temuriylar davrida tibbiyotga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ta’kidlash lozm. Davlat boshqaruvida tibbiyot bilan shug‘ullanganlar ham muhim ijtimoiy guruh sifatida ajratilgan va ularga davlat tomonidan e’tibor qaratilgan. Tabiblar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tibbiy muassasalarni tashkil etish, tibbiyot ilmini rivojlantirish orqali aholi salomatligini ta’minlashga erishilgan. Bu davr tibbiyoti nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki keyingi asrlarda ham Markaziy Osiyo tibbiy an’analari rivojiga mustahkam asos bo‘lib xizmat qilgan. Amir Temur va temuriylar imperiyasi davrida tibbiyot sohasi davlat siyosatining bir qismi sifatida ko‘rilganligini shifoxonalar qurilishi, tabiblar faoliyati, tibbiy ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga berilgan e’tiborda ham yaqqol ko‘rish mumkin. Bunday siyosat tinchlik va urush davrida aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilishga xizmat qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шарофиддин А.Я. Зафарнома: таржима, изоҳ ва шарҳлар билан. – Тошкент : Камалак, 1994. – 188 -б.
2. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи (Ажойиб ул-мақдур фи ахбори Темур) / араб тилидан таржима. – Тошкент : Info Capital Books, 2024. – 396- б.
3. А.Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент : Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 156-б.
4. Бартольд В.В. Туркистан тарихи очерклари. – Москва : Наука, 1963. –512-б.
5. Mamadaliyev A. Amir Temur davrida tibbiyot ilmi jadal rivojlangan// https://ishonch.uz/oz/news/amir-temur-davrida-tibbit-ilmi-zadal-ri?utm_source=chatgpt.com 2025.
6. Umarova M., Abdullajonov I., Mamatibrohimova R. Temuriylar davrida tibbiyot. //Modern Science and Research, 4(5), 2025. 1409-b. https://inlibrary.uz/index
7. Азимов А. Ўрта асрлар Шарқ тиббиёти тарихи. – Тошкент : Ўқитувчи, 1989. – 124-б.

## AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVIDAGI O‘RNI

**Farg‘ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)**
**Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**
**Abdurahmonova Odinaxon Hayotbek qizi**

**Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna**
**filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyati, uning markazlashgan davlatni shakllantirishdagi xizmatlari hamda siyosiy va ma’muriy boshqaruv tamoyillari yoritiladi. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat sharoitida kuchli davlat tuzumini barpo etish, hududlarni birlashtirish va barqaror boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada Sohibqiron tomonidan amalga oshirilgan boshqaruv siyosati, harbiy va ma’muriy tizimni tashkil etish, mamlakatda tartib-intizomni mustahkamlash hamda iqtisodiy va madaniy rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, uning davlat boshqaruvidagi tajribasi va siyosiy faoliyati o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgani haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Shahrisabz, Movarounnahr, ilm-fan homiyligi, diplomatiya, Samarqand, madrasalar, Ulug‘bek Mirzo, Zafarnoma, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, harbiy

yurishlar, Xorazm, Mo‘g‘uliston, Hindiston yurishi, Usmonli imperiyasi, shaharsozlik, Buyuk Ipak Yo‘li, Shohrux, Mironshoh, tarixiy meros.

Abstract: This article examines the role of Amir Temur in state governance, his contribution to the formation of a centralized state, and the principles of political and administrative administration established during his reign. In the second half of the 14th century, the region of Movarounnahr experienced a complex political situation, in which the unification of territories, the establishment of a strong state structure, and the creation of a stable governing system became essential. The article also analyzes the policies implemented by Amir Temur in organizing military and administrative structures, strengthening order and discipline within the country, and promoting economic and cultural development. In addition, attention is given to the significance of his governing experience and political activity in the historical development of Uzbek statehood.

Keywords: Amir Temur, Shahrisabz, Transoxiana, patron of science, diplomacy, Samarkand, madrasahs, Ulugh Beg, Zafarnama, Alisher Navoi, Kamaleddin Behzad, military campaigns, Khwarezm, Mongolia, India campaign, Ottoman Empire, urban development, Silk Road, Shahrukh, Miran Shah, historical heritage

Аннотация: В данной статье рассматривается роль Амир Тимура в управлении государством, его вклад в формирование централизованного государства и принципы политического и административного управления, установленные во время его правления. Во второй половине XIV века в регионе Мавераннахр сложилась сложная политическая ситуация, в которой объединение территорий, создание сильной государственной структуры и обеспечение стабильной системы управления имели ключевое значение. Статья также анализирует политику Амир Тимура по организации военной и административной системы, укреплению порядка и дисциплины в стране, а также содействию экономическому и культурному развитию. Кроме того, уделяется внимание значению его управленческого опыта и политической деятельности для исторического становления узбекской государственности.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Шахрисабз, Мавераунннахр, покровительство науки, дипломатия, Самарканд, медресе, Улугбек Мирзо, Зафарнома, Алишер Навои, Камолиддин Бехзод, военные походы, Хорезм, Монголия, поход в Индию, Османская империя, градостроительство, Великий Шёлковый путь, Шахрух, Мироншох, историческое наследие.

**Kirish:** Amir Temur, Temurbek nomi bilan ham mashhur, 1336 yil 9 aprel kuni Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xoja Ilgor qishloqlarida tavallud topgan. Uning otasi, Amir Taragay, Barlos qabilasining nufuzli oqsoqoli bo‘lib, o‘sha davr siyosiy va harbiy hayotida katta obro‘ga ega edi. Taragaybek nafaqat hududni boshqarish, balki diniy va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan ulamolar bilan do‘stona aloqalar o‘rnatish bilan mashhur edi. Onasi, Tegina (Ta’kina) begim, mashhur Buxoro ulamolaridan Ubaydullo al-Buxoriyning qizi bo‘lib, ilm-fan va ma’naviyatga boy oila muhitida ulg‘aygan. Shu oilaviy muhit Temurning kelajakda ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda muhim omil bo‘lgan.

Amir Temur diplomatiya sohasida ham dunyo tarixida chuqur iz qoldirdi. U XIV asrda dunyoning yirik davlatlari - Ispaniya, Fransiya, Angliya, Xitoy, Hindiston, Usmonli imperiyasi, Misr va boshqa mamlakatlar bilan munosabatlar o‘rnatgan, elchilar yuborish va maktublar almashish orqali o‘zining siyosiy va diplomatik kuchini mustahkamlagan. Shu tariqa, u Yevropa va Osiyo o‘rtasida o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, savdo va iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, hamkorlik uchun yagona maydon yaratish bo‘yicha samarali choralar ko‘rgan. Temurning tashabbusi bilan xorijiy davlatlar elchilari uning saroyiga tez-tez tashrif buyurib, ilmiy, madaniy va siyosiy tajribalarni almashish imkoniga ega bo‘lgan. Ilm-fan homiysi sifatida Amir Temur o‘z davrida tinchlik va barqarorlikni ilm-fan va madaniyat rivoji uchun asos sifatida ko‘rdi. U xonadonida shohzodalar va malikalarga turli fanlar bo‘yicha ta’lim berishni tashkillashtirdi, ularni madrasalarda ilmiy bilimlar bilan boyitdi. Masalan, Mironshoh uchun Ibn al-Asirning “Al-komil fit-tarikh” (Mukammal tarix) asari tarjima qilib taqdim etilgan. Temur avlodlari orasida Muxammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Войсункур Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlar, olimlar, tarixchilar va ma’naviyat sohiblari yetishib chiqqan.

Samarkandda Ulug‘bek Mirzo rahbarligida astronomiya maktabi tashkil etilgan, ilg‘or rasadxona barpo etilgan va “Ziji jadidi Kuragoniy” jadvali tayyorlangan, unda 1018 yulduz tasnifi keltirilgan. Bu ilmiy yutuqlar jahon astronomiyasiga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, “To‘rt ulus

tarixi” asari xalqimiz tarixini anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Sohibqiron davri tarixini ishonchli yoritgan Sharaffiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si esa Temur davrining siyosiy, madaniy va harbiy voqealarini puxta yoritib bergan. Ulug‘bek Mirzo va uning avlodlari, shoirlar va san’atkorlar, jumladan, Алишер Навоий, Lutfiy va Husayn Boykarolar, Kamoliddin Behzodning durdona miniaturasi, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si - bularning barchasi Temuriylar davrining madaniy va ilmiy merosini tashkil etadi.

Amir Temur buyuk sarkarda sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirdi. U harbiy strategiya, boshqaruv va tadbirkorlikni mukammal uyg‘unlashtirib, davlat xavfsizligi, hududlarni kengaytirish va ichki barqarorlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shgan. Uning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biror murakkab ishni to‘g‘ri reja va qat’iyat bilan amalga oshirish minglab kuchli qurollardan samaraliroq bo‘lishi mumkin. Temur o‘z qarorlarida doimo adolat, xalqparvarlik va uzun muddatli manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘ygan. 1405 yil 11 fevral kuni Xitoy safariga yo‘l olganida kasallikka chalinib, 18 fevral kuni Samarqandda vafot etdi va Amir Temur maqbarasiga dafn qilindi. Vafotidan oldin u o‘z vasiyatida hukmdorlar va amaldorlarni adolat, haqiqat va ra’iyatparvarlik tamoyillariga amal qilishga chaqirgan, davlat va xalq farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yishni tavsiya qilgan.

Sohibqironning hikmatli so‘zlari va amaliyati uning shaxsiyatini yanada yorqin ko‘rsatadi: bir ishga kirishishdan oldin yakunini o‘ylash, do‘stlik va adolatni qadrlash, tajribali va qat’iyatli bo‘lish, xalqning ahvolidan xabardor bo‘lish, hamda barcha ishlarni ochiq yuzlilik va rahm-shafqat bilan boshqarish -bularning barchasi uning hayotiy va siyosiy prinsiplarini tashkil qilgan. Zamonaviy olimlar va davlat arboblari, jumladan, Islom Karimov, Amir Temurni nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun mintaqa va insoniyat tarixining boyligi, ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgan buyuk shaxs sifatida ta’riflaydilar. U o‘zbek nomini, adolatparvarligini va mamlakat salohiyatini dunyoga tanitgan. Shu tariqa, Amir Temur tarixda nafaqat qudratli hukmdor va sarkarda, balki ilm-fan homiysi, dono davlat arbobi va xalqining ma’naviy yetakchisi sifatida abadiy iz qoldirdi. Amir Temur – tarixda o‘z davrida keng hududlarni birlashtirgan buyuk sarkarda va davlat asoschisi sifatida nom qozongan shaxsdir. U Movarounnahrni mo‘g‘ullar hukmronligidan ozod qilib, mustaqil davlat barpo etdi. Ammo uning boshqaruvida boshida to‘liq barqarorlik o‘rnatilmagan edi: ayrim viloyat hokimlari Temur hokimiyatini tan olmay, sharqiy va shimoliy hududlarda notinchlik davom etardi.

Amir Temur dastlab mamlakat sarhadlarini himoya qilish va ichki nizolarni bartaraf etishga e’tibor qaratdi. Isyonchi amirlarga qarshi qat’iy kurash olib bordi. Balx, Toshkent va Zinda Chashm kabi viloyatlar uning hokimiyatini tanladi. Ammo Xorazm Oq O‘rda xoni To‘xtamish bilan ittifoq qilgan Yusuf so‘fi tomonidan bir necha marta bosib olindi. Shu sababli Temur besh marotaba Xorazmga yurish qildi va 1388-yilda Xorazmni o‘z nazorati ostiga olgan. Shuningdek, Temur Mo‘g‘uliston hududlariga ham yetti marta yurish qilib, mo‘g‘ul hukmdorlarini mag‘lub etdi va Movarounnahr va Xorazmdagi ichki tarqoqlikni bartaraf etdi. Shu orqali u O‘rta Osiyo hududidagi turli elatlarni yagona davlatga birlashtirdi. Temuriylar davlati nafaqat harbiy, balki diplomatik faoliyatda ham kuchli edi. U Fransiya, Angliya va Kastiliya qirolliklari bilan savdo aloqalari o‘rnatdi, elchilar va maktublar almashildi. Vizantiya imperiyasi esa Temurga din solig‘i to‘lash orqali Itstambulni himoya qilishga majbur bo‘ldi. Xitoy bilan esa savdo aloqalari va elchilar almashinuvi mavjud edi, ammo Temur 1405-yil 18-fevralda vafot etgani sababli Xitoyga yurish amalga oshmadi.

Amir Temurning harbiy yurishlari keng hududlarni zabt etishga qaratilgan edi. U 1381 - 1384-yillarda Xuroson va Eronning ko‘plab hududlarini egalladi. 1386 - 1388-yillardagi “3 yillik istilo”da Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko‘li atrofidagi yerlarni zabt etdi. Shimoliy-g‘arbda esa Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi 3 yurish olib borib, 1395-yilda Terek daryosi vodiysida katta g‘alaba qozondi. Shu harbiy yurishlar natijasida Volga bo‘yidagi shaharlar, Saroy Berka, Saroychik va Astraxon zabt etildi. Temur Hindiston hududiga 1398 - 1399-yillarda yurish qilib, 120 jangovar fil bilan katta o‘lja qo‘lga kiritdi. Shuningdek, u 1399 - 1404-yillarda Usmonli imperiyasiga qarshi yurish olib, Halab, Dimashq, Xums va boshqa yirik shaharlarga hukmronlik o‘rnatdi. Anqara jangida u Boyazid Yildirimni asirga oldi, ammo Usmonli davlatining mustaqilligini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat ko‘rsatdi. Bu g‘alaba Yevropadagi nasroniylar tomonidan ham e’tirof etildi.

Amir Temur davlatni faqat kengaytirish bilan cheklanib qolmagan, balki bunyodkorlik va madaniyatni rivojlantirishga ham katta e’tibor bergan. U Samarqandni qayta qurib, shaharga mustahkam qal’a devorlari, ko‘priklar, saroylar, masjidlar va madrasalar barpo qilgan. Shuningdek,

Kesh, Bag‘dod, Sheroz, Tabriz, Dimashq kabi shaharlarda ham me’moriy obidalar bunyod etilgan. Temur shaharlarga bog‘-rog‘lar va bo‘stonlar qurdirgan, dehqonchilik va sug‘orish tizimlarini rivojlantirgan. Amir Temur ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlagan. U saroyida mashhur ulamolar va olimlarni yig‘ib, maslahat va homiylik bilan ta’minlagan. Fan, san’at va hunarmandchilik rivojlandi, savdo-sotiq kengaydi va “Buyuk Ipak Yo‘li” xavfsizligi ta’minlandi. Temur o‘z yurishlarini rejalashtirishda ilm va strategiyaga katta e’tibor bergan. Shaxsiy siyosatida u o‘g‘illar va nabiralariga uluslarni bo‘lib berdi: Shohrux Xurosonni, Mironshoh G‘arbiy Eron va Kavkazni, Umarshayx Fors janubini, Pirmuhammad Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonni boshqargan. Shu tarzda Temuriylar davlati tartib-intizom asosida idora etilgan.

Amir Temurning vafotidan so‘ng (1405-yil 18-fevral) uning davlat va madaniyat merosi davom etdi. Samarqand va boshqa shaharlar uning davrida gullab yashnadi. O‘zbekistonda uning nomi abadiylashtirilgan: shaharlar, xiyobonlar, muzeylar va haykallar uning shoniga bag‘ishlangan, xalqaro miqyosda esa YUNESKO rahbarligida tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi. Amir Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki davlat quruvchi, shaharsoz va ilm-fan homiyligi bilan tarixda o‘ziga xos iz qoldirgan. Uning faoliyati nafaqat Movarounnahr, balki Sharq va Yevropa mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Amir Temur nafaqat qudratli sarkarda, balki aql-idrok, dono boshqaruv va siyosiy strategiyaga ega davlat arbobi sifatida tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirdi. U Movarounnahrni mo‘g‘ullar hukmronligidan ozod qilgach, o‘z saltanatini barpo etdi, ammo mamlakatning barcha hududlarida tinchlik va barqarorlik bir zumda o‘rnatilmadi. Ayrim viloyatlar hokimlari uning hokimiyatini tan olishdan bosh tortgan, sharqiy va shimoliy hududlar esa Oq O‘rda va Mo‘g‘ulistondan kelayotgan doimiy hujumlar tufayli notinch bo‘lgan. Shu sababli Amir Temur davlatning chegaralarini mustahkamlash va ichki nizolarni bartaraf etishga katta e’tibor qaratdi. U Xorazmni besh marotaba yurish qilib, nihoyat 1388-yilda o‘z nazorati ostiga oldi. Mo‘g‘uliston bilan esa yetti marotaba jang olib borib, ularning hukmdorlarini mag‘lub etdi va shimoliy-sharqiy hududlarda barqarorlikni ta’minladi. Shu tariqa u Movarounnahr va Xorazmdagi turli elatlarni yagona davlat tizimiga birlashtirdi. Temuriylar davlati bu jarayonda faqat harbiy g‘alabalarga tayanmagan, balki diplomatik faoliyatni ham samarali yo‘lga qo‘ydi. U Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi Yevropa qirolliklari bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi, elchilar va maktublar almashildi. Vizantiya imperiyasi Temurga diniy soliq to‘lab, Istanbulni himoya qilishga majbur bo‘ldi, Xitoy bilan esa savdo aloqalari va elchilar almashildi, ammo Temurning 1405-yilda vafot qilishi tufayli Xitoyga yurish amalga oshmadi.

Harbiy yurishlari bilan Temur keng hududlarni o‘z nazorati ostiga oldi. 1381–1384-yillarda u Xuroson va Eron hududlarini egalladi, 1386-1388-yillarda “3 yillik istilo” orqali Janubiy Ozarbayjon, Iroq shimoli, Gurjiston va Van ko‘li atrofini zabt etdi. Shimoliy-g‘arbda Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi uch yurish amalga oshirib, 1395-yilda Terek daryosi vodiysida qozonilgan g‘alaba bilan Volga bo‘yidagi shaharlar, Saroy Berka, Saroychik va Astraxon kabi markazlarni o‘ziga bo‘ysundirdi. 1398-1399-yillarda Hindistonga yurishi davomida 120 jangovar fil va katta o‘lja qo‘lga kiritdi. 1399-1404-yillarda Usmonli imperiyasiga qarshi yurishlarida Halab, Dimashq, Xums kabi yirik shaharlarga hukmronlik o‘rnatdi va Anqara jangida Boyazid Yildirimni asirga oldi, lekin Usmonli davlatining mustaqilligini saqlab qoldi. Amir Temur faqat zabt va harbiy g‘alabalarga e’tibor qaratmagan, balki madaniyat va shaharsozlikni rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shgan. Samarqandni qayta qurib, uni go‘zal saroylar, masjidlar, madrasalar va mustahkam qal’a devorlari bilan obodonlashtirdi. Kesh shahrida Oqsaroyni barpo etib, uni Movarounnahr madaniy markaziga aylantirishga intildi. Shuningdek, Tabriz, Sheroz, Bag‘dod va Dimashqda ham me’moriy obidalar barpo etildi. Temur bog‘-rog‘lar, bo‘stonlar, sug‘orish tizimlari va yangi qishloqlarni yaratish orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta’minladi.

Ilm-fan va madaniyat sohasida Temur faol homiy bo‘ldi. U saroyida mashhur olimlar, ulamolar va san’atkorlarni yig‘ib, maslahat va homiylik bilan ta’minladi. Ulug‘bek Mirzo rahbarligida Samarqandda astronomiya maktabi va ilg‘or rasadxona tashkil etilib, yulduzlar tasnifi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod kabi shoir va rassomlarning ijodiy faoliyati qo‘llab-quvvatlandi. Temur davrida hunarmandchilik rivojlanib, ichki va tashqi savdo kengaydi, “Buyuk Ipak Yo‘li” xavfsizligi ta’minlandi. Amir Temur shaxsiy siyosatida adolat, xalqparvarlik va uzoq muddatli manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘ygan. O‘z o‘g‘illari va nabiralariga uluslarni bo‘lib berib, davlatni tartib-intizom asosida idora qilgan. Shohrux

Xurosonni, Mironshoh G‘arbiy Eron va Kavkazni, Umarshayx Fors janubini, Pirmuhammad Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonni boshqargan. Vafotidan so‘ng (1405-yil 18-fevral), Temurning merosi davom etdi. Samarqand va boshqa shaharlarda uning davrida obodonchilik va madaniy yuksalish saqlanib qoldi. O‘zbekistonda shaharlar, xiyobonlar, muzeylar va haykallar uning shoniga bag‘ishlandi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki dono davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham tarixda o‘z o‘rnini mustahkamladi. U Movarounnahrni mo‘g‘ullar hukmronligidan ozod qilib, turli xalqlarni yagona davlat ostida birlashtirdi, shu orqali hududiy barqarorlik va ichki tartibni ta’minladi. Temurning strategik mahorati va diplomatik faoliyati orqali Yevropa va Osiyo davlatlari bilan savdo, siyosiy va madaniy aloqalar rivojlandi, xalqaro munosabatlarda u mustahkam pozitsiya egalladi. Shuningdek, Temur shaharlarda bunyodkorlik ishlarini olib borib, Samarqandni markaziy ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirdi; madrasalar, masjidlar, saroylar va bog‘lar barpo etilishi uning uzoq muddatli maqsadlarini, shuningdek, xalq hayotini yuksaltirishga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsatadi. Shu tariqa, Amir Temur o‘z davrining siyosiy, harbiy va madaniy hayotida hal qiluvchi rol o‘ynadi, mamlakatni rivojlantirish va xalqini farovonlashtirish uchun keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdi. Uning merosi bugungi kunda ham tarixshunoslik, arxitektura, fan va madaniyat sohalarida o‘rganilib, jahon miqyosida qadrlanadi. Amir Temur tarixda adolat, bilim va jasorat timsoli sifatida abadiy yodda qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boymuhammadov O. Temuriylar tarixi. Toshkent, 2003.
2. O‘zbekiston tarixi. 7-sinf darsligi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019, (138-146-betlar)
3. Muhammad Ali. “Amir Temur solnomasi” , Toshkent 2008, (20-46- betlar)
4. “Temur tuzuklari”, 1404 yil.

## AMIR TEMURNING BUYUK SARKARDALIK SALOHIYATI

**Jizzax DPU dotsenti, t.f.f.d.U.S.To‘pchiyev.**
**1-kurs talabasi O.Rahmonqulova.**

**Rezyume**

Mazkur maqolada Amir Temurning buyuk sarkardalik salohiyati, harbiy tashkilotchilik qobiliyati va davlat boshqaruvidagi o‘rni keng yoritilgan bo‘lib, Sohibqironning o‘z davri harbiy san’atini yangi bosqichga olib chiqqani, intizomli va aniq tizim asosida tuzilgan qo‘shin yaratgani yoritilgan.

Amir Temur qo‘shin tuzilmasini o‘nlik tizim asosida tashkil etib, har bir bo‘linmaning vazifasi, boshqaruvi va moddiy ta’minotini aniq belgilagan. U janglarda tezkorlik, puxta rejalashtirish va vaziyatni to‘g‘ri baholash tamoyillariga amal qilgan. “Kam sonli, ammo to‘g‘ri joylashgan qo‘shin ustun” degan g‘oya uning strategiyasining asosini tashkil etgan.

Maqolada uning harbiy yurishlari, xususan To‘xtamishxon ustidan qozongan g‘alabasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharqiy Yevropa tarixida ham muhim burilish yasagani qayd etiladi. Shuningdek, u zabt etilgan hududlarda adolatli siyosat yuritib, ilm ahliga hurmat bilan munosabatda bo‘lgani alohida ta’kidlanadi.

Bundan tashqari, maqolada “Temur tuzuklari” asari uning siyosiy va harbiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida tahlil qilinib, unda ehtiyotkorlik, maslahatga tayanish, qat’iyat va adolat tamoyillari asosiy o‘rin tutganligi ko‘rsatib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur nafaqat zabardast sarkarda, balki yuksak harbiy tafakkur egasi, kuchli davlat arbobi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Uning harbiy strategiyasi, qo‘shin tuzilishi va boshqaruv usullari bugungi kunda ham muhim ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

**Summary**

This article highlights the great military leadership of Amir Temur, his organizational skills in warfare, and his role in state governance. It emphasizes that Sahibqiran elevated the military art of his time to a new level by creating a disciplined army based on a clear and structured system.

Amir Temur organized his army according to a decimal system, clearly defining the responsibilities, command structure, and material support of each unit. In battles, he adhered to the principles of speed, careful planning, and accurate assessment of situations. The idea that “a smaller force positioned correctly is superior” formed the foundation of his military strategy.

The article also notes that his military campaigns, particularly his victory over Tokhtamysh Khan, marked a significant turning point not only in Central Asia but also in the history of Eastern Europe. It further emphasizes that in conquered territories, he pursued a just policy and showed respect toward scholars and intellectuals.

In addition, the article analyzes the work *Temur’s Codes (Tuzuks)* as an important source reflecting his political and military views, highlighting principles such as caution, reliance on consultation, determination, and justice.

In conclusion, Amir Temur left an indelible mark in history not only as a great commander but also as a thinker with profound military insight and a powerful statesman. His military strategy, army structure, and governance methods remain of significant scientific and educational importance today.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-46-sonli qarori e’lon qilinib, buyuk bobokalonimiz tavalludini keng nishonlash yuzasidan qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Jamiyatimizda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” ezgu g‘oya asosida davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va “Uchinchi renessans” poydevorini Yangi O‘zbekistonda yaratishda Amir Temur merosining o‘rni muhimdir. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk bobokalonimiz merosining bugungi kunda o‘rnak bo‘ladigan jihatlari bisyordir. Muhtaram Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev: “Kelajakda harbiy bo‘lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini qayerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi...” – deya ta’kidlagan edi.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur o‘zi kabi sarkardalar ichida alohida ajralib turadi. U barcha davr nomdor harbiy qo‘mondonlari orasida o‘ziga xos alohida o‘rin egallab, uning kuch-qudrati va chidamliligi kishini hayratda qoldiradi.

Sohibqiron Amir Temur mahoratli harbiy tashkilotchi va buyuk sarkarda bo‘lib, u o‘z vaqtida intizomli armiya tuzishga, uni mohir qo‘mondonlar bilan ta’minlashga, jang chog‘ida qo‘shin qismlarni san’atkorona boshqarishga, mahoraba taqdirini hal etuvchi joylarga ko‘makchi kuchlarini o‘z vaqtida ustalik bilan yo‘llashga, har qanday to‘siq va g‘ovlardan tadbirkorlik bilan o‘tishga erishgan. U jangga uzoq tayyorlanish orqali tez, shiddatli xujum uyushtirishni afzal bilgan.“Noto‘g‘ri xolat, vaziyatda mingta jangchi bilan turgandan ko‘ra, o‘nta jangchi bilan to‘g‘ri xolat, vaziyatda turgan ma’qul” - deb hisoblaydi Amir Temur.

Rus olimi Yu.A.Yakubovskiy Amir Temurning shaxsiy sifatlariga baho berar ekan: “Temur shaxsiy dovyurakligi, sahiyligi, odamlarni ajrata bilishi va o‘ziga yordamchilar tanlay olishi, yetakchilik borasida o‘ziga xos qobiliyatga ega bo‘lib, u yuksak tashkilotchi, kuchli irodaga ega arbobdir. Amir Temur ichki va tashqi siyosatda asosan qo‘shinga suyangan” deya ta’kidlab o‘tadi.

Amir Temurning harbiy faoliyatda tutgan yo‘llari haqida uning “Tuzuklari”dan ham bilib olishimiz mumkin. Xususan: “Jahongirlik qilishga kirishganimda to‘rt narsani xotiramda mustahkam saqladim: birinchisi-qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsam, to‘g‘ri tadbir va kengash bilan ish tutdim; ikkinchisi - xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qildim; uchinchisi – uch yuz o‘n uch asl zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim; to‘rtinchisi - bugungi ishni ertaga qoldirmaslik, yumshoqlik qilishga to‘g‘ri kelsa, muloyimlik qildim, qattiqqo‘llik ishlatish vaqti yetsa, kat’iy choralar ko‘rdim, shoshmaslik kerak yerda shoshilmadim, shoshilarli ishlarni kechiktirmadim, qaysi ishni chorayu-tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, o‘nda qilich ishlatmadim” - deya qayd etadi Sohibqiron.

Amir Temur qo‘shini o‘nlik askariy birikmalar asosida tuzilgan bo‘lib, lashkarlardan, lashkar esa o‘z navbatida “tuman”-o‘n minglik, “xazora”- minglik, “xo‘shun”-yuzlik va “ayl”-o‘nlik

birikmalarga bo‘lingan. Qo‘shinda o‘n minglik lashkarni boshqarish uchun “tuman og‘asi”, minglik bo‘linmalar uchun “mirixazora”, yuzlik bo‘linmalar uchun “yuzboshi” hamda o‘nlik bo‘linmalarda “aylboshi” kabi harbiy lavozimlar joriy etilgan. Ularning haq-huquqlari, oylik maoshlari aniq belgilab qo‘yilgan. Masalan, oddiy sipohiy maoshi mingan oti bahosi barobarida, ya’ni “Baxodirlarning maoshi 2-4 ot barobarida, ya’ni aylboshi qaramog‘idagi navkarga nisbatan ikki barobar ko‘p, yuzboshi o‘nboshidan ikki xissa ko‘proq maosh olgan. Mingboshilarning maoshi-xo‘shunboshilarning maoshidan uch barobar ortiq bo‘lgan. Janglarda alohida jasorat ko‘rsatib g‘alaba kozongan amirlar uchun in’omlar ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, qaysi bir amir biron qo‘shinni yengsa yoki mamlakat yo viloyatni zabt etsa, u tug‘, nog‘ora, baxodirlik martabasi, davlat kengashlariga bemalol kirish huquqi hamda biron viloyatning noibligi bilan siylangan”.

Amir Temur qo‘shini o‘z zamonasining ilg‘or qurol-yarog‘i, harbiy texnikasi bilan ta’minlangan bo‘lib, har bir qism, bo‘linma aynan bir turdagi qurol-yarog‘, texnika-anjom bilan ta’minlangan. Bo‘linmalar, qismlar bir-biridan kiyim-boshi, ko‘targan bayrog‘i va xatto mingan otining tusi orqali ham farqlangan.Jumladan, katta qizil bayroq - qo‘shin boshlig‘i amir ul-umaro yoki beklarbegining, ot yoliga bog‘langan nayzali uzun tug‘ - tuman og‘asining, ikki tomoniga kokillar osilgan ikki dul nog‘ora - yuzboshining belgisi bo‘lgan. Otliq qismlarni boshqarish uchun maxsus ajratilgan suvoriy dovulchilar bo‘lib, ular ikki tomoniga ikki dul nog‘oradovul osib yurishgan va jang paytlarida suvoriylarni jangga chorlash maqsadida ular bong urib chalingan.

Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, harbiy safarda Amir Temur qo‘shinidagi har bir jangchi o‘zi bilan birga bir yilga yetadigan oziq-ovqat, kamon bilan o‘ttiz ukli sadoq, sovut, nayza va qalqon olgan. Har ikki suvoriy bitta zaxira chopqur ot, o‘rdugoxda har bir “ayl”-o‘nlik qismda bittadan chodir, qozon, ketmon, o‘roq, bolta, bigiz, ikkitadan belkurak, o‘ntadan igna, yarim man arqon, bitta oshlangan pishiq teri olib yurishi shart bo‘lgan. Harbiy safarbarlik vaqtida har bir viloyat oldindan belgilab qo‘yilgan asosiy “asl” hamda zaxira “izofa”, ya’ni “rezerv” qo‘shimcha qismlarni, shuningdek toshotar (sangandoz), devor buzuvchi (manjaniq), o‘q otadigan (radandoz va naftandoz) hamda o‘ziotar qurollarni ishlata biladigan jangchilarni ham tayyorlab bergan.

Amir Temur zabt etilgan mamlakat aholisi va ziyoli kishilariga nisbatan adolatli bo‘lganligini o‘z “Tuzuk”ida shunday izoxlaydi: “Qaysi mamalakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e’tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyihlariga ta’zim bajo keltirdim va xurmatladim, ularga suyurg‘ol vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o‘sha viloyatning ulug‘larini bo‘lsa, o‘z farzandlarimdek ko‘rdim. Mazkur mamalakatlarning sipoxlari uchun dargohim eshigi ochiq edi. Hammani qo‘rquv va umid orasida saqladim”. Amir Temur o‘z tuzuklarida: “Amr etdimki, o‘g‘ri va qaroqchilarni “Yaso asosida jazolasinlar va yana buyurdimki, hech bir shahar va qishloqda odamlarni sari shumor va xonai shumor olmasinlar. Sipohiylardan biron kishi raiyatning xonadoniga zo‘rlik bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovlarini tortib olmasin. Har bir mamlakatning raiyati bilan bo‘lgan muomalada ularga nisbatan xolislik bilan ish tutsinlar. Yana buyurdimki har bir mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo‘l bilan gadolik rasmi yo‘qotilsin” - deb yozadi. Bundan ko‘rinadiki, Sohibqiron o‘g‘ri va qaroqchilarga nisbatan qat’iy jazo choralarini ko‘rish, oddiy aholiga nisbatan adolatli bo‘lish siyosatiga amal qilgan.

Amir Temurda jang paytida eng zarur vaqtda kerakli joyda bo‘la olishdek ajoyib xususiyat ham mavjud bo‘lgan. Bu unga dushmanlari uning maqsadini bilib olishga ulgurmasdan, o‘z vaqtida oqilona karorlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazoratda tutish imkonini bergan. Shuningdek, u o‘z dushmanining zaif tomonlarini aniqlab, unga qarshi qachon xujum qilish va qanday harbiy taktika qo‘llash kerakligini ham oldindan bilgan. Tarixiy manbaalarda keltirilishicha, Amir Temurning shaxsan o‘zi yakkama-yakka olishuvlardan toymaganligi haqida ham ma’lumotlar bor. Jumladan, 1379-yili Urganch qamali vaqtida u Yusuf So‘fi bilan yakkama-yakka jangga otlangani, ammo raqibi jannga chiqishga botina olmagani, yana shunday voqea 1383-yli Seyiston yurishida ham kuzatilgani manbalarda qayd etiladi.

Shuni aloxida ta’kidlash joyizki, Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo‘larlik sabablar bo‘lgan. Xususan, o‘z davlatining chegarasini mustaxkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanish, karvon yo‘llarini turli yo‘lto‘sarlardan tozalash, hiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish, o‘zining siyosiy ta’sirini kengaytirish kabilardan iborat bo‘lgan. “Biron mamlakatda jabr-zulm va fisqu-fasod kuchayib ketarkan, asl podsholar adolat o‘rnatib, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga xujum boshlashi lozim. Cho‘nonchi,

men Movarounnahr viloyatida adolat o‘rnatish niyatida uni zolimlar qo‘lidan tortib oldim” - deya ta’kidlaydi Sohibqiron.

Amir Temurning To‘xtamishxonga qarshi yurishini olaylik, Temur To‘xtamishxonga ko‘p iltifotlar va yordamlar ko‘rsatib, 1379-yilda O‘rusxonni yengib, Oq O‘rda taxtiga uni o‘tkazgan edi. Ammo, u Amir Temurning o‘ziga qilgan yordamlarini unutib, Movarounnahrga bir necha bor talonchilik yurishlarini amalga oshirgandan so‘nggina Temur ham unga qarshi kurashishga majbur bo‘ladi va 1395-yil 15-aprelda Shimoliy Kavkazdagi Tarak daryosi bo‘yida ikki tomon qo‘shinlari o‘rtasida xal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Jang faqat To‘xtamish taqdirini hal qilib qo‘yaqolmay, balki butun Oltin O‘rda taqdirini ham hal qildi.

Tarix Temur zimmasiga Oltin O‘rdadek qudratli mo‘g‘ul imperiyasining asosini yemirishdek ulkan vazifani qo‘ygan ekan, Sohibqiron bu vazifani ham buyuk jasorat bilan ado etib, Rus knyazliklari va Sharqiy Yevropa xalqlarini mo‘g‘ullar asoratidan xalos bo‘lishlariga yo‘l ochib berdi. Taniqli rus olimi A.B.Yakubovskiy: “Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa, balki Rusiya uchun ham katta ahamiyatga molik bo‘ldi” deya Amir Temurning mazkur g‘alabasi o‘ta ahamiyatli ekanligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur harbiy salohiyatda jahonga mashhur sarkarda va o‘z zamonasining eng qudratli hukmdori bo‘lish bilan birgalikda, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san’ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi o‘z davrining nodir mo‘jizasi edi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy sohadagi faoliyatini o‘rganish orqali har birimiz Sohibqirondek jahonga mashhur bobokalonimiz borligi bilan g‘ururlanadigan, o‘z Vatanini sevadigan, uning xavfsizligini asrab avaylaydigan komil inson bo‘lib yetishimizda muhim hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-46-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-8036449.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa’dayn va majmai bahrayn. A.O‘rinboyev tarjimasi. – Toshkent, 969, 26-bet.
3. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. 307-bet.
4. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. 178-bet.
5. Ma’naviyat yulduzlari. M.Hayrullayev muharrirligi ostida. Abdulla Qodiriy nomli xalq me’rosi nashriyoti. - Toshkent, 2001. 162-163 betlar.
6. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririyati, 1994. 37-38 betlar.
7. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - Toshkent, 1972. 343-326 betlar.
8. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991. 90, 92-93 betlar.

## TEMURIYLAR DAVRI VA ALISHER NAVOIY MEROSI (TARIXIY NUQTAI NAZAR)

**Xamrayeva Saodat Islomovna**
**NDU Tarix kafedrasi katta o’qituvchisi, t.f.f.d.(Phd)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada temuriylar sulolasi (1370–1507-yy.) Markaziy Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy uyg‘onish davri sifatida e’tirof etilganligi, Amir Temur va uning vorislari o‘z imperiyasida qat’iy boshqaruv tizimini joriy etib, turli ijtimoiy qatlamlar uchun adolat va qonuniylikni ta’minlashga harakat qilganligi va ushbu siyosiy barqarorlik ilm-fan, madaniyat va adabiyotning gullab-yashnashiga zamin yaratganligi haqida fikrlar bildirilgan. Alisher Navoiyning ilmiy va ijodiy merosi tarixiy nuqtayi nazardan talqin etilgan.

**Kalit soz:** temuriylar, voris, imperiya, barqarorlik, iln-fan, Alisher Navoiy, ilmiy, ijodiy, meros, sulola, komil inson, axloq.

**Abstract:** This article discusses the Timurid dynasty (1370–1507) as a period of political

stability, economic development, and cultural revival in the history of Central Asia, the fact that Amir Temur and his successors introduced a strict system of governance in their empire, trying to ensure justice and legitimacy for different social strata, and that this political stability created the basis for the flourishing of science, culture, and literature. The scientific and creative legacy of Alisher Navoi is interpreted from a historical perspective.

**Keywords:** Timurids, successor, empire, stability, science, Alisher Navoi, scientific, creative, heritage, dynasty, perfect person, morality.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается династия Тимуридов (1370–1507) как период политической стабильности, экономического развития и культурного возрождения в истории sентральной Азии, тот факт, что Амир Тимур и уего преемники ввели в своей империи строгую систему управления, стремясь обеспечить справедливость и легитимность для различных cotsiальных слоев, и что эта политическая стабильность создала основу для расвета науки, культуры и литературы. Научное и творческое наследие Алишера Навои интерпретируется с исторической точки зрения.

**Ключевые слова:** Тимуриды, преемник, империя, стабильность, наука, Алишер Навои, научный, творческий, наследие, династия, совершенный человек, мораль.

Temuriylar sulolasi (1370–1507-yy.) Markaziy Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy uyg‘onish davri sifatida e’tirof etilgan. Tarixiy manbalar ko‘rsatadiki, Amir Temur va uning vorislari o‘z imperiyasida qat’iy boshqaruv tizimini joriy etib, turli ijtimoiy qatlamlar uchun adolat va qonuniylikni ta’minlashga harakat qilganlar. Ushbu siyosiy barqarorlik ilm-fan, madaniyat va adabiyotning gullab-yashnashiga zamin yaratdi.

Temuriylar davrida iqtisodiy rivojlanish ham muhim ahamiyat kasb etdi. Savdo yo‘llarining kengayishi, yangi bozorlar va iqtisodiy markazlarning tashkil etilishi mamlakatning ma’naviy va siyosiy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Tarixiy manbalardan ayon bo’ishicha, bu davrda ilmiy markazlar va madrasalar faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlatning maqsadli siyosati edi. Shu bilan birga, temuriylar davrida shaxsiy fazilatlar, axloqiy yetuklik va ma’naviy kamolot qadrlangan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, temuriylar davrida Samarqand va Hirot ilmiy va madaniy markazlarga aylangan. Samarqandda Ulug‘bek madrasasi va observatoriyasi, Hirotda esa madrasalar va kutubxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Bu markazlar nafaqat ilmiy, balki badiiy va adabiy ijodning rivojlanishiga ham xizmat qilgan.

Madaniy rivojlanishning eng muhim jihati shuki, ilm-fan va adabiyot bir-biri bilan uyg‘unlashgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, o‘quvchilar nafaqat diniy bilim, balki falsafa, tarix, adabiyot va san’at sohalarida bilim egallagan. Shu tariqa, Temuriylar davri madaniyati komil inson tasavvuri bilan bevosita bog‘liq edi. Temuriylar davrida komil inson konsepsiyasi bir vaqtning o‘zida siyosiy, ijtimoiy va axloqiy jihatlarni o‘zida mujassam etgan. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, ideal shaxs:

- Davlat boshqaruvida adolatli va dono qarorlar qabul qilingan;
- Jamiyatda axloqiy namunani namoyon etilgan;
- Ilm-fan va ma’naviyatga intilib, shaxsiy kamolotga erishilgan.

Bu fazilatlar tarixiy va badiiy manbalar orqali shakllangan va temuriylar davrining siyosiy va madaniy me’yorlari bilan uyg‘unlashgan.

Temuriylar davrida yashab ijod qilgan buyuk shoir va mutafakkir sifatida tarixiy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo’lgan shaxs bu Alisher Navoiy (1441–1501-yy.) bo’lib hisoblanadi. A.Saidov va L.Kerenning “Amir Temur va Fransiya” kitobida Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixining fransuz sharqshunoslik maktabi tomonidan o’rganilishiga bag’ishlab yozilgan kitobning ahamiyati nihoyatda salomoqli. Ushbu kitobda aynan Alisher navoiy ijodoga ham e’tibor qaratilgan. Tarixiy manbalar va adabiyotlarga tayanib aytish mumkinki, Navoiy nafaqat adabiy ijod bilan shug‘ullangan, balki davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etgan. U Hirot shahrida ilmiy va madaniy markazlar tashkil etishga ko‘maklashgan va shogirdlar tarbiyasiga katta e’tibor qaratgan[68]. Alisher Navoiy hayoti va ijodi temuriylar davrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitida shakllangan. U o‘zi

[68] A. Saidov, L. Keren. Amir Temur va Fransiya. – Toshkent. 2016. 87-bet.

yashagan davrning ijtimoiy muammolarini, siyosiy vaziyatini va jamiyatning axloqiy qadriyatlarini o‘z asarlarida aks ettirgan.

Navoiy ijodida komil inson tasavvuri quyidagi jihatlar bilan ifodalangan:

1. Axloqiy yetuklik – adolat, halollik, sabr va fidoyilik;
2. Ilm-fan va madaniy rivojlanish – tafakkur, badiiy ijod va tarixiy bilim;
3. Jamiyatga foydali bo‘lish – boshqalarga yordam, shogirdlarni tarbiyalash;
4. Shaxsiy fazilatlar bilan namunali bo‘lish – insonparvarlik, rahmdillik, milliy o‘zlikni qadrlash.

Tarixiy manbalar va asarlardagi voqealar shuni ko‘rsatadiki, Navoiy o‘quvchilarga nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham tushuntirgan. Uning “Mahbub ul-qulub” asarida Alisher Navoiy jamiyatdagi axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni tarbiyalash vositasi sifatida ishlatilgan. Tarixiy shaxslar va voqealar orqali o‘quvchilar:

1. Axloqiy tafakkur va qaror qabul qilishni o‘rganadi;
2. Jamiyatga foydali bo‘lish va ijtimoiy mas’uliyatni anglaydi;
3. Shaxsiy kamolotga erishish yo‘lida tarixiy namunalarni tahlil qiladi.

“Xamsa” dostonlari esa tarixiy shaxslarning axloqiy qarorlari va shaxsiy fazilatlarini aks ettirib, komil inson modelini yaratishda amaliy vosita sifatida xizmat qilgan. Alisher Navoiy ijodi temuriylar davri madaniyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u siyosiy barqarorlik va ilmiy markazlarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlagan, adabiyot va falsafani uyg‘unlashtirib, ma’naviy tarbiyaga xizmat qilgan, komil inson tasavvuri bilan jamiyatning axloqiy me’yorlarini uyg‘unlashtirgan. Bu uyg‘unlik tarixiy nuqtai nazardan komil inson konsepsiyasini shakllantirish va tarbiyaviy jarayonda amaliy metod sifatida qo‘llanilishini ta’minlagan.

Tarixiy nuqtai nazardan, Temuriylar davri va Alisher Navoiy merosi komil inson kontseptsiyasini shakllantirishda asosiy manba bo‘lgan, tarixiy manbalar va shaxsiy misollar orqali axloqiy va ijtimoiy fazilatlarni o‘quvchilarga yetkazgan, pedagogik jihatdan tarixiy shaxslar va badiiy meros orqali shaxsni tarbiyalashning amaliy modelini yaratgan.

Xullas, temuriylar siyosiy barqarorligi, ilm-fan va madaniyat rivoji hamda Navoiy ijodi tarixiy nuqtai nazardan komil inson shakllanishi uchun muhim zamin bo‘lgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шарофиддин А.Я. Зафарнома: таржима, изоҳ ва шарҳлар билан. – Тошкент : Камалак, 1994. – 188 -б.
2. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи (Ажойиб ул-мақдур фи ахбори Темур) / араб тилидан таржима. – Тошкент : Info Capital Books, 2024. – 396- б.
3. А.Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент : Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 156-б.

## AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI

**Yo.O.Axmedov,**
**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**
**Navoiy akademik litseyi direktori, polkovnik, dotsent**

**Annotatsiya:** Maqolada Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rni, uning davlat boshqaruvi, jumladan uning dunyo mamlakatlari bilan olib borilgan diplomatiyasi xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar**: Diplomatiya, Mustafo Kamol Otaturk, adolat mezoni, Enriko III, Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix VI, Amiri Kabir, Manuel II Paleolog, Vizantiya, Ibn Xuldun.

Sohibqiron Amir Temur tarix sahnasiga tasodifan, o‘zidan – o‘zi kelib qolmagan, balki tarix, zamon ehtiyoji bu buyuk shaxsni maydonga keltirdi. Bunga Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so‘zlari ham misol bo‘ladi: “Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni tarix tavozasi, shu zamon talablari, kerak bo‘lsa, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilat-xususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi… Kimki Amir Temur qadimgi Turkiston zamnida tasodifan paydo bo‘lgan desa, xato qiladi. Nega deganda hech narsa to‘satdan paudo bo‘lmaydi”[69] .

[69]Karimov I. A. “Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi”. 5-jild T. : O`z-n. 1997, 181-182 bb

Amir Temur jahon tarixida nafaqat qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan shaxs va davlat arbobi, balki elchilk, savdo-sotiq, ilm-ma’rifat homiysi, farovonlik uchun ta’lim-tarbiya, xalqqa tinch mehnat sharoitini yaratish, umuman xalq ma’naviyatini yuksalishi uchun kurashgan buyuk zot sifatida ham nom qozongan. Bu jihat Amir Temur faoliyatining har bir qirrasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Amir Temur salohiyatiga lol qolgan Mustafo Kamol Otaturk quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: “Men Amir Temur zamonida bo‘lsaydim, uning qilgan ishlarini bajara olmasdim. U mening zamonimda kelsaydi qilgan ishlaridan-da juda ko‘p buyuk ishlarni ado etgan bo‘lardi…”[70]

Sohibqiron haqida yana bir fikrni Tilman Nagel bildirgan bo‘lib, u jumladan: “Amir Temur, Doro, Iskandar, Sezar salohiyatiga teng yoki ularning barini ortda qoldiruvchi buyuk ishni ado etib hokimiyat tepasiga keldi va ketma-ket g’alabaga erishaverdi”[71] deya ma’lumot beradi.

“Amir Temur uzoqni ko‘ra oladigan mohir diplomat sifatida tarixda chuqur iz qoldirdi. O‘sha yillarda dunyoning chekkasi hisoblangan Ispaniya mamlakati qiroli Enriko III, Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix VI lar saroylariga aloqa bog’lash uchun elchilar yo‘lladi, maktublar yozdi, maktublar oldi. O‘z navbatida, ispan, fransuz, ingliz, xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlar elchilari uning saroyiga tez-tez tashrif buyurib turishar edi”[72].

Amir Temurning hijriy 805 yil muharram oyining birinchi kuni (1402 yil 1-avgust kuni) Fransiya qiroli Sharl VI (1368-1422)ga yo‘llagan maktubida bunday deyilgan: “Amiri Kabir Amir Temur ko‘ragonning Fransiya qiroliga yo‘llagan maktubi. Yuz ming bor salom. Orzumandligimizni qabul etgaylar. Dunyo qadar katta orzular bilan to‘lgan ul ulug’ amirga duoyi salomlar yetishsinkim, (elchisi) biz tarafga uning shohona maktublarini yetkurdi va ulug’ amirning azamat va shavkatini, buyuk nom sohibi ekanin arzimizga yetkazdi. Bu bilan shod-u xurramligimizni hosil qildi.

Bu o‘runda ulug’ amirdin iltimos shulki, doimo shohona maktublar yuborish bian sihat-u salomatliklarini bizga ma’lum qilib tursalar, toki ko‘nglimizda tasalli hosil bo‘lsin. Va savdogarlaringizni biz taraflarga yuborib tursangiz. Bu yerlarda ularga (zarur) izzat-hurmat ko‘rgizgay. Bizning savdogarlarimiz ham ul taraflarga borib turgaylarkm, ular ham (sizning) mamlakatingizda izzat qilingaylar. Biron zot ularga zo‘ravonlk qilib ranjitmasin. Chunki jahon tijorat ahli bilan oboddur…”

Sharl VI ning 1403 yil 15-iyunda Amir Temurga qaytargan javob maktubida shunday fikrlar keltirilgan: “Franklar podshosi Sharl. Tangri taoloning inoyati bilan shavkatli va muzaffar Temurbekka tinchlik va salomlar bo‘lgay! Podshoh va hukmdorlar, garchi tillari va din-u e’tiqodilari boshqa-boshqa bo‘lgan taqdirda ham o‘z ixtiyorlari bir-birlariga hurmat ehtirom va do‘stlik rishtasi bilan bog’lanishlari lozim. Chunki bu ularning tabaalariga tinchlik va xotirjamlik keltiradi. Shu boisdan shavkatli va muzaffar podshoh bilsinlarkim, qachonki sharq mamlakatlarining arxiepeskopi rohib Ioann orqali yuborilgan, Sizning, janobi oliylari, bizga sihat-salomatlik tilab, davlatimiz va podshohlikka oid ishlar bilan qiziqib hamda yaratganning inoyati bilan Boyazid Yildirim ustidan qozongan g’alabangiz katta quvonch va huzur bag’ishladi. Biz yana ham xursand va mamnun bo‘ldikki, savdogarlarimiz va umuman barcha xristianlarning Sizning mamlakatingizga borib savdo-sotiq ishlari bilan mashg’ul bo‘lishi va tabaalaringiz bilan boshqa xususda kelishishlari, umuman, bemalol Sizga qarashli mamlakatlarga borib savdo-sotiq bilan mashg’ul bo‘lishlari janobi oliylariga ma’qul bo‘libdur. Buning uchun Sizga cheksiz minnatdorchilik va tashakkur izhor qilamiz. Shu bilan birga, Sizning savdogarlaringiz cho‘chimay bizning mamlakatimizga kelib savdo-sotiq bilan mashg’ul bo‘lishlari mumkin. Qolgan gaplarni, Xudo xohlasa, nomi yuqorida zikr etilgan arxiepeskopning og’zidan eshitgaysiz. Janobi oliylari bu xususda ham, bo‘lajak topshiriqlarda ham unga ishonsinlar, chunki u ishonchli va sinalgan odam… Va nihoyat, biz Siz janobi oliylariga ko‘p xristianlarga ko‘rsatgan xayrixohligingiz va iltifotingiz uchun minnatdor ekanimizni ma’lum qilamiz. Biz mamlakatimizga kelgan odamlaringizning manfaatlarini himoya qilishga va ularga bizning tabaalarimiz bilan teng va imkoniyatiga qarab ortiqroq huquq berishga tayyormiz. Parij shahrida 1403 isoviy yil iyun oyining 15 kuni bitildi”[73].

---

[70]Muhammadali. “Amir Temur solnomasi”. Ainsher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxona nashriyoti. T. 2008. 23-b

[71]Muhammadali. “Amir Temur solnomasi”. Ainsher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxona nashriyoti. T. 2008. 25-b

[72] O’sha joyda. 9 -b

[73] Ahmedov B. “Amir Temur darslari” T. Sharq. 2001. 121-123 b.

Amir Temur o‘z elchilarini aqlli, dono, farosatli, so‘zamol va hozirjavob, boobro‘ va asl zotli, zamonasining akobirlari va fuzalolari orasidan tanlar edi. Ulardan ba’zilarining nasli-nasabi, sifat va tavsiflari bizgacha yetib kelgan. Ali Yazdiy yozishicha Temur Kat va Hevoqni so‘rab, Xorazm shohi huzuriga “ilm va taqvosining yetukligi, dars va fatvosining fazilati bilan tanilgan Jaloliddin Keshiy”ni yo‘lladi. U Shomiy asarida Jaloliddin Koshiy tarzida uchraydi.

To‘xtamishxon huzuriga elchi sifatida yuborilgan Shamsuddin Olmolig’iy Yazdiyning “Zafarnoma”sida quyidagicha ta’riflangan: “Shamsuddin dono, gapga chechan va ishning ko‘zini biladigan kishi edi, to‘ra rasm-u qoidani yaxshi bilardi va ko‘zlagan maqsadga erishish uchun har yo‘sinda taqozo etilgan latif so‘zlar ayta olardi”

Italiyalik savdogar Beltramus de Mignanelli (1370-yilda tug’ilgan) o‘zining 1416-yilda yozilgan “Temur hayoti” nomli asarida shunday tasvirlaydi: “Temurning kishilari juda ham ko‘rkam edilar, ular nasl-nasabiga ko‘ra ulug’vor ko‘rinar edi. Ular oliy xususiyatli, farosatli, mashhur, mansabdor bo‘lgan kishilar edi… …Temurning shunday kishilari bor ediki… - ular arab, yunon, ibriy va boshqa qator tillarni bilardilar, osmon ilmi va geometriyadan mashhur edilar”[74].

O‘z davrining yetuk tarixchisi Ibn Xaldunning Amir Temur bilan uchrashuvi ham g‘oyat qiziq. Ibn Xuldun uchun o‘sha paytda ikki yo‘l qolgan edi: qamalda qolgan Damashqdan yashirincha qochish yoki hukmdor bilan uchrashuvga borish. Bunga boshqa yana bitta sabab bor edi: Ibn Xaldunning “asabiya” ( vatanparvarlik) to‘g‘risidagi aqidasiga ko‘ra, forslar va arablar dunyoda peshvo millatlik asrini yashab bo‘lishgan, endi bu mavqe turklarning qo‘liga o‘tgan edi. Shu bois ham, tarixchi Amir Temur bilan 35 kunlik suhbatida o‘zi uchun juda ko‘p narsalarni oydinlashtirib oldi. Suhbatdan so‘ng sulhga erishildi hamda Ibn Xaldun sharqning buyuk hukmdori haqida birorta ham salbiy o‘xshatishni ishlatmay, uning to‘g‘risida hurmat bilan yozdi. Bu xotiralar shuni ko‘rsatadiki, birinchi navbatda, Amir Temurning ma’rifatli diplomat bo‘lganini ham tasdiqlaydi. Amir Temur buyuk davlat arbobi sifatida diplomatiyaning tinch yo‘li bilan harbiy tadbirlarni mohirona qo‘shib olib borgan.

Manbalar guvoh beradiki, Amir Temur bepoyon hududda qat’iy tizimga ega katta saltanat barpo etgach, o‘sha davrning barcha taniqli davlatlari va ularning hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Ayniqsa, Yevropa davlatlari uning davlatchilik siyosati bilan juda qiziqqan va ular ham, o‘z navbatida, elchilarini jo‘natishgan. Elchilar orasida ispaniyalik Rui Gonzales de Klavixoning xotiralari bugun biz uchun asosiy ishonchli manbalaridan biri sifatida g‘oyat azizdir.

Amir Temur diplomatiyasi haqida so‘z yuritishimizdan maqsad, Amir Temur o‘zining odilona siyosati – faol diplomatiyasi tufayli Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklab, turli mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, dunyo madaniyatining taraqqiy etishiga katta hissa qo‘shdi. Temur diplomatiyasi haqida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Bu hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

## O‘ZBEKISTON DAVLAT BAYROG‘IDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR SALTANATI BAYROG‘INING AN’ANAVIY DAVOMIYLIGI XUSUSIDA.

**Elova Dilnoza Davlatovna**
**BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi, t.f.f.d PhD, dotsent**

Har bir davlatning mustaqilligini bildirib turuvchi asoslardan biri, davlat ramzlari hisoblanadi. Ramzlar – bayroq, tamg‘a (gerb), madhiya kabilar shunchaki ranglar emas, balki davlat siyosatining mazmuni, mamlakat fuqarolarining o‘zligini anglash timsoli. Mustaqil davlat boshqa mamlakatlarga o‘z qiyofasini borligicha ko‘rsatish uchun o‘z bayrog‘i va boshqa ramzlariga ega bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i 1991 yil 18 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun orqali qabul qilindi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i o‘tmishda o‘tgan qudratli davlatlar an’analari, ular tug‘lari aks etgan g‘oyalarni o‘zida mujassam etdi. Milliy bayrog‘imizda

[74] Moziydan Sado. 2003. 2-son. 28-b

millat ruhiyati, ajdodlardan meros qolgan odat va aqidalar, milliy-ma’naviy, ruhiy qadriyatlar aks etgan. O‘zbekiston bayrog‘ida har bir rang (havorang, oq rang, yashil rang, qizil chiziq) har bir tasvir (yarim oy, 12 ta yulduz) o‘zining ramziy ma’nosiga ega bo‘lib, bu haqda ko‘p bor yozildi va izohlar berildi. Bayroq turkiy xalqlarda o‘rta asrlarda “tug‘” deyilgan. O‘zbekiston bayrog‘ida o‘tmish, bugun, kelajak mujassam bo‘lib, uning uzunligi 250sm, kengligi 125smdir. O‘zbekiston bayrog‘i xalqaro nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Nyu-York (AQSh)dagi shtab-kvartirasi binosi oldida 1992 yildan buyon hilpirab turibdi. “Millatlar muzeyi” hisoblangan Nyu-Yorkda 200 dan ortiq mamlakatlar bayrog‘i qatoridan o‘rin olgan O‘zbekiston bayrog‘i davlatimiz mustaqilligining asosiy ramzi, boshqa mamlakatlardan farqlovchi muhim belgi hisoblanadi. O‘zbekiston davlat bayrog‘i davlat muassasalari, xorijdagi O‘zbekiston elchixona, vakolatxonalari oldida, milliy bayramlarda, sport musobaqalarida sovrindorlarga, sovrin topshirilayotganda ko‘tariladi. Milliy bayroq O‘zbekiston fuqarolarining faxri va g‘ururi hisoblanadi.

Albatta, O‘zbekiston milliy bayrog‘ini mukammal holatga keltirishda, unda o‘zbek xalqi istak va maqsadlarini, saxiy tabiatni, milliy mentalitetni mujassamlashtirishda Sohibqiron Amir Temur (1336-1405yy) saltanatida amal qilgan bayroqlar, ularning ramziy qiyofalari birinchi navbatda inobatga olingan. Amir Temur Movarounnahrda ikkinchi renessansni (XIV-XV asrlar) boshlab berib, butun dunyoga (Sharq va G‘arbda) o‘zbekni tanitdi. U jahonshumul obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, xalqaro maydonda e’tirof etilgan buyuk saltanat egasi va milliy davlatchiligimiz asoschilaridan biridir. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Sohibqiron harbiy yurishlarda raqibga qarshi jang maydoniga bayrog‘i va bayroqdorlari bilan kirib borgan. G‘alabadan so‘ng, uning oyog‘i ostiga dushman bayroqlari keltirib tashlangan, bu dushman tor-mor etilganining nishonasi hisoblangan.

Amir Temur davlati bayrog‘ining uzunligi 4-5 metrdan kam bo‘lmagan. Bayroqning dastasi yo‘g‘on, uchburchak ko‘rinishda, matosi moviy rangda bo‘lgan. O‘zbekiston milliy bayrog‘idagi to‘q moviy rang, zangori osmon va musaffo suvni ifodalaydi. Bu mutanosiblik Amir Temur davri bilan hozirgi zamonni bog‘lab turibdi. Amir Temur bayrog‘ida quyosh va uning zarrin nurlari aks etgan va old tarafida bo‘risimon hayvon tasviri tushirilgan. Quyosh mangulik ramzi, Bo‘ri esa dovyurak va epchil, dikkaygan quloqlari bilan har qanday sharpani tezda ilg‘ay oladigan, dushmani bir necha barobar kuchli bo‘lsa ham unga tik bora oladigan, mashaqqat va qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodir jonzot hisoblanadi. Umuman jahongirlikka da’vo qilib chiqqan hukmdorlar tug‘ida yo‘lbars va sher tasviri aks ettirilgan. Xorazmshohlar poytaxti Urganch himoyasida ishtirok etgan Kubraviya talimoti asoschisi Najmiddin Kubro Chingizxonning tug‘ini mahkam ushlab 1221 yil “Yo hayot ,yo mamot, yo sharafli olim” deb jon bergan. Bu yo‘lbars tasviri tushirilgan tug‘ni qo‘llarini uzgandan so‘ng,zo‘rg‘a ajratib olishgan.

Amir Temur bayrog‘ida 10 ta chiziq bo‘lib, bu chiziqlarning 9 tasi mayin, bittasi qalinroq bo‘lgan. Bu ramziy jihat Temurning tuzuklarida ko‘rsatilgan. ”Davlat ishlarini 10 ulushga bo‘ldim, 9 ulushini mashvarat va kengash bilan ado etdim, bir ulushini qilich bilan bajo keltirdim” degan ma’noni anglatgan. Amir Temur tuzuklarida biror bir katta ishni mashvaratsiz amalga oshirmaganligi bayon etilar ekan, hukmdor maslahat berganlarni : 1) Til uchida maslahat beradiganlar, 2) Sidqidildan maslahat beradiganlar, 3) Befarq, maslahat berishni lozim topmaydiganlarga ajratgan. Temur barcha maslahatlarni diqqat bilan tinglab oxirgi qarorni esa o‘zi qabul qilgan. Amir Temur bayrog‘i avlonining bo‘sh joylarida “Kuch adolatda”(“Rosti-rusti”), “Adovat emas, adolat yengadi”, “Men qonun asosida harakat qildim”, “Ko‘mak Allohdandir” kabi hikmatli so‘zlar yozilgan. Uning bayroqdorlari janglarda boyliklar orttirgan,mohir jangchining sirlarini egallagan,dovyurak,epchil,salobatli kishilar bo‘lgan.

Xullas, O‘zbekiston milliy bayrog‘ining hilpirashini ko‘rish o‘zbek xalqining asriy orzusi bo‘lganligi nafaqat vatandoshlarimiz balki mustamlaka va sovet hokimligi yillarida muhojirlikda bo‘lgan yurtdoshlarimiz uchun ham istiqlolga erishish asoslaridan biri bo‘lgan. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishishdan 30 yil ilgari (1961 yilda) AQShda yashagan muhojir o‘zbek Ergash Shermat Buloqboshi “Gullar makoni” nomli she’riy to‘plami (E.Sh. Buloqboshi. Gullar makoni, she’rlar. Vashington-Anqara;1961) ga kirgan “Bir zum xayol surganda” nomli she’rida:

Xayolimda yurt bog‘ida jo‘yaklar qazdim,
Yangi meva, gul-ko‘chatlar o‘tkazmoq uchun.
“Turkiston hur” degan so‘zni alvonga yozdim,

Hilpiradi milliy bayroq har yonda shu kun – kabi misralarni bitgandi. Yuqoridagi misralar Mustaqil O‘zbekiston milliy bayrog‘ini ko‘rish istagi bilan minglab yurtdoshlarimiz yashaganligidan dalolat beradi. Yohud O‘zbekiston Respublikasi milliy bayrog‘iga hurmat ramzi sifatida Saudiya Arabistonidagi millatdoshlarimizdan biri xonadonidagi bitta xonani O‘zbekiston davlat bayrog‘ini osib qo‘yib band etgan. 1990 yillarda Turkiya Respublikasida yashagan Sobir Sayxonli (Xolmuhammad Xokiy o‘g‘li, 1931yilda tug‘ilgan.) Istanbul shahri Aksaray qismidagi Boyazid maydonida (bu maydonda 700 do‘kon bo‘lgan) gi o‘zining 3 ta do‘koni peshtoqiga O‘zbekiston milliy bayroqlarini osib qo‘ygandi. Xullas, O‘zbekiston milliy bayrog‘i mustaqil O‘zbekiston umrboqiyligida Buyuk Amir Temur ruhi madadkorligining timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Temur tuzuklari. A. Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2012-184 bet.
2. Abdulloh Hotifiy. Temurnoma. Tarixiy-badiiy doston. –Toshkent: Hudud va jamiyat, 2021.-196 bet.
3. L.Keren, A.Saidov. Amir Temur va Fransiya. –Toshkent, “Adolat”, 1996.-85 bet.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2001. Tom II.-B.585.

## ON THE INTERNATIONAL COOPERATION OF THE TEMURIANS WITH EUROPEAN STATES

**B.B. Tugalov, (PhD) Associate Professor,**
**Jizzakh State Pedagogical University**

**Abstract:** The article provides information about the extensive cooperation between Amir Temur and his descendants with European countries in the cultural, scientific and economic spheres.

The diplomatic relations of ancient Uzbekistan, formed almost two and a half thousand years ago, continue to develop in a wide range of formats in the 21st century. In particular, relations with the countries of the European Union are distinguished by their broad scope. Available sources testify that trade and cultural relations between the two regions reached their peak during the reign of Amir Temur and the Temurids.

Assessing the current international situation, the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev, assessing the historical situation in the past, emphasizes: “The diplomatic relations and correspondence of our great grandfather with the rulers of many countries, such as France, England, Spain, Byzantium, Egypt, China, India, and the Ottoman Empire, clearly confirm this[1],”

During the reign of Amir Temur, dozens of ambassadors from major European countries arrived[2]. Timur's tolerance and freedom of religious belief allowed Christians and Jews living on the territory of the state to freely practice their religions[3]. The ambassadors sent by Amir Temur to other countries strictly adhered to the criteria of international and diplomatic law. Amir Temur's diplomacy was characterized by courage, bravery, initiative, and general human qualities, and he even showed great respect and kindness to his defeated opponent. It can be learned from his letters that Timur paid serious attention to cooperation with Europe, including France, and that the French king Charles VI, in turn, responded appropriately to this[4].

Noting that France was the first European country to which the head of Uzbekistan paid an official visit in October 2018, he drew attention to the friendship, mutual respect and trust that have been connecting our countries since the time of the great conqueror Amir Temur and the French King Charles VI at the beginning of the fifteenth century[5]. Also, comparing the present and the past, President Sh. Mirziyoyev emphasizes that “...we spoke about strengthening the participation of our ambassadors and diplomats in attracting foreign investments to our country. We can see that this issue was put on the agenda as an urgent task even during the time of Amir Temur[6].”

If we look at the history of scientific contacts, we can see that scientific discoveries and international contacts developed and reached their peak in the region during the first and second

Renaissance periods, especially during the reign of Amir Temur and the Timurids.[7] It was Amir Temur who invited leading scientists, artists, and musicians from many countries to Samarkand to develop science and create scientific schools. This was an important factor in the transformation of Transoxiana into one of the world's centers of science.

At the same time, the study of the history, culture and contribution of Amir Temur and the Timurid era to world civilization in Europe began in the Middle Ages. In particular, the services of Rui Gonzalez de Clavijo, who was the Spanish royal ambassador, are great in this matter. Based on the sources he saw, got acquainted with and read during his ambassadorship, Rui Gonzalez de Clavijo wrote and published the books "History of the Great Timur", "The Residence of Timur", "Diary of a Travel to Samarkand". Thus, the peoples of Europe already in the 16th century had some information about the great Amir Temur and the Timurid state and its era. It is no exaggeration to say that the Timurid era and the history of the Middle Ages of the East in general have always been the focus of attention of Western historians.

Especially in the 20th century, we can see that many studies were carried out by European scientists.

In this regard, the scientific research carried out by the “Temurid Association”, established in France in 1988, is especially commendable. The association mainly carries out scientific research and promotion of the art and history of the Timurid era.

In September 1996, the France-Uzbek Society and the Institute of Central Asian Studies held a colloquium on the topic of "The legacy of Timur and its spread around the world from Delhi to Istanbul and other topics." The colloquium was attended by scientists from more than 10 countries. It assessed Timur's activities and emphasized his role not only in the development of world Islamic culture, but also in the creation of the culture of the Timur era.

In addition, since 2004, the Avicenna-France Association has been operating, which is engaged in the study and promotion of the scientific heritage of the Central Asian scholar Abu Ali ibn Sina, who made a worthy contribution to world medicine.[8] All this is evidence of the great interest in the history of Central Asia in France.

In 1997, the Secretary General of the French Association for the Study of the History and Culture of the Timurid Era, Mrs. Frederic Bressan, presented to the general public her album decorated with magnificent photographs entitled “The Blue Gold of Samarkand”. At the presentation of the publication, the scholar said that “there are two bright and world-famous cities in the world, one of which is Paris, the other is Samarkand”. In 2003, her book entitled “Lovely Samarkand” was published for the second time.

On May 24, 2002, a meeting of young researchers from the socio-humanitarian research institutes of the Academy of Sciences and universities with the French historian Francois Henaud took place in Tashkent[9]. This meeting, organized on the initiative of the Institute of History of the Academy of Sciences, the National Society of Young Scientists, and the French Research Institute for the Study of Central Asia, was devoted to the presentation of the three-volume book “The Muslim World in the Middle Ages (X-XV)”, published in Paris. Francois Henaud, while informing the audience about this book, noted that it pays special attention to the foundations of statehood and the specific principles of development of the socio-cultural life of the Muslim world in the X-XV centuries.

Francois Eno, who has been conducting scientific research for many years, is currently studying the socio-economic history of Khorezm in the 18th-19th centuries.

Our government has been awarding prestigious state awards to many scientists and writers who have been studying the history and culture of our country abroad. Its logical continuation can be seen in the fact that on October 9, 2018, the famous figures of literature and science of France, writer Amin Maalouf, scientists Frédéric Beaupertuis-Bressand and Frans Grenier, who have made a worthy contribution to the study of the history and culture of Uzbekistan, were awarded the title of Honorary Citizen of the city of Samarkand[9].

One of them, Amin Maalouf, is well known to Uzbek readers with his novel "Samarkand", which was published in Uzbek in issues 6-7 of the 2003 "World Literature" journal, and 7-8 of 2005. The novel reflects the life of the poet and philosopher Omar Khayyam in Samarkand, and his interpretation of social and political life in the 11th century [10]. On the one hand, this certainly

indicates that there is a great interest in Eastern history in France, and on the other hand, their encouragement by the President of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev, will undoubtedly be a great impetus for foreign scholars to study the history and culture of our homeland with greater interest and to promote it more widely to the international community.

One of them, Amin Maalouf, is well known to Uzbek readers with his novel "Samarkand", which was published in Uzbek in issues 6-7 of the 2003 "World Literature" journal, and 7-8 of 2005. The novel reflects the life of the poet and philosopher Omar Khayyam in Samarkand, and his interpretation of social and political life in the 11th century [11]. On the one hand, this certainly indicates that there is a great interest in Eastern history in France, and on the other hand, their encouragement by the President of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev, will undoubtedly be a great impetus for foreign scholars to study the history and culture of our homeland with greater interest and to promote it more widely to the international community.

In conclusion, Amir Temur and his descendants maintained extensive cooperation with European countries in the cultural, scientific and economic spheres. In particular, they strengthened the prosperity and power of their empire by developing and supporting trade and expanding arable land. All roads connecting the East and the West were strictly controlled by the state and their security was fully ensured. Six centuries later, cooperation is being restored in new formats and is reaching a stage of development.

**List of used literature:**

1.Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: ―O‗zbekiston NMIU, 2018. – B. 282.

2.MID RUz // Sel i zadachi vneshnepoliticheskogo kursa Uzbekistana. http: // www.mfa.uz. Data obrasheniya: 13.11.22.

3.Lyusen Karen: ―Men o‘z umrimni Temuriylar merosini o‘rganishga bag‘ishladim // Xalq so‗zi. – 2007. – 10 aprel.

4.Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T. 3. – Toshkent: ―O‘zbekiston NMIU, 2019. – B. 248.226

5.Uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yo‘lida // Xalq so‘zi. – 2018. – 10 oktabr.

6.Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: ―O‘zbekiston NMIU, 2018. –B. 288.

7. Lyusen Karen: ―Men o‘z umrimni Temuriylar merosini o‘rganishga bag‘ishladim // Xalq so‘zi. – 2007. – 10 aprel; Ulug‘ sohibqironga ehtirom // Xalq so‘zi. – 2017. – 7 yanvar.

8. O‘zbekiston – Fransiya: Hamkorlikning strategik istiqbollari // Xalq so‘zi. – 2018. – 11 oktabr.

9. Fransuz olimi bilan uchrashuv. // O‘zbekiston ovozi. – 2002. – 25 may.

10. O‘zbekiston – Fransiya: uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yo‘lida // Xalq so‘zi. – 2018. – 10 oktabr.

11. Samarqandga o‘zgacha mehr qo‘ygan fransuz yozuchisi // Xalq so‘zi. – 2018. – 11 oktabr.

## “TEMUR TUZUKLARI”DA VATANPARVARLIK G‘OYALARI VA YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

**Yusupova Feruza Zoyirovna -** Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)
**Husanova Shahrizoda Murodullo qizi -** Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Energo-mexanika fakulteti 17b-23 TJA guruh talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada “Temur tuzuklari” asarida ifodalangan vatanparvarlik g‘oyalari, ularning mazmun-mohiyati hamda yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rnini tahlil qilish asosida vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlar ongiga singdirish, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish hamda Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarni rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** vatanparvarlik, Temur tuzuklari, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, adolatli boshqaruv, fuqarolik mas’uliyati, Yangi O‘zbekiston.

**Abstract:** The article discusses the issues of instilling a sense of patriotism in the minds of young people, strengthening civic responsibility, and developing national values in the conditions of New Uzbekistan, based on an analysis of the patriotic ideas expressed in the work “Temur’s Regulations”, their content and essence, and their place in educating the younger generation.

**Keywords:** patriotism, Temur’s Regulations, youth education, national values, fair governance, civic responsibility, New Uzbekistan.

O‘zbekistonning yorqin kelajagini ta’minlash uchun har bir yosh o‘z yurti, zamini, tili, milliy an’analarini sevishi zarur. Inson birinchi muhabbatini qanday yod etsa, Vatan deganda xuddi shunday sevgisini etirof etishi kerak. Vatan deganda, avvalo, jonajon O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida mavjudligi, davlatchiligimizning har tomonlama ravnaq topayotgani, bugungi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog‘liq murakkab masalalarni tushunamiz.

Aytish kerakki, vatanparvarlik, avvalo, bir Vatanda birga yashayotganlarga nisbatan ezgu munosabat orqali ham namoyon bo‘ladi. “Temur tuzuklari”da bu masala haqida ta’kidlanadi: - “farzandlar, qarindoshlar, oshna-og‘ayni, qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim, molu mulk va naqd pul bilan haqlarini ado etdim. O‘z farzandlarim, qavmu qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim, ulardan noravo ish o‘tgan bo‘lsa, darhol bog‘lab, o‘ldirishga buyurmadim. Har kimni (turish-turmushning pastu balandlarida) turli yo‘llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko‘p issiq-sovug‘ini ko‘rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do‘stu dushman bilan kelishib yashadim”[1;91-b.].

“Temur tuzuklarida” qabul qilingan qarorlar elga jabr bo‘lmasligi, har ishning oldi-ortini o‘ylash zarurligi ta’kidlanadi. Bu masalada Sohibqiron “Mamlakat kufr (xudosizlik) bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda turolmaydi” [1;156-b.] degan aqidaga amal qilgan holda davlatni boshqardi. Shu ma’noda, “Sohibqironning vatanparvarlik g‘oyasining axloqiy mohiyatini: a) qat’iyatli, shijoatli, mas’uliyatli hamda fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs qilib tarbiyalashda Amir Temur siymosining ma’naviy jasorat ekanligi; b) “Temur tuzuklari”da Amir Temurning ibratli hayoti va faoliyati Vatan mustaqilligini mustahkamlashning pragmatik asosi ekanligi; v) yurtimizda va xorijda Amir Temurni “Vatanning buyuk xaloskori” sifatida talqin qiluvchi manbalarni o‘rganilganligi; g) Buyuk Sohibqironning madaniyatli, tafakkur doirasi keng, san’atni, adabiyotni yaxshi tushunadigan, vatanparvar va o‘z xalqini sevgan shaxs ekanligi kabi axloqiy sifatlar bilan belgilash mumkin”[2;965-b.]. Vatan va fuqaro o‘rtasidagi bog‘liqlik, shubhasiz, bu tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini to‘g‘ri tushunish, shuningdek, har bir fuqaroning Vatan oldidagi ma’naviy burchini ado etishi uchun jamiyatda kechayotgan jarayonlarda faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

“Temur tuzuklari” asarida vatanparvarlik g‘oyalari — yurtni himoya qilish, xalq manfaatini ko‘zlash, adolatli boshqaruv, birlik va mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qilish kabi tamoyillar orqali namoyon bo‘ladi. Bu g‘oyalar hozirgi kunda ham yoshlarda vatanga muhabbat va mas’uliyat hissini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Insonning eng oliy va eng qadimiy tuyg‘ularidan biri bo‘lgan vatanparvarlik har bir insonning tug‘ilib o‘sgan qishlog‘iga, zaminiga, yurtiga muhabbatidan kelib chiqadi. Biroq, vatanparvarlik nafaqat ona yurtni sevish, balki vatanparvarlik ham ona yurt uchun mehnat qilish, ona Vatanni himoya qilishga har doim tayyor bo‘lish, uning yo‘lida qahramonlik va fidoyilik ko‘rsatish, Vatanning har bir muvaffaqiyatidan quvonishdir. Bu tuyg‘u insonda tug‘ma bo‘lsa-da, boshqa his-tuyg‘ular singari, u ham tarbiyaga muhtoj, u tarbiya orqali mustahkamlanadi va rivojlanadi. Vatanparvarlik insonga xos bo‘lgan eng muhim fazilatlardan biri bo‘lganligi uchun uni o‘sib kelayotgan avlod ongiga singdirish, bolalar, o‘smirlar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash azaldan ta’lim va tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan.

Yangi O‘zbekiston sharotida vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etishga ehtiyoj katta. Davlatimiz uchun haqiqiy fuqaroni tarbiyalash ta’lim oldiga katta vazifalarni qo‘yadi. Biroq davlatchilik, fuqarolik faqat o‘rta maktab darsliklarida yoki ayrim ko‘rgazmali qo‘llanmalarda o‘z aksini topmasligi kerak. Ularni har tomonlama targ‘ib qilish, mehr va hurmat obyektiga aylanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, targ‘ibotning muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishida televideniyaning o‘rni va xizmati ajralmasdir. Siyosiy-ijtimoiy tarbiya ishlari samaradorligini

oshirish, ularning dunyoqarashini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash ishlariga e’tiborni kuchaytirish, ijtimoiy ahamiyatga molik g‘oyalar, me’yor va tamoyillarni o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyatni rag‘batlantirish muhim milliy-psixologik masaladir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmog‘i lozim. Hozirgi kunda yosh yigit-qizlarning axloqiy tafakkurida Vatan va unga daxldor tushunchalar bir muncha so‘ngandek tuyilmoqda. Harbiy ishlari yoshlarni ko‘nikmasi, vatanparvarlik tuyg‘usi esa ma’naviyatni asosi bo‘lishi kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.
2. Xudoyqulov D. Amir Temur axloq falsafasining umumnazariy masalalari. Academic research in educational sciences. Volume 2. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 P-965-966.

## SOHIBQIRON TEMUR SAROYI SHOIRLARI

**Sherxon Qorayev,**
**Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet dotsenti (PhD),**
**+998 99 6628248, sherxonqorayev@gmail.com**

Sohibqiron Amir Temur atrofida ko‘plab shoirlar bo‘lgan. Amir Temur Samarqanddagi boshqa mamlakatlarning nazm ahlini taklif etgan. Bu davrda shoiru shuaro, fozilu fuzalolar, ilm ahlini ko‘payganligini Izzat Sulton shunday izohlagan: *“Temur o‘z yurtida dunyoning ko‘p yerlaridan eng qimmatli kapital – ilm, nazm va hunar egalarini yiqqan edi. Temur avlodlari o‘z ota-bobosining shu bebaho merosi va mahalliy xalqlar iste’dodi va mehnati zaminida Temurning xayoliga ham kelmagan madaniy taraqqiyotga erishdilar. Samarqand va Hirot shu yangi madaniyatning markazi bo‘lib qoldi. Xuroson va Movarounnahrning boshqa ko‘p katta-kichik shaharlariga ham shu jonsiz va “jonli boylik” tarqalib ketgan, hunar va bilim, she’riyat egalarining ko‘pchiligi viloyatlarning bek va sultonlari saroyida o‘z ijodiy ishlarini davom ettirar edi”.*[75] Amir Temur zamonidan turkigo‘y shoirlar paydo bo‘ldi: *“Mamlakat arab va sart sultonlaridan turk xonlariga o‘tganidan so‘ng, Xalaguxon zamonidan so‘ngra Sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidan tortib farzandi Shohrux sulton zamonining oxirigacha turk tilida yozuvchi shoirlar, shu jumladan, ul hazrat (Amir Temur)ning avlodlaridan ham xushtab’ podshohlar paydo bo‘ldilar.*

*Shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiy kabi. Lekin forsiy shoirlar qarshisiga chiqa oladigan yolg‘iz mavlono Lutfiydan o‘zga kishi paydo bo‘lmadi”.*[76] Albatta buning birinchi sababi Turg‘un Fayziev yozganidek, Amir Temur va temuriylar adabiyot ahlini nihoyatda qadrlagani bo‘lgan.[77] Chunki “Sohibqiron doimo shoirlar davrasida she’rxonlik olib borib, o‘z davrining yetuk olimu fuzalolarining bahs – munozarasida o‘z donishmandligini namoyon etgan”.[78] Aynan, Abduqodir Hayitmetovning “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” kitobida yozishicha, *“Amir Temur nozikta’b inson, go‘zallikni chuqur his etadigan, adabiyot va san’atning qadriga yetadigan zot ham edi. Uning badiiy adabiyotga munosabati shu paytgacha maxsus o‘rganilmagan. Bunga oydinlik kiritishda bizga birinchi ko‘makdosh Alisher Navoiydir. Adabiyot tarixining buyuk bilimdoni, xususan temuriylar tarixini yaxshi bilgan Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” tazkirasida bu davrda yetishgan va ijod qilgan ijodkorlarga batafsil to‘xtab o‘tgan”.*[79] Darvoqe, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining yettinchi majlisiga quyidagicha sarlavha qo‘yib: *“Salotin izom (Ulug‘ sultonlar) va avlodi vojub ul ehtiromlari zikridakim, ba’zi yaxshi mahallarda xo‘b bayt o‘qubturlarkim, filhaqiqat, o‘zlari aytqondek xo‘bdur va ba’zi nazm latoyifiga mashg‘ul bo‘lubturlarkim, ul dag‘i matlub va marg‘ubdur”,* degan hamda uni *“Muluk shajarlarining (podshohlar daraxtining) bo‘stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya’ni: Temur Ko‘ragon...”,* degan ta’rif bilan boshlagan: *“Temur Ko‘ragon” – anorallohi burhonahi, garchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va*

[75] Sulton I. Navoiyning qalb daftari. T. : G‘.G‘ulom nomidagi BAN, 1969.-B.34-35.
[76] Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug‘atayn. T.: Akademnashr, 2017.-B.81.
[77] Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T.: Yozuvchi – Xazina, 1995.-B.184.
[78] https://www.bukhari.uz/?p=252
[79] Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996. –B.14.

*nasrni andoq xo‘b mahal va mavqe’da o‘qubdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qug‘oni ming bayt aytqoncha bor”*.[80] Aniqroq qilib Navoiy tili bilan aytganda, garchi Amir Temur she’rlar yozmagan bo‘lsa-da, ko‘p nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo‘lgan, ularning katta qismini yoddan bilgan, o‘z huzurida ilmiy, adabiy majlislar va qissaxonlik kechalari tashkil etgan. O‘zaro suhbatlarda, olimlar va shoirlarning majlislarida, do‘stlik va o‘rtoqlik gurunglarida Sohibqiron, Navoiy iborasi bilan aytganda, o‘z o‘rni va o‘z vaqtida she’riy asarlardan ayrim parchalarni, nasriy asarlardagi eslanishga loyiq bo‘lgan epizod va syujetlarni, bu asarlarning qahramonlariga oid baytlarni ma’lum bir voqealar munosabati bilan yoddan keltira olgan.[81] Adabiyotni qadrlagani bois o‘z saroyida o‘z davrining taniqli shoirlarini to‘plagan. Binobarin, Abdurauf Fitratning yozishicha, “Temuriylar davrida shoir ko‘b bo‘lgan. Xonlar, xonzodalar, beklar, bekzodalar hammalari shoir. Bu davrda ishq bilan she’r saroy ahli orasida yuqumli kasal kabi bosib kengaygan”.[82] Darhaqiqat, Amir Temur atrofida ijod ahli, shoirlar, fozillar ishtirokida adabiy majlislar o‘tkazilgan.

Amir Temur saroyining yetuk shoirlaridan biri Isomiy Samarqandiydir: *“Shoirning nomi Abdulmalikxon bo‘lib, Amir Temur davrida shayx ul-islom lavozimida ham ishlagan bo‘lib, u shoir Bisotiy Samarqandiyning ustozi va Isomiy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Isomiy yana forsiy tilda hind podshohlari tarixi haqida “Al-futuhot as-salotin” – “Sultonlar g‘alabalari” nomli masnaviy ham yozib, uni 751 hijriy yili tugatgan ekan. Bu misollardan kelib chiqadiki, nafaqat Xalil Sulton davrida, balki Amir Temur zamonida ham ilm va adabiyot an’analari davom ettirilgan va bu davrda nafaqat xalq orasida, balki saroyning o‘zida ham shoir-u ulamolar qimmatli asarlar bitishgan. Shayxulislom Abdulmalikxon Isomiy ham bunday ulamolardan biri bo‘lib, fiqh va adabiyot sohasida asarlar yozib, forsiy tilda devon va masnaviy yozgan. U o‘z zamonasining adabiy siymolardan hisoblanib, nafaqat o‘z shogirdlari, balki Samarqand adabiy muhitiga katta ta’sir ko‘rsatgan.*[83] Tazkirashunos Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”da “Amir Temur ko‘ragon zamoni” shayxulislomi Xoja Abdulmalik Isomiyni *“ilmu fazli bilan birga ajoyib ash’ori bor”*[84] deb ta’riflagan.[85]

Amir Temur saroyi shoirlari qadim Turkiston va Oltin O‘rda adabiy maktabi an’analariga suyanib, o‘zbek adabiyotini yangi yuksak pog‘onalarga ko‘tara boshlaganlar: “*V.V. Bartold ham Amir Temurning o‘z saroyidan forsigo‘y muarrixlar bilan bir qatorda turkiy (uyg‘ur) baxshilariga o‘rin berganligini, ularning Amir Temur tarixini she’riy yo‘l bilan bitganliklarini ta’kidlab o‘tgan”.*[86] Saroy tarixchisi va shoiri Sharafiddin Ali Yazdiy ham o‘z she’rlarida Sohibqiron Amir Temurni madh etgan:

*Darig‘o, ul shahonshohi sohibqiron,*
*Shahi tojbaxshi mamoliksiton.*
*Darig‘o, ulkim andoq yana shahriyor,*
*Jahon ichida ko‘rmagay ro‘zgor.*
*Darig‘o, ulkim andoq shahi pokdin,*
*Falak ko‘rmagay, balki ro‘yi zamin.*
*Darig‘o, ul shahanshohi bo taxti toj,*
*Ki shar’ ila din topdi andin rivoj.*
*Darig‘o, ulkim andoq yana bu spehr,*
*Aningdek shahi ko‘rmagay mohi mehr.*[87]

Ahmad Kirmoniy ham Samarqand saroyi shoirlaridan biri edi. Herman Vamberining yozishicha, Sohibqiron shoir Ahmad Kirmoniy bilan yaqin munosabatda bo‘lgan: *“Shoir Ahmad Kirmoniy Temur tarixini – “Temurnoma”ni yozgan, ulug‘vor Sohibqiron bilan juda yaqin munosabatda edi...*

*Temurning himoya va muruvvatidan foydalangan ajnabiy ulamo va shoirlarining soni ham ahamiyatsiz emas edi. Balo dashtidan Movarounnahrga o‘zi olib kelganlarning hammasiga*

[80] Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami.To‘qqizinchi jild. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIO‘, 2012.-B. 411.
[81] Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996. –B.14.
[82] Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma’naviyat, 2000.-B.41.
[83] Shukurov F. Temuriylar davrida yashab ijod etgan shoirlar. samxorfil.uz
[84] Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. (“Tazkirat ush-shuaro”dan).T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1981.-B.131.
[85] Ko‘rsatilgan asar.-B.131.
[86] Ravshanov P. Saylanma.Ikkinchi jild. T.: Yangi asr avlodi, 2006.-B.450.
[87] Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: “Sharq” NMK BT, 1997.-B.297.

*Sohibqiron juvonmardona in’om va ehson qilur edi... Binobarin, O‘rta Osiyoning ma’naviy taraqqiyoti, bilvosita bo‘lmasa-da, har holda Amir Temur xizmati va himmatiga chambarchas holda kechdi”.*[88] Amir Temur saroyidagi fazl ahli orasida arab shoiri Jaziriy ham yuksak mavqega ega bo‘lgan.[89]

Sohibqiron Amir Temur Hofiz Sheroziy ijodi bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Ayniqsa, uning “Agar on turki Sherozi ba dast orad dili moro, Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo” (Agar ko‘nglimni rom etsa o‘shal Sheroz jononi, qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni”) deb boshlanadigan g‘azali ko‘pchilik orasida mashhur bo‘lib, turli adabiy davralarda tez – tez tilga olingan. Hofiz bilan uchrashish ishtiyoqi sababli 1387 yili Fors yerlari va poytaxt shahar Sherozni egallagan Sohibqiron Temur o‘z huzuriga shaharning mashhur shaxslari qatori Hofiz Sheroziyni ham suhbatga chaqirishni buyuradi”.[90] Faxriddin Ali Safiy “Latoyif ut-tavoyif”da Amir Temur “hamisha g‘ariblikda, g‘oyat faqirona kun kechirgan, suhbatdoshi faqir odamlar bo‘lgan Hofiz Sheroziyni keltirish uchun uning huzuriga Sohibqironga eng yaqin bo‘lgan saroy shoirlaridan, Xoja Hofizning muridi Sayyid Zaynul Obiddin Ruknobodiyni yuborganini”[91] aytgan. Binobarin, Hofiz va Amir Temur o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan ajoyib bir adabiy suhbat adabiyot ahli orasida keng yoyilgan.[92] Tazkiranavis Mutribiy Samarqandiy ham “Hind safari” asarida yozishicha, “Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziyning hazrat Sohibqironiy (Amir Temur Ko‘ragoniy) mulozamatiga yetishgani voqeasi tafsilotini maxdumiy Hasanxoja Nisoriy shunday hikoya qilgan edilar: “Sohibqiron (Amir Temur Ko‘ragon) Sheroz viloyatini fath etganlarida, xoja Hofiz Sheroziyni huzurlariga chaqirib kelishni buyurganlar”... Xullas chaqirganlaridan so‘ng so‘rabdilar: - Menga qarachi, Hofiz! Axir men shu merosiy shaharlarim – Samarqand va Buxoroni obod qilish uchun qilich chopib, yurt olib, jondan kechib yuribman, shuni bilasanmi o‘zi? Sen esa, shu ishlarimni bir pulga chiqarib, kayfiyatimni buzib, Samarqandu Buxoroni bir dona hind xolga baxshida qilib o‘tiribsan-a? Mana yozganing (bayt):

Agar on turki sheroziy ba dast orad dili moro,

Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo.

(Mazmuni: Agar ko‘nglimni shod etsa, o‘shal Sheroz jononi, Qora xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.)

Xoja Hofiz o‘sha kezlari qiyinchilik va kambag‘allikda kun kechirarkanlar, shu ahvoliga ishora qilib, debdilar: - Qiblayi olam, ana shu ochiq qo‘lligim sabab bo‘lib, mana shunday gadolik holiga tushib qolganman.

Hazrat Sohibqironga uning bu gapi nihoyatda maqbul tushibdi va debdilar: - Hofiz, senga to‘rt narsa in’om qilaman, lekin hech birining nomini aytmayman va birdaniga ham bermayman, olishing uchun quyidagi shartlarni bajarishing kerak bo‘ladi. Seni lison ul-g‘ayb deydilar. Shu bahonada buni ham sinab ko‘rmoqchiman va bermoqchi bo‘lgan in’omlarimni bir-bir topishingni so‘rayman. Qaysini topsang mendan o‘shanisini olaverasan. Topa olmaganing esa ushlab qolinadi.

Xoja Hofiz bo‘lsa badiha tarzida ushbularni aytibdilar:

Ey shoh, ki dastor nihodi ba saram,

Mahzuz shud az jomayi zarbaft baram.

Chun kosa, ba zeri joma, kisa ast tahe,

Andoz daru zi lutf yak musht zaram.

(Mazmuni: Ey shoh, salla bilan boshim etding osmon, Zar choponingdan huzur topdi tanda jon. Lek cho‘ntagidir gado kosasidek bo‘sh, Bir siqim zar tashla unga qilib ehson.)[93]

Hazrat Sohibqiron bularni eshitib: - Libosni topding, ammo, bermoqchi bo‘lgan ot va egar-jabduqlarimni topolmading, - debdilar.

Xoja Hofiz esa: - Agar Sohibqiron pul inoyat qilsalar, ot va egar-jabduq bozorda ham topiladi, - deb javob beribdilar”.[94]Sohibqiron Temur o‘z in’omi – iltifoti bilan Hofiz Sheroziyni hurmatini joyiga qo‘ygan ekan. Binobarin, “Amir Temur bilan Hofiz Sheroziy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan tarixiy

[88] Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1990.-B.57.
[89] Qayumov A. Amir Temur qissalari. T.: Yozuvchi, 1996.-B.3.
[90] Muhammad N. Sirli zarvaraqlar. T.:O‘zbekiston, 2016.-B.128.
[91] Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1996.-B.64-65.
[92] Qayumov A. Amir Temur qissalari. T.: Yozuvchi, 1996.-B.17-18..
[93] Mutribiy Samarqandiy. Hind safari. (Tarjima, muqaddima, so‘nggi so‘z va izohlar muallifi I.Bekjon). T.: 2005.-B.23-27.
[94] Ko‘rsatilgan asar.-B.23-27.

muloqotga keladigan bo‘lsak, u Sohibqironning adolatpeshaligi, adabiyot va ilm ahlini qanchalar ulug‘laganini ko‘rsatuvchi yorqin bir misoldir. Shu sababli bu voqea solnomachilar e’tiboridan chetda qolmagan va tarix zarvaraqlariga muhrlangan. Ko‘plab jahon shoirlari bu voqea haqida she’r ham yozganlar”.[95] Binobarin, ana shu misolning o‘zi ham Amir Temurning she’riy iqtidorga egaligi, she’riyatga qiziqishi, adabiyot ahliga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatganidan darak beradi.[96]

Bundan tashqari, marhum adabiyotshunos Hakim Homidiy va taniqli tojik adabiyotshunosi Otaxon Sayfullaev fikriga ko‘ra, Amir Temur shoir Shayx Kamol Xo‘jandiyning hayotida muhim rol o‘ynagan.[97] Albatta, Sohibqiron Shayx Kamol Xo‘jandiy bilan adabiy davralarda ko‘p bor suhbatlashgan. Chunonchi, o‘z zamonining mashhur saroy shoirlari Mavlono Ahmad at-Termiziy, Sirojiddin Bisotiy Samarqandiy va Mavlono Mansur al-Qog‘oniy Xiyaliy Buxoriylarni ham Sohibqiron hurmat qilib, iltifot ko‘rsatgan. “Tarixi tomm”da “Sohibqiron davronida nash’u namo topgan hidoyat siyratli, buzruglar va dinparvar ulamo, fazilatgustar fozillar safida Hazrati Amir Sayyid Ali Hamadoniy, ulamodan Amir Sayyid Sharif Jurjoniy, Mavlono Sa’diddin Taftazoniy, shoirlardan Mavlono Bisotiy Samarqandiy, Xoja Ismat Buxoriy, Mavlono Lutfullo Nishopuriylar”[98] nomlari keltirilgan. Lutfullo Nishopuriy saroyning mashhur shoirlaridan biri bo‘lgan. Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”sidan ma’lum bo‘ladiki, shoir Xoja Ismat Buxoriy ham dastlab Amir Temur saroyida xizmat qilgan. U Sohibqiron vafoti munosabati bilan marsiya yozgan: “Muborak jasadlarini Saroymulkxonim bulg‘or ichra oldurub, Samarqandg‘a olib kelib, janoza o‘qub daxmaga dafn ayladilar. Motamlarida barcha ulamou fuzalolar yig‘lab uch kungacha umaro, beklar yosh o‘rniga qon yig‘ladilar. Xoja Ismatullo (Buxoriy) bu marsiyani aytib, to‘ralar birla axiylar yig‘lar erdi. G‘azal:

Buz chodiring falakkim, sulton o‘ldi g‘oyib,
Tun ichra erdi chun mohi tobon bo‘ldi g‘oyib.
Yoruq jahon quyoshi, islom elini boshi,
Din erdi ko‘p taloshi, dayyan o‘ldi g‘oyib.
Olamni qildi darbar, Sohibqiron Skandar,
Soniy demish eronlar, yoron o‘ldi g‘oyib.
Din erdi justujo‘si, shar’i erdi guftigo‘si,
Millatini obro‘si, burhon o‘ldi g‘oyib.
No‘shirvondek odil, ham olim erdi, fozil,
Har ishga aqli komil, farzon o‘ldi g‘oyib.
Davlatda kim Sulaymon, fitratda chun Falotun,
Hikmatda erdi go‘yo Luqmon o‘ldi g‘oyib.
Ehsonda misli Hotam, shavkatda erdi chun Jam,
Zo‘rliqda ham chu Rustam pahlavon o‘ldi g‘oyib.
G‘ayratda misli arslon, dasht ichra yoki qoplon,
Bahri nahang-u sa’bon, shujo‘bon o‘ldi g‘oyib.
Farzandi ahli no‘yon, To‘rag‘ay bahodur o‘g‘li,
Sayyid Amir Temurxon Ko‘ragon o‘ldi g‘oyib.[99]

Amir Temur saroyining shoirlaridan biri bo‘lgan Mavlono Muhammad Zohid ham Sohibqiron Temur vafoti ta’rixini ta’miya iborati bilan nazm qilgan. Ta’rix:

Temur Ko‘ragon zi naxli shohi bar dod,
Dar oxiri umr jon ba chashmi tar dod.
Zohid payi tarixi vafotash omad,
Bigrift sarupoi qazoro sar dod.

(Mazmuni: Temur Ko‘ragon shohlik naxlidan hosil berdi, Umri oxirida ko‘z yosh to‘kib jon berdi. Vafoti tarixini aytish uchun Zohid keldi, Qazo oyoq qo‘lini tutib, umri tugadi)”.[100]

[95] Muhammad N. Sirli zarvaraqlar.T.: O‘zbekiston, 2016.-B.137.
[96] https://darakchi.uz/uz/142653
[97] Ahmedov A. Amir Temur jahon tarixida. T.: “Sharq” NMAK BT, 2001. –B.165.
[98] Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. T.: Ma’naviyat, 1998.-B.22-26.
[99] Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. T.: Cho‘lpon, 1990.-B.327.
[100] Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. T.: Ma’naviyat, 1998.-B.25-26.

Saroy shoiri va xonanda, bastakor Abdulqodir Marog‘iy Amir Temurning saroy bazmlari va adabiy majlislarda ishtirok etgan: “Amir Temur zabt etilgan mamlakatlardan madaniyat, adabiyot va san’at arboblarini Samarqandga jo‘natib turgan. Ular orasida Navoiy “Munshaot”ning 91-maktubida[101] zikr etgan Abdulqodir (Marog‘iy) (1353-1435) nihoyatda mashhur edi. Ozarbayjonning yirik madaniyat markazi bo‘lgan Marog‘adan chiqqan Abdulqodir uyg‘onish davriga mos tarzda xilma-xil bilim va iste’dodga ega: shoir, xonanda, qori, musiqa ijrochisi hamda nazariyotchisi edi. Samarqandda va keyin Hirotda ekanida uning ijodiy faoliyati ayniqsa sermahsul bo‘ldi. Bu yerda Abdulqodir Marog‘iy poytaxt musiqachilariga murabbiylik, saroy bazmlari va alohida majlislardagi musiqa dasturiga tashkilotchilik qilgan.”[102] Fors va turkiy tillarda she’r yozgan Xoja Abdulqodir Marog‘iy Amir Temur va Temuriylar saroyida qirq yil mobaynida xizmat qilgan. Fasih Ahmad Xavofiy o‘zining “Mujmali Fasihiy”sida yozishicha, Abdulqodir Go‘yanda 1392 yilda Bag‘dod shahri fath etilgach, Sulton Ahmad saroyidan Samarqandga yuborilgan.[103] San’atkorning Amir Temur saroyida xizmat qilganligi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida qayd etilgan: “(Konigilda) Yaxshi unluq mug‘anniylar un tortib, g‘azalu naqsh aytur erdilar. Va turku, mo‘g‘ulu, xitoyu, arabu, ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nima aytur erdi.

Ul jumladin Xoja Abdulqodirkim, benaziri olam erdi, qo‘buz va yatug‘on va udni shodliq mizrobi bila chala boshladi”.[104]

Xulosa qilib Muhtaram Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “Xalq orzusi Sohibqiron Amir Temur bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinchi uyg‘onish davri g‘oyalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Aynan xalq armonini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan intilish Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta’minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san’at va ilm – fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Xalqimizning orzu – intilishlari Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Ikkinchi uyg‘onish davrining buyuk siymolarini uyg‘otdi, ularning asarlari va faoliyatida o‘z talqinini topgan odil podsho, adolatli jamiyat, komil inson g‘oyalarida namoyon bo‘ldi.

O‘sha davrlarda bu orzu komillikka eltadigan iymon va e’tiqodni millat vakillari uchun muqaddas qadriyatga aylantirdi. Natijada komillik va ma’rifat sari intilish tuyg‘usi xalqimiz mentalitetidan mustahkam va bir umrlik joy oldi”.[105] Zotan, Sohibqiron Temurning adabiyotga bo‘lgan e’tibori o‘z davrida mumtoz adabiyotning rivojlanishi, turkiy til va turkigo‘y shoirlar kamolotiga xizmat qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug‘atayn. T.: Akademnashr, 2017.-B.81.

2.Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami.To‘qqizinchi jild. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIO‘, 2012.-B. 411.

3. Alisher Navoiy. Munshaot. T.: Ma’naviyat, 2001.-B.83.

4. Ahmedov A. Amir Temur jahon tarixida. T.: “Sharq” NMAK BT, 2001. –B.165.

5. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1990.-B.57.

6. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. (“Tazkirat ush-shuaro”dan).T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1981.-B.131.

7. Ravshanov P. Saylanma.Ikkinchi jild. T.: Yangi asr avlodi, 2006.-B.450.

8. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. T.: Cho‘lpon, 1990.-B.327.

9. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. T. : G‘.G‘ulom nomidagi BAN, 1969.-B.34-35.

10. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.-B.228.

11. Muhammad N. Sirli zarvaraqlar. T.:O‘zbekiston, 2016.-B.128.

12.Mutribiy Samarqandiy. Hind safari. (Tarjima, muqaddima, so‘nggi so‘z va izohlar muallifi I.Bekjon). T.: 2005.-B.23-27.

[101] Alisher Navoiy. Munshaot. T.: Ma’naviyat, 2001.-B.83.

[102] Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.-B.228.

[103] Fasih Ahmad Xavofiy. Mujmali Fasihiy. / “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida” kitobidan.T.:O‘qituvchi, 1996.-B.212..

[104] Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: “Sharq” NMK BT, 1997.-B.291.

[105] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: O‘zbekiston, 2021.-B.17-18.

13. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996. –B.14.
14. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T.: Yozuvchi – Xazina, 1995.-B.184.
15. Fasih Ahmad Xavofiy. Mujmali Fasihiy. / “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida” kitobidan.T.:O‘qituvchi, 1996.-B.212..
16. Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1996.-B.64-65.
17. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma’naviyat, 2000.-B.41.
18. Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. T.: Ma’naviyat, 1998.-B.22-26.
19. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: “Sharq” NMK BT, 1997.-B.297.
20. Qayumov A. Amir Temur qissalari. T.: Yozuvchi, 1996.-B.350.

## AMIR TEMUR DAVRIDA AYOLLAR SALOMATLIGIGA E’TIBOR MASALALARI

**Bo‘stonova Umribonu**
**NDU Tarix fakulteti “Tarix” yo‘nalishi 1-kurs magistranti**
**Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD) S.I.Xamrayeva**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolaning maqsadi XIV–XV asr manbalari asosida Temuriylar davrida ayollar salomatligiga e’tiborning huquqiy, ijtimoiy va tibbiy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Sohibqiron, Markaziy Osiyo, ijtimoiy, siyosiy, boshqaruv, madaniyat, sog‘lik, salomatlik, ayollar.

**Abstract:** The purpose of this article is to analyze the legal, social, and medical aspects of women's health during the Timurid era, based on sources from the 14th and 15th centuries.

**Keywords:** Amir Timur, Sahibkiran, Central Asia, social, political, governance, culture, health, well-being, women.

**Аннотация:** Цель данной статьи — анализ правовых, социальных и медицинских аспектов внимания к здоровью женщин в эпоху Тимуридов на основе источников XIV–XV веков.

**Ключевые слова:** Амир Тимур, Сахибкиран, Центральная Азия, социальные, политические, управление, культура, здоровье, благополучие, женщины.

XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr boshlarida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat barpo etilishi Amir Temur (1336–1405) nomi bilan bog‘liqdir. Uning siyosiy va harbiy faoliyati keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy siyosat, ayniqsa ayollar salomatligiga munosabat masalasi alohida tadqiqot ob’ekti sifatida kam yoritilgan. Temuriylar davrida ayollar salomatligi masalasini o‘rganishda bevosita tibbiy qonun hujjatlari emas, balki davlat boshqaruvi, vaqf tizimi, shaharsozlik, saroy madaniyati va islom huquqiga oid manbalar tahlili asosiy manba vazifasini o‘taydi.

Temuriylar davlatchilik nazariyasi va amaliyotida ijtimoiy himoya masalasi muhim o‘rin tutgan. Bu haqda “Temur Tuzuklari” asarida quyidagi fikrlar keltiriladi: “Raiyat holidan xabar oldim, kambag‘al va muhtojlarning ehtiyojini qondirishni amirlar zimmasiga yukladim”[1.56.]. Shuningdek, “har bir shaharda bemorlar uchun joy tayin etilsin, ularning oziq-ovqati va dorisi davlat hisobiga ta’minlansin” (1.60.) deb ko‘rsatilgan fikrlardan anglash mumkinki, davlat siyosatining bir qismi sifatida aholi salomatligini muhofaza qilish vazifasi qo‘yilgan. Bu tartib jamiyatning barcha qatlamlariga, shu jumladan ayollarga ham taalluqli bo‘lgan. Temuriylar davlat tizimida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash aholi salomatligi bilan bevosita bog‘liq deb qaralgan.

Temuriylar davrida saroy ayollari jamiyatda faol mavqega ega bo‘lgan. Xususan, Saroy Mulkxonim (Bibi Xonim) davlat boshqaruvi va madaniy qurilish ishlarida qatnashgan. Ayniqsa, davlatning ayollar va ularning salomatligi masalasiga oid siyosatida Saroy Mulkxonim faoliyati alohida ahamiyat kasb etgan. Sharafaddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnama” asarida saroydagi tartib va tibbiy xizmat haqida ma’lumot beradi: “Sulton huzurida tabiblar doimo hozir turib, har qanday bemorlik holatida darhol muolaja qilur edilar. [2.314.]. Manbada bevosita “ayollar shifoxonasi” degan ibora keltirilmagan bo‘lsa-da, saroy ichki qismi – haram hududida ayollar uchun alohida tibbiy xizmat tashkil etilgani haqida tadqiqotchilar qayd etadilar. Bu holat gender jihatdan ixtisoslashgan tibbiy amaliyot mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida Samarqand, Buxoro va Hirot shaharlarida keng qurilish ishlari amalga oshirilgan. Poytaxt Samarkand ayniqsa yirik madaniy va tibbiy markazga aylangan. Ispan elchisi Ruy

Gonzalez de Klavijo o‘zining safarnomasida shunday yozadi: “Bu shaharda bemorlar uchun maxsus binolar bor, ularda tabiblar xizmat qiladi”. [3. 199]. Bu ma’lumotdan ko‘rinadiki, davlat infratuzilmasida shifoxonalar (dorush-shifo) mavjud bo‘lgan. Bunday muassasalarda ayollar ham davolangani tabiiy, chunki islom tibbiyotida jinsga ko‘ra ajratilgan xizmat amaliyoti mavjud.

Temuriylar davrida vaqf muassasalari orqali masjid, madrasa va shifoxonalar moliyalashtirilgan. Vaqf daromadlari tibbiy muassasalar faoliyatini ta’minlagan. Ibn Xaldun o‘zining “Muqaddima” asarida shunday yozadi: “Shahar sivilizatsiyasi rivoj topgan sari tibbiyot ilmi ham yuksaladi”. [4.389.]. Fikrimizcha, bu nazariy xulosa bo‘lib, temuriylar davri shahar madaniyati va tibbiy xizmat rivojini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Onalik va bolalik muhofazasi islom huquqida farz sifatida qaralgan. Amir Temur va temuriylar davrida shariat qoidalariga ko‘ra, homilador va emizikli ayollarga yengilliklar berilgan. Bu holat ijtimoiy amaliyotda ham o‘z aksini topgan. Shuni qayd etish joizki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida Amir Temurning davlat boshqaruvi siyosatining davomi sifatida, uning tajribalaridan foydalangan holda bugungi kunda onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev fikricha, onalik va bolalikni muhofaza qilish nafaqat ijtimoiy yordam shaklida, balki keng miqyosli davlat siyosati – oilani qo‘llab-quvvatlash, tibbiy xizmatni yaxshilash, bolalar va onalar huquqlarini kafolatlash kabi tizimli choralar orqali amalga oshirilishi kerak**.** [5.]. Bu masala O‘zbekistonning ichki siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

Temuriylar davri tibbiyoti islom tibbiyoti an’analariga tayangan. Bu an’analarning nazariy asoslari Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlarida bayon etilgan. Unda ayollar salomatligi, homiladorlik va tug‘ruq jarayoni haqida maxsus boblar mavjud. Temuriylar davri tabiblari ushbu ilmiy merosga tayangan holda amaliyot yuritgan. Ayollar uchun alohida momodoyalar (qobila) faoliyat yuritgani tarixiy manbalar va etnografik ma’lumotlar orqali tasdiqlanadi. Temuriylar davrida ayollarga nisbatan hurmat va e’tibor madaniy an’analar bilan uyg‘unlashgan. Saroydagi nufuzli ayollar xayriya ishlarini amalga oshirgan, madrasa va masjidlar qurdirgan. Bunday muhit ayollarning ijtimoiy himoyasi va sog‘lom turmush tarzini ta’minlashga xizmat qilgan. Davlatning markazlashgan boshqaruvi va iqtisodiy barqarorlik tibbiy xizmat tizimining barqaror ishlashiga zamin yaratgan.

Bobokalonimiz Amir Temurning davlat siyosati tajribalariga tayangan holda bugungi Yangi O‘zbekistonda ayollarga hurmat va e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutq va ma’ruzalari muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezident o‘z chiqishlarida ayollarning jamiyatdagi o‘rniga alohida to‘xtalib shunday degan edi: “Ayol baxtli bo‘lsa – oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa – jamiyat mustahkam bo‘ladi.” **[**6**.].** Bu fikr ayollarga hurmat va e’tibor nafaqat ijtimoiy masala, balki davlat barqarorligining omili sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi. Onalik va ayollik sha’nini himoya qilish – davlat siyosati darajasiga chiqishi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Prezident ta’kidlaganidek, “Onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir”. [6.]

Xullas, Amir Temur davrida ayollar salomatligiga oid alohida kodeks mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, quyidagi omillar uning muhofazasini ta’minlagan: davlatning ijtimoiy adolat tamoyili; saroy va shaharlarda tibbiy xizmat tizimining shakllanganligi; vaqf orqali shifoxonalarni moliyalashtirish; islom huquqi asosida onalik muhofazasi; islom tibbiyoti an’analariga tayangan amaliyot. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, temuriylar davrida ayollar salomatligi davlat ijtimoiy siyosati, diniy-huquqiy me’yorlar va shahar sivilizatsiyasi rivoji doirasida ta’minlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur Tuzuklari. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti. – 2005.
2. Шарафаддин Али Яздий. Зафарнама. – Тошкент. “Шарқ” нашриёти. – 1997.
3. Ruy Gonsales de Klavixo**.** Tamerlan elchixonasi . – Toshkent. 1996.
4. Ibn Xaldun. Muqaddima. – Тошкент. “Yangi asr avlodi” – 2013.
5. Xidirov A. UzA// Children as the Main Priority of New Uzbekistan (Bolalar Yangi O'zbekistonning asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida) https://uza.uz/en/posts
6. Sh.Mirziyoyev. Xotin-qizlar va oila masalasi – shunchaki nomiga shug‘ullanadigan masala emas// 01.03.2022. https://xabar.uz/uz/

# O‘ZBEKISTON DAVLAT BAYROG‘IDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR SALTANATI BAYROG‘INING AN’ANAVIY DAVOMIYLIGI XUSUSIDA.

**Elova Dilnoza Davlatovna-**
**BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi, t.f.f.d PhD, dotsent**

Har bir davlatning mustaqilligini bildirib turuvchi asoslardan biri, davlat ramzlari hisoblanadi. Ramzlar – bayroq, tamg‘a(gerb), madhiya kabilar shunchaki ranglar emas, balki davlat siyosatining mazmuni, mamlakat fuqarolarining o‘zligini anglash timsoli. Mustaqil davlat boshqa mamlakatlarga o‘z qiyofasini borligicha ko‘rsatish uchun o‘z bayrog‘i va boshqa ramzlariga ega bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i 1991 yil 18 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun orqali qabul qilindi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i o‘tmishda o‘tgan qudratli davlatlar an’analari, ular tug‘lari aks etgan g‘oyalarni o‘zida mujassam etdi. Milliy bayrog‘imizda millat ruhiyati, ajdodlardan meros qolgan odat va aqidalar, milliy-ma’naviy, ruhiy qadriyatlar aks etgan. O‘zbekiston bayrog‘ida har bir rang (havorang, oq rang, yashil rang, qizil chiziq) har bir tasvir (yarim oy, 12 ta yulduz) o‘zining ramziy ma’nosiga ega bo‘lib, bu haqda ko‘p bor yozildi va izohlar berildi. Bayroq turkiy xalqlarda o‘rta asrlarda “tug‘” deyilgan. O‘zbekiston bayrog‘ida o‘tmish, bugun, kelajak mujassam bo‘lib, uning uzunligi 250sm, kengligi 125smdir. O‘zbekiston bayrog‘i xalqaro nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Nyu-York (AQSh)dagi shtab-kvartirasi binosi oldida 1992 yildan buyon hilpirab turibdi. “Millatlar muzeyi” hisoblangan Nyu-Yorkda 200 dan ortiq mamlakatlar bayrog‘i qatoridan o‘rin olgan O‘zbekiston bayrog‘i davlatimiz mustaqilligining asosiy ramzi, boshqa mamlakatlardan farqlovchi muhim belgi hisoblanadi. O‘zbekiston davlat bayrog‘i davlat muassasalari, xorijdagi O‘zbekiston elchixona, vakolatxonalari oldida, milliy bayramlarda, sport musobaqalarida sovrindorlarga, sovrin topshirilayotganda ko‘tariladi. Milliy bayroq O‘zbekiston fuqarolarining faxri va g‘ururi hisoblanadi.

Albatta, O‘zbekiston milliy bayrog‘ini mukammal holatga keltirishda, unda o‘zbek xalqi istak va maqsadlarini, saxiy tabiatni, milliy mentalitetni mujassamlashtirishda Sohibqiron Amir Temur (1336-1405yy) saltanatida amal qilgan bayroqlar, ularning ramziy qiyofalari birinchi navbatda inobatga olingan. Amir Temur Movarounnahrda ikkinchi renessansni (XIV-XV asrlar) boshlab berib, butun dunyoga (Sharq va G‘arbda) o‘zbekni tanitdi. U jahonshumul obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, xalqaro maydonda e’tirof etilgan buyuk saltanat egasi va milliy davlatchiligimiz asoschilaridan biridir. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Sohibqiron harbiy yurishlarda raqibga qarshi jang maydoniga bayrog‘i va bayroqdorlari bilan kirib borgan. G‘alabadan so‘ng, uning oyog‘i ostiga dushman bayroqlari keltirib tashlangan, bu dushman tor-mor etilganining nishonasi hisoblangan.

Amir Temur davlati bayrog‘ining uzunligi 4-5 metrdan kam bo‘lmagan. Bayroqning dastasi yo‘g‘on, uchburchak ko‘rinishda, matosi moviy rangda bo‘lgan. O‘zbekiston milliy bayrog‘idagi to‘q moviy rang, zangori osmon va musaffo suvni ifodalaydi. Bu mutanosiblik Amir Temur davri bilan hozirgi zamonni bog‘lab turibdi. Amir Temur bayrog‘ida quyosh va uning zarrin nurlari aks etgan va old tarafida bo‘risimon hayvon tasviri tushirilgan. Quyosh mangulik ramzi, Bo‘ri esa dovyurak va epchil, dikkaygan quloqlari bilan har qanday sharpani tezda ilg‘ay oladigan, dushmani bir necha barobar kuchli bo‘lsa ham unga tik bora oladigan, mashaqqat va qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodir jonzot hisoblanadi. Umuman jahongirlikka da’vo qilib chiqqan hukmdorlar tug‘ida yo‘lbars va sher tasviri aks ettirilgan. Xorazmshohlar poytaxti Urganch himoyasida ishtirok etgan Kubraviya talimoti asoschisi Najmiddin Kubro Chingizxonning tug‘ini mahkam ushlab 1221 yil “Yo hayot ,yo mamot, yo sharafli olim” deb jon bergan. Bu yo‘lbars tasviri tushirilgan tug‘ni qo‘llarini uzgandan so‘ng,zo‘rg‘a ajratib olishgan.

Amir Temur bayrog‘ida 10 ta chiziq bo‘lib, bu chiziqlarning 9 tasi mayin, bittasi qalinroq bo‘lgan. Bu ramziy jihat Temurning tuzuklarida ko‘rsatilgan. ”Davlat ishlarini 10 ulushga bo‘ldim, 9 ulushini mashvarat va kengash bilan ado etdim, bir ulushini qilich bilan bajo keltirdim” degan ma’noni anglatgan. Amir Temur tuzuklarida biror bir katta ishni mashvaratsiz amalga oshirmaganligi bayon etilar ekan, hukmdor maslahat berganlarni : 1) Til uchida maslahat beradiganlar, 2) Sidqidildan maslahat beradiganlar, 3) Befarq, maslahat berishni lozim topmaydiganlarga ajratgan. Temur barcha maslahatlarni diqqat bilan tinglab oxirgi qarorni esa o‘zi qabul qilgan. Amir Temur

bayrog‘i avlonining bo‘sh joylarida “Kuch adolatda”(“Rosti-rusti”), “Adovat emas, adolat yengadi”, “Men qonun asosida harakat qildim”, “Ko‘mak Allohdandir” kabi hikmatli so‘zlar yozilgan. Uning bayroqdorlari janglarda boyliklar orttirgan,mohir jangchining sirlarini egallagan,dovyurak,epchil,salobatli kishilar bo‘lgan.

Xullas, O‘zbekiston milliy bayrog‘ining hilpirashini ko‘rish o‘zbek xalqining asriy orzusi bo‘lganligi nafaqat vatandoshlarimiz balki mustamlaka va sovet hokimligi yillarida muhojirlikda bo‘lgan yurtdoshlarimiz uchun ham istiqlolga erishish asoslaridan biri bo‘lgan. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishishdan 30 yil ilgari (1961 yilda) AQShda yashagan muhojir o‘zbek Ergash Shermat Buloqboshi “Gullar makoni” nomli she’riy to‘plami (E.Sh. Buloqboshi. Gullar makoni, she’rlar. Vashington-Anqara;1961) ga kirgan “Bir zum xayol surganda” nomli she’rida:

Xayolimda yurt bog‘ida jo‘yaklar qazdim,
Yangi meva, gul-ko‘chatlar o‘tkazmoq uchun.
“Turkiston hur” degan so‘zni alvonga yozdim,

Hilpiradi milliy bayroq har yonda shu kun – kabi misralarni bitgandi. Yuqoridagi misralar Mustaqil O‘zbekiston milliy bayrog‘ini ko‘rish istagi bilan minglab yurtdoshlarimiz yashaganligidan dalolat beradi. Yohud O‘zbekiston Respublikasi milliy bayrog‘iga hurmat ramzi sifatida Saudiya Arabistonidagi millatdoshlarimizdan biri xonadonidagi bitta xonani O‘zbekiston davlat bayrog‘ini osib qo‘yib band etgan. 1990 yillarda Turkiya Respublikasida yashagan Sobir Sayxonli (Xolmuhammad Xokiy o‘g‘li, 1931yilda tug‘ilgan.) Istanbul shahri Aksaray qismidagi Boyazid maydonida (bu maydonda 700 do‘kon bo‘lgan) gi o‘zining 3 ta do‘koni peshtoqiga O‘zbekiston milliy bayroqlarini osib qo‘ygandi. Xullas, O‘zbekiston milliy bayrog‘i mustaqil O‘zbekiston umrboqiyligida Buyuk Amir Temur ruhi madadkorligining timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Temur tuzuklari. A. Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2012-184 bet.
2. Abdulloh Hotifiy. Temurnoma. Tarixiy-badiiy doston. –Toshkent: Hudud va jamiyat, 2021.-196 bet.
3. L.Keren, A.Saidov. Amir Temur va Fransiya. –Toshkent, “Adolat”, 1996.-85 bet.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2001. Tom II.-B.585.

## TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI VA IJTIMOIY DAVLATNING MA’RIFATPARVARLIK SIYOSATI

**Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li**
**Buxoro davlat universiteti doktoranti**
**BuxDU “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti hamda uning ijtimoiy davlatning ma’rifatparvarlik siyosati bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur va uning vorislari tomonidan ilm ahliga ko‘rsatilgan homiylik, ilmiy markazlar, madrasalar va rasadxonalarning barpo etilishi jamiyat barqarorligi va ma’naviy yuksalish omili sifatida baholanadi. Xususan, Mirzo Ulug‘bek davrida tashkil etilgan Ulug‘bek rasadxonasi faoliyati aniq fanlar rivojining institutsional asoslarini yaratgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, Alisher Navoiyning ma’rifatparvarlik faoliyati va me’moriy obidalar — Registon maydoni hamda Go‘ri Amir maqbarasi — ijtimoiy identitet va ma’naviy birlikni mustahkamlashdagi o‘rni yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar davri, ijtimoiy davlat, ma’rifatparvarlik siyosati, ilmiy infratuzilma, rasadxona, madrasa, ilmiy maktab, me’morchilik, madaniy meros, Samarqand, Buxoro.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the development of science and culture during the Timurid era and its inextricable connection with the enlightening policy of the social state. The patronage of scientists, the establishment of scientific centers, madrasahs and observatories by Amir Temur and his successors in the 14th-15th centuries are evaluated as a factor in the stability and spiritual uplift of society. In particular, the activities of the Ulugbek Observatory, established during the reign of Mirzo Ulugbek, are distinguished by the fact that they created the institutional

foundations for the development of exact sciences. The role of Alisher Navoi's enlightening activities and architectural monuments - Registan Square and the Mausoleum of Guri Amir - in strengthening social identity and spiritual unity is also highlighted.

**Keywords:** Timurid era, social state, enlightening policy, scientific infrastructure, observatory, madrasah, scientific school, architecture, cultural heritage, Samarkand, Bukhara.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksak taraqqiyot bosqichi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Bu davrda davlat boshqaruvi faqat siyosiy va harbiy qudrat bilan emas, balki ilmiy-ma’rifiy salohiyat bilan ham mustahkamlangan. Ilm ahliga homiylik qilish, madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar barpo etish orqali hukmdorlar jamiyatning intellektual rivojini qo‘llab-quvvatladilar. Mazkur jarayonni zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasi bilan bog‘liq holda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillaridan biri — inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim va ilm-fanga investitsiya kiritishdir. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy infratuzilma, xususan, Samarqand va Hirot ilmiy maktablari, nafaqat o‘z davrining ehtiyojlariga javob berdi, balki keyingi asrlar ilmiy tafakkuriga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Temuriylar davrida (XIV–XV asrlar) ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnash davri bo‘lib, hukmdorlarning homiyligi ostida ilmiy markazlar, madrasalar, kutubxonalar va rasadxonalar barpo etildi. Bu ilmiy va madaniy muhit ijtimoiy davlat siyosatining muhim qismi sifatida jamiyat barqarorligiga xizmat qildi[106]. Amir Temur davrida ilm va hunar egalari davlat himoyasiga olingan. “Temur tuzuklari”da olimlar, fozillar va san’atkorlarga hurmat ko‘rsatish, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlanadi. Samarqand poytaxt sifatida nafaqat siyosiy, balki ilmiy markazga aylantirildi. Turli hududlardan olimlar, me’morlar va ustalar taklif etildi. Bu esa ilmiy integratsiya va madaniy almashinuvni kuchaytirib, jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamladi. Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida ilmiy infratuzilma yanada rivojlandi. Samarqandda tashkil etilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining eng yirik astronomik markazlaridan biri bo‘ldi. Bu yerda Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy kabi olimlar faoliyat yuritib, “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” astronomik jadvalini yaratdilar. Mazkur ilmiy loyiha davlat tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lib, ilm-fanning institutsional qo‘llab-quvvatlanganini ko‘rsatadi. Bu esa ijtimoiy davlatning ilmiy taraqqiyotga bevosita investitsiya kiritish funksiyasini eslatadi. Temuriylar davrida madrasalar va kutubxonalar tarmog‘i kengaydi. Hirot va Samarqand shaharlari yirik ma’rifat markazlariga aylandi. Alisher Navoiy faoliyati bunga yorqin misoldir. U nafaqat adabiyot rivojiga hissa qo‘shgan, balki ko‘plab madrasa, xonaqoh va kutubxonalar qurilishiga homiylik qilgan. Bu esa davlat va ziyolilar hamkorligida ma’naviy makon shakllanganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, me’morchilik va san’at taraqqiyoti ham ijtimoiy siyosatning bir qismi bo‘lgan. Registon ansambli, Go‘ri Amir maqbarasi kabi obidalar nafaqat estetik qadriyat, balki jamiyatni birlashtiruvchi ma’naviy ramz vazifasini bajargan. Bunday yodgorliklar davlatning madaniy siyosati orqali ijtimoiy identitetni mustahkamlashga xizmat qilgan. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlash siyosati jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va ma’naviy birlikni mustahkamlashga qaratilgan edi. Shu bois bu davr tajribasini ijtimoiy davlat tamoyillarining tarixiy ildizi sifatida ilmiy jihatdan baholash mumkin.

Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti Mirzo Ulug‘bek boshchiligida aniq fanlar (astronomiya, matematika) va ilmiy markazlar orqali chuqur rivojlandi. Bu infratuzilma ilmiy izlanishlarni yanada mustahkamladi va ijtimoiy hayotni boyitdi[107]. Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasi XV asrning eng ilg‘or astronomik markazlaridan biri bo‘ldi. Rasadxona uch qavatli murakkab inshoot bo‘lib, unda ulkan sekstant (radiusi qariyb 40 metr) o‘rnatilgan edi. Ushbu ilmiy qurilma yordamida yulduzlarning koordinatalari aniqlanib, yil uzunligi nihoyatda aniq hisoblab chiqildi (365 kun 6 soat 10 minut 8 soniya). Bu ko‘rsatkich zamonaviy hisob-kitoblarga juda yaqin bo‘lgan. Ulug‘bek atrofida yirik ilmiy maktab shakllandi. Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va Ali Qushchi kabi olimlar Samarqand ilmiy muhitida faoliyat yuritdilar. Ularning

[106] Umirova G., Olimjonova D. TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT. Vol. 15 No. 02 (2025): PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

[107] Otakhonov A. Development Of Science And Education System During The Temurid Period And Its Features Factors. Vol. 44 No. S7 (2023)

hamkorlikdagi tadqiqotlari natijasida “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” asari yaratildi. Mazkur astronomik jadval 1018 ta yulduz koordinatasini o‘z ichiga olgan bo‘lib, keyinchalik Yevropa astronomlari tomonidan ham foydalanilgan. Bu ilmiy meros Temuriylar davrida aniq fanlarning global ilmiy jarayonga qo‘shilganini ko‘rsatadi. Ilmiy markazlar faqat tor doiradagi tadqiqot maydoni emas, balki ijtimoiy-ma’rifiy muhit vazifasini bajargan. Samarqand va Hirotdagi madrasalarda diniy fanlar bilan bir qatorda riyoziyot, handasa (geometriya), falakiyot va mantiq o‘qitilgan. Bu esa jamiyatning intellektual saviyasini oshirishga xizmat qilgan. Ilmning rivoji davlat boshqaruvi, yer o‘lchash, me’morchilik va savdo sohalarida amaliy natijalar bergan. Mirzo Ulug‘bek davrida yaratilgan ilmiy infratuzilma — rasadxona, madrasa va ilmiy maktablar — nafaqat fundamental fanlarning rivojlanishini ta’minladi, balki jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy hayotini boyitdi. Bu tajriba davlat tomonidan ilm-fanga investitsiya kiritish ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omili ekanini tarixiy jihatdan tasdiqlaydi.

Temuriylar davrida Samarqand va Buxoro kabi markazlarda ilm-fan, san’at, me’morchilik va hunarmandchilik sohalarida erishilgan yutuqlar ilmiy-madaniy muhitni boyitib, jamiyatda ma’rifatparvarlik siyosatini mustahkamladi. Bu yutuqlar nafaqat o‘sha davrda, balki keyingi avlodlar uchun ham qadriyat bo‘lib qoldi[108]. Samarqand Temuriylar poytaxti sifatida ilmiy integratsiya markaziga aylandi. Amir Temur turli hududlardan olimlar, ustalar va san’atkorlarni olib kelib, shaharda ilmiy va madaniy muhitni shakllantirdi. Keyinchalik Mirzo Ulug‘bek davrida bu jarayon yanada chuqurlashib, Ulug‘bek rasadxonasi barpo etildi. Bu ilmiy markaz nafaqat astronomiya va matematika rivojiga xizmat qildi, balki ilmni davlat siyosatining ajralmas qismiga aylantirdi.

Me’morchilik sohasida Samarqandda bunyod etilgan Registon maydoni ansambli va Go‘ri Amir maqbarasi yuksak badiiy did va muhandislik tafakkurining mahsuli bo‘ldi. Ushbu inshootlar nafaqat estetik qadriyat, balki jamiyatni birlashtiruvchi ma’naviy ramz vazifasini bajardi. Me’moriy maktablar rivojlanishi bilan hunarmandchilik — koshinkorlik, naqshinkorlik, kitobat san’ati va miniatyura san’ati ham taraqqiy etdi. Buxoro ham ilmiy-ma’rifiy an’analar markazi sifatida muhim rol o‘ynadi. Madrasalar va kutubxonalar faoliyati ilmiy tafakkur uzviyligini ta’minladi. Bu davrda shakllangan ta’lim tizimi diniy va dunyoviy fanlarni uyg‘unlashtirishga asoslandi. Natijada jamiyatda savodxonlik va ma’rifat darajasi oshdi. Temuriylar davrida Samarqand va Buxoroda yaratilgan ilmiy va madaniy meros nafaqat o‘z davrining taraqqiyotini belgiladi, balki keyingi asrlar ilmiy-madaniy rivojiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu yutuqlar tarixiy xotira va milliy qadriyat sifatida bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Ilmiy markazlar, rasadxona va madrasalar tashkil etilishi jamiyatning intellektual salohiyatini oshirib, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy birlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida aniq fanlarning rivoji davlat tomonidan institutsional qo‘llab-quvvatlanganini ko‘rsatadi. Me’morchilik, adabiyot va san’at sohasidagi yuksalish esa jamiyatda estetik did, ma’naviy qadriyat va madaniy identitetni mustahkamladi. Samarqand va Buxoro markazlarida shakllangan ilmiy-madaniy muhit nafaqat o‘z davrining, balki keyingi avlodlarning taraqqiyotiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Temuriylar davri tajribasi ilm-fan va ma’rifatni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirish ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omili ekanini tarixiy jihatdan tasdiqlaydi. Bu tajriba bugungi kunda ham ijtimoiy davlat qurish jarayonida muhim tarixiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Umirova G., Olimjonova D. TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT. Vol. 15 No. 02 (2025): PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

2. Otakhonov A. Development Of Science And Education System During The Temurid Period And Its Features Factors. Vol. 44 No. S7 (2023)

3. Boboqulova, N. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQANDDA ILM-FAN VA MADANIYAT. *Академические исследования в современной науке*, *4*(17), 86–89.

4. L. Kholikov. FEATURES OF INTERNATIONAL RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. Development of pedagogical technologies in modern sciences 7 (10). 2023.

[108] Boboqulova, N. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQANDDA ILM-FAN VA MADANIYAT. *Академические исследования в современной науке*, *4*(17), 86–89.

# AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI

**Yo‘ldosheva Gulshan** Navoiy Davlat Universiteti
Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi
**Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD) Ashirov V.I.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamda diplomatik aloqalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Temuriylar davrida savdo yo‘llari va diplomatik munosabatlarning shakllanishi ilmiy jihatdan yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Temuriylar davlati, diplomatiya, savdo yo‘llari, Markaziy Osiyo, Yevropa, xalqaro munosabatlar

**Аннотация .** В статье анализируется роль Амира Темура в развитии политических, экономических и дипломатических связей между Центральной Азией и Европой. Особое внимание уделяется формированию торговых путей и дипломатических отношений в эпоху Темуридов.

**Ключевые слова:** Амир Темур, государство Тимуридов, дипломатия, торговые пути, Центральная Азия, Европа

**Annotation.** This article analyzes the role of Amir Temur in developing political, economic, and diplomatic relations between Central Asia and Europe. Particular attention is given to the formation of trade routes and diplomatic contacts during the Timurid era.

**Keywords:** Amir Temur, Timurid state, diplomacy, trade routes, Central Asia, Europe.

Amir Temur XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Markaziy Osiyoda yirik siyosiy va iqtisodiy markaz tashkil etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Uning davlat boshqaruvi, tashqi siyosati va savdo aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yevropa davlatlari bilan ham hamkorlikning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo‘lining faoliyati tiklanib, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo hamda diplomatik aloqalar yangi bosqichga ko‘tarilgan [1; 12-B.].

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur o‘z davlatining iqtisodiy qudratini mustahkamlash maqsadida savdo yo‘llarini himoya qilish, karvon yo‘llarini ta’mirlash hamda savdogarlarga qulay sharoit yaratishga alohida e’tibor qaratgan. Bu esa Markaziy Osiyo orqali Yevropa bilan savdo aloqalarining kengayishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, Temur Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalarni ham rivojlantirib, o‘z davrining xalqaro siyosatida muhim rol o‘ynagan [2;27-B.].

Mazkur maqolaning maqsadi Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rnini tarixiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Amir Temurning siyosiy faoliyati va xalqaro munosabatlar tarixidagi o‘rni ko‘plab tarixchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida Temurning harbiy yurishlari va diplomatik aloqalarini batafsil bayon qilgan [3;45-B.]. Ushbu asar Temuriylar davri tarixini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy tarixshunoslikda ham Amir Temur faoliyati keng o‘rganilgan. O‘zbekistonlik tarixchi olimlar Temuriylar davrining iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida Temur davlatining xalqaro savdo tizimidagi o‘rni va Yevropa davlatlari bilan diplomatik munosabatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan [4;63-B.].

Maqolada tarixiy-taqqoslash, tizimli tahlil hamda tarixiy manbalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar Amir Temurning xalqaro aloqalar tizimida tutgan o‘rnini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, tarixiy manbalardagi ma’lumotlar statistik va tarixiy tahlil usullari yordamida umumlashtirildi.

Amir Temur davlatining tashqi siyosati ko‘p jihatdan savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan edi. XIV asr oxirlarida Temuriylar davlati Markaziy Osiyoning yirik savdo markaziga aylangan. Samarqand shahri esa xalqaro savdo va diplomatik aloqalarning markazi sifatida faoliyat yuritgan [5; 71- B.]. Temuriylar davrida Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalar ham faol rivojlangan. Masalan, 1403–1406-yillarda Ispaniya qiroli tomonidan Samarqandga elchi sifatida yuborilgan Rui Gonsales de Klavixo Temur saroyiga tashrif buyurib, o‘z safar xotiralarini

yozib qoldirgan. Bu asar Temur davridagi Markaziy Osiyo va Yevropa aloqalarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi [6; 52-B.].

Temuriylar davrida Markaziy Osiyo orqali o‘tgan savdo yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

**1-jadval. Temuriylar davrida Markaziy Osiyo orqali o‘tgan asosiy savdo yo‘llari**

| Savdo yo‘li | Yo‘nalish | Asosiy savdo mahsulotlari |
|---|---|---|
| Samarqand – Eron – Turkiya | Markaziy Osiyo – Yaqin Sharq – Yevropa | ipak, ziravorlar, metall buyumlar |
| Samarqand – Xitoy | Markaziy Osiyo – Sharqiy Osiyo | ipak, chinni buyumlar |
| Samarqand – Qora dengiz | Markaziy Osiyo – Yevropa | matolar, qimmatbaho toshlar |

Savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida Temuriylar davlati iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, Markaziy Osiyo xalqaro savdo tizimining muhim qismiga aylangan.

**2-jadval. Amir Temur davrida Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalar**

| Davlat | Aloqa turi | Natijasi |
|---|---|---|
| Ispaniya | elchilik almashinuvi | Samarqandga Klavixo elchiligi |
| Fransiya | diplomatik yozishmalar | siyosiy ittifoq muhokamasi |
| Angliya | savdo aloqalari | savdogarlar uchun yo‘llar ochilishi |

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur o‘z davrida xalqaro siyosiy muvozanatni saqlashga harakat qilgan va Yevropa davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish orqali savdo va diplomatiyani mustahkamlashga erishgan.

Amir Temur Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va diplomatik aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan tarixiy shaxs hisoblanadi. Uning davlat boshqaruvi tizimi, savdo yo‘llarini rivojlantirish siyosati hamda xalqaro diplomatiyaga e’tibori natijasida Temuriylar davlati o‘z davrining eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan.

Temuriylar davrida Samarqand shahri xalqaro savdo va madaniy almashinuv markaziga aylangan. Bu esa Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, Yevropa davlatlari bilan o‘rnatilgan diplomatik munosabatlar Temuriylar davlatining xalqaro maydondagi nufuzini oshirgan.

Shuningdek, Amir Temur savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash, savdogarlar uchun qulay sharoit yaratish hamda iqtisodiy aloqalarning kengaytirish orqali Markaziy Osiyoning global savdo tizimidagi o‘rnini mustahkamlashga erishgan. Natijada, Temuriylar davlati Sharq va G‘arb o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim vositachi sifatida faoliyat yuritgan.

Umuman olganda, Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi faoliyati bugungi kunda ham xalqaro munosabatlar tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ahmedov B. Amir Temur tarixi. Toshkent: Fan, 1996.
2. Azamat Ziyo O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent: Sharq, 2000.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma. Toshkent: Fan, 1997.
4. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi. Toshkent: Universitet, 2005.
5. Karimov I. Amir Temur haqida fikrlar. Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
6. Klavixo R. Samarqandga sayohat kundaligi. Toshkent: Sharq, 1990.

## TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MA’DANIY HAYOT

**Nasimova Munisa** Navoiy davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi
**Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) Ashirov V.I.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Temuriylar davri tamaddunining o‘ziga xos xususiyatlari, ilm-fan tarmoqlari rivoji va madaniy hayotdagi tub burilishlar ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, davrning intellektual salohiyati va uning jahon sivilizatsiyasiga ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar renessansi, ilm-fan, madaniyat, astronomiya, me’morchilik, ma’naviyat, Amir Temur, Ulug‘bek akademiyasi.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируются особенности цивилизации эпохи Тимуридов, развитие отраслей науки и коренные повороты в культурной жизни. Также освещается интеллектуальный потенциал эпохи и его влияние на мировую цивилизацию.

**Ключевые слова:** Тимуридский ренессанс, наука, культура, астрономия, архитектура, духовность, Амир Темур, академия Улугбека.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the characteristics of the Timurid civilization, the development of science branches, and fundamental shifts in cultural life. The intellectual potential of the era and its impact on world civilization are also highlighted.

**Key words:** Timurid Renaissance, science, culture, astronomy, architecture, spirituality, Amir Temur, Ulugbek Academy.

Insoniyat tarixida madaniyat va ilm-fanning yuksalishi muayyan davrlarda markazlashgan kuchli davlatchilik tizimi bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan Temuriylar saltanati nafaqat siyosiy-iqtisodiy qudrati, balki intellektual taraqqiyoti bilan ham dunyo tamaddunida “Temuriylar Renessansi” nomini oldi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan ushbu ulug‘vor davlatda ilm-fan va madaniyat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi, zero hukmdorning “Kuch — adolatda” tamoyili ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. Ushbu davrda Samarqand, Hirot va Buxoro kabi shaharlar jahonning yirik ilmiy markazlariga aylanib, bu yerda dunyoning turli chekkalaridan kelgan olimlar, shoirlar va me’morlar faoliyat yuritganlar.

Temuriylar davri madaniy hayoti o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi: bu yerda aniq fanlar (astronomiya, matematika) bilan bir qatorda, gumanitar fanlar (tarixnavislik, adabiyotshunoslik) va tasviriy san’at (miniatyura, xattotlik) yuqori cho‘qqilarga ko‘tarildi. Maqolaning maqsadi ushbu davrdagi ilmiy izlanishlarning fundamental ahamiyatini ochib berish va madaniy merosning bugungi kungi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Temuriylar davri ilm-fani va madaniyatini o‘rganishda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning asarlari muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, V.V. Bartoldning Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha fundamental tadqiqotlari, shuningdek, A.Yu. Yakubovskiy va M.E. Massonning arxeologik va madaniy izlanishlari ushbu davrning moddiy madaniyatini tushunishga yordam beradi [1; 45-B.]. Mahalliy olimlardan Bo‘riboy Ahmedovning Amir Temur va uning avlodlari faoliyatiga doir asarlari davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasini aniq chizib bergan bo‘lsa, E. Rtveladze va A. Muhammadjonovlarning tadqiqotlari me’morchilik va fan taraqqiyotini yoritishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [2; 112-B.].

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Davr manbalari — “Zafarnoma” (Sharofddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy), “Boburnoma” kabi asarlar birlamchi manba sifatida o‘rganilib, ulardagi ma’lumotlar zamonaviy ilmiy xulosalar bilan chog‘ishtirildi. Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot Temuriylar davri renessansini faqatgina mintaqaviy hodisa emas, balki umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.

Temuriylar davrida ilm-fanning rivoji bevosita hukmdorlarning shaxsiy homiyligi va ilmiy salohiyati bilan bog‘liq edi. Masalan, Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqandda qurilgan rasadxona va unda olib borilgan kuzatishlar natijasida yaratilgan "Ziji jadidi Ko‘ragoniy" asari astronomiya fanini bir necha asrga ilgarilab ketishiga sabab bo‘ldi. Ushbu jadvalda 1018 ta qo‘zg‘almas yulduzning holati va koordinatalari mislsiz aniqlikda ko‘rsatilgan [3;78-B.]. Shuningdek, madaniy hayotda tasviriy san’at, xususan, Behzod asos solgan Hirot miniatyura maktabi Sharq Uyg‘onish davrining eng go‘zal namunalarini yaratdi.

Me’morchilikda esa “Koshinkori” va “Kundal” uslublarining keng qo‘llanilishi, binolarning mahobatli va mutanosib bo‘lishi Temuriylar davri muhandislik tafakkurining yuksakligidan dalolat beradi. Quyidagi jadvallarda davrning ilmiy va madaniy ko‘rsatkichlari tahliliy aks ettirilganligini o‘rganib chiqishimiz mumkin.

**1-jadval:**

***Temuriylar davridagi asosiy ilmiy yo‘nalishlar va markazlar***

| **Ilmiy yo‘nalish** | **Asosiy markazlar** | **Taniqli namoyandalar** |
|---|---|---|
| Astronomiya va Matematika | Samarqand | Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy |
| Tarixnavislik | Hirot, Samarqand | Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir |
| Adabiyot va Tilshunoslik | Hirot | Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Sayfi Saroyi, Durbek, Bobur |
| Tibbiyot va Falsafa | Buxoro, Hirot | Mansur ibn Muhammad, Jaloliddin Davoniy |

**2-jadval:**
**Temuriylar me’morchiligining o‘ziga xosligi va mashhur obidalar**

| **Obida nomi** | **Joylashgan o‘rni** | **Qurilgan yillari** | **Ahamiyati** |
|---|---|---|---|
| Bibixonim masjidi | Samarqand | 1399-1404 | Islom olamidagi eng yirik masjidlardan biri |
| Go‘ri Amir maqbarasi | Samarqand | 1403-1404 | Markaziy Osiyo gumbazli me’morchiligining cho‘qqisi |
| Ulug‘bek madrasasi | Samarqand | 1417-1420 | O‘rta asrlarning oliy o‘quv yurti (Universiteti) |
| Musallo majmuasi | Hirot | XV asr | Temuriylar davri Hirot madaniyatining ramzi |

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida shakllangan. Davlat tomonidan ilm egalariga berilgan imtiyozlar va yaratilgan sharoitlar natijasida intellektual tabaqa jamiyatning yetakchi kuchiga aylangan.

Temuriylar davri ilm-fan va madaniy hayotini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, ushbu davrda yuz bergan yuksalish shunchaki tasodifiy hodisa emas, balki Amir Temur tomonidan asos solingan kuchli markazlashgan davlat va adolatli boshqaruv tizimining tabiiy mahsulidir. Sohibqironning “Ilm ahli bilan suhbatda bo‘lish” haqidagi o‘gitlari uning vorislari, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek va Shohruh Mirzo tomonidan munosib davom ettirildi, bu esa fan va san’atning uzluksiz rivojlanishini ta’minladi. Ikkinchinchidan, Temuriylar renessansi nafaqat mintaqaviy doirada cheklanib qolmadi, balki butun Islom olami va keyinchalik Yevropa uyg‘onish davriga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mirzo Ulug‘bekning astronomik jadvallari, Alisher Navoiyning turkiy til rivojiga qo‘shgan hissasi, Behzodning miniatyura san’ati jahon madaniy xazinasining ajralmas qismiga aylandi. Uchinchidan, ushbu davr me’morchiligi va san’ati o‘zining texnologik va estetik yechimlari bilan insoniyat tafakkuri nechoqlik yuksaklikka ko‘tarila olishini isbotladi. Bugungi kunda ushbu boy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish yosh avlodning ma’naviy kamoloti va milliy o‘zligini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davri tamadduni bizga shuni o‘rgatadiki, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti tinchlik, barqarorlik va davlat g‘amxo‘rligi mavjud bo‘lgan joydagina yuksak cho‘qqilarga erisha oladi. Shuning uchun ham ushbu davr merosini zamonaviy ilm-fan nuqtai nazaridan qayta-qayta tadqiq etish dolzarb vazifa bo‘lib qolaveradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bartold V.V. Ulug‘bek va uning davri. – Toshkent: Fan, 1994.
2. Ahmedov B. Amir Temur: Tarixiy-biografik ocherk. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
3. Muhammadjonov A. Amir Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1994.
4. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
5. Rtveladze E.V. Amir Temur va jahon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996.
6. Xodiyev B.Y. va bosh. Siyosatshunoslik fanidan o‘quv uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: TDIU, 2005.

# TEMURIYLAR AVLODI ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING SIYOSIY VA HUQUQIY QARASHLARI

**Jo‘rayeva Nargiza Milliy g‘oya,**
**ma’naviyat asoslari va huquq**
**ta’limi yo‘nalishi talabasi**
**Ilmiy rahbar t.f.f (PhD) J.Arziqulov**

Tarix sahifalaridan munosib o‘rin egallagan buyuk vatandoshlarimizdan biri yozuvchi va shoir, sarkarda va davlat arbobi Zahriddin Muhammad Bobur. Bobur 1483-yil 14-fevralda Farg‘ona viloyati (ulusi)ning poytaxti Andijonda tug‘ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temur nabirasi Sulto Abusaid Mirzo katta o‘g‘li bo‘lib, Farg‘ona viloyatining hokimi edi. Onasi-Qutlug‘ Nigorxonim Toshkent hokimi Yusufxonning qizi hisoblanadi.

1494-yilning yozida Umarshayx Mirzo bevaqt vafot etgach, 12 yoshda Bobur taxtga o‘tiradi. U hali yosh bo‘lishiga qaramasdan, mamlakatni munosib boshqara boshlaydi. Ma’lumki o‘sha davrda Amir Temur yaratgan saltanat tanazzulga yuz tutgan edi. Bobur Amir Temur saltanatini qayta tiklash maqsadida Samarqandga uch bor yurish qiladi.

Dastlab 1495-1496 yillarda Samarqandni ishg‘ol etadi, ukasi Jahongir Mirzo va tog‘asi Ali Do‘st Andijonda fitna uyushtirgach orqaga qaytadi. Ikkinchi marotaba 1499-1500 yillarda Samarqandga yurish qiladi, ammo Shayboniylardan yengilgach Toshkentga chekinadi. Uning so‘ngi marta 1512-yilda Samarqandni Eron shohi Ismoil Safaviy yordamida bosib olishi muvaffaqqiyatsiz tugaydi. Shundan keyin, Bobur yuzaga kelgan ziddiyatli siyosiy shart-sharoit tufayli vatanini tashlab ketishga majbur bo‘ladi va Afg‘oniston tomon yo‘l oladi.

Bobur 1512-yilda Kobulni egallab, u yerda qaror topadi, Afg‘onistonda o‘z hokimyatini mustahkamlaydi va ijod bilan shug‘illanadi. U o‘zga yurtda doimo vatanni qumsab yashaydi. Boburning vatanga qaytish orzusi amalga oshavermagach, Hindistonni egallashga qaror qiladi va 1519-1525 yillar Hindistonga bir necha martda yurish qiladi. Nihoyat, 1526-yilning aprel oyida Panipat jangida Sulton Ibrohim Ludiyni yengib, Dehli va Agra shaharlarini egallaydi va Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soladi. Shunday qilib Bobur hayotining so‘ngi yillarini Hindistonda o‘tkazadi va 1530-yil 26-dekabrda vafot etadi.

Bobur Mirzo taniqli sarkarda va davlat arbobi bo‘lishi bilan birga, buyuk yozuvchi va va shoir ham edi. U qisqa umr ko‘rishiga qaramasdan, jahonga mashhur bo‘lgan “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Aruz risolasi” va “Xatti Boburiy” kabi asarlarni yaratishga ham ulgurdi. Albatta, Bobur yaratgan asarlari orasida eng nodiri “Boburnoma” qomusiy asaridir. Mashhur venger sharqshunos olimi Herman Vamberi bu asarni “Sharq Sezarining kommentariyasi”-deb ta’riflaydi[109]

Boburnoma uch qismdan iborat. Birinchi qismda 1493-yildan 1512-yilgacha Movaunnahrda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar haqida bayon qilinadi. Ikkinchi qism 1512-1524 yillarda Afg‘oniston (Kobul ulusi)dagi voqea-hodisalar bilan bog‘liq. Uchinchi qismda esa, 1525-1529 yillarda Shimoliy Hindistondagi siyosiy voqea va hodisalar haqida yozilgan.

“Boburnoma”da 1509-1518 yillar, 1521-1524 va 1529-1530 yillarda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yo‘qolganligi sababli berilmagan. Ma’lumki Bobur o‘z asarlarida boshqa masalalar qatori, siyosiy va huquqiy masalalarga to‘xtalib o‘tgan. U o‘zining davlat haqidagi qarashlarida davlatni ikki turga bo‘lib ko‘rsatadi.

1. Adolatli, markazlashgan davlat.
2. Adolatsiz, tarqoq davlat.

Bobur doima adolatli, markazlashgan davlat tarafdori bo‘lgan va davlatni odil, adolatparvar podsho yoki shoh boshqarishi kerak deb hisoblagan. Uning fikricha, davlat boshlig‘i hamisha oddiy, mehnatkash xalq haqida o‘ylashi va g‘amxo‘rlik qilishi zarur:

“Davlatqa etib mehnat elin unutma
Bu besh kun uchun o‘zingni asru tutma” [110]

Bobur davlatni boshqarishda diniy e’tiqod va vijdon erkinligi masalalariga ham katta e’tibor bergan hamda o‘g‘illari Humoyun Mirzo va Kamron Mirzolarga ham ushbu masalalar yuzasidan

[109] Bobur Z.M. Boburnoma. T., Sharq, 23-bet.
[110] Bobur. Tanlangan asarlar. T., “O’qituvchi”. 1996, 74-bet.

oqolona maslahatlar bergan. Jumladan, o‘g‘li Nasriddin Muhammad Humoyunga atalgan vasiyatida shunday deb yozgan: “…Ey farzand! Hindiston mamlakati turli mashablardan iborat. Subhanollo taolo haqqi senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo‘l.

Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hindiston xalqning qalb ardog‘li va bu viloyata ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog‘lanadi. Podshoh farmoniga bo‘ysungan xalqni xarob qilmagin.

Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo‘ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig‘i bilan yaxshiroqdir, zulm tig‘i bilan emas. Ahli sunnat va shialarning ikir-chikirlaridan ko‘zingni yum. Chunki islomga qarshilar bor. Turli e’tiqodlarga xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan holi bo‘ladi.

Hazrat Amir Temurning ish yuritishlari doimo yodingda bo‘lsin. Shunda davlatining ma’mur va puxta bo‘ladi”[111]. Boburning huquqiy qarashlari asosan uning “Mubayyin” asarida o‘z ifodasini topgan. Mubayyin islom dini asoslarini bayon etuvchi yirik asar bo‘lib besh qismdan ibarat.

1. E’tiqodiya.
2. Kitob-u-s-salot;
3. Kitob-u-z-zakot;
4. Kitob-u-s-savm;
5. Kitob-u-l-haj.

Ma’lumki Bobur o‘z saltanatida asosan shariat qonun qoidalariga amal qililb ish tutgan. Lekin ba’zi bir sohalarda mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqib yangi qonun-qoidalarni ham qo‘llagan va islohotlar o‘tkazgan. Masalan: u o‘sha davrda Hindistonda amal qilgan soliqlar tizimini o‘zgartiradi. Savdodan olinadigan “tamg‘a” solig‘ini bekor qildi. Boburning “tamg‘a”ni bekor qilish haqidagi farmoni Hindiston shaharlaridagi ichki bozorni qo‘shni davlatlardan to‘xtovsiz olib kelinayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari va boshqa mollar bilan to‘ldirib yubordi. Bu hol nafaqat Hindistonning savdo ahliga, balki oddiy xalq ommasiga ham manzur bo‘ldi. Shunday tadbirlar Boburning Hindistondagi davlatini mustahkamlab olishiga imkon berdi.

Bobur Hindistonda ekan, Movarounnahr, Xuroson va Eron bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalarni mustahkamlashga urindi. Biroq Movarounnahr va Xurosonda Shayboniyxon mavqeining mustahkamlanishi bunga imkon bermadi. Shu bois Bobur Hindistonning ko‘proq Qobul ulusi bilan savdo va madaniy aloqalarini mustahkamlashga kirishdi. Qobul ulusidan Hindistonga o‘tadigan yo‘llarni xavf-xatardan holi qilmay turib, Qobul-Hindiston savdo aloqalarini rivojlantirib bo‘lmasligini Bobur yaxshi bilar edi. Bobur o‘zining Chaqmoqbek nomli amiriga Agradan to Qobulgacha bo‘lgan masofani o‘lchab buyurgani haqida “Boburnoma”da ma’lumot bor. Chunki Bobur bu yo‘ldagi mavjud hamma kamchilik va to‘siqlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan edi. U yozadi: “har to‘qqiz kuruhda minor qo‘pg‘oylarkim minorning balandligi o‘n ikki qari bo‘lg‘on. Ustida bir chodra qo‘pg‘oylar. Har o‘n sakkiz quruhda olti yom ot bog‘lag‘oylar. Yomchi va sayisga ulufa va otlarga oliq ta’in bo‘lg‘oy. Andoq farmon bo‘ldikim, bu yom oti bog‘latur yer agar bir xolisag‘a yovuq bo‘lsa, bu mazkur bo‘lgonlarni andin saranjom qilsunlar, yo‘q ersa har bekning parkonasida voqe’ bo‘lsa, aning uhdasida qilsunlar. Ushbu kun chaqmoq bila Shohiy Agrodin chiqqdilar. Bu kuruhlarni mil bila muvofiq ta’in qilidi. Nechukkim «Mubayyin»da, mazkurdur» deb yozadi Bobur.

Bobur davlat tomonidan yer-mulkdan, daromaddan yig‘iladigan xiroj, ushr kabi soliqlarning hajmi va to‘lanadigan vaqtini ko‘rsatish bilan bir qatorda zakot to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk turlarini sanab o‘tadi. Bu soliq turlari to‘rt xil: naqd puldan, chorva mollaridan, tijoratdan va yer mahsulotlaridan olinadigan so- liqlar. Bu holni muallif “Mubayyinda” quyidagicha ifodalaydi.

To‘rt qism o‘ldi barcha moli zakot, Tut quloq, dey barig‘a bir-bir ot. Biri naqdina, biri savoim bil, Yana moli tijorat, eshitgil. Yana yerdan chiqor zakotin ber, Bilki, sharh ahli bularda ne der.

Bobur “Mubayyin”da yuqorida nomlari keltirilgan hamma soliqlarning hajmlarini aniq bayon etadi va u agar yerdan bir yilda dehqon ikki marta ekin yig‘ib olsa, soliqlarni ham ikki marta, yil boshida va oxirida to‘lash lozimligini qayd qiladi.

Movarounnaxr faqihlariga deb atalgan bu she’rning matni quyidagicha:

[111] Bobur. Z.M. Boburnoma. Toshkent. “Sharq” 2002, 331-bet.

Movarounnahrning faqihlari, Go‘sh qilsunlar ushbu so‘zni bari.Fiqhdan men bu nazmkim qildim, Bu masoilki dedimu bildim, Bo‘lsa muft ushbu masalalar,Fiqh eliga pisand tushsa agar, Fiqh ilmida ushbu xitta aro, Qimki ul bo‘lsa olimu ulamo, Iltimosim budur maning andin: Bitkay sharh o‘qib «Mubayyin»din, Forsi til bila bayon etkay; Anda der nuktani ayon etkay. Qilsa bu yo‘lni qat’ oning oyog‘i, Mujda tobqoy xudo-yi muzd dog‘i.

Bundan ko‘rinadiki, Zahiriddin Muxammad Boburning nafaqat tarixnavis olim bo‘lgan, balki yirik shoir, shu bilan bir yetuk huquqshunos bo‘lganligiga ham ishonch hosil qilamiz.

## “AMIR TEMUR DAVLATINING G‘ARBIY YEVROPA QIROLLIKLARI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI”

**SamDU Tarix fakulteti PhD. Maxamadiyev G‘ayrat**
**SamDU Tarix fakulteti 3-kurs talabasi Xudoyberdiyev To‘lqin**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur davlatining G‘arbiy Yevropa qirolliklari bilan diplomatik munosabatlari, XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi xalqaro siyosiy vaziyat hamda Usmoniylar imperiyasining kuchayishi fonida yuzaga kelgan geosiyosiy jarayonlar tahlil qilinadi. Xususan, 1396-yil Nikopol jangidan keyin Yevropa davlatlarining Amir Temur bilan aloqalar o‘rnatishga bo‘lgan intilishi, Amir Temur va Usmoniylar sultoni Boyazid I o‘rtasidagi maktublashuvlar, 1402-yil Anqara jangi hamda Yevropa elchilari, jumladan ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning Samarqandga safari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur davlati, G‘arbiy Yevropa, diplomatik munosabatlar, Boyazid I, Anqara jangi, Klavixo, savdo aloqalari, elchilik.

O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur 1370-yil Movarounnahrda hokimiyatni qo‘lga olgach, markazlashgan davlat barpo etishga kirishdi. Uning siyosatida davlat chegaralarini mustahkamlash va xalqaro aloqalarni rivojlantirish muhim o‘rin egalladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Amir Temur yashagan davr murakkab siyosiy vaziyat bilan tavsiflanadi. Bu davrda u bir tomondan mo‘g‘ul xavfiga qarshi kurashishi, ikkinchi tomondan esa Buyuk ipak yo‘li ustidan nazoratni qo‘lga kiritishi zarur edi. Shu sababli u faol va aniq rejalarga asoslangan tashqi siyosat olib bordi [1.28].

Amir Temur davlatni mustahkamlash maqsadida dastlab Movarounnahr va unga qo‘shni hududlarni o‘z tasarrufiga oldi. 1371-yilda Sharqiy Turkiston tomonga yurish qilib, Farg‘ona vodiysi, O‘tror, Yassi va Sayram hududlarini egalladi. Shuningdek, Hisor, Badaxshon va Qunduz hokimlari ham uning hokimiyatini tan oldilar [2.186].

Keyingi yillarda Xorazm ustiga bir necha marotaba yurishlar amalga oshirildi va natijada bu hudud Temuriylar davlatiga qo‘shib olindi. Bundan tashqari, Mog‘uliston xonlari bilan ham uzoq davom etgan kurashlar olib borildi. 1389-yilgi yurishdan so‘ng Mog‘uliston Temur davlatiga qaram bo‘lib qoldi [2.187].

Natijada XIV asr oxiriga kelib Temur davlati Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo va boshqa hududlarni o‘z ichiga olgan qudratli davlatga aylandi. Bu davrda u Usmoniylar imperiyasi, Misr mamluklari davlati va Oltin O‘rda kabi davlatlar bilan siyosiy aloqalarga kirishdi [7.122].

Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalar qadimdan mavjud bo‘lib, savdo va diplomatik munosabatlar orqali rivojlanib kelgan. Biroq XIV asr o‘rtalariga kelib Eron va Iroq hududlarida mo‘g‘ullar hukmronligining tugashi hamda Oltin O‘rda davlatining kuchsizlanishi natijasida G‘arb savdogarlari uchun Sharq bozorlari qisman yopildi [3.109].

Bu davrda Yevropa uchun yana bir muhim xavf — Usmoniylar davlatining kuchayishi edi. Boyazid I boshchiligidagi usmoniy qo‘shinlari Bolqon yarimorolidagi ko‘plab hududlarni egallab, Yevropaga tahdid sola boshladi. 1396-yilda Nikopol jangi da Yevropa davlatlari tuzgan salibchilar qo‘shini tor-mor etildi. Bu esa butun Yevropani sarosimaga solib qo‘ydi [4.83].

Shu sababli Yevropa davlatlari Usmoniylarga qarshi kuchli ittifoqchi izlay boshladilar va ularning e’tibori Amir Temur davlatiga qaratildi. 1394–1402-yillar davomida Vizantiya imperiyasi, Genuya va Venetsiya respublikalari Amir Temur bilan aloqalar o‘rnatishga harakat qildilar.

Bu ittifoqning asosiy maqsadi Usmoniylarga qarshi birgalikda kurashish edi. Unga ko‘ra, Yevropa davlatlari Temur qo‘shinlarini dengiz orqali qo‘llab-quvvatlashi va turk qo‘shinlarining Yevropaga o‘tishiga to‘sqinlik qilishi kerak edi [5.133].

Shuningdek, bu davrda Amir Temur bilan Yevropa hukmdorlari o‘rtasida diplomatik yozishmalar ham olib borildi. Xususan, Karl VI va Henry IV bilan maktublar almashilgan. Ushbu maktublarda savdo aloqalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [3.113].

Amir Temur va Boyazid I o‘rtasidagi ziddiyat oxir-oqibat 1402-yilda Anqara jangi ga olib keldi. Bu jang o‘rta asrlar tarixidagi muhim voqealardan biri bo‘lib, unda Amir Temur qo‘shinlari g‘alaba qozondi va Boyazid asirga olindi.

Mazkur g‘alaba Yevropa davlatlari uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki Usmoniylar imperiyasining Bolqon hududlaridagi ekspansiyasi vaqtincha to‘xtatildi va Vizantiya imperiyasi yana qariyb yarim asr yashash imkoniyatiga ega bo‘ldi [3.111].

Shundan so‘ng Usmoniylar davlatida 1402–1413-yillarda siyosiy beqarorlik davri yuzaga keldi. Bu davr tarixda “Fetret davri” nomi bilan ma’lum bo‘lib, sultonning o‘g‘illari o‘rtasidagi kurash bilan kechdi [6.156].

Shunga qaramay, Amir Temur Usmoniylar davlatini butunlay yo‘q qilmagan. U Boyazidning o‘g‘illariga davlat hududlarini bo‘lib berib, siyosiy muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bu esa uning uzoqni ko‘ra oladigan siyosiy strategiyasini ko‘rsatadi [1.93].

Amir Temur saroyiga kelgan eng mashhur elchilardan biri ispan elchisi Ruy González de Clavijo bo‘lib, u Henry III of Castile tomonidan yuborilgan edi.

Klavixo 1403-yilda Sevilya shahridan yo‘lga chiqib, uzoq safardan so‘ng 1404-yilda Samarqand ga yetib keladi. U o‘z safarnomasida Temur saroyidagi qabul marosimlari, shahar hayoti, savdo aloqalari va diplomatik protokollar haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.

Klavixoning yozishicha, Samarqandda elchilar katta tantana bilan kutib olingan. 1404-yil 8-sentabrda Amir Temur elchilar sharafiga katta ziyofat uyushtirgan. Qabul marosimi Temurning Dilkusho bog‘ida o‘tkazilgan va unda hukmdorning xotinlari ham qatnashgan [11.9].

Klavixo shuningdek Samarqandning boy bozorlari, hunarmandchilik ustaxonalari va savdo rastalari haqida ham yozib qoldirgan. Bu ma’lumotlar Temuriylar davlati iqtisodiy jihatdan rivojlanganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davlatining Yevropa qirolliklari bilan diplomatik munosabatlari XIV–XV asrlar xalqaro siyosiy tizimida muhim o‘rin tutgan. Usmoniylar davlatining kuchayishi fonida Yevropa davlatlari Amir Temur bilan ittifoq tuzishga intilgan.

1402-yildagi Anqara jangidagi g‘alaba esa Yevropani usmoniylar bosqinidan vaqtincha bo‘lsa-da saqlab qoldi. Shundan so‘ng Amir Temur bilan Fransiya, Angliya va Ispaniya qirolliklari o‘rtasida diplomatik aloqalar rivojlandi.

Bundan tashqari, Amir Temur tashqi siyosatda savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. U savdogarlar xavfsizligini ta’minlash va Buyuk ipak yo‘li faoliyatini tiklash orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki mohir diplomat sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Uning “Kuch adolatdadir” degan shiori davlat boshqaruvida adolat va tartib ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘ljayeva Sh. **Amir Temur diplomatiyasi.** – Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. **O‘zbekiston tarixi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
3. **Amir Temur jahon tarixida.** – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1996.
4. Salimov O‘., Sultonov F. **Jahon tarixi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Usmonov A. **O‘zbekiston tarixi: Amir Temur va Temuriylar davri siyosiy tarixi.** – Farg‘ona, 2024.
6. Sarimsokov A., Dehqonov N. **Jahon tarixi.** – Toshkent, 2021.
7. Muhammadjonov A. **O‘zbekiston tarixi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
8. Bilib oling. Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi maktublar.
9. ZRF Temuriylar tarixi portali. Temuriylar davri tarixiga oid materiallar.
10. Ruy Gonzales de Klavixo Samarqandga safar kundaligi.
11. Fayziyev T. **Temuriy malikalar.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.

# YOSHLAR TARBIYASIDA SOHIBQIRON MEROSINING MA’NAVIY-AXLOQIY AHAMIYATI

**Nuritdinov Salohiddin Kamoliddin o‘g‘li**
**Jizzax politexnika instituti 1-bosqich talabasi**
**+998 (90) 488-33-20 salohiddin.3320@gmai.com**

**Gapparov Bexzod Nematillayevich**
**Jizzax politexnika instituti**
**“Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsent v.b.**
**+998 (99) 556-06-50 bexzodgapparov132@gmail.com**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolamizda Amir Temur (Sohibqiron) merosining hozirgi kun yoshlari ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Unda Sohibqironning davlatchilik tamoyillari, adolat va qonun ustuvorligi, ilm-fanga hurmat kabi g‘oyalari millat ruhi va ma’naviy qudrat timsoli sifatida talqin qilingan. Shuningdek, Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilayotgan milliy taraqqiyot va ma’naviy yuksalish konsepsiyasi doirasida tarixiy merosga tayanishning ahamiyati yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Sohibqiron, Amir Temur merosi, millat ruhi, ma’naviy qudrat, yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlik, davlatchilik, adolat tamoyili, liderlik, vatanparvarlik, ma’naviy yuksalish, Shavkat Mirziyoev qarashlari, ta’lim-tarbiya, fanlararo integratsiya.*

Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va yoshlarda mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda buyuk ajdodlar merosi tarbiyaning muhim manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, Amir Temur (Sohibqiron) shaxsiyati va uning davlatchilik an’analari yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda millat ruhi va ma’naviy qudrat timsoli sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilayotgan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot g‘oyasida ham milliy merosga tayanish, buyuk ajdodlar tajribasini zamonaviy islohotlar bilan uyg‘unlashtirish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Amir Temur - kuchli davlatchilik asoschisi. Amir Temur XIV asrda Markaziy Osiyoda markazlashgan qudratli davlat barpo etgan. Poytaxt sifatida Samarqand shahrini tanlagan va uni jahon sivilizatsiyasining ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylantirgan.

Uning “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvi quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- Adolat va qonun ustuvorligi
- Intizom va mas’uliyat
- Ilm ahliga ehtirom
- Strategik fikrlash

Bu g‘oyalar bugungi kunda ham davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Millat ruhi va ma’naviy qudrat tushunchasi Sohibqiron obrazida:

- Vatanparvarlik,
- Qat’iyat va iroda,
- Liderlik salohiyati,
- Ilmga intilish

kabi fazilatlar mujassam. Bu xususiyatlar yoshlar tarbiyasida namunaviy shaxs konsepsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Shavkat Mirziyoev o‘z nutqlarida buyuk ajdodlar merosini “milliy taraqqiyotimizning mustahkam poydevori” sifatida baholaydi. U kishi bir necha bor Amir Temur shaxsiyatini:

- kuchli davlat ramzi,
- adolat va qonun ustuvorligi tarafdori,
- ma’rifatparvar hukmdor

- sifatida ta’kidlagan.

Prezident fikricha, yoshlar tarixini chuqur bilsa, ularda milliy g‘urur va mas’uliyat tuyg‘usi kuchayadi.

Prezident tashabbusi bilan:

- Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyati takomillashtirildi;
- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida temurshunoslik tadqiqotlariga e’tibor kuchaytirildi;
- Samarqand shahri xalqaro madaniy markaz sifatida rivojlantirilmoqda.

Bu ishlar Sohibqiron merosini nafaqat tarixiy yodgorlik, balki ma’naviy-mafkuraviy resurs sifatida talqin qilishga xizmat qilmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonida integratsion yondashuv

1. Fanlararo integratsiya:

| **Fan** | **Qo‘llanish shakli** | **Tarbiyaviy natija** |
|---|---|---|
| Tarix | Temur davlatchiligi tahlili | Davlatchilik tafakkuri |
| Huquq | Qonun ustuvorligi misoli | Fuqarolik mas’uliyati |
| Adabiyot | Temur obrazi tahlili | Milliy g‘urur |
| Menejment | Strategik boshqaruv keysi | Liderlik ko‘nikmasi |

Innovatsion pedagogik texnologiyalar.

- Keys-stadi: “Temurning strategik qarorlari”
- Rolli o‘yinlar: “Sarkarda kengashi”
- Debat: “Kuchli davlat - kuchli ma’naviyat asosida”
- Loyiha ishlari: “Samarqand - Temur davrida ilmiy markaz”

Amir Temur maqbarasi va Registon maydoni kabi obidalarga sayohatlar yoshlarda tarixiy merosga hurmatni kuchaytiradi.

Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda kutilgan natijalar.

Sohibqiron merosini tizimli tarzda ta’lim-tarbiyaga joriy etish quyidagi ijobiy samaralarni beradi:

- Milliy o‘zlikni anglash darajasi oshadi.
- Vatanparvarlik tuyg‘usi mustahkamlanadi.
- Liderlik va mas’uliyat ko‘nikmalari shakllanadi.
- Davlatchilik va huquqiy madaniyat rivojlanadi.
- Ilmga intilish va intellektual faollik kuchayadi.

Bu natijalar Prezident belgilab bergan ma’naviy taraqqiyot strategiyasi bilan uyg‘un holda amalga oshadi.

Sohibqiron Amir Temur merosi - millat ruhi, iroda va ma’naviy qudratning tarixiy namunasidir. Uning davlatchilik tajribasi, adolat tamoyili va ilmga bo‘lgan munosabati zamonaviy yoshlar tarbiyasida muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, buyuk ajdodlar merosiga tayanish - kelajakni mustahkam qurish demakdir. Shu ma’noda, “Sohibqiron merosi - millat ruhi va ma’naviy qudrat timsoli” mavzusi ta’lim-tarbiya jarayonida:

- milliy g‘oyani mustahkamlash,
- ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash,
- davlatchilik an’analarini davom ettirish
- yo‘nalishida strategik ahamiyatga ega.

Shunday ekan, Amir Temur shaxsiyati va Prezidentimiz belgilab bergan ma’naviy taraqqiyot konsepsiyasi uyg‘unligida tashkil etilgan tarbiyaviy ishlar - zamonaviy, faol, vatanparvar va intellektual avlodni shakllantirishning mustahkam asosi hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdiyev M.M. “Cultural Development in the State of Amir Temur: Scientific and Spiritual Heritage and Its Significance”. Journal of Social Research in Uzbekistan. 2025 yil. 27-32 betlar.

2. Yusupova S.T. “Moral Values in the Works of the Timurians and Their Application to Modern Education”. Journal of Contemporary World Studies. 2024 yil.

3. Teshaboyeva N.Z. & Mamadaminova N.M. “Amir Temur and the Period of the Timurids”. “XXI Asrda Innovatsion Texnologiyalar, Fan va Ta’lim Taraqqiyotidagi Dolzarb Muammolar”. 2024 yil. 159-163 betlar.

4. Akhunov I.I., Toshpo‘latov A.M. & Mamajonov S.H. “Education of the Younger Generation in the Spirit of Spirituality and Patriotism in the Era of Amir Temur and the Timurids”. The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. 2023 yil.

5. Hamidova M.S. “O‘zbekiston hududidagi Amir Temur va Temuriylar davri me’moriy yodgorliklari tarixi”. ZiyoNET Oliy ta’lim instituti (avtoreferat). 2022 yil.

## AMIR TEMUR VA TO‘XTAMISHXON O‘RTASIDAGI TEREK DARYOSI BO‘YIDAGI JANGGA YEVROPA TARIXCHILARINING MUNOSABATI

**Elimov Lochin Shavkatovich**
**Sharof Rashidov nomidagi**
**Samarqand davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi assistenti, PhD**

**Annotation.** This article presents the views of European historians on the military campaigns of Amir Temur in the Caucasus region. Amir Temur clashed with his eternal rival, the Golden Horde Khan Tokhtamysh, on the banks of the Terek River in 1395. This article analyzes the information about this war in the works of European historians based on primary sources.

**Kirish.** Amir Temurdan mag‘lubiyatga uchragan To‘xtamishxon tarixchi Grekovning so‘zlariga qaraganda 1392-yilda Oltin O‘rdada hokimiyatni yana o‘z qo‘liga olgan. U hokimiyatni egallagach asosiy maqsad sifatida Amir Temurga qarshi kurashishga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan. Bu maqsad yo‘lida u Temurga qarshi ittifoqdosh kuchlarni topishga harakat qilgan. Xalqaro vaziyatning o‘zi unga shunday kuchlarni ro‘baro qilgan. Ayanan shu davrda Amir Temurga qarshi siyosat olib borayotgan Misr hukumdori, Usmonli sultoni va qochqindagi Sulton Ahmad u bilan birga harakat qilish istagini bildirgan. Natijada ittifoqdoshlarning qo‘llab-quvvatlashiga umid qilgan To‘xtamishxon Amir Temur bilan jangga tayyorlana boshlagan.

Tarixchilar I.N.Berezin va V.V.Radlovlarning yozishicha To‘xtamishxon Temurdan mag‘lubiyatga uchragach davlatni qayta qo‘lga olish uchun keraklicha kuch to‘plashga harakat qilgan. To‘xtamish shu maqsad yo‘lida Polsha hukumdori va Litva knyaziga ham elchilar yuborgan. Litva knyazini o‘z tominida bo‘lishga ko‘ndirish maqsadida To‘xtamishxon uning G‘arbiy Rus yerlari bo‘lgan da’vosini qo‘llab-quvvatlagan [3, 57-bet].

**Asosiy qism.** To‘xtamishxon taxtga o‘tirganidan keyin yetralicha qo‘shin tuzib, Amir Temurga qarshi siyosatni davom ettirgan. 1393-94-yillarda uning bu maqsaddagi harakatlari anchagina jonlangan. Shu yillarda To‘xtamishxon Kavkazda joylashgan Amir Temurga 1387-yilda tobelik izhor qilgan Shirvonshohlar davlati hududiga bostirib kirgan[1, 207-208-betlar]. Bu qilgan ishi bilan u Amir Temurga qarshi jang qilish isatgini namoyon qilgan.

To‘xtamishning bu ishidan jahli chiqqan Temur unga qarshi yana harbiy harakatni boshlagan. Bu urush harakatlarining boshlanishi bo‘yicha Shomiy va Ali Yazdiy to‘liq ma’lumot bergan. Xususan, Shomiyning so‘zlariga qaraganda To‘xtamishning nomaqbul ishlari urush harakatlarining boshlanishi asosiy sababi bo‘lgan. Bundan g‘azablangan Sohibqironning katta qo‘shin bilan To‘xtamishga qarshi yurish boshlashi, ikki o‘rtadagi elchilik aloqalari haqida ham Nizomiddin Shomiy ma’lumot berib o‘tgan [1, 209-210-betlar].

Amir Temur va To‘xtamish o‘rtasidagi 1395-yildagi to‘qnashuv haqida g‘arb tarixchilari ham sharq tarixchilari ham juda ko‘plab ma’lumotlar qoldirgan [5, 129-bet]. Shulardan Tilman Negel, Klavixo, Lusyen Keren, Jan Pol Ru va rus tarixchilarida Grekov va Yakuboskiy ma’lumotlarini tahlil qilib o‘tamiz.

Urush boshlanishini nemis tarixchisi Tilman Negel 1395-yil boshidan Temur To‘xtamish qo‘shinini taqib qilib borishiga taqagan. Tarixchining fikricha Amir Temurning bu safargi maqsadi Oltin O‘rda qo‘shinlarini butunlay tor-mor qilish bo‘lgan [4, 198-bet].

Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi bu jang harakatlarini boshlanishiga Klavixo ham o‘z munosabatini bildirib o‘tgan. Klavixo To‘xtamishxon qo‘shinining soni Sohibqironnikidan ko‘p

bo‘lganligini, shunga qaramasdan Amir Temur qo‘shinlari dushmanni ortidan taqib qilib Tesina (Terek) daryosi yaqinida yetib olganligini yozgan.

Fransuz tarixchisi Lusyen Keren Amir Temur To‘xtamishxon izidan taqib qilib, pistirmaga tushib qolmaslikka harakat qilganligini yozgan. Bundan tashqari tarixchi Amir Temurning erta tongda To‘xtamishxonga urushni boshlaganini, jang boshlangan sanan 15-aprel ekanligiga urg‘u bergan [6, 75-bet].

Yuqoridagi tarixchilar urush harakatlarining qanday boshlanishiga o‘z e’tiborini qaratgan bo‘lsa, Jan Pol Ru jang boshlanganda Amir Temurning shaxsiy harakatiga o‘z munosabatini bildirgan. U “oltmish” yoshdagi sarkardaning bu qadar jangavor ruh bilan kurashi dushman jangchilarini shoshirib qo‘yganligini takidlagan.

Rus tarixchilari Grekov va Yakubovskiylarning so‘zlariga qaraganda Terek bo‘yidagi jangning birinchi va ikkinchi kunlari ustunlik To‘xtamishxon qo‘shinlari tarafida bo‘lgan [7, 178-bet]. Jangning uchinchi kuni esa Temur qo‘shinlari o‘zining mardanovorligini ko‘rsatgan holda dushmanni har tarafga sochib tashlagan. O‘z jonini omon qoldirish uchun To‘xtamishxon bir necha sarkardalari va oz qism askarlar bilan shimolga qarab qochgan.

Sohibqironning To‘xtamishxonga qarshi harbiy harakatlarini boshlanishini Ali Yazdiy 1395-yilning 28-fevralida bo‘lganligini qayt etgan. Urush boshlangan sana sifatida u 28-aprelni ko‘rsatgan [2, 175-176-betlar]. Jangni qanday borganligi to‘g‘risidagi g‘arb va rus tarixchilarining ma’lumotlari haqiqatga yaqin ekanligini Ali Yazdiy asari tasdiqlaydi.

Jangdan so‘ng Temur qilgan tadbiriga Lusyen Keren alohida to‘xtalib o‘tgan. Uning yozishicha Amir Temur jang tugagandan so‘ng otdan tushib hamma askarlarini oldida yerni o‘pib xudodan bergan yordamiga shukurona aytgan. Uning bu qilgan ishi butun askarlarining unga bo‘lgan sadoqatini yanada ortishiga sabab bo‘lgan.

Tarixga Terek daryosi bo‘yidagi jang nomi bilan kirgan bu to‘qnashuvda Amir Temur qo‘li baland kelgan [8, 543-bet]. Yengilayotganligini ko‘rgan To‘xtamishxon qochishga harakat qilgan [2, 179-bet]. Bu safar uni qo‘ldan chiqarmaslikka harakat qilgan Amir Temur uni ketidan taqibni davom ettirgan. Amir Temurning bu g‘alabasi Oltin O‘rdaga o‘ngarilmas zarba bo‘lgan.

**Xulosa.** Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi urush natijasida amalga oshirilgan ishlarni rus tarixchilaridan Grekov va Yakuboskiylar sal boshqacharoq bayon qilgan. Ular Amir Temurni talonchilk ishlarini ko‘proq amalga oshirganligiga urg‘u bergan. Lekin bu ma’lumotlarni birlamchi manbalar bilan taqqoslab o‘rganish natijasida bo‘rttirilish holati kuchli bo‘lganligi ko‘zga tashlandi. Sohibqiron va To‘xtamish o‘rtasidagi 1395-yildagi jang haqida g‘arb tarixchilari fikr va mulohazalari birlamchi manbalar bilan qiyosiy taqqoslanganda unchalik ham keskin farq qilmasligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан таржима Юнусжон Ҳакимжонов қилган, масул муҳарир: Асомиддин Ўринбоев. Ўқитувчи. Тошкент. 1996. 528 б.
2. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”/ Сўз боши табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмедо, Ҳайдарбек Бобабеков. “Шарқ” Тошкент, 1997. 352 б.
3. Очерк внутреннего устройства улуса Джучиева / Соч. И. Березина. - Санкт-Петербург: тип. Имп. Акад. наук, 1863. 80 с.
4. Tilman Negel.Timur der Eroberer und die islamische Welt des späten Mittelalters (Deutsch) Gebundene Ausgabe. 1993. 531 s.
5. Jean Paul Roux. Tamerlan / Paris. 1991. 315 p.
6. Lusyen Keren. Amir Temur saltanati / Fransuz tilidan B. Ermatov tarjimasi. Maxsus muharrir: X. Sultonov. Toshkent: “Ma`naviyat”. 1999. b.75.
7. Греков Б.Д. и Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. М-Л., 1950. 479 с.
8. Рафаэль Хакимов, Мари Фаверо. Золотая Орда в мировой истории. Коллективная монография. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2016. 968 с.

## MIRZO ULUG‘BEK HAYOTI VA ILMIY-MA’RIFIY MEROSI

**Qarshi davlat texnika universiteti**
**“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti,**
**tarix fanlari falsafa doktori (PhD) Imamov B.X.**

**+998912138804, e-mail:** bi832599@gmail.com
**ORCID: 0009-0008-0125-8202**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosi haqida so‘z boradi. Muallif ilmiy ma‘lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini o‘rganilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar, Mirzo ulug‘bek, ilm-fan, astronomiya, ilmiy-ma’rifiy meros.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о жизни и научно-просветительском наследии Мирзо Улугбека. На основе научных данных автор на основе доступной литературы изучил и проанализировал уникальные стороны жизни и научно-просветительского наследия Мирзо Улугбека.

**Ключевые слова:** Тимуриды, Мирза Улугбек, наука, астрономия, научно-образовательное наследие.

**Abstract:** This article talks about the life and scientific-enlightenment heritage of Mirzo Ulugbek. Based on scientific data, the author studied and analyzed the unique aspects of Mirzo Ulugbek's life and scientific-enlightenment heritage based on available literature.

**Key words:** Timurids, Mirza Ulugbek, science, astronomy, scientific and educational heritage.

## 1. Kirish.

Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o‘rta asr Sharq astronomiyasi, jumladan, Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo‘yicha O‘rta Osiyo, xususan, o‘zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Bu davrda musulmon mamlakatlarining yuzlab buyuk mutafakkirlari astronomiya, matematika va falsafa fanlari bo‘yicha tadqiqot ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldilar.

Salkam yetti asr davom etgan Sharq astronomiyasining jo‘shqin faoliyati Ulug‘bek va uning akademiyasining boy ilmiy merosi bilan yakunlandi. Mazkur rasadxona ishga tushirilganda uning bosh “teleskop”ining aniqlik darajasi atigi bir necha yoy sekundigacha borib, to optik teleskoplar ixtiro qilingan 17 asrga qadar uning samaralari o‘rta asr astronomlari uchun astronomik kuzatishlarda erishilgan rekord natija bo‘lib xizmat qildi. Bu asbob Quyosh, Oy va sayyoralar harakat nazariyalarini yangi bosqichga ko‘tarish, tutilishlar nazariyasi va amaliy astronomiyaning asosiy predmetlaridan bo‘lgan vaqtni o‘lchash ishlarida yuksak aniqlikka erishish imkonini berdi.

Ulug‘bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasi bo‘lgan buyuk meros — “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”dan keyingi yuz yillar mobaynida faqat Sharq emas, balki G‘arb mamlakatlari ko‘pgina yirik rasadxonalarining olimlari dasturul-amal sifatida keng foydalandilar.

Shohruh Mirzoning o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi Sohibqironning “besh yillik yurish”ida (1392-1396-y) Iroqdagi Mordin qal’asi qamal qilish chog‘ida tug‘ilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va muajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganlari xush xabarini yetkazadi.Sohibqiron hursandligidan Mordin qal’asi qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘lovni bekor qiladi. Uning o‘z nabirasiga Muhammad Tarag‘ay va Ulug‘bek deb ism qo‘yganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog‘lash mumkin.Shunday qilib Mirzo Ulug‘bek 1394yilning 22-martida Sultoniya shahrida tavallud topgan. Amir Temur Ulug‘bek tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan**[1].**

## 2. Adabiyotlar tahlili:

Klavixoning ma’lumotlariga ko‘ra, Ulug‘bek bobosining xorijiy elchilarini qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. Mirzo Ulug‘bek 1409-yildan boshlab Movarounnahr hokimi bo‘lgan. U payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, degan hadislariga doimo amal qilgan. Ulug‘bek Ahmad Farg‘oniy, Forobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom asarlarini o‘rganadi.Bu mutafakkirlar orqali yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey bilan tanishadi. G‘iyosiddin Jamshid Koshoniyning yozishicha, Ulug‘bek donishmand bo‘lgan. Qur’oni karimning aksariyat qismlarini yoddan bilgan.Ulug‘bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan.Shaharda hunarmandchilik, me’morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat-ush shuaro” sida shunday yozgan;”Olim,

odil, g‘olib va himmatli podshoh Ulug‘bek Ko‘ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida fozillar martabasi cho‘qqiga ko‘tarilgan**[2].**

Ulug‘bekning otasi Shohrux hukmron bo‘lgan mamlakatning Koshon shahrida istiqomat qilayotgan matematik va astronom G‘iyosiddin Jamshid “Ziji Xoqoniy” dar takmil “Ziji Elxoniy” (“Xoqon ziji” — “Ziji Elxoniy”ning takomillashtirilgani) degan mashur risolasini bitdi. 1413 yili yozib tugallangan bu asar Ulug‘bekning otasi Shohruxga bag‘ishlangan edi. “Xoqon Ziji”ning nazariy qismi va astronomik jadvallari “Ziji Elxoniy”ning bunday qismlaridan biroz farq qilib, yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan edi.

**3. Tadqiqot metodologiyasi:**

Shohrux mamlakati hududida yangi rasadxona qurish niyati o‘sha paytlari matematika va astronomiya sohasida bir necha e’tiborli asar yozib tanilgan koshonlik G‘iyosiddin Jamshid Koshiyni anchadan buyon o‘rtab kelardi. Shu boisdan Koshiy Shohruxga bo‘lgan hurmatini unga bag‘ishlab bitgan “Zij”i orqali izhor etish bilan chegaralanmay, unga yangi rasadxona qurish rejasi borligini ham bildirgan deb taxmin qilinadi. Biroq Amir Temur vafoti munosabati bilan uning avlodlari orasida taxt uchun ixtiloflarning boshlanib ketishi, jumladan, 1415 yili Koshon va uning atrof viloyatlarining voliysi Said Vaqqos Shohruxga qarshi ko‘targan qo‘zg‘olon unga bunday xayrli ishlarni boshlashga xalal berdi.

Temur farmoni bilan 1399 yili Umarshayx o‘rniga Farg‘onaga hokim etib tayinlangan uning o‘g‘li Iskandar(Shohruxning eng katta jiyani), Said Vaqqosning Ozarboyjon tomon yurishidan foydalanib, Jamshid Koshiyning vatani Koshonga bostirib kirib, uni zabt etadi. Endi Iskandar hukmronlik qilayotgan yurtda qolgan Jamshid Koshiy 1415-yilning qishida rasadxona qurish rejasi bilan Iskandarga murojaat qiladi. Iskandarning roziligini olgach, akademik Bartoldning aniqlashicha, 1416- yilning yanvarida Koshiy rasadxonani jihozlash uchun zarur bo‘lgan astronomik asboblarning bayoni aks etgan “Astronomik asboblarga sharh” (“Risolai dar sharhi olati rasad”) risolasini yozib Iskandarga taqdim etadi va bu bilan uning oldiga yangi rasadxona qurish haqidagi taklifni qo‘yadi. Biroq Iskandarning bevaqt vafoti sabab bo‘lib, Koshiyning rejasi bu daf’a ham amalga oshmay qoladi**[3].**

Astronom G‘.Jalolovning fikricha, Koshiy Iskandar o‘limidan keyin, ya’ni 1416-yilning yozidayoq Ulug‘bek tomonidan Samarqandga taklif etilgan. Sharqshunos olimlar B.Rozenfeld bilan G.Matvievskaya esa, Koshiy Samarqandga 1417-yili kelgan deb uqtirishadi. Nima bo‘lganda ham, Koshiy Samarqandga kelgach, bu yerda rasadxona qurdirish niyati borligini Ulug‘bekka bildirib, unga rasadxona qurilishi uchun mo‘ljallangan va yuqorida eslatilgan “Astronomik asboblarga sharh” risolasini topshiradi. Bunday iltimosning sababini tarixchi Solih Zakiy shunday bayon qiladi: “Ulug‘bek ”Ziji Elxoniy“da keltirilgan ma’lumotlar eng so‘nggi kuzatishlar natijalari bilan mos kelmasligini G‘iyosiddin Jamshiddan ko‘p marta eshitganini ta’kidlaydi…”. Oqibatda matematika va astronomiyadan katta bilimga ega bo‘lgan Ulug‘bek rasadxona qurilishiga rozilik beradi. Shu munosabat bilan Ulug‘bek ko‘p olimlarni to‘plab, 1417-yili rasadxonani qurishga bag‘ishlangan majlis ham chaqirgan.

**4. Tahlil va natijalar.**

V.Bartold “Ulug‘bek va uning davri” asarida 1420-yil voqealari haqida tarixchi Abdurazzoq aytganlaridan xulosa qilib, madrasa va observatoriyaning qurilish ishlari 1420-yili yakunlangan degan fikrga keladi. Arxeolog V.Shishkin rasadxona qoldiqlarini qazish paytida uning janub tomonidan topilgan uchta tanga haqida gapirib, ulardan ikkitasining chetida 823-hijriy yil(milod bo‘yicha 1420-yil) degan yozuv bo‘lganini ma’lum qiladi. Mirxondning “Ravzat us-safo”da yozishicha, rasadxona binosi jadal sur’atlar bilan qurilganini inobatga olinsa, u 1420 yoxud 1421-yili qurilganligi ayon bo‘ladi. Solih Zakiyning “Osor al-Boqiya” asarida “Ulug‘bek 824-hijriy yili(ya’ni 1420-yili) qurilgan rasadxonaga G‘iyosiddin Jamshid va Qozizoda Rumiyni yetakchi shaxslar etib tayinladi”, — deb yozadi. “Ziji Guragoniy”ning so‘zboshisida: “Biz yoritg‘ichlarni kuzatish masalasini hal qildik. Ularni Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Jamshid hamkorligida bajardik… Bunda muhim ish(”Zij“)ni yozish va rasmiylashtirishning (G‘.Jalolov forscha ”soxta va pardoxta“ so‘zlarini shunday tarjima qilib, unga bir necha misollar keltiradi) boshida G‘iyosiddin, keyinroq Qozizoda Rumiy vafot etdi. Shundan so‘ng ishni oxirigacha rasmiylashtirish (Ulug‘bekning) qimmatli o‘g‘ilxoni Ali ibn Muhammad Qushchi bilan birgalikda amalga oshirildi”.

Samarqand rasadxonasi tadqiqot ishlarining asosiy mahsuli “Ziji Ko‘ragoniy” so‘zboshi, nazariy qism va zijdan(jadvallardan) iborat bo‘lib, ja’mi 430 sahifani egallaydi. “Zij”ning jadvallarsiz matnli qismi 60 sahifani, qolgan 370 sahifasi esa, astronomik, trigonometrik, geografik va astrologik jadvallarni tashkil qiladi.

“Ziji Ko‘ragoniy”ning yulduzlar katalogida 1018 yulduz o‘rin olgan bo‘lib, yulduz turkumlari bo‘yicha Beruniyning yulduzlar katalogidagi kabi joylashtirilgan edi. Mazkur jadval o‘zbek astronomi G‘.Jalolov tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Olimning ma’lum qilishicha, mazkur “Zij”da yulduzlarning ravshanliklarini xarakterlovchi kattaliklarini aniqlashda As-So‘fiy katalogidan keng foydalanilgan.

Turli astronomik hodisalar, ayniqsa, Quyosh va Oy tutilishlari vaqtini oldindan aniqlash maqsadida mazkur tutilishlar kuzatiladigan shaharlar, aholi punktlarining uzunlama va kenglamalarini aniqlash zaruriyati tug‘iladi. “Ziji Ko‘ragoniy”da 247 shahar va aholi punktlarining koordinatalari keltirilgan. Rasadxona olimlari tomonidan qancha shaharning geografik koordinatalari bevosita aniqlanganini aytish qiyin. Chunki “Zij”da keltirilgan shaharlarning muayyan qismi Nasiriddin at-Tusiyning “Ziji Elxoniy”sida ham keltirilgan**[4].**

Samarqand akademiyasi olimlari “Ziji Ko‘ragoniy” jadvallarini tuzishda aniq kalendar sifatida oy-hijriy kalendarini tanlaganlar. Oy, Quyosh va sayyoralarning istalgan paytdagi o‘rinlarini topish uchun hisob boshi qilib(bu xildagi jadvallar uchun tanlangan bunday kunni astronomlar tengkunlik deb yuritishadi) hijriy 841-yil muharram oyining boshini, boshqacha aytganda, o‘sha yilning boshlanish — yangi yil kirish kunini olishgan edi. Bu kun milodiy hisobda 1437-yilning 4-iyul(payshanba) kuniga to‘g‘ri keladi. Bu davrni yulduzlar katalogining tengkunligi sifatida olinishi, birinchidan, bu kun Samarqand rasadxonasida astronomik kuzatishlar o‘tkazilgan davrning(1420-1450-yillar), taxminan, o‘rtalariga to‘g‘ri kelishidan bo‘lsa; ikkinchidan, mazkur tengkunlik, hijriy yil hisobining kabisa yillarini belgilash uchun qabul qilingan navbatdagi 30 yillik ssiklning(tartibga ko‘ra, 29-ssiklning) boshlanishiga to‘g‘ri kelardi. “Zij” jadvallarida Quyosh, Oy holatlarining o‘zgarishi va boshqa ayrim ma’lumotlar 841-871-yillar(ya’ni to‘la 30 yillik ssikl yillari) uchun berilgan bo‘lib, bunday hol mazkur jadvallardan foydalanishda sezilarli qulayligi bilan muhim edi.

Yaqin yillargacha Ulug‘bek faqat astronom va matematik deb hisoblanar edi. Lekin uning ijodi serqirra bo‘lib, u tarix, she’riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar “Tarixiy Rashidiy” asarida “Mirzo Ulug‘bek tarixnavis donishmand va “To‘rt ulus tarixi”ni ham yozib qoldirgan edi”, deb yozgan. Ulug‘bekning turkiyda yozgan “Tarixi arba” ulus” asari Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar birinchi yarmidagi siyosiy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ulug‘bekning astronomiya maktabi o‘z davrining o‘ziga xos akademiyasi edi. Ulug‘bek tevarigida uyushgan 200 dan ortiq olimlarning o‘z bag‘rida yetishtirgan nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o‘tagan.Mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778): “Ulug‘bek Samarqandda bo‘lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o‘lchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishtirok etdi”, - deb yozgan edi**[5].**

Bundan salkam olti asr muqaddam azim shahar — Samarqand etagida Ulug‘bek va uning safdoshlari tomonidan ishga tushirilgan rasadxonadan Koinot qa’riga tashlangan nazar faqat Sharqdagina emas, balki jahon fani, madaniyatining “ochilmagan qo‘rig‘i”ni ochish — Koinotni o‘rganishga qo‘yilgan buyuk bir qadam bo‘ldi. Shu ilk qadam sabab bo‘lib Yevropada birin-ketin yirik, yaxshi jihozlangan rasadxonalar ishga tusha boshladi. Polshada Olam tuzilishining geliossentrik nazariyasi (N. Kopernik tomonidan), Milanda (Italiya) Koinotning cheksizligi va unda Quyosh sistemasi — oddiy bir yulduzning yo‘ldoshlari bilan tashkil etgan sistemasi ekanligini g‘oyasi (Jordano Bruno tomonidan), Germaniyada osmon jismlarining harakat qonunlarini ifodalovchi osmon mexanikasi (I. Kepler tomonidan), Angliyada osmon jismlarining massalarini hisoblash usuli (I. Niyuton tomonidan) kabi muhim kashfiyotlar daryosining vujudga kelishida Samarqand astronomlari “ko‘zini ochgan buloq” dastlabki irmoq bo‘lib Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlarini o‘rganish bo‘yicha Ulug‘bek maktabi qo‘ygan poydevor — nazariy astronomiya deyiluvchi maxsus fanning shakllanishida o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi.

**5. Xulosa**

Olamni o‘rganish, uning sir-asrorlaridan voqif bo‘lish — insonning Yer yuziga kelishdan maqsadini aniqlab berishdek dunyoqarash vazifasini bajarishi bilan muhim hisoblanadi. U insonni

cheksiz Koinotning bir zarrasi va milliardlab yillar davom etgan uning evolyutsiyasining mahsuli ekanligini, u yashagan umr Koinotning yoshi oldida atigi bir daqiqa ekanligini, har bir insonning “bir zumlik” hayotga kelishi mo‘jizaviy bir holligini va bu “bir zumlik” umrni pala-partish emas, balki buyuk maqsadlarga qaratib yashash zarurligini, bu ulug‘ nomga dog‘ tushirmay yashash lozimligini sezdirishi bilan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bu esa, o‘z navbatida, insonni o‘z hayotini, boshqalar taqdiri va shaxsini qadrlashga, tabiatning nodir in’omi — hayotga yengil-yelpi qaramaslikka, buyuk ezgu maqsadlarni ko‘zlab ish tutishga, o‘z ijobiy faoliyati bilan uning mazmunini boyitishga, sermazmun qilishga undaydi.

Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma’naviyatining poydevoriga qo‘yilgan tamal toshlaridan biri bo‘lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Davranov M. Mirzo Ulug‘bekning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi. // “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali. 2022-yil 15-dekabr. –B.12.
2. Ahmedov Bo‘riboy. O‘zbekiston tarixi manbalari. T.: “O‘qituvchi”, 1991. –B.46.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B.238.
4. Davlatmurodov A. Mirzo ulug‘bekning ilm fanga qo‘shgan hissasi. // “Journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali volume 1, issue 5, 2023. August. –B.236.
5. Ahmedov Bo‘riboy. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. -T.: “O‘qituvchi”, 1996. –B.92.

## AMIR TEMUR MAHKAMACHILIK FAOLIYATIDA DINIY ULAMOLAR FAOLIYATI

**Kenjayev Sardor Nurmurod O‘g‘li**
**Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsenti.**
**+998931445555. E-mail: sardorkenjayev46@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur mahkamachilik faoliyatida diniy ulamolar faoliyati, ulamolar nafaqat diniy hayotni tartibga solish, balki siyosat va huquqiy jarayonlarda ham faol ishtirok etiganliklari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Yassaviya, Yasoq, Choypel Zangpo, Samarqand, Shohrux, Mirzo Ulug‘bek, Xitoy (Min).

Amir Temur XIV asrda O‘rta Osiyoda hokimiyat tepasiga kelgan ko‘zga ko‘ringan sarkarda va davlat amiri bo‘lgan. Temur o‘zining harbiy yurishlari va istilolari bilan ko‘p esga olinsa-da, uning islom diniy bag‘rikenglikka qo‘shgan hissasi birdek salmoqli. Amir Temurning hayoti va amaliy faoliyatida jo‘mardlik qoidalariga rioya etganligi, to‘g‘risida dalillar bor. Bunga «Tuzuklar»dan ko‘p misollar keltirish mumkin. Jo‘mardlik tarafdorlari nazdida dunyo boyligi emas, Alloh rizoligi va inson qadri ustun turgan. Shu bilan birga, Amir Temur tasavvufning Yassaviya tariqatiga ixlosi baland bo‘lganligi haqida ham dalillar yo‘q emas. Buning sababi bir tomondan «... Yassaviya ta’limoti o‘zining mustahkam intizomi, pok islomiy mazhabiy, irfoniy tasavvufiy g‘oyalari bilan Turkiston xalqlarini mo‘g‘ullar zulmi va istibdodiga qarshi jipslashtirib tarbiyalab borgan»ligida bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Amir Temur Xoja Ahmad Yassaviyning avliyolik martabasidan ma’naviy, ruhiy oziq, kuch olib kelganligi to‘g‘risidagi fikrlarda asos bor. **Etuk davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan homiysi Amir Temur (1336-1405) o'zining “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruviga oid tamoyillar haqida bayon qilar ekan, ishg'ol etilgan yangi hududlar aholisiga qilinadigan muomala haqida so'zlay turib: “Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, akobir va ulug'larni aziz tutsinlar”, “Menga bo'ysungan mamlakatlarning sayyidlari, olimlari, shayxlari, fozil kishilari, darvishlari, zohidlarini suyurg'ol, vazifa va oylik bilan siylasinlar. Faqiru miskin, nogironlarga nafaqa tayin qilsinlar. Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlar belgilasinlar”, deb ta'kidlaydi.**

Hijriy 789, milodiy 1387 yilda Amir Temur Sherozni ishg'ol etadi va an'anaga ko'ra, u yerdagi din kishilarining hurmatini o'z o'rniga qo'yadi. Ana shunday olimlar qatorida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning shajarasiga 13 avlod vositasida tutashgan Muhammad ibn Zaydning nasabidan bo'lgan Sayyid Sharif Jurjoniy (1340-1413) ham bor edi. Amir Temur Jurjoniyning yuksak ilmga egaligi hamda Payg'ambar avlodidan ekanidan xabar topgach, unga alohida hurmat ko'rsatadi. Hatto uning uyidan panoh topganlarga ham omonlik berdi. Amir Temur Jurjoniy bilan ko'rishgach, uni Samarqandga taklif etdi. Jurjoniy taklifni qabul qilib, Samarqandga yo'l oldi. Olim Samarqandda o'n sakkiz yil bosh mudarris sifatida faoliyat olib bordi va o'z qalamiga mansub asarlarining aksarini yurtimizda kechgan faoliyati davomida ta'lif etdi.

Tarixchi olimlar, jumladan, V.V. Bartold Amir Temurning islom diniga bo'lgan munosabati to'g'risida ham talay bahsli fikrlar bildirgan. U Amir Temurning dinga alohida e'tibor berganligini, din peshvolari va darveshlarni hurmat qilganligini, ruhoniylar mulkini boshqarishga aralashmaganligini ta'kidlaydi. Shundan so'ng V.V. Bartold "Temur uchun din siyosiy maqsadlarga erishish uchun qurol bo'lgan", degan xulosaga keladi. Ko'chmanchi qabilalar, asosan, turkiy qabilalar bo'lganligi, ular Turk hoqonligi nomi bilan mashhur hoqonlik barpo etganliklarini bilamiz[2; 88]. Demak, Chingizxon qonunlari turkiy qabilalar uchun ham begona bo'lmagan va ularning hayot tarziga mos kelgan. Shu sababli ham Amir Temur "Yasoq"dan va mo'g'ul an'analaridan keng foydalangan. Chingizxon qonunlari, ya'ni "Yasoq"ning yaxshi tomonlarini islom dinidagi Movarounnahr xalqlari hayotiga moslashtira va singdira olganligi Amir Temurning yirik yutug'i bo'lib, buni faqat ijobiy baholash mumkin. Bu esa Sohibqironning etuk siyosiy arbob va qonunshunos ekanligini ko'rsatadi. Chunki u g'ayridin Chingizxonning qonunlari deb ulardan ko‘ra-ko‘rona voz kechmagan, aksincha, mutaassib, johil ruhoniylardan bu qonunlarni himoya qildi. U.Uvatovning "Sohibqiron arab muarrixlari nigohida" asarida arab tilidagi manbalarning Amir Temur tarixini o'rganishdagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, asardan Amir Temurning islom ulamolari bilan munosabatlari, arab olimu ulamolari bilan olib borgan muloqotlari borasida tahlillar hamda zamonaviy arab tarixchilarining temurshunoslik yo'nalishida olib borgan tadqiqotlari bo'yicha mulohazalar o'rin olgan[1; 56].

X.Vamberining quyidagi so'zlarini eslash o'rinli u (ya'ni Temur) askariga Isfahonni talon-taroj qilishga ruxsat berganda, ulamolar mahallasiga shafqat qilishni amr etgan. Bundan ko‘rinadiki Sohibqiron Amir Temur ulamolarga hurmati cheksiz bo‘lgan. Shu o‘rinda ularga omonlilni tuhfa etgan.

Mirzo Shohruxning 1404-yildagi so'nggi qurultoyga chaqirilmaganligi Amir Temur nazarida valiahdlikka nomunosib ko'rilganidan dalolat bersa ham, aslida saroyda uning mavqei yuqori edi. Bunga Mirzo Shohrux Amir Temurning davlatchilik, harbiy faoliyat olib borayotgan yagona o'g'li ekanligi, yirik amirlar, ayniqsa, so'nggi yillarda Sohibqironning yaqin shaxslariga aylangan amir Shohmalik hamda amir Shayx Nuriddin hamda haram ahli bilan inoqligi, qolaversa boshqaruv va harbiy ishlarda ham yetarli darajada tajriba to‘play olganligi kabi omillar ta'sir qilardi. Mirzo Shohruxning qaror qilishda shoshilmasligi, mulohazakorligi, ko‘pchilikning maslahati bilan ish tutishga moyilligi, shuningdek diniy ulamolar orasida o'z ta'siriga ega bo‘lganligi ham ko'pchilikka, ayniqsa, yirik amirlarga ma'qul edi[4; 93].

Amir Temur va temuriylar davrida ham buddaviylik o‘z e’tiqod vakillariga ega edi. Tarixiy adabiyotlarda 1422 va 1428-yillarga, ya’ni temuriy Shohrux Mirzo davriga oid ikkita suyurg‘ol hujjati topilganligi, ushbu hujjatlarning birida Maymana hududidagi, ikkinchisida esa Maymanadan Hirot orqali Buxoroga boradigan yo‘lda joylashgan buddaviylik ibodatxonalarini barcha soliq va majburiyatlardan ozod qilish, shuningdek, buddaviylik ibodatxonalariga tegishli bo‘lgan yerlarda ov qilishni ta’qiqlash xususida yozilganligi bilan bog‘liq fikrlar keltirib o‘tilgan[5;48]. Bundan temuriylar davrida ham buddaviylik jamoalarining mavjud bo‘lganligi, ushbu din rivoji uchun barcha imkoniyatlar yaratilganligi, buddaviylik diniga hurmat ko‘rsatilganligi, temuriylarning aksariyati Amir Temur izidan borib diniy bag‘rikenglik siyosati yuritganligi haqida xulosalarga kelish mumkin. Amir Temur va Xitoy (Min) davlati o‘rtasida o‘zaro ziddiyatlar boshlanib, Min sulolasi vakillari Samarqandga o‘lpon to‘lash talabi bilan kela boshlagan davrdan Amir Temur Xitoy harbiy yurishini tashkillashtirishga jiddiy tayyorgarlik ko‘rgan. Shu maqsadda Xitoy atrofidagi davlatlarni siyosiy va iqtisodiy jihatdan o‘rganish ishlari boshlangan bo‘lib, bu jarayonlardan Tibet o‘lkasi ham chetda qolmagan deb xulosa qilish mumkin. Amir Temur davrida yaratilgan tarixiy manbalarda ham

Tibetning bir necha marta tilga olib o‘tilishi yuqoridagi fikrlarimizni asoslashga xizmat qiladi. jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Kashmir viloyatini ta’riflash jarayonida Tubbat (Tibet) xususida ham fikr bildirilganligini keltirib o‘tish mumkin. Ammo, Tibet bilan Amir Temur saltanati o‘rtasidagi munosabatlarni yorituvchi ma’lumotlar musulmon manbalarida nihoyatda kam va umumiy tushunchalar bilan cheklanganligi bilan xarakterlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** Bahriddin Usmonov. O'zbekiston tarixi. Amir Temur va temuriylar siyosiy tarixi. O'quv qo'llanma. Farg'ona. "Classic", 2024. 464 bet.

**2.** Бартольд В. В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – 102 с

**3.** Бартольд В.В. Улугбек и его время. - Петроград 1918. – 160 с.

**4.** Востриков А.И. Тибетская историческая литература. – М.: Утверждено к печати Институтом народов Азии Академии Наук СССР, 1962. – 426 с.

**5.** Вамбери Х. Мовароуннаҳр ёхуд Бухоро тарихи Т.: Ғ.Ғулом нашр, 1990. - Б. 48.

**6.** Кычанов Е.И., Мельниченко Б.Н. История Тибета с древнейших времен до наших дней / Е.И. Кычанов, Б.Н. Мельниченко. - М.: Вост. лит., 2005. – 351 с.

## AMIR TEMUR MEROSI – MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIY SALOHIYATNI AKS ETTIRUVCHI MANBA

**Gapparov Bexzod Nematillayevich**
**Jizzax politexnika instituti**
**“Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsent v.b.**
**+998 (99) 556-06-50 bexzodgapparov132@gmail.com**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Amir Temur merosida milliy g‘oya va ma’naviy qudratning shakllanishi, uning davlatchilik, adolat, tartib-intizom va ma’rifat tamoyillari bilan uyg‘unligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Temuriylar davrida shakllangan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar milliy o‘zlikni anglash va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lgani asoslab beriladi. Shuningdek, “Temur tuzuklari” asarida ilgari surilgan davlat boshqaruvi, adolat va ma’naviy poklik g‘oyalari bugungi kunda ham milliy taraqqiyot va ma’naviy yuksalish uchun dolzarb ahamiyat kasb etishi ochib beriladi. Maqolada tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy qarashlar asosida Sohibqiron merosining milliy g‘oyani mustahkamlashdagi o‘rni yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Amir Temur, Temuriylar davri, milliy g‘oya, ma’naviy qudrat, davlatchilik an’analari, adolat tamoyili, Temur tuzuklari, milliy o‘zlik, ma’naviy meros, tarixiy qadriyatlar.*

Millatimiz tarixida ko‘p yillar davomida yashab kelgan buyuk davlat arbobi va sarkarda - Amir Temur siymosi milliy g‘oya va ma’naviy qudrat timsoli sifatida nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham alohida e’tirof etilgan muhim ta’rixiy shaxs hisoblanadi. XIV asrda barpo etilgan Temuriylar davlati G‘arbdan sharqga, shimoldan janubga keng miqyosda siyosiy va madaniy aloqa markaziga aylanganida, u kishining davlatchilik, adolat, tartib-intizom va ma’rifatparvarlik kabi g‘oyalari asosida tashkil etilgan tizim jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Temuriylar davri madaniyat va ilm-fan rivojida yangi “Temuriylar Renessansi” - Ikkinchi Uyg‘onish davri sifatida tarixga kirgan.

Milliy g‘oyaning shakllanishida tarixiy xotira muhim o‘rin tutadi: Amir Temurning hayoti va faoliyati insonlarga o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarga sodiq qolishni o‘rgatgan universal namuna bo‘lib xizmat qiladi. Temuriy davlatning ma’muriy va huquqiy tizimi, “Kuch - adolatda” shiori orqali adolatning ustuvorligi mazmuni jamiyat taraqqiyotining asosiy faktorы sifatida jahon tarixi talablari darajasida shakllantirilgan.

Bugungi mustaqil O‘zbekistonda ushbu tarixiy merosdan samarali foydalanish va uning ma’naviy-ta’limiy ahamiyatini oshirishga keng ko‘lamli davlat strategiyasi yo‘naltirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2026 yil 5 fevraldagi qaror bilan Temuriylar Renessansi haqida tegishli qaror Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash, uning milliy davlatchilik va

ma’naviy qudratni mustahkamlashdagi o‘rnini qaytadan yoritish vazifalarini belgiladi. Prezident qarorlarida ta’kidlanishicha, Temuriylar tarixi milliy o‘zlikni anglash va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Haqiqatdan ham, tarixdan o‘z kuch-qarori va ma’naviy salohiyati bilan o‘rin olgan Amir Temur shaxsi butun xalqning milliy g‘ururi va ma’naviy kelajagi timsoliga aylangan. Uning boy madaniy-ma’naviy merosi, arxitektura durdonalari (masalan, Samarqand, Shahrisabz obidalari) va davlat boshqaruvida adolat, yuqori axloq standartlariga bo‘lgan qat’iy intilishi - bizning ma’naviy boyligimiz va milliy g‘oyamiz asoslaridandir.

Endi bu borada Jizzax viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari (OTM) misolida Amir Temur tarixi va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar bilan bog‘liq tadbirlar, ilm-ma’rifiy, ta’limiy faoliyatlar va boshqa tashabbuslar yuzasidan umumlashgan ma’lumot jadval shaklida ko‘rib chiqamiz.

| **OTM nomi** | **Ma’naviy-tarbiyaviy, tarixiy tadbirlar** | **Ilmiy va ta’limiy faoliyatlar (misollar)** |
|---|---|---|
| **Jizzakh State Pedagogical University** | - OTMda talabalar va mutaxassislar ishtirokida ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlar va fakultetlarda tarixiy xonalar, tarix fanlariga bag‘ishlangan ma’ruzalar tashkil etiladi* (tarix fakulteti faoliyati).<br>- Ta’lim jarayonida “O‘zbekiston tarixi”, “milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlar” kabi kurslar o‘qitiladi (tarix va milliy g‘oya asoslari ta’lim moduli). | - Tarix fakulteti talabalari tarixi jarayonlarini, jumladan Temuriylar tarixi kabi mavzularni o‘rganadi va mazkur sohada ilmiy fikrni rivojlantirish uchun imkon yaratiladi. |
| **Jizzakh филиали – National University of Uzbekistan** | - Filialda ilmiy-amaliy seminarlar va davra suhbatlari tashkil etiladi (misol: joriy yillarda talabalar bilan tarix ma’lumotlari bo‘yicha seminarlar). | - Talabalarning ijtimoiy va ilm-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun seminarlar tashkil ətiladi. |
| **Jizzax Politexnika Instituti (JizPI)** | - Institut ishtirokida bilim forumlari va o‘quv tadbirlarida ta’limiy tarixiy mavzular ko‘tarilishi mumkin (masalan, umumiy maorifiy forumlar). | - Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda ta’limiy va ilmiy almashuv dasturlari, seminarlar tashkil ətiladi (bu talaba va yosh olimlarni jahon ilmiy muhitiga keng jalb ətish imkonini beradi). |
| **Savdo-iqtisodiyot, texnika va boshqa tarmoq OTMlar** | - Qator oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlar uchun ma’naviy-tarixiy ma’ruzalar va klublar tashkil ətiladi, tarixiy mavzular bo‘yicha student loyihalari qo‘llab-quvvatlanadi. *(respondentlar tomonidan joriy tadbirlar rejalariga ko‘ra)* | - Ilmiy klublar va talabalar tashkilotlari talabalarni tadqiqot, tarixiy ishlarga jalb qiladi. *(umumlashgan ma’lumotlarga asosan)* |

Yuqrida ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Jizzax viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari Amir Temur tarixi va merosini o‘rganish, talabalarni milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlar bilan tanishtirish borasida muntazam faoliyat yuritmoqda. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki:

Ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlar - fakultetlarda tarixiy ma’ruzalar, davra suhbatlari va madaniy tadbirlar orqali talabalarning tarixiy tafakkuri va milliy g‘ururi shakllantirilmoqda.

Ilmiy va ta’limiy faoliyatlar - talabalarning seminarlar, ilmiy klublar va konferenцiyalarda ishtirok ətishi ularning tarixiy bilim va tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik va bilim almashuv - Jizzax filiallari va institutlari xorijiy hamkorlar bilan o‘tkaziladigan seminarlar va ilmiy almashuvlar orqali talabalarni jahon ilmiy muhitiga jalb ətmoqda.

Shu bilan, Jizzaxdagi OTMlarda amalga oshirilayotgan ishlarning umumiy yo‘nalishi Amir Temur merosini o‘rganish va talaba yoshlar orasida milliy g‘oya va ma’naviy qudratni shakllantirishga qaratilganligini ko‘rsatadi. Bu tadbirlar nafaqat ta’lim jarayonida, balki ma’naviy tarbiya va milliy o‘zlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga эga.

Demak, yuqorida zikr эtilganlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani berishimiz mumkin bo‘ladi, ya’ni Amir Temur merosi O‘zbekistonda milliy g‘oya va ma’naviy qudratni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Jizzax viloyatidagi va respublika miqyosidagi oliy ta’lim muassasalari bu merosdan faol ravishda foydalanib, talabalarni tarixiy, ma’naviy va davlatchilik qadriyatlari bilan tanishtirish, ularda milliy g‘urur va milliy o‘zlikni shakllantirishga qaratilgan turli tadbirlar va ilmiy faoliyatlarni amalga oshirmoqda.

Ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlar, fakultetlarda o‘tkaziladigan tarixiy ma’ruzalar, davra suhbatlari va madaniy tadbirlar, shuningdek, ilmiy seminarlar va konferenцiyalar orqali talabalarda tarixiy tafakkur va ilmiy qiziqish rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy hamkorlik va ilmiy almashuv dasturlari talabalarni zamonaviy ilmiy muhitga jalb эtish imkonini bermoqda.

Umuman olganda, Jizzaxdagi va respublikadagi OTMlarda amalga oshirilayotgan ishlar Amir Temur tarixiy merosini nafaqat ilmiy va ta’limiy jihatdan o‘rganish, balki milliy ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish, yosh avlodda vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Bu эsa milliy g‘oya va ma’naviy qudratning barqaror shakllanishiga asos yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Teshaboyeva N. Z., Mamadaminova N. M. “Amir Temur and the Period of the Timurids”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (onlayn nashr). 2024 yil. 159-163 betlar.
2. Kadirova N. “The Historical Significance of the Timurid Empire in the Development of Central Asia”. Journal of Applied Science and Social Science (ilmiy jurnal). 2025 yil. 239-242 betlar.
3. Rahmonova N., Agzamkhodjaeva S. “AMIR TEMUR: Life, Military Campaigns, and State Policy”. IKRO jurnal. 2025 yil. 742-745 betlar.
4. Teshaboyeva N. Z., Mustafoqulova M. R. “Amir Temur and the Period of the Timurids” (ikkinchi maqola, konferensiya). Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024 yil. 159-163 betlar.
5. Akademik tahlillar jamlanmasi. “Understanding Amir Temur Is Understanding Ourselves” (ilmiy maqola, 2025). International Journal of Humanities and Political Science (onlayn ilmiy jurnal). 2025 yil.

## АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ДЕҲҚОНЧИЛИК, ЧОРВАЧИЛИК, ҲУНАРМАНДЧИЛИК, САВДО МАДАНИЯТИ

**Ў. Бердиев, НавДУ катта ўқитувчиси,**
**фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори.**
**НавДУ Тарих факультети талабаси 1-курс талабаси О.Қодирова**

**Аннотация:**

Амир Темур ва Темурийлар даврида (XIV–XV асрлар) деҳқончилик ва чорвачилик иқтисодий асосни ташкил этган, ҳунармандчилик ва савдо маданияти эса шаҳарлар ва каравансаройлар орқали ривожланган, маҳаллий ва халқаро алоқалар мустаҳкамланган. Бу давр иқтисодий ва маданий тараққиёт учун муҳим саналади.

**Калит сўзлар:** девон мулки, музорий, вақф, омоч, хирож, савлоқ, мол ўтлоқ, сардарахт, гузарлар.

**Аннотация:**

В период Амир Темура и Тимуридов (XIV–XV века) сельское хозяйство и скотоводство составляли экономическую основу, ремесла и торговля развивались через города и караван-сараи, укрепляя местные и международные связи. Этот период имел важное значение для экономического и культурного развития.

**Ключевое слово:** девонская собственность, музорий, вакф, омоц, хиродж, савлок, скотный пастбище, деревья-остановки, проходы

**Abstract:**

During the period of Amir Timur and the Timurids (14th–15th centuries), agriculture and animal husbandry formed the economic foundation, while crafts and trade developed through cities and caravanserais, strengthening local and international connections. This period was significant for economic and cultural development.

**Keyword:** divan property, muzariy, waqf, omoch, kharaj, sawlaq, livestock pasture, shade trees, passages.

Темур ва темурийлар ҳукмронлиги даврида ҳам суғорма деҳқончилик маданиятини ривожлантиришга катта эътибор берилган. Бу даврда амалга оширилган йирик ишлардан бири Зарафшон дарёсидан чиқарилган қадимги Ангор каналининг қайта тикланиши бўлди. XV асрда Мовароуннаҳр ва Хуросонда ер эгалигини деҳқон, экин майдонларига ишлов берувчиларни эса музорий (зироатчи) деб аталган.

Зироатчилар қишлоқнинг меҳнаткаш табақасига мансуб бўлиб, улар тўрт гуруҳга бўлинган: 1) давлат ерлари (девон мулки)да ишловчи музорийлар; 2) мулкдорларнинг ерларини ишловчи музорийлар; 3) ўз ерига эга бўлган музорийлар; 4) вақф мулкларига тегишли ерларда яшовчи музорийлар.

Музорийлар давлат ёки вақф ерларда ҳам, деҳқон ёки суюрғол ерларда ҳам ёлланма деҳқончилик қилишган. Уларнинг ҳосилдан оладиган ҳиссаси ер эгаларининг ердан ташқари омоч, ҳўкиз, от ва арава кабиларни боришига қараб ҳам белгиланган. Улар қандай ерда деҳқончилик қилишдан қатъий назар музоий ҳамиша солиқларни тўлаши ва мажбуриятларни ўташи шарт бўлган. Бу даврда “хирож” суғорма деҳқончиликдан олинадиган асосий солиқ бўлган. Хирож ҳосил етилиб, уни йиғиб олиш вақтларида маҳсулот, баъзан пул шаклида олинган. Солиқ ернинг унумдорлиги ва сув билан таъминланиши даражасига қараб белгиланган. Суғориладиган ерлардан хирож ҳосилнинг 1/3 қисми миқдорида олинган. Агар ер эгаси хирожни пул ҳисобида тўлашга рози бўлса, унда ҳосилнинг учдан бир қисми бозор нархи ҳисобида пулга чақилган. Лалмикор ерларнинг ҳосили суғориладиган ерларга нисбатан ҳам бўлгани учун, бундай ерларда деҳқончилик қилган музорийлар умумий ҳосилнинг 1/6 қисми миқдорида солиқ тўлаганлар. Бундай ерлар, одатда замонасининг илм-фан, маърифат ва маънавий ҳаётнинг акобир ва ашраблари ҳисобланган сайидлар, хўжалар, уламо ва машойихлар тасарруфида бўлган. Бу даврда боғ ва дараҳтзорлардан “мол сардарахт”, яйловлардан “мол ўтлоқ” ва “савлоқ” каби солиқлар олиниб, уларни тўплашда қадимдан расм бўлган тартиб-қоидага амал қилинган[112].

Ўша даврда чорва молларидан 1/40, яъни 2,5 фоиз миқдорида “закот” солиғи олинган. Ғаллани харам қилинмасдан олдин солиқ солиш қатъий ман қилинган. Солиқни муайян уч муддатда: саратон (июн-шом), сунбула-мезон (август ва сентябр) ва қавс (ноябр) ойларида олинган. Солиқларни йиғиш пайтида солиқчилар деҳқон, чорвадор ёки боғбонга нисбатан зуғум ўтказмаслиги, жисмоний куч ишлатмаслиги ва ишни уруш-жанжалгача олиб бормаслиги талаб қилинган. Умуман солиқчиларга қарздорларни банди қилиш ва занжир билан кишанлаш ва уларга нисбатан қаттиқ чоралар кўриш ҳуқуқи берилмаган[113]. Бу Амир Темур давлатида олиб борилган солиқ сиёсатини адолатли характери, унинг фуқаролик манфаатларидан келиб чиққанлигида ўз аксини топган эди. Шунингдек, Амир Темур амалдорларидан иш юритаётганда доимо қонунга ва адолатга бўйсунишни талаб қилган. Амалдорларига гуноҳкор деб ҳисобланганларга нисбатан куч ишлатиш, уларни қамчи ёки таёқ билан уриш тақиқланган, темурнинг солиқ сиёсати ва бу сиёсатга оид тартиб-қоидаларни ўрганиш ҳозирги мустақиллик йилларида ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Темурийлар даврига келиб, Мовароуннаҳр ва Хуросон савдогарлари нафақат Осиё мамлакатлари, айни замонда Буюк ипак йўли орқали Европа мамлакатлари билан ҳам савдо алоқаларини ўрнатишган. Савдо-сотиқ алоқаларида Темур ва Темурийлар томонидан забт этилган кумуш, мис тангалар катта аҳамиятга эга бўлган. Улар Мовароуннаҳрда савдо-сотиқ муомаласини тартибга солишга ижобий таъсир кўрсатган.

Айниқса, Темурийлар ҳукмронлиги даврида Мовароуннаҳр ва Хуросонда ҳунармандчилик, савдо ва товар-пул муносабатлари ҳам ривожланди. Бу даврда хусусан

[112] Темур тузуклари. Тошкент. 1996, 124-бет.
[113] Ўша асар, 120-бет.

Самарқанд, Бухоро, Ҳирот, Марв, Тошкент, Шохрухия, Термиз, Шахрисабз, Қарши ва бошқа шаҳарлар йирик маданият ва савдо марказларига айланди. Асосан ҳунармандчилик билан боғлиқ маҳаллалар, кўчалар, гўзарлар, бозор расталари пайдо бўлди. Энг муҳими Ўрта Осиёда терига ишлов бериш жадал ривожланди. Ҳунармандлар мамлакат аҳолисининг маданиятли ва эътиборли кишилари ҳисобланган. Темурийлар даврида цивилизация янги босқичга кўтарилди. Аввало, давлатчилик қонун-қоидалари пухта шаклланди. Санъат ва адабиётга эътибор кучайди. Темурий шаҳзодалардан Мирзо Улуғбек, Шохрух, Бойсунғур ва Ҳусайн Байқароларнинг кутубхоналари ҳам ноёб, турли адабий-бадиий, илмий китобларга бойлиги билан Амир Темурнинг Самарқанддаги кутубхонасидан қолишмаган. Биргина Улуғбек расадхонаси қошидаги кутубхонада қарийб 15 минг китоб сақланган[114]. Ўша даврда Мирзо Улуғбек ва унинг атрофида жипслашган олимлардан: Қозизода Румий, Муҳаммад Ҳавофий, Али Қушчи, Ғиёсиддин Жамшид Кошоний каби олимлар астрономия, математика соҳаларида муҳим кашфиётлар қилдилар. Айниқса Мирзо Улуғбек расадхонасида 1018 та юлдузнинг каталоги тузилиб, уларнинг ҳаракати ўрганилди. Улуғбекнинг юлдузлар жадвали жаҳон астрономлари учун муҳим манба сифатида жуда кўп маданий марказларда, хусусан, Лондон, Париж, Данияда, 1917 йили Вашингтонда чоп этилди. Шунингдек, Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Саккокий, Лутфий, Кошифий, Беҳзод каби ноёб истеъдод эгалари буюк гуманистик асарлар яратган бўлсалар, Низомиддин Шомий, Шарафиддин Али-Яздий, Абру, Мирхонд, Хондамирлар Ватанимиз тарихига оид муҳим маълумотлар қолдирдилар. Айниқса. Улуғ донишманд, давлат арбоби сифатида шуҳрат қозонган Алишер Навоий ўзининг ижодий фаолиятини ўзбек адабий тилини такомиллаштириш билан бир қаторда, жамият фаровонлиги, инсон бахт-саодати, юрт ободонлиги, билимли, ақлли ва заковотли кишиларни етиштиришга бағишлади, кўплаб шогирдлар етиштирди. Унинг асарларида салтанатни ҳалокатга олиб келувчи сабалар кўрсатилган. Ҳазрати Навоий ҳукумдорлар ва амалдорларни мамлакат ободонлиги ва фаровонлигини таъминлашга ундаган.

Хулоса қилиб айтганда, Амир Темур ва Темурийлар давридаги моддий, маданий ва маънавий тараққиётнинг ўлка халқлари бирлигини таъминлаш ва халқимиз ҳаётида тутган ўрнини инобатга олиб, бу даврни асосли равишда мамлакатимиздаги иккинчи Ренессанс (Уйғониш) даври деб ҳисоблаш мақсадга мувофиқдир.

## AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI

**Mahammadaminova Nodira Ahrorjon qizi**
**Farg‘ona davlat universiteti**
**Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna**
**filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning Markaziy Osiyo hamda Yevropa o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Temuriylar davrida shakllangan xalqaro diplomatik aloqalar, savdo yo‘llarining tiklanishi hamda Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi integratsion jarayonlar tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Xususan, Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan olib borgan elchilik munosabatlari, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash siyosati hamda Buyuk Ipak yo‘li faoliyatining qayta jonlanishiga qo‘shgan hissasi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temurning Markaziy Osiyodagi strategik boshqaruv uslubi, Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan munosabatlar, diplomatik aloqalar, elchilar tashrifi, Buyuk Ipak yo‘lida savdo munosabatlari.

**Abstract.** This article scientifically analyzes the role of the great statesman and commander Amir Temur in the development of political, economic and cultural cooperation between Central Asia and Europe. The study covers the international diplomatic relations formed during the Timurid era, the restoration of trade routes, and the integration processes between Eastern and Western

[114] Ўша китоб, 123-бет.

civilizations based on historical sources. In particular, Amir Temur's diplomatic relations with European countries, his policy of strengthening trade and economic ties, and his contribution to the revival of the Great Silk Road are revealed.

**Keywords:** Amir Temur's strategic management style in Central Asia, relations with Eastern and Western countries, diplomatic relations, ambassadorial visits, trade relations on the Great Silk Road.

**Аннотация:** В данной статье проводится научный анализ роли великого государственного деятеля и полководца Амира Тимура в развитии политического, экономического и культурного сотрудничества между Центральной Азией и Европой. Исследование охватывает международные дипломатические отношения, сформировавшиеся в эпоху Тимуридов, восстановление торговых путей и процессы интеграции восточной и западной цивилизаций на основе исторических источников. В частности, раскрываются дипломатические отношения Амира Тимура с европейскими странами, его политика укрепления торгово-экономических связей и его вклад в возрождение Великого Шелкового пути.

**Ключевые слова:** стратегический стиль управления Амира Тимура в Центральной Азии, отношения с восточными и западными странами, дипломатические отношения, визиты послов, торговые отношения на Великом Шелковом пути.

XIV asrning 50–60-yillarida Movarounnahr 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo‘linib ketgan. U yerdagi hokimlar o‘zlarini hokimi mutlaq deb e’lon qiladilar. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmdorlikka ajralib, ular o‘rtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urushlarga aylanadi. Siyosiy tarqoqlik, o‘zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo‘lib, mamlakat aholisini, ayniqsa, dehqonlar xo‘jaligini xonavayron qilgan edi. Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan Mo‘g‘uliston xonlari bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talaydilar. Mo‘g‘uliston xonlarining vayronagarchilikka olib keluvchi yurishlari, istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakatlari boshlanadi. Mana shunday o‘zaro ichki urushlar qizigan, mo‘g‘ullar zulmiga qarshi mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi. Amir Temurning yoshlik davri. Amir Temur Kesh viloyatidgi Xoja Ilg‘or qishlog‘i (Yakkabog‘ tumani)da 1336-yil 9-aprel kuni tavallud topgan. Uning to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul. Amir Temurning onasi Takina xotun Kesh yurtining obro‘li beka (bek og‘o)laridan hisoblangan. Uning otasi Amir Tarag‘ay barlos urug‘ining oqsoqollaridan bo‘lib, ajdodlari Kesh va Nasaf viloyatida o‘z mulklariga ega bo‘lgan va bu yurtda hokimlik qilgan. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Amir Tarag‘ay o‘g‘lini yoshligidan aslzodalarga yarasha o‘qitgan va har taraflama bilim bergan: katta-kichik bilan muomala ilmini, ov qilish va harbiy ilmlarni o‘rgatgan.

Yosh Temurni yetti yoshidayoq madrasaga o‘qishga beradilar. U madrasaga kelganda alifbodan mukammal xabardor bo‘lgan. O‘n ikki yoshidan boshlab bolalarga xos bo‘lgan ermak o‘yinlardan voz kechib, keyinchalik o‘z tengqurlari bilan sipohiylikka oid o‘yinlar bilan shug‘ullanadi. Amir Temur yoshlik chog‘laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo‘lib, kamondan nishonga o‘q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofiga bolalikdagi do‘stlari va maktabdoshlari to‘planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta- sekin navkar bo‘lishib, harbiy guruhga birlashib borishardi. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo‘shinida lashkarboshilik darajasigacha ko‘tarilganlar. Shunday qilib, Amir Temur o‘z zamonasining o‘qimishli va uquvli hukmdorlaridan bo‘lib yetishadi. Tibbiyot, matematika, falakiyot, me’morchilik va tarix ilmidan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan. Amir Temur bilan yuzma-yuz o‘tirib suhbatlashishga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldunning ta’kidlashicha, Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur o‘rgangan, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtira olgan zot ekan. O‘zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o‘zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko‘rsatgan va janglarda chiniqqan. Harbiy mahorat va oliyhimmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong‘i butun Qashqadaryo vohasi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan. Amir Temur Chig‘atoy xonlaridan Qazog‘onning nabirasi, Amir Husaynning singlisi Uljoy Turkon Og‘oga uylanishi tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi Amir

Husayn o‘rtasida ittifoq yuzaga keladi. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda 111 amirlarning o‘zaro kurashi kuchayib, mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi. Mo‘g‘uliston xonlari Movarounnahrdagi og‘ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu o‘lkada o‘z hokimiyatini o‘rnatishga harakat qiladilar. Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur 1360–1361-yillarda Movarounnahrga birin-ketin ikki marta bostirib kiradi. Movarounnahr beklari birlasha olmay xalqni o‘z holiga tashlab ketadilar. Amir Temurning amakisi – Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji Barlos Xuroson tomonga qochadi. 24 yoshli Amir Temur esa boshqacha yo‘l tutadi. Temur o‘z yurtini mo‘g‘ullar tajovuzidan himoya qilish uchun ko‘p o‘ylab, Tug‘luq Temurning huzuriga borishga qat’iy ahd qildi. Natijada u Tug‘luq Temurning yorlig‘i bilan Kesh viloyatining dorug‘asi (hokimi) etib tayinlanadi. Shu tariqa, Amir Temur siyosiy kurash maydoniga kirib keldi. Keyinchalik, o‘zining bu xatti-harakatini Temurbek aholini mo‘g‘ullar tomonidan talon-toroj etishdan himoya qilishning yagona yo‘li – puxta o‘ylangan reja 100 ming kishilik qo‘shindan kuchli deb izohladi. Tug‘luq Temur o‘g‘li Ilyosxo‘jani Movarounnahrning hukmdori etib tayinlab, Mo‘g‘ulistonga qaytib ketadi.

Dorug‘a – mo‘g‘ulchadan “nazoratchi”, “shahar boshlig‘i” degan ma’noni beradi. Mo‘g‘ullar davlatida mahalliy hokimlar huzuridagi ulug‘ qoon vakili, noibi. Dorug‘a zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: aholini ro‘yxatga olish; mahalliy xalqdan qo‘shin to‘plash; pochta aloqalarini yo‘lga qo‘yish; soliqlar yig‘ish; to‘plangan soliq-to‘lovlarni ulug‘ qoon saroyiga yetkazish 112 xo‘ja bilan Amir Temurning murosasi to‘g‘ri kelmaydi. Shu sababli u Movarounnahrning nufuzli amirlaridan biri, Balx hokimi Amir Husayn bilan ittifoq tuzib, mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib boradi. 1363-yilda Amudaryoning chap sohilida, Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g‘alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar Ilyosxo‘ja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat 1364-yil oxirida ular mo‘g‘ullarni Movarounnahrdan quvib chiqaradilar. Biroq Movarounnahrni qo‘ldan chiqarishni istamagan Ilyosxo‘ja 1365-yilning bahorida yana Movarounnahr ustiga qo‘shin tortadi. Ikki o‘rtadagi jang 1365-yil 22-may kuni Toshkent bilan Chinoz o‘rtasidagi Chirchiq daryosi bo‘yida sodir bo‘ladi. Tarixda u “Loy jangi” nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o‘sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan. Jangda Amir Temur qo‘shini g‘olibona harakat qilib, dushman qo‘shinining o‘ng qanotiga qaqshatqich zarba berayotgan bir paytda Husayn o‘z askarlarini raqibning so‘l qanotiga tashlamay, jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo‘ladi. Bu g‘alabadan so‘ng Ilyosxo‘ja hech qanday qarshilikka uchramay, Xo‘jand va Jizzax shaharlarini egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqandda qurolli qo‘shin bo‘lmasa-da, xalq shahar mudofaasini o‘z qo‘liga oladi. Uzoq davom etgan mo‘g‘ullar hukmronligiga qarshi ko‘tarilgan bu xalq harakati tarixda “Sarbadorlar harakati” nomi bilan shuhrat topadi. Samarqand sarbadorlari. Sarbadorlar harakati XIV asr- ning 60-yillarida Movarounnahrda mo‘g‘ul xonlarining hujumi munosabati bilan vujudga keldi. Samarqand sarbadorlariga mudarris Mavlonozoda Samarqandiy, hunarmand Abu Bakr Kalaviy va shahar mahallalaridan birining oqsoqoli, mohir mergan Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo‘g‘ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Buning ustiga ularning otlari orasida o‘lat tarqab, otlar qirila boshladi. Chorasiz qolgan Ilyosxo‘ja avval Samarqandni, so‘ngra esa butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Sarbadorlar amaldorlar mol-mulkini bir qismini musodara etib kambag‘allarga taqsimlab berganlar. Bu esa hukmdor tabaqalarning keskin noroziligiga sabab bo‘lgan. Sarbadorlar boshchiligidagi samarqandliklarning mo‘g‘ullar xoni Ilyosxo‘ja ustidan g‘alabasi va shahardagi beqarorlik to‘g‘risidagi xabar Amir Temur bilan Amir Husaynga ham borib yetadi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga yo‘l oladilar va shahar yaqinidagi Konigil mavzeyiga kelib tushadilar. Beklar sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib boradilar. Uchrashuvning birinchi kunida ularga izzat-ikrom ko‘rsatildi. Lekin ertasi kuni Abu Bakr Kalaviy bilan Xurdaki Buxoriylar Amir Husayn buyrug‘iga ko‘ra dorga tortiladilar. Bundan kech xabar topgan Amir Temur Mavlonozodaning hayotini Amir Husayndan so‘rab oladi va uni o‘limdan qutqarib qoladi. Shu tariqa, sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Husaynning hukmronligi o‘rnatiladi. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay Husayn bilan Amir Temur o‘rtasida munosabat keskinlashib, ochiqdan ochiq nizoga aylanadi. 1366–1370-yillar davomida ular o‘rtasida bir necha bor o‘zaro to‘qnashuvlar ham bo‘ladi.

*Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi* . Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. XIV asr- ning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og‘ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat

mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o‘z zamonining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u oqsoqollar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur bu ulkan maqsadini ro‘yobga chiqarish ishini avvalo ichki g‘animlariga qarshi kurashdan boshlaydi. 1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo‘shinlari bilan kuchli raqib – Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo‘lga chiqadi. Qo‘shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog‘iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo‘llab – quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi nog‘ora bilan bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqea, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki nog‘ora bilan bayroq, musulmonlar odatiga ko‘ra, toj-taxt ramzi bo‘lib, uni oliy martabali ruhoniyning qo‘lidan olish tez orada uning toj 115 Amir Temur qo‘shini to Balxga yetib borgunicha, yo‘l – yo‘lakay unga yangi – yangi kuchlar kelib qo‘shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko‘pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo‘shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so‘ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo‘ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Ertasi kuni bo‘lib o‘tgan qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Markazlashgan davlatning tashkil etilishi. Davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlab, ko‘pdan beri davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikka barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida Amir Temur 1370-yil iyul oyida Samarqandda katta qurultoy chaqirdi. Qurultoyda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo‘shin tuzish masalalari muhokama etiladi. Samarqand davlat poytaxti deb e’lon qilindi. Samarqandda mustahkam devorlar, qal’alar hamda saroylar barpo etishga kirishiladi. Bu imoratlar Samarqand mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilganidan keyin 150 yil o‘tgach, birinchi marta bunyod etilgan umummamlakat miqyosidagi inshootlar edi. Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo‘shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. U yirik harbiy bo‘linmalar boshliqlarini va sipohsolorlarni tayinlaydi. Amir Temur taxtga o‘tirgach, Chig‘atoy ulusining barcha yerlariga o‘zini voris deb bildi. Sohibqiron Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg‘ona vodiysini va Xorazmni o‘z hukmronligi ostiga kiritdi. Amir Temur 1372-yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi va Xorazm 1388-yilda uzil-kesil bo‘ysundirildi. 1381-yilda Hirot, Seiston, Mozandaron egallandi. Shundan so‘ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari jangsiz Amir Temurga bo‘ysundi va uning tasarrufiga o‘tdi. Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

*Tashqi siyosat tutgan o‘rni va ahamiyatga molik tomonlari*. Amir Temur davlati bilan Vizantiya, Turkiya, Hindiston, Ispaniya, Fransiya, Angliya, Oltin O‘rda, Mo‘guliston, Xitoy kabi davlatlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o‘rnatdilar. Amir Temur davlatining tashqi siyosati o‘z oldiga mamlakat xavfsizligini ta’minlash; qo‘shni mamlakatlarda o‘z ta’sirini mustahkamlash; Turkiya, Hindiston, Xitoy, Venetsiya, Ispaniya, Fransiya va Angliya bilan iqtisodiy, elchilik, madaniy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish kabi vazifalarni qo‘ygan.

XIV asr oxirlarida vujudga kelgan muayyan xalqaro vaziyat tufayli Amir Temur davlati, Turkiya, Misr va Oltin O‘rda eng qudratli davlatlar sifatida siyosiy maydonga chiqdi. Bu davrda Amir Temurga Mo‘g‘uliston, Oltin O‘rda va Misr bilan ittifoqdagi Usmoniylar Turkiyasi qarama-qarshi turardilar. Mo‘g‘uliston bilan munosabatlar. Movarounnahr mo‘g‘ullar istibdodidan xalos etilib, mamlakatda Amir Temur hokimiyati o‘rnatildi, lekin uning sarhadlari hali tinch emas edi. Mo‘g‘ulistonda ulus beklarining isyonlari va ularning Toshkent viloyati bilan Farg‘ona vodiysiga talonchilik xurujlari ro‘y berib turardi. Shimol tarafda Oq O‘rdada Jo‘ji ulusining toj – taxti uchun kurash kuchaygan, ularning Xorazm hukmdorlari bilan qo‘shilib, Buxoro, Chorjo‘y va Qarshi ustiga qilgan talonchilik yurishlari davom etardi. Bularni bartaraf qilmay turib, Amir Temur o‘z davlatining xavfsizligini ta’minlay olmas edi. Manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur bu masalani muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga urindi. Lekin foydasi bo‘lmadi. Uni qurol vositasi bilan hal qilishga majbur bo‘ldi. Amir Temur 1371–1390-yillarda olib borgan yetti harbiy yurishdan keyin Mo‘g‘ulistonda tinchlik o‘rnatish va uni o‘zining ta’sir doirasiga kiritib olishga 123 Misr bilan aloqalar. Amir Temur bilan Misr sultoni Barquq o‘rtasidagi rasmiy aloqalar 1385-yildan boshlangan edi. 1386–1405-yillar mobaynida Amir Temur va Misr sultonlari, shuningdek ularning Suriyadagi

noiblari o‘rtasida taxminan 25 marta maktub va elchilar almashuvi bo‘ldi. Amir Temur Misr sultoni Barquq bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatilishi, savdogar va tijorat ahllari bemalol bordi-keldilarini amalga oshirishlari, bundan keyin o‘rtada hech qanaqa ixtilof va adovat harakatlari bo‘lmasligi haqida takliflar bildirib o‘z elchilarini jo‘natgan edi. Biroq Sulton Barquq Amir Temur jo‘natgan elchilarni qatl etib, takliflarni rad etadi. Keyinchalik Amir Temur Sulton Boyazid ustidan g‘alaba qozongach, Misr o‘z itoatkorligini izhor etadi. Oltin O‘rda bilan munosabatlar. Amir Temur yordamida To‘xtamish Oltin O‘rda taxtiga kelgan bo‘lsa-da, uning Movarounnahrga talonchilik yurishlari avj oldi. Bundan tashqari, To‘xtamishxon Misr, Iroq va Turkiya bilan harbiy ittifoq tuzib, Amir Temurga zarba bermoqchi bo‘ldi. 1384-yilda To‘xtamishxonning elchisi Misr sultoni Barquq bilan uchrashuvda Amir Temurni yo‘q qilish taklifini kiritadi. Bunday taklifga shu yili Misrga kelgan Turkiya va Sivas elchilari mamlakatlari Amir Temurga qarshi bo‘lgan harbiy ittifoqqa qo‘shilishini aytdilar. Turkiya, Misr va Oltin O‘rdaning o‘zaro yaqinlashuvi Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tug‘dirardi. Shuning uchun Amir Temur bu harbiy ittifoq harakatga kelishiga yo‘l qo‘ymadi. Amir Temur ittifoqchilarni bittadan safdan chiqarish siyosatini tutdi. 1395-yilda To‘xtamishxonga, 1402-yilda Yildirim Boyazidga qaqshatqich zarbalar berdi. Xitoy va Hindiston bilan munosabatlar. Sharqning eng katta davlatlaridan Xitoy bilan munosabatlar Amir Temur davrida bir qadar jiddiylashib qolgan edi. Bunga Xitoy hukmdorlarining ulug‘ davlatchilik siyosati sabab bo‘lgandi. Min imperatorlari Xitoyga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarni Xitoyga qaram mamlakatlar deb hisoblar edilar. Amir Temurning elchilari va savdogarlari olib borgan sovg‘a-salomlarni 124 esa o‘lpon deb atar edilar. Temur ham Xitoy elchilari bilan shunga yarasha munosabatda bo‘ldi. Klavixoning ma’lumotlariga qaraganda, 1404-yilda Samarqandga kelgan Xitoy imperatorining elchilari boshqa mamlakat elchilaridan yuqoriga o‘tqazib qo‘yilgan ekan. Amir Temur buyrug‘iga ko‘ra ular ham boshqa mamlakat elchilari qatoridan o‘ziga yarasha joyga, quyiroqqa o‘tqazilgani ma’lum bo‘ladi.

*Xalqaro siyosiy vaziyat.* Sohibqiron Amir Temur jahon siyosiy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ma’lumki, bu davrda, bir tomondan, Sulton Boyazidning Bolqon yarimoroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropaga xavf solayotgan edi. Ikkinchi tomondan, Boyazidning o‘zi G‘arbga tomon shiddat bilan siljib borayotgan xavfli raqib – Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo‘lgan edi. Bunday siyosiy vaziyatda Boyazidga qarshi kuchlarning ma’lum darajada birlashuvi tabiiy edi. Avvalambor Boyaziddan yengilib, o‘z yer va mulklaridan mahrum bo‘lgan Kichik Osiyo mamlakatlarining hukmdorlari Amir Temurdan madad istab, uning Qorabog‘dagi o‘rdagohiga borib, qaror topadilar. Hatto Vizantiya va G‘alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari yordam so‘rab Amir Temurga murojaat qiladilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to‘lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to‘lashga va’da qiladilar. Bunday taklif Amir Temurga ma’qul tushadi. Chunki Turkiyani dengiz sohilidagi tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. Shunday qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Sulton Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi. Bu vaziyatdan Amir Temur ustalik bilan foydalanadi. Elchilik aloqalari. Anqara yaqinida turklarning 160 ming kishilik qo‘shini ustidan qozonilgan buyuk g‘alabadan so‘ng Amir Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan bo‘lgan aloqalarining mazmuni tubdan o‘zgaradi. Endilikda Amir Temur ular bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash va o‘zaro savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarga ahamiyat beradi. Amir Temur 1402-yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yo‘llaydi. Elchilar Parijga 1403-yil may oyida yetib boradilar. Elchilar ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta’minlash va agar qirol hamda gersoglar rozi bo‘lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi. Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunda Amir Temurga yo‘llagan javob maktubidan ma’lum bo‘lishicha, Amir Temur takliflari Fransiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan. Xuddi shu davrda Amir Temurning Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarida g‘arbiy viloyatlar hokimi Mironshoh faol qatnashdi. G‘arbiy Eron, Iroq, Ozarbayjon, Armanistonni o‘z ichiga olgan mulklar hokimi Mironshoh Amir Temurning keksayib qolgan davrida G‘arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o‘zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida nasroniy ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta’minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli G‘arbda Mironshoh tez orada “katolik oqimining homiysi” sifatida

shuhrat qozondi. Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda qiziqib qolgan edi. 1402-yilning bahorida dastlab Ispaniya elchilari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Amir Temur va Boyazidning kuch- qudrati, boyligi va qo‘shinining sonini bilish hamda ular qo‘l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlari, dini va qonunlari haqida aniq ma’lumotlar to‘plash topshiriladi. Sharq va G‘arb davlatlarining elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in’omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo‘shib Amir Temur Muhammadqozi ismli o‘z vakilini Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Genrix III 1403-yilda Amir Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilarni yuboradi. Unga Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. Ispaniya elchilari Samarqandda Amir Temur tomonidan tantanavor qabul qilinib, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatadilar. Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404-yilning sentabr- noyabr oylarida Samarqandda bo‘ladilar. Amir Temurning Xitoy tomonga yurishi munosabati bilan boshqa ko‘pgina davlatlarning elchilari kabi Ispaniya elchilari ham 1404-yilning 21-noyabrida Samarqanddan jo‘natib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib boradi. Klavixoning safar taassurotlari “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi” va “Samarqandga sayohat kundaligi” nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi. Tashqi savdo. Amir Temur o‘z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi. Tashqi savdoda ham Samarqand katta o‘rin tutgan. Samarqandga turli mamlakatlardan, xususan, Xurosondan ma’danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, choy, mushk va boshqa mollar, o‘zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi. Klavixo Xitoy poytaxti Xonbaliqdan 800 tuyalik savdo karvoni kelganini o‘z kundaligida qayd etgan. Bu davrda Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan O‘rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga boradigan xalqaro savdo yo‘li – Buyuk Ipak yo‘lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha muhim chora – tadbirlar ko‘rganlar. Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalari kengaydi. Bu esa Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalarining barqarorlashuviga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik (IV asrdan XVI asrgacha). Sharq, -Toshkent 2017

2.Amir Temur, https://uz.wikipedia.org

3.To‘lqin Alimardonov. Amir Temurning Ovroosiyo geosiyosati yoki uning tarixiy saboqlari, https://kh-davron.uz

4.Turan International University, Amir Temur va Temuriylar davri siyosiy tarixi https://turan-edu.uz.

## AMIR TEMUR DAVLATCHILIGI VA DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI

**Baxtiyorova Ruxshona Sodiqjon qizi**
**Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti “Tarix” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**
**Bahtiyorovaruxshona76@gmail.com**
**Ilmiy rahbar:Djunayev Farxod Abduxamidovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Amir Temur davlatchiligi va davlat boshqaruvi tizimini tarixiy nuqtai nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada Temuriylar davlati markazlashgan boshqaruv tizimi, devonlar va viloyat idoralari, Temur tuzuklari asosida o‘rnatilgan siyosiy, ijtimoiy va huquqiy tartiblar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Amir Temurning boshqaruvidagi adolat tamoyillari, diplomatiya faoliyati va iqtisodiy siyosati o‘rganilib, uning davlat boshqaruvidagi o‘rni va bugungi davlatchilik merosiga ta’siri yoritilgan. Maqola tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tayyorlangan bo‘lib, Temuriylar davrlarining siyosiy va ijtimoiy tuzilmasini chuqur tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:**Amir Temur, Temuriylar davlati, davlatchilik, boshqaruv tizimi, Temur tuzuklari, adolat tamoyillari, diplomatiya, tarixiy manbalar.

**Kirish.**Amir Temur-o‘z davrining eng buyuk davlat arbobi va harbiy rahbari bo‘lib, O‘rta Osiyoda markazlashgan va barqaror davlat tizimini yaratgan hukumdor sifatida tarix sahifalarida qoldi. Temuriylar davlati uning siyosiy iqtidoriga tayangan holda mustahkam boshqaruv tizimi, samarali ma’muriyat va adolat prinsiplari asosida shakllangan. Amir Temur boshqaruvida davlat idoralari, viloyat va shahar boshqaruvi, moliya va harbiy tizim aniq belgilangan qoidalar bilan tartibga solingan.

Uning siyosiy faoliyati nafaqat ichki boshqaruv, balki xalqaro diplomatiya, iqtisodiy barqarorlik va qonuniylik tamoyillari bilan ham ajralib turadi. Shu sababli Amir Temurning boshqaruvi zamonaviy davlat boshqaruvi konsepsiyasini tushunish va tadqiq etishda muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Amir Temur mamlakat tinchligi, farovonligi va taraqqiyotida hukmdor roli o‘ynashini chuqur anglab yetgan davlat arbobi edi. Chunki uning davrida taraqqiyot, tinchlik ko‘pincha podsholarning siyosiy ilmi, aql-zakovati, adolatli, xushyorligi va boshqa sifatlarga bog‘liq bo‘lgan, aks holda, davlat va xalq tanazulga yuz tutishi mumkin edi. Kuchli davlat barpo etmoqlik uchun bevosita rahbar shaxsigina adolatli va komil inson bo‘lishi yetarli emas, maqsadga erishish uchun uning atrofdagi rahbarlar ham o‘z kasbining ustasi, fidoyisi va xalol bo‘lishlari shart. Amir Temur davlatining shon-shuhratini ta’minlagan muhim kuch uning vazirlari, amaldorlari va sipohiylari edi. Xodimlarning to‘g‘ri tanlagani va ularning kuch-quvvatidan davlatni boshqarishda foydalangani Amir Temurning eng muhim yutuqlaridan bo‘lgan. Amir Temur davlatni boshqarishda ikki toifa kishilar Forsiy va Chig‘atoylarning mavqeyi, bilim va tajribasidan foydalangan ayni damda, ularning kuch va imkoniyatlarini cheklashga intilganlar, bu esa barcha sohalar ustidan nazorat o‘rnatishga imkon bergan. Temur saltanatida boshqaruv idoralari: dargoh (Saroy) va devon (vazirlik)larga bo‘lingan[1].

Davlatning boshqaruv tizimi qat’iy markazlashtirilgan bo‘lib, unda oliy hokimyat sohibi-Sohibqironning shaxsiy nazorati ustuvor o‘rin egallagan. Davlat idoralar tizimi “devon”lar orqali amalga oshirilgan:devon-i a’lo-oliy idora, devon-i arz-harbiy ishlar, devon-i insho-diplomatiya, devon-i mol- moliya masalalari bilan shug‘ullangan[2] .

“Tuzluklar”da Amir Temur davlatini yetti vazir boshqargan haqida gap boradi,

1. Mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatning muhim ishlarini, kundalik muammolarini, taiyat ahvolini, viloyatdan olingan hosil, soliq-o‘lponlar, ularni taqsimlash ishlari yuklatilgan.
2. Sipoh bo‘yicha vazir. Sipohiylarning maoshlari va tanholarini boshqargan, parokandalikka tushib qolmaslik uchun sipoh ahvolidan hukmdorga xabar berib turgan.
3. Egasiz qolgan o‘lib ketgan va qochib ketganlarga tegishli mol-mulkni boshqargan, zakot va bojlarni to‘lagan.
4. Sarkori xosa, saltanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun mamlakatni kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinadigan harajatdan ogoh bo‘lgan.

5,6,7 Sarhadlar va tobe mamlakatlarga tegishli ishlarni boshqaruvchi uch vazirdan iborat hay’at bo‘lgan. Amir Temur saltanatning boshqaruvida va uni yanada mustahkamlanishuvida “tuzluklari”dagi o‘n ikki qoidaga butun hayoti davomida rioya etganini takidlagan.

1.Islom dini va shariati qonun-qoidalariga rioya qilishi, uni qo‘llab-quvvatlash.

2. Saltanatning ustunlarini tashkil etgan o‘n ikki tabaqa va toifadagilar bilan bemaslahat ish ko‘rish, siyosatini yurgizish.

3. Maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyor-ehtiyotkor bo‘lish.

4.Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqarish.

5. Amir va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, ularga izzat va hurmat ko‘rsatish, martaba va unvonlarni hurmat qilish.

6.Adolat va insof bilan siyosat yurgazish.

7. Sayyidlar, ulamoyu mashoyixlar, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni izzat va hurmat ko‘rsatish, martaba va unvonlarini hurmat qilish.

8.Biror ishni amalga oshirishga qaror qilgan bo‘lsa, unga butun vujudi bilan kirishish va uni oxiriga yetkazish.

9. Rioyat (oddiy xalq) ahvolidan doimo ogoh bo‘lish.

10.Turk, tojik, arabu ajamlarning turli toifalariga do‘stona munosabatda bo‘lish.

11.Barcha qarindosh-urug‘ bilan martabasidan qat’iy nazar yaxshi munosabatda bo‘lish.

12. Sipohiylarga, qo‘shinga e’tiborli bo‘lish[3].

Temuriylar davlati boshqaruvining tuzilmasi markazlashgan harbiy-byurokatik tizim bo‘lib, unda hokimyat vertikal tarzda tashkil etilgan. Bu tizim keyinchalik “Sharq byurokatik modeli” deb atalgan boshqaruv nazariyasiga yaqin. Max Veber ta’riflagandek, byurokrativ boshqaruvning asosiy belgilari-lavozimlarning ierarxik tartibi, aniq vakolat doiralari va rasmiy hujjat aylanishidir. Temur davlatida bu tamoyillar qat’iy amal qilgan: har bir amirning, devonning, viloyat hokimning vazifasi qonun bilan belgilangan, ular faoliyati ustidan markaziy nazorat o‘rnatilgan. Bu tizim davlatning markazlashuvini, siyosiy barqarorlikni va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlagan. Davlatning kuchi Temur nazarida, faqat hokimyat emas, balki ijtimoiy intizom, iqtisodiy barqarorlik va ma’naviy birlikda mujassam bo‘lgan[4.]

Temuriylar davlatining tashqi siyosati ham aniq nazariy asosga ega bo‘lgan. U real siyosat tamoyiliga amal qilib, kuch muvozanatini saqlash orqali xalqaro nufuzni oshirgan. Temur diplomatiyasida harbiy kuch, iqtisodiy manfat va siyosiy nufuz bir-birini to‘ldirgan. Uning Hindiston, Eron, Iroq, Kavkaz, Rossiya va Xitoy bilan olib borilgan diplomatik aloqalari bu nazariyaning amaliy isboti sifatida tarixda o‘rin egallagan[5]. Shu bois, Temuriylar davlati nafaqat o‘z davrining siyosiy kuch markazi, balki nazariy jihatdan ham mukammal davlatchilik modeli sifatida e’tirof etiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlatchilik tizimi o‘z davri uchun nihoyatda mukammal va puxta o‘ylangan boshqaruv modeli bo‘lib xizmat qilgan. Uning davlatni markazlashtirishga qaratilgan siyosati, qat’iy tartib-intizomga asoslangan boshqaruv uslubi hamda adolatni ustuvor qadriyat sifatida belgilashi Temuriylar davlatining mustahkam va uzoq davom etishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, “Temur tuzuklari”da aks etgan g‘oyalar davlatni boshqarishda tartib, adolat va oqilona siyosat yuritish zarurligini ko‘rsatdi. Shuningdek, Amir Temur davlatchiligi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi tarixiy jarayonlarda ham muhim ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, u yaratgan boshqaruv tizimi va siyosiy tajriba bugungi kunda ham ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda. Shu bois, Amir Temur merosi milliy davlatchilik tarixining muhim qismi sifatida qadrlanadi va zamonaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**

1.Baxiyorov.SH. Amir Temur temuriylar davlat boshqaruvi tizimi diplomatik aloqalari.//Kokand University ilmiy maqolasi, 76-77 bet

2.Ahmedov.B. Amir Temur davlati boshqaruv tizimi va uning tarixiy ahamiyati. Toshkent: Fan, 212-bet.

3.”Temur tuzuklari” Toshkent 1991. 53-57 betlar.

4.Shamsutdinov R. Temuriylar davri boshqaruv tizimi va siyosiy tafakkur.-Toshkent: Ma’naviyat, 2019. 276-bet.

5.Xusanboyev. A. Amur Temur va Temuriylar davlatchiligi tarixi//GLOBAL SCIENCES JURNALI.

## TEMURIYLAR DAVLATIINING SUG‘ORISh TARIXIDAN

**F.I.Shirinova. NavDU “Tarix” kafedrasi**
**katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)**

Amir Temur va temuriylar haqida so‘z ketganda aksar hollarda mavzuning tarix, harbiy yurishlar bilan bog‘liq tonlariga ko‘proq e’tibor berib kelingan. Gap o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy munosabatlari masalasiga taqalganda esa jamiyatning “hukmron sinflar” manfatlarning ustunligi va oddiy xalqning “ezilgani” borasida fikr yuritishdan chetga chiqilmagan hisob. Vaholanki, o‘sha davr uchun taraqqiyotni yuksak darajaga olib chiqishda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonini ham shunday pag‘onaga ko‘tara bilishlik taqazo etgani oydek ravshan edi. Temuriylar, ayniqsa Amir Temur davridagi davlatimiz qudrati ko‘p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar quvvati bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

“Temur tuzuklari”da bu masalaga bag‘ishlangan maxsus bob bor. unda mazkur soha ishtirokchilari (dehqon, hunarmand, savdogar, soliqchi va hakazo), ob’yeklari (yer-suv, hosil va boshqalar)-har birining o‘z o‘rni va vazifasi aniq belgilab qo‘yilgan. Eng mas’uliyatli vazifani esa davlat o‘z bo‘yniga olgan. Xarobo yerlarga suv chiqarish va obod qilish, buzilgan ko‘priklarni tuzatish, yangilarini qurish, yo‘l xavfsizligini taminlash, savdo va elchilik karvonlariga qo‘riqchi va soqchilar tayinlash, yo‘lovchilar hayoti va mol-mulkini muhafaza qilish, karvonsaroy va mehmonxonalar qurish kabi katta kuch va mablag‘ talab qiladigan ishlar shular jumlasidandir. Amir Temurning barcha ijtimoiy tabaqalarga birday munosabatda bo‘lgani va, eng muhimi, jamiyatni boshqarishda ularning har biri imkoniyatlaridan to‘la foydalanishga intilgani tarixdan ma’lum. Bu borada Amir Temur ilgari surgan g‘oya - usul ham aniq: kuch - adolatda.

Barcha zamonlar uchun oddiy bir haqiqat bor: insonni yer boqadi. Yerni ishlash, eng avvalo, sugorish lozim. Amir Temur mazkur oddiy haqiqatni davlat miqyosidagi masalaga ko‘tara oldi. Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, “olam ravnaqi va ro‘shnoligi yo‘lida hafsalasi nihoyatda baland bo‘lgan (Amir Temur) obodonchilikka yaraydigan biron parcha yerning zoye bo‘lishini ravo ko‘rmasdi”. Shu qoidaga rioya qilgan holda u Movounnahr, Xuroson v aboshqa o‘lkalarga suv chiqarib obodonchilik, yangi yerlarni ochish, bog‘lar barpo etish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Amir Temur davrida Samarqand, Shahrisabz va shahar-u tumanlarda o‘nlab kanallar, ariqlar qazildi, daraxtzorlar, ekinzorlar, bog‘-rog‘lar yashnab, to‘kin - sochinlik yuzaga keldi, xorijdan kelgan sayyohlar, elchilar mamlakat go‘zalligidan hayratga tushganlar. Bunday tadbirlar nafaqat bizning yurtda, balki saltanat tarkibiga kiruvchi boshqa mamlakat va makonlarda ham amalga oshirilganini alohida takidlash lozim. Shu ma’noda o‘sha zamon tarix va geografiya olimi Hofizi Abruning guvohliklari diqqatga sazovordir. Unga ko‘ra, Amir Temur Xurosondagi Murg‘ob daryosi (hozirda Afg‘oniston va Turkmaniston hududlaridan oqadigan daryo) vohasida dehqonchilik va obodonchilik xarob ahvolga tushib qolganini ko‘rib, daryoda yigirmata kanal qazib, suv chiqarishni buyuradi. Shu vajdan ham ularning nomini keltirib o‘tamiz: Dilkusho, Ganjravon, Darband, Ganjxona, Umar Tobon, Oqbug‘o, Qutlug‘ xonim, Shayx Abu Said, Shayx Ali, Davlatshoh Jondor, Gulbag‘on, Qutlug‘ Temur, Hasan Jondor, Amir Alovuddun, Sanjadak, Havro‘z, Navbatxon, Minglixoja, Kepakchi, Ali Malik, kanallari[115]. Yuqorida tilga olingan qutlug‘ xonim kanali aftidan Amir Temurning opasi Qutlug‘ Turkon Og‘o nomiga berilgan bo‘lishi kerak. Vodiydagi obodonchilik va dehqonchilik ravnaqiga keying yillarda ham e’tibor susaymaganini shundan ham bilsa bo‘ladiki, Xurosondagi so‘ngi temuriylardan biri Sulton Husayn Boyqaro Bolo Murg‘ob va Marv oralig‘idagi hududlarda kanallar qazitish, ta’mirlash, ekinzorlar barpo etish tadbirlarini amalga oshirgani ma’lum.

Amir Temurning Ozarbayjonda ham sun’iy sug‘orish tizimlarini bunyod etish ishlariga katta ahamiyat berganini bilamiz. Chunonchi, Qorabog‘da bo‘lib turgan paytida Sohibquron uzunligi 60-70 km keladigan Barlos kanalini qazitganligi haqida guvohliklar bor. Mazkur tadbirlar natijasida qarovsiz yerlarga suv chiqib, sahro va xarobolar o‘rnida ekinzorlar, bog‘-rog‘lar, qishloqlar qad ko‘targanligi manbalarda aniq yozilgan[116] . Amir Temurning Kobuldan nariroqda oqadigan G‘urbon daryosidan 30 -35 km uzunlikdagi kanal qazdirganligi va u Jo‘yi mohigir hamda Jo‘yi nav nomlari bilan mashhur bo‘lgani, natijada bu atrofda obodonchilik yuzaga kelgani ham ma’lum[117].

Ko‘rib turganimizdek, Amir Temur va temuriylar davrida suniy sug‘orishga katta e’tibor berligan. Shu bilan birga lalmikor yerlar imkoniyatlardan ham unumli unumli foydalanishga harakat qilingan. “Tuzuklarda” takidlanishicha , lalmikor yerlar jadiblarga (Gektarlarga) bo‘linib, yig‘ib olingan hosilning uchdan bir yo to‘rtdan bir qismi soliq sifatida to‘langan[118].

---

[115] Jug’rofiyoyi Xofizi Abru, Qismati rab’I Xuroson, Moyil Haraviy nashri. Tehron, 1349 (h), 34-bet.
[116] Shomiy. Zafarnoma, 1-jild, 245, 291- betlar; Yazdiy, Zafarnoma, 822, 910-betlar.
[117] Yazdiy, Zafarnoma, 621-bet.
[118] Temur tuzuklari, 124-bet.

Yer-suvdan unumli foydalanish dehqonchilikning barcha sohalari rivojiga turtki bo‘lgan. 1404-yili Samarqandda bo‘lgan Ispan elchisi Klavexo qoldirgan xotiralar fikrimiz dalili bo‘lishi mumkin. Uning yozishicha, non shunchalik arzon bo‘lganki, undan arzon bo‘lishi mumkin emasdi. Guruch esa haddan tashqari ko‘p. Bir qop arpa bir miri (ya’ni kumush tanganing 4/1), bitta katta qo‘y taxminan o‘n kumush tanga atrofida bo‘lgan[119]. Mazkur ma’lumotlar o‘sha paytda g‘allachilik, chorvachilik qanday yo‘lga qo‘yilib, nechog‘lik yuqori hosildorlikka erishilganidan dalolatdir. Shuningdek, paxtachilik, polizchilik, bog‘dorchilik kabi sohalar ham izchil rivojlanib borgani ma’lum. Poliz ekinlaridan ayniqsa, qovun xorijda ham mashhur edi. “Har kuni shaharga qovun ortilgan tuyalar shunchalik ko‘p keladiki, ularning qanday sotilib ketishi-yu, qanday qilib iste’molchilarga yetib borishiga aql bovar qilmaydi”, deb yozgan edi Klavixo yurtimiz qovunlariga ta’rif berib. Yo bog‘larni olaylik, Samarqand, Shahrisabz, Hirot va boshqa ko‘plab joylarda o‘nlab bog‘lar barpo etilgan. Birgina Samarqand atrofida Behisht, Shimol (shamol), Dilkisho, Baland, Chinor, Zog‘on, Bog‘nav, Jahonnamo, Nahshi Jahon, Gulbog‘, Bo‘ldu, Davlatobod, Amirzoda Shoxrux kabi bir qator bog‘lar qad ko‘targan. Ular nafaqat bog‘dorchilik, balki, ichidagi qasrlari bilan me’morchilikning nafis namunalari ham edilar.

Mirishkor dehqonlar va bog‘bonlar hosil yetishtirish bilan bir qatorda ularni uzoq muddatda saqlashni ham yaxshi eplaganlar. Chunonchi, anjir qoqi, qovun qoqi, turshak, mayiz va boshqa ko‘plab quruq me’valar yil bo‘yi, ayniqsa, salqin-sovuq fasllarda bozor rastalari va xonadonlarni bezagan, chet ellarga olib borib sotilgan.

Mazkur sohalarda yuqori natijalarga erishishda adolatli soliq tizimining ham mavjudligi o‘z ta’sirini ko‘rsatgani shubhasiz. Shu ma’noda “Tuzuklar”dagi quyidagi qaydlar qiziq: “Amir qildimki, hosil pishib yetilmasdan raiyatdan mol-u hijod olinmasin. Hosil yetilgach, soliqni uch bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘lovchi yuborilmasdan soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Ag ar soliq yig‘uvchini yuborishga majbur bo‘linsa, ular soliqni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar; kaltak-arqon ishlatib ishni urish-so‘kishgacha olib bormasinlar. Ularni band eti zanjir bilan kishanlamasinlar”. [120]

Ishlah chiqarishga kelsak, ip, ipak, jundan turli-tuman gazlamalar, matolar to‘qilgan, keyim-kechaklar tikilgan. Qurolsozlik, oynasozlik, duradgorlik, tosh yo‘nuvchilik, zargarlik, ko‘nchilik, kulolchilik kabi bir qator boshqa sohalar yuqori saviyada rivoj topgan. Chunonchi, ispaniyalik elchini lol qoldirgan sohalardan biri, zarduzlik edi. U qimmatbaho matolarni zarrin iplar bilan bezash, olovdek yonib turgan gilamlarga zarrin naqshlar ila jilo berish hunari nafis san’at darajasiga yetkazilganligiga tan bergan.

## “BOBURNOMA” ASARIDA ETNIK JARAYONLARNING YORITILISHI

**To‘lqin Mamatqobulov Eshqulovich- Toshkent iqtisodiyot va pedogogika universiteti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedra” katta o‘qituvchisi.**
**Akbar Idiyev Avaz o‘g‘li**
**O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti**

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asarida keltirilgan etnik ma’lumotlar hamda Markaziy Osiyo va Hindiston hududlarida XV asr oxiri — XVI asr boshlarida yuz bergan etnomadaniy jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar, “Boburnoma”, A. Navoiy, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Afg‘oniston, Samarqand, Farg‘ona, Temuriylar.

**Abstract:** This study aims to scientifically analyze the ethnic information presented in the work “Baburnama” by Zahiruddin Muhammad Babur, as well as the ethnocultural processes that took place in Central Asia and India from the late 15th to the early 16th centuries.

**Keywords:** Zahiruddin Muhammad Babur, Baburids, “Baburnama”, A. Navoi, Transoxiana, Khorasan, India, Afghanistan, Samarkand, Fergana, Timurids.

Bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining noyob namunasi bo‘lmish “Boburnoma” asari milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganib kelinmoqda. Xususan, mazkur

[119] Klavixo, Kundaliklar, 138-bet
[120] Temur tuzuklari, 124-bet.

asar adabiy, tarixiy hamda etnografik, lingvistik[121], manba sifatida alohida ilmiy ahamiyatga egadir[122].

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng milliy tarixni, xususan o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

Mazkur asarning S. Leyn-Pul (yoki S. Leyn-Poole) tomonidan amalga oshirilgan tarjimasida ta’kidlanishicha, Bobur va uning qo‘shini asosan turklar va afg‘onlardan tashkil topgan bo‘lsa-da, Yevropa olimlari tomonidan mazkur davlat yanglish ravishda “Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi” deb atalib kelgan.

Shuningdek, asarda Andijon tavsifi haqida so‘z yuritilganda, uning asosiy aholisi turkiy xalqlardan iborat ekani Bobur tomonidan alohida qayd etiladi. Ayni paytda, Alisher Navoiy Hirotda yashab ijod qilgan bo‘lsa-da, uning asarlari ham mazkur til an’anasidan uncha farq qilmaganligi ta’kidlanadi. Bu holat esa jonli turkiy til tarqalgan hudud faqat Movarounnahr va Sharqiy Turkiston bilan cheklanib qolmagan, degan xulosaga kelishimizga asos beradi.

Ushbu asarda XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Uratepa, Shoxruhiya, Samarqand va Hisor shaharlarida yashagan Dulday, Qipchoq, Bahrin, Charos, Mo‘g‘ul, Duglat, Bekchiq, Qavchin, Arg‘un, Uyg‘ur, Barlos, Ming, Cho‘graq, Mang‘it, Otarchi va boshqa qabilalar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan[123].

Mazkur asar turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki unda turkiy xalqlar yashash hududlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Asardagi etnik ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish turkiy xalqlarga mansub qabila va urug‘ nomlarini ham aniqlash imkonini beradi. Husravshoh muzofoti hududida yashagan mahalliy aholi, xususan turklarning ahvoli o‘sha davrda og‘ir bo‘lganligi qayd etilgan. Uratepa hududidagi Dihkent qishlog‘i aholisi sartaroshlar bo‘lib, ularning xo‘jalik faoliyati turklar kabi otboqarlik va qo‘ychilikka asoslangan. Qobul tavsifi berilganida, u yerda turli qabila va guruhlar yashashi qayd etilgan: vodiy va tekisliklarda aymaq va turklar, shahar va ayrim qishloqlarda sartaroshlar; boshqa qishloq va viloyatlarda poshshoyi, perachi, tojiklar, bereklar va afg‘onlar yashashi alohida ta’kidlangan. G‘aznaning tog‘li hududlarida hazoriylar va qoraunaslar (nikuderilar)[124] hayot kechirishib, ularning ba’zi birlari mo‘g‘ul tilida so‘zlashishlari bayon etilgan. Tog‘lik hududlar ya’ni shimoliy-sharqda (Nijrau tumani nazarda tutilmoqda) kofirlar yashaganligi qayd etib o‘tilgan. Qobul viloyati aholisi taxminan o‘n yoki o‘n ikki tilda so‘zlashashi keltirib o‘tilgan ular: arab, fors, turk, mo‘g‘ul, hind, afg‘on, peshshay, perachi, gebri, bereki, lamgani. Hech bir viloyatda, bizga ma’lum bo‘lishicha turli tillarda so‘zlashadigan qabilalar bu darajada ko‘p emas deb Bobur mazkur mintaqani tavsiflaydi.

Qobul viloyatining tog‘li va tog‘oldi tumanlari bo‘lgan Pandxir, Gurband haqida ma’lumot berilgan vaqtda mazkur hudud aholisi kofir emasligi ta’kidlangan shu bilan birga hududning mineral boyliklari va flora va fauna dunyosi haqida berilgan ma’lumotlari asosida mazkur hududlar aholisining asosiy mashg‘ulotlari sifatida chorvachilik (hazoriylar Gurbanddan, aymoqlar va turkiy qabilalar esa Gurband tog‘lari va Boron daryosi etaklaridagi mahalliy aholi tilida Kurrai Toziyon va Dashti Shayx tekisliklarida istiqomat qilishgan[125]).

Asarda shuningdek turkiy va aymoqlarning Samarqandga ko‘chishlari ham keltirilgan demak bundan xulosa qilishimiz mumkinki yagona bayroq ostida birlashtirilgan Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida istiqomat qiluvchi yuqoridagi etnik birliklar iqlim sharoitlariga qarab doimiy ko‘chmanchi hayot tarzini kechirganlar.

---

[121] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 2017. 368 б., . Le Livre de Babur, Parij, 1985; . Histoire des Grands Moghols, Jean- Paul Roux, Paris 1995., Histoire de L’Empire mogol, Fayard, Paris 1993.

[122] Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. – Т.: “Фан” нашриёти, 1994. 46 б., Жалилов С. Бобур ва Андижон. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 1993. – 102 б, Уилям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда, –Т.: “Чўлпон” нашриёти, 1995.106 б.

[123] Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. «Фан», Т., 1985. С-153.

[124] Никудерлар (мўғ. Қараунас) - Ўрта аср мўғул қабилаларидан бири. "Солномалар тўплами" ва бошқа ўрта аср манбаларида эслатиб ўтилган. Айни пайтда ҳазоралар таркибидаги етник гуруҳ.

[125] Ойратлар ёки Чараймоқлар (дари тилида "тўртта қабила") - Афғонистоннинг шимоли-ғарбий қисми ва Эроннинг шимолий-шарқида яшовчи ва асосан ярим кўчманчи турмуш тарзини олиб борадиган эронийзабон қабилалар гуруҳлари (жамшидлар, фирузкўҳи, тайман, теймур).

Bobur o‘lkaning geografiyasi va aholisi to‘g‘risida batafsil ma’lumotga ega ekanligi tufayli Farg‘ona va Samarqand tavsifini juda aniqlik bilan bayon etadi. Shu bilan birga, Dashti Qipchoq hududidan Farg‘ona vodiysiga kirib kelgan ko‘chmanchi turkiy qabilalar o‘troq bo‘lib joylashganlar. Mazkur ma’lumotlar keyingi davr tarixchilari Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Mahmud ibn Vali va Abulg‘oziyxon tomonidan ham qayd etib o‘tilishi[126] mazkur asarning ilmiy qiymati yuqoriligini anglatadi.

Samarqand shahri haqida gap ketganda Boburning mazkur shahardagi bozorlar ma’lum bir kasb toifasiga ixtisoslashgan hunarmandlar bozorlaridan tarkib topganligi va bu hol hududdagi boshqa hech bir shaharda uchramasligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga mazkur shahar tavsifida ushbu shaharda qandolatchilik sohasi ham rivojlanganligi qayd etiladi. Ulug‘bek rasadxonasi oldida kog‘oz juvoz mavjud bo‘lib, unga Konigildan suv kelishi “Boburnoma”da qayd etiladi va mazkur kog‘oz dunyoda tengi yoqligi ta’kidlanadi.[127]

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” asari bevosita siyosiy ta’sir doiralari yoki alohida hukmron toifa uchun mo‘ljallangan tarixiy manbalardan farq qiladi, chunki unda bunday ma’lumotlar mavjud emas. Shu bilan birga, asarning Markaziy Osiyo va Hindiston etnografiyasini o‘rganishda qimmati shundaki, u alohida shaxslar va ularning qabila mansubligini emas, balki mahalliy aholi va uning xo‘jalik faoliyatini asosiy e’tiborda aks ettiradi. Bu jihat “Tarixi guzidai nusratnoma”, “Shayboniynoma” kabi boshqa tarixiy manbalardan farq qiladi, ularda etnik ma’lumotlar asosan hukmron tabaqa vakillariga bog‘langan. “Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlar, jumladan etnik ma’lumotlar ham, aniqligi bilan ajralib turadi — keyingi davr tarixchilari aynan ushbu manbadan foydalangan.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Азимжанова С. А. Индийский диван Бабура. –Ташкент., Фан, –1966.
2. Машрабов З. Шокаримов С. Асрларни бўйлаган Бобур. –Ташкент., “Ёзувчи” нашриётию – 1997. – 176 б.
3. Jamolov S. “Boburnoma” ning badiiy qimmati haqida. – Toshkent. 1989.
4. Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. –Ташкент., “Фан” нашриёти, 1994. 46 б.
5. Жалилов С. Бобур ва Андижон. –Ташкент., “Ўзбекистон” нашриёти, 1993. – 102 б
6. Уилям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда, –Т., “Чўлпон” нашриёти, 1995. – 106 б.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., “Ўқитувчи” нашриёти. -2017. – 368 б.
8. Le Livre de Babur. –Paris. –1985.
9. Histoire des Grands Moghols, Jean-Paul Roux, – Paris. – 1995.
10. Histoire de L’Empire mogo. Fayard. – Paris – 1993.
11. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. – Ташкент. «Фан». – 1985. – С-153.
12. Бабур-наме, стр. 62. см.: Бабур-наме, стр. 223; Бобирнома, Тошкент, 1960, стр. 254. Хофиз и Таныш, Абдулла-наме ркп. ИВ АН УзССР, № 2207, л. 2046 (3936)
13. Текст воспроизведен по изданию: Бабур-наме. Ташкент. Главная редакция энциклопедий. 1992. С- 20,24,25,268,271,273,275,278,285.

## «ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ»: ЁЗИЛИШИ ВА ЎРГАНИЛИШИ

**И.Қулжонов, НавДУ**

Минг йиллар давомида инсониятнинг буюк даҳолари тарихий тараққиётнинг ички мантиғини тушунишга ва шу асосда инсониятнинг иқтисодий, сиёсий ва маънавий ривожланиши муаммоларини ижобий ҳал этиб, жамиятни бошқаришнинг энг мақбул, адолатли усулларини жорий қилишга интилдилар.

Соҳибқирон мамлакат тахтига ўтирган биринчи кунлариданоқ, яъни 1370 йил апрель ойиданоқ давлат ишларини қонуний ҳужжатлар асосида юритишга ҳаракат қилади. Бу фикрни

[126] Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. “Ўқитувчи”. Т., б- 30,79.
[127] Бабур-наме, стр. 62. см.: Бабур-наме, стр. 223; Бобирнома, Тошкент, 1960, стр. 254. Хофиз и Таныш, Абдулла-наме ркп. ИВ АН УзССР, № 2207, л. 2046 (3936)

ойдинлаштириш зарурати шу хусусда кенгроқ тўхталиб, батафсилроқ мулоҳаза юритишни тақозо қилади. Амир Темур ўз давлатини қонунлар асосида барпо этмаса, бундай давлатнинг нуфузи, салоҳияти, обрўсига путур етар ва унинг ҳукмдори ҳам юқори даражада тан олинмасди.

Ибн Арабшоҳ «Амир Темур тарихи» китобида шундай ёзади: «Темур тарих китоблари, ....анбиёлар қиссаларини, подшолар сийратлари ва ўтган салафлар ҳақидаги ҳикояларни доимо ўқитиб, қунт билан тинглар эди. У шу даражага бориб етгандики, агар ўқиётган киши бирор хатога йўл қўйса, Темур унинг хатосини тузатиб, саволга солар эди».[128]

Тузукларнинг Амир Темур девонида туркий тилда ёзилганлиги ҳақида хулоса қилишга машҳур тарихчи Шараффуддин Али Яздийнинг қуйидаги фикрлари асос бўла олади: «...шу тартибда ул ҳазрат ҳаётининг улуғ воқеалари ва кечинмаларини ўз ичига олган туркий манзума ва форсий асар, алоҳида алоҳида назм ва (наср) тарзида тузулган эди», – деб гувоҳлик бериши[129], шунингдек, яқинда тўла ҳолда нашр этилган «Қиссаи Темур»да «амр этдимки, ул мактуб суратини воқеаларим дафтарида сабт этгайлар», – деб Темурнинг ўз қўли билан ёзилган сўзларнинг манбада учраши[130] «Тузуклар» XVII асрда Ҳиндистонда тузилган компилятив асар деб таъкидловчиларга жавоб бўла олади.

«Ушбу асар ёзилаётганда, – дейилади И.Мўминовнинг рисоласида, – унинг бобларини Темур неча марталаб ўқиб чиққан, баъзи жойларини тузатган, таҳрир этган, қўшимча далиллар зарур бўлиб қолганда, ўша воқеа содир бўлган жойларга одам юбориб, аниқлаштирган, воқеаларнинг доимо тўғри, тарихий ҳақиқатга мос равишда ёритилишини талаб қилган».[131]

«Темур тузуклари», «Тузукот Темурий», «Темурнинг айтганлари» ва «Воқеоти Темурий» – «Темурнинг бошидан кечирганлари», «Қиссаи Темур», «Малфузоти Темурий», «Темур Қиссаси», «Зафар йўли», «Зафарнома», «Таржимаи ҳол», «Эсдаликлар», «Танзиймот» (янги қонун - қоидалар, ислоҳот), туркий чиғатой тилидан рус тилига ўгирилганда Малфузот ва Тузукот ўрнига «Дастур ул амал» номлари билан машҳурдир. Тузук сўзи асли эски ўзбек тилидаги «Қонун - қоидалар тўплами», «Низом» каби ҳуқуқшуносликка оид маънони англатган.

Тузукларнинг топилиши ва дастлабки таржималарининг нашр этилиши ҳам ўзига хос хусусиятларга эга. Абу Толиб ал Ҳусайний ат Турбатий (1625 й. Теҳронда вафот этган) Макка ва Мадинага ҳажга борганида, Яманда 1616 йилгача ҳукм суриб, кейинчалик бу ерга кўчиб ўтган Усмонли туркий ҳукмдор Жаъфар Пошшанинг кутубхонасидан Темур Тузукларининг асли туркий тилдаги нусхасини қўлга киритган. “Унинг туркий ва арабий алфозлари - ю, иборалари тушунишдан узоқ, чунончи тарқоқ ва паришон бўлганлигидан мен уни форс тилига ўгирдим”, – деб ёзиб қолдирган таржимон.[132] Таржимани тамомлаб Шоҳ Жаҳоннинг отаси Нуриддин Жаҳонгирга тақдим қилган. Уни эса инглиз офицери майор Вильям Дэви Ҳиндистондан топиб, 1779 йилда уни Англияга олиб келади. Бу нусха 1336 йилдан 1375 йилгача, яъни Соҳибқироннинг 41 ёшигача бўлган даврини ўз ичига олади. В. Дэви унинг Амир Темур давлатида қўлланилган аҳкомлар ва ислоҳотларни ўзида тўплаган қисмини инглиз тилига таржима қилган ҳамда «Темур тузуклари» номи билан машҳур бўлиб келган (У. Уватов). Ушбу Тузуклар қисми форсий тўлиқ матни билан 1783 йилда Оксфорд университетида араб тили бўйича профессор лавозимини эгаллаб турган Джон Уайт раҳбарлигида нашр этилган. Абу Толиб ал Ҳусайний таржимасидан қолган тарихий қисмини ҳам майор Чарльз Стюарт 1830 йилда инглиз тилига ўгириб, нашр эттиради.

Абу Толиб ал Ҳусайний таржимаси ана шу тарзда жаҳон кеза бошлайди. Аммо таржима қилинган вақтда ундан қониқмаган Ҳиндистонда ҳукм сурган Темурий султонлардан Шоҳ Жаҳон подшоҳ саройида хизматда бўлган мансабдор шахслардан Амир Темурга саккизинчи даражада набира ҳисобланган Муҳаммад Афзал бин Тарбиятхон Бухорийга ёки Муҳаммад

[128] Ибн Арабшоҳ. 94 - б.
[129] Шарофиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Камалак, 1994, 91 - б.
[130] Қиссаи Темур... 2000, 255 - б.
[131] МўминовИ.М.Амир Темурнинг Ўрта Осиё халқлари тарихида тутган ўрни ва роли. Тошкент:Фан, 1993, 18б.
[132] Убайдулла Уватов. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Тошкент: Шарқ, 1997, 137 - б.

Ҳифз ал Бухорийга 1637 йилда топшириб, уни асл манбаларга, жумладан, Шарофиддин Али Яздийнинг «Зафарнома»си билан солиштириб, ноаниқ жойларини аниқлаб, баъзи жойларини

тўлдиришни сўраган. Шу зайлда малфузотлар Ш. Яздий «Зафарнома»сига тўла - тўкис мос келтирилган (У.Уватов).[133]

«Тузуклар»да тасвирланаётган воқеалар Амир Темур вафот этган йили 1405 йилнинг 18 феврали билан тугайди. Демак, валиаҳд тайинлаш масаласидаги ҳукмларнинг ўзгаришсиз қолиши «Тузуклар»нинг ҳақиқий ва унинг муаллифи ҳаётлигида тузилганлигини кўрсатади. А.Соғуний ва Ҳ.Кароматовлар таржимасида биринчи мақола «Етти йиллик урушдан сўнг зафар ва нусрат билан Самарқандга қайтдим…» деб тамомланади. Бу сана мелодий 1404 йилга тўғри келади.

Ушбу манбани форс тилидан ўзбек ва рус тилига қайта таржима қилиш ишига муҳим ҳисса қўшган олим Ҳабибулла Кароматовнинг фикрича Мир Абу Толиб Ҳусайний ат Турбатий 1637 йилда Темур Тузукларини туркий тилидан форс тилига ўгириб, «Тузуки Темурий» номи билан Бобурий ҳукумдор Шоҳжаҳонга (1628 - 1657) тортиқ қилган нусха, бу ўзи алоҳида асар. Ундан кейин эса Шоҳжаҳон таржимада баъзи ноаниқликларни топгани учун Декан вилоятининг қози калони Муҳаммад Ашраф Бухорийга Шарофиддин Али Яздийнинг «Зафарнома» асари ва унга ўхшаш манбаларга солиштириб, ҳатто ва камчиликларини тузатиб чиқишни топширган. Шу зайлда асарнинг янги тўлдирилган таҳрири вужудга келиб, у «Малфузоти Темурий» номи билан танилган.[134]

Француз олими Л.Лянгле ўзининг 1772 йилда ёзилган «Темурнинг сиёсий ва ҳарбий бошқаруви» номли асарида бу тарихий - ҳуқуқий манбанинг аҳамияти тўғрисида шундай ёзган эди: «Биз ҳарбий юришларига талончилик мақсадида қилинган босқинчилик деб қараган татарлар хони (Амир Темур ҳарбий ва сиёсий тактика ҳақида трактат (рисола) ёзганлиги, ўз авлодлари учун доно тизим яратганлигини, тасаввур ҳам қила олмаймиз. Қачонки бу ҳукмдор бошқариш тизимини қўлдан қўйиш лозимлигини англагач, ўзининг ворисларига оғзаки маслаҳат бериш билангина чекланиб қолмасдан у Темур, империя билан биргаликда яна ҳам қимматли нарса – уни сақлаш санъатини совға қилди».[135] Бундан кўриниб турибдики, олим «Тузуклар»га юксак баҳо бериб, уни давлатни бошқариш ва сақлаб қолиш санъати ҳақидаги рисола деб баҳолайди.

Немис тарихчиси Ф.Шлоссер ҳам Темурнинг фаолияти ҳақида ана шундай таъриф беради: «Умрини урушларда ўтказган Темур тез - тез Бухоро ва Самарқандга қайтиб турар ва ўзининг янги давлатига қонунлар тақдим этар эди. Бу қонунлар татар мўғуллари (Оврўпада шундай деб билганлар) томонидан қилинадиган ваҳшийлик ва вайронагарчиликларга ҳайрон қоларли даражада қарши турарди».[136]

XIX аср охири – XX аср бошларида яшаган маърифатпарвар олим Аҳмад Дониш Амир Темур шахси ва фаолиятига ҳамда унинг «Тузуклар»ига юксак баҳо берган эди. Жаҳон тарихида ҳар минг йиллик ёки юз йилликларда бирин - кетин уни янгиловчилар дунёга келиб турадилар, худди шунингдек, бир эранинг тамом бўлиши, бошқасининг бошланишидир. Қачонки, жаҳон йилномалари минг йиллик ва юз йилликларга тўғри келар экан, мусулмонлар орасида, албатта, Юпитер, Меркурий ва Зуҳро юлдузларининг хислатларини ўзида мужассамлаштирган, дин ва имонни янгиловчи инсонлар ва ана шундай хислатларни ўзида гавдалантирган давлат бошлиқлари ҳамда уларга ёрдам берувчи кишилар дунёга келади. Агар чуқурроқ назар ташласак, ҳар бир касб - ҳунарда, санъатда шундай янгиловчиларни кўрасан, одатда эса кишилар буларга эътибор қилмайдилар. Биз учун барча минг йиллик ва юз йилликларнинг янгиловчиларини аниқлаш муҳим эмас. Ким буни хоҳласа, «Тузуки Темурий»дан аниқлаши мумкин»[137], – деб ёзади олим.

---

[133] Убайдулло Уватов. Кўрсатилган асар, 139 - б.

[134] Кароматов Ҳ. «Темур тузуклари»ни Ўзбкистонда ўрганиш муаммолари.// Темур тузуклари: Сўз боши муаллифи ва масъул муҳаррир М.Али, форсчадан тарж. А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов. – Тошкент: Шарқ, 2005, 146 - 156 - б.

[135] Саидова К. Амир Темур даврининг муҳим ҳужжати. //Амир Темур илм - фан ҳомийси. Халқаро илмий конференция, 22 - 23 май. – Самарқанд, 2 - қисм, 1996, 143 - б.

[136] Шолоссер Ф. Всемирная история. 8 том. – Москва, 1870, – С.56.

[137] См.: Трактат Ахмад Дониша. История Мангитской династии. Перев. предис. и премеч. И.Наджафовой. – Душанбе: Дониш, 1967, – С.147.

Амир Темур Кўрагонийнинг ўзи саккизинчи юз йилликнинг (ҳижрий йил ҳисоби бўйича) янгиловчиси бўлиб келди. Ундан кейин ҳам ҳар бир мусулмон давлатида янгиловчилар вужудга келиб турганлар: тахминан тўққизинчи юз йилликда Ҳиротда Султон Ҳусайн Бойқаро (1469 - 1506); иккинчи минг йилликнинг бошларида Бухорода Абдуллахон II (1557 - 1598), ўн биринчи юз йилликда Сайид Субхонқулихон (1680 - 1702), ўн иккинчи юз йилликда эса Амири Маъсум – амир Шоҳмурод (1785 - 1800) янгиловчилар сифатида тарих саҳнасига чиқдилар. Кўриниб турибдики, илғор фикрли олимлар, ҳатто Амир Темурга «давлат ва динни янгиловчиси» деб баҳо берганлар. «Темур тузуклари»га ишончли, тарихий, фалсафий манба сифатида караб, ўзининг рисолаларида кенг фойдаланган Аҳмад Донишнинг «Манғит сулолалари тарихи» рисоласини форс - тожик тилидан рус тилига таржима қилган И.А.Нажафова ҳам (Душанбе, 1967) ушбу манбани «XVII асрда ёзилган компилятив асар» деб атайди.

Шундай қилиб, «Тузуклар» Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихида энг кўп фикр, баҳолар билдирилиб, ўз бошидан турли даврларда турлича муносабатни кечирган тарихий манбадир. Биз уни ўрганишимизда, асосан олимларимиз Б.Аҳмедов, Ҳ.Бобоев, Ҳ.Бобобековлар томонидан айтилган ва биз томонимиздан ривожлантирилган фикрлар асосида қуйидаги қисқа хулосаларга келдик: 1) «Тузуклар» – ҳақиқий тарихий манба; 2) «Тузуклар» – дунёвий қонун - қоидаларни ўзида мустаҳкамлаган тарихий юридик манба; 3) «Тузуклар» Амир Темур даврида унинг ўз қўли билан ёки девонида яратилган, унинг ўзи бир неча марта кўриб, таҳрир қилган; 4) унинг илк нусхаси эски, ўзбек - чиғатой тилида яратилган, унинг форс тилидаги таржимаси XVII асрда амалга оширилган ва бизгача шу ҳолда етиб келган; 5) «Тузуклар» давлат тузуги, уни бошқариш, мустаҳкамлаш борасидаги ҳуқуқий асосларни белгилаб берадиган, шариат, одат ва қонунларга таянган тавсия ҳамда қоидалардан иборат бўлган, у ўз даврининг Конституциявий қўлланмасидир; 6) ўзбек давлатчилиги тарихида унинг ниҳоятда юксак аҳамияти ва ўрни бор.

## AMIR TEMUR MEROSINING BUGUNGI O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI VA MAFKURASIDAGI O‘RNI

**Pak Diana Aleksandrovna,**
**Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Universitetining Stajyor o‘qituvchisi**
**Qurbonova Zamira Mamat qizi**
**Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishi Sohibqiron Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat boshqaruvi tizimining zamonaviy O‘zbekiston davlatchiligi poydevori sifatidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada "Temur tuzuklari" asarida ilgari surilgan siyosiy, huquqiy va axloqiy tamoyillar bugungi kun islohotlari kontekstida o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi Temuriylar davri boshqaruv madaniyatining hozirgi davr milliy mafkurasi, tashqi siyosati va ijtimoiy adolat tizimidagi o‘rnini ilmiy asoslab berishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, o‘zbek davlatchiligi, Temur tuzuklari, milliy mafkura, adolat tamoyili, siyosiy vorisiylik, strategik boshqaruv, ma’naviy tiklanish, diplomatiya, markazlashgan davlat, huquqiy madaniyat.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘z milliy o‘zligini va davlatchilik tarixini tiklash yo‘lida eng avvalo Amir Temur shaxsi va uning merosiga tayandi. XIV asrda Movarounnahrda o‘zaro feodal urushlar va tarqoqlikka barham berib, yagona, qudratli markazlashgan davlatga asos solgan Sohibqiron nafaqat buyuk sarkarda, balki o‘z davrining eng yetuk siyosiy strategi va huquqshunosi sifatida maydonga chiqdi. U barpo etgan saltanat shunchaki harbiy kuchga emas, balki "Temur tuzuklari" kabi mukammal huquqiy va axloqiy mezonlarga tayangan edi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning siyosiy arxitekturasini shakllantirishda Temuriylar davri tajribasi eng muhim ma’naviy va amaliy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Davlat ramzlari, boshqaruv iyerarxiyasi va xalq bilan muloqot tizimi Sohibqiron davridagi qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqola Temur merosining bugungi davlatchiligimiz va milliy

mafkuramizdagi o‘rni tarixiy zaruriyat va strategik yo‘nalish ekanini isbotlashga xizmat qiladi. Maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy-retrospektiv tahlil, qiyosiy-huquqiy metod, germenevtik tahlil va tizimli umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida "Temur tuzuklari", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiy asarlari hamda zamonaviy O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Taraqqiyot strategiyalari va xalqaro munosabatlar doktrinalari tanlab olindi. Tarixiy manbalardagi boshqaruv prinsiplari bugungi kunning siyosiy institutlari va huquqiy normalari bilan qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, Amir Temur shaxsi va merosining zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi sotsial-psixologik ta’siri hamda milliy mafkura shakllanishidagi roli sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil etildi. O‘tkazilgan kompleks tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur merosi bugungi O‘zbekiston davlatchiligi va mafkurasining bir necha fundamental yo‘nalishlarida o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. Huquqiy davlat va adolat tamoyili. Sohibqironning "Kuch — adolatdadir" degan tamoyili zamonaviy sud-huquq tizimining ma’naviy shioriga aylandi. Temur davrida qonun ustuvorligi tushunchasi shunchaki qog‘ozda emas, balki amalda edi. Uning tuzuklarida bayon etilganidek, hatto yuqori martabali amirlar yoki shahzodalar ham qonunbuzarlik uchun jazolangan. Bu bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi keskin kurash va barchaning qonun oldida tengligi siyosati bilan to‘la mos keladi. Davlat boshqaruvida adolatni qaror toptirish, "zulm qilmaslik" va "mazlumlar ahvolidan xabardor bo‘lish" majburiyati bugungi inson huquqlari himoyasi bilan hamohangdir. Markazlashgan boshqaruv va mahalla instituti. Amir Temur har bir qishloq va shaharda adolat o‘rnatish, fuqarolar ahvolidan xabardor bo‘lish uchun maxsus vakillar va pochta tizimini joriy qilgan edi. Bugun O‘zbekistonda shakllangan "mahallabay" ishlash tizimi, davlat organlarining quyi bo‘g‘ingacha tushib borishi va hokimiyatning xalqqa yaqinlashishi aynan o‘sha tarixiy boshqaruv madaniyatining zamonaviy ko‘rinishidir. "Tuzuklar"da aytilganidek, "bir kunlik adolat — yuz kunlik ibodatdan afzal" tushunchasi davlat xizmatchilarining asosiy ma’naviy burchiga aylangan. Temur saltanati dunyo iqtisodiy markazi vazifasini o‘tagan. Buyuk Ipak yo‘li xavfsizligini ta’minlash, savdogarlar uchun maxsus imtiyozlar va bojxona tizimini tartibga solish orqali u xalqaro savdoni misli ko‘rilmagan darajaga ko‘targan. Bugungi O‘zbekistonning mintaqalararo transport koridorlarini ochish, "Bir makon, bir yo‘l" tashabbusidagi faolligi va Markaziy Osiyoni iqtisodiy integratsiya qilish intilishlari Sohibqironning geosiyosiy qarashlari bilan hamohangdir. Diplomatiya va tashqi siyosatda Amir Temur Yevropa va Osiyo hukmdorlari bilan teng huquqli va pragmatik aloqalar o‘rnatgan ilk o‘zbek hukmdoridir. Uning Fransiya qirolligi, Angliya va Kastiliya bilan muloqoti bugungi ochiq va ko‘p vektorli tashqi siyosatimiz uchun tarixiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston bugun dunyoga ochiqlik e’lon qilgan ekan, bu borada Temur diplomatiyasining "o‘zaro manfaatdorlik" tamoyilidan andoza olmoqda. Amir Temur merosi bugungi kunda nafaqat tarixiy fakt, balki tirik siyosiy va ma’naviy kuchdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Sohibqironning davlatni boshqarish falsafasi bugungi demokratik tamoyillar bilan qarama-qarshi emas, balki ularni milliy xususiyatlar bilan boyitib kelmoqda. Masalan, "Tuzuklar"dagi "Davlat ishlari o‘n ulushdir, uning to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va maslahat, bir ulushi esa qilichdir" degan qoida bugungi parlamentarizm va jamoatchilik nazorati tushunchasining tarixiy ifodasidir. Mafkuraviy nuqtayi nazardan, Amir Temur shaxsi o‘zbek xalqining milliy g‘ururi va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. U milliy birlik timsoli sifatida xizmat qiladi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur merosini o‘rganishda faqat madh etish bilan cheklanmay, uning boshqaruv strategiyasidagi "kuchli davlat — farovon xalq" zanjirini chuqur tahlil qilish lozim. Sohibqironning raiyat farovonligini davlat mustahkamligining kafolati deb bilgani bugungi "Inson qadri uchun" tamoyilining eng qadimgi va eng hayotiy asosi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur merosi o‘zbek davlatchiligining genetik kodi bo‘lib, u bizning o‘tmishimizni bugunimiz bilan, bugunimizni esa porloq kelajak bilan bog‘lab turadi. Sohibqironning davlat boshqarish mahorati, adolatparvarligi va ilm-fanga homiyligi Yangi O‘zbekistonni barpo etishda eng muhim ma’naviy qo‘llanma bo‘lib qolaveradi. Ushbu merosni asrab-avaylash va uning mag‘zini chaqib, zamonaviy amaliyotga tatbiq etish davlatimizning barqaror rivojlanishi va xalqimizning ma’naviy yuksalishi kafolatidir. Milliy mafkuramiz asosi bo‘lgan "Ozod va obod Vatan" g‘oyasi aynan Temuriy bobolarimiz orzu qilgan va amalga oshirgan buyuk davlatchilik an’analarining mantiqiy davomidir.

*FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR*

1. B.Ahmedov “Amir Temur’’ Toshkent Sharq 90-110-betlar
2. “Amir Temur va Temuriylar davrida davlatchilik taraqqiyoti ’’ ilmiy toplam 4-7-betlar
3. Muhammad Ali –“ Amir Temur qalbida chaqnagan nur ” 45-50 –betlar
4. “Temur tuzuklari ” 15-45 betlar
5. “Amir Temur jahon tarixida “ UNESCO/Sharq nashriyoti 26-40-betlar

## AMIR TEMUR SALTANATIDA ICHKI RAZVEDKA TIZIMI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI

**Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li**
Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqotchi
*e-mail: anvarabduqahhorov34@gmail.com*
*ORCID ID 0009-0004- 4836-9867*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmatining shakllanishi, uning tuzilishi va faoliyat mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, ichki razvedka va josuslik tizimining o‘rni, ularning davlat boshqaruvidagi ahamiyati hamda jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlashdagi roli yoritilgan*

***Kalit so‘zlar:*** *xavfsizlik xizmati, ichki razvedka, josuslik, kontrrazvedka, davlat boshqaruvi, harbiy xavfsizlik, markazlashgan tizim, axborot nazorati, Temur tuzuklari, tarixiy meros*

**Kirish.** Bugungi globallashuv va murakkab geosiyosiy jarayonlar davrida davlat xavfsizligi masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xavfsizlik nafaqat harbiy kuch yoki hududiy himoya bilan, balki davlat ichidagi barqarorlik, axborot nazorati, razvedka tizimi va boshqaruvning mukammalligi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarixga murojaat qilish, xususan, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur faoliyatini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o‘z davrida nafaqat yirik saltanat barpo etgan hukmdor, balki mukammal xavfsizlik tizimini yaratgan strateg sifatida ham ajralib turadi. U davlatni boshqarishda oddiy harbiy kuchga emas, balki keng qamrovli va puxta o‘ylangan xavfsizlik siyosatiga tayanadi. Jumladan, uning davrida xavfsizlik masalalari qurultoy va kengashlar orqali muhokama qilinib, maxsus tuzilmalar orqali amalga oshirilgan. Bu esa Amir Temur davlatida xavfsizlik masalasi tizimli va markazlashgan holda yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

**Asosiy qism**. Amir Temur saltanatida xavfsizlik tizimi tasodifiy yoki faqat harbiy kuchga asoslangan tizim emas edi. Aksincha, u chuqur o‘ylangan, qat’iy tartibga solingan va bir necha darajalardan iborat murakkab boshqaruv mexanizmi sifatida shakllangan. Sohibqiron davlatni mustahkam tutib turish uchun avvalo xavfsizlikni ta’minlash zarurligini chuqur anglagan va aynan shu asosda o‘z siyosatini olib borgan[7].

Tarixiy manbalarga tayanadigan bo‘lsak, Amir Temur xavfsizlikni ta’minlashni uch asosiy yo‘nalishda tashkil etgan: tashqi hududlar, chegara sarhadlari va davlat ichki tizimi. Bu uch bosqichli tizim orqali u nafaqat tashqi dushmanlardan, balki ichki tahdidlardan ham samarali himoya choralarini yo‘lga qo‘ygan. Ayniqsa, ichki xavfsizlikka berilgan e’tibor Temur davlatining barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biri bo‘lgan. Amir Temur davlat xavfsizligini ta’minlashda markazlashgan boshqaruv tamoyiliga tayanadi. Bu esa barcha muhim ma’lumotlar va qarorlar yagona markaz — Samarqand saroy devoniga kelib tushishini anglatadi[9]. Har bir viloyat, shahar va hatto qishloqlarda sodir bo‘layotgan voqealar haqida muntazam ravishda ma’lumot to‘planib, markazga yetkazib turilgan. Bu tizim orqali davlat rahbari vaziyatni doimiy nazorat ostida ushlab turgan va zarur hollarda tezkor qarorlar qabul qilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Amir Temur xavfsizlikni faqat harbiy kuch bilan emas, balki axborot ustunligi orqali ta’minlashga intilgan. Ya’ni, dushman haqida imkon qadar ko‘proq va aniq ma’lumotga ega bo‘lish uning strategiyasining asosiy qismi bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida razvedka va kontrrazvedka tizimining shakllanishiga olib kelgan. Davlat ichida turli kasb egalari — savdogarlar, hunarmandlar, darveshlar va boshqa shaxslar orqali ma’lumot yig‘ish tizimi yo‘lga

qo‘yilgan bo‘lib, bu haqda ko‘plab tarixiy manbalarda qayd etiladi. Bundan tashqari, Amir Temur xavfsizlik tizimini ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog‘lagan. Ya’ni, jamiyatdagi tartib-intizom, qonun ustuvorligi va adolatni ta’minlash ham xavfsizlikning muhim qismi sifatida qaralgan. “Temur tuzuklari”da ham davlat ichida o‘g‘rilik, qaroqchilik, fitna va buzg‘unchilikka qarshi qat’iy choralar ko‘rilgani qayd etiladi[1]. Bu esa ichki barqarorlikni saqlash orqali umumiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Manbalarida keltirilishicha, Amir Temur razvedka tizimi nihoyatda moslashuvchan va keng qamrovli bo‘lgan. U josuslarni oddiy xalq orasiga singdirib, ular orqali jamiyat ichidagi real vaziyatni bilib turgan[12]. Bu esa rasmiy ma’lumotlardan tashqari, yashirin va haqiqiy axborot oqimini ta’minlagan. Natijada, Sohibqiron har qanday xavfni oldindan sezish va unga tayyor turish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Umuman olganda, Amir Temur saltanatidagi xavfsizlik tizimi o‘z davri uchun nihoyatda mukammal va ilg‘or tizim bo‘lib, unda harbiy, siyosiy va axborot omillari bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda faoliyat yuritgan. Aynan shu tizim orqali Temur ulkan hududni bir markaz ostida birlashtirish va uni barqaror boshqarishga erishgan. Amir Temur saltanatida xavfsizlik tizimining eng muhim va murakkab tarkibiy qismlaridan biri bu — ichki razvedka va josuslik tizimi hisoblanadi[11]. Bu tizim orqali nafaqat dushman kuchlar, balki davlat ichidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, aholi kayfiyati va amaldorlar faoliyati doimiy nazorat ostida ushlab turilgan. Aynan shu jihat Sohibqiron davlatining uzoq muddat barqarorligini ta’minlagan asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur ichki razvedka tizimini davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida shakllantirgan. Har bir viloyat, shahar va qishloqda maxsus xabarnavislar va voqeanavislar faoliyat yuritib, sodir bo‘layotgan voqealar haqida muntazam ravishda markazga — Samarqand saroy devoniga axborot yetkazib turgan. Bu tizim orqali davlat ichida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday tahdid yoki norozilik alomatlari oldindan aniqlangan. Ichki razvedkaning asosiy vazifalaridan biri — dushman kuchlarini aniqlash va ularning faoliyatiga qarshi choralar ko‘rishdan iborat bo‘lgan. Shu maqsadda kontrrazvedka tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u dushman josuslarini fosh etish, ularni kuzatish va zararsizlantirish bilan shug‘ullangan. Bu esa davlat ichida xavfsizlikni ikki tomonlama — ham kuzatish, ham himoya qilish orqali ta’minlash imkonini bergan. Tadqiqotchi F.M. Xodjixodjayev o‘z maqolasida Amir Temur davridagi ichki razvedka tizimini yuqori darajada tashkil etilgan murakkab tizim sifatida baholaydi[10]. Uning fikricha, bu tizim nafaqat harbiy xavfsizlikni, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, davlat ichidagi har bir hududdan muntazam ravishda ma’lumot to‘planishi Temur boshqaruvining eng kuchli jihatlaridan biri bo‘lgan. Yana bir muhim jihat — bu josuslik faoliyatining yashirin va moslashuvchan shaklda olib borilganidir. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur o‘z ayg‘oqchilarini turli kasb egalari sifatida jamiyat ichiga joylashtirgan[4]. Ular orasida savdogarlar, hunarmandlar, darveshlar, sayyohlar, hatto oddiy xizmatkorlar ham bo‘lgan. Bu esa razvedka tizimini deyarli sezilmas darajada samarali qilgan.

Temur josuslari oddiy odamlar ko‘rinishida faoliyat yuritib, turli hududlardan muhim ma’lumotlarni to‘plagan. Ular savdo karvonlari bilan birga harakat qilgan, diniy safarlar bahonasida boshqa hududlarga borgan yoki hunarmand sifatida yashab, yashirin ma’lumotlar yig‘gan. Bu esa razvedkaning mobil va keng qamrovli bo‘lishini ta’minlagan. Shuningdek, ichki razvedka tizimi faqat dushmanlarni aniqlash bilan cheklanmagan. U davlat ichidagi ijtimoiy muhitni ham nazorat qilgan. Jumladan, bozorlardagi narx-navo, aholining hukumatga munosabati, amaldorlarning adolatli yoki adolatsiz faoliyati haqida ham ma’lumotlar to‘plangan. Bu esa Temurga faqat harbiy emas, balki ijtimoiy-siyosiy qarorlarni ham aniq va asosli qabul qilish imkonini bergan.

Professor R.S. Samarovning fikriga ko‘ra, Amir Temur davlatida razvedka tizimi huquqni muhofaza qilish organlari bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lgan. Mirshablar (o‘sha davr “politsiya”si) karvon yo‘llari xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilarni aniqlash va tartibni saqlashda muhim rol o‘ynagan[8]. Bu esa xavfsizlik tizimining faqat yashirin emas, balki ochiq shaklda ham faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Temur davlatida axborot yetkazish tizimi ham nihoyatda rivojlangan bo‘lgan. Xabarlarni tezkor yetkazish uchun maxsus chopar tizimi joriy etilgan bo‘lib, yo‘llar bo‘ylab otlar tayyor holda saqlangan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ham bu tizimning yuqori darajada tashkil etilganini alohida ta’kidlab o‘tadi[7]. Bu esa razvedka tizimining samaradorligini yanada oshirgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati o‘z davri uchun nihoyatda mukammal, tizimli va ko‘p bosqichli shaklda tashkil etilganini ko‘rish mumkin. Sohibqiron davlat xavfsizligini ta’minlashni faqat harbiy kuch bilan emas, balki keng qamrovli razvedka, kontrrazvedka va axborot tizimi orqali amalga oshirgan. Bu esa uning davlat boshqaruvida strategik tafakkur va uzoqni ko‘ra bilish qobiliyatiga ega bo‘lganini yaqqol namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Amir Temur saltanatidagi xavfsizlik xizmati nafaqat o‘tmish tajribasi, balki bugungi va kelajak avlod uchun muhim ilmiy va amaliy maktab vazifasini o‘taydi. Uni chuqur o‘rganish, tahlil qilish va zamonaviy sharoitga mos ravishda talqin etish bugungi kun ilm-fani oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.
2. Boyto‘rayev D.E. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati va harbiy soha // ResearchBib, 2024. – B. 728–734.
3. Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995.
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1996.
6. Pirimqul Qodirov. Amir Temur siymosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
7. Rui Gonzalez de Clavijo. Samarqandga sayohat kundaligi (1403–1406). – Toshkent: Sharq, 1990.
8. Samarov R.S., Axrorov Yu.A., Xolmo‘minov J.M., Sadriddinov S.R. Sohibqiron Amir Temurning harbiy san’ati. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – 280 b.
9. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
10. Xodjixodjaev F.M. Amir Temur saltanat harbiy xavfsizligining ta’minlanishida muhim vosita – ichki razvedka kontekstida // Gospodarka i Innowacje, 2024. – B. 913–918.
11. Xodjixodjaev F.M. Qo‘shin xavfsizligini ta’minlashning retrospektiv tahlili (Amir Temurning Qunduzcha yaqinidagi muhorabasi misolida) // O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari. – 2022. – №M1(39). – B. 150–160.
12. “Amir Temurning temir razvedkasi” // Qalampir.uz, 2024 (elektron manba).

## AMIR TEMUR HARBIY STRATEGIYASI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDAGI O‘RNI

**Abduvositov Husniddin Faxriddin o‘g‘li**
**Harbiy ta’lim fakulteti kursanti**
**Farg‘ona davlat universiteti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temurning harbiy strategiyasi hamda uning davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Amir Temur tomonidan yaratilgan harbiy tuzilma, strategik rejalashtirish, harbiy intizom va markazlashgan boshqaruv tizimi davlat barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lgan. Shuningdek, maqolada Temuriylar davridagi harbiy siyosat, qo‘shin tuzilishi va harbiy boshqaruvning davlat boshqaruvi bilan uzviy bog‘liqligi yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** harbiy strategiya, davlat boshqaruvi, Temuriylar davri, harbiy tuzilma, markazlashgan davlat, harbiy intizom, davlat barqarorligi.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется военная стратегия Amir Temur и её роль в системе государственного управления. Созданная Амиром Темуром военная структура, стратегическое планирование, военная дисциплина и централизованная система управления стали важными факторами обеспечения стабильности государства. Также в статье освещается военная политика эпохи Тимуридов, структура армии и тесная взаимосвязь военного управления с системой государственного управления.

**Ключевые слова:** военная стратегия, государственное управление, эпоха Тимуридов, военная структура, централизованное государство, военная дисциплина, государственная стабильность.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the military strategy of Amir Temur and its role in the system of state governance. The military structure created by Amir Temur, strategic planning, military discipline, and the centralized system of governance played an important role in ensuring state stability. The article also highlights the military policy of the Timurid period, the structure of the army, and the close relationship between military administration and the system of state governance.

**Keywords:** military strategy, state governance, Timurid period, military structure, centralized state, military discipline, state stability.

Markaziy Osiyo tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan Amir Temur nafaqat yirik harbiy yurishlari, balki mukammal davlat boshqaruvi tizimi bilan ham mashhurdir. XIV asrda u markazlashgan davlat barpo etib, kuchli harbiy tizim va qat’iy boshqaruv asosida yirik imperiya yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Amir Temur o‘z davrida harbiy strategiya va davlat boshqaruvini bir-biri bilan uyg‘un holda olib borgan. Uning harbiy siyosati, qo‘shinlarni tashkil etish uslubi, harbiy intizom va strategik rejalashtirish tamoyillari davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynagan.

Amir Temurning harbiy strategiyasi o‘z davri uchun nihoyatda mukammal va tizimli bo‘lgan. U harbiy yurishlarni puxta rejalashtirish, qo‘shinlarni to‘g‘ri joylashtirish va harbiy taktikani aniq belgilash orqali ko‘plab g‘alabalarga erishgan. Temur harbiy strategiyasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘lgan: qo‘shinlarni qat’iy tartib asosida tashkil etish; harbiy intizomni kuchaytirish; tezkor va harakatchan qo‘shinlardan foydalanish; razvedka va axborot tizimini rivojlantirish; strategik hududlarni nazorat qilish. Amir Temur qo‘shinlari o‘nlik tizim asosida tashkil etilgan bo‘lib, bu tizim qo‘shin boshqaruvini ancha samarali qilgan. Har bir harbiy bo‘linma o‘z qo‘mondoniga bo‘ysungan va bu esa markazlashgan boshqaruvni ta’minlagan.

Amir Temur davlatida harbiy boshqaruv tizimi davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Harbiy qo‘mondonlar nafaqat jangovar vazifalarni bajargan, balki ma’muriy boshqaruvda ham muhim rol o‘ynagan. Davlat boshqaruvi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etilgan: markazlashgan hokimiyat; harbiy va ma’muriy boshqaruvning uyg‘unligi; qat’iy qonun va tartib; davlat manfaatlarini ustuvor qo‘yish. Bu tamoyillar davlat barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Amir Temur qo‘shinida harbiy intizom alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Har bir askar qat’iy qoidalarga amal qilishi shart bo‘lgan. Harbiy xizmatni buzgan shaxslarga nisbatan jiddiy jazolar qo‘llanilgan. Shu bilan birga, Temur qo‘shinida harbiy mukofotlash tizimi ham mavjud bo‘lgan. Jasorat ko‘rsatgan askarlar mukofotlangan va yuqori lavozimlarga tayinlangan. Bu esa qo‘shin ichida rag‘batlantirish tizimini yaratgan. Harbiy intizom va tartib davlatning ichki barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lgan.

Amir Temurning harbiy siyosati davlat boshqaruvi tizimining muhim qismi hisoblangan. U harbiy kuchni davlat mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash vositasi sifatida ko‘rgan. Harbiy boshqaruv tizimi orqali: hududiy nazorat ta’minlangan; davlat xavfsizligi mustahkamlangan; markaziy hokimiyat kuchaytirilgan; iqtisodiy va siyosiy barqarorlik ta’minlangan. Bu jarayonlar Temuriylar davlatining uzoq vaqt davomida barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning harbiy strategiyasi va davlat boshqaruvi tizimi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan. Uning harbiy islohotlari, qo‘shin tuzilishi va boshqaruv tamoyillari kuchli markazlashgan davlatni shakllantirishga xizmat qilgan. Amir Temur yaratgan harbiy boshqaruv tizimi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi davrlarda ham davlat boshqaruvi va harbiy strategiya rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli uning tajribasi bugungi kunda ham harbiy boshqaruv va strategiya sohasida muhim tarixiy tajriba sifatida o‘rganilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi.- Toshkent: Sharq, -2000.-365 b.

2. Abdullayev U.A. Amir Temurning Yaqin Sharqdagi siyosati. Tarix fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2012-yil. 129 b.

3. Rustamov I.A., Erkinjonov Sh.Sh. Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy strategiyasi. (2025). Global Science Review, 14(1), 332-337.

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MAKTAB VA TA’LIM-TARBIYA

**Saibov Dilshod Kamiljonovich**
**Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi**
**“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzey ilmiy xodimi, tarix fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnaxrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: “Xaftiyak”, “Qur’on”, “Chor kitob” , Navro‘z, Ramazon, Qorixona, Dalaixona, Madrasa, “Suluk-ul-muluk”, “Amir Temur” ordeni, donishmandi, shayx, ulamo, olimlar, mudarris.

**Abstract:** This article discusses education and pedagogical ideas in Movarunnahr during the reign of Amir Temur and the Timurids.

**Keywords:** "Haftiyak", "Quran", "Char Kitob", Navruz, Ramadan, Qarixona, Dalaixona, Madrasa, "Suluk-ul-muluk", "Amir Temur" Order, wise man, sheikh, scholars, scholars, mudarris.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы образования и педагогические идеи в Моваруннахре во времена правления Амира Тимура и Тимуридов.

**Ключевые слова:** «Хафтияк», «Коран», «Чар Китоб», Навруз, Рамадан, Карихона, Далайхона, медресе, «Сулук-уль-мулюк», Орден «Амира Темура», мудрец, шейх, учёные, учёные, мударрис.

## KIRISH

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, Ikkinchi Uyg‘onish davri - Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o‘rin tutadi.

Mustabid tuzum tomonidan nohaq qoralab kelingan bu ulug‘ zotning muborak nomi va xotirasi mustaqillik yillarida tarixiy adolat asosida qayta tiklandi. Sohibqiron Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o‘zlikni anglash, an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma’naviy kuch bag‘ishlab kelmoqda.

Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari o‘rnatilgani, Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, “Amir Temur” ordeni ta’sis qilingani, yurtimizdagi ko‘plab ko‘cha va xiyobonlarga ulug‘ ajdodimiz nomi berilganini alohida qayd etish lozim.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat istiqloliga aylandi. U buyuk zot ruhi bizga hamrohu hamnafas bo‘lib bormoqda. Mustaqil O‘zbekistonimizda har yili Amir Temur bobomizning tavallud kuni ko‘taringki ruhda keng nishonlanadi. Uning buyuk siymosi ajdodlarimiz madaniy-ma’rifiy yutuqlarini teran anglashda iymon-oqibatli bo‘lishda, ulkan ishlarni amalga oshirishda, mustaqilligimizni yanada mustahkamlashda bizga kuch-quvvat hamda shijoat bag‘ishlab turibdi. “Biz yashab turgan shu muqaddas zamindar – degan edilar birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, Amir Temur haykali ochilishida – Butun olamni tebratgan, nomi yeti iqlimga mashhur bo‘lgan ulug‘ bobokalonimiz Amir Temur yoshligidan boshlab o‘z oldiga ona yurtini mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadining sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi, mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko‘tarib, dunyoga mashhur qildi”.

Temur zamonasida o‘g‘il bolalar uchun boshlang‘ich ma’lumot beradigan diniy maktablar keng tarqalgan edi. Bu maktablar an’anaga ko‘ra masjidlar qoshida va xususiy uylarda o‘qimishli kishilar (domla, imomlar) tomonidan ochilar edi.

Maktablarda masjid imomlari yoki azonchilar dars berar edilar. Aholi gavjum bo‘lgan shaharlarda maktablar maxsus maktabdorlar tomonidan ochilgan. Ko‘chmanchi va chorvador aholi orasida maktablar asosan bahor va yoz oylarida ochilardi. Bunday maktablarda masjid imomlari yoki madrasa toliblari o‘zlarining iqtisodiy ahvollarini yaxshilash maqsadida o‘qituvchi bo‘lib ishladilar. Shahar maktablarida o‘quvchilar soni 20-30 ta, qishloq maktablarida esa 10-15 ta, ayrim hollarda undan ham oz bo‘lar edi.

Maktab o‘quvchilarining yoshlari turlicha bo‘lgan. Unda 5 vaqt namoz o‘rgatilgan. Maktablarda arab alifbosida o‘quvchilarning savodlari chiqarilgach, “Xaftiyak”, “Qur’on” kitobining 7 dan 1 qismi materiallari tanlab olinib, u Eron, fors va tojik tilida tayyorlanar edi, bu-kitobda ko‘proq diniy marosimlarda o‘qiladigan qur’on oyatlari jamlangan bo‘lib, o‘rganishga 2-3 yil vaqt ketardi. Haftiyakdan so‘ng “Chor kitob” va So‘fi Olloyorning hikmatlari o‘qitilgan.

Maktba aniq o‘quv dasturiga ega bo‘lmagan. O‘quvchilar yakka-yakka tartibda o‘qitilgan. Sinfdan-sinfga ko‘chirish o‘quvchilarning ota-onalari berib turadigan “sovg‘a” larga bog‘liq bo‘lgan. Maktbaga qabul qilishning aniq vaqti bo‘lmagan. Maktabga o‘quvchilar kichik va katta guruhlarga ajratilib o‘tilgan. Kichik guruh o‘quvchilari “Qur’on” oyatlarni o‘qishi bilan chegaralanar edi. Katta guruh o‘quvchilari o‘zlashtirayotgan bilimlaridan tashqari *Islom* dining asoslarini tashviqot qilish bilan shug‘ullanganlar. Bu bilan birga, ular fors shoiri Hofiz va Sa’diy Sheroziyning g‘azallaridan yod olishgan. Maktab o‘quv dasturlari o‘quvchilarning ota-onalari bilan maktab o‘rtasidagi kelishilgan shartnoma asosida tuzilgan. Maktab ta’lim mazmuni o‘quvchi (domlaning) bilim saviyasi va mahoratiga bog‘liq bo‘lgan.

**ASOSIY QISM**

Maktabda darslar yakka tarzda olib borilgan. Har bir o‘quvchining o‘quv mavzusi yoki biror kitobni tugatganlarida o‘qituvchi diniy rasm-rusumlarga amal qilgan holda mashq qildirgan. Eng kichik o‘quvchilar ham namoz va ibodat qilishga o‘rgatilgan. Maktabda darslar to‘xtatilgan holda diniy bayramlar nishonlangan. Masalan: Navro‘z, Ramazon hayitlari hamisha nishonlanib kelingan.

Demak, bolalar milliy va diniy an’analar ruhida tarbiyalanardi. Milliy urf-odatlar to‘g‘ri tushunish o‘quvchilarning o‘z millatiga bo‘lgan hurmatini yanada oshirardi. Maktabda bolalarni qo‘rqitish yo‘liga qo‘yilgan edi. O‘quvchilar o‘qituvchilardan tez-tez diniy qonunlarni buzganliklari uchun, narigi dunyodagi hayotga shafqatsiz jazoga mahkum bo‘lishi haqidagi qo‘rqinchli xabarni eshitib turishardi.

Qo‘rqitish maqsadida ko‘p maktablarda jismoniy jazo keng yo‘lga qo‘yilgan. Mashg‘ulotlar kun chiqishi bilan boshlanib, tushlikkacha davom etardi. Tushlikdan so‘ng bolalar yana shug‘ullanishga kelishardi. Ayrimi maktablarda ertalabgacha o‘qitilardi. Ertalabki nonushtagacha yana bir marta tanaffus bo‘lardi.

Bolalar bir kitob ustida soatlab shug‘ullanishardi. O‘qituvchi harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulotlar tashkil qilmas edi. Maktab estetik tarbiya, ya’ni muzika, ashula aytish, rasmchilik kabi, tarbiyalarni bilmas edi. Shunday qilib, Turkiston maktablari har qanday ko‘rgazmali qurollarga ega emas edi. Natijada bu maktabni bitirganlar mexanik ravishda o‘qitilardi xolos, lekin arab tilining asl ma’nosiga tushunmasdilar.

Musulmon diniy maktablari bolalar maktabiga ayollar maktabiga bo‘lingan edi. Ma’lumki, Markaziy Osiyoning ko‘p shaharlarida qizlar uchun bir necha boshlang‘ich diniy maktablar mavjud edi. Bunday maktablar, odatda, o‘qituvchining uyida bo‘lar edi. O‘qituvchi esa otin bibi deb atalar edi. U qizlarga arab tilini o‘rgatardi. Umumiy maktablar sonining 4-1 qismi qizlar maktabiga to‘g‘ri kelardi. Otin bibi har bir o‘quvchidan boshqa maktablardagidan ko‘p haq olardi. Qizlar maktabda arab matnlari, ya’ni Qur’on ustida ham shug‘ullanishardi.

***Qorixonalar:*** Qorihona katta yoshdagi kishilarni boshi rahbarligi ostida Qur’onni ovoz chiqarib o‘qish bilan uni yod oldiradigan bilim maskani hisoblangan. Qoriboshilar Qur’onni mozor va qabristonlarda o‘qib pul ishlaganlar. Qorixonada odamlar soni o‘rtacha 10 tadan ham kam bo‘lgan. Kimda-kim madrasada o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lsa, ularga yordam berilgan.

***Dalaixona***: Dalaixona qorixona bilan xil moddiy bazaga ya’ni vaqf mulkiga ega edi. Dalaixonada ko‘pgina katta yoshdagi kishilar XV asrda tuzilgan payg‘ambar Muhammad va uning diniy qasidalari to‘plami “Dalaixayrat” ni yod olganlar. Shu to‘plamni yod olish uchun sal kam bir yil kerak edi. Dalixonalarda oilali kishilar ham o‘qishar edilar. Ular shu dalaixonlarga kelib domladan topshiriq, olib ketishar va uni uyda tayyorlab ma’lum vaqtda uni topshirar edilar. Xonliklar davrida dalaixonalar Toshkentda, Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Xivada ishlab turgan.

***Madrasa***: Amir Temur davrida madrasalar – oliy o‘quv yurti vazifasini o‘tagan. Madrasalar diniy va keyinchalik dunyoviy bilimlar o‘chog‘i, tafakkur gulshani, kadrlar tayyorlash maskani edi. Madrasalarda mamlkatning eng atoqli donishmandlari, shayxlari, ulamo olimlari mudarrislik qilishgan, ma’ruzalar o‘qishgan.

Temuriylar, davrida madrasalar O‘rta Sharq arxitekturasi rejasiga binoan ko‘rkam qilib qurilgan.

***Madrasa boshqarmasi:*** Poytaxt shaharlardagi asosiy madrasalarga Temur va Temuriylar asos solgan edilar. Madrasalar va uning hayoti yuzasidan umumiy nazorat olib darajadagi diniy shaxs-shayx ul Islom va qozilar tomonidan olib borilsa, alohida tekshiruv-ya’ni o‘quv va xo‘jalik ishlari bo‘yicha nazorat mutavalli boshiga topshirilgan edi. Mutavali boshining vazifasi tumanlardagi

madrasalar ishlarini nazorat qilish bo‘lgan madrasa boshida yirik musulmon voizi, mudarrisi barcha o‘quv predmetlari bo‘yicha beriladigan bilimlarga rahbarlik qiluvchi shaxs turgan. Mudarris faqat o‘quv ishlari bo‘yicha javob bergan. Mudarris va mutavali saylovi hukumat rahbarlari tomonidan olob borilgan. Agar nomzod hukumdorga ma’lum bo‘lmasa unda bu nomzodni qozilar va bir necha o‘qimishlilar tomonidan imtihon qilingan. Shu asnoda mudarrislar ham ishdan bo‘shatilgan.

**XULOSA**

Amir Temur buyuk sarkarda. Sohibqiron Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullarning 150 yillik hukumronligini tugatib, buyuk davlat tuzgan va uni dunyoga tanitgan. U Movaraunnahrda fan va madanoyatni ravnaq toptirgan. Shuning uchun amir Temurni dunyo e’tirof etmagan qirollari shoh yokisultonlari bo‘lmasa kerak. Angliya, Olmoniya va Fransiya qiorollari XV asrdayoq “Amir temur muzeyi”ni tashkil etganlar. Fransiya qiroli Temurning oltin haykalchasini yartagan uning shaxsini, tarix oldidagi xizmatlarini e’tirof etish timsolidir.

Faqatgin asobiq ittifoqda Amir temurning tarix oldidagi xizmatlari tan olinmadi. Nafaqat tan olinmadi, balkui uning shaxsi va xizmatlari qoralandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Amir Temur va uning dunyo tarixi oldidagi xizmatlariga obyektiv baho berila boshlandi. Respublikamizda Amir Temurga bag‘ishlangan asarlar Sohibqironning “Tuzuklari”, “O‘git-nasihatlari” tarjimai holiga bag‘ishlangan kitoblari chop etilmoqda. Kino va teatrlarda Temur haqidagi assarlar namoyish etilmoqda. Ko‘plab anjumanlar, kechalar o‘tkazilmoqda. Ayniqsa YUNESKO doirasida Parijda 1996-yil aprelda “Temuriylar davrida fan va madaniyati va maorifning ravnaqi” mavzusidagi muzeyning ochilishi va xalqaro anjumanning o‘tkazilishi, unda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning qilgan ma’ruzasi Sohibqironning dunyo xalqlari oldidagi xizmatlarini e’tirof etishda katta voqea bo‘ldi.

Darhaqiqat, davkatchilikda, xalqaro aloqa munosabatda, harbiy sohada hokimiyatni boshqarishda, mamlakatda fan, madaniyat maorifni tashkil etishda va rivojlantirishdagi temuriylar merosini tadqiq qilish shu kunning muhim muammolaridan biridir. Bu muammolardan biri: temuriylar davrida maktab va pedagogik fikrlarni o‘rganish va tahlil qilish. Bizning bu muammoni tadqiq qilish sohasidagi umumiy xulosalarni keltirib chiqarishga asos bo‘ldi:

1. Amir Temur renessans davri fani, madaniyat va pedagogikasini yana rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asarlari yaratildi. Bundan islom dini, Muhammad payg‘ambar avlodlari-sayyidlar, tasavvuf olimlari haqida dunyoviy fanlar asarlaridan keng foydalanishgan.
2. Amir Temurning shaxsan tashabbusi va say-harakatlari bilan saroyda dunyoning atoqli ilmiy va dunyoviy olimlarining to‘planishi, ularning ilmiy kashfiyotlar qilishi, mamlakatda tashkil etilgan kutubxonalar, rasadxonalar, madrasalar, shahzodalar, amrzodalar uchun tashkil etilgan turlicha tipdagi maktablar va tarbiya muassasalari maktabda va pedagogik fikrlarning asosi bo‘lib xizmat qildi.
3. Temur tuzuklari va o‘git-nasihatlari yosh avlodlarni tarbiyalash metodik asoslari bo‘lib xizmat qildi. Ular Movarounnahr pedagogikasi darajasidagi tarbiya kitob edi.
4. Temuriylar davrida shahzoda va amirzodalar uchun alohida maktablar ochilib, unda davlatni boshqarish, moliyaviy ishlarni olib boorish, tashqi davlatlar bilan diplomati aloqalar, harbiy ishlar o‘rgatilgan. Saroyda “Suluk-ul-muluk” (Podsholar qo‘llanmasi) kitobi asosida mashg‘ulotlar olib borilgan.
5. Shahzodalar tarbiyasi bilan qissaxonalar, atqalar-bolalarning dastlabki murabbiylari shug‘ullanishgan. Ular tarixiy, adabiy, harbiy tarbiyaga oid bilimlar, rivoyatlar, jangnomalardan ma’lumot berib, yoshlarni qahramonlikka, botirlikka, o‘tkir zehnlikka o‘rgatganlar, axloqiy tarbiya bilan shug‘ullanganlar.
6. Oila tarbiyasiga katta e’tibor bergan. Ota-onaning bola tarbiyalashdagi roli nihoyatda oshirilgan. Oila tarbiyasida islomiy bilimlar merosimizdan, urf-odatlarimizdan keng foydalanilgan.

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 2026-yil 5-fevral, PQ-46-son
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq. 1998-yil
3. Karimov I.A. Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz. T. “O‘zbekiston”. 1998-yil

4. J.Xasanboyev. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2006
5. Ibrohim Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni. T. “Fan”. 1993-yil.
6. L.Keren, ASaidov. Amir Temur va Fransiya. T. “Adolat”. 1996-yil

## TEMURIYLAR DAVRIDA ARXITEKTURA VA ME’MORCHILIK SAN’ATINING RIVOJLANISHI

**Ne’matova E’zoza,**
**Jizzax politexnika instituti magistranti, O‘zbekiston,**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Temuriylar davrida arxitektura va me’morchilik san’atining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Amir Temur va uning avlodlari davrida bunyod etilgan me’moriy inshootlarning badiiy, konstruktiv va funksional xususiyatlari yoritiladi. Temuriylar davri arxitekturasi nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kun me’morchiligi uchun ham muhim tarixiy meros ekani asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar davri, arxitektura, me’morchilik, Samarqand, shaharsozlik, tarixiy obidalar, gumbaz, peshtoq.

**Abstract**. This article analyzes the development of architecture and architectural art during the Timurid period. It highlights the artistic, structural and functional features of architectural monuments built during the reign of Amir Temur and his successors. The study emphasizes the significance of Timurid architecture as an important cultural heritage that still influences modern architecture.

**Keywords**: Timurid period, architecture, architectural art, Samarkand, urban planning, historical monuments, dome, monumental portal

**Kirish.** Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va iqtisodiy yuksalish, balki ilm-fan va madaniyat rivoji bilan ham ajralib turadi. Bu davrda ayniqsa me’morchilik va arxitektura san’ati yuqori darajaga ko‘tarildi. Amir Temur tomonidan boshlangan bunyodkorlik ishlari uning avlodlari davrida ham davom ettirilib, yirik shaharlar, masjidlar, madrasalar va maqbaralar barpo etildi.

Temuriylar davrida arxitektura faqatgina qurilish sohasi sifatida emas, balki jamiyatning estetik qarashlari va ilmiy salohiyatini aks ettiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Shu sababli ushbu davr arxitekturasi bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Temuriylar davrida arxitektura va me’morchilik san’ati yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, bu jarayon Amir Temur tomonidan boshlangan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, Samarqand shahri ushbu davrda nafaqat siyosiy markaz, balki yirik me’morchilik va madaniyat o‘chog‘iga aylangan. Temur o‘z saltanatining qudratini namoyon etish maqsadida ulkan va muhtasham inshootlar qurdirgan bo‘lib, bu binolar o‘zining ulug‘vorligi, mukammal muhandislik yechimlari va nafis bezaklari bilan ajralib turadi. Temuriylar arxitekturasining asosiy belgilaridan biri sifatida monumentallik, aniq simmetriya va geometrik uyg‘unlikni ko‘rsatish mumkin.

Bu davr me’morchiligida ayniqsa gumbaz va peshtoq elementlari muhim o‘rin egallaydi. Gumbazlar nafaqat binoning tashqi ko‘rinishini boyitgan, balki uning ichki akustikasi va mustahkamligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynagan. Peshtoq esa binoning asosiy kirish qismi sifatida uning badiiy qiyofasini belgilab bergan. Ushbu elementlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilib, inshootlarga betakror estetik ko‘rinish baxsh etgan. Shu bilan birga, binolarning tashqi bezaklarida rang-barang koshinlar, murakkab naqshlar va yozuvlar keng qo‘llanilgan bo‘lib, bu holat Temuriylar davri me’morchiligini boshqa davrlardan ajratib turadi.

Temuriylar davrida shaharsozlik masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Shaharlar ma’lum reja asosida barpo etilib, ularning markazida yirik me’moriy majmualar joylashtirilgan.

Ko‘chalarning joylashuvi, jamoat binolari, bog‘lar va savdo maskanlari o‘zaro uyg‘un tarzda tashkil etilgan bo‘lib, bu holat aholining qulay yashashini ta’minlagan. Ayniqsa, Samarqand shahrining me’moriy tuzilishi bu davr shaharsozligining yorqin namunasi hisoblanadi. Unda nafaqat diniy va ma’rifiy inshootlar, balki ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar ham keng o‘rin olgan.

Bundan tashqari, Temuriylar davri arxitekturasi ilm-fan bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganini ham alohida ta’kidlash lozim. Me’morlar qurilish jarayonida matematika, geometriya va muhandislik bilimlaridan keng foydalanganlar. Bu esa inshootlarning nafaqat chiroyli, balki mustahkam va uzoq muddat xizmat qilishini ta’minlagan. Natijada, Temuriylar davrida yaratilgan ko‘plab me’moriy obidalar bugungi kungacha o‘z holatini saqlab qolgan.

Umuman olganda, Temuriylar davri arxitekturasi o‘zining mukammalligi, estetik go‘zalligi va muhandislik yutuqlari bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan me’moriy meros keyingi asrlar me’morchiligiga katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, bugungi kunda ham u milliy va jahon madaniyatining muhim qismi sifatida e’tirof etiladi.

**Xulosa**. Temuriylar davrida arxitektura va me’morchilik san’ati yuksak darajada rivojlanib, o‘zining estetik mukammalligi va muhandislik yechimlari bilan ajralib turadi. Gumbaz, peshtoq va bezak elementlarining uyg‘unligi ushbu davr arxitekturasining o‘ziga xos uslubini shakllantirgan.

Arxitektura shaharsozlik bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib, mukammal me’moriy muhit yaratilgan. Ushbu boy meros bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy arxitektura rivoji uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston tarixi (Temuriylar davri). – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Ahmedov B. Temuriylar davri me’morchiligi. – Toshkent, 2018.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
4. Asqarov A. O‘zbekiston me’morchilik tarixi. – Toshkent, 2017.
5. Milliy ensiklopediya (Temuriylar davri maqolalari).

## TEMURIYLAR DAVRI KITOBAT SAN’ATIDA TASVIR VA XATTOTLIK UYG‘UNLIGI

**Tohirov Javohir Akbar o‘g‘li.**
**Navoiy Davlat Universiteti**
**70110501 – Tasviriy san’at magistratura mutaxassisligi 1-kurs magistranti.**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Temuriylar davri (XIV–XV asrlar) kitobat san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, xattotlik va tasviriy san’at (miniatyura) o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik hamda uyg‘unlik masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda qo‘lyozma asarlarning badiiy bezagi, matn va tasvirning o‘zaro mantiqiy sintezi hamda bu jarayonda Hirot va Samarqand maktablarining tutgan o‘rni yoritilgan. Shuningdek, xattotlik uslublari (nasta’liq, suls) va miniatyura kompozitsiyasining asar mazmunini ochib berishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar renessansi, kitobat san’ati, xattotlik, miniatyura, badiiy uyg‘unlik, Hirot maktabi, nasta’liq, qo‘lyozma, estetik dizayn.

**Аннотация:** В данной статье анализируются особенности искусства книги эпохи Тимуридов (XIV–XV вв.), в частности, вопросы неразрывной связи и гармонии между каллиграфией и изобразительным искусством (миниатюрой). В исследовании освещаются художественное оформление рукописей, логический синтез текста и изображения, а также роль Гератской и Самаркандской школ в этом процессе. Научно обосновано значение стилей каллиграфии (насталик, сульс) и композиции миниатюры в раскрытии содержания произведения.

**Ключевые слова:** Тимуридский Ренессанс, искусство книги, каллиграфия, миниатюра, художественная гармония, Гератская школа, насталик, рукопись, эстетический дизайн.

**Abstract:** This article analyzes the specific characteristics of book art during the Timurid period (14th–15th centuries), particularly the issues of integral connection and harmony between

calligraphy and visual arts (miniature). The research highlights the artistic decoration of manuscripts, the logical synthesis of text and image, and the role of the Herat and Samarkand schools in this process. The significance of calligraphy styles (Nastaliq, Thuluth) and miniature composition in revealing the content of the work is scientifically substantiated.

**Keywords:** Timurid Renaissance, book art, calligraphy, miniature, artistic harmony, Herat school, Nastaliq, manuscript, aesthetic design.

**KIRISH.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida Temuriylar davri (XIV–XV asrlar) nafaqat siyosiy qudrat, balki ilm-fan va madaniyatning yuksak taraqqiyoti — "Sharq Renessansi" sifatida e’tirof etiladi. Ushbu davrda kitob shunchaki axborot tashuvchi vositadan haqiqiy san’at asari darajasiga ko‘tarildi. Temuriylar saroyidagi "Kitobxonalar" (qirollik ustaxonalari) xattotlik, miniatyura, lavvohlik (zarhal berish) va muqovasozlik kabi turli san’at turlarini yagona bir maqsad — mukammal badiiy qo‘lyozma yaratish yo‘lida birlashtirdi. Bugungi kunda milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosimizni o‘rganish jarayonida ushbu san’atlar orasidagi ichki bog‘liqlikni tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Muammoning qo‘yilishi.** Ko‘p hollarda Temuriylar davri san’ati o‘rganilganda, xattotlik va miniatyura alohida-alohida sohalar sifatida tahlil qilinadi. Biroq, bu davr qo‘lyozmalarining o‘ziga xosligi shundaki, ularda matn (xattotlik) va tasvir (miniatyura) bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit estetik tizimni tashkil etgan. Tasvir matndagi ma’noni vizuallashtirsa, xattotlik namunasi kompozitsiyaning mantiqiy davomi sifatida xizmat qilgan. Ushbu uyg‘unlikning texnik va falsafiy asoslarini o‘rganish hozirgi zamon kitob dizayni va grafik san’ati uchun ham boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Temuriylar davri kitobat san’atida xattotlik va tasviriy san’at sintezini tahlil qilish, ularning qo‘lyozma sahifasidagi kompozitsion uyg‘unligi hamda asarning umumiy badiiy qiymatini oshirishdagi o‘rnini ko‘rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

• Temuriylar davri kitobxonalarida xattot va musavvirning hamkorlik tamoyillarini o‘rganish;

• Nasta’liq xatining miniatyura kompozitsiyasi bilan bog‘liqlik jihatlarini tahlil qilish;

• Qo‘lyozma sahifasida "shamsa", "unvon" va miniatyura joylashuvidagi matematik va estetik qonuniyatlarni ochib berish.

**ASOSIY QISM**

Temuriylar davri kitobat san’ati — bu xattotlik, miniatyura, lavvohlik (zarhal berish) va muqovasozlik kabi bir necha mustaqil san’at turlarining yuksak darajadagi sintezidir. Bu davrda yaratilgan har bir qo‘lyozma shunchaki matn to‘plami emas, balki yaxlit me’moriy kompozitsiya kabi aniq hisob-kitob va estetik muvozanat asosiga qurilgan. Xattotlik va tasvir o‘rtasidagi uyg‘unlikning eng muhim ko‘rsatkichi bu — nasta’liq xatining kashf etilishi va takomillashuvidir. Nasta’liq o‘zining qayrilma chiziqlari, nafis harakati va "suzuvchan" tabiati bilan miniatyura kompozitsiyasidagi lirik muhitga juda mos tushgan. Masalan, sahifadagi xat satrlari miniatyura ichiga kirib borishi yoki tasvirning bir qismi xat hoshiyalarini yorib o‘tishi "fazoviy yaxlitlik" effektini yaratgan. Qo‘lyozma sahifasining taqsimoti (maketirovkasi) ham xattot va musavvirning hamkorligini talab qilgan. Sahifadagi matn bloklari va tasvir uchun ajratilgan joylar o‘zaro "oltin kesim" qonuniyatlariga yaqin mutanosiblikda joylashtirilgan. Xattot matnni ko‘chirayotganida, musavvir uchun mo‘ljallangan bo‘shliqlarni shunday qoldirganki, natijada tasvir matnning mantiqiy davomiga aylangan. Hirot miniatyura maktabi, xususan, Kamoliddin Behzod ijodida bu uyg‘unlik o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Behzod asarlarida xattotlik yozuvlari ba’zan binolarning devorlaridagi kitobalar shaklida, ba’zan esa sahifaning yuqori va pastki qismlarida kompozitsion muvozanatni saqlovchi element sifatida ishtirok etadi. Bu esa tomoshabinga voqeani ham o‘qish, ham vizual idrok etish imkonini beradi. Shuningdek, ranglar gammasidagi uyg‘unlik ham kitobat san’atining muhim jihatidir. Xattot foydalangan qora siyoh, unvonlardagi lojuvard va tilla ranglar miniatyura ranglari bilan rezonans hosil qilgan. Sahifa hoshiyalaridagi guldasta va naqshlar (tash’ir) tasviriy syujet bilan mavzu jihatdan bog‘langan bo‘lib, kitobxonni asosiy tasvirga ruhan tayyorlagan. Shuni aytish kerakki, Temuriylar davri kitob san’atida tasvir va xattotlik bir-biridan ajralmas egizak tushunchalardir. Xattotlik — fikrning vizual shakli bo‘lsa, miniatyura — fikrning ranglardagi in’ikosi edi. Bu ikki san’atning uyg‘unligi natijasida dunyoga kelgan "Shohnoma", "Xamsa" yoki

"Zafarnoma" kabi nodir qo‘lyozmalar bugungi kunda ham jahon dizayn san’ati uchun kompozitsiya va mutanosiblikning eng mukammal namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Temuriylar davri kitobat san’atidagi uyg‘unlikning yana bir o‘ziga xos jihati — bu fazoviy muvozanat va "tash’ir" (hoshiya bezagi) san’atining matn bilan bog‘liqligidir. Qo‘lyozma sahifasida xattotlik sathi (matn maydoni) shunchaki yozuvlar majmuasi emas, balki miniatyura syujeti bilan mantiqiy aloqada bo‘lgan "tirik" makon hisoblangan. Masalan, Alisher Navoiy asarlariga ishlangan bezaklarda sahifa hoshiyasidagi oltin suvi bilan chizilgan hayvonot va nabotot olami tasvirlari xattot bitgan misralardagi tabiat tasviri bilan hamohanglik kasb etgan. Bu usul kitobxonning nigohini matndan tasvirga, tasvirdan esa badiiy hoshiyaga silliq o‘tkazishga xizmat qilgan. Ushbu "vizual o‘tish" tamoyili Temuriylar kitob dizaynining eng yuksak yutug‘idir. Shuningdek, "unvon" va "sarloha" qismlarining miniatyura va xattotlik bilan sintezi alohida tadqiqot ob’ektidir. Kitobning boshlanish qismida qo‘llanilgan gnoseologik ramzlar — "shamsa" va "lojuvard" naqshlar asarning umumiy ranglar gammasini belgilab bergan. Xattotning suls yoki kufiy xatidagi salobatli yozuvi musavvirning mayda va nafis detallarga boy miniatyurasi bilan o‘zaro kontrast (qarama-qarshilik) hosil qilib, sahifaga dinamika bag‘ishlagan. Bu yerda xat — qat’iyat va intizomni, miniatyura esa hayotiy harakat va hissiyotni ifodalagan. Bu ikki qutbning birlashishi esa Temuriylar davri san’atining falsafiy asosi bo‘lgan "komil mazmun va mukammal shakl" g‘oyasini o‘zida mujassam etgan. Natijada, qo‘lyozma nafaqat o‘qiladigan, balki "tinglanadigan" (ritm orqali) va "hislanadigan" san’at darajasiga ko‘tarilgan.

**XULOSA**

Temuriylar davri kitobat san’ati taraqqiyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda qo‘lyozma yaratish jarayoni xattotlik va tasviriy san’atning o‘zaro uzviy sinteziga asoslangan yuksak madaniy hodisadir. Xattot bitgan nafis nasta’liq satrlari va musavvir chizgan rangdor miniatyuralar shunchaki sahifadagi bezak emas, balki asarning falsafiy va badiiy mohiyatini ochib beruvchi yagona estetik tizimni tashkil etgan. Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, Temuriylar kitobxonalarida (ustaxonalarida) shakllangan "mutanosiblik qonuniyati" matn va tasvirning sahifada o‘zaro muvozanatda bo‘lishini ta’minlagan, bu esa kitobxonning asarni ham vizual, ham ma’naviy idrok etishiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, xattotlikning qat’iy geometrik intizomi va miniatyuraning erkin badiiy parvozi o‘rtasidagi uyg‘unlik Temuriylar Renessansining vizual ramziga aylandi. Ushbu san’at turlarining sintezi natijasida dunyoga kelgan nodir qo‘lyozmalar nafaqat o‘rta asrlar madaniyatining cho‘qqisi, balki bugungi zamonaviy grafika, kitob dizayni va kalligrafiya san’ati uchun ham bitmas-tuganmas ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Temuriylar merosidagi ushbu uyg‘unlik tamoyillarini o‘rganish va yosh avlodga o‘rgatish, milliy tasviriy san’atimizning davomiyligini va jahon madaniyatidagi nufuzini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021.

2. Bulatov S.S. "O‘zbekiston xalq amaliy bezak san’ati". – Toshkent: Mehnat, 1991.

3. Murodov A. "O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan". – Toshkent: Fan, 1971. (Xattotlik tarixi bo'yicha eng muhim manbalardan biri).

4. Sultonov X.E. "Temuriylar davri kitobat san’ati". – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2007.

5. Siddiqov M. "Kamoliddin Behzod musavvirlik maktabi". – Toshkent: Sharq, 2000.

6. Canby, Sheila R. "The Rebellious Reformer: The Drawings and Paintings of Riza-yi Abbasi of Isfahan". – London, 1996. (Temuriylar an'analarining keyingi davrlarga ta'siri haqida xalqaro manba).

7. Blair, Sheila S. "Islamic Calligraphy". – Edinburgh University Press, 2006. (Islom xattotligi va Temuriylar uslubi haqida jahon miqyosidagi tadqiqot).

8. Grabar, Oleg. "Mostly Miniatures: An Introduction to Persian Painting". – Princeton University Press, 2000.

# TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

**Toshniyozov Nurzohid Toshtemir o‘g‘li**
**O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi**
**Navoiy akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:**Temuriylar davrida jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, davlat boshqaruvi tizimi, soliqlar, xalq xo‘jaligi hamda Amir Temur tomonidan yuritilgan adolatli siyosat haqida ma’lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy manbalar asosida Sohibqironning xalq bilan munosabatlari, davlatni boshqarishdagi mashvarat va kengash an’analari hamda iqtisodiy siyosatining asosiy jihatlari yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar davri, Temur tuzuklari, kengash, mashvarat, vazir, sipoh, soliq tizimi, iqtisodiy hayot, Movarounnahr.

Zamonaviy jamiyatni ilm-ma’rifat va ta’lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Insoniyatning ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, jamiyatni rivojlantirishda ta’lim, ilm-fan va hunar eng muhim omil hisoblanadi. Har qanday davlatning kelajagi uning ilmiy salohiyati, madaniy darajasi va iqtisodiy rivoji bilan belgilanadi.Tarixiy tajriba ham shuni tasdiqlaydiki, buyuk davlatlar kuchli boshqaruv tizimi, adolatli qonunlar va rivojlangan iqtisodiyot asosida barpo etilgan. Bu borada Amir Temur va Temuriylar davri alohida o‘rin tutadi. Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan davlat nafaqat harbiy qudrati, balki ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan ham tarixda muhim ahamiyat kasb etgan.Temuriylar davrida davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzumAmir Temur davlat boshqaruvida kengash va mashvaratga alohida e’tibor bergan. Davlat ishlarini yuritishda tajribali vazirlar, harbiy sarkardalar hamda ulamolar bilan maslahatlashib ish tutish Temur siyosatining muhim jihati bo‘lgan. Bu holat “Temur tuzuklari” asarida ham o‘z aksini topgan.Temur davlatni boshqarishda ikki muhim qatlamga tayanadi:

harbiy qatlam (sipohiylar) ma’muriy boshqaruv tizimi (vazirlar va amaldorlar)

Davlat boshqaruvida tartib-intizom, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari muhim ahamiyat kasb etgan. Temur o‘z tuzuklarida amaldorlarning xalqga zulm qilmasligini qat’iy talab qilgan.

Temuriylar davrida iqtisodiy hayot

Temuriylar davrida iqtisodiy hayotning asosini:

- dehqonchilik
- hunarmandchilik
- savdo-sotiq
- tashkil etgan.

Movarounnahr hududida sug‘orish tizimi rivojlangan bo‘lib, ko‘plab ariqlar, kanallar va suv inshootlari qurilgan. Bu esa qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga katta imkoniyat yaratgan.

Amir Temur davlat iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida:

- yerlarni qayta tiklash
- sug‘orish tizimini rivojlantirish
- hunarmandchilik markazlarini qo‘llab-quvvatlash
- savdo yo‘llarini xavfsizligini ta’minlash
- kabi chora-tadbirlarni amalga oshirgan.
- Soliq tizimi va iqtisodiy siyosat

Temuriylar davlatida soliq tizimi muhim o‘rin tutgan. “Temur tuzuklari”da soliq yig‘ish jarayoni adolatli va tartibli bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Soliq yig‘uvchilarning xalqni ezishi qat’iyan man etilgan.Asarda shunday fikrlar uchraydi: davlatning barqarorligi xalqning farovonligiga bog‘liq. Shuning uchun dehqonlarga yordam berish, ularga urug‘ va asbob-uskunalar bilan ko‘maklashish zarur deb hisoblangan.

Temuriylar davrida iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi mamlakatni obod qilish, savdoni rivojlantirish va xalq turmush darajasini yaxshilashdan iborat bo‘lgan.

Tarixiy manbalarda Temuriylar davri Temuriylar davrini o‘rganishda bir qator tarixiy manbalar muhim ahamiyatga ega:

- Sharofiddin Ali Yazdiy – “Zafarnoma”

- Ibn Arabshoh – “Amir Temur tarixi”
- Salohiddin Toshkandiy – “Temurnoma”
- Mirxond – “Ravzat us-safo”

Bu asarlarda Amir Temurning siyosati, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari hamda ijtimoiy hayoti haqida muhim ma’lumotlar berilgan.Masalan, Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Amir Temurning dono va uzoqni ko‘ra biladigan davlat arbobi sifatidagi fazilatlarini ta’riflaydi. Unda Temurning adolatli siyosati, dushmanlarga qarshi kurashdagi jasorati va xalq manfaatlarini himoya qilgani haqida hikoya qilinadi.Temuriylar davri Movarounnahr tarixida siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Amir Temur tomonidan yaratilgan kuchli davlat tizimi, adolatli qonunlar va iqtisodiy siyosat mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan.

Temuriylar davrida:

- davlat boshqaruvi tizimi takomillashgan
- savdo va hunarmandchilik rivojlangan
- qishloq xo‘jaligi taraqqiy etgan
- xalq farovonligini ta’minlashga e’tibor qaratilgan

Shu sababli Temuriylar davri nafaqat harbiy qudrati, balki ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan ham tarixda muhim o‘rin egallaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

***1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T- O‘zbekiston, 2016.***

2. B.Axmedov Amir Temur o‘g‘itlari tarjimasi 2020-y

3. B.Axmedov “Amir Temur va Sulton Boyazid ilmiy kurash” 1997-y.

4. I.Muminov “Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir” 1972-y.

5. Amir Temur yashagan joylar bo‘ylab sayohat 1990-y. iyun-avgust ilmiy ekspiditsiyalar.Turkiston gazetasi 40-51-sonlar.

6. Berezikov “Temuriylar Xilxonasi” O‘zbekiston san`ati va adabiyoti gazetasi 1999-y. 18-son.

## AMIR TEMUR BOBOMIZGA EHTIROM

**E. I. Zoyirov., NavDU “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix)” mutaxassisligi magistranti.**
**Ilmiy rahbar: NavDU dotsenti Sh.Ravshanov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur shaxsiyati va davlatchiligimiz tarixidagi o’rni atroflicha yoritilgan.

**Tayanch iboralar:** Rossiya imperiyasi va Sovet hokimiyati, Yunon-makedonlar, Temur tuzuklari, Uchinchi Renessans, Karl VI.

Millatimiz o‘zining o‘tmish tarixida og‘ir lahzalarni boshdan kechirdi. Bu tabarruk tuproqqa miloddan oldingi VI asrda Eronlik Kayxusrav, miloddan oldingi IV asrda Makedoniyalik Iskandar, milodiy VII asrda arablar, XIII asrda Chingizxon, XIX asrda esa rus istilochilarining tajovuzlari ne-ne kulfatlar keltirmadi. Ahmoniylar 200 yil, Grek-makedoniyaliklar 180 yil, Arab xalifaligi salkam 200 yil, Chingizxon bosqinchilari 150 yil, Rossiya imperiyasi va Sovet hokimiyati 130 yil o‘lkani o‘z panjalarida ushlab turdilar. Umumlashtirilganda mazkur raqamlar 800 yildan oshadi. Binobarin, O‘zbekiston o‘zining salkam uch ming yillik tarixidan o‘rta hisobda 800 yilini bosqinchilarning zulmi ostida o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Ko‘p boyliklar talandi, shahar va qishloqlar xarobaga aylantirildi. Biroq hech qanday qirg‘inlar va vayronagarchiliklar qanchalik vahshiylarcha amalga oshirilmasin, o‘zbek xalqini yer yuzidan supurib tashlay olmadi. Chunki, bu xalq Allohning marhamati ila olovda yonmaydigan va suvda cho‘kmaydigan qilib yaratilganki, misli ko‘rilmagan talofat va azob-uqubatlardan butun chiqaveradi, hamda bosqinchilarga qarshi kurashishni davom

ettiraveradi. Zero, bugungi kunda ma’naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qolmoqda.

Xalqimiz va mamlakatimiz bosib o‘tgan yo‘lni, ajdodlarimiz faoliyatini- tariximizni chuqur bilmay va teran idrok qilmay turib, kishi ma’rifatli ham, ma’naviyatli ham bo‘lolmaydi. Binobarin, o‘tmish tarixi xalqmizning matonatli irodasini, uni ezgulikka intilib yashashini ko‘rsatadi. O‘tmish bilan bugunning, ajdodlar bilan avlodlarning mustahkam bog‘lanishi bu-millat manguligiga kafolatidir. Tarix bunday bog‘lanishda oltin ko‘prik bo‘lib xizmat qilajak. Tarixni xalq yaratadi. Uni yaratishda xalq ruhida, ongida va qalbida o‘zlaridan chuqur va o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar faol ishtirok etdilar. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganidek, biz Amir Temurning bevosita vorislari va avlodlari boshimizdan o‘tkazgan mustabid tuzum tufayli shunday bir ahvolga tushib qolgan ediki, ulug‘ ajdodimizning tarixi va faoliyatini bashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini bugungi kunda xorijda AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Turkiya, Eron, Pokiston va boshqa mamlakatlarda bizning o‘zimizdan ko‘proq bilishadi. Bizlar ya’ni Amir Temurning Vatani bo‘lmish shu tuproqda o‘sgan odamlar, uning faoliyatini juda oz bilardik. Chunki mustamlakachilikning qora bulutlari Sohibqiron yulduzini bizdan to‘sib turardi. Mustaqillik natijasida millatimizning tarixi, ongi yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida salmoqli o‘rinni egallagan Amir Temur kabi millatning asl farzandlarining jahon tarixidagi haqiqiy o‘rni va roli to‘g‘risidagi haqiqat yuzaga chiqdi. Tarixning o‘qilmagan yoki buzib ko‘rsatilgan qator sahifalari qaytadan o‘qildi.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz yana bir muhim masala - ozod va obod mustaqil O‘zbekiston uchun Amir Temur shaxsiyati va merosi nima uchun zarurligi masalasiga to‘xtalib, buni quyidagicha sharhlab berdi. Birinchidan, Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo‘lmasa, betakror ma’naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo‘lmaydi. O‘zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o‘z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o‘z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”[138],-degan so‘zlari buning yorqin dalilidir. Amir Temur obodonlashtirishga e’tibor qaratib, mamlakatda qurilish inshoatlari barpo qilinib, sug‘orish shaxobchalari kengaydi, cho‘llar (Mug‘on cho‘li) o‘zlashtirildi, kanallar o‘tkazildi, ko‘priklar, yo‘llar, karvonsaroylar qurildi. Buyuk Ipak yo‘li tiklandi. Bularning bari Amir Temur davlatning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga siyosiy va ma’navmy mavqeyining oshishiga xizmat qildi.

Amir Temurga xos yaratuvchanlik bizning xalqimizga tarixiy merosdir. Bugungi kunda Prezidentimiz tashabbuslari bilan bunyod etilayotgan ko‘rkam inshootlar, zamonaviy uylar qurilishi mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonining naqadar tezlik bilan rivojlanayotganligining yorqin namunasidir. Mustahkam rivojlangan davlatning barqaror bo‘lishi uchun yaqin uzoqdagi xalqlar mamlakatlar, xalqlar bilan savdo, diplomatik aloqalarni o‘rnatishga harakat qilgan. Shu sababli u Yevropa va Osiyoni bog‘lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan Xitoy, bir tomondan Fransiya va Angliya, yana bir tomondan Rum, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar o‘rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga harakat qilgan. Amir Temur diplomatik aloqalarga, elchilik missiyalariga katta e’tibor bergan. Masalan, Fransiya qiroli Karl VI Amir Temurga yozgan xatida, jumladan, bunday deydi: “Dunyo savdo ahli ila obod bo‘lajak”. Demak, Amir Temur tashqi siyosatida xalqaro iqtisodiy- savdo aloqalarini keng miqyosda yo‘lga qo‘yish, undan barchani, avvalom bor, o‘zining xalqini bahramand etish bosh g‘oya bo‘lib xizmat qilgan. Tariximizda Amir Temurday daho- porloq yulduz bor, u qoldirgan moddiy, madaniy va ma’naviy meros bugungi hayotimizga ham ohang, bular oldimizda turgan muammolarni

[138] Temur tuzuklari. -T.: “O’zbekiston”, 2018 yil 24 bet.

yechishda bizga qo‘l kelmoqda. Demak, biz bu merosni o‘rganishimiz, targ‘ib qilishimiz kerak. Chunki biz o‘z millatimiz xususiyatlariga, o‘z milliy qadriyatlarimizga asoslanib, taraqqiy topgan davlatlarning tajribalariga va umumbashariy aqidalariga tayanib kelajagi buyuk davlatimizni qurmoqdamiz va shu asosda jahon hamjamiyatidan o‘z munosib o‘rnimizni egallab bormoqdamiz. Zotan, bunday sharafli o‘rin bizga Amir Temur hazratlaridan merosdir.

“Amir Temur davrini o‘rganishda tarixchi olimlarimiz juda ko‘p ilmiy- tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Amir Temur tuzuklarini o‘qisam xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topganday bo‘laman”,- deb ta’kidlaydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Amir Temurning tarixiy faoliyati to‘g‘risida tarixiy haqiqatning qayta tiklanishi uning davlatni boshqarish sohasidagi adolatli faoliyatini bugungi kunda davlat boshqaruvini tashkil qilishda, xalq manfaaatlariga mos ichki va tashqi siyosatni yuritishda ibrat, tarixiy saboq berib xizmat qilmoqda. Barcha davrlarda ham Amir Temur shaxsiga, o’gitlariga murojaat qilish o’z ahamiyatini yoqotmaydi va o’rganishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur hazratlari tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” [139] gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ-46-son qarori qabul qilindi va joylarda Amir Temur va temuriylar tarixini o’rganish bo’yicha ko’plab cavobli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi-Uchinchi Renessansga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o‘rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish avlodlar uchun farzu-qarz hamda muhim ahamiyat kasb etadi.

## AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI

**X.Xalilov,** NavDU o‘qituvchisi
**Sh. Jasurbek**, NavDU talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik, savdo-iqtisodiy hamda geosiyosiy aloqalarni o‘rnatishdagi tarixiy roli tahlil qilinadi. Temur davlatining Fransiya, Angliya va Kastiliya (Ispaniya) kabi Yevropa qirolliklari bilan olib borgan yozishmalari, xalqaro savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlashi hamda Anqara jangining Yevropa siyosiy taqdiriga ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, diplomatiya, Yevropa, Buyuk Ipak yo‘li, xalqaro aloqalar, Kastiliya, xat-yozishmalar, geosiyosat.

**Qisqacha mazmun.** Mazkur tadqiqot ishi Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi diplomatik, savdo-iqtisodiy va geosiyosiy munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Temuriylar imperiyasining Fransiya, Angliya va Kastiliya (Ispaniya) kabi qirolliklar bilan yozishmalari, xalqaro savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlashi hamda Anqara jangining Yevropa taqdiriga ta’siri batafsil ko‘rib chiqiladi.

**Kirish**

O‘zbek xalqi va jahon tarixida Amir Temur nafaqat yengilmas sarkarda va qudratli imperiya asoschisi, balki Sharq va G‘arb o‘rtasida mustahkam ko‘prik yarata olgan mohir diplomat sifatida ham muhim o‘rin tutadi. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida xalqaro maydonda yuzaga kelgan murakkab geosiyosiy vaziyat davlatlar o‘rtasida yangicha hamkorlik aloqalarini o‘rnatishni taqozo etar edi.

[139] LexUZ.On-line/(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.02.2026-y., 07/26/46/0114-son)

Amir Temur o‘zining uzoqni ko‘ra bilish siyosati orqali Yevropa qirolliklari bilan o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Uning maqsadi faqatgina hududlarni kengaytirish emas, balki qit’alararo savdo-sotiqni rivojlantirish va xalqaro barqarorlikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan.

**Diplomatik aloqalar va tarixiy yozishmalar**

Amir Temur Yevropaning qator yetakchi davlatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Bu borada saqlanib qolgan tarixiy xat-yozishmalar uning tashqi siyosatdagi mahoratini ko‘rsatadi.

Amir Temurning Yevropa bilan hamkorlikdagi asosiy diplomatik qadamlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Fransiya bilan aloqalar: Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI o‘rtasida faol xat-yozishmalar olib borilgan. Temurning 1402-yilda savdo munosabatlarini rivojlantirish va savdogarlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida yo‘llagan maktubi bunga yaqqol misoldir.

Angliya bilan munosabatlar: Angliya qiroli Genrix IV ga yuborilgan maktublarda ham o‘zaro savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yish va do‘stona munosabatlarni mustahkamlash taklif etilgan.

Kastiliya (Ispaniya) elchiligi: Amir Temurning Yevropa bilan diplomatik aloqalarining eng yorqin sahifalaridan biri Ispaniya elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning Samarqandga tashrifidir (1404-yil). Klavixoning “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” asari bu davrdagi O‘rta Osiyo va Yevropa aloqalari hamda Temur davlatining qudrati haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

**Anqara jangining Yevropa uchun geosiyosiy ahamiyati**

Amir Temurning Yevropa taqdiriga ko‘rsatgan eng katta ta’siridan biri 1402-yildagi Anqara jangidir. Usmoniylar sultoni Boyazid Yildirimning tezkor yurishlari natijasida butun Yevropa tahdid ostida qolgan bir paytda, Amir Temurning Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi Yevropani katta inqirozdan qutqarib qoldi.

Bu g‘alaba natijasida:

Usmoniylar imperiyasining Yevropa tomon yurishi vaqtincha to‘xtatildi.

Vizantiya imperiyasi o‘z umrini yana 50 yilga uzaytirish imkoniga ega bo‘ldi.

Yevropa davlatlari o‘z ichki kuchlarini birlashtirish va mudofaani mustahkamlash uchun vaqt yutdilar.

Shu sababli, Yevropa hukmdorlari Amir Temurni nafaqat ittifoqchi, balki inqirozdan xalos etuvchi kuch sifatida ham qabul qilishgan.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik va Buyuk Ipak yo‘li

Amir Temur davlat boshqaruvida xalqaro savdoning ahamiyatini chuqur anglagan. U Buyuk Ipak yo‘lining xavfsizligini to‘liq ta’minlab, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi tovar ayirboshlash jarayonini yuksak darajaga olib chiqdi.

Uning Yevropa hukmdorlariga yuborgan maktublarida shunday jumlalar uchraydi: “Sizning savdogarlaringiz bizning mulkimizga kelsinlar, biz ularga hurmat va e’tibor ko‘rsatamiz. Bizning savdogarlarimiz sizning yurtingizga borganda, siz ham ularga shunday munosabatda bo‘ling. Chunki savdogarlar dunyoni obod qiladilar.” Bu yondashuv savdo erkinligi va xavfsizligini kafolatlovchi zamonaviy xalqaro iqtisodiy qoidalarning dastlabki ko‘rinishlaridan biri edi.

**Xulosa**

Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishdagi roliga baho berarkanmiz, u o‘z davrida sivilizatsiyalar o‘rtasida muloqot o‘rnata olgan noyob siyosatchi bo‘lganini ko‘ramiz. Temurning diplomatik yondashuvi, o‘zaro hurmat va iqtisodiy manfaatdorlikka asoslangan tashqi siyosati qit’alararo hamkorlikning poydevorini yaratdi.

Bugungi globallashuv davrida Yevropa va Osiyo mintaqalari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini tahlil qilishda Amir Temurning diplomatiya va strategik hamkorlik borasidagi boy merosi o‘zining tarixiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

Ruy Gonsales de Klavixo. Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403—1406-yillar). – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 2019.

Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Fan, 1995.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005.

## АМИР ТЕМУР ВА ИБН ХАЛДУН УЧРАШУВИ

**Каромат Қурбонова, тадқиқотчи**

Абдураҳмон ибн Муҳаммад ибн Муҳаммад Абу Зайд ибн Халдун 1322-1406 йилларда яшаган мусулмон мутафаккирларидан биридир. У Тунисда туғилган ва Эрон, Миср давлатларида бўлиб, Мисрда қозилик лавозимида фаолият қилган. Унинг қабри Қоҳирада.

У ўта сўзга чечан, хушсурат, оқил ва юксак фазилатларни ўзида жамлаган инсон бўлган. Унинг “Муқаддима” асари машҳур бўлиб, кўплаб халқларнинг ривожланишига, ҳатто “Европанинг Европа бўлишига сабабчи бўлган китоб” дея таъриф берилган. Ушбу асар жамиятшунослик, тарихи, иқтисодиёт ва сиёсат назариялари бўйича кенг кўламли илмий таҳлилларни ўз ичига олади ва замонавий илм-фан тараққиётида ўзига хос ўринга эг.

Амир Темур Рум мамлакатларини забт этиб, Дамашққа йўлга чиқишини эшитган мамлуклар султони Султон Фараж ўз қўшини билан Шомга ҳаракатини бошлайди. Ўша вақтда қозиюл-қуззот мансабидан бўшатилган Ибн Халдунни ҳам карвонга шерик бўлишга кўндиришади.

1400 йил ноябр оийда сафарга отланган карвон Амир Темурдан олдин Дамашққа етиб борган.

Султон Фараж Қуббату Ялбуғо (Дамашқ жанубида, шаҳар дарвозаларидан тахминан икки мил масофада жойлашган манзил) майдонида чодирларини тикиб, ўзига қароргоҳ қилган. Амир Темур эса шаҳарга ҳужум қилишга шошилмай, душман қўшинини кузатиш учун Қуббату Ялбуғога қаратиб марқаб (кузатиш пункти) ўрнатган.

Бу вақтда эса Султон Фараж ва аъёнлари баъзи фитнага берилган амирлар Мисрга қочиб бориб, исён кўтаришга ҳаракат қилаётганлигидан хабар топгач, халқнинг кўтарилиши, давлатда тартибсизлик бошланишидан қўрқиб “Тезда Мисрга қайтиш керак", деган фикрга келадилар. Султон Фаражнинг Мисрга кетганлигини билиб қолган аскарлар ҳам қайтишга қарор қилишади. Бундан хабар топган Дамашқ аҳли эса саросимага тушиб, уй-жойлари ва бола-чақалари учун Амир Темурдан омонлик сўрашга ҳаракат қиладилар. Қози Бурхониддин иби Муфлақ ал-Ханбалий ва фақирлар шайхи вакил бўлиб, Темур билан музокара қилишга эришишади.

Темур уларни омон сақлашга рози бўлиб, қозилар ва нуфузли кишиларни яхши кутиб олади. Амир Темур Қози Бурхониддиндан Ибн Халдуннинг аскарлар билан Мисрга кетган-кетмаганлигини суриштириб, қабулига чақиртиради.

Ибн Халдунга Дамашқ валийси Шоҳмалик ҳамроҳлик қилиб, Темур ёнига олиб келади. Чодирда кирган ибн Халдун Амир Темур ва ноибларнинг овқат устида ўтирганлигига гувоҳ бўлади. Салом бериб, таъзим қилган ибн Халдун қўлини узатган Амир Темурнинг қўлини ўпиб, тавозеъ кўрсатади.

Амир Темур Қароргоҳининг бош имоми, уламолар уламоси Абдулжаббор ибн ан-Нўъмон араб ва форс тилларини мукаммал эгаллаганлиги сабабли мулоқотларига таржимонлик қилади.

Амир Темур ибн Халдундан қаердан ва нима учун келганини сўраганда, у жавоб берди: “Ўз юртимдан мақсадни амалга ошириш учун йўлга чиқдим". Денгиз йўли билан Искандариянинг кема тўхташ жойига фитр байрами (Рамазон ҳайити) куни, яъни саккиз юзинчи йилнинг саксон туртинчи йилида (милодий 1382 йил 8 декабрида Тунисдан Коҳирага келдим. 1382 йил 26 ноябрда Мисо тахтига келган Султон Барқуқ уни саройида олиб қолиб, катта амалдорлик вазифасига кўтарган эди) етиб келдим. Аз-Зоҳир Барқуқ тахтга ўтирганига энди ўн кун бўлган ва шаҳар деворларининг ичкарисида хурсандчиликлар давом этаётган эди.

- У сенга нима яхшиликлар қилди? – деб сўради Темур.

- Ҳамма яхшиликларни қилди. Мени яхши кутиб олди ва чиройли зиёфат берди. Ҳажга юборди ва қайтиб келганимдан сўнг ризқимни мул қилди. У раҳматликнинг давлати соясида неъматларидан баҳраманд бўлиб кун кечирдим.

- У сени қандай қилиб қозиликка тайинлаганди?

Барқуқ вафот этишидан бир ой олдин (1399 йил) бу вазифани адо этишда юқори мансабдан мағрурланмай, адолат ва ҳақиқатга риоя қилишда мақтагули фазилатга эга деб ўйлаб, Барқуқ Моликия қозисининг ўрнига мени тайинлади (Моликия қозисининг исми Носириддин Ахмад ат-Таносий эди. У вафот этганидан кейин 1399 йил 22 майда Ибн Халдун иккинчи марта қозилик мансабига тайинланган). Аммо ўзи бир ойдан сўнг вафот этди. Ундан кейин давлат одамлари (очиғи, уни кўра олмаган амалдорлар) менинг бу мансабни эгаллашимдан кўнгли тўлмай, уни мендан бошқа бировга олиб беришди.

- Туғилган еринг каер?

- Жаввоний Мағрибда.

- Мағрибга қўшиб айтилган Жаввоний сўзининг маъноси нима?

- У ердагиларнинг тилида “ичкари”, “узоқ” деган маънони билдиради. Чунки Мағриб ҳаммаси Шом денгизининг жанубий соҳилида жойлашган. Унга яқини Барқа ва Ифриқийя Тунисдир. Ўрта Мағриб эса Тилмисон ва Заннота Жазоир ўлкасидир. Узоқ Мағриб бу Фас ва Марокаш, яъни Жаввоний Мағриб.

- Танжа шаҳри Мағрибнинг қайсинисида?

- Океан билан Шом денгизининг Зуқоқ (Гибралтар бўғози. Арабчада Жабел ал-Тари - Испанияга ҳарбий юриш қилган VIII асрда яшаган Уммавийлар саркардаси. Шом бу - Ўрта ер денгизи, океан деганда Атлантика океани назарда тутилади) деб номланувчи бўғози ўртасидаги бурчакда.

- Сабата-чи?

- У Зуқоқ соҳилида жойлашган. Танжадан бир кунлик масофада. Ўртадаги масофа яқин, тахминан 20 мил бўлганлиги учун у ерда Андалусияга ўтадиган паром бор.

- Фас-чи?

- У тепаликнинг ўртасида, денгиз бўйида эмас. У Мағрибдаги маринийлар (Марокашда 1195-1468 йилларда ҳукмронлик қилган барбарлар сулоласи) подшоҳларининг пойтахти.

- Силжимос-чи?

- У жануб томонда, қирғоқ билан қумликлар ўртасидаги чегара.

- Бу мени қаноатлантирмаяпти, - деди Амир Темур. - Менга Мағриб ўлкасининг ҳаммасини, узоғини, яқинини, тоғлари, дарёлари, қишлоғу шаҳарларини ёзма тавсифлаб беришингни истайман. Шундай тасвирлагинки, худди уни мен кўраётгандай бўлай.

- Сиз жаноби олийлари учун уни ҳам ҳозирлайман, - дедим мен[140].

... Ибн Халдун шу топшириқни олгандан сўнг воқеалар боришини шундай тасвирлайди:

“Учрашувдан чиққанимдан кейин у (Амир Темур) талаб қилган ўша нарсани ёзганман. Қиска ва лўнда шаклда, тахминан ўн икки курросадан (бир курроса ўртадан букланган беш варақни ташкил қилади) иборат бу тавсиф унда катта қизиқиш уйғотган эди. (Бу албатта ҳозирги босма табоқ иборасига ўхшаш тушунчадир.)

Сўнгра Темур ўтирган жойидан хизматкорларига ришта (бу уйғурча лағмон) деб аталадиган ва зўр маҳорат билан тайёрланган таомни келтиришни буюрди. Таом солинган

[140] Соҳибқирон Амир Темурнинг “Мени бу жавоблар қаноатлантирмаяпти” дейишининг асосий боиси шуки, гап жуда катта жуғрофий ҳудудлар, ғарб мамлакатлари Шимолий-ғарбий ва Африка қитъаси экваториал ҳудулари ҳамда Ўрта ер денгизи Шарқий соҳиллари то Гибралтар бўғозининг Атлантика океанига қадар туташ географик, топономик тасвири, ўша мамлакатлар табиий жуғрофиясига, тарихига доир глобал илмларга доир мукаммал қуролга, яъни Ғарб ҳудудларининг мукаммал табиий, иқтисодий ва сиёсий географияси тушунчаларини билиш зарурати Соҳибқиронда пайдо бўлган эдики, натижада, шу соҳанинг йирик билимдон олимига дуч келгани ва ундан ўзига зарур илмлар билан қуролланиб олиш айни пайти эканлигини билди ва шу боис Ибн Халдунга катта вазифа бериб, харитага қиёс қилгудек, яъни ғарб олимининг жуғрофиясини кўзгуда кўргандек тасаввур берадиган манбага эга бўлишга астойдил интилди. Негаки, жаҳоний салтанат қуришга аҳд қилган Амир Темур оламий ҳудудларни қамраб оладиган салтанат ҳудудларининг жуғрофий-сиёсий тасвирлар манзараси Соҳибқирон Қароргоҳининг кўз ўнгида бутун борлиғини намоён этиб туриши лозим. Ибн Халдунга жуда муҳим ва оғир вазифани топширган Амир Темур унга топшириқни муваффақиятли тугатиш учун Қароргоҳига барча шарт-шароитларни яратиб бериш мақсадида Қароргоҳ Қутволига кўрсатма берди.

овқатни олиб келишганда, уни менга беришларини буюрди. Ўрнимдан туриб, уни олдим ва еб-ичдим. Овқат жуда ҳам ширин экан. Менинг бу ҳаракатларим Амир Темурда яхши таассурот уйғонишига сабаб бўлди. Сўнгра сукут сақлаб ўтирдим.

Шофъийларнинг катта қозиси Садриддин ал-Муновийнинг бошига тушган кулфат (уни Амир Темур қўшинлари Фараж лашкарини таъқиб қилиб борганида асир олган эди. Илмини ҳурмат қилиб Қароргоҳидаги суҳбатта чорлаганида ҳурматсизлик қилиб, рухсатсиз тўрга чикиб ўтирганлиги учун Амир Темур уни калтаклашга буюрган ва кейинги сухбатдан мосуво қилинган эди)ни ўйлаб, мени қўрқув босди. Мисрликларнинг орқасидан қувиб етган Темур аскарлари уни Шаққабда асир тушириб, қайтариб олиб келишган эди. Ваҳима босганидан мен Темурга айтадиган сўзларимни ўзимча тўкиб, унинг кўнглини топиш ва салтанатини улуғлаб, мақташ ҳақида фикрлай бошладим.”[141]

Ибн Халдун ўз хотираларида Темурнинг келиб чиқиши ҳақида кўп башоратлар эшитганлиги, иккита самовий жисмнинг қирони, яъни тўғри келиб қолиши ҳақида гапирувчи мунажжимлар мусаласада бўладиган ўнинчи қиронни кутаётган ҳамда унинг 1374-1375 йиллар оралиғида содир бўлиши кутилаётганлигини таъкидлайди.

1359-1360 йили бир куни Фас шаҳридаги Қаравийн масжидида мунажжим илмининг билимдони Абу Али Бадисни учратиб қолдим. Кутилаётган қирон ва унинг оқибати ҳақида ундан сўрадим. У қирон шимоли-шарқ томондаги яшовчи саҳройи халқдан кучли лашкарбоши чиқиб, подшоҳликлар ва давлатлар устидан ғалаба қозониб, кўп ерларни забт этишдан далолат эканлигини айтди. Қачон бўлиши ҳақидаги саволимга 1382-1383 йилда унинг ҳақида хабарлар тарқалади, деб жавоб берган эди. Худди шу гапни менга Оврўпо подшоси Ибн Альфонснинг табиби мунажжими Ибн Зарзар ал-Яхудий ҳам ёзган эди[142].

Бу ҳақда Ибн Халдуннинг устози имом Муҳаммад ибн Иброҳим ал-Обилий ҳам “бу воқеа яқинда содир бўлади, тирик бўлсанг, уни, албатта, кўрасан", деб айтган эди.

Шу каби бир қанча башоратларни Амир Темурга айтиб, кўнглини олмоқчи бўлган Ибн Халдун гапида давом этиб: “Сизга Аллоҳнинг ўзи мадад берсин! Мана ўттиз-қирқ йил бўлдики, сизни кўриш орзусидаман", дейди.

Ўз фикрини давом эттирган мутафаккир Амир Темурни оламнинг султони, дунёнинг подшоҳи, Одам ато давридан то шу пайтгача у каби подшоҳ келмаганлигини айтади.

Умуман олганда Амир Темур ва Ибн Халдун ўртасидаги суҳбат узоқ давом этади. Темур унинг зукколиги, билимдон олим ва теран тафаккур соҳиби эканлигини эътироф этиб, ўтмиш воқеликлари ва подшоҳлар ҳақида мулоҳазалар қилади.

## TEMURIYLAR DAVRINING MA’NAVIY VA MADANIY MEROSI

**Jalilov Mirsaid Bektosh o‘g‘li**
**Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya;** Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, ma’naviyat va madaniyatning eng yuksak rivojlangan davrlaridan biri hisoblanadi. XIV–XV asrlarda hukmronlik qilgan Temuriylar sulolasi nafaqat siyosiy qudrati, balki ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan ham mashhurdir. Ushbu maqolada Temuriylar davrining ma’naviy va madaniy merosi, ilmiy muhit, adabiyot, san’at va me’morchilik rivoji ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Temuriylar davri Sharq uyg‘onish davrining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda yaratilgan ilmiy va madaniy meros bugungi kunda ham jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

**Kalit so‘zlar**: Temuriylar davri, ma’naviyat, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, me’morchilik, Sharq uyg‘onishi.

[141] Ж.Рахимов. Буюк давлат арбоби ва улуғ саркарда. – Тошкент6 Зиё нашр, 2023. – Б. 330-331.

[142] Яҳудий табиб Иброҳим ибн Зарзар билан Ибн Халдун Фас шаҳрида маринийлардан бўлган подшоҳ Абу Инон саройида хизмат қилиб юрганида танишган эди. Кейинчалик Ибн Зарзар насронийларнинг Кастилиядаги подшоҳи Петро ибн Альфонс хизматига кирган.

Markaziy Osiyo tarixida Temuriylar davri alohida o‘rin egallaydi. Bu davr XIV–XV asrlarni qamrab olib, ilm-fan, madaniyat, san’at va me’morchilik rivojining yuqori darajaga ko‘tarilishi bilan tavsiflanadi. Temuriylar davlati asoschisi bo‘lgan Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat siyosiy barqarorlikni ta’minladi va ilm-fan hamda madaniyat rivoji uchun qulay sharoit yaratdi.

Temuriylar davrida Samarqand va Hirot shaharlari Sharqning yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylandi. Bu shaharlarda ko‘plab madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar va ilmiy markazlar tashkil etildi. Natijada ilm-fan va madaniyat rivojining yangi bosqichi boshlandi. Temuriylar davrida ko‘plab buyuk olimlar, shoirlar va san’atkorlar yashab ijod qilgan. Masalan, Mirzo Ulug‘bek astronomiya sohasida katta ilmiy kashfiyotlar qilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy turkiy adabiyot rivojiga ulkan hissa qo‘shgan.

Shuningdek, bu davr me’morchilik san’ati bilan ham mashhur. Samarqanddagi ko‘plab tarixiy obidalar Temuriylar davrining yuksak madaniyatidan dalolat beradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Temuriylar davrining ma’naviy va madaniy merosini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda uning tarixiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Mazkur tadqiqot tarixiy va ilmiy manbalar asosida olib borildi. Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Birinchidan, tarixiy tahlil metodi qo‘llanildi. Bu metod yordamida Temuriylar davridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar o‘rganildi. Ikkinchidan, taqqoslash metodi ishlatildi. Ushbu metod orqali Temuriylar davridagi madaniy rivojlanish boshqa tarixiy davrlar bilan taqqoslandi. Uchinchidan, manbalarni tahlil qilish metodi qo‘llanildi. Tarixiy asarlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar o‘rganilib, ularning mazmuni tahlil qilindi. To‘rtinchidan, tizimli yondashuv qo‘llanildi. Bu yondashuv orqali Temuriylar davrining ma’naviy va madaniy merosi kompleks tarzda o‘rganildi. Mazkur metodlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan bo‘lishini ta’minladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va san’at rivojining yuqori darajasi kuzatilgan. **Ilm-fan rivoji** Temuriylar davrida ilm-fan rivojiga katta e’tibor berilgan. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiya va matematika fanlari rivojlandi. Samarqandda qurilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda yulduzlarning harakati o‘rganilgan va astronomik kuzatuvlar olib borilgan. Ulug‘bek tomonidan yaratilgan “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” asari astronomiya tarixida muhim o‘rin egallaydi.**Adabiyot rivoji** Temuriylar davrida adabiyot ham yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda turkiy va forsiy adabiyot taraqqiy etdi. Bu davrning eng buyuk shoirlaridan biri Alisher Navoiy hisoblanadi. U turkiy tilning adabiy til sifatida rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. **San’at rivoji** Temuriylar davrida tasviriy san’at, xususan miniatura san’ati rivojlandi. Bu sohada Kamoliddin Behzod katta hissa qo‘shgan. **Me’morchilik rivoji** Temuriylar davri me’morchilik yodgorliklari bilan mashhur. Masalan: Gur-Amir maqbarasi Registon maydoni Bibixonim masjidi Bu obidalar Temuriylar davrining yuksak me’morchilik san’atidan dalolat beradi.

Temuriylar davrining ma’naviy va madaniy merosi jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu davr ilm-fan, madaniyat va san’at rivojining yuksak bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Temuriylar hukmdorlari ilm-fan va san’at ahliga homiylik qilgan. Bu esa ilmiy muhitning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Samarqand va Hirot shaharlari o‘sha davrda ilmiy va madaniy markaz sifatida mashhur bo‘lgan. Bu shaharlarda ko‘plab madrasalar va kutubxonalar faoliyat yuritgan. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy asarlar keyinchalik Yevropa ilm-faniga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat rivojining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu davrda: ilm-fan rivojlandi adabiyot va san’at yuksaldi me’morchilik san’ati taraqqiy etdi Temuriylar davrining ma’naviy va madaniy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Amir Temur – Temur tuzuklari Toshkent_Ochun 2024. 160 bet.
2. Sharafuddin Ali Yazdi – Zafarnoma. Toshkent_Fan 20019. 544 bet
3. Alisher Navoiy – Mahbub ul-qulub. Toshkent_G‘afur Gulom 2021. 312 bet.
4. Mirzo Ulug‘bek – Ziji Jadidi Ko‘ragoniy. Toshkent_Sharqshunoslik institute 2025. 275 bet.
5. Azamat Ziyo – O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent_Sharq 2001. 368 bet.

6. Ahmedov B – O‘zbekiston tarixi. Toshkent_O‘tituvchi 2001 352 bet.
7. Karimov I – Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent_Ma`naviyat 2008 176 bet
8. Rajabov Q – Temuriylar davri tarixi Toshkent_fan 2000 380 bet
9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi

## TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOTNING RIVOJLANISHI

**O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy**
**Kommunikatsiyalar Universiteti Xorijiy tillar Kafedrasi**
**Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi**
**1-bosqich talabasi: Sarvinoz Karimova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Temuriylar davrida ilm-fan va madaniy hayotning rivojlanishi, uning Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan ilm-fan, ta’lim hamda madaniyatga berilgan e’tibor natijasida yurtimizda yirik ilmiy va madaniy markazlar shakllangani ko‘rsatib beriladi. Xususan, Mirzo Ulug‘bek faoliyati, Samarqand rasadxonasi, madrasalar va ilmiy maktablarning rivoji ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy merosning bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari Temuriylar davri ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lganini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:**
Temuriylar davri, Amir Temur, ilm-fan, madaniyat, Mirzo Ulug‘bek, Samarqand rasadxonasi, ilmiy meros.

**Abstract**
This article analyzes the development of science and cultural life during the Timurid period and its significance in the history of Central Asia. It highlights the attention given to science, education, and culture by Amir Temur and his descendants, which led to the emergence of major scientific and cultural centers in the region. In particular, the activities of Mirzo Ulugbek, the Samarkand Observatory, madrasas, and the development of scientific schools are discussed from a scholarly perspective. The article also emphasizes that the scientific heritage created during the Timurid era still holds great importance today. The results of the research show that the Timurid period was a significant stage in the advancement of science and culture.

**Keywords:**
Timurid period, Amir Temur, science, culture, Mirzo Ulugbek, Samarkand Observatory, scientific heritage.

**Аннотация**
В данной статье анализируется развитие науки и культурной жизни в эпоху Тимуридов, а также её значение в истории Центральной Азии. Показано, что благодаря вниманию Амира Темура и его потомков к науке, образованию и культуре в регионе сформировались крупные научные и культурные центры. Особое внимание уделяется деятельности Мирзо Улугбека, Самаркандской обсерватории, медресе и развитию научных школ. Также подчеркивается, что научное наследие, созданное в период Тимуридов, сохраняет свою значимость и в наше время. Результаты исследования показывают, что эпоха Тимуридов стала важным этапом в развитии науки и культуры.

**Ключевые слова:**
Эпоха Тимуридов, Амир Темур, наука, культура, Мирзо Улугбек, Самаркандская обсерватория, научное наследие.

**Kirish**

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada rivojlangan davrlaridan biri hisoblanadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur va uning avlodlari tomonidan mamlakatda ilm-fan, ta’lim hamda madaniyatga katta e’tibor qaratilgan. Natijada Samarqand, Hirot kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylangan. Bu davrda ko‘plab madrasalar, kutubxonalar va ilmiy maskanlar barpo etilib, turli sohalarda faoliyat yuritgan olimlar yetishib chiqqan.

Temuriylar davrida ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlar orasida Mirzo Ulug‘bek alohida o‘rin egallaydi. Uning tashabbusi bilan Samarqandda mashhur rasadxona qurilib, astronomiya va matematika sohalarida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga, bu davrda adabiyot, san’at va me’morchilik ham yuqori darajada rivojlangan. Shuning uchun ham Temuriylar davri nafaqat siyosiy jihatdan, balki ilmiy va madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan ham muhim tarixiy davr hisoblanadi.

Ushbu maqolada Temuriylar davrida ilm-fan va madaniy hayotning rivojlanishi, uning Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni hamda bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Asosiy qism**

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyat taraqqiy etgan muhim bosqichlardan biri sanaladi. Bu davrda Amir Temur tomonidan markazlashgan kuchli davlat barpo etilishi natijasida mamlakatda siyosiy barqarorlik yuzaga kelgan. Ana shu barqarorlik ilm-fan, ta’lim, me’morchilik va san’at rivoji uchun qulay sharoit yaratgan. Ayniqsa, Samarqand va Hirot shaharlari nafaqat siyosiy, balki ilmiy va madaniy markaz sifatida ham mashhur bo‘lgan.

Amir Temur davlat boshqaruvi bilan bir qatorda obodonchilik, bunyodkorlik va ilm ahliga hurmat masalasiga ham alohida e’tibor qaratgan. U turli mamlakatlardan olimlar, hunarmandlar, me’morlar va san’atkorlarni Movarounnahrga to‘plagan. Bu esa yurtimizda ilmiy muhit shakllanishiga, madaniy hayotning jonlanishiga xizmat qilgan. Temur davrida qurilgan masjid, madrasa, saroy va maqbaralar o‘sha davr me’morchilik san’atining yuksak namunasi hisoblanadi.

Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyotida Mirzo Ulug‘bekning o‘rni ayniqsa beqiyosdir. U nafaqat hukmdor, balki o‘z zamonasining yetuk olimi sifatida ham tanilgan. Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda bunyod etilgan rasadxona o‘sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda astronomiya, matematika va geografiya sohalarida muhim tadqiqotlar olib borilgan. Ulug‘bek va uning atrofidagi olimlar osmon jismlarining harakati, yulduzlarning joylashuvi va vaqt hisobiga oid muhim ilmiy xulosalar chiqarganlar.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyatidagi eng muhim yutuqlardan biri “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” asari bilan bog‘liqdir. Mazkur asar o‘z davrida astronomiya sohasidagi eng muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Unda yulduzlar jadvali, sayyoralar harakati va astronomik kuzatishlar asosida aniq ma’lumotlar berilgan. Bu holat Temuriylar davrida ilm-fan faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham rivojlanganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida ta’lim tizimi ham ancha rivojlangan edi. Turli shaharlarda madrasalar faoliyat yuritgan, ularda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Bu esa yoshlarning kengroq bilim olishiga imkon yaratgan. Aynan shu davrda ilmli kishilar jamiyatda hurmatga sazovor bo‘lgan. Ilm egalariga homiylik qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim jihatlaridan biri bo‘lgan.

Bu davr madaniy hayotida adabiyot va san’at ham alohida o‘rin tutadi. Temuriylar zamonida she’riyat, tarixnavislik, xattotlik, tasviriy san’at va musiqa rivojlangan. Ayniqsa, Hirot shahri temuriylar davrida adabiy va madaniy markazga aylangan. Bu muhitda ko‘plab ijodkorlar va olimlar faoliyat yuritgan. Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning kamol topishida ham ana shu madaniy muhit muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun Temuriylar davri nafaqat ilmiy, balki ma’naviy va badiiy taraqqiyot davri sifatida ham qadrlanadi.

Me’morchilik ham Temuriylar davri madaniyatining eng yorqin yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Samarqand, Shahrisabz va Hirotdagi tarixiy obidalar buning yaqqol dalilidir. Bibixonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Ulug‘bek madrasasi kabi inshootlar yuksak did, nozik san’at va mustahkam bunyodkorlik an’analarini o‘zida mujassam etgan. Ushbu obidalar nafaqat o‘sha davr xalqining dunyoqarashi va estetik qarashlarini aks ettiradi, balki bugungi kunda ham milliy merosimizning bebaho qismi hisoblanadi.

Temuriylar davrining yana bir muhim jihati shundaki, bu davrda ilm-fan va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Ya’ni ilmiy tafakkur, bunyodkorlik, ijodkorlik va ma’naviy hayot bir-birini to‘ldirib turgan. Natijada bu davr Sharq uyg‘onishining muhim bosqichlaridan biri sifatida tarixda qoldi. Temuriylar yaratgan ilmiy va madaniy meros keyingi asrlarda ham o‘z ta’sirini saqlab qolgan.

Bugungi kunda ham Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy va madaniy boyliklar katta ahamiyatga ega. Ularni o‘rganish orqali xalqimizning boy tarixi, ilmga bo‘lgan e’tibori va yuksak

madaniyati haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘lamiz. Ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat va ilmga intilish ruhida tarbiyalashda bu merosning o‘rni kattadir.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksalgan davri sifatida muhim o‘rin egallaydi. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan ilm, ta’lim, me’morchilik va san’atga berilgan katta e’tibor natijasida yurtimizda kuchli ilmiy va madaniy muhit shakllangan. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati, Samarqand rasadxonasi, madrasalar va tarixiy obidalar bu davr taraqqiyotining yorqin namunalaridir. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy va madaniy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u xalqimizning ma’naviy boyligi va tarixiy faxri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Amir Temur haqida // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/amir-temur/
2.Mirzo Ulug‘bek haqida // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/mirzo-ulugbek/
3.Temuriylar davri ilm-fani haqida materiallar.
https://library.ziyonet.uz/uz/book/temuriylar-davri
4.O‘zbekiston tarixi // Ziyonet elektron kutubxonasi.
https://library.ziyonet.uz/uz/book/ozbekiston-tarixi
5.Amir Temur va Temuriylar davri haqida ma’lumotlar.
https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur/

## AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA SHAXS ERKINLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT MASALASI

**Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi**
**Qarshi Davlat texnika universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi**
**gulizaripova0757@gmail.com**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amir Temur ta’limotida shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat masalasi tahlil qilinadi. Amir Temur o‘z davlat boshqaruvida shaxsning erkinligini qadrlash bilan birga, ijtimoiy majburiyat va mas’uliyatni muhim prinsip sifatida ko‘rgan. Maqolada uning qonunlari, adolat tamoyillari va ma’naviy-axloqiy qarashlari orqali shaxs va jamiyat o‘rtasidagi muvozanat o‘rganiladi. Shu bilan birga, Temur ta’limotining zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy axloqiy me’yorlar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi.

**Abstract.** This article analyzes the issue of individual freedom and social responsibility in the teachings of Amir Timur. In his state governance, Amir Timur, along with valuing individual freedom, considered social duty and responsibility as an important principle. The article examines the balance between the individual and society through his laws, principles of justice, and moral and ethical views. At the same time, the role of Timur's teachings in modern society and their connection with social and moral norms are considered.

**Аннотация.** В данной статье анализируется вопрос свободы личности и социальной ответственности в учении Амира Темура. Амир Темур в своем государственном управлении, наряду с уважением к свободе личности, рассматривал социальную обязанность и ответственность как важный принцип. В статье рассматривается баланс между личностью и обществом через его законы, принципы справедливости и духовно-нравственные взгляды. В то же время рассматривается роль учения Тимура в современном обществе и его связь с социальными моральными нормами.

**Kalit so‘z.** Amir Temur, shaxs erkinligi, ijtimoiy mas’uliyat, adolat, ma’naviyat, davlat boshqaruvi

**Keyword.** Amir Temur, freedom of the individual, social responsibility, justice, spirituality, public administration

**Ключевое слово.** Амир Темур, свобода личности, социальная ответственность, справедливость, духовность, государственное управление

**Kirish.** Markaziy Osiyo tarixida o‘zining yuksak salohiyati bilan muhim o‘rin egallagan buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur jahon tarixida ham ijtimoiy va ma’naviy qarashlari bilan alohida joy egallagan. Uning adolatga asoslangan davlat boshqaruvi va siyosati hamda jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan faoliyati bugungi kungacha ilm ahllarini o‘ziga tortib keladi. Amir Temurning siyosiy va ma’naviy qarashlari o‘zining mashhur asari – Temur tuzuklarida ham o‘z aksini topgan. Unda rahbar shaxs avvalo adolatli, don ova o‘z xalqining taqdiri uchun mas’ul bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Amir Temur mas’uliyatli bo‘lishni davlat boshqaruvida eng asosiy tamoyillardan biri deb hisoblagan. U hukmdor va davlat amaldorlari o‘z zimmasidagi vazifasini adolat bilan bajarishi, xalq manfaatini himoya qilishi kerak deydi. Adolat Amir Temur siyosatining asosiy g‘oyasi hisoblangan.

Amir Temur davlat boshqaruvida amaldorlarga adolatli va mas’uliyatli bo‘lishni targ‘ib qilgan bo‘lsa jamiyatga ham mas’uliyatli bo‘lishni uqtirgan. Amir Temur nazarida ma’uliyat faqatgina hukumdor va amaldorlar uchun emas, balki jamiyatning barcha qatlamlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lishi kerakligini aytadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sharaf al- Din Ali Yazdi o‘zining “ Zafarnoma” nomli asarida Amir Temur haqida muhim ma’lumotlar keltirgan. U tarixiy biografik asar bo‘lib, Amir Temur faoliyati, qarorlari va davlat boshqaruvi haqida to‘liq tasvir beradi. Zafarnoma”da Temurning ijtimoiy siyosati, adolatga e’tibor, boshqaruv tamoyillari haqida yozilgan tafsilotlar shaxsning erkinligi va ularning jamoaga bo‘lgan mas’uliyati haqida tushuncha beradi. Ushbu manba asosan biografik yo‘nalishda bo‘lishiga qaramay, shaxs – jamiyat munosabatlari haqida tarixiy kontekst beradi.

Ruslan Damirovich Mustayevning ilmiy maqolalari Timurid davrining axloqiy-tarbiya va ijtimoiy qarashlarini hermenevtik jihatdan o‘rganadi, garchi “shaxs erkinligi” haqida bevosita bo‘lmasa ham umumiy ijtimoiy qadriyatlarni aniqlaydi.

Tulkin Turdievich Alimardanov va boshqalar tomonidan yozilgan maqola Amir Temurning siyosidagi umumbashariy qadriyatlarni yoritadi.

**Muhokama.** Amir Temur ta’limotida shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat masalasi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Temur davrida shaxsning erkinligi, asosan, jamiyat va davlat manfaatlariga bog‘liq tarzda tushuntirilgan. “Temur tuzuklari” va “Zafarnoma” kabi manbalarda shaxs erkinligi chegaralari, ularning jamiyat oldidagi mas’uliyati va adolat bilan bog‘liqligi aniq ko‘rsatilgan. O‘zining Temur tuzuklarida “bir amaldor va askar o‘z vazifasini adolat bilan bajarsin, davlat farovonligi uchun xizmat qilsin; chunki har birining huquqi jamiyat tinchi bilan bog‘liqdir” [1] degan jumlalarni keltirgan. U shaxsning ijtomoiy mas’uliyati haqida va har doim mas’uliyat bilan harakat qilgan shaxs erkin bo‘lishi keltiradi. Shaxs erkinligi cheklanmagan emas, balki ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak edi. Amir Temur har bir insonning o‘z hayotida va faoliyatida jamiyatga foyda keltirishi, odob-axloq qoidalariga rioya qilishi lozimligini ta’kidlagan. Shu tariqa, Temur shaxsning huquqlarini himoya qilish bilan birga, ularning jamiyatga foydali bo‘lishini ham ta’minlagan.

Ijimoiy mas’uliyat masalasi Temur ta’limotida muhim o‘rin tutadi. Har bir fuqaro yoki amaldor o‘z vazifasini sadoqat bilan bajarishi, axloqiy va qonuniy mas’uliyatni unutmasligi kerak edi. Amir Temur shaxslar faqat qonuniy emas, balki axloqiy jihatdan ham mas’ul bo‘lishini ta’kidlagan. Shu bilan birga, shaxslar o‘z erkinligini ishlatishda jamiyat tartibini saqlashga majbur edi. “Temur tuzuklari”da davlat amaldorlari va askarlarga shaxsiy manfaatni davlat manfaatidan ustun qo‘ymaslik tavsiya etilgan holda shunday deydi “Mamlakat boshqaruvi — qonuniylikda, adolat — xalq farovonligida; adolat bo‘lmasa erkinlik foyda bermaydi”[2]. Bu esa shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatadi. Uning ta’limotida erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanat asosiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs erkin bo‘lishi mumkin, lekin bu erkinlik jamiyat va davlat qonunlari bilan cheklangan. Jamiyat esa shaxsning faoliyatidan foyda ko‘rishi lozim, ya’ni shaxsning har bir harakati ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Temur o‘z qo‘shinlarini boshqarishda ularni shaxsiy hayotini hurmat qilgan holda tartibga solgan, ammo davlatni xavf ostiga qo‘yadigan harakatlarni qat’iyan man qilgan. Shu bilan birga, Temur shaxslar o‘rtasida adolatni ta’minlashga katta e’tibor qaratgan, bu esa shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni yanada mustahkamlaydi.

Zamonaviy nuqtai nazardan qaraganda, Amir Temur ta’limoti shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish orqali jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim manbasi

hisoblanadi. Shaxs erkinligini hurmat qilgan holda, jamiyatning umumiy tartibini va axloqiy qadriyatlarni saqlash, rahbarlik va boshqaruv falsafasini shakllantirishda. Temur ta’limoti bugungi kunda ham o‘rganishga loyiq. Tarixiy manbalar — “Temur tuzuklari” va “Zafarnoma” — bu g‘oyalarni voqealar va qarorlar orqali yoritib beradi, shuningdek, zamonaviy tarixshunoslik maqolalari Temur ta’limotining axloqiy va ijtimoiy mohiyatini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

**Xulosa.** Amir Temur ta’limotida shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat masalasi bir-birini to‘ldiruvchi, uyg‘un tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs erkinligi jamiyat va davlat manfaatlariga mos bo‘lishi, shaxs o‘z harakatlari bilan jamiyatga foyda keltirishi kerakligi ta’kidlangan. Shu bilan birga, ijtimoiy mas’uliyat — shaxsning jamiyat oldidagi vazifasi, axloqiy va qonuniy majburiyatidir. Temur davrida shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanat jamiyat tartibi va adolatni ta’minlashning asosiy omili bo‘lgan. Tarixiy manbalar — “Temur tuzuklari” va “Zafarnoma” — bu tamoyillarni voqealar va qarorlar orqali ochib beradi. Zamonaviy nuqtai nazardan, Amir Temur ta’limoti shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirish, rahbarlik va boshqaruv falsafasini shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, Temur ta’limoti nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ijtimoiy, axloqiy va siyosiy muammolarni o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharaf al-Din Ali Yazdi. Zafarnoma. Toshkent: Sharq, 2001. – 120–145-bet
2. Temur tuzuklari. Toshkent: Fan, 1990. – 45–68-bet
3. Alimardanov T.T., boshqalar. Temur siyosati va universal qadriyatlar. Toshkent: Psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar, 2020. – 33–50-bet
4. Mustayev R.D. Timuridlar davri ijtimoiy-etik qarashlar tahlili. Toshkent: Ilmiy maqola, 2018. – 12–25-bet
5. Temur va temuriylar davri tarixshunosligi. Toshkent: Ziyonet, 2015. – 100–135-bet

## AMIR TEMURNING BUYUK DAVLAT QURISH YO‘LIDAGI HARBIY YURISHLARI

**Saidkamol Xayrulla o‘g‘li Ismoilov**
**Toshkent iqtisodiyot pedagogika universiteti**
**Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi,**
**Ilmiy rahbar: Mashhura Odiljon qizi Darmonova**

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayoti yoritilgan. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Amir Temur siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi haqidagi fikrlarga to‘xtalib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Amir Temur, Movarounnahr, Xuroson, Samarqand, siyosat, iqtisod.*

***Аннотация:*** *В данной статье зафиксированы мысли об Амире Темуре и общественно-политической и экономической жизни эпохи Темура. Во второй половине XIV века в общественно-политических процессах Моваруннахра обсуждались мысли о выходе Амира Темура на поле политической борьбы.*

***Ключевые слова:*** *Амир Темур, Моваруннахр, Хорасан, Самарканд, политика, экономика.*

***Annotation:*** *In this article, the thoughts about Amir Temur and the socio-political and economic life of the Temur era are recorded. In the second half of the 14th century, in the social and political processes of Movarounnahr, the thoughts about Amir Temur's entry into the field of political struggle were discussed.*

***Key words:*** *Amir Temur, Movarounnahr, Khorasan, Samarkand, politics, economy.*

Sohibqiron Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Keshda tavallud topgan. U yoshlik chog‘idanoq o‘ta aqlli va jasurligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Maktab chog‘ida kamondan otishni, qilichbozlikni, ot minish kabi barcha jang salohiyatlarni mukammal egallagan. Yoshligidan mahsus ustozlar qo‘lida tahsil olgan. Otasi Amir Tarag‘ay Barlos qabilalaridan birining beklaridan, onasi esa Takinaxotin Chig‘atoy ulusidan bo‘lgan. Qazag‘anbekning 1358-yil o‘limidan so‘ng

Movarounnahrda boshlangan ziddiyatlar chog‘ida Temurbek amakisi Xoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi [1:31]. 1360-yil yanvarda Jeta (Mo‘g‘uliston) xoni Tug‘luq Temur Movarounnahrga yurish qilishni boshlaydi. Tug‘luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo‘lgan yerlar topshirildi va Tug‘luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qo‘shin yig‘adilar. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida to‘qnashishadi. Temurbek tomondan fath etiladi. Biroq keyinchalik 1361-yil martda Tug‘luq Temur yana Movarounnahrga yurish qiladi. Temurbek yana Tug‘luq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi [2:91]. Ilyosxo‘jaga esa Movarounnahrni topshirib o‘zi ortiga qaytadi. Bundan esa Amir Temur norozi bo‘lib 1360 – 1370 yillar ozodlik kurashi, ya’ni mo‘g‘ullarga qarshi kurashgan Amir Husaynga qo‘shiladi va qarshi kurashishni taklif etadi. 1364-yil Temurbek va Husaynbek Kesh yaqinidagi Qubbayi metinda Ilyosxo‘ja bilan to‘qnashishadi. Temurbek Qobulshoh O‘g‘lonni Movarounnahrga xon qilib ko‘taradi [3:40]. Ilyosxo‘ja yana Movarounnahrga yurish qiladi. 1365-yil 22-mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo‘yida Loy jangi bo‘lib o‘tadi [4:81]. Temurbek bo‘linmasi qarshi tomon bo‘linmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi, Amir Temurni jang maydonida yolg‘iz qoldirib ketadi. Bu voqeadan so‘ng Temurbek Keshga qaytishga majbur bo‘ladi. 1366-yil Husaynbek va Temurbek to‘qnashadi. Ular o‘rtasidagi urushda Temurbek tomon dushmanni yengadi [1:32]. Temurbek Qarshiga qarab yurush boshlaydi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig‘ini 243 kishi bilan yengadi.

1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yurish boshlaydi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul sharini egallaydi [3:31]. 1368-yil Temurbek Badaxshonni fath etib qaytadi. Temurbek Husaynbek bilan yana to‘qnash keladi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qo‘lga olib Suyurg‘otmish O‘g‘lonni xon qilib ko‘taradi. 1370-yil Temuriylar davlati quriladi. Temurbek Amir unvonini oladi va Samarqandni bosh shahar etib belgilaydi.

1370-yilning kuzida Amir Temur yirik Qurultoy o‘tkazadi. 1371-yil Amir Temur Jeta tomon 2 bora yurish qiladi. Hevak o‘lkasi va Kot shahri to‘la Chig‘atoy ulusining yerlari bo‘lsada, biroq u yerlar soliqlarini Xorazmdagi So‘fiylar yig‘ar edi. 1372-yil bahorda bu yerlarni qaytarishni ko‘zlab Temurbek Xorazm tomon ilk yurishini boshladi [3:32]. Temurbek Kat qal’asini qamal qiladi va egallaydi. Temurbek Qovun arig‘ining oldida Husayn So‘fiy bilan urushib dushmanni yengadi. Husayn So‘fiy yengilishidan so‘ng Xorazmga qarab chekinadi va o‘sha yerda o‘ladi. Temurbek Yusuf So‘fiy bilan yarashadi va ortiga qaytadi. Qaytishda oldin Yusuf So‘fiy Katni talaydi. Temurbek 2-bora Xorazm tomon yuradi. Temurbek qudachilik qilish uchun bu gal Xorazmga yurmaydi. 1375-yil yanvarda Temurbek Jeta tomon 3-bora yurish qiladi. Ili daryosi bo‘yida urushda Temurbek dushmanni yengadi. 1376-yil Temurbek Xorazm tomon 3-yurishini qiladi. Biroq bu yurish chog‘ida Sari Bug‘a va Odilshoh yovlik yo‘liga o‘tgani uchun ortiga qaytadi. Keyin 4-bora Jetaga yurish qiladi. Temurbek qo‘shini Jeta xoni Qamariddinni to‘la yengadi. Shu yili Amir Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir Temur o‘ladi. Temurbek 5-bora Jeta tomon yuradi va To‘xtamish o‘g‘lon bilan uchrashadi. To‘xtamishga Sig‘noq va Sabron o‘lkalarini beradi. 1376-yilning o‘zida Temurbek O‘risxon tomon qo‘shin tortadi. Jayron Qamishda dushman qo‘shinini yengadi.

1377-yilda Samarqandga qaytadi. Temurbek qaytishidan oldin To‘xtamish hokimiyati barxam topadi. Temurbek To‘qtamishni yana qo‘llaydi va qurol-yaroq bilan ta’minlaydi. 1379-yil Temurbek Xorazm tomon 4-bora yurish qiladi. Xorazm qal’a qamalida Yusuf So‘fiy Temurbek bilan qarama-qarshi urushishni so‘raydi. Temurbek so‘rovni sharaf bilib yolg‘iz o‘zi qal’a ostiga boradi. Biroq Yusuf So‘fiy tashqariga chiqmaydi. Temurbek qal’ani egallaydi. 1381-yilda Temurbek Eron o‘lkasi tomon qo‘shin tortadi. Temurbek ketma-ket Fushanj qal’asini va Hirotni o‘z davlati yerlariga qo‘shib oladi. Keyin esa Samarqandga qaytadi. 1382-yil boshlarida Xuroson tomon yurish qiladi. Kalot qal’asi va Tushriz qal’asini egallaydi. Ortidan Mozandaron Tomon yo‘l oladi. Biroq Alibekning Kalotga yurishidan so‘ng Temurbek orqaga qaytadi. 1383-yil yozida Temurbekning xotini Dilshod og‘o va egachisi Qutlug‘ Turkon og‘o o‘ladi. Jeta tomon qo‘shin jo‘natgan Amir Temur o‘zi Mozandaron tomon yuradi. 1383-yil kuzida Sabzavor qal‘asi ustidan nazorat o‘rnatiladi. Temurbek Seyiston tomon yo‘l oladi. Rizo qal’a qamalida Shoh Qutbiddinni yengadi va Seyistonni oladi. Keyin Bo‘st tomon yuradi. Qal’ayi Toqni va Bo‘st qal’asini egallaydi. Hirmand daryosi bo‘ylab yurib

Hazorbaro qal’asi va Dahna qal’asini egallaydi [3:32]. Qaytishda esa Afg‘oniylar bilan urushda dushmanni yengadi. Seyiston va Zobuliston qo‘shilishi ortidan Temurbek Samarqandga qaytib keladi. 1384-yil bahorida qayta Mozandaron tomon yo‘l oladi. 1385-yil yozida Sultoniya shahrini oladi. So‘ngra Omul va Sori o‘lkalarini qo‘l ostiga kiritadi va Samarqandga qaytadi. Temurbekning Eron o‘lkalaridan qaytishi ortidan To‘xtamishxon Eronga bostirib kiradi va shahar va qishloqlarni talaydi.

1387-yil To‘xtamish Kaspiy(Xorazm dengizi)ning kunbotari oldidan o‘tgan yo‘l orqali Ozarbayjonga qarab qarab qo‘shin jo‘natadi. Amir Temur karvonlatni talaydigan Turkman qaroqchilarini yo‘qotish uchun Oydin, Avniq va Arzirum qal’arini egallaydi. Keyin Van va Vaston o‘lkalari tomon yo‘l oladi. Van qal’a qamali 20 kun cho‘ziladi va qal’a egallanadi. Kurdiston va Urmiya Turkiga o‘z noiblari belgilaydi. 1387-yil kuzida Fors o‘lkasiga qarab yuradi. Hamadon o‘lkasidan o‘tib Isfahon qal’asini egallaydi. Biroq Isfahonliklarning yanglish urushi sabab Isfahon shahri, eli qirg‘in qilinadi. Shu yil oxirida Sheroz shahri olinadi. Biroq Temurbek To‘qtamishxonning kelishuvini buzib Movorounnahrga qilgan yurishi ketidan Samarqandga qaytadi.

1388-yil ko‘klam chog‘ida Amir Temur Xorazmga 5-gal yurish qiladi. Xorazm qal’asini buzib ichiga arpa ektiradi va shahar elini Samarqandga ko‘chirtiradi. So‘ngra To‘xtamishxon tomon qo‘shin tortib boradi. 1389-yil Temurbekning izidan kelayotganini bilib qolgan To‘xtamishxon ortiga chekinib ketadi. Kengash bilan so‘zlashgan Temurbek Jeta tomon 5 chi yurishini qiladi. 1389-yil yozida Jeta qo‘shinlarini yengib Samarqandga qaytib keladi. 1391-yil Dashti Qipchoq tomon yurish qiladi. Amir Temur 18-iyun 1391yilda Qunduzcha urushida To‘xtamishxon bilan to‘qnashadi. Qo‘shinini yetti bo‘lak qilib tizgan Temurbek dushman qo‘shinlarini yengadi. 1392-yil ko‘klam boshida Samarqandga qaytadi [1:39].

Temurbek 1393-yil boshida Iroq tomon qarab yuradi. Olinmas deb atalgan Safed qal’asi olinadi. Potila yeri yaqinidagi urushda Temurbek Fors o‘lkasing shohi Shoh Mansurni yengadi va Shoh Mansurning boshi kesiladi. Temurbek Eron o‘lkasi noibligini Muzaffar oilasidan olib o‘z beklariga bo‘lib beradi. 1393-yil kuzida Bog‘dodga yetib keladi. Sulton Ahmad Jaloyir urushsiz qal’ani tashlab qochadi va Temurbek Bog‘dodni egallaydi. 1393-yil qish boshida olinmas deb atalgan Tikrit qal‘asi olinadi. Ortidan Diyorbakr tomon jo‘nab u yerda o‘z o‘rini o‘rnatadi [4:102]. 1394-yil Ruha (Urfa) tomon borib u yerda o‘z yo‘rig‘ini o‘rnatadi.

14-iyulda 1394-yilda Avniq qal’asi qamal qilinadi. Amir Temur Gurjiston o‘zga din vakillari ustiga yana bir bor yurish qilib talaydi. Ortidan To‘xtamishxon ustiga yurish qiladi. 15-aprel 1395 yilda Tarak daryosi yoqasida Temurbek To‘xtamish bilan to‘qnashish natijasida Temurbek To‘xtamishxonni tamoman yengadi. Temurbek Jo‘jixon ulusini fath etish uchun O‘rus tomon yuradi. Ulus bosh shahri Saroy Botu qal’a shahri barham topadi.

Temurbek Kavkaz va shimoldagi o‘lkalarda o‘z hokimiyatini o‘rnatgandan keyin 1396-yil 18-iyulda Hamadondan Samarqand tomon yo‘lga tushadi. 1398-yil Amir Temur Chinga yurish qilishni istagan bo‘lsada kengash so‘ziga ko‘ra Hindiston tomon yuradi. Musulmonlar so‘rovi sabab 1398-yil yoz boshlarida Katur gabr (kofir)larini yo‘q etadi. 1398-yil sentabrda Puriyon Afg‘onlarini yengadi [1:56]. 1398-yil 25-oktyabrda Shohnavoz qal’asi olinadi. Ketidan Batnir, Sarasati, Fathobod va Amurani kentlari yerlari davlat yerlariga qo‘shib olinadi. Temurbek 1-oy ichida 20 dan ortiq qal’a qamallari va urushlarda g‘alaba qozonadi. 1398-yil 16-dekabrda Dehli sultoni Mahmud Sulton bilan to‘qnashadi. Temurbek Filli Mahmud Sulton qo‘shinlarini sochib yanchib tashlaydi. 18-dekabr Dehlida Temuriylar davlati bayrog‘i ilinadi va Temurbek 1399-yil 10-yanvarda Gang daryosi bo‘yida g‘arblarga qarshi urushadi va dushmanni yengadi. 1399-yil 12-yanvar shu kunning o‘zida 3 bora urushadi va yovlarining barchasini ayovsiz o‘ldiradi. 1399-yil 14-oktabrda Hindistonga yurishini qayta boshlaydi. Suvalak tog‘ida dinsizlarga qarshi va Jammu o‘lkasida o‘zga dinlilarga qarshi tomon yuradi. Amir Temur 1399-yil 28-aprelda Samarqandga kirib keladi. Shu yil kuzida o‘tmishda 7-yillik yurish nomi bilan atalgan yurishini boshlaydi. 1400-yilda Gurjiston tomon yurish qiladi. Zarit va Svanet qal’alarini egallaydi. Bu yerda o‘z hokimiyatini o‘rnatib ortga qaytadi. Shom o‘lkasi tomon yo‘l olgan Temurbek Bihishti va Ayntob qal‘alarini oladi. 1400-yil 28-oktyabrda Temurbek Halab qal’asini oladi. Xama, Xams va Ba’albak yerlari egallanadi. Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgach, 1404-yil 27-noyabrda 200 ming qo‘shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi [4:106]. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning O‘trorda vafoti sababli

(1405-yil 18-fevral) amalga oshmay qoldi. Ma’lumki, Amir Temur 1405-yil kuchli shamollash sababli olamdan o‘tadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soqibqiron Amir Temur mazkazlashgan davlatlarda o‘z hokimyatini barpo etib butun Yevropa mamlakatlarning tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Hozirda u haqida ko‘plab adabiyot, tarxiy manbalar jamlangan va ular tadqiq etilmoqda. Bu manbalar tarixiy voqeylik hamda haqqoniylik bilan yoritib berish bilan birga, yosh avlodni jasoratli va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1.** Hamdan Sodiqov. “Amir Temur saltanatida xavsizlik xizmati” Toshkent: “FAN” nashiryoti. 2018. 31, 32, 39, 56-bet.

**2.** Rustambek Shamsidinov, Husanboy Mo‘minov. “O‘zbekiston Tarixi” Toshkent: “Ochun’’ nashiryoti. 2018. 91-bet.

**3.** Bo‘riboy Ahmedov. “Amir Temurni yod etib” Toshkent: “O‘zbekiston” nashiryoti. 1996. 40, 31, 32-bet.

**4.** A.Zamonov, N.Ismatova, B.Aminov, Z.Jabborova, Sh.Qudratov. “O‘zbekiston tarixi” 8-sinf uchun darslik. Toshkent. 2023. 81, 102, 106-bet.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH: NAFTA VA "MANGU OLOVLAR" TARIXI

**Abdirasulova Soxiba Abdimital qizi,**
**O‘zbekiston Respublikasi IIV Navoiy akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi,**
**NavDU mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIV–XV asrlarda, xususan, Amir Temur va Temuriylar davlatida tabiiy gaz (“mangu olovlar”) va nafta (xom neft) mahsulotlaridan foydalanishning tarixiy jihatlari yoritilgan. Maqolada Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh va Ruy Gonsales de Klavixo kabi tarixchilarning asarlariga tayanib, ushbu tabiiy resurslarning harbiy strategiya, tibbiyot, yoritish tizimi va gidroizolyatsiya sohalaridagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘rta asrlarda energetika resurslaridan oqilona foydalanish madaniyati shakllanganini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar**: Amir Temur, Temuriylar, nafta, tabiiy gaz, mangu olovlar, Zafarnoma, harbiy texnika, tibbiyot, Boku olovlari.

**Mavzuning dolzarbligi:** Bugungi kunda energetika xavfsizligi global ahamiyatga ega. Biroq, XIV–XV asrlarda ham energiya manbalari (neft va gazning ilk ko‘rinishlari) strategik ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqola Temuriylar davlatida "nafta" va tabiiy gaz chiqindilaridan qanday foydalanilganini birlamchi manbalar asosida yoritadi.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Markaziy Osiyo dunyoning siyosiy va ilmiy markaziga aylandi. Amir Temur saltanatida hunarmandchilik, me’morchilik va harbiy san’at yuksak cho‘qqiga chiqdi. Bu sohalarning rivoji uchun kuchli energiya manbalari talab etilardi. O‘sha davrda asosiy yoqilg‘i o‘tin va ko‘mir bo‘lsa-da, "nafta" (xom neft) va yer ostidan chiquvchi tabiiy gaz ("mangu olovlar") o‘ziga xos "yuqori texnologiya" hisoblangan. Temuriylar davrida "gaz" atamasi fanda mavjud emas edi, biroq uning fizik xususiyatlari – hidsiz yoki o‘tkir hidli, ko‘rinmas, lekin yonuvchan bug‘ sifatida manbalarda tasvirlangan.

Temuriylar davri manbalarida tabiiy gazning yer yuzasiga chiqib yonishi hodisasi asosan "Mangu olovlar" (forscha: *Atash-i javidan*) va ularning atrofida qurilgan "Otashgohlar" (olov ibodatxonalari) ko‘rinishida tasvirlangan.

O‘sha davr olimlari va tarixchilari gazni ko‘rinmas, lekin havoda "titroq" hosil qiluvchi va o‘z-o‘zidan alanga oluvchi quvvat sifatida ta’riflashgan. Ayniqsa, Boku (Apsheron) hududidagi gaz chiqindilari Temur saltanatining eng hayratlanarli tabiiy resurslaridan biri sanalgan. Gaz yer ostidan yuqori bosim bilan chiqib, havo bilan reaksiyaga kirishgan va doimiy alanga hosil qilgan. Bu joylarda nafaqat olov, balki o‘ziga xos o‘tkir hidli bug‘lar ham kuzatilgan.

Boku va Apsheron "Mangu olovlari" Sohibqiron Amir Temurning Ozarbayjon va Shirvon hududlariga qilgan yurishlari (1385–1386 yy. va keyingi "Uch yillik" yurishlar) davomida bu

hududlardagi tabiiy gaz chiqindilari davlat nazoratiga olingan. Temuriylar davlatining sharqiy (Farg‘ona) va g‘arbiy (Iroq – Karkuk) hududlarida ham gaz pufakchalari bilan chiquvchi neft buloqlari ma’lum bo‘lgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida Boku atrofidagi yer yorig‘idan chiqib, o‘z-o‘zidan yonuvchi olovlarni "mo‘jizaviy qudrat" sifatida ta’riflaydi.[143]

Bu olovlar atrofida "Otashgohlar" mavjud bo‘lib, ular nafaqat ibodatxona, balki savdogarlar to‘xtaydigan muhim punktlar bo‘lgan. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining "Matla’i sa’dayn" asarida Boku atrofidagi "mangu olovlar"ni tasvirlar ekan, bu yerda olov hech qanday o‘tin yoki yog‘siz yonishini, yerning o‘zidan quvvat olishini ta’kidlaydi.[144]

Tarixchi Hamdulloh Qazviniy o‘zining "Nuzhat al-qulub" asarida bu hududlardagi yonuvchi bug‘larning iqtisodiy foydasi haqida to‘xtalgan. Qazviniy Bokudagi nafta (neft) manbalaridan keladigan yillik daromad miqdorini aniq raqamlarda ko‘rsatgan. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha davrda Boku naftasi va "mangu olovlar" joylashgan hududlardan yig‘iladigan soliqlar davlat xazinasining muhim qismini tashkil etgan. [145]

"Otashgoh"lar (masalan, Bokudagi mashhur Suraxani Otashgohi) aynan tabiiy gaz eng ko‘p chiqadigan nuqtalarda qurilgan. Bu joylar nafaqat zardushtiylik yoki hind savdogarlari uchun sig‘inish maskani, balki Temuriylar davrida savdo va sayyohlik (ziyorat) markazi ham bo‘lgan. Savdogarlar bu "mo‘jizani" ko‘rish uchun kelishgan va davlat xazinasiga boj to‘lashgan. Ibodatxona xonalariga gaz yer ostidan maxsus teshiklar (tabiiy "quvurlar") orqali kirib kelgan va mehorablar tepasida yonib turgan. Bu o‘sha davrdagi gazni yo‘naltirishning ilk ko‘rinishidir.

Amir Temur armiyasining yengilmasligi siri nafaqat strategiyada, balki qurol-yarog‘ texnologiyasida ham edi. Nafta (xom neft) o‘sha davrning "yadroli quroli" vazifasini o‘tagan.

Naftandozlar bo‘linmasi Temur qo‘shinida maxsus "naftandozlar" guruhi bo‘lib, ular muhandislik bilimlariga ega bo‘lgan. Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur..." asarida yozilishicha, nafta oltingugurt, smola va selitra bilan aralashtirilib, sopol yoki mis idishlarga (qarura) solingan. Qamal paytida bu idishlar piltak yordamida o‘t qo‘yilib, manjaniqlar orqali dushman qal’asiga otilgan. Idish parchalanganda nafta sochilib, o‘chmas alanga hosil qilgan.[146]

Dehli jangi va "Olovli tuyalar" 1398-yilda Hindiston sultoni Mahmudshohga qarshi jangda Temur naftaning psixologik kuchidan foydalandi.Temur tuyalar ustiga nafta shimdirilgan qamish va poxollarni ortib, ularga o‘t qo‘yib dushman fillari ustiga haydagan. Naftaning daxshatli alangasi va hidi fillarni vahimaga solib, dushman qo‘shinini parokanda qilgan.[147]

Temuriylar davri intellektual salohiyati naftadan gumanitar maqsadlarda ham foydalanish imkonini berdi.

O‘sha davrda tibbiyot asosi hisoblangan Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida naftaning ikki turi: oq (tozalangan) va qora nafta tavsiflangan. Naftani teri kasalliklari va bo‘g‘im og‘riqlariga davo sifatida tavsiya qilgan. Nafta teri kasalliklari (uyuz, temiratki), bo‘g‘im og‘riqlari va nafas yo‘llari xastaliklarini davolashda ishlatilgan.[148]Temur saroyida tabiblar jarohatlangan askarlarni nafta asosidagi malhamlar bilan muolaja qilishgan.Temuriylar davri tabiblari ushbu ko‘rsatmalarga amal qilishgan.

Samarqand – "Yer yuzining sayqali". Bu shaharning tunda ham porlab turishi uchun energiya kerak edi. Ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo saroy bog‘larida tunda yoritish uchun ishlatilgan moyli chiroqlar haqida yozadi.[149] Bu chiroqlarning asosini nafta va hayvon yog‘i aralashmasi tashkil etgan.

Arxeolog Mixail Masson tadqiqotlariga ko‘ra, Temuriylar davri hammomlari va hovuzlari poydevoriga nafta (bitum) surtilgan, bu esa inshootlarni namlikdan yuzlab yillar davomida asragan.

---

[143] Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida (2-kitob, 124-bet)

[144] Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining "Matla’i sa’dayn" O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, "Fan" nashriyoti, 2008-yilgi nashr, 1-jild, 342-bet.

[145] Hamdullah al-Mustawfi al-Qazwini. The Nuzhat-al-Qulub. Edited and Translated by G. Le Strange. – Leyden: Brill / Cambridge: University Press, 1919. – P. 198-201 (Mineral section).

[146] Ibn Arabshoh. "Amir Temur tarixi" (Ajoyib al-maqdur...). Toshkent, "Mehnat", 1992. 140-bet

[147] . Гияс ад–Дин Али. Дневник похода Тимура в Индию / Пер. с перс., предисл. и примеч. А.А. Семенова. – М.: Наука, 1958. – 205 с.

[148] Ibn Sinoning "Tib qonunlari" .Toshkent, "Xalq merosi", 1993. (3-jild, 442-bet)

[149] Клавихо, Рюи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). / Пер. со староисп., предисл. и коммент. И. С. Мироковой. — М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1990. — С. 114.

Xususan, Masson Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi, Go‘ri Amir maqbarasi va Shahrisabzdagi Oqsaroy poydevorlarini o‘rganish jarayonida g‘ishtlar orasida va poydevor ostida qalin qora qatlamni aniqlagan. Bu modda yer osti suvlarining yuqoriga ko‘tarilishini (kapillyar namlikni) to‘sib qo‘ygan. Nafta va smola aralashmasi g‘ishtlarni chirishdan va sho‘rlanishdan asragan.

Ayniqsa, o‘rta asr hammomlarining (masalan, Samarqanddagi "Hammomi Mirzo" yoki Registon yaqinidagi qadimiy hammomlar) devor va pol qismlarida suv o‘tkazmaydigan qatlam sifatida aynan nafta asosidagi qorishmalar ishlatilgan.[150]

Masson o‘z asarlarida Temuriylar davri muhandislari naftaning suv bilan reaksiyaga kirishmasligini va chirishga chidamliligini juda yaxshi bilganliklarini ta’kidlaydi. U buni "O‘rta asrlarning kimyoviy gidroizolyatsiyasi" deb atagan. Shuningdek, u naftaning Ohangaron vodiysi va Farg‘onadan maxsus idishlarda keltirilganini yozadi.

Temuriylar davrida nafta va foydali qazilmalarni olish tizimli yo‘lga qo‘yilgan edi.Ohangaron va Farg‘ona vodiysidagi ochiq konlardan nafta va yonuvchi toshlar (ko‘mirning ilk turlari) terib olingan. G‘iyosiddin Jamshid Koshiy kabi olimlar laboratoriya sharoitida naftani distillash (haydash) orqali uning yonuvchanligini oshirish ustida tajribalar o‘tkazishgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davrida tabiiy gaz va neft (nafta) mahsulotlaridan foydalanish o‘z davrining o‘ziga xos “yuqori texnologiyasi” darajasiga ko‘tarilgan edi. Garchi XIV–XV asrlarda sanoatlashgan qazib olish tizimi mavjud bo‘lmasa-da, Sohibqiron muhandislari va tabiblari bu resurslarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini chuqur anglagan holda turli xil yo‘nalishlarda samarali foydalanganlar:

Amir Temur va Temuriylar davrida gaz va neft (nafta) sanoat usulida emas, balki empirik (tajriba) va harbiy-strategik usulda qo‘llanilgan. Tabiiy gaz "mangu olov" sifatida diniy va sayyohlik ahamiyatiga ega bo‘lgan. Nafta – imperiya xavfsizligini ta’minlovchi asosiy yoqilg‘i edi. Tibbiyot va qurilishda ushbu resurslarsiz taraqqiyotni tasavvur etib bo‘lmasdi. Temuriylar davridagi ushbu tajriba keyinchalik XIX–XX asrlarda O‘rta Osiyoda haqiqiy neft va gaz sanoatining shakllanishiga tarixiy va geografik zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI:

1. Abu Ali ibn Sino. "Tib qonunlari" (3-jild). Toshkent, "Xalq merosi", 1993.

2.Ibn Arabshoh. "Amir Temur tarixi" (Ajoyib al-maqdur...). Toshkent, "Mehnat", 1992.

3. Гияс ад–Дин Али. Дневник похода Тимура в Индию / Пер. с перс., предисл. и примеч. А.А. Семенова. – М.: Наука, 1958. –

4.Массон М.Е. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. Ташкент, 1953

5. Клавихо, Рюи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). / Пер. со староисп., предисл. и коммент. И. С. Мироковой. — М.: Наука, 1990

6.Sharafuddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma". Toshkent, "Fan", 1972.

## AMIR TEMUR DAVRI DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVI MASALALARI: TARIXIYLIK VA AN’ANAVIYLIK

**D.Abduazimov, GulDU tayanch doktoranti**

Amir Temur hokimiyatining vujudga kelishi Movarounnahrda o‘ziga xos yangi davlat idora etish tizimini yuzaga keltirdi. Amir Temur Movarounnahrning qonuniy hukmdori sifatida hududlarni birlashirishga kirishar ekan, mahalliy hukmdorlarni markaziy hokimiyatga itoat ettirdi. Movarounnahrda o‘zaro urush va nizolarga chek qo‘yilib, uning barcha hududlarida tinchlik va osoyishtalik o‘rnatildi.

Ushbu maqolada Sohibqironning o‘zbek davlatchiligi va boshqaruvidagi o‘rni borasida so‘z yuritilar ekan, o‘sha davr va bugungi kunda o‘z an’anaviyligini saqlab qolgan ayrim davlat boshqaruvi organlari faoliyatini qiyosiy tahlil qilamiz.

Turkiy udumlarga ko‘ra, odatda, davlat boshliqlari aynan qurultoyda saylangan. Qurultoyda barcha qabila boshliqlari, eng nufuzli amaldorlar, diniy arboblar, sarkardalar ishtirok etishgan.

[150]Массон М.Е. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. Ташкент, 1953 78-84-ст

Qurultoyda taxtga o‘tqazilgan kishi qonuniy hukmdor sifatida tan olingan. Amir Temur ham an’anaga sodiq holda, 1370-yil 10-aprelda aynan qurultoy hukmi bilan Movarounnahr hukmdori deb e’lon qilindi[151].

Amir Temur qurultoyning mavqei va ahamiyatini yaxshi anglagan holda, qolaversa, saltanatni boshqarish, davlat asoslarini mustahkamlash, eng muhim qarorlarni qabul qilishda qurultoy institutini saqlab qoldi va undan unumli tarzda foydalandi. Qurultoyni faollashtirish orqali davlatchilik asoslari ham takomillashib bordi. Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida Amir Temur tomonidan keyinchalik Qarshi, Samarqand, Qorabog‘ va boshqa yerlarda o‘tkazilgan qurultoylar haqida ham so‘z yuritgan. Xususan, 1390-yilgi qurultoyda viloyat dorug‘alari va beklari ham bevosita ishtirok etishgan. Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon bilan munosabatlari yechimi borasidagi masala ham qurultoyda ko‘rib chiqilgan. Qurultoy o‘ziga xos oliy darajadagi maslahat kengashi hamda vakillik organi bo‘lgan[152].

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ham dastlab Oliy Kengash 1994-yil 25-dekabrdan Oliy Majlis deb nomlagan oliy davlat vakillik organi faoliyatini yo‘lga qo‘yildi. Dastlab bir palatali bo‘lgan organ 2002-yilgi konstitutsiyaviy referendum natijalariga ko‘ra ikki palatali parlamentga aylandi. Amir Temur nufuzini saqlab qolgan kengash kabi Oliy Majlisda ham davlat va jamiyatning eng muhim masalalari muhokamaga qo‘yiladi.

Xususan, Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq o‘z vakolatiga berilgan har qanday masalani o‘z muhokamasiga qabul qilish huquqiga ega[153].

Shuningdek, Amir Temur davlatida odil sudlov faoliyatini qozilar amalga oshirgan. Har bir shaharda Dorul-adolat, ya’ni qozixonalar faoliyat ko‘rsatgan. Qozilar to‘rt toifaga ajratilgan: 1. Qozi-askar; 2. Ahdos qozisi; 3. Shayx-ul islom; 4. Ihdom qozisi[154].

Amir Temur davrida **qozikalon** bosh qozi sifatida butun saltanatdagi qozilarning faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish vakolatiga ega bo‘lgan. Bu markaziy tuzilma islom qonunlarining izchil tatbiq etilishini ta’minlab, hukmdor hokimiyatini butun imperiya bo‘ylab mustahkamlanishiga xizmat qildi.

O‘zbekistonda odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi[155]. Sud hokimiyati ko‘rib chiqiladigan ishlarning tegishliligiga ko‘ra sud tarmoqlariga bo‘lib amalga oshiradi. Amir Temur davlatidagi sud organlari faoliyatiga nazar soladigan bo‘lsak, bevosita bugungi O‘zbekiston sud hokimiyatida mavjud ayrim an’analarning vorisiylik asosida ko‘chganini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, Qozi askar, ya’ni lashkar qozisi harbiy jinoyatlarni, askarlarning o‘rtasidagi nizolarni hal qilgan. Bundan tashqari vazirliklar tarkibida maxsus Harbiy sud vaziri degan lavozim mavjud bo‘lib, bu vazir alohida faoliyat ko‘rsatib, sipohiylarni (harbiylar) ishlarini ko‘rib chiqib, muhokama qilgan[156]. O‘zbekiston sud tizimida harbiy sudlar[157] harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni, shuningdek, Qonunga muvofiq Qurolli Kuchlar va boshqa harbiy tuzilmalarning xizmatchilari hamda xodimlari tomonidan xizmat faoliyati bilan bog‘liq holda sodir etilgan jinoyatlar va h.k.) ko‘rib chiqadi[158].

Shuningdek, Ahdos qozisi, odat huquqi qozisi, ya’ni odat, an’analar bilan bog‘liq nizolarni hal qilgan. Ko‘chmanchi va mahalliy jamoa urf-odatlariga asoslangan huquqiy masalalarni hal qilgan. Odat huquqi aksariyat hollarda mulk, nikoh, meros kabi fuqarolik ishlari bilan bog‘liqligini inobatga olsak, O‘zbekiston sud tizimidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga juda yaqin. Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudi qonun bilan o‘zining vakolatlariga kiritilgan fuqarolik ishlarini va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi[159]. Bular mulk, shartnoma, oldi-sotdi, nikoh, meros va boshqa munosabatlarni o‘ziga qamrab oladi.

---

[151] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2019. 3-4 б

[152] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2019. 4 б

[153] O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to‘g‘risida, 2011-XII-сон 22.09.1994.

[154] Mualliflar jamoasi. Jizzax viloyati sudlari tarixi, 2025 y.

[155] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30.04.2023.

[156] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2019. 405 б

[157] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni "Sudlar to‘g‘risida" RQ-703-сон 28.07.2021.

[158] Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida, 29-son, 20.11.2023

[159] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, 2018 yilgi tahrir. — Toshkent: “Adolat”, 2-modda.

Shayx-ul islom, ya’ni ruhoniylar bilan aloqador ishlarni ko‘ruvchi qozi hisoblangan. Shayx-ul-islom musulmon jamiyatida eng yuqori diniy-huquqiy rahbarlardan biri hisoblangan. Diniy ulamolar, shariat masalalari, diniy idoralarda shariat normalaridan chetga chiqish bilan bog‘liq nizolarni hal etgan. Qur’oni karim va shariat ahkomlari boshqaruvni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning asosini tashkil etgan. Diniy idoralarda, din ulamolari faoliyatida ularga qat’iy amal qilish shart bo‘lgan. Ushbu vazifaning zamonaviy analogini Konstitutsiyaviy sudda uchratamiz.

Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi.[160]

Ihdom qozisi, ya’ni amaldorlar bilan bog‘liq ishlarni ko‘ruvchi qozi. Davlat amaldorlari, zodagonlar, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq nizolarni hal etgan. Mamlakatimiz sud hokimiyatida aynan ma’muriy sudlar davlat organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan shikoyatlar va arizalar bo‘yicha ma’muriy nizolarni, ko‘rib chiqadi[161].

Sud tizimi xodimi **muhtasib** hozirgi Ombudsman vazifasini kengroq ko‘lamda bajarib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukmdor tomonidan tayinlangan. U davrda bunday xodim vazifasini bugungi Ombudsman vazifasiga nisbatan jiddiyroq va nihoyatda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Shved qiroli ushbu tajribani islom davlatlarida faoliyat yuritgan muhtasiblar ishidan o‘rganganiga guvoh bo‘lamiz. Muhtasiblar islom dini va shariat ahkomlari asosida faoliyat yuritib, nazorat funksiyasini bajarishgan[162].

Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi va boshqaruvidagi o‘rni va roli juda beqiyos. Yuqoridagi kabi boshqaruv an’analari bugungi O‘zbekiston davlat boshqaruvi organlarining yana ko‘plab sohalarida an’anaviylik, vorisiylik, uzviylik asosida takomillashib, sayqallanib kelmoqda.

## O‘QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TEMURIYLAR TARIXINI O‘RGANISHNING AHAMIATI

**F.B.Adizova., O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Navoiy akademik litseyi tarix fani yetakchi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning shaxsi va ibratli faoliyati orqali o‘quvchilarni tarbiyalash omillari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Qomus-ul a’lom”, “Tuzukon”, kengash, mashvarat,vaziru sipoh, farsax,gaz.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-marifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Insoniyat ko‘p ming yillik taraqqiyoti davomida jamiatni rivojlantirishning ta’lim, ilm va hunardan samaraliroq vositasini kashf qila olgan emas. Shu sababli ham ta’lim, ilm-fan har qanday jamiat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omildir.

Men o‘zimning o‘qituvchilik tajribamdan shuni guvohi bo‘ldimki, endigina yaxshi-yomon, ezgulik va manmanlik nima ekanligini anglayotgan o‘quvchi o‘qituvchi so‘zlayotgan voqeaning jonli tasavvurini ko‘z oldiga keltirar, ekan, hayotning shunday to‘fonlari borligini tushuna boradi.

Ammo, o‘quvchiga voqea shunday yetlazilmog‘i kerakki, uning o‘zi o‘sha hodisa va voqeadan iymonlikni ajrata bilishi deb o‘ylayman.

A.Temur faoliyatni dars jarayonida o‘tish chog‘ida shu narsa ko‘rinadiki, voqealarga nisbatan materiallar ko‘p bo‘lib, uni 80 minutlik dars davomida bayon etish nihoyatda mushkul. Shuning uchun guruhdan tashqari mashg‘ulotlarda, to‘garaklarda chinakam insonparvarlikni o‘rganish mumkin.

---

[160] O‘zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi Qonuni, 27.04.2021 y, 4-modda

[161] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. — Toshkent: “Adolat”, 2022. — 27-modda

[162] Q.Ergashev, H.Hamidov. O‘zbekiston tarixi. Toshkent.: G‘.G‘ulom, 2015. 215-216-b

Shu mashg‘ulotlar orqali A.Temur to‘g‘risidagi adabiy asarlar, turli hujjatli materiallar o‘quvchi hukmiga havola etilsa o‘quvchilar o‘z tarixining yashirinib kelingan tomonlardan boxabar bulur edi.

Masalan: ko‘pchilik o‘quvchilar Temur tug‘ilgan yer, uning yoshligi va yurishlari bilan juda qiziqishadi, ularni to‘plab «Tarix va o‘lkashunoslik» to‘garagida qo‘shimcha adabiyotlar o‘qib berilsa muvofiq bo‘ladi.

Turkiy xalqlar tarixi yodgorliklaridan biri bo‘lgan Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asarida “Jahongir o‘z tabiati va xulqi jihatidan ham juda ibratli odam edi, u yolg‘on-yashiqning dushmani bo‘lib hazil uning ko‘ngliga yoqmaydi. O‘zining oldida talon-taroj, qotillik, xotin-qizlarni nomusiga tegish, zo‘rlash haqida gapirishga yo‘l qo‘ymaydi; u haqiqat qanchalik achchiq va shafqatsiz bo‘lmasin uni eshitishini yaxshi ko‘rardi. Yaxshi yoki yomon holatlar uning qiyofasiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Jasur askarlarning do‘sti g‘oyat mard va botir bu odam kishilarni o‘zini hurmat qilishga va bo‘ysundirishga majbur eta olardi.”

Asarda rivoyat qilinishicha Kesh tomon yuzlangan hazrat sohibqiron Temurning birinichi urinishda zoye ketib chekinayotgan paytida Keshga yaqin bir qishloqdagi uylardan biriga kirib keladi va bu yerda Keshning Darxon momo mehmonlarga shavla pishiradi. Ochiqib o‘tirgan Temur shavlani yeyayotib og‘zi kuyadi. Kuzatib turgan kampir “Temurga o‘xshamapdi!”, - deydi. Temur hayron bo‘lib gapning ma’nosini so‘raydi, shunda momo: “Temur shoshib Keshga hujum qildi. U avvalo, Kesh atrofidagi qishloqlarni qo‘lga kiritmog‘i kerak edi” , - deydi. Temur momoning doniligiga tasannolar o‘qiydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Temur oddiy xalq bilan ham ochiqdan-ochiq aloqada bo‘lgan. Bunday oddiy, kamtarlik hammada ham bo‘lavermaydi. Bu voqeaning nechog‘lik haqiqatga yaqinligini biz Shahrisabz yaqinida haliyam Darhon degan qishloq borligi bilan bilishimiz mumkin.

Tarixiy manbalar ichida “Temur tuzuklari” Amir Temur harbiy yo‘lini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etgan. Asarning muallifi aniq emas. Ammo, asar Sharq mamlakatlarida Amir Temur tomonidan yozilganligi e’tirof etiladi. Chunonchi, Somiyning “Qomus ul-a’lom” (Istanbul 1891) asarida Amir Temur “Tuzokon” unvonli qonunlar majmuasini qalamga olib unga o‘zining tarjimon hamligi bayon etilgan deyiladi. Asarda Temur odil va insonparvar podsho sifatida tavsiflangan, shaxsi ko‘p jihatdan idealligi aytilgan, ideallashtirilgan.

Tuzuklarda Amir Temur davrida alohida undiriladigan soliq jarimalar haqida e’tiborga molik ma’lumotlar bor. O‘sha vaqtda soliq va jarimalarni yig‘ishga alohida e‘tibor berilgan. Ushbu asarda: “Ikki vazir tayinlansin, biri to‘plangan molni yozib rasmiy ahvolni bilib borsin, boj oluvchilar fuqaroga zulm qilib xaroblikka yetkazmasinlar. Viloyatlarda yig‘ilgan mol-ashyoni kirim daftariga yozish lozim. Ikkinchi vazir esa chiqim daftarini yozib yig‘ilgan moldan sipoh maoshiga taqsim qilsinlar. Buni qarangki, Temur doimo xalq ahvolining qashshoqlashuvi sababi mol-xiroj yig‘inidagi ko‘zbo‘yamachiliklar sabab bo‘ladi deb tushunadi.

Men asarning eng insonparvar o‘quvchiga yetkazish zarur bo‘lgan qismlaridan yana biri jihati boshqa millatlar uchun qo‘llangan qoidalar, ya’ni u quyidagiga ta’rif qilinad; turk-u tojik, arab-u atash toifalardan bo‘lgan dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug‘ va asbob taxlab berishsin”, bundan tashqari ularga o‘zlarini tiklab olgunga qadar uy-joy qurishga xohlovchilarni esa sipohiylikka olishlarini buyurgan bundan bag‘rikenglikni turkiy olamning sohibqironi bo‘lgan Temurga xos edi. Xalqlar orasida doimo do‘stlik va adolatni o‘z hukmronligida yurita bilish ham uning eng muhim jihatlaridan edi.

Amir Temurni bilish yo‘lidagi yana bir yirik asar Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”sidir. Bu asar eng avvalo badiiy asar. Mazmuniga ko‘ra jangnoma yo‘sinada bitilgan. U 47 dostondan iborat bo‘lib muallif Temurni bilishi, hurmat bilan tilga olishini aytib uning xalqi oldidan ulug‘vorligi, bosqinchi xonlarni “o‘z eli ustidan ixrom qilishda” deb biladi.

Bu asarning dastlabki qismlaridan birida shunday hikoya qilinadi: “Bir kuni Amir Tarag‘ay o‘g‘li Temurga ko‘p qo‘y beradi va un Samarqand bozoriga sotib kelishini aytadi. Temur qo‘ylarni hammasini ming oltinga sotib bozor ichida sayir qilib yurgan chog‘ida, bir qalandar odamlarni yig‘ib qo‘lida qog‘oz she’r o‘qirdi. Bu shoir Kamon Xo‘jandiy edi. Uning qo‘lidagi ruboiyni Temur ming tilloga sotib oladi”.

Biz sohibqiron Temurning avlodlari bo‘la turib u haqdagi tarixiy asarlarni o‘qiy olmadik. Bugungi tarixiy o‘zgarishlar bu sohada biroz bo‘lsada yutuqlarimizning belgisi sifatida nashr

qilinayotgan tarixiy asarlar: Ibn Arabshohning “Amur Temur tarixi”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si yoki, “Temur tuzuklari”, Toshkandiyning “Temurnomasi” va hokazo asardir.

Amir Temurning ushbu tarixiy asarlarida buyuk insoniy xususiyatlariga e’tibor beraylik. Ali Yazdiyning yirik tarixiy kitobi bo‘lgan “Zafarnoma” tarixiy kechinmalar bayotining izchilligi bilan ajralib turadi.

Asarning “Hazrat sohibqironning Amir Husaynni so‘rab borgani haqida so‘z” nomli qismida Temurning shunday fikrni keltiradi:

Yomondan kelmas yomonlikdan o‘zga ish aslo,

Yomonlardan uzoq yurgil, bo‘lsang agar dona.

Bu yerda Yazdiy Temurning Amir Husaynning Xuboq hokimi bilan til biriktirgani ammo Tukalning zolim ayyorligini nazarda tutganligini ko‘rsatadi.

Bu yerda muarrix Amir Husayn tez anglay olmagan haqiqatni Temur qanchalar uzoqlashganini isbotlaydi. Yoki, Amir Temurning Puli Sangin suvidan (ya’ni Baxsh vodiysidan daryo) o‘tish chog‘idan uning o‘ta aqlli rosa sarkardaligini ko‘rsatadi.

Unda “Sohibqiron buyrug‘iga ko‘ra baland tog‘ tepalari ustida ko‘plab gulxan yoqtilar. Buni ko‘rgan raqib sipohida qo‘rquv va sarosima boshlandi va ular tarqab keta boshladi”.

XV asrning yirik tarixshunoslaridan biri bo‘lgan Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (boshqa nomlari “Fathnomayi sohibqironiy”, “Zafarnomayi Temuriy”, “Tarixiy jahonkushoyi Temuriy”) nomli asari ham zo‘r shuhrat topdi.

Mirxondning “Ravzat us-safo” nomli 7 jilddan iborat asarining 6-jildida Amir Temur zamoni to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi; Salohiddin Toshkandiy qalamiga mansub “Temurnoma” asari, Ibn Arabshohning 1465-1466-yillarida yozilgan “Ajoyib il-maqdur” yoki “Temur tuzuklari” Ovrupa risolasi olimlaridan Herman Vamberining “Buxoro yohud Movarounnahr” tarixiy asari shunga o‘xshash ko‘plab tarixshunoslarning Amir Temur shaxsi chuqur tahlil qilinadi.

“Temurning ko‘ngil ochar ermaklari hech qachon fuqarosiga xonavayronlik keltirmagan. Ko‘ngil ochar ermaklar uni asosiy vazifasidan hech qachon chetlatmas va ortiqcha chiqimlarga tushirmas edi”.

“Yaxshi podshoh, - derdi u, - podshohlik qilish uchun hech qachon yetarli vaqtga ega bo‘lmaydi, shuning uchun bu qudratli Olloh bizga muqaddas qarz sifatida topshirib qoygan fuqaro foydasiga ishlashga majburmiz. Bu hamisha mening asosiy mashg‘ulotim bo‘lib qoladi, negaki, qiyomat kuni faqirlar etagimdan tortib, mendan qasos olishni talab etishlarini istamayman”. Uning uchun do‘stlikning ham gashti-latofati bor edi. Mehribonligi, shohsuxanligi tufayli do‘stlar orttirdi, ularni do‘st deb atashdan tortinmadi va bu do‘stlikni saqlab keldi.

Mavzuni bayon qilayotganda dastlab Temurning dunyoga kelish tarixi uning boshqalarda uchramaydigan jihatlari haqida fikr yuritiladi. Masalan: Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asaridan quyidagicha parchani o‘qituvchining jonli so‘zi orqali yetkazilishi o‘quvchilarning sohibqiron shaxsiga qiziqishni kuchaytirib butun dars davomida diqqatini bir yo‘nalishga qaratadi.

Buxoro Sadr Ash she’riyatining qizi Tegina Begim Moh bilan Shaxrisabzlik amirzoda Turag‘ay Muhammad nikohi, bu ishda ulamolar islom peshvolari bosh-qosh bo‘lishi hikoya qilinadi.

Shundan so‘ng bir cho‘pon kelib, suv olish niyatida quduqqa chelak tashlagan edi, quduq ichidan bir malika chiqib keldi. Cho‘pon malikaga oshiq bo‘lib unga uylanmoqchi bo‘ladi. Voqeani eshitib turgan Amir Choku bunga yo‘l qo‘ymay o‘z uyiga olib ketadi va xotiniga topshiradi. Sohibqiron Amir Temur shu xonadonda dunyoga keldi. Temurning peshonasiga sohibqironlik bitilgan edi. Buni yeti iqlim munajjimlari ham oldindan karomat qiladilar. Ikki sayyorani Zuhal va Mushtariyning yaqinlashuv davrida tug‘ilgan o‘g‘il bu sohibqiron bo‘lar ekan. Bular Iskandar Zulqarnayn va Muhammad payg‘ambar, uchinchisi Amir Temur bo‘lib ularning dunyoga kelishlari orasi 800 yildir. Temur tug‘ilgandayoq qo‘llari qon bo‘lib tug‘iladi, uni ko‘rganlar kelajakda qonxo‘r, johil yoki qaroqchi bo‘ladi deyishadi. U yoshligidan kuchli to‘raboshi bo‘lib o‘sdi. Hali Amir Chokuning uydaligida zanjir Sara qudug‘idan qirq qul suv tortadigan qovg‘ani yolg‘iz o‘zi tortardi, odamlarga suv ulashadi. Qassobning zil-zambil qini orasini bir barmog‘i bilan otib yuboradi. Buni o‘z tengqurlari bilan bahslashib qoladi. U quduqdan 40 marta suv tortib charchab uxlab yotishida bir ilon qo‘liga chiqib, unga kulcha bo‘lib yotadi.

Shu daqiqa otasi uni izlab kelib, shu quduq yonida to‘xtagan edi. Odamlar yordam berilishidan ojiz, salgina qaltis harakat bo‘lsa ilon bolani nobud qilishi mumkin. Odamlar sarosimada turganda

Temur uyg‘onib qolib qo‘rqmasdan payt poylab, ilonni boshini tishlab uzib tashlaydi. Mayli bularda ham ozgina mubolag‘a bo‘lsin deylik. Temur bolaligida yeti yil qo‘tir bo‘lib sira qashinmagan ekan. Buning uchun temir iroda kerak albatta.

Temurning hokimiyat tepasiga kelishini tushuntirganda uni hokimiyat, boyliklarni qo‘lga kiritish uchun emas, balki, o‘z yurtini, tuprg‘ini mog‘ullar istilosidan qutqarib ularga qarshi kurashish uchun xalqni birlashtirish maqsadida hokimiyatni egallashini uqtirish zarur.

Buning uchun Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asaridan hokimlarga maktub yuboradi. Uning hokimi ikki aka-uka bo‘lib ular otasidan me’ros hokimiyatni mustaqil boshqarar edi. So‘ngra Sulton Husayn ulardan bu me’rosni tortib olib bolalarni o‘z huzurida garovda saqlagan. Sulton Husayn qahriga mubtalo bo‘lganlar Temur maktub yuborib o‘z ito‘atiga chorlaganda rozi bo‘ldilar.

Shuningdek, Sulton Husaynga qarshi sharq tomondan mog‘ullar qo‘zg‘aydi. U mog‘ullarga qarshi jangda yengildi. Temur mog‘ullarga ham maktub yuborib ular hali uning amriga o‘tgach Sulton Husayn o‘ch olish maqsadida son-sanoqsiz askar bilan Qang‘arlar darbanligida to‘xtadi. Bu darbanddan o‘tish uchun bir soat yurish kerak edi. Yo‘l o‘rtasida darvoza bo‘lib, u yopilib himoya qilinsa mustahkamlikka bunga misol bo‘ladigan hech narsa topishmadi.

Temur o‘z hamrohlariga dedi: “Hu anavi yerda maxfiy va o‘tish mashaqqatli yo‘l borligini bilamanki, u yerda hech bir kimsaning qadami yetmagan va unga qush ham yo‘l topa olmaydi. Kelinglar otlaringizni yetaklab kechasi bilan boramiz va dushman hech narsadan hovotir olmagan bir paytda orqasidan unga yaqin kelamiz. Agar ularga tunda yetishsak, unda biz g‘olibmiz”. Temurning odamlari bunga rozi bo‘ladilar va egri-bugri tik yo‘llarni kesib o‘tib tuni bilan boradilar. Fajr tongda yetishib ularni quvib yetadi-yu, lekin, Sulton askarlari o‘ta olmadi. Quyosh o‘z to‘lichini e’lon qilgach, ular dushman askarlariga yetdilar. Bu paytda askarlar yuklarini ortib ketishga jazm qilayotgan edi. Shunda Temur hamrohlari:

- Ahmoqona ish qilib changalga tushib, uning qalmog‘iga ilinib o‘zimizni- o‘zimiz o‘z qo‘limiz bilan halokatga tashladik,- dedilar.

- Zarari yo‘q – dedi Temur, - dushman askarlariga qarb boring va ularga ko‘rinarli joyda otlaringizdan tushing. Otlarni o‘tlovga qo‘yib yuboring. O‘zlaring dam olib, kechasi bekor ketgan uyqungizni o‘rnini to‘ldiringlar shunday qildilar.

Dushman askarlari o‘z guruhlaridan hayol qilib, Temur qo‘shinlari yonidan o‘ta boshladi. Temur odamlari dam olib bo‘lgach, otlariga mindilar va dushmanning orqasidan yelkasiga mindi. Bu mudhish ofat ko‘pchilikni qamrab oldi va baloning qay tarzda kelganini hech kimsa bilmadi. Bu xabar Sultonga yetgach, u Balxga tomon qochdi. So‘ngra, Temur shu yerning past tabaqalarini qo‘l ostida birlashtirib, Badaxshonni ikki hokimini olib Balxga Sultonni munozara etish uchun yubordi. Shunda Sulton mustahkamlanib oladi. Ular uni hamma tomondan o‘rab oldilar. So‘ngra, Sulton Badaxshon hokimlarining o‘z huzurida garovda bo‘lgan o‘g‘illarini ilob chiqdi. Padari ko‘z oldida ayamay va hech bir rahm shavqat qilmay boshlarini oldi. Keyin Sultonning ahvoli zaiflashib otliq va piyodalari kamayib ketdi. Natijada, u qazo qadarg‘a taslim bo‘lgan holda qavradan chiqib tangridan sodir bo‘lgan shirin va achchiq hukmlariga razm bo‘ldi. Temur uni qo‘lga olib Balxni zabt etdi. So‘ngra Badaxshon hokimlarini izzat-ikrom bilan yurtlariga qaytarib va Sulton Husaynni o‘zi bilan olib Samarqandga ravona bo‘ldi. Bu voqea 71-yilning Shachbon oyida yaqin hijriyda 700-yil o‘tgandan keyin (28-fevral 29-mart 1370-yil)bo‘lgan edi. Temur Samarqandga kelib o‘ziga dor ul-mulk deb qabul qiladi va podshohni qonun-qoidalarini yo‘lga qo‘yib ularni o‘z siyosati va tutgan nizomiga asosan tartibga oldi. “Yaxshi podsho derdi: U podsholik qilmish uchun hech qachon yetarli vaqtga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun biz qudratli Olloh bizga muqaddas qarz sifatida topshirib qo‘ygan, fuqaro foydasiga ishlashga majburmiz”.

Amir Temur 1360-1386-yillarda Movarounnahrga mog‘ul xonligidan mustaqil kuchli davlat tuzish uchun kurashadi. Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan turk va tojik zodagonlari kabi ijtimoiy kuchlar bilan birgalikda o‘rta asr o‘zboshimcha feodallarining markazlashish va birlashishga zid harakatlarda, mamlakatni parchalangan holatda saqlashga intiluvchanlarga, o‘zaro urushga undovchilarga qarshi kurash olib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

***1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T- O‘zbekiston, 2016.***

2. B.Axmedov Amir Temur o‘g‘itlari tarjimasi 2020-y

3. B.Axmedov “Amir Temur va Sulton Boyazid ilmiy kurash” 1997-y.
4. I.Muminov “Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir” 1972-y.
5. Amir Temur yashagan joylar bo‘ylab sayohat 1990-y. iyun-avgust ilmiy ekspiditsiyalar.Turkiston gazetasi 40-51-sonlar.
6. Berezikov “Temuriylar Xilxonasi” O‘zbekiston san`ati va adabiyoti gazetasi 1999-y. 18-son.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TA’LIM VA TARBIYA MASALALARI

**Aliyeva Zilola Xikmatovna**
**O‘zbekiston Respublikasi IIV**
**Navoiy akademik litseyi “Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi**
**Ma’naviyat asoslari va tarbiya fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan dono hukmdor Amir Temurning Vatanimiz tarixida ilm-fan, madaniyatni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlari haqida qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Temur tuzuklari”, “Kuch adolatdadir”, Xilda Xukxem, islohotlar, ilm, fan, adolat «Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi».

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan dono hukmdor bo‘lib, ham siyosiy, ham ma’naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatiga egadir. Amir Temur saltanati ma’naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo‘g‘rilgan saltanat bo‘lishi bilan birga davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idroki salohiyatiga tayanib taktik va strategik asosda shakllantirdi.

Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari”da xulq-atvor, axloq va odobga oid o‘git-nasihatlar berilgan. U tafakkur, qilich, iymon, kitobga e’tiqod qo‘ygan. “Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir…”, “Kuch adolatdadir”, “Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal”, “Adovat emas, adolat yengadi” va boshqalar. Amir Temur odob-axloq me’yorlari masalalarini oila nazdida ham chetda qoldirmadi.

Rivoyat qilishlaricha, Sohibqiron harbiy yurishlarning birida Eron tomonga borib,Sultoniya shahri atrofida xonadonlarga lashkarlarini joylashtirib, harbiy mashqlar o‘tkazib turardi. U bamdod namozidan so‘ng lashkarlaridan xabar olish uchun tashqariga chiqadi. Ko‘rdiki, bir ayol ko‘chada ot yetaklab kelayotgan ekan. “Nechun mening salatantimda ayollar o‘z yumushlarini qilmasdan, erlar ishini bajarmoqdalar”, jahli chiqibdi. Ayolning qayerda yashashi, er bor-yo‘qligini bilgach, erini huzuriga chorlabdi. “Nechun ayolni tahqirlab erkaklar ishini buyurursen?”, - debdi. “Oilamda xotinim va ikki nafar bo‘yi yetgan qizim bor. Hozirda 10 chog‘li askarlaringiz 36 ham yashamoqda. Men qizlarim va ayolimni nomahramlar oldida qoldira olmay, majbur bo‘lib otni o‘tlamoqqa buyurdim”, - debdi. Keyinchalik Amir Temur butun lashkarlarini yig‘ib, shunday amr etibdi: “Mening arkoni davlatimda yoki harbiy yurishlarimda, qayerda bo‘lishimmdan qat’i nazar, askar va kishilar hech qachon xonadonlarga joylashtirilmasin. Ochiq yerlarda o‘zlariga boshpana va o‘tov tiksinlar”.

Amir Temur shaharlarda ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish uchun ko‘plab ilmiy muassasalar qurishga amr qilgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan baravar matematika, me’morchilik, astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi fanlarning o‘qitilishiga alohida e’tibor berilgan. “Temur tuzuklari”da aytilishicha, musulmonlarga diniy madrasalarda ta’lim berish, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsir, hadis, fiqhdan dars berish uchun sohibqiron tomonidan har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilingan. Talabalarga o‘z davrining yirik allomalari dars berganlar. Madrasa mudarrislariga ko‘p maosh to‘langan, ular farovon hayot kechirganlar.

“Temur tuzuklari”da “Sayyidlar, ulamo-yu mashoyix, oqil-u donolar… tarixchilarni…e’tiborli kishilar hisoblab, hurmatlarini joyiga qo‘ydim. Ular bilan qimmatli fikrlashdim”, - deb yozadi. Garchi Turon zaminida olimlar, muhandislar, ustalar yetarli bo‘lsa-da, Amir Temur hindiston, Iroq va Erondan ham olim-u fuzalolarni Samarqandga olib kelgan. Sohibqiron qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o‘ljasi shu o‘lkaning rassomlari, mohir ustalari hisoblangan. U o‘sha yerlik olim-u ulamolarga mehribonlik ko‘rsatgan. Albatta, bu tadbirlar juda yaxshi natijalarga olib kelgan.

Angliyalik tadqiqotchi Xilda Xukxemning e’tirof etishicha, “Temur dunyoga kelgan yurtda falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot sohalarida olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa Uyg‘onish davriga turtki bo‘ldi va Yecropa faninig uzoq asrlar davomidagi taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qildi. O‘n beshinchi asr Temuriylar Renesansi davri deb atash mumkin”. Xilda Xukxem Amir Temur haqida yana shunday yozadi: “Amir Temur O‘rta Osiyo o‘tmish taraqqiyotida to‘plangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy merosni o‘zida mujassamlashtirilgan va bu madaniy merosning davomchisi bo‘lgan shaxsdir”.

Amir Temurning avlodlaridan ko‘pchiligi shunday obodonchilik ishlarini davom ettirdilar. Mirzo Ulug‘bek qurdirgan madrasalar, Husayn Boyqaro davrida Alisher Navoiy boshchiligidagi obodonchilik ishlari, Boburiylar davridagi noyob qurilishlar bunga misol bo‘la oladi. Temur davridagi ilm fanga g‘amho‘rlik Ulug‘bek davriga kelib o‘z mevasini berdi va Samarqandni 37 dunyoga mashhur qildi. O‘n yettinchi asrga kelib Angliya qirolligining birinchi astronomi Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asaridan foydalanilgan.

Temuriylar davri ma’naviyatining buyuk namoyondasi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Navoiy maktabi noyob hodisa bo‘lib, hozirgacha dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Albatta, buyuk insonlar komillik cho‘qqisiga osonlikcha erishganlari yo‘q. Ular turli qiyin bosqichlardan o‘tganlar. O‘tmishda ma’naviy kamolotga intilgan shogirdlar o‘zlarini tamomila ustoz ixtiyoriga topshirganlar. Shogird faqatgina ixlos va sadoqat ila komil ustoz tarbiyasida yetuklida erishishi, ilm cho‘qqilarini zabt etishi, qabihlik va razolatga yetaklovchi shayton vasvasalaridan saqlanishi mumkinligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Amir Temur ham “Piri komil Bahouddin Naqshbandiyning: “Kam yegin, kam uxla, kam gapir” degan pand-u nasihatlariga amal qilib yashaganligi tarixdan ma’lum. Ustozing nasihatlarini olib arkoni davlatga, barcha mulozimlarga quyidagi so‘zlarini tayinlar edi: “kam yenglar – ocharchilik ko‘rmaysizlar, boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo‘lasizlar”. Amir Temur ulug‘ bunyodkor, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida tarixda qoldi. Xalq o‘zining buyuk bobokaloni merosiga ega bo‘ldi, uni dunyoga ko‘z ko‘z qilib, chuqur o‘rganmoqda va avaylab asramoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo’limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga “O‘zbekiston”, 2017 ko’taramiz. –T.:

2. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma’naviyat", 2016.

3. Xilda Xukxem. Yetti yulduz turkumining hukmdori. –T.: “Adolat”, 1995.

4. Temur tuzuklari. -T.: "O‘zbekiston", 2018.

5. Ma’naviyat asoslari akademik litsey va kasb-hunar kollaejlari uchun darslik. T.: “Noshir”, 2014 7. www.ziyonet.uz

## AMIR TEMUR VA YEVROPA ELCHILARI: TARIXIY MANBALARNING QIYOSIY TAHLILI

**Qosimova Mehrinoz Shokir qizi-**
**Buxoro davlat unversiteti magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur davlati va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning mohiyati, xususan, Ispaniya, Fransiya va Angliya qirolliklari bilan muloqotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ruy Gonsales de Klavixo, Ioann Sultoniya kabi elchilarning esdaliklari hamda monarxlar o‘rtasidagi rasmiy yozishmalar asosiy manba sifatida olingan.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, diplomatiya, Yevropa, Ruy Gonsales de Klavixo, Karl VI, Anqara jangi, maktub, xalqaro savdo.

**Annotation:** This article analyzes the nature of diplomatic relations between the state of Amir Temur and the countries of Western Europe, in particular, with the kingdoms of Spain, France and England. The main sources of the study are the memoirs of ambassadors such as Ruy Gonzalez de Clavijo, Ioann Sultania, and official correspondence between monarchs.

**Key words:** Amir Temur, diplomacy, Europe, Ruy Gonzalez de Clavijo, Charles VI, Battle of Ankara, letter, international trade.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar jahon tarixining eng strategik ahamiyatga molik sahifalaridan birini tashkil etadi. Bu davrda Amir Temur saltanatining yuksalishi nafaqat Sharq, balki G‘arbiy Yevropa monarxlari uchun ham yangi siyosiy imkoniyatlar eshigini ochdi. Mazkur munosabatlarning shakllanishi, eng avvalo, Usmonli turklar sultonligi tomonidan Yevropaga bo‘layotgan harbiy bosim bilan bog‘liq edi. Fransiya qiroli Karl VI, Kastiliya hukmdori Genrix III va Angliya qiroli Genrix IV kabi hukmdorlarni Sharqdan kuchli ittifoqchi izlashga majbur qildi. Bu jarayonda Amir Temur shaxsi Yevropa diplomatiyasi nigohida "xaloskor" va "buyuk strateg" sifatida namoyon bo‘ldi.Temur Yevropa hukmdorlari bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yarkan bu jarayon aniq siyosiy, iqtisodiy va strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan murakkab diplomatik jarayon bo‘lgan. Bu munosabatlarning asosiy mazmuni, avvalo, o‘sha davr xalqaro vaziyatidan kelib chiqadi. Yevropa davlatlari uchun eng katta xavf Usmonli imperiyasining kuchayib borishi edi va ayniqsa Boyazid I davrida bu tahdid yanada kuchaydi. Shu sababli Yevropa hukmdorlari Sharqda kuchli siyosiy raqib sifatida maydonga chiqqan Temur bilan aloqa o‘rnatishga intildi. Ular Temurni Usmonlilarga qarshi turuvchi muhim harbiy-siyosiy kuch sifatida ko‘rdilar. 1402-yilda yuz bergan Anqara jangida Temurning g‘alabasi Yevropada katta qiziqish va umid uyg‘otdi, chunki bu voqea Usmonlilarning Yevropaga bosimini vaqtincha susaytirdi.Shu bilan birga, bu aloqalar faqat harbiy-siyosiy manfaatlar bilan cheklanmagan. Temur tomonidan markazlashgan va barqaror davlat barpo etilishi Markaziy Osiyodan o‘tuvchi savdo yo‘llarining tiklanishiga olib keldi. Bu esa Yevropa savdogarlari uchun nihoyatda muhim edi. Temur savdo karvonlarining xavfsizligini ta’minlash, yo‘llarni nazorat qilish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash orqali o‘z hududini xalqaro savdo tizimining muhim bo‘g‘iniga aylantirishni maqsad qilgan. Natijada Yevropa davlatlari bilan aloqalar savdo manfaatlari asosida ham rivojlandi va o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik yuzaga keldi.Diplomatik aloqalar ham bu jarayonning muhim qismi bo‘lib, ular orqali ikki mintaqa o‘rtasida siyosiy ishonch va axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Yevropa hukmdorlari tomonidan Temur huzuriga yuborilgan elchilar, jumladan Ruy González de Klavixoning Samarqandga safari, nafaqat siyosiy muzokaralar, balki madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu elchiliklar orqali Yevropa Temur davlati haqida aniq tasavvurga ega bo‘ldi, Temur esa o‘z navbatida xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari, Temurning Yevropa bilan aloqalari uning xalqaro siyosiy nufuzini oshirishga qaratilgan edi. U o‘z davlatini kuchli va barqaror imperiya sifatida namoyon etish, Movarounnahrni Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim siyosiy hamda iqtisodiy markazga aylantirishni ko‘zlagan. Bu orqali u nafaqat o‘z hududida, balki xalqaro miqyosda ham tan olingan hukmdorga aylanishni maqsad qilgan.

Amir Temur va Yevropa o‘rtasidagi ilk rasmiy muloqotlar vositachisi sifatida Sultoniya arxiyepiskopi Ioannning (Jean de Sultaniye) roli beqiyosdir. U orqali yo‘llangan maktublar bugungi kunda Fransiya Milliy kutubxonasi va Britaniya muzeyi kabi nufuzli muassasalarda saqlanmoqda. 1402-yilda Amir Temur tomonidan Karl VI ga yozilgan maktub tahlil qilinganda, Sohibqironning nafaqat harbiy ittifoqchi, balki uzoqni ko‘ruvchi iqtisodchi ekanligi ham oydinlashadi. Maktubda savdo aloqalarini erkinlashtirish, ikki davlat savdogarlarining xavfsizligini ta’minlash va o‘zaro tovar ayirboshlashni yo‘lga qo‘yish asosiy o‘ringa chiqadi. Bu esa o‘sha davrdagi diplomatiyaning nafaqat urush, balki iqtisodiy manfaatlar ustiga qurilganidan dalolat beradi. "Arxiyepiskop Ioann Sultoniyaning roli nafaqat xat tashuvchilikda, balki Yevropa saroylarida Temur shaxsi haqidagi ijobiy tasavvurni shakllantirishda ham namoyon bo‘ldi. Tarixiy hujjatlarga ko‘ra, Ioann 1403-yilda Genovaga kelganida, Amir Temurning g‘alabalari tufayli Sharqiy O‘rta yer dengizida savdo yo‘llari qayta ochilganini Yevropa savdogarlariga batafsil tushuntirib bergan. Bu esa Temurning Yevropa bilan aloqalarini shunchaki harbiy ittifoq emas, balki 'Iqtisodiy hamkorlik deklaratsiyasi' darajasiga ko‘targanidan dalolat beradi."

Zamonaviy fransuz temurshunosi Lyusen Keren o‘z tadqiqotlarida Amir Temurning Karl VI ga yo‘llagan maktublarini tahlil qilar ekan, Sohibqironning diplomatik tilini 'nihoyatda nafis va qat’iy' deb baholaydi. Kerenning fikricha, Temur Yevropa monarxlari bilan muloqotda o‘zini 'tenglar ichra teng' deb hisoblagan va maktublarda ishlatilgan 'Sizning buyukligingizga salom yo‘llab...' kabi

iboralar o‘sha davr diplomatiyasining eng yuksak cho‘qqisi bo‘lgan. Keren ta’kidlaganidek, Temurning Yevropaga intilishi ortida faqat siyosiy maqsadlar emas, balki dunyoni yagona savdo tizimiga birlashtirish g‘oyasi yotgan edi.Yevropa manbalari orasida eng mashhuri va ilmiy jihatdan eng boyi, shubhasiz, Kastiliya elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning kundaliklaridir. Enriko III tomonidan 1403-yilda yo‘lga chiqargan ushbu elchilik guruhi Samarqandga — jahonning o‘sha paytdagi siyosiy markaziga uzoq va mashaqqatli safarni amalga oshirdi. Klavixoning "Samarqandga sayohat kundaligi" asari shunchaki sayohatnoma emas, balki Temuriylar davlati davlat boshqaruvi, saroy odobi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotining mukammal tahlilidir. Elchi o‘z qaydlarida Temurning G‘arb vakillariga ko‘rsatgan yuksak hurmatini alohida ta’kidlaydi. Masalan, rasmiy qabul marosimlarida Ispaniya elchilarining Xitoy (Min sulolasi) elchisidan yuqori o‘ringa o‘tqazilishi Temurning G‘arb bilan munosabatlarni qadrlashini anglatuvchi ramziy ishora edi.Shu bilan birga, Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan yozishmalar ham ilmiy tahlil uchun muhim material beradi. 1402-yildagi Anqara jangidan so‘ng, Temurning Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi Yevropada katta tantana bilan kutib olindi.

Angliya qirolining Temurga yo‘llagan minnatdorchilik maktubida uni "Xristian olamining do‘sti" deb atashi o‘sha davrdagi geosiyosiy vaziyatning mahsuli edi. Biroq, manbalarni sinchiklab tahlil qilganda shuni ko‘ramizki, Amir Temur Yevropa bilan aloqalarda faqatgina "yordamchi" rolida emas, balki butun Yevroosiyo qit’asidagi savdo yo‘llarini o‘z nazorati ostiga olgan qudratli hukmdor sifatida muloqot qilgan. Uning maqsadi G‘arbiy Yevropa bozorlarini O‘rta Osiyo bilan bog‘laydigan xavfsiz tranzit yo‘laklarini yaratish bo‘lgan.Tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amir Temurning Yevropa bilan diplomatik muloqoti o‘rta asrlar diplomatiyasining yangi bosqichi edi. Bu aloqalar natijasida G‘arbda "Temur afsonasi" shakllandi, bu esa keyinchalik Yevropa uyg‘onish davri tafakkuriga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi

Mahalliy solnomalar — Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari esa bu jarayonni Sharqona nuqtayi nazardan to‘ldiradi. Bizning tarixchilarimiz G‘arb elchilarini "faranj elchilari" deb atab, ularning kelishini saltanatning jahonshumul qudrati sifatida bayon etadilar. Yazdiy 1404-yilgi Samarqand qurultoyida "ovro‘pa o‘lkalaridan" kelgan elchilarga ko‘rsatilgan izzat-ikromni tasvirlar ekan, bu elchiliklar Amir Temurning nafaqat harbiy g‘alabalari, balki siyosiy adolati tufayli ham jalb qilinganini urg‘ulaydi. Zamonaviy o‘zbek temurshunoslaridan akademik B. Ahmedov va professor A. Mo‘minovlar ushbu aloqalarni "teng huquqli sheriklik" deb baholaydilar. Ularning tahliliga ko‘ra, Temur Yevropa bilan aloqalarda faqat "yordamchi" emas, balki "Pax Temurica" (Temuriy tinchligi) kontseptsiyasi asosida sivilizatsiyalararo muloqot o‘rnatgan buyuk islohotchi sifatida gavdalanadi.Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos tomonlaridan biri u o‘zining barcha murojaatlarida, hatto qat’iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham Sharq diplomatiyasiga rioya qilgan. Amir Temur Yevropa davlatlariga yuborgan elchilariga Qirollar bilan olib boriladigan muzokaralar uchun keng huquqlar bergani holda, ularga diniy masalalar yuzasidan fikrlashishni mutlaqo man etgan.Masalan: Amir Temurning 1402-yilda Farangiston (Fransiya) qiroli Karl VI ga yo‘llagan maktubida shunday satrlarni o‘qiymiz:

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning Yevropa bilan diplomatik muloqoti o‘rta asrlar xalqaro munosabatlarining eng yuksak cho‘qqisi edi.Tarixiy manbalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur tomonidan asos solingan diplomatik an’analar bugungi kunda ham O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli muloqot o‘rnatishida tarixiy va ma’naviy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Амир Темур жахон тарихида / Масъул мухаррир: Ҳ-Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Саидқосимов (рахбар), А.Аҳмедов, Б.Аҳмедов ва бошқалар. Тулдирилган ва кайта ишланган иккинчи нашри. — Т.: Шарк, 2001. – 304 б.
2. Темур тузуклари / Таҳрир ҳайъати: Б.Абдуҳалимов ва бошқ., Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ.Кароматов. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – Б. 94.
3. Гонсалес Руи Де Клавихо. Самарқанд – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406) [Text] Гонсалес, Руи Де Клавихо.; масъул муҳаррир: Муҳаммад Али. – Т.: “O‘zbekiston”, 2010. – 164 б.
4. Йаздий, Шарафуддун Али. Зафариома // Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар // - Т.: Шарқ, 1997. – Б. 160.

# AMIR TEMUR DAVLATCHILIK AN’ANALARI VA ULARNING YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI TRANSFORMATSIYASI

**Izzatullayeva Ma’mura Begmurod qizi**
**Buxoro Davlat Unverseteti Tarix va Yuridek Fakulteti**
**Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur davrida shakllangan davlatchilik an’analari, uning siyosiy, ijtimoiy va ma’muriy boshqaruv tizimi hamda bu tajribaning bugungi kundagi ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda maqolada Amir Temurning davlatni boshqarishdagi adolat, tartib-intizom, kuchli markazlashgan hokimiyat va qonun ustuvorligiga asoslangan siyosati tahlil qilinadi. Uning harbiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda amalga oshirgan islohotlari, mamlakat barqarorligi hamda taraqqiyotini ta’minlashdagi o‘rni alohida e’tirof etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Transformatsiya, siyosiy ijtimoiy, ma’muriy iqtisodiy, madaniyat.

Amir Temur butun dunyo tarixida yirik davlat arbobi, mohir sarkarda va kuchli markazlashgan davlat barpo etgan kuchli hukmdor sifatida muhim o‘rin egallaydi. Afsuski, Amir Temur nomi sobiq mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida qoralanib, avlodlar nazarida chetga surilib kelindi. Biroq, o‘zbek davlatchiligini qayta tiklagan, buyuk davlat darajasiga ko‘targan, jahonga shuhrat taratgan Amir Temurning tarixiy xizmatini jahon afgor ommasi nazaridan yashirish, uni qatag‘on zanjirida ushlab turish vaqti o‘tdi.

Istiqlol tufayli o‘z ona tariximizni xolisona yoritish, tarixiy haqiqatni qaror toptirish barobarida Amir Temur bobomizning nomini, nuroniy qiyosafini tiklash baxtiga muyassar bo‘ldik. Birinchi prezidentimiz Islom Karim tashabbusi bilan 1996-yilning Amir Temur yili deb e’lon qilinishi va shu yili buyuk bobokalonimiz tavalludining 660- yilligining mamlakatimizda hamda UNESCO tashabbusi bilan butun dunyo miqyosida keng nisholanishi – bu hozirgi minnatdor avlodlarning, qolaversa, jahon ahlining bu buyuk zotga, uning ulug‘vor ishlariga bildirilgan cheksiz hurmati va e’zozi ramzidir. “Adolat va insof bilan tangri yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim” Amir Temur.

U dunyoning 27 o‘lkasi va viloyatlarni zabt etib, Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlar buysundirildi. Amir Temur davrida davlat o‘z tarkibiy tuzilishiga ko‘ra harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Sohibqiron o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qiladi.

Davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi, davlat jamiyatning siyosiy yaxlitligini buzilmasligi, davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilishi, boshqaruv tizimi muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakillangan bo‘lishi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlat e’tiborida bo‘lishi, fan va madaniyat ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urish, har bir davlat shart-sharoiti, tartiblariga ko‘ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarni tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi, davlat tepasida turgan kuchlar o‘tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, yuksak ma’naviyat va millatparvarlik ila anglamog‘i kerakligini biz shu sakkiz asosga kiritishimiz mumkin. Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to‘qqizinchisini ya’ni jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta’minlashini qo‘shdi.

Darhaqiqat Temuriylar ma’naviy – madaniyati to‘g‘risida gap borganda, dastavval, ona yurtimizda uyg‘onish davrining ikkinchi bosqich bo‘lgan bu oltin asrda ilm-fanning nechog‘lik ravnaq topganligi, hamda uning jahon ilm-u urfoni taraqqiyotiga qo‘shgan bebaho hissasi haqida har qancha g‘ururlansak arziydi. Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy san’at va musiqa madaniyati rivoj topdi. Bu sohada Mirali Tabriziy, Shayx Muhammad, Junaid Naqqosh, temuriylar davri xattotligi va naqqoshligi maktabining atoqli vakillari: Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib , Darvesh Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam, Sulton Muhammad Nur va boshqalarning ijodi benazrdir. Shuning uchun ham birinchi prezedentimiz Islom Karimov shunday takidlagan. Hamisha xalq

g‘amini, yurt g‘amini o‘ylab yashagan Sohibqiron yovlar oyog‘i ostida toptalgan o‘lkani dunyoning eng qudratli saltanatiga aylantirgan edi. Kelinglar, aziz do‘stlar, barchamiz yakdil bo‘lib, halol mehnatimiz, aql-u zakovatimiz, vatanga muhabbatimiz bilan O‘zbekitonni jahon havas qiladigan buyuk davlatga aylantiraylik. Bu yo‘lda bobokalonimizning: “Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”.

Bu jihatlar Amir Temur tomonidan yaratilgan davlatchilik tizimining naqadar puxta va mukammal bo‘lganini ko‘rsatadi. Sohibqiron davlatni boshqarishda faqat harbiy kuchga tayanib qolmasdan, balki adolat, tartib-intizom va qonun ustuvorligiga ham katta e’tibor qaratgan. Davlat boshqaruvida aniq qoidalar va tartiblar joriy etilgan bo‘lib, ular jamiyatdagi barqarorlikni saqlash, xalq farovonligini ta’minlash hamda mamlakat taraqqiyotini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda dono va tajribali amaldorlarga tayanib ish olib borgan. Har bir mansabdor shaxsning vazifasi aniq belgilangan bo‘lib, davlat ishlarini yuritishda tartib va mas’uliyat muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida maslahatlashuv, tajriba va bilimga asoslangan qarorlar qabul qilish an’anasi shakllangan. Temuriylar davrida mamlakat hududida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Shaharlar obod qilinib, savdo yo‘llari rivojlantirilgan, hunarmandchilik va dehqonchilik taraqqiy etgan. Natijada davlat iqtisodiy jihatdan yuksalgan.

Shuningdek, Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti uchun ham keng faoliyati qo‘llab-quvvatlangan. Ayniqsa Samarqand shahri ilmiy va madaniy markazga aylangan bo‘lib, u yerda ko‘plab ilmiy va me’moriy yodgorliklar bunyod etilgan. Shu sababli Temuriylar davri Sharq uyg‘onish davrining muhim bosqichlaridan biri sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Temuriylar davrida savdo-sotiq ham keng rivojlangan. Mamlakat hududi orqali o‘tgan qadimiy savdo yo‘llari turli mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Shaharlar rivojlanib, hunarmandchilik markazlariga aylangan. Bu esa davlatning iqtisodiy qudratini oshirib, jamiyat hayotining turli sohalarida taraqqiyotga zamin yaratgan.

Natijada Temuriylar davri nafaqat siyosiy jihatdan kuchli davlat davri, balki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat yuksalgan davr sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Amir Temurning davlatchilik tajribasi bugungi jamiyat rivojida ham muhim g‘oyaviy va tarixiy manba hisoblanadi. Uning davlat boshqaruvi tamoyillarini zamonaviy sharoitga mos ravishda transformatsiya qilish, ya’ni yangicha mazmun bilan davom ettirish bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

- ✓ Birinchidan, Amir Temur boshqaruvida adolat va qonun ustuvorligi eng muhim tamoyillardan biri bo‘lgan. Bu tajribani zamonaviy davlat boshqaruvida qo‘llash jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va adolatli boshqaruv tizimini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.
- ✓ Ikkinchidan, Sohibqiron davlat boshqaruvida kuchli va samarali boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘ygan. Bu tajribani hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan tizimni rivojlantirish orqali davom ettirish mumkin.
- ✓ Uchinchidan, Amir Temur ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat rivojiga katta e’tibor qaratgan. Shu jihatdan uning tajribasini transformatsiya qilish — ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimini rivojlantirish va yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish orqali amalga oshiriladi.
- ✓ To‘rtinchidan, Amir Temur davrida savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalar rivojiga katta ahamiyat berilgan. Bu tajribani zamonaviy iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish orqali davom ettirish mumkin.

Shu tariqa, Amir Temur davlatchilik tajribasining transformatsiyasi — uning boshqaruv, adolat, ma’naviyat va taraqqiyotga asoslangan g‘oyalarini zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur tomonidan yaratilgan davlatchilik an’analari tarixda kuchli va barqaror davlat barpo etishning muhim namunasidir. Uning adolatga, tartib-intizomga va xalq manfaatlariga asoslangan boshqaruv tamoyillari davlatchilik taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va iqtisodiyotning yuksalishi jamiyat rivojiga katta turtki

bergan. Bu boy tarixiy tajriba va ma’naviy meros milliy davlatchilikni anglashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois Amir Temur merosi davlat boshqaruvi, ma’naviyat va jamiyat taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Q.Usmonov,M.Sodiqov,S.Burxonova.’’O‘zbekiston Tarixi’’,’’Iqtisod-Moliya’’,Toshkent-2016,
2. Mirzohid Rahimov,Akbar Zamonov.’’O‘zbekiston Tarixi’’,’’Fan’’,Toshkent -2019.

## AMIR TEMUR DAVLATI – TURKIY DAVLATCHILIKNING NAMUNA MODELI

**Jozilov Diyor Mashrab o‘g‘li**
**E-mail: jozilovdiyor880@gmail.com**
**Abdulla Qodriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti**
**Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIV–XV asrlarda (1370–1405) Movarounnahrda hukmronlik qilgan Amir Temurning davlat qurish tajribasi siyosatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etish, davlat boshqaruviga adolat tamoyillarini joriy etish hamda aholini birlashtirish va boshqarish borasidagi sa’y-harakatlari ko‘rib chiqiladi. Alohida e’tibor uning “Tuzuklar” (“Temur tuzuklari”) asarida bayon etilgan siyosiy mexanizmlarga qaratilgan bo‘lib, jumladan, turli kengashlar va maslahat majlislari orqali siyosiy qarorlar qabul qilish amaliyoti, jamiyatni ijtimoiy tabaqalarga ajratish asosida boshqarish hamda adolatga yo‘naltirilgan diplomatik siyosatni amalga oshirish masalalari tahlil etiladi. Ushbu jihatlar Temurning ma’muriy va diplomatik yondashuvlari natijalarini aniqlashga qaratilgan tarixiy misollar asosida o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, adolat tamoyillari, davlat siyosati, davlat boshqaruvi, maslahatlashuv, maslahat kengashlari, diplomatik munosabatlar, urushlarning sabablari, tinchlik va barqarorlik siyosati, markazlashgan davlat, tarixiy voqelik va ularning bugungi kundagi ahamiyati.

**Annotation:** This article analyzes the state-building experience of Amir Temur, who ruled over Movarounnahr in the 14th–15th centuries (1370–1405), from a political science perspective. The study examines Amir Temur’s efforts to establish a centralized state, to introduce the principles of justice into public administration, and to unite and govern the population. Particular attention is given to the political mechanisms outlined in his work *“Tuzuks”* (*“Temur’s Code”*), including the practice of making political decisions through various councils and consultative assemblies, governing society based on its division into social strata, and implementing a justice-oriented diplomatic policy. These aspects are explored through historical examples aimed at identifying the outcomes of Temur’s administrative and diplomatic approaches.

**Keywords:** Amir Temur, principles of justice, state policy, public administration, consultation, consultative councils, diplomatic relations, causes of wars, policy of peace and stability, centralized state, historical realities and their contemporary significance.

**Аннотация:** В данной статье с точки зрения политологии анализируется опыт государственного строительства Амира Темура, правившего в Мовароуннахре в XIV–XV веках (1370–1405 гг.). В исследовании рассматриваются усилия Амира Темура по созданию централизованного государства, внедрению принципов справедливости в систему государственного управления, а также по объединению и управлению населением. Особое внимание уделяется политическим механизмам, изложенным в его труде «Тузуки» («Уложения Темура»), в частности практике принятия политических решений через различные советы и совещательные собрания, управлению обществом на основе его разделения на социальные слои, а также реализации дипломатической политики, ориентированной на справедливость. Указанные аспекты изучаются на основе исторических примеров, направленных на выявление результатов административных и дипломатических подходов Темура.

**Ключевые слова:** Амир Темур, принципы справедливости, государственная политика, государственное управление, консультирование, совещательные советы, дипломатические отношения, причины войн, политика мира и стабильности, централизованное государство, историческая реальность и её современное значение.

**KIRISH**

Hozirgi davrda — Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti, Uchinchi Renessansga tayyorgarlik hamda milliy ruhimizni yuksaltirish jarayonlari sharoitida — buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temur merosiga murojaat qilish zarurati tabiiy ravishda yuzaga keladi. Amir Temur tavalludining keng nishonlanayotgan yilligi arafasida bu ulug‘ siymoning tarixiy ahamiyati, uning xalqni milliy g‘oya atrofida birlashtirishdagi merosi hamda milliy davlatchilik rivojiga qo‘shgan hissasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Yangi O‘zbekiston o‘z kelajagining mustahkam poydevorini barpo etar ekan, buyuk ajdodlarimizning millatchilik va davlatchilik borasidagi merosi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amir Temur shaxsining bugungi kundagi ahamiyatini quyidagi so‘zlar bilan ta’kidlaydi: “Buyuk ajdodlarimiz tarixini nega chuqur o‘rganmaymiz? Ko‘p yillar davomida boshqalarning tarixi va boshqalarning g‘alabalari balandparvoz shiorlar bilan ongimizga singdirildi. Men mutasaddilarga eng avvalo o‘z ajdodlarimiz tarixini o‘rganishimiz shart, deb topshiriq berdim.” [1].

**TADQIQOT NATIJALARI**

Ma’lumki, Sohibqiron Amir Temur hukmronligining dastlabki davrida Movarounnahrning siyosiy manzarasi nihoyatda murakkab va beqaror edi. Bir tomondan, Chingizxon avlodlari bo‘lgan mo‘g‘ul amirlari Chig‘atoy ulusi ustidan o‘zlarining avvalgi ta’sirini tiklash va hukmronligini saqlab qolishga intilar edilar. Ikkinchi tomondan esa, Movarounnahr hududida shakllangan mahalliy amirlar tobora o‘zini o‘zi boshqarish, mustaqil davlat barpo etish hamda o‘z hududlarini mustaqil ravishda idora qilish g‘oyalari bilan harakat qila boshlagan edilar o‘z ona yurtini boshqarish g‘oyalari bilan chiqayotgan edi. Aynan ana shunday muhim tarixiy burilish pallasida Amir Temur siyosiy maydonga kirib keldi. XIV asr o‘rtalariga kelib, mustaqillik uchun kurash g‘oyasi allaqachon shakllanib ulgurgan, bunday harakatni boshlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va ruhiy-psixologik sharoitlar yetarli darajada pishib yetilgan edi. O‘sha davrda Movarounnahrning madaniy muhiti qadimgi sivilizatsiyalarning chuqur intellektual merosi bilan sug‘orilgan edi. Bu hudud aholisi mo‘g‘ullar istilosidan ming yillar avval ham o‘z milliy davlatchiligini barpo etgan bo‘lib, mo‘g‘ullardan farqli ravishda, mahalliy aholining o‘troq va yuksak madaniyatga asoslangan turmush tarzi mintaqaning uzoq muddat mo‘g‘ullar hukmronligi ostida qolishiga imkon bermas edi. Bundan tashqari, Movarounnahrga joylashib qolgan mo‘g‘ullar hududning boy madaniyati ta’sirida asta-sekin turkiy tilga o‘ta boshladilar hamda ularning katta qismi islom dinini qabul qildi. 1312-yildan boshlab Oltin O‘rda hukmdori, chingiziylardan bo‘lgan O‘zbekxonning islomni qabul qilishi va uni o‘z hududlarida keng yoyishga qaratilgan sa’y-harakatlari mahalliy turkiy xalqlarning ma’naviy va madaniy ustunligini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu tarixiy jarayonda qadimgi turkiy xalqlarning chuqur ma’naviy va madaniy merosi, ayniqsa islom dinining qudratli ta’siri hal qiluvchi rol o‘ynadi. Tarixning qat’iy haqiqatlari va jahon taraqqiyotining ichki qonuniyatlari shuni ko‘rsatadiki, uzoq asrlar davomida madaniyat va ilm-fan markazi bo‘lib kelgan mamlakat ko‘chmanchi kuch yoki hayot tarzi ko‘chmanchilikka asoslangan davlat hukmronligi ostida abadiy qolib ketishi mumkin emas edi. Shu bois mintaqaning boy sivilizatsion merosi tabiiy ravishda uyg‘ondi va mustaqillikni tiklashga kuchli intilish yuzaga keldi. Bu jarayon esa Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan saltanatning vujudga kelishida o‘z ifodasini topdi. Tarixiy manbalarda Sohibqiron Amir Temur nafaqat zukko davlat arbobi va dono, aqlli sarkarda, balki insonlarning ma’naviy olami va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsata oladigan nihoyatda nozik didli shaxs sifatida ham tasvirlanadi. Ko‘plab manbalarda qayd etilishicha, Temur madrasa talabasi bo‘lgan yillaridayoq o‘zining zakovati, ilmga chanqoqligi va tafakkur kengligi bilan ajralib turgan hamda islomiy ilmlarni chuqur egallagan edi. Bu esa unga o‘z davrining intellektual, mafkuraviy va siyosiy jarayonlarini teran anglash va o‘zlashtirish imkonini berdi. Bo‘lajak hukmdor Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy, Xoja Ahmad Yassaviy va Sayyid Amir Kulol kabi yirik islom ulamolari ma’naviy tarbiyasi ta’sirida kamol topdi. Amir Temur davlatni boshqarishda o‘zining ma’naviy ustozi Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy tomonidan berilgan quyidagi hikmatli nasihatga qat’iy amal qilgan: “Maslahat va kengashsiz

boshqarilgan saltanatni johil odamga qiyoslash mumkin; uning harakati va so‘zi noto‘g‘ri bo‘ladi va bunday kimsaning ishlari albatta pushaymonlikka olib keladi. Shuning uchun davlat ishlarini maslahat, muhokama va oqilona tadbir bilan boshqargin, toki nadomat chekmasliging uchun. Bilgilki, boshqaruvning bir qismi sabr-toqat va matonatni talab qiladi, boshqa bir qismi esa ba’zan bilib, ba’zan bilmaslikka solib, ehtiyotkorlik bilan ish tutishni taqozo etadi. Zarur choralarni bayon etgach, shuni alohida ta’kidlash lozimki, qat’iyat, sabr, bardoshlilik, hushyorlik, ehtiyotkorlik va jasorat samarali boshqaruvning asosini tashkil etadi.” [2:24]. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, aynan Tayobodiy Amir Temurga muhriga “Rostī–rustī” degan hikmatni bitishni tavsiya qilgan. Bu ibora “Najot haqiqatdadir” degan ma’noni anglatadi va bugungi kunda “Kuch – adolatda” tarzida talqin qilinadi. Bu esa Temurning davlat siyosatini amalga oshirishda adolat tamoyillariga izchil amal qilganini ko‘rsatadi. Uning obro‘-e’tibori, lashkarboshilarning sadoqati va janglardagi g‘alabalari ham aynan adolatga sadoqati hamda saxovatpeshaligi bilan chambarchas bog‘liq edi. 1360-yillarga kelib Amir Temurda vatanparvarlik, zulmga qarshi kurash va qadimgi turkiy davlat qudratini tiklash g‘oyalariga asoslangan mustahkam mafkuraviy poydevor shakllandi. Bundan tashqari, uning orzu-intilishlari va milliy o‘zlik anglash tuyg‘ularini qo‘llab-quvvatlaydigan, ma’naviy jihatdan uyg‘oq va hushyor ijtimoiy qatlam ham maydonga chiqqan edi. Ularning mustaqillikka bo‘lgan umumiy intilishi Temurning ulkan maqsadlari bilan uyg‘unlashdi buyuk maqsad va qarashlari bilan uyg‘unlashdi. Gegel ta’biri bilan aytganda, agar “davlat – bu xalq ruhining mujassamlanishidir”, desa, milliy davlatchilikni barpo etish uchun zarur bo‘lgan ma’naviy poydevor to‘la shakllanib ulgurgan edi. Tarix shuni ko‘rsatadiki, yunon falsafasi ta’sirida shakllangan Iskandar Zulqarnayn Sharqni zabt etishga intilib, jasorat va yuksak ambitsiya orqali o‘z nomini abadiylashtirdi. Chingizxon esa jahon hukmronligini ko‘zlab, dunyoni mo‘g‘ul ko‘chmanchi qabilalari boshqarishi g‘oyasini ilgari surdi. Sohibqiron Amir Temur esa bu bosqinchilardan farqli ravishda, birlashtirilgan hududlarda adolatni qaror toptirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va islomiy tamoyillarga asoslangan farovon hayotni barpo etishga intildi. Sohibqiron Amir Temur qudratli davlat barpo etish, millatni birlashtirish va xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan tamoyillar tizimini ishlab chiqqan hamda ularni muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlat arbobi edi. Bu tamoyillar “Tuzuklar” (“Temur tuzuklari”) asarida bayon etilgan bo‘lib, ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin: “Men davlat ishlarini murosa, sabr va oliyjanoblik bilan yuritdim. Ko‘p narsani bilsam-da, ko‘pincha o‘zimni bilmagandek tutdim. Do‘stga ham, dushmanga ham bag‘rikenglik bilan muomala qildim.” “Davlat ishlarini mamlakat qonun-qoidalari asosida boshqardim. Tartib-intizom tamoyillariga va tuzuk hamda qoidalarga tayangan holda davlatdagi mavqeim va hokimiyatimni mustahkam saqladim.” [2:69] “Zolimlar qo‘lidan mazlumlar haqqini qaytardim. Zulm oqibatida yetkazilgan moddiy va jismoniy zararlarni aniqlagach, ularni shariat asosida sud qildim, toki bir kimsaning aybi uchun boshqasi jazolanmasin. Hatto menga katta zarar yetkazgan, menga qarshi qilich ko‘targan kishilar ham tavba va kamtarlik bilan huzurimga kelganlarida, ularni afv etdim, gunohlarini yodimdan chiqardim va hatto mansablarini oshirdim.” “Sayyidlar, olimlar, pirlar, donishmandlar, hadis ahli va tarixnavislarni alohida hurmat va ehtiromga loyiq insonlar deb bildim.” “Fuqarolarimning ahvolidan doimo xabardor bo‘lib turdim: keksalarni birodar, yoshlarni farzandimdek ko‘rdim. Har bir viloyat va har bir qavmning urf-odati, fe’l-atvori va ijtimoiy holatini bilishga intildim. Har bir yurtning ahvoli, lashkar va xalq kayfiyati, odamlarning o‘zaro munosabati haqida muntazam ma’lumot olib turish uchun halol va rostgo‘y voqeanavislarni (‘axbor-navis’) tayinladim.” [2:70–71] Sohibqiron Amir Temur chuqur ma’naviy dunyoqarashga ega edi, ammo bu ma’naviyat adolat bilan chambarchas bog‘liq edi. “Temur tuzuklari”ni sinchiklab o‘rganish unda ko‘plab ibratli g‘oyalar mavjudligini ko‘rsatadi. Masalan, Temur siyosiy elita va davlat amaldorlarini toifalarga ajratib, har biriga ularning qobiliyati, salohiyati va ijtimoiy mavqeiga qarab munosabat bildirgan. U mansabdorlarni iste’dodi, salohiyati, obro‘-e’tibori va nasl-nasabiga qarab tayinlagan hamda ularning faoliyatini baholash va nazorat qilishning qat’iy mexanizmlarini joriy etgan. Hokim va amirlarni xizmatlari uchun rag‘batlantirgan, ularga hurmat va e’tibor ko‘rsatgan bo‘lsa-da, davlat qonunlarini buzgan yoki aholiga zulm o‘tkazgan shaxslarni qattiq jazolashdan ham tortinmagan. Shu sababli Amir Temur turli mamlakatlarga harbiy yurishlar qilganida, mahalliy aholi uni ko‘pincha bosqinchi emas, balki adolat tarafdori bo‘lgan hukmdor sifatida qabul qilgan. Bunday munosabat Eron, Kavkaz, arab mamlakatlari hamda To‘xtamishxonga qarshi yurishlar chog‘ida ham kuzatilgan. Agar Sohibqiron faqat shaxsiy manfaatlari va o‘z hududini kengaytirish niyatida harakat qilganida, u

bunday ulkan g‘alabalarga erisha olmas edi. Uning tarixiy muvaffaqiyatlarining asosiy omillaridan biri buyuk sivilizatsion g‘oyalar yo‘lida olib borgan kurashi edi. Amir Temur shaxsiy shuhratni emas, avvalo eng avvalo o‘z davlati va Vatanini mustahkamlashni ko‘zlagan edi. U kuchli davlat ichki birlikni ta’minlashini va mamlakatni tashqi tajovuzlardan himoya qilishini chuqur anglagan. Shu bois davlat birligiga tahdid soluvchi har qanday harakat qat’iy va keskin choralar bilan bartaraf etilgan. Temuriylar davlati qudrati va salobati Amir Temurning ma’muriy lavozimlar hamda harbiy qo‘mondonlikka nomzodlarni tanlashdagi nihoyatda sinchkov yondashuvidan kelib chiqqan. U faqat yetakchilik salohiyatiga ega, qat’iyatli va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslarni tanlagan. O‘zi ta’kidlaganidek: “Mening tajribamda, qat’iyatli, jasur, intizomli va hushyor, irodali bir inson minglab beparvo va loqayd kishilardan afzaldir. Tajribali bir kishi ming kishiga bosh bo‘la oladi.” [2:25]. Amir Temurning mashhur hikmatlaridan biri: “Adolat — hukmdorlar shioridir” degan ibora edi. Bu so‘z uning buyrug‘i bilan Shahrisabzdagi Oqsaroy devorlariga bitilgan. Yana bir chuqur ma’noli hikmati shunday: “Ahillik va murosasiz dunyo yo‘q. Haqiqatdan o‘zga yaqinlik yo‘q. Kechirimdan o‘zga oliyjanoblik yo‘q. Sadoqatdan o‘zga chin do‘stlik yo‘q.” Ushbu hikmat Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralardan biriga naqsh etilgan. [3]. Sohibqiron tomonidan barpo etilgan davlat ramzlari, uning shaxsiy fazilatlari, boshqaruv tamoyillari, amaliy siyosati hamda hikmatlarida tez-tez uchraydigan iboralar shuni ko‘rsatadiki, uning davlati qudrati va barqarorligi adolat qadriyatlariga tayangan edi. Amir Temurning zamondoshi Mirzo Yoqub Xo‘jandiy u haqda shunday fikr bildirgan: “Amir dushmanlariga nisbatan shafqatsiz, tarafdorlariga esa muloyim edi; shaxsiy muomalada mehribon va kibrdan yiroq edi. Shu bilan birga, askarlariga nisbatan talabchan bo‘lsa-da, ularga adolat bilan munosabatda bo‘lardi. Intizomni buzganlarni jazolarkan, askarlariga tegishli bo‘lgan o‘lja va mukofotni hech qachon tortib olmas edi. U ‘to‘q odam och odamga qaraganda kamroq o‘g‘irlik qiladi’, deb hisoblar edi. Men o‘z ko‘zim bilan Amirning lashkar bilan qahraton sovuq shamollarda, yomg‘irli kunlarda, qalin qorlar orasida, odam yashamaydigan sahrolarda va tik qoyalar bag‘rida qanday harbiy mashg‘ulotlar o‘tkazganini ko‘rganman. Bu mashqlar bilan solishtirganda, dehqonlarning og‘ir mehnati go‘yo dam olishdek tuyulardi. Ba’zi kasblarda mis tangalar jaranglasa, askarlarning shiddatli yurishlarida oltin tangalarning jarangi ko‘p eshitilardi.” [4].

**MUHOKAMA**

Sohibqiron Amir Temur Yevropa va Sharq mutafakkirlari tomonidan yuksak e’tirof etilgan siymodir. Uning kurashlari, zafarli yurishlari va qudratli davlat barpo etish tajribasining ahamiyatini inkor etish – bu tarixning o‘zini inkor etish bilan barobar bo‘lur edi. Masalan, 1590-yilda ingliz dramaturgi Kristofer Marlo tomonidan yozilgan va Temur siymosini aks ettirgan asarni tahlil qilgan nemis professori Tilman Nagel shunday deydi: “Asarning birinchi qismida Temur insoniy yutuqlarning ideal timsoli sifatida namoyon bo‘ladi — u kelib chiqishi yoki ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, oldinga intila oladigan shaxs namunasi sifatida tasvirlanadi.” [5:41] Amerikalik olim Richard Nelson esa Sohibqiron shaxsiga quyidagicha baho beradi: “Temur yagona imperiya madaniyatini zo‘ravonlik bilan singdirishga urinmadi. Aksincha, u turli madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi uchun imkoniyat yaratdi va shu tariqa Yevrosiyo tushunchasini murosalar majmui sifatida strategik shakllantirgan ilk hukmdor bo‘ldi. Bu g‘oya bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Temur ko‘chmanchilarning mahoratini, mo‘g‘ullarning jasoratini va islomning ma’naviy jo‘shqinligini o‘zida mujassam etgan ilk buyuk sarkarda edi. Har bir madaniyat ma’lum darajada plyuralistik xususiyatga ega, biroq uning turli unsurlari vaqt o‘tishi bilan moslashib, strategik ahamiyat kasb etadi. Temur esa aynan shu nazariy imkoniyatni Markaziy Osiyoda anglab yetgan shaxs edi va uning taktik mahorati bu g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarishga imkon berdi.” [6:34]. Pokistonning “ma’naviy otasi” sifatida e’tirof etilgan Muhammad Iqbaldan bir o‘quvchi: “Nega siz Temurni musulmon dunyosi uchun namuna sifatida madh etgansiz?” deb so‘raganida, u shunday javob bergan: “Chunki men unda vayronkor kuchni emas, balki ijobiy kuchlarni o‘z hokimiyati qudrati bilan birlashtira olgan yetakchi timsolini ko‘rdim.” [7:121]. Sohibqiron Amir Temurning turkiy davlatchilik modeli sifatidagi ahamiyati dunyoning turli mamlakatlarida ham e’tirof etilgan. Jumladan, 2016-yil 18-noyabr kuni Rajab Toyip Erdog‘an Turkiya Respublikasi Prezidenti sifatida Amir Temur maqbarasini ziyorat qilganida shunday degan edi: “Bugun turkiy va islom olamining boshidan kechirayotgan azob-uqubatlarini ko‘rgan inson Temurning o‘z davridagi buyuk xizmatlari va kurashlarining naqadar ulug‘ ekanini yanada teran anglaydi. Temur turklar va musulmonlarning

birligi hamda tengligi yo‘lida tunlarini bedor o‘tkazgan, bu yo‘lda har qanday mashaqqatga bardosh bergan va umrini jihodga bag‘ishlagan buyuk rahbar edi. Bugun har qachongidan ham ko‘proq Amir Temurning ta’limoti va ibratiga amal qilishga muhtojmiz.” [8]. Xorijiy mutafakkirlar tomonidan Amir Temurga berilgan ijobiy baholarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bu e’tiroflar Sohibqiron shaxsining nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosidagi tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

**XULOSA**

XIV asr tarixiy voqealariga to‘liq xolis baho berish ma’lum darajada subyektivlikdan xoli bo‘la olmaydi. Biroq tarixiy taraqqiyotning real sharoitlarini inkor etish undan ham kattaroq haqiqat buzilishiga olib keladi. XIV asr voqealariga zamonaviy milliy mafkura nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bugungi mustaqilligimizning ma’naviy, axloqiy va huquqiy poydevorlari aynan Sohibqiron Amir Temur tomonidan qo‘yilganini ko‘rish mumkin. Asrlar o‘tgan sayin Sohibqironning buyukligi va qudrati yanada chuqurroq va kengroq anglab borilmoqda. Yaratganning inoyatiga sazovor bo‘lgan Temur o‘z atrofidagi ko‘plab chingiziy xonlar va amirlar orasida birinchi bo‘lib Turon zaminida yashovchi xalq mustaqil davlat barpo etish va uni mustahkam saqlab qolishga qodir hamda munosib ekanini amalda isbotladi. Shu ma’noda, Sohibqironning hayoti, faoliyati va u barpo etgan qudratli davlat milliy ruhimiz va milliy g‘ururimizning asosiy tayanchiga aylangan. Har bir xalqning mustaqilligi tarixiy voqealar va tajribalar zanjiriga tayanadi. Uning kuchi, barqarorligi va davomiyligi ana shu tarixiy asoslarning boyligi va chuqurligiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, Sohibqiron olti asrdan ortiq vaqt masofasidan turib ham bizga yo‘l ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonning qisqa tarixiy davr ichida xorijiy davlatlar tomonidan hurmat va e’tirofga sazovor bo‘lishining sabablaridan biri ham Sohibqiron va uning avlodlaridan meros bo‘lib qolgan ulkan milliy madaniyat va davlatchilik an’analaridir. Sohibqiron Amir Temur tomonidan shakllantirilgan davlatchilik tajribasi zamonaviy turkiy davlatchilik rivoji uchun namuna sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Til, din va madaniy qadriyatlar mushtarak bo‘lgan turkiy xalqlar o‘rtasida hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlashda Temur davlatchiligi ruhi bugungi kunda ham nihoyatda muhimdir. Shuningdek, Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston poydevorini barpo etishga qaratilgan islohotlar ham o‘z ilhom manbaini Sohibqiron Amir Temur qoldirgan boy davlatchilik tajribasidan oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev. Қашқадарё вилояти Кўкдала тумани фаоллари билан учрашувдаги нутқи. 21 апрель 2022 й. // https://qalampir.uz/news/boshk-alar-galabasini-miyamizga-singdirishgandi-mirziyeev-amir-temur-mudofaa-merosini-tadk-ik-k-ilishni-buyurdi-59945

2. Temur tuzuklari / Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж.; Б. Аҳмедов таҳрири остида. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 24.

3. Хуторянский О. Тимур // https://stihi.ru/2020/01/06/263

4. Чигрин Л. Летопись о Тамерлане. Историческая хроника // https://webkamerton.ru/2020/01/letopis-o-tamerlane-istoricheskaya-khronika

5. Нагель Т. Ренессанс даври бошланишида Amir Temur ва Марказий Осиёнинг Европа томонидан танилиши // Амир Темур: шахсининг замондошлари томонидан баҳоланиши ва фаолиятининг мустақил Ўзбекистон учун аҳамияти. Конференция ҳисоботи. Амир Темурнинг 660 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум материаллари (Самарқанд, 1996, 27–29 сентябрь). – Т.: Конрад Аденауэр фонди, 1997. – 41-б.

6. Нельсон Р. Темур как военный стратег и геополитик. Современная интерпретация // «Амир Темур и его место в мировой истории» халқаро илмий конференция тезислари. 23–26 октябрь 1996 й. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 347-б.

7. Шиммель А. Темур ва Темурийлар даврида Самарқанд // Амир Темур: шахсининг замондошлари томонидан баҳоланиши ва фаолиятининг мустақил Ўзбекистон учун аҳамияти. Халқаро симпозиум материаллари (Самарқанд, 1996, 27–29 сентябрь). – Тошкент: Конрад Аденауэр фонди, 1997. – 121-б.

8. Шимширгил А. Amir Temur. 09.04.2021 й. // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ahmad-shimshirgil-amir-temur/

# AMIR TEMUR DAVRIDA ADABIYOT VA MADANIYAT

**Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi**
**NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi**
Email:abdujabborovanilufar1214@gmail.com
Tel:+9982430398

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada XIV–XV asrlarda Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida O‘rta Osiyo va Movarounnahrda adabiyot hamda madaniyatning rivojlanishi ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Maqolada me’morchilik, musiqa san’ati, adabiyot, xattotlik va miniatyura sohalari bo‘yicha erishilgan yutuqlar, Temuriylar Renessansi tushunchasi, madaniyat homiysi sifatidagi Amir Temurning roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalar asosida bu davrning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Temuriylar Renessansi, Movarounnahr, Samarqand, me ‘morchilik, musiqa, adabiyot, madaniyat homiysi, Shashmaqom, XIV–XV asrlar.

**Abstract:** This article presents a scholarly analysis of the development of literature and culture in Central Asia and Mawarannahr during the reign of Amir Temur (Tamerlane) in the 14th–15th centuries. The study examines the achievements in architecture, musical arts, literature, calligraphy, and miniature painting, explores the concept of the Timurid Renaissance, and investigates Amir Temur's role as a patron of culture and the arts. Drawing on both contemporary scholarly literature and primary historical sources, the article also illuminates the place of this era in the broader history of world civilization.

**Keywords:** Amir Temur, Timurid Renaissance, Mawarannahr, Samarkand, architecture, music, literature, patron of culture, Shashmaqam, 14th–15th centuries.

**Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения анализируется развитие литературы и культуры в Средней Азии и Мавераннахре в период правления Амира Темура (Тамерлана) в XIV–XV веках. В статье рассматриваются достижения в области архитектуры, музыкального искусства, литературы, каллиграфии и миниатюрной живописи, раскрывается концепция Тимуридского Ренессанса, а также исследуется роль Амира Темура как покровителя культуры и искусства. Опираясь на современную научную литературу и первоисточники, статья освещает место данной эпохи в истории мировой цивилизации.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Тимуридский Ренессанс, Мавераннахр, Самарканд, архитектура, музыка, литература, покровитель культуры, Шашмаком, XIV–XV века.

**Kirish:** XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan madaniy yuksalish jahon tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu davr ko‘pincha “Temuriylar Renessansi” yoki “Ikkinchi Uyg‘onish davri” sifatida ta’riflanadi. Sohibqiron Amir Temur ibn Tarag ‘ay Bahodir (1336–1405) tomonidan bunyod etilgan markazlashgan davlat siyosiy barqarorlikni ta ‘minlash bilan birga, ilm-fan, adabiyot va san’atning gullab-yashnashiga mustahkam zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta’minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san’at va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Bu fikr Temurning tarixiy faoliyatini baholashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi – Amir Temur davrida adabiyot va madaniyatning rivojlanishini tizimli ravishda o‘rganish, bu rivojlanishning omillarini aniqlash hamda mazkur davrning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini baholashdan iborat.

Amir Temur davri madaniyati haqida yozilgan asarlar juda ko‘p. Bu borada eng muhim birlamchi manbalar qatorida Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari, Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqddur fi tarixi Taymur” kitobi, Rui Gonsales de Klavixoning Samarqandga safari kundaligi, shuningdek, Mirzo Ulug‘bekning “To ‘rt ulus tarixi” asarlari alohida o‘rin tutadi.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy Sohibqiron haqida shunday yozadi: *“Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko‘rardi, shu sababli ham uning saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan,*

*zulm ko‘rmagan. U ilm-fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatida madaniyat va san ‘atning gullab-yashnashiga erishish edi”.*

XIX asrning taniqli sharqshunosi, Vengriyalik olim Herman Vamberi Amir Temur hukmronligini “Oks (Amudaryo) ning narigi tomonidagi mo‘jaz yer uchun ajoyib davr” deb ta’riflagan va uning turkiy xalqqa” shunday quyosh ato etganini" ta ‘kidlagan. Fransuz olimi Marsel Brion ham o‘z tadqiqotlarida Sohibqironning madaniyatni cheksiz hurmat qilgani va ilm-fan muammolariga chuqur yondashganini qayd etgan.

Zamonaviy o‘zbek tarixi fanida esa bu mavzu B.Ahmedov, A.Saydov, I.Mo‘minov kabi olimlarning asarlarida keng yoritilgan. “Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san‘at” nomli to‘plam (Toshkent, 1996) ham bu boradagi muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Amir Temur davrida me’morchilik san’ati o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga erishdi. Samarqand poyaxtiga aylantirilib, u yerda va butun saltanat bo‘ylab ulkan qurilish ishlari amalga oshirildi. Sohibqironning “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta daraxt ektirdim” degan so‘zlari uning bunyodkorlik falsafasini to‘la aks ettiradi.

Temur tomonidan bunyod etilgan yoki qayta qurilgan me’moriy obidalar qatorida quyidagilarni alohida ta’kidlash lozim: Ahmad Yassaviy maqbarasi, Bibixonim jome’ masjidi, Shohizinda me’moriy majmuasi, Go‘ri Amir maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy. Bu inshootlar nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar uchun ham me’moriy namuna bo‘lib xizmat qildi.

Samarqand atrofida qurilgan bog‘lar – Bog‘i Baland, Bog‘i Behisht, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Jahonnamo va boshqalar – bu davr bog‘dorchilik san’atining yuksak darajasini ko‘rsatadi. Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo Samarqandni tasvirlab, uni o‘z davrining eng go‘zal va obod shaharlaridan biri sifatida ta’riflagan.

Ingliz san’atshunos olimi Fillipson Martin bu haqda shunday deydi: “Temuriylar singari san’ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo‘lmagan”. Bu baho Temur saroyida me’morchilikka berilgan e‘tiborning qanchalik yuksak bo‘lganini isbotlaydi.

Amir Temur saltanatida musiqa san’ati alohida mavqe kasb etdi. Xususan, o‘zbek xalqi musiqasi bilan birga harbiy-rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san’ati va mintaqaning boshqa turkiy hamda arabzabon, forsiy xalqlarining musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi – Amir Temur saltanatida cholg‘u asboblar davlat ramzi, kuch-qudrat va bahodirlik timsoliga aylandi.

XIV–XV asrlarning mashhur musiqachisi Xoja Abdulqodir Maragiy ham o‘z umri va ijodining ko‘p qismini Temur saroyi bilan bog‘ladi. Maragiyning yuksak qobiliyatidan xabar topgan Temur uni Bag‘doddan Samarqandga olib kelib, ijod etishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Bu davrdagi musiqiy muhit keyinchalik milliy mumtoz san’atimiz gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” tizimining shakllanishiga muhim zamin bo‘lib xizmat qildi.

Shahar aholisining turli qatlamlaridan kelib chiqib, saltanatda “xonandalar mavzesi”, “sozandalar mahallasi”, “bastakorlar ko‘chasi” joriy etilishi va ijodiy maktablar tashkil etilishi bu kasb egalarining obro‘-e’tiborini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, o‘rta asrlar tarixiy ma’lumotlarida san’atkorlar orasida ayol sozandalar, raqqosalar va qissago‘ylar ham bo‘lib, ular bayramlarda, namoyishlar va marosimlarda qatnashgani haqida ma’lumotlar uchraydi.

Amir Temur davri adabiy muhiti son-sanoqsiz shoirlar, mutafakkirlar va olimlar bilan bezangan edi. Sohibqiron o‘zi ham bilimdon inson bo‘lib, xatni ikki qo‘lida yoza olgan, tarix, adabiyot, mantiq va falsafani o‘rgangan. U arab tilini mukammal egallagan, tafsir va fiqh ilmlaridan yaxshi xabardor bo ‘lgan.

Samarqandda Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu’moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy kabi ko‘pgina shoirlar va olimlar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo‘lib, uning xizmatida faoliyat yuritdilar. Fransuz olimi Lyangle Amir Temurning olimlarga munosabati haqida shunday yozadi: *“Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar”.*

XIII–XV asrlar adabiy an’analari Nizomiy Ganjaviy, Husrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar tomonidan barcha turkiy xalqlar adabiyotini yuksakka ko‘targan bir muhitda namoyon bo‘ldi. Temuriylar davrida bu adabiy an’analar yanada ravnaq topdi. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Bobur asarlariga ishlangan bir

qancha miniatyuralarda sozandalar, katta va kichik cholg‘u jamoalari aks etganligi bu ikki san’at o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi.

Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morchilik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e’tibor berdi. Samarqandda astronomiya, tibbiyot, riyoziyot, falsafa, tarix kabi fanlar, me’morchilik, adabiyot, san’at, xattotlik va musiqa san’ati gurkirab o‘sdi, ko‘pgina olimlar va san’atkorlar yetishib chiqdi.

Amir Temur tashabbusi bilan to‘plangan sohibi hunarlar va yirik san’atkorlar hissasi bilan Movarounnahrda san’at va hunarmandchilik rivoj topdi, Samarqand esa O‘rta va Yaqin Sharq ijodiy kuchlarining markaziga aylandi. Buning uchun Movarounnahrning hamma joylaridan, yaqin O‘rta Sharq o‘lkalaridan juda ko‘p fan va san’at ahllarini, iste’dodli sohibi hunarlarni, me’mor va musavvirlarni poytaxtga to‘pladi.

1996 yilda Parijda o‘tkazilgan “Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi” haftaligi bu sivilizatsiyaning naqadar buyuk ekanini tasdiqladi. Temuriylar davri haqiqatdan ham ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta’minlagan Sharq uyg‘onish davri edi.

Amir Temur bu davrda ilm va san’at ahlining posboni va yuksak darajada madaniyatli hukmdor degan shuhrat qozondi. Uning olimlar, ulamolar, shoirlar va san’atkorlarni o‘z himoyasiga olishi, ular uchun zarur sharoitlar yaratishi va tirikchiliklariga davlat g‘amxo‘rligini kuchaytirganligi bu davrning madaniy yuksalishida hal qiluvchi omil bo‘ldi.

**XULOSA**

Amir Temur davrida adabiyot va madaniyatning rivojlanishi tasodifiy hodisa emas, balki davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Sohibqiron madaniy rivojlanishni siyosiy qudrat bilan uzviy bog‘lab, o‘zidan keyin ulkan meros qoldirdi. Samarqandning Sharqning madaniy markaziga aylanishi turli xalqlardan to‘plangan iste’dodli ijodkorlar, olimlar va me’morlar ijodining sintezi natijasida yuz berdi. Bu jarayon milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Amir Temur davridagi me’morchilik, musiqa, adabiyot va miniatyura san’ati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Bu sohalardagi erishilgan yutuqlar keyingi temuriylar davrida, xususan Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy zamonida yanada mukammal shaklga keldi.

To‘rtinchidan, bu davr jahon madaniyati tarixida alohida o‘rin egallaydi. G‘arb va Sharq olimlari Temuriylar Renessansini Yevropa Renessansiga qiyoslaydi, bu esa o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosiga berilgan eng yuksak baholardan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Amir Temur davrida yuzaga kelgan madaniy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va Yangi O‘zbekiston sharoitida “Uchinchi Renessans” g‘oyasini ro‘yobga chiqarishda ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.

3. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqddur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Mehnat, 1992. 1-kitob.

4. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.

5. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 1996.

6. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent: Fan, 1993. – 56 b.

7. Saydov A., Keren L. Amir Temur va Fransiya. – Toshkent: Adolat, 2016.

8. Asqarov A. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomushlar bosh tahririyati, 1996. – 264 b.

9. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.

10. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

11. Saidqosimov S., Axmedov A., Axmedov B. va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: Sharq, 2006.

12. “Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. – Toshkent: Jamoat xavfsizligi universiteti nashriyoti, 2022.

# AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI: MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA ALOQALARINING TARIXIY ASOSLARI HAMDA O‘ZBEKONA MEHMONDO‘STLIK AN’ANALARI

**Olimova Ziyoda Olim qizi**
**Navoiy davlat universiteti magistranti**
**Email: ziyodaolimova4@gmail.com**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amir Temur davlatining tashqi siyosati, xususan, Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari o‘rtasida shakllangan diplomatik aloqalar tahlil qilinadi. Sohibqironning xalqaro munosabatlardagi strategik qarashlari, savdo va siyosiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar saroyidagi qabul marosimlari va o‘zbekona mehmondo‘stlik an’analari Ruy Gonsales de Klavixo kabi g‘arbiy sayyohlarning xotiralari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Amir Temur diplomatiyasi nafaqat o‘z davri, balki zamonaviy xalqaro munosabatlar rivoji uchun ham muhim tarixiy tajriba ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar**: Amir Temur, diplomatiya, Markaziy Osiyo, Yevropa, Karl VI, Kastiliya, Ruy Gonsales de Klavixo, mehmondo‘stlik, saxiylik.

**Annotation**

This article analyzes the foreign policy of Amir Timur’s state, particularly the diplomatic relations established between Central Asia and European countries. The strategic views of Amir Timur in international relations and his initiatives aimed at developing political and economic cooperation are highlighted on the basis of historical sources. In addition, the reception ceremonies and traditions of hospitality in the Timurid court are examined based on the memoirs of Western travelers such as Ruy González de Clavijo. The research shows that Amir Timur’s diplomacy represents an important historical experience not only for his period but also for the development of modern international relations.

**Keywords:** Amir Timur, diplomacy, Central Asia, Europe, Charles VI, Castile, Ruy González de Clavijo, hospitality, generosity.

**Аннотация**

В данной статье анализируется внешняя политика государства Амира Темура, в частности дипломатические отношения между Центральной Азией и европейскими государствами. На основе исторических источников раскрываются стратегические взгляды Амира Темура на международные отношения и его инициативы, направленные на развитие политического и торгово-экономического сотрудничества. Также рассматриваются традиции гостеприимства и дипломатического приема при дворе Темуридов на основе воспоминаний западного путешественника Руи Гонсалеса де Клавихо. Результаты исследования показывают, что дипломатия Амира Темура представляет важный исторический опыт не только для своего времени, но и для современного развития международных отношений.

**Ключевые слова**: Амир Темур, дипломатия, Центральная Азия, Европа, Карл VI, Кастилия, Руи Гонсалес де Клавихо, гостеприимство, щедрость.

Amir Temur jahon tarixida yirik davlat arbobi, sarkarda va mohir diplomat sifatida tanilgan. Uning hukmronligi davrida Markaziy Osiyo nafaqat siyosiy jihatdan kuchli davlatga aylangan, balki xalqaro savdo va madaniy aloqalar rivojlangan muhim hududga ham aylangan. Sohibqiron o‘z davlatining tashqi siyosatini aniq strategiya asosida olib borgan bo‘lib, turli davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatish orqali siyosiy barqarorlikni ta’minlashga intilgan [1].

Amir Temur diplomatiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Sohibqiron Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV hamda Kastiliya qirolligi bilan elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan [3]. Bu yozishmalar o‘rta asrlar diplomatik munosabatlarining muhim namunasi hisoblanadi. Temurning Yevropa hukmdorlariga yo‘llagan maktublarida savdo aloqalarini rivojlantirish, savdogarlar xavfsizligini ta’minlash hamda davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni mustahkamlash g‘oyalari ilgari surilgan.

Masalan, Sohibqiron tomonidan Fransiya qiroliga yuborilgan maktublardan birida savdo aloqalarini kengaytirish muhimligi alohida ta’kidlangan. Unda Yevropa savdogarlarining Temuriylar davlatiga kelishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi, o‘z navbatida temuriy savdogarlar ham Yevropa mamlakatlarida hurmat bilan qabul qilinishi zarurligi qayd etilgan.

Bu esa o‘sha davrda xalqaro savdo va diplomatik hamkorlikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan [3].

Amir Temur diplomatiyasining yana bir muhim jihati uning mehmondo‘stlik va saxiylikka asoslangan siyosiy madaniyatidir. Bu holat ayniqsa Kastiliya qiroli tomonidan yuborilgan elchi Ruy Gonsales de Klavixoning kundaliklarida batafsil tasvirlangan. Klavixo 1403–1406-yillar oralig‘ida Temuriylar davlatiga qilgan safari davomida Samarqand shahridagi qabul marosimlari, saroy tartiblari va diplomatik an’analar haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan [2].

Klavixoning yozishicha, Amir Temur xorijiy elchilarni katta hurmat va ehtirom bilan kutib olgan. Elchilarga alohida turar joylar ajratilgan, ularning yo‘l xarajatlari va ehtiyojlari davlat tomonidan ta’minlangan. Samarqand saroyida tashkil etilgan qabul marosimlari ulug‘vorligi, dasturxonlarning serobligi hamda oltin va kumush idishlarning ko‘pligi bilan ajralib turgan. Bu esa Temuriylar davridagi diplomatik protokol va mehmondo‘stlik an’analarining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi [2].

Shuningdek, Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga ham alohida e’tibor qaratgan. U Samarqandni dunyoning yirik ilmiy va madaniy markaziga aylantirishga intilgan. Turli mamlakatlardan kelgan olimlar, me’morlar va san’atkorlar Temuriylar saroyida faoliyat yuritgan. Bu esa nafaqat madaniy rivojlanishga, balki davlatlar o‘rtasidagi madaniy diplomatiya shakllanishiga ham xizmat qilgan [4].

Temuriylar davrida shakllangan ushbu diplomatik an’analar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy tashqi siyosatida ham xalqaro hamkorlik, madaniy muloqot va o‘zaro hurmat tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Shu jihatdan Amir Temur diplomatik merosi zamonaviy xalqaro munosabatlar rivojida muhim tarixiy tajriba sifatida e’tirof etiladi.

Shunday qilib, Amir Temur diplomatiyasi Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Uning savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosati o‘sha davr xalqaro munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etgan. Klavixo kabi g‘arb manbalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sohibqironning mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik va diplomatik madaniyatga asoslangan siyosati bugungi kunda ham dolzarb tarixiy meros hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

2.Ruy Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. – Toshkent: Sharq, 2010.

3.Kehren L. Amir Temur saltanati. – Toshkent, 2005.

4.Hookham H. Tamburlaine the Conqueror. – London, 1962.

5.Dadaboyev H. Amir Temurning diplomatik yozishmalari. – Toshkent, 2010.

# TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT

**NavDU Tarix fakulteti 3-kurs**
**Talabasi Toshimova Nozanin**

**Ilmiy rahbar: “Tarix”kafedrasi**
**O‘qituvchisi Muftillayeva Umida**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Temuriylar davri madaniyati va ilm-fani rivojining tarixiy omillari tahlil qilinadi. Amir Temur davrida O‘rta Osiyoda ikkinchi Renessans bo‘lganligi ko‘plab olim, fuzalolarning yetishib chiqqanligi va ilm- fanda tub burilish yasagan davr bo‘lganligi uchun ham bu maqolada ilm -fan va madaniyati ochib berilgan.Shuningdek, maqolada Klavixo kabi sayyohlarning xotiralari va tarixiy manbalari asosida o‘sha davrning ijtimoiy -madaniy muhiti, bunyodkorlik ishlari va ilm-fan yutuqlari yoritilib berilgan.

**Abstract:** This article analyzes the historical factors of the development of culture and science during the Timurid era. Since the second renaissance took place in Central Asia during the reign of Amir Temur, many scientists and philosophers flourished, and it was a period of fundamental change in science, this article also reveals science and culture. In addition, the article highlights the socio-cultural environment, creative works, and scientific achievements of that period based on the memoirs of travelers such as Clavijo and historical sources.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, ilm- fan, madaniyat ,Temuriylar Renessansi,Mirzo Ulug‘bek, bunyodkorlik, Registon maydoni , Klavixo, ma’naviy meros.

**Keywords:** Amir Temur, science, culture, Temurid Renaissance, Mirzo Ulugbek, creativity, Registan Square, Klaviho, spiritual heritage.

Temuriylar davri O‘rta Osiyo tarixida siyosiy, iqtisodiy,va madaniy yuksalish davri sifatida alohida o‘rin tutadi.Amir Temur va uning avlodlari keng huhudlari birlashtirib,barqaror siyosiy tizim o‘rnatdilar.Siyosiy barqarorlik ilm-fan va madaniyating rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Temuriylar davri (1370-1507)O‘rta Osiyoda ilm-fan madaniyatning gullab yashnash davri sifatida tarixiy ahamiyatga ega.Bu davrda davlat asoschi Amir Temur va uning avlodlari tomonidan ilmiy markazlar ,madrasalar ,kutibxonalar ,rasadxonalar va san’at inshoatlari barpo etilgan.

Sohibqiron asos solgan saltanatda XIVasr oxiri va XV asr boshlarida Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlagan.Amir Temur 1370-yilda Samarqandni poytaxt qilib , keng hududlarni o‘z tasarrufiga olgan.Siyosiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish ilm-fan va madaniyatning gullab yashnahiga imkon yaratgan.Amir Temur vafotidan keyin temuriy shaxzodalar o‘rtasida bo‘jgan o‘zaro kurashlar va harbiy yurishlar mamlakatning ichki hayotiga ta’sir etsada , biroq Shohrux, Ulug‘bek ,Abusaid va Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrlarda bo‘lgan osoyishtalik tufayli avvaldan davom etib kelayotgan ilm-fan va madaniyat yanada jonlangan.”Samarqand,Hirot ,Buxoro ,G‘ijdivon kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylangan.Bu markazlarda madrasalar,kutubxonalar, rasadxonalar va san’at inshootlari barpo etilgan. Bu davrda asosan matematika, astronomiya, tibbiyot, adabiyot, falsafa va tarixshunoslik sohalari rivojlangan. Ilm-fan va madaniyatning gullab yashnashiga shuningdek, saroy homiylari,ilmiy olimlar va san’atkorlarning faoliyati katta hissa qo‘shgan.”[5]

Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishida temuriylar davlatining asoschisi bo‘lgan Amir Temurning roli ko‘proq hisoblanadi.Amir Temur Turon saltanatida ilm-fanning rivojlanishi, unib-o‘sishi,kamol topishiga qulay sharoitlar ,ulkan, imkoniyatlar yaratib bergan.”Amir Temur ko‘p mashxur muarixlar takidlaganidek ,ilmning qadriga yetadigan , uni rivojlanishiga astoydil bel bog‘lagan, dunyoning eng yetuk olimlari,tarixchilari bilan bemalol suxbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi.Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning xonadonidan boshlangan edi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Sohibqiron xonadonida (shaxzodalar , malikalar)ga ilm-fanning turli soxalaridan ko‘p saboq berilar, madrasalarda tahsil olishlar davom ettirildi. Masalan, Mironshox Mirzo uchun maxsus Ibn al-Asirning “Al-komil fit-tarix” (Mukammal tarix) kitobi tarjima qilinib berilgan edi. Sohibqiron harakatlari tufayli, uning avlodlari ichida Muhammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysung‘ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahriddin Muhammmad Bobur, kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, homiylar, manaviy va

marifat jonkuyarlari bor bo‘lib, ular ilm-fan, ma’naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo‘lib yetishdi. “[3:12,13 bet]”

Aynan ularning qilgan mehnatlari bilan madaniyatimiz yuksak darajaga yetishgan. Misol uchun, Ulug‘bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratilgan. Zamonasining ilg‘or rasadxonasining barpo etilishi yorqin dalil bo‘ladi. 1018 ta yulduz ta’rifini o‘z ichiga olgan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” jadvali jahon faniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan.Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to‘liq va ishonarli yoritib bergan Sharofiddin Ali Yazdiyning fundamental “Zafarnoma” (1425) asari Sohibqironning nabirasi Sheroz hokimi shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoiyligi va homiyligi ostida dunyoga keldi. 1519-yilda Ulug‘bek Mirzoning nabirasi Ko‘chkinchixon topshirig‘i bilan mazkur “Zafarnoma” va Rashiduddinning “Jome ut-tavorix” asarlari o‘zbek tarjima qilindi. [9,13 bet] Undan tashqari o‘sha davrning buyuk namoyondalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqarolar she’riyati, allomalar Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi asarlari, Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si asari ,uning go‘zal she’riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hofizi Abru, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamirlarning salnomari, asarlari barchasi Temuriylar davrining ajoyib mahsullari sanaladi. Bundan ko‘rinib turibdiki ilm-fan va madaniyat nafaqat Amir Temur balki uning avlodlari davrida ham gullab yashnaganini ko‘rishimiz mumkin.Bu meroslar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.Temuriylar davri nafaqat mintaqamiz , balki jahon tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan “Oltin davr “ hisoblanadi.Bu davrda yaratilgan ilmiy meros va me’moriy obidalar bugungu kunda ham O‘zbekistonning madaniy qudratini dunyoga k’'rsatib turibdi.

Amir Temur o‘z davrida nafaqat ilm-fan va madaniyat balki bunyodkorchilik ishlariga ham katta e’tibor bergan. “… Amir ettimki katta-kichik har bir shahar har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqoqlar bino qilinsinlar, faqir miskinlarga langarxona ( musofirxona ) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdursinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dorul-amorat ( hukmdor saroyi va dorul adolat) adolat saroyi qursinlar…” [ 1:73 bet]

Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan deyish mutloqo to‘g‘ri. Amir Temur faqat O‘rta Osiyo hududida, balki boshqa hududlarda ham bunyodkorlik ishlarini olib borgani buning yorqin dalili. Amir Temur dastlab bunyodkorlik ishlarini saltanati poytaxti qilib belgilagan Samarqand dunyoning eng obod shahriga aylantirgan. Undan tashqari boshqa hududlardagi Damashq, Bog‘dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashxur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog‘-rog‘larga ko‘milgan qishloqlar barpo qildirgan.

Bu davrda mamlakatda yo‘llar kengaytirilgan, ko‘priklar solingan, rapotlar tiklangan, bozorlar tartibga solingan, hiyobonlar barpo etilgan, bog‘lar yashnagan. “Bu bog‘lar haqida ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaliklarida zavq-shavq bilan qalam tebratgan. Ularning ichida Gulbog‘ Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog'i Nav va boshqa bog‘lar nomi bor.” [3:11 bet] Amir Temur tomonidan eng katta inshootlarga Samarqandda Ko‘k Saroy, Amir Temur jome masjidi, Bibixonim madrasasi, masjidi, Qusam Ibn Abbos(Shohi Zinda) me’moriy majmui, Amir Temur maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassabiy xonaqoq-maqbaralari o‘sha davrda bunyodkorlik ishlarining, me’morchiliging yorqin dalili. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. “Sohibqiron har yerda kim, imorotga qobil er ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorot solur erdi” [4:11bet].Bu davrda faqat Amir Temur emas balki Mirzo Ulug‘bek ham Samarqandni obod qilishga alohida e’tibor bergan.Uning davrida Samarqand shahrining Registon maydoni shakllangan.Mirzo Ulug‘bek maydon qaytadan rejalashtirib Registondan tashqari peshtoqli va ulkan gumbazli xonaqoq, karvonsaroy ,o‘ymakor gumbazli yog‘ochlardan ishlangan masjidi Muqatta bino qilingan.Undan tashqari ikki yuz o‘n gumbazli Ko‘kaldosh jome masjidi qad ko‘targan.Bu imoratlardan bizgacha faqat Ulug‘bek madrasasi saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin.Ulug‘bek madrasasi o‘sha davrda “Universitet” vazifasini o‘tagan va u yerda nafaqat diniy , balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan.Undan tashqari Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda rasadxona barpo etgan. Uning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy “asari yulduzlar jadvali sifatida butun dunyo olimlari uchun dasturamal bo‘lgan.Qozizoda Rumiy ,G‘iyosiddin Jamshid Koshiy kabi buyuk olimlar faoliyat yuritgan.Bundan ko‘rinib turibdiki ,Ulug‘bek ham bobosi kabi o‘z davrida ilm-fan va madaniyatga juda katta e’tibor bergan.Shunday qilib . Temuriylar davri o‘zbek davlatchiligi tarixida nafaqat

harbiy g‘alabalar , balki ilm-fan va madaniyatning chinakam uyg‘onish davri sifatida muhrlangan Amir Temur asos solgan bunyodkorlik an’analari keyinchalik uning davomchilari tomonidan asrlar davomida taraqqiyot manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida siyosiy beqarorlik,iqtisodiy yuksalish va madaniy uyg‘onish bir nuqtada tutashgan noyob davr bo‘ldi.Amir Temur tomonidan asos solingan markazlashgan davlat tizimi nafaqat hududiy yaxlitlikni ta’minladi , balki ilm-fan va san’atning gullab -yashnashi uchun zaruriy muhitni yaratdi.Temuriylar davri merosi shunchaki tarixiy xotira emas , balki bugungi kunda milliy o‘zlikni anglash ,ilm-fan va madniyatni rivojlantirishda xalqimiz uchun ma’naviy mayoq bo‘lib xizmat qildi.Ushbu davrda qo‘yilgan tamal toshlari insoniyat sivilzatsiyasi xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘lib,o‘zbek davlatchiligi tarixining eng yorqin sahifasini tashkil etadi.

Foydanilgan Adabiyotlar

1.Amir Temur Ko‘ragon “Temur Tuzuklari”Toshkent “IJOD-PRESS” 2019.

2.Абдулахад Мухаммаджонов “Темур ва Темурийлар салтанати” Комуслар бош тахрияти Тошкент. 1994.

3.Muhammad Ali “Amir Temur salnomasi “ Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2008.

4.Шарофуддин Али Йаздий “ Зафарнома” “Шарк “нашрийот- матба концернининг бош тахририяти Тошкент-1997.

5. https://wosjournals.com/index.php/medical/article/view/3513

## SOHIBQIRON AMIR TEMUR – ADOLAT VA QUDRAT TIMSOLI

**X.Xalilov, NavDU Iqtisodiyot fakulteti o‘qituvchisi**

**Kalit so‘z:** Ko'p millatli, madaniyat, siyosati, yuksalishi, „Temur tuzuklari’’, insonparvarlik, hukmdorlar, poytaxt, Temuriylar davlati.

**Annotatsiya:** Amir Temurning **"Temur tuzuklari"** (Temurning tuzuklari) kabi huquqiy kodeksi va uning jamiyatdagi adolatni ta'minlashga bo'lgan intilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, Temuriylar davlati va uning poytaxtlari, xususan, Samarqand va Buxoro shaharlarining madaniy, ilmiy va siyosiy rivojlanishidagi o‘rni o‘rganiladi.Maqolada Amir Temurning ilm-fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi, shuningdek, uning bag‘rikenglik va boshqa dinlarga bo‘lgan hurmatini yoritish orqali, Temuriylar davlati ko‘plab millatlar va dinlar o‘rtasida tinchlik va hamjihatlikni saqlashga intilganligi ko‘rsatiladi. Maqola, Temuriylar davlati haqidagi ilmiy tahlillarni o‘zida jamlaydi va Temurning adolatli boshqaruvini, ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan e’tiborini chuqur o‘rganishga yordam beradi. Maqola o‘quvchilarni tarixiy shaxsiyat va davlat boshqaruvi masalalarida ko‘proq bilim olishga undaydi.

**Kirish**

Buyuk ajdodlarimiz orasida Sohibqiron Amir Temur o‘zining jasorati, aql-zakovati va davlat boshqaruvdagi adolatparvarligi bilan ajralib turadi. U nafaqat O‘rta Osiyo hududida, balki butun dunyo tarixida katta iz qoldirgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida e’tirof etiladi. Amir Temur tomonidan asos solingan Temuriylar davlati o‘zining harbiy qudrati, iqtisodiy barqarorligi va madaniy-ma’rifiy yutuqlari bilan tarix sahifalarida alohida o‘rin egallagan. Ushbu maqolada Amir Temurning adolatli siyosati, harbiy yurishlari va uning jahon tarixidagi o‘rni tahlil qilinadi.

**Amir Temurning hayoti va faoliyati**

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda hozirgi Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanida dunyoga kelgan. Uning ota-bobolari barlos qabilasiga mansub bo‘lib, Temurning kelajakdagi ulug‘vorligi va harbiy iste’dodi yoshligidanoq namoyon bo‘la boshlagan. Yoshligidan harbiy san’at va davlat boshqaruvi sirlarini puxta o‘rgangan Amir Temur, 1370-yilda Movarounnahrda hokimiyatni qo‘lga olib, Markaziy Osiyoda kuchli davlat barpo etishga kirishdi.

**Harbiy yurishlari va diplomatiyasi**

Amir Temurning harbiy yurishlari jahon tarixida eng yirik harbiy kampaniyalardan biri sifatida e’tirof etiladi. U Oltin O‘rda, Hindiston, Fors, Arabiston va Osiyo qit’asining boshqa hududlarida

muvaffaqiyatli yurishlar olib borgan. 1395-yilda Oltin O‘rdaning xoni To‘xtamishni mag‘lub etib, shimoliy hududlarni o‘z ta’siriga olgan. 1398-yilda Hindiston yurishi natijasida Dehli sultonligi zabt etilgan.

Amir Temur nafaqat harbiy yurishlari, balki diplomatiyasi bilan ham tanilgan. U Yevropa va Osiyo davlatlari bilan faol diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Ayniqsa, Ispaniya, Fransiya va Xitoy elchilari bilan olib borilgan muzokaralar uning xalqaro siyosatdagi ulkan salohiyatini ko‘rsatadi.

**Adolat tamoyili va davlat boshqaruvi**

Amir Temurning asosiy tamoyillaridan biri adolat edi. U davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta’minlagan va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratgan. Uning shiori “Kuch – adolatda” degan so‘zlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Amir Temur o‘z davlatchiligini kuchli harbiy tizim va samarali iqtisodiy boshqaruv asosida shakllantirdi. U soliq tizimini tartibga solib, dehqonchilik va savdo-sanoat rivojiga katta e’tibor qaratgan. Temur davrida Samarqand jahondagi eng rivojlangan shaharlar qatoriga kiritilgan.

**Ilm-fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi**

Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Uning tashabbusi bilan Samarqand va boshqa shaharlarda yirik madrasalar, kutubxonalar va me’moriy obidalar bunyod etilgan. Xususan, Registon majmuasi, Bibixonim masjidi va Shohi Zinda yodgorliklari shular jumlasidandir.

Amir Temur olim va shoirlarni qo‘llab-quvvatlagan, ularga homiylik qilgan. Uning saroyida Sharqning mashhur allomalari – Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid va boshqa olimlar faoliyat yuritgan. Bu esa Temuriylar davrining fan va madaniyat yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

**Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rni**

Amir Temur o‘zining harbiy strategiyasi, davlat boshqaruvidagi adolatliligi va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi bilan jahon tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning siyosati nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Sharq va G‘arbda katta ta’sir ko‘rsatgan.

Bugungi kunda Amir Temur shaxsiyati O‘zbekiston tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tamoyillari va g‘oyalari mustaqil O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ham o‘z aksini topgan.

Sohibqiron Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki dono davlat arbobi sifatida ham tarixga muhrlangan. Uning jasorati, adolatliligi va davlat boshqaruvidagi muvaffaqiyatlari butun dunyoga namuna bo‘la oladi. Bugungi kunda biz Amir Temur merosini o‘rganish va unga hurmat bilan yondashish orqali o‘z tariximizni chuqur anglashimiz lozim. Uning hayoti va faoliyati kelajak avlodlar uchun ham yuksak ibrat manbai bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”,T. ,O‘zbekiston. 1996 yil,

2. Berdimurodov A. Amir Temurning Samarqanddagi bog‘lari, “Turkiston”, 1992 yil, 17 noyabr

3. Sharaf ad-Din Ali Yazdi, *Zafarnama* — Amir Temur hayoti va g‘alabalarining eng mashhur tarixiy manbasi.

**4.Amir Temur.** (1991). *Temur Tuzuklari*. T.: G‘ofur G‘ulom,

## AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVIDAGI O‘RNI

**Nav.DU Tarix fakulteti 3-kurs**
**talabasi Sanaqulova Charos**
**Ilmiy rahbar: “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi Muftillayeva Umida**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni va davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Unda Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat, boshqaruv tizimi hamda harbiy-siyosiy faoliyatining asosiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, uning davlatni boshqarishdagi tajribasi, adolat tamoyillari va qonun-qoidalari

asosida olib borgan siyosati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Amir Temurning davlat boshqaruvi va davlatchilik an’analarini shakllantirishdagi muhim o‘rni ochib beriladi.

**Abstract:** This article analyzes the role of Amir Temur in the history of Uzbek statehood and his contribution to the system of state governance. It examines the centralized state established by Amir Temur and highlights the main aspects of his political, military, and administrative activities. The study also focuses on his principles of justice and governance based on laws and regulations. As a result, the article reveals the significant role of Amir Temur in the development of state administration and the formation of statehood traditions.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, o‘zbek davlatchiligi, davlat boshqaruvi, markazlashgan davlat, harbiy siyosat, adolat tamoyillari.

**Key words:** Amir Temur, Uzbek statehood, state governance, centralized state, military policy, principles of justice.

Jahon tarixida yorqin iz qoldirgan eng ulkan qahramonliklar Vatanni bosqinchilar ta’siridan ozod qilishda va xalqni mustamlakachilik zulmidan qutqarishda ko‘zga yaqqol tashlanishini ko‘rishimiz mumkin shu jumladan Sohibqiron Amir Temur ham qadimiy vatanimiz Turon hududini– Turkistonni chingizxon imperiyasining bir yarim asr davom etgan jabr-u zulmidan xalos qilish uchun xalq-ozodlik harakatiga yetakchilik qilib, sakkiz yildan ortiq qahramonona kurash olib bordai. .Amir Temurning butun jahon tarixida muhim ahamiyat kasb etgan zafarlari Oltin O‘rda xoni To'xtamishxon va Boyazid yildirim bosib olgan o‘lkalarda ham mustamlaka zulmini yo‘qotishga zamin yaratadi.

Markaziy Osiyo tarixida buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida tanilgan Amir Temur nafaqat yirik imperiya asoschisi, shu bilan birga Sharq va G‘arb o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynagan shaxslardan biridir. Amir Temur faoliyati tufayli Markaziy Osiyo Yevropa davlatlari bilan yangi bosqichdagi diplomatik va savdo munosabatlariga kiradi.

“Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo‘lidagi harakati XIV asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o‘zaro kurashi kuchayib, amir Qazag‘on o‘ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og‘ir tanglik sodir bo‘ldi. Xondamirning “Habib us-siyar” kitobida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, ulus o‘nga yaqin mustaqil bekliklarga bo‘linib ketgan”. [4]Amir Temur XIV asrda markazlashgan qudratli davlat barpo etadi, bu bilan nafaqat Movarounnahr hududida, balki butun Osiyo va Yevropa tarixida ham o‘chmas chuqur iz qoldirgan shaxsdir. Uning davlat boshqaruvi, siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari va qonun-qoidalari keyingi davrlarda ham o‘zbek davlatchiligi rivojiga muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temurning hokimiyatga kelishi XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida siyosiy parokandalik kuchaygan davrga to‘g‘ri kelar edi. Turli amirlar o‘rtasidagi kurashlar natijasida mamlakat o‘zining qudratini yo‘qotgan edi edi. Shunday murakkab davrda Amir Temur siyosiy maydonga chiqib, mamlakatni birlashtirishga kirishadi. 1370-yilda Amir Temur hokimiyatni qo‘lga olib, markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ladi. U o‘zining siyosiy markazi sifatida Samarqand shahrini tanladi va uni davlat poytaxtiga aylantiradi.Samarqand shaxrini yer yuzining chinakam madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantiradi. Bu ulug zot qurdirgan me'morchilik va xalq san'atining namunalari bugungacha qad ko'tarib turgan osori atiqalar shahar va qishloqlarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib kelyapti. Sohibqiron o‘z davrining ajoyib diplomati, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishi va iqtisodiy aloqalar rivojlanishining tarafdori sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hokimlar, me'morlar va shoirlarning buyuk homiysi deb ham nom chiqargan edi.Shuningdek uning qudrati bo‘lgan armiyasiga ham alohida e’tibor ko‘rsatgan edi. “Temuriylar davrining davlat boshqaruvi va harbiy tizimining tashkiliy asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda ishlab chiqilgan boshqaruv tamoyillari nafaqat o‘z zamoni uchun ilg‘or, balki bugungi zamonaviy menejment tizimlari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega”.[3:185]

Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xuroson, umuman O‗rta Sharq xalqlari tarixida muhim tarixiy davr bo'lib hisoblanib, aynan shu davrda turli xalqlar, etnoslartarixida ham iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan o'zaro yaqinlashish davri bo'ladi.[1: 3.]

Amir Temur o'z saltanatida mazhabparastlik, musulmonlar orasidagi nizolar dinlararo qarama-qarshilikni qattiq qoralaydi.jumladan u joylarda sunniylar va shialar o'rtasidagi ixtilof va nizolarni bartaraf etishga qattiq bel bog'laydi. Amir Temur ulkan davlat va qudratli saltanat barpo etish orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi Buyuk Ipak yo'li tarmog'ini tiklaydi. Mazkur xalqaro savdo yo'li nafaqat qayta tiklandi, balki ushbu yo'l xavfsizligini ta'minlagan holda savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ham yo'l ochib beradi. BUning natijasida ichki va tashqi savdo butun saltanatda rivojlanadi, savdo yo'llardagi har qanday talonchilik, bosqinchilik, qaroqchilik ko'rinishlariga chek qo'yildi. Bundan tashqari yo'llar, sardobalar, karvonsaroy, ko'priklar ta'mir etilib chet el savdogarlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilganini ko‘rishimiz mumkin. har to'xtash joylarida (bu taxminan 25-30 km oraliqda) "yomlar" tashkil etilib, ularda savdogarlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Amir Temur davlati chegarasiga yaqinlashgan Klavixo xalqaro savdo, chet el savdogarlariga bo'lgan ehtirom va yuqori hurmat masalasini alohida e'tirof etgan edi.[2:205.] Bundan tashqari Amir Temur davrida kuchli harbiy tizm va Mudofaga alohida etibor berilganligi Sohibqiron davlat xavfsizligini ta’minlash uchun dunyodagi eng intizomli qo‘shin tizimini yaratganligini ko‘rishimiz mumkin.. Qo‘shin o‘nlik, yuzlik va minglik qismlarga bo‘linib, qo‘shin tarkibidagi har bir askar va lashkarboshining o‘z mas’uliyati bo‘lgan. Bu harbiy mahorat o‘zbek harbiy san’atining cho‘qqisi hisoblanadi.Shu bilan birga Ilm-fan va San’at sohasidagi dunyoning eng yetuk olimlari, me’morlari va hunarmandlari poytaxtga jalb etilganligini ko‘rishimiz mumkin , bu esa o‘z navbatida "Temuriylar renessansi"ga zamin yaratadi.

Bundan tashqari amir Temur bir qancha bunyodkorlik ishlarini olib borgan Shaharlar obod qilishda madrasalar, masjidlar, saroylar va bog‘lar qurilishida olib borganligini ko‘ramiz Bu ishlar nafaqat davlat qudratini ko‘rsatgan, shu bilan birga madaniyat rivojiga ham katta hissa qo‘shgan hisoblanadi .Buni misoli tariqasida biz XIV asr oxiriga kelib, Kesh o'sha davrning go'zal shaharlaridan biriga aylanganlida ko‘rishimiz mumkin. Nizomiddin Shomiy o'zining "Zafarnoma” asarida Oqsaroy haqida yozadi, uning peshtoq va ravoqlarini ayyuq yulduziga yetkazdilar, , biron kimsa jahonda unga teng keladigan imoratni ko'rmagan va eshitmagan edi, deb uning naqadar ulug'vorligini madh etgan[2:145].

Yevropaning Madrid. Parij kabi shaharlaridagi maftunkor qasrlarini ko'rgan Ispaniya elchisi Klavixo Keshga tashrif buyurganida, Oqsaroyning hashamdorligi va ulug'vorligini ko'rib, uni bunyod etishda qatnashgan me'mor va quruvchilarning yuksak mahoratiga tan bergan va uning yuksak bahosiga sazovor bo'lgan. Bu erda hamma narsa oltin, lojuvard va boshqa anvoyi ranglarda tovlanar va hatto ajoyib ustalar bo'lgan Parij uchun hayratomuz edi. Bu ishlar (hatto ularda ham) go'zal deb g'isoblangan bo'lardi", deb yozadi Klavixo o‘z asarida.[2:188]

Davlat boshqaruvi tizimida Amir Temur qat’iy tartib va qonunlarga asoslangan edi. U mamlakatni viloyatlarga bo‘lib, har bir hududga o‘zining ishonchli amirlarni hokim etib tayinlardi. Boshqaruv tizimi harbiy va ma’muriy tuzilmalarga asoslangan bo‘lib, tartib-intizomga katta e’tibor qaratilgan bo‘lganini ko‘ramiz. Amir Temur davlat boshqaruvida adolat tamoyiliga alohida ahamiyat beradi. U o‘z faoliyatida adolatli hukm yuritish davlat mustahkamligi uchun eng muhim omillardan biri deb hisoblagan. Shu sababli Amir Temur turli qonun va qoidalarni ishlab chiqadi. Bu qoidalar keyinchalik mashhur asar — Temur tuzuklari asarida jamlangan.Temur tuzuklari asari Amir Temurning davlatni boshqariuvidagi qarashlari va tajribasini o‘zida aks ettirgan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda davlat boshqaruvi, harbiy tartib,har bir amaldorlarning vazifalari, xalq bilan munosabatlar va boshqa muhim masalalar yoritilganligi bilan qimmatlidir. “Tarixga murojaat etadigan bo‘lsak, buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi Shoh Jahon (1628—1657), Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1821—1842) va Buxoro amiri Abdulahadxon (1885—1910) mohir kotiblariga buyurib, “Temur tuzuklari”dan o‘zlari uchun nusxa ko‘chirtirganlar”.[5]

Amir Temur faqat davlat arbobi hukmdor emas , balki buyuk sarkarda sifatida ham mashhur bo‘lgan. U o‘z davri uchun kuchli va intizomli qo‘shin tuzdi hamda ko‘plab harbiy yurishlar olib boradi. Bu yurishlar natijasida uning davlati hududi kengayib, katta imperiyaga aylanadi.

Amir Temur davlatni faqat harbiy kuch bilan emas, shu bilan birga ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish orqali ham mustahkamlaydi . Uning davrida Samarqand shahri yirik ilmiy va madaniy markazga aylangan edi . Bu yerga ko‘plab olimlar, me’morlar va san’atkorlar taklif etilgan. Amir Temur yaratgan davlat boshqaruvi tizimi davlatchilik an’analari nafaqat o‘sha davrda balki keyingi

asrlarda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Uning siyosiy tajribasi, harbiy san’ati va davlat boshqaruv tamoyillari keyingi hukmdorlar uchun muhim tajriba bo‘lib xizmat qilgan hisoblanadi.

Bugungi kunda ham Amir Temur faoliyati O‘zbekiston tarixida hurmat bilan tilga olinadi. Uning davlatchilik g‘oyalari, adolatli boshqaruv haqidagi fikrlari Mustaqil O‘zbekiston uchun ham muhim tarixiy meros hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida o‘rin tutgan yirik davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida e’tirof etiladi. U qisqa vaqt ichida markazlashgan va mustahkam siyosiy tuzumga ega bo‘lgan davlatni barpo etib, samarali boshqaruv tizimini shakllantirdi hamda kuchli va intizomli harbiy qo‘shin yaratishga erishdi. Uning davlat boshqaruvi tamoyillari, harbiy strategiya va taktika borasidagi qarashlari, shuningdek, ilm-fan va madaniyat rivojiga ko‘rsatgan alohida e’tibori O‘rta Osiyo tarixida muhim iz qoldirdi. Shu bois, Amir Temur o‘zbek davlatchiligi tarixining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan yirik tarixiy shaxslardan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda munosib baholanadi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. Юсупова Д.Ю., Улашова С. Амир Темур ва Темурийлар даврида этнослараро муносабатлар / Бағрикенглик – ўзаро ишончни ривожлантиришнинг воситаси сифатида. Халқларо илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2018.

2.Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга Амир Темур саройига саёҳат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

3. “Amir Temur va temuriylar davlatchiligini jahon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma’naviy-madaniy taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - T., 2025. – 321 b.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur

5. http://nhrc.uz/oz/news/m7212

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MAKTAB VA TA’LIM-TARBIYA

**Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzey ilmiy xodimi, tarix fani o‘qituvchisi Saibov Dilshod Kamiljonovich**

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnaxrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: “Xaftiyak”, “Qur’on”, “Chor kitob” , Navro‘z, Ramazon, Qorixona, Dalaixona, Madrasa, “Suluk-ul-muluk”, “Amir Temur” ordeni, donishmandi, shayx, ulamo, olimlar, mudarris.

**Abstract:** This article discusses education and pedagogical ideas in Movarunnahr during the reign of Amir Temur and the Timurids.

**Keywords:** "Haftiyak", "Quran", "Char Kitob", Navruz, Ramadan, Qarixona, Dalaixona, Madrasa, "Suluk-ul-muluk", "Amir Temur" Order, wise man, sheikh, scholars, scholars, mudarris.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы образования и педагогические идеи в Моваруннахре во времена правления Амира Тимура и Тимуридов.

**Ключевые слова:** «Хафтияк», «Коран», «Чар Китоб», Навруз, Рамадан, Карихона, Далайхона, медресе, «Сулук-уль-мулюк», Орден «Амира Темура», мудрец, шейх, учёные, учёные, мударрис.

**KIRISH**

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, Ikkinchi Uyg‘onish davri - Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o‘rin tutadi.

Mustabid tuzum tomonidan nohaq qoralab kelingan bu ulug‘ zotning muborak nomi va xotirasi mustaqillik yillarida tarixiy adolat asosida qayta tiklandi. Sohibqiron Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o‘zlikni anglash, an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma’naviy kuch bag‘ishlab kelmoqda.

Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari o‘rnatilgani, Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, “Amir

Temur” ordeni ta’sis qilingani, yurtimizdagi ko‘plab ko‘cha va xiyobonlarga ulug‘ ajdodimiz nomi berilganini alohida qayd etish lozim.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat istiqloliga aylandi. U buyuk zot ruhi bizga hamrohu hamnafas bo‘lib bormoqda. Mustaqil O‘zbekistonimizda har yili Amir Temur bobomizning tavallud kuni ko‘taringki ruhda keng nishonlanadi. Uning buyuk siymosi ajdodlarimiz madaniy-ma’rifiy yutuqlarini teran anglashda iymon-oqibatli bo‘lishda, ulkan ishlarni amalga oshirishda, mustaqilligimizni yanada mustahkamlashda bizga kuch-quvvat hamda shijoat bag‘ishlab turibdi. “Biz yashab turgan shu muqaddas zamindar – degan edilar birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, Amir Temur haykali ochilishida – Butun olamni tebratgan, nomi yeti iqlimga mashhur bo‘lgan ulug‘ bobokalonimiz Amir Temur yoshligidan boshlab o‘z oldiga ona yurtini mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadining sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi, mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko‘tarib, dunyoga mashhur qildi”.

Temur zamonasida o‘g‘il bolalar uchun boshlang‘ich ma’lumot beradigan diniy maktablar keng tarqalgan edi. Bu maktablar an’anaga ko‘ra masjidlar qoshida va xususiy uylarda o‘qimishli kishilar (domla, imomlar) tomonidan ochilar edi.

Maktablarda masjid imomlari yoki azonchilar dars berar edilar. Aholi gavjum bo‘lgan shaharlarda maktablar maxsus maktabdorlar tomonidan ochilgan. Ko‘chmanchi va chorvador aholi orasida maktablar asosan bahor va yoz oylarida ochilardi. Bunday maktablarda masjid imomlari yoki madrasa toliblari o‘zlarining iqtisodiy ahvollarini yaxshilash maqsadida o‘qituvchi bo‘lib ishladilar. Shahar maktablarida o‘quvchilar soni 20-30 ta, qishloq maktablarida esa 10-15 ta, ayrim hollarda undan ham oz bo‘lar edi.

Maktab o‘quvchilarining yoshlari turlicha bo‘lgan. Unda 5 vaqt namoz o‘rgatilgan. Maktablarda arab alifbosida o‘quvchilarning savodlari chiqarilgach, “Xaftiyak”, “Qur’on” kitobining 7 dan 1 qismi materiallari tanlab olinib, u Eron, fors va tojik tilida tayyorlanar edi, bu-kitobda ko‘proq diniy marosimlarda o‘qiladigan qur’on oyatlari jamlangan bo‘lib, o‘rganishga 2-3 yil vaqt ketardi. Haftiyakdan so‘ng “Chor kitob” va So‘fi Olloyorning hikmatlari o‘qitilgan.

Maktba aniq o‘quv dasturiga ega bo‘lmagan. O‘quvchilar yakka-yakka tartibda o‘qitilgan. Sinfdan-sinfga ko‘chirish o‘quvchilarning ota-onalari berib turadigan “sovg‘a” larga bog‘liq bo‘lgan. Maktbaga qabul qilishning aniq vaqti bo‘lmagan. Maktabga o‘quvchilar kichik va katta guruhlarga ajratilib o‘tilgan. Kichik guruh o‘quvchilari “Qur’on” oyatlarni o‘qishi bilan chegaralanar edi. Katta guruh o‘quvchilari o‘zlashtirayotgan bilimlaridan tashqari *Islom* dining asoslarini tashviqot qilish bilan shug‘ullanganlar. Bu bilan birga, ular fors shoiri Hofiz va Sa’diy Sheroziyning g‘azallaridan yod olishgan. Maktab o‘quv dasturlari o‘quvchilarning ota-onalari bilan maktab o‘rtasidagi kelishilgan shartnoma asosida tuzilgan. Maktab ta’lim mazmuni o‘quvchi (domlaning) bilim saviyasi va mahoratiga bog‘liq bo‘lgan.

**ASOSIY QISM**

Maktabda darslar yakka tarzda olib borilgan. Har bir o‘quvchining o‘quv mavzusi yoki biror kitobni tugatganlarida o‘qituvchi diniy rasm-rusumlarga amal qilgan holda mashq qildirgan. Eng kichik o‘quvchilar ham namoz va ibodat qilishga o‘rgatilgan. Maktabda darslar to‘xtatilgan holda diniy bayramlar nishonlangan. Masalan: Navro‘z, Ramazon hayitlari hamisha nishonlanib kelingan.

Demak, bolalar milliy va diniy an’analar ruhida tarbiyalanardi. Milliy urf-odatlar to‘g‘ri tushunish o‘quvchilarning o‘z millatiga bo‘lgan hurmatini yanada oshirardi. Maktabda bolalarni qo‘rqitish yo‘liga qo‘yilgan edi. O‘quvchilar o‘qituvchilardan tez-tez diniy qonunlarni buzganliklari uchun, narigi dunyodagi hayotga shafqatsiz jazoga mahkum bo‘lishi haqidagi qo‘rqinchli xabarni eshitib turishardi.

Qo‘rqitish maqsadida ko‘p maktablarda jismoniy jazo keng yo‘lga qo‘yilgan. Mashg‘ulotlar kun chiqishi bilan boshlanib, tushlikkacha davom etardi. Tushlikdan so‘ng bolalar yana shug‘ullanishga kelishardi. Ayrimi maktablarda ertalabgacha o‘qitilardi. Ertalabki nonushtagacha yana bir marta tanaffus bo‘lardi.

Bolalar bir kitob ustida soatlab shug‘ullanishardi. O‘qituvchi harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulotlar tashkil qilmas edi. Maktab estetik tarbiya, ya’ni muzika, ashula aytish, rasmchilik kabi, tarbiyalarni bilmas edi. Shunday qilib, Turkiston maktablari har qanday ko‘rgazmali qurollarga ega emas edi. Natijada bu maktabni bitirganlar mexanik ravishda o‘qitilardi xolos, lekin arab tilining asl ma’nosiga tushunmasdilar.

Musulmon diniy maktablari bolalar maktabiga ayollar maktabiga bo‘lingan edi. Ma’lumki, Markaziy Osiyoning ko‘p shaharlarida qizlar uchun bir necha boshlang‘ich diniy maktablar mavjud edi. Bunday maktablar, odatda, o‘qituvchining uyida bo‘lar edi. O‘qituvchi esa otin bibi deb atalar edi. U qizlarga arab tilini o‘rgatardi. Umumiy maktablar sonining 4-1 qismi qizlar maktabiga to‘g‘ri kelardi. Otin bibi har bir o‘quvchidan boshqa maktablardagidan ko‘p haq olardi. Qizlar maktabda arab matnlari, ya’ni Qur’on ustida ham shug‘ullanishardi.

***Qorixonalar:*** Qorihona katta yoshdagi kishilarni boshi rahbarligi ostida Qur’onni ovoz chiqarib o‘qish bilan uni yod oldiradigan bilim maskani hisoblangan. Qoriboshilar Qur’onni mozor va qabristonlarda o‘qib pul ishlaganlar. Qorixonada odamlar soni o‘rtacha 10 tadan ham kam bo‘lgan. Kimda-kim madrasada o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lsa, ularga yordam berilgan.

***Dalaixona***: Dalaixona qorixona bilan xil moddiy bazaga ya’ni vaqf mulkiga ega edi. Dalaixonada ko‘pgina katta yoshdagi kishilar XV asrda tuzilgan payg‘ambar Muhammad va uning diniy qasidalari to‘plami “Dalaixayrat” ni yod olganlar. Shu to‘plamni yod olish uchun sal kam bir yil kerak edi. Dalixonalarda oilali kishilar ham o‘qishar edilar. Ular shu dalaixonlarga kelib domladan topshiriq, olib ketishar va uni uyda tayyorlab ma’lum vaqtda uni topshirar edilar. Xonliklar davrida dalaixonalar Toshkentda, Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Xivada ishlab turgan.

***Madrasa***: Amir Temur davrida madrasalar – oliy o‘quv yurti vazifasini o‘tagan. Madrasalar diniy va keyinchalik dunyoviy bilimlar o‘chog‘i, tafakkur gulshani, kadrlar tayyorlash maskani edi. Madrasalarda mamlkatning eng atoqli donishmandlari, shayxlari, ulamo olimlari mudarrislik qilishgan, ma’ruzalar o‘qishgan.

Temuriylar, davrida madrasalar O‘rta Sharq arxitekturasi rejasiga binoan ko‘rkam qilib qurilgan.

***Madrasa boshqarmasi:*** Poytaxt shaharlardagi asosiy madrasalarga Temur va Temuriylar asos solgan edilar. Madrasalar va uning hayoti yuzasidan umumiy nazorat olib darajadagi diniy shaxs-shayx ul Islom va qozilar tomonidan olib borilsa, alohida tekshiruv-ya’ni o‘quv va xo‘jalik ishlari bo‘yicha nazorat mutavalli boshiga topshirilgan edi. Mutavali boshining vazifasi tumanlardagi madrasalar ishlarini nazorat qilish bo‘lgan madrasa boshida yirik musulmon voizi, mudarrisi barcha o‘quv predmetlari bo‘yicha beriladigan bilimlarga rahbarlik qiluvchi shaxs turgan. Mudarris faqat o‘quv ishlari bo‘yicha javob bergan. Mudarris va mutavali saylovi hukumat rahbarlari tomonidan olob borilgan. Agar nomzod hukumdorga ma’lum bo‘lmasa unda bu nomzodni qozilar va bir necha o‘qimishlilar tomonidan imtihon qilingan. Shu asnoda mudarrislar ham ishdan bo‘shatilgan.

**XULOSA**

Amir Temur buyuk sarkarda. Sohibqiron Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullarning 150 yillik hukumronligini tugatib, buyuk davlat tuzgan va uni dunyoga tanitgan. U Movaraunnahrda fan va madanoyatni ravnaq toptirgan. Shuning uchun amir Temurni dunyo e’tirof etmagan qirollari shoh yokisultonlari bo‘lmasa kerak. Angliya, Olmoniya va Fransiya qiorollari XV asrdayoq “Amir temur muzeyi”ni tashkil etganlar. Fransiya qiroli Temurning oltin haykalchasini yartagan uning shaxsini, tarix oldidagi xizmatlarini e’tirof etish timsolidir.

Faqatgin asobiq ittifoqda Amir temurning tarix oldidagi xizmatlari tan olinmadi. Nafaqat tan olinmadi, balkui uning shaxsi va xizmatlari qoralandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Amir Temur va uning dunyo tarixi oldidagi xizmatlariga obyektiv baho berila boshlandi. Respublikamizda Amir Temurga bag‘ishlangan asarlar Sohibqironning “Tuzuklari”, “O‘git-nasihatlari” tarjimai holiga bag‘ishlangan kitoblari chop etilmoqda. Kino va teatrlarda Temur haqidagi assarlar namoyish etilmoqda. Ko‘plab anjumanlar, kechalar o‘tkazilmoqda. Ayniqsa YUNESKO doirasida Parijda 1996-yil aprelda “Temuriylar davrida fan va madaniyati va maorifning ravnaqi” mavzusidagi muzeyning ochilishi va xalqaro anjumanning o‘tkazilishi, unda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning qilgan ma’ruzasi Sohibqironning dunyo xalqlari oldidagi xizmatlarini e’tirof etishda katta voqea bo‘ldi.

Darhaqiqat, davkatchilikda, xalqaro aloqa munosabatda, harbiy sohada hokimiyatni boshqarishda, mamlakatda fan, madaniyat maorifni tashkil etishda va rivojlantirishdagi temuriylar merosini tadqiq qilish shu kunning muhim muammolaridan biridir. Bu muammolardan biri: temuriylar davrida maktab va pedagogik fikrlarni o‘rganish va tahlil qilish. Bizning bu muammoni tadqiq qilish sohasidagi umumiy xulosalarni keltirib chiqarishga asos bo‘ldi:

7. Amir Temur renessans davri fani, madaniyat va pedagogikasini yana rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asarlari yaratildi. Bundan islom dini, Muhammad payg‘ambar avlodlari-sayyidlar, tasavvuf olimlari haqida dunyoviy fanlar asarlaridan keng foydalanishgan.

8. Amir Temurning shaxsan tashabbusi va say-harakatlari bilan saroyda dunyoning atoqli ilmiy va dunyoviy olimlarining to‘planishi, ularning ilmiy kashfiyotlar qilishi, mamlakatda tashkil etilgan kutubxonalar, rasadxonalar, madrasalar, shahzodalar, amrzodalar uchun tashkil etilgan turlicha tipdagi maktablar va tarbiya muassasalari maktabda va pedagogik fikrlarning asosi bo‘lib xizmat qildi.

9. Temur tuzuklari va o‘git-nasihatlari yosh avlodlarni tarbiyalash metodik asoslari bo‘lib xizmat qildi. Ular Movarounnahr pedagogikasi darajasidagi tarbiya kitob edi.

10. Temuriylar davrida shahzoda va amirzodalar uchun alohida maktablar ochilib, unda davlatni boshqarish, moliyaviy ishlarni olib boorish, tashqi davlatlar bilan diplomati aloqalar, harbiy ishlar o‘rgatilgan. Saroyda “Suluk-ul-muluk” (Podsholar qo‘llanmasi) kitobi asosida mashg‘ulotlar olib borilgan.

11. Shahzodalar tarbiyasi bilan qissaxonalar, atqalar-bolalarning dastlabki murabbiylari shug‘ullanishgan. Ular tarixiy, adabiy, harbiy tarbiyaga oid bilimlar, rivoyatlar, jangnomalardan ma’lumot berib, yoshlarni qahramonlikka, botirlikka, o‘tkir zehnlikka o‘rgatganlar, axloqiy tarbiya bilan shug‘ullanganlar.

12. Oila tarbiyasiga katta e’tibor bergan. Ota-onaning bola tarbiyalashdagi roli nihoyatda oshirilgan. Oila tarbiyasida islomiy bilimlar merosimizdan, urf-odatlarimizdan keng foydalanilgan.

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 2026-yil 5-fevral, PQ-46-son

7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq. 1998-yil

8. Karimov I.A. Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz. T. “O‘zbekiston”. 1998-yil

9. J.Xasanboyev. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2006

10. Ibrohim Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni. T. “Fan”. 1993-yil.

11. L.Keren, ASaidov. Amir Temur va Fransiya. T. “Adolat”. 1996-yil

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJI.

**Navoiy davlat universiteti Texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi**
**Ismoyilov Diyorbek Bektemir o‘g‘li**
**Texnologik ta’lim kafedrasi talabasi**
**Temirova Anora Komil qizi**

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk sarkarda Amir Temurning hayoti, uning davlat boshqaruvidagi faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, adabiyot, me’morchilik va san’atning rivojlanishi yoritiladi. Bu davrda Mirzo Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi ilmiy ishlari, Alisher Navoiyning adabiyotga qo‘shgan hissasi hamda, Samarqandning yirik ilmiy-madaniy markazga aylangani alohida ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar.** Amir Temur, Temuriylar davlati, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, ilm-fan, madaniyat, astronomiya, Samarqand, me’morchilik, Temuriylar uyg‘onish davri.

Amir Temur 1336-yil 9-aprel Kesh qadimgi Movronaxrda (hozirgi O‘zbekiston) mog‘ul qabilasiga tug‘ulgan. Amir Temur davlat arbobi buyuk sarkarda qo‘mondon markazlashgan davlat asoschisi. Eron Mesopatamiya, Xuroson, Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo hududlarini o‘z ichiga olgan. Temuriylar davlatiga asos solgan hamda Temuriylar sulolasining birinchi hisoblanadi. Amir Temur davlat boshqaruv sohasida juda ko‘p yutuqlar erishgan. Amir Temur bir qator harbiy yurishlarni amalga oshirib Oltin O‘rda xonlarini Misr va Suriya mamlakatlarini yuksalib o‘sib borayotgan usmonli imperiyasini shu bilan birga Hindistondagi Dehli sultonligini mag‘lub etgan va shu tariqada Islom olamidagi eng qudratli hukmdorga aylanadi. Temuriylar saltanatining barpo

etilishiga sabab bo‘ldi. Amir Temur o‘zini Islom qilichi deb atagan hukmdorligining oxiriga kelib Temur Chig‘atoy ulusi Hulokuiylar davlati va Oltin O‘rdaning barchasining ustidan to‘liq nazorat yuritib Xitoyni Yuan sulolasini qayta tiklashga urinadi. Amir Temurga qarshi Xorazm o‘lkasi bir necha bor isyon ko‘targan. Amir Temur Xorazmga besh marotaba yurish qilgan. Temuriylar davrida ilm-fan taraqiyoti juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bu davrda o‘sha zamonning ilmiy madaniy va texnikaviy rivojlanishi yuqori bosqichga ko‘tarilgan.

Astronomiya, matematika fanlari Temuriylar davrida juda yuksaladi va katta yutuqlarga erishiladi. Temuriylar davrida Mirzo Ulug‘bek Samarqandagi o‘sha davrning eng ilg‘or astronomik asboblari bilan turli astronomik kuzatuvlar olib bordi. Natijada esa o‘zining “Ziji Ulug‘bek” asarini yaratishga bo‘ladi. Ulug‘bekning astronomik kuzatuvida asosiy nazariyasi yulduzlarning aniq kordinatalarini va ulkan astranomik jadvalini yaratishda amalga oshiradi. Temuriylar davrida fanlar bilan birga tibbiyot ham rivojlangan. O‘rta asrlardagi davrda olimlarning ish olib borishida Abu Ali Ibn Sinoning asarlaridan foydalanilgan. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” yani Al -Qanun fil tib asari davlatning tibbiyot sohasida yuksalishiga katta tasir ko‘rsatgan. Adabiyot va falsafa sohalari ham rivojlanadi. Alisher Navoiy o‘zining asarlari bilan adabiyot tarixida yangi bir davr boshlab beradi. San’at va arxitekturada Temuriylar davrida Samarqand zamonning ilmiy va madaniy markaziga aylangan. Ulug‘bek madrasasi, Registon maydoni, Shoxi Zinda kabi yodgorliklar va memorchilik inshoatlari bu davrning ulkan yutuqlaridan biri hisoblanadi. Temuriylar davrida minatyura naqqoshlik kabi san’at turlari xam rivojlanadi va butun islom dunyosida mashhur bo‘ladi. Temuriylar o‘z davrining tarixini o‘rganib ko‘plab asarlar yaratgan. Zafarnoma asari o‘zining tarixiy va badiy qiymati bilan juda ham mashhur va hozirda ham bu asar asrlardan o‘tib yoshlarimiz qo‘llarida qunt bilan o‘rganilib qiziqish bilan o‘qib kelinmoqda.

Temuriylarning maqsadi ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish edi. Samarqandda ko‘plab ilmiy savdo markazlari tashkil etadi va bu markazda turli joylardan olim va savdogarlarni o‘ziga chorlaydi. Temuriylar davrida bir qator ixtirolar texnologik yangiliklar yuzaga olib chiqishadi. Ulardan Ulug‘bekning astronomik kuzatuvidagi ilg‘or usullar yangi navigatsiya asboblar texnologiyaning yuksalishini ko‘rsatadi Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi nafaqat Markaziy Osiyo balki butun Islom dunyosida hatto Yevropaga ham ta’sir qiladi. Temuriylar davlatining ilm-fanga bo‘lgan yuksak e’tibori davlat siyosatining ajralmas qismi edi. “Ravzat us-safo” asarida bu aniq namoyon bo‘ladi. Madaniy va ilmiy faoliyatga bo‘lgan bu yondoshuvning asosiy sabablardan biri Temuriylar hukmdorlari o‘zlarining qudratini va ta’sirini faqat harbiy sohada emas, balki ilmiy madaniy sohada ham kengaytirish niyati bo‘lgan. Amir Temur bir necha tillarda jumladan, hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillining ajdodi bo‘lgan mo‘g‘il va fors tillarini bilgan. Amir Temur uyg‘onish davrining asoschisi san’atining buyuk homiysi bo‘lgan.

Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirilgan islohotlari o‘z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo‘lishiga olib kelgan. Bugungi kunda kundan- kun gullab yashnab borayotgan Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga ishonchini yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasidan chuqur o‘rganip amalda foydalanilayotganining isboti sifatida ko‘rish mumkin. Zero Prezdentimiz Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryodagi tashriflarida takidlaganlaridek, “Imkon bo‘lishi bilan kitob o‘qishga harakat qilaman. O‘sha kuni 1soatcha bo‘sh vaqtim paydo bo‘lip qolgandi, Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasida jang tarixini o‘qidim. Buyuk sarkardamiz qanday g‘alaba qozongani menga juda qiziq edi. To‘xtamishxon ham osonlikcha yutqazmagan ekan, bunda Amir Temur bobomizning yuksak harbiy taktika va strategiyasi, dovyurakligi ish bergan. O‘zimga yozvoldim, Amir Temur jangda 7ta usulni qo‘llagan ekan”[163] deydi Prezdent Shavkat Mirziyoyev Sohibqironning harbiy mahorati haqida.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda va markazlashgan davlat asoschisi sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining kuchli harbiy strategiyasi va dono siyosati orqali yirik saltanat barpo etib, davlatni mustahkamlashga erishgan. Amir Temur nafaqat harbiy sohada, balki davlat boshqaruvi, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga ham katta e’tibor qaratgan.

Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik yuksak darajada rivojlandi. Mirzo Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi ilmiy ishlari, Alisher Navoiyning adabiyotdagi ulkan merosi hamda, Samarqand va boshqa shaharlarda bunyod etilgan madaniy obidalar bu davrning buyuk yutuqlaridan hisoblanadi. Shu sababli Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning boy merosi bugungi kunda ham katta qadriyat sifatida e’tirof etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Mirxond. Ravzat us-safo. – Toshkent: Fan, 2003.
3. Ahmedov B. Amir Temur saboqlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
4. Nematov A. Sarkarda Amir Temur hayoti va faoliyati. – Samarqand: Ma’naviyat, 2015.
5. Tolipov Sh. Samarqand – Temuriylar madaniyat markazi. – Toshkent: Sharq, 2011.
6. Alimov M. Mirzo Ulug‘bek va astronomiya tarixi. – Toshkent: Fan, 2009.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA BUGUNGI AHAMIYAT

**Xakimova Dildoraxon To‘lqinjon qizi**
**Ilmiy rahbar: Ziyavutdinova Xumoraxon Shermamatovna**
**Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi**
***Historian210904@gmail.com***

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqolada Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni, uning davlat boshqaruvi tamoyillari hamda markazlashgan davlat barpo etishdagi siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi diplomatik va savdo aloqalaridagi roli yoritiladi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti, xususan, Mirzo Ulug‘bek faoliyati misolida Sharq Uyg‘onish davrining o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida II Renessans mutafakkirlari merosini o‘rganishning ahamiyati ham asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Amir Temur, davlatchilik, markazlashgan davlat, Temur tuzuklari, diplomatiya, Markaziy Osiyo, Yevropa hamkorligi, temuriylar davri, ilm-fan, madaniyat, II Renessans, Mirzo Ulug‘bek, Yangi O‘zbekiston.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье анализируется роль Амир Темура в истории узбекской государственности, его принципы государственного управления и политическая деятельность по созданию централизованного государства. Освещается вклад Амир Темура в развитие дипломатических и торговых связей между Центральной Азией и Европой. Также рассматривается развитие науки и культуры в эпоху Тимуридов, в частности научная деятельность Mirzo Ulug‘bek как представителя Восточного Ренессанса. Обосновано значение изучения наследия мыслителей Второго Ренессанса в условиях Нового Узбекистана.*

**Ключевые слова**: *Амир Темур, государственность, централизованное государство, Темуровские уставы, дипломатия, Центральная Азия, сотрудничество с Европой, эпоха Тимуридов, наука, культура, Второй Ренессанс, Мирзо Улугбек, Новый Узбекистан.*

**ABSTRACT:** *This article analyzes the role of Amir Temur in the history of Uzbek statehood, his principles of governance, and his political activity in establishing a centralized state. It highlights his contribution to diplomatic and trade relations between Central Asia and Europe. The development of science and culture during the Timurid period is examined, particularly through the scientific legacy of Mirzo Ulug‘bek as a prominent representative of the Eastern Renaissance. The importance of studying the heritage of the Second Renaissance thinkers in modern Uzbekistan is also emphasized.*

**Keywords:** *Amir Temur, statehood, centralized state, Temur’s Code, diplomacy, Central Asia, European cooperation, Timurid period, science, culture, Second Renaissance, Mirzo Ulugbek, New Uzbekistan.*

O‘zbek davlatchiligi tarixida Amir Temur va temuriylar davri muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr siyosiy barqarorlikka erishish, markazlashgan davlatni shakllantirish va jamiyat hayotining turli sohalarida muayyan tartib o‘rnatilishi bilan ajralib turadi[164]. Amir Temur faoliyati ko‘pincha harbiy yurishlar bilan bog‘lab talqin qilinadi, biroq uning asosiy e’tibori davlatni mustahkamlash, boshqaruv tizimini takomillashtirish va ijtimoiy tartibni ta’minlashga qaratilgan edi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida siyosiy parokandalik kuchli bo‘lgan. Mahalliy hukmdorlar o‘rtasidagi nizolar, markaziy hokimiyatning zaifligi mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Ana shunday murakkab sharoitda Amir Temur hokimiyatni qo‘lga olib, davlatni markazlashtirish siyosatini olib bordi. U boshqaruvda qat’iy intizomni joriy etib, mansabdor shaxslarning mas’uliyatini kuchaytirdi[5;14b].

Amir Temurning davlat boshqaruvi tajribasi “Temur tuzuklari” asarida o‘z aksini topgan. Ushbu asarda davlatni idora etish, harbiy tuzilma, soliqlar tizimi, yer munosabatlari va jamiyatdagi tartib-qoidalar bayon qilingan. Bu hujjat o‘sha davr uchun muhim boshqaruv qo‘llanmasi vazifasini bajargan. Unda adolat, qonun ustuvorligi va davlat manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Amir Temur tashqi siyosatda ham faol bo‘lgan. U Markaziy Osiyo bilan cheklanib qolmay, Yevropa va Sharq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Tarixiy manbalarda uning Yevropa hukmdorlari bilan elchilar almashgani qayd etiladi. Ushbu munosabatlar savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash va siyosiy manfaatlarni himoya qilishga xizmat qilgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali olib borilgan savdo iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Amir Temur asos solgan davlat uning vafotidan keyin ham temuriylar tomonidan davom ettirildi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Hukmdorlar ilm ahliga sharoit yaratib, madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar faoliyatini qo‘llab-quvvatladilar. Natijada bu davrda ko‘plab olimlar va mutafakkirlar yetishib chiqdi. Mirzo Ulug‘bek temuriylar davrining eng yirik ilmiy namoyandalaridan biri hisoblanadi. U Samarqandda rasadxona qurdirib, astronomiya sohasida muhim tadqiqotlar olib bordi. Uning “Ziji Ko‘ragoniy” asari nafaqat Sharqda, balki Yevropada ham ilmiy manba sifatida tan olingan. Bu holat temuriylar davridagi ilm-fan rivojining yuqori darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, temuriylar davrida me’morchilik va san’at ham rivojlandi. Samarqand, Buxoro va Hirot shaharlarida bunyod etilgan inshootlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ushbu obidalar o‘sha davr madaniy muhitini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Amir Temur va temuriylar davri merosini o‘rganish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Tarixiy tajriba jamiyatda davlatchilik an’analarini mustahkamlash, yosh avlodda tarixiy xotira va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois ushbu merosni ilmiy asosda o‘rganish va targ‘ib etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tarixiy merosdan oqilona foydalanish bugungi islohotlar jarayonida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Amir Temur davridagi boshqaruv tajribasi, ilm-fanga bo‘lgan munosabat va davlat manfaatlarini ustuvor qo‘yish tamoyillari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Amir Temur va temuriylar davri merosi o‘zbek davlatchiligi tarixining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu davrda shakllangan siyosiy, ilmiy va madaniy tajriba bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy merosni chuqur va xolis o‘rganish jamiyat rivoji uchun zarur shartlardan biridir. Temur davlat boshqaruvida aniq ierarxik tizimni joriy etdi. Har bir mansabdor shaxsning vazifasi belgilangan, mas’uliyati qat’iy nazorat qilingan. “Temur tuzuklari” asarida davlatni boshqarish, qo‘shin tuzilishi, soliqlar va yer munosabatlari kabi masalalar batafsil bayon etilgan. Bu esa uning davlat arbobi sifatidagi uzoqni ko‘ra bilish qobiliyatini namoyon etadi.

Sohibqironning asosiy maqsadi kuchli markazlashgan davlat barpo etish va uning hududiy yaxlitligini ta’minlash edi. U o‘z zamonasida tartib-intizomni ustuvor qo‘ygan holda, qonun ustuvorligini ta’minlashga harakat qildi. Shu bois Amir Temur nomi nafaqat buyuk sarkarda, balki yirik davlat arbobi sifatida ham tarixda qoldi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlatchilik an’analarini mustahkamlash jarayonida tarixiy tajribaga murojaat etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi tarixiy merosni asrash va o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqda.

[164] *Ahmedov B.A. Temuriylar davlati tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.*

Amir Temurning Markaziy Osiyo va Yevropa hamkorligidagi roli. Amir Temur o‘z davrida nafaqat Markaziy Osiyo, balki keng hududlarni qamrab olgan siyosiy maydonda faoliyat yuritdi. Uning diplomatik aloqalari Sharq va G‘arb o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Xususan, Amir Temur Yevropa davlatlari bilan diplomatik yozishmalar olib borgan. Bu aloqalar savdo-sotiq, siyosiy hamkorlik va o‘zaro manfaatlar asosida yo‘lga qo‘yilgan. Tarixiy manbalarda Sohibqironning Yevropa hukmdorlari bilan elchilar almashgani qayd etiladi. Bu esa o‘sha davr uchun muhim diplomatik qadam bo‘lgan. Temuriylar davlati Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlashga ham katta e’tibor qaratgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlangan. Natijada Markaziy Osiyo hududi xalqaro savdo va madaniy almashinuv markaziga aylangan. Shunday qilib, Amir Temur o‘z davrida mintaqalararo hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan, diplomatiya va savdo orqali davlat manfaatlarini himoya qilgan siyosiy arbob sifatida namoyon bo‘ladi.

Temuriylar davrida ilm-fan va madaniy hayot. Temuriylar davri ko‘pincha Sharq Uyg‘onish davri sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, me’morchilik va san’at yuksak darajada rivojlandi. Sohibqiron va uning avlodlari ilm ahli va san’atkorlarni qo‘llab-quvvatlagan. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. U nafaqat hukmdor, balki buyuk olim sifatida ham tanilgan. Samarqandda bunyod etilgan rasadxona o‘sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri edi[5;27b].. Uning “Ziji Ko‘ragoniy” asari astronomiya fanida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, temuriylar davrida adabiyot va san’at ham ravnaq topdi. Me’morchilik sohasida bunyod etilgan obidalar bugungi kungacha o‘zining ulug‘vorligi bilan ajralib turadi. Bu davr ilm-fan va madaniyatning uyg‘un rivojlanishi bilan ajralib turadi. Temuriylar davridagi ilmiy va madaniy yuksalish keyingi asrlarda ham mintaqa taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Yangi O‘zbekistonda II Renessans mutafakkirlari merosining o‘rganilishi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida tarixiy merosni chuqur o‘rganish va targ‘ib etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. II Renessans davri mutafakkirlari – temuriylar davrida yashab ijod qilgan olim va adiblar merosi keng o‘rganilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar va madaniy tadbirlar orqali tarixiy meros yosh avlodga yetkazilmoqda. Bu jarayon milliy g‘urur va tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Amir Temur va temuriylar davri merosini chuqur o‘rganish bugungi taraqqiyot yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixiy tajriba va ma’naviy meros jamiyatning ma’naviy tayanchidir.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki kuchli davlat asoschisi, uzoqni ko‘ra bilgan siyosatchi va ilm-fan homiysi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Uning davlatchilik tajribasi, diplomatik faoliyati va madaniy siyosati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Temuriylar davrida yuzaga kelgan ilmiy va madaniy yuksalish mintaqa tarixida muhim bosqich bo‘lib, bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ham ma’naviy asos vazifasini o‘tamoqda. Shunday ekan, “Amir Temur va hozirgi zamon” mavzusi nafaqat tarixiy, balki dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. *Amir Temur Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.*
2. *Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.*
3. *Mirzo Ulug‘bek. Ziji Ko‘ragoniy. – Toshkent: Fan, 1994.*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O‘zbekiston tarixi. 1–2 jildlar. – Toshkent: Fan, 2018.*
5. *Ahmedov B.A. Temuriylar davlati tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.*
6. *Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.*
7. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1–12 jildlar. – Toshkent, 2000–2006.*
8. *Temuriylar davri madaniyati va san’ati: ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2019.*
9. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari. – Toshkent, 2022.*
10. *Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar. – Toshkent, 2021.*

# AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA LIDERLIK PSIXOLOGIYASI O‘ZBEK DAVLATCHILIGI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK OMILLARI

**University of business and science**
**Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qtuvchisi**
**Jurayev Xaydarjon Odilboyevich**
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-2585-8439

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada Amir Temur shaxsiyati va liderlik psixologiyasi tahlil qilinadi. Temurning davlatchilikdagi o‘rni, boshqaruv uslublari va psixologik omillari zamonaviy liderlik nazariyalari bilan solishtiriladi. Tadqiqotda Temur shaxsining xarizmatik, strategik va transformatsion liderlik fazilatlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi psixologik muhit nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ulug‘bekning ilmiy merosi “ilmiy tafakkur psixologiyasi” sifatida, Alisher Navoiyning ijodi esa “ijodiy motivatsiya” sifatida talqin qilinadi. Maqola zamonaviy liderlik psixologiyasi uchun Temur tajribasining dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, liderlik psixologiyasi, davlatchilik, xarizmatik liderlik, strategik fikrlash, transformatsion liderlik, psixologik muhit, ilmiy tafakkur.

## ЛИЧНОСТЬ АМИРА ТЕМУРА И ПСИХОЛОГИЯ ЛИДЕРСТВА ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ФОРМИРОВАНИИ УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается личность и лидерская психология Амира Темура. Анализируется его роль в формировании узбекской государственности, управленческие методы и психологические факторы, сопоставляемые с современными теориями лидерства. Особое внимание уделяется харизматическому, стратегическому и трансформационному лидерству в деятельности Темура. Также исследуется психологическая среда эпохи Тимуридов, где развитие науки и культуры способствовало формированию творческой мотивации и когнитивного мышления. Научное наследие Улугбека интерпретируется как «психология научного мышления», а творчество Алишера Навои как «психология творческой мотивации». Статья подчеркивает актуальность опыта Темура для современной психологии лидерства.

**Ключевые слова:** Амир Темур, психология лидерства, государственность, харизматическое лидерство, стратегическое мышление, трансформационное лидерство, психологическая среда, научное мышление.

## AMIR TEMUR’S PERSONALITY AND LEADERSHIP PSYCHOLOGY PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF UZBEK STATEHOOD

**Abstract :** This article explores the personality and leadership psychology of Amir Temur. It analyzes his role in the formation of Uzbek statehood, his governance methods, and the psychological factors that align with modern leadership theories. Temur’s charismatic, strategic, and transformational leadership qualities are examined in detail. Furthermore, the psychological environment of the Timurid era is discussed, highlighting the development of science and culture as sources of creative motivation and cognitive awakening. Ulughbek’s scientific legacy is interpreted as the “psychology of scientific thinking,” while Alisher Navoi’s literary works are viewed as the “psychology of creative motivation.” The article emphasizes the relevance of Temur’s experience for contemporary leadership psychology and its application in modern governance and social psychology.

**Keywords:** Amir Temur, leadership psychology, statehood, charismatic leadership, strategic thinking, transformational leadership, psychological environment, scientific thinking.

## KIRISH

Amir Temurning shaxsiy fazilatlari psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, u xarizmatik lider sifatida namoyon bo‘ladi. Xarizmatik liderlik nazariyasiga ko‘ra, bunday shaxslar o‘z atrofidagilarga ruhiy ta’sir ko‘rsatish, ularni maqsad sari birlashtirish va motivatsiya berish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Temur o‘zining qat’iyati, iroda kuchi va strategik fikrlashi bilan nafaqat lashkarini, balki butun xalqni ruhlantira olgan. Shuningdek, Temurning boshqaruv uslublarida **psixologik moslashuvchanlik** alohida o‘rin tutadi. U qaror qabul qilishda maslahatlashuv va jamoaviy fikrga tayanishi orqali kollektiv psixologiyani mustahkamladi. Bu esa davlat boshqaruvida ijtimoiy ishonch

va birdamlikni kuchaytirgan. Temur tuzuklarida belgilangan tamoyillar adolat, intizom, maslahatlashuv va xalq manfaatini ustuvor qo‘yish zamonaviy psixologiyada “transformatsion liderlik” nazariyasi bilan uyg‘unlashadi. Transformatsion liderlikda lider jamiyatni o‘zgartirish, yangi qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy tizimni mustahkamlash orqali xalqni rivojlanishga yetaklaydi.

Psixologik jihatdan qaralganda, Amir Temur o‘z davrida **motivatsiya nazariyalarini amalda qo‘llagan**: mukofot va jazolash tizimi, intizomni mustahkamlash, xalqni maqsad sari yo‘naltirish. Bu uslublar zamonaviy psixologiyada “behavioristik yondashuv” bilan bog‘liq bo‘lib, inson xulqini rag‘bat va jazolash orqali shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

**Nazariy asoslar**

**Xarizmatik liderlik nazariyasi** Temur o‘zining shaxsiy jozibasi, qat’iyati va iroda kuchi bilan xalqni ruhlantirgan. Xarizmatik liderlik nazariyasiga ko‘ra, bunday shaxslar o‘z atrofidagilarga kuchli ruhiy ta’sir ko‘rsatadi, ularda ishonch uyg‘otadi va maqsad sari birlashtiradi. Temurning xalq va lashkar ustidan ta’siri psixologik jihatdan “ruhiy mobilizatsiya” jarayonini ifodalaydi. **Strategik liderlik** Temur kelajakni ko‘ra bilgan, uzoq muddatli rejalarga asoslangan qarorlar qabul qilgan. Bu psixologik jihatdan “prognostik tafakkur” bilan bog‘liq bo‘lib, liderning vaziyatni oldindan ko‘ra olish qobiliyatini ko‘rsatadi. Temur o‘zining harbiy yurishlarida nafaqat kuchga, balki dushman ruhiyatini zaiflashtirishga qaratilgan psixologik strategiyalardan ham foydalangan. **Transformatsion liderlik** Temur jamiyatni o‘zgartirish, intizom va adolatni mustahkamlash orqali xalqni yangi bosqichga olib chiqqan. Transformatsion liderlik nazariyasida lider jamiyatni ruhiy va ijtimoiy jihatdan yangilashga qodir bo‘ladi.

Temur o‘z davrida ijtimoiy tartibni mustahkamlash, xalqni birlashtirish va yangi qadriyatlarni shakllantirish orqali transformatsion liderlikning psixologik modelini amalda ko‘rsatgan. **Psixologik moslashuvchanlik**, Temur qaror qabul qilishda maslahatlashuv va jamoaviy fikrga tayanishi orqali kollektiv psixologiyani mustahkamladi. Bu psixologik jihatdan “ijtimoiy kapital”ni shakllantirishga xizmat qilgan. **Motivatsiya nazariyalari bilan uyg‘unlik:** Temur mukofot va jazolash tizimini qo‘llagan. Bu zamonaviy psixologiyada behavioristik yondashuv bilan bog‘liq bo‘lib, inson xulqini rag‘bat va jazolash orqali shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. **Shaxs psixologiyasi nuqtayi nazaridan.** Bu psixologiyada shaxsning kuchli iroda va qat’iyat bilan bog‘liq bo‘lgan fazilatlari sifatida talqin qilinadi. Psixologik nuqtayi nazardan, Temurning liderlik fazilatlari zamonaviy nazariyalar bilan uyg‘unlashadi. Masalan, Max Weberning xarizmatik liderlik konsepsiyasi Temur shaxsiga mos keladi.

**Davlat boshqaruvida psixologik omillar Intizom-** Amir Temur lashkarida qat’iy intizom bo‘lgan. Bu intizom nafaqat tashkiliy tartibni, balki psixologik jihatdan askarlarning ruhiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Zamonaviy psixologiyada intizom “volitiv sifatlar” bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning iroda kuchi va o‘zini nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Temur intizom orqali lashkar ruhiyatini bir maqsad sari yo‘naltirgan. **Motivatsiya** - Mukofot va jazolash tizimi askarlarni maqsad sari yo‘naltirgan. Bu psixologik jihatdan behavioristik yondashuvga mos keladi, ya’ni inson xulqi rag‘bat va jazolash orqali shakllanadi. Temur mukofot orqali askarlarni ruhlantirgan, jazolash orqali esa intizomni mustahkamlagan. Bu tizim lashkar ruhiyatida “maqsadga yo‘naltirilgan motivatsiya”ni shakllantirgan. **Maslahatlashuv** - Temur qarorlarni olimlar va maslahatchilar bilan muhokama qilgan. Bu psixologik jihatdan “kollektiv fikr” kuchini ko‘rsatadi. Maslahatlashuv jarayoni ijtimoiy psixologiyada “gruppaviy qaror qabul qilish” mexanizmi sifatida izohlanadi. Bu jarayon Temur boshqaruvida ishonchni mustahkamlash va qarorlarning psixologik legitimatsiyasini ta’minlashga xizmat qilgan. **Jamoa psixologiyasi** - Temur lashkarida birlik va birdamlikni shakllantirgan. Bu psixologik jihatdan “ijtimoiy identifikatsiya” jarayoniga mos keladi. Lashkar o‘zini yagona jamoa sifatida his qilgan va bu ruhiy birlik ularning jangovar kuchini oshirgan. Temur jamoa psixologiyasini shakllantirishda ramzlar, shiorlar va umumiy qadriyatlarni qo‘llagan.

**Amir Temur shaxsining psixologik portreti Qat’iyat va iroda kuchi** Amir Temur o‘z qarorlarida qat’iy bo‘lgan. Bu psixologik jihatdan “volitiv sifatlar” bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning iroda kuchi, sabr-toqati va o‘zini nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Temur o‘zining qat’iyati bilan nafaqat lashkarni, balki butun xalqni maqsad sari yo‘naltira olgan. **Strategik fikrlash** Temurning harbiy g‘alabalari faqat kuch bilan emas, balki psixologik strategiya bilan bog‘liq bo‘lgan. U

dushman ruhiyatini zaiflashtirish, ularning psixologik holatini oldindan hisobga olish orqali g‘alabaga erishgan. Bu zamonaviy psixologiyada “prognostik tafakkur” va “strategik kognitiv yondashuv” sifatida talqin qilinadi. **Psixologik ta’sir kuchi** Temur xalq va lashkar ustidan ruhiy ta’sir o‘tkazgan. Bu psixologik jihatdan “liderning xarizmatik ta’siri” bilan bog‘liq. U ramzlar, shiorlar, diniy va ma’naviy qadriyatlarni qo‘llash orqali jamoa ruhiyatini mustahkamlab, ularni yagona maqsad sari birlashtirgan. **Shaxsiy fazilatlarning uyg‘unligi** Temur shaxsiyati psixologik jihatdan “liderning iroda kuchi” va “strategik tafakkur” bilan tavsiflanadi. Bu ikki sifatning uyg‘unligi uni nafaqat buyuk sarkarda, balki davlat arbobi sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirgan shaxsga aylantirgan. **Emotsional barqarorlik** Temur murakkab vaziyatlarda o‘zini tuta bilgan, hissiyotlarini nazorat qilgan. Bu psixologik jihatdan “emotsional intellekt” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, liderning o‘z hissiyotlarini boshqarishi va boshqalarning hissiyotlarini to‘g‘ri anglash qobiliyatini ko‘rsatadi. **Ijtimoiy ishonchni shakllantirish** Temur xalqni o‘z qarorlariga ishontira olgan. Bu psixologik jihatdan “legitimatsiya mexanizmi”ni ifodalaydi. Liderning qarorlari jamiyat tomonidan qabul qilinishi uning psixologik ta’sir kuchi va ijtimoiy ishonch darajasiga bog‘liq.

**Temuriylar davrida psixologik muhit** - Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va san’at yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda psixologik muhit ijodkorlik, motivatsiya va ilmiy tafakkur bilan boyitilgan. Ulug‘bekning ilmiy merosi psixologik jihatdan “ilmiy tafakkur psixologiyasi”ni ifodalaydi. Uning rasadxona faoliyati, yulduzlar jadvali va ilmiy izlanishlari o‘sha davr olimlari uchun kuchli intellektual motivatsiya manbai bo‘ldi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodi psixologik muhitda “ijodiy motivatsiya”ni shakllantirdi. Uning asarlari nafaqat adabiy, balki psixologik jihatdan ham xalq ruhiyatini ko‘tarib, ma’naviy birlikni mustahkamladi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi jamiyatda “kognitiv uyg‘onish” jarayonini yuzaga keltirdi. Bu jarayon psixologik nuqtayi nazardan inson tafakkurining kengayishi, ijodiy salohiyatning ortishi va motivatsiyaning kuchayishi bilan bog‘liq. Temuriylar davrida psixologik muhitning asosiy xususiyatlari, **ijodiy tafakkur**, olimlar va shoirlar ilmiy hamda badiiy ijodda yangi yondashuvlarni qo‘llagan. **Motivatsiya**, ilmiy izlanishlar va badiiy ijod jamiyatda ruhiy ko‘tarinkilikni shakllantirgan. **Ma’naviy birlik**, madaniyat va ilm-fan xalq ruhiyatini birlashtirgan, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlagan.

**Xulosa sifatida shu aytish mumkinki** Amir Temurning shaxsiyati va liderlik psixologiyasi O‘zbek davlatchiligi shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lgan. Uning boshqaruv uslublari zamonaviy psixologik nazariyalar bilan uyg‘unlashadi: xarizmatik liderlik, strategik fikrlash va transformatsion liderlik. Temur intizom, motivatsiya, maslahatlashuv va jamoa psixologiyasini boshqarish orqali davlatni mustahkamladi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi jamiyatda psixologik muhitni boyitdi. Ulug‘bekning ilmiy merosi va Alisher Navoiyning ijodi xalq ruhiyatini ko‘tarib, ma’naviy birlikni mustahkamladi. Bu davr psixologik nuqtayi nazardan “II Uyg‘onish” bosqichi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bugungi kunda Amir Temur tajribasi zamonaviy liderlik psixologiyasi uchun ham dolzarbdir. Uning shaxsiy fazilatlari, boshqaruv uslublari va psixologik yondashuvlari zamonaviy davlat boshqaruvi, liderlik va ijtimoiy psixologiya sohalarida o‘rganilishi zarur. Temur merosi nafaqat tarixiy, balki psixologik jihatdan ham bugungi avlod uchun katta ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. *Temur tuzuklari.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Ulug‘bek. *Zij-i Ulug‘bek.* Samarqand: Temuriylar akademiyasi nashriyoti, 1994.
3. Hodjaeva, N. “Amir Temur shaxsiyati va liderlik psixologiyasi.” *O‘zbekiston tarixi jurnali*, №2, 2019.
4. Sultonov, R. “Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat.” *Sharqshunoslik ilmiy maqolalar to‘plami*, Toshkent, 2020.
5. Leonhard, K. *Xarakter va shaxs psixologiyasi.* Moskva: Nauka, 1977.
6. Lichko, A.E. *Psixopatiyalar va xarakter aksentuatsiyasi.* Leningrad: Meditsina, 1983.
7. Weber, M. *Economy and Society: Charismatic Leadership Theory.* Berkeley: University of California Press, 1978.

# SOHIBQIRON AMIR TEMURNING ILM FAN, MADANIYAT HAMDA BUNYODKORLIK SHLARIGA QO‘SHGAN ULKAN HISSASI

**Eshkulova Gulmira Shokirovna**
**Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi**
**eshkulovagulmira531@gmail.com**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Sobibqiron Amir Temur bobomizning ilm-fan , madaniyatni yuksaltirishda, qolaversa o‘sha davr olim-u fuzololarning ilmini, ijodiy ishlarini hurmat qilgan holda izzat-ikrom ko‘rsatgani. Temuriylar davridagi madrasalar, ilmiy markazlar va san’at sohasidagi yutuqlarni ko‘rsatib o‘tilgan. Bibi Xonim madrasasi va Dorut-Tilovat majmuasi kabi yirik inshootlarning ilmiy va me’moriy ahamiyati, shuningdek, Temurning olimlar va san’atkorlarga bo‘lgan e’tibori va qo‘llab quvvatlashi tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, Temuriylar davrining madaniy va ilmiy rivojlanishini, Amir Temurning bu sohalarga bo‘lgan alohida e’tiborini yoritib beradi.

**Аннотация**. Данная статья посвящена усилиям великого Амира Тимура по развитию науки и культуры, а также его уважению к науке и творческим трудам ученых и философов того времени. Показаны достижения медресе, научных центров и искусств эпохи Тимуридов. Анализируется научное и архитектурное значение таких крупных сооружений, как медресе Биби-Ханим и комплекс Дорут-Тиловат, а также внимание и поддержка Тимуром ученых и художников. В статье также освещается культурное и научное развитие эпохи Тимуридов и особое внимание Амира Тимура к этим областям.

**Abstract.** This article is about the great Amir Temur's efforts to promote science and culture, as well as his respect for the science and creative works of the scholars and philosophers of that time. The achievements of madrasas, scientific centers and arts during the Timurid era are shown. The scientific and architectural significance of such large structures as the Bibi Khanim Madrasa and the Dorut-Tilovat complex are analyzed, as well as Timur's attention and support for scientists and artists. The article also highlights the cultural and scientific development of the Timurid era, and Amir Temur's special attention to these areas.

**Kalit so‘zlar:** Sohibqiron, “Temur tuzuklari”, madaniyat, Oqsaroy, Tarag‘ay, Ko‘ragon, Sa’diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi nomi bilan tanilgan Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy ”Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma.

Sohibqiron Amir Temur ko‘plab davlatlar tarixida faqatgina o‘zining jangovar yutuqlari bilan mashhur bo‘lgan mohir sarkarda emas, balki ilm-fan va madaniyatni yuksaltirgan, olim-u fuzalolarning ilmini hurmat qilgan holda ularga izzat-ikrom, homiylik qilgan hukmdor sifatida e'tirof etiladi.Uning hukmronligi davrida ilm-fan madaniyat va ma'rifat sohalarida amlaga oshirgan ishlari o‘sha xalqning aqlan va ma'nan o‘sishiga katta hissa qo‘shgan. Amir Temur mamlakatning har tomonlama taraqqiyotida ilm-fanning ahamiyatiga alohida urg‘u bergan. U olimlarni qo‘llab-quvvatlab, ilmiy ishlarga yuqori ahamiyat bergan. Temur o‘z asarlarida ilm-fan va ma’naviyatni yuksaltirish zarurligini ko‘rsatgan va ilmiy ishlar va izlanishlarni rag‘batlantirgan. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida ta’lim va ilm-fanga katta ahamiyat berildi. Ilm-ma’rifatga homiylik qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu davrda barcha yirik shaharlarda madrasalar qurilib, ularda o‘z zamonasining mashhur olimlari va ulamolari tolibi ilmlarga saboq berish uchun jalb etildi. Bundan tashqari, u taraqqiyotning poydevori sifatli ta’lim ekani haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lgan va shu bois, u avvalo ta’lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yishga, ilmli insonlar mavqeini oshirishga intilgan. Uning boshchiligidagi keng hududda, barcha shaharlarda hamda yirik qishloqlarda ko‘plab boshlang‘ich maktablar tashkil etildi. "Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o‘g‘il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo‘lganda maktabga berish an’anasi amalda bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ulkan saltanatning barcha madaniy o‘lkalarini qamrab olgan edi. Amir Temurning buyrug'i bilan madrasalarda nafaqat diniy ilmlar, masalan, tafsir, hadisshunoslik va fiqh kabi fanlar, balki dunyoviy fanlar, jumladan, matematika, algebra, mantiq, astronomiya, tarix va xattotlik ham o'qitilgan.Amir Temur va temuriylar davrida, Turon mamlakatidagi madrasalar nafaqat diniy, balki ilmiy markazlarga aylanishi, shaharlar uchun ma'rifat o'chog'i bo'lib xizmat qildi. Madrasalarga ajratilgan vaqf mulklar, o'z navbatida, mudarrislar va xizmatchilarning maoshlarini, kutubxonalarning ta'minotini va binolarni ta'mirlash kabi

ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli daromad manbai bo'ldi. Amir Temur davrida qurilgan madrasalar, Temuriylar sulolasining buyuk me'moriy merosining muhim qismini tashkil qiladi. U o‘z davrida ilm-fan, din va madaniyat rivojiga katta e’tibor bergan va ko‘plab madrasalar, masjidlar, maqbaralar, karvonsaroylar kabi obidalarni bunyod ettirgan.Ushbu inshootlar nafaqat diniy ta'lim, balki ilmiy faoliyatning rivojlanishiga ham xizmat qilgan. Xususan, Bibi Xonim madrasasi va Dorut-Tilovat majmuasi o‘zining ilmiy va me’moriy ahamiyati bilan ajralib turadi. Bibi Xonim madrasasi, Samarqand shahrida 1399–1404-yillarda qurilgan bo‘lib,bu madrasa Temurning sevimli xotini Bibi Xonim nomiga bag‘ishlanib, ilm-fan markazi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. U Samarqandning eng yirik inshootlaridan biri bo‘lib, ilmiy ta'limni rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan. Madrasada o‘qitilgan fanlar orasida astronomiya, matematika, tibbiyot va falsafa kabi sohalar mavjud bo‘lib, bu ilmiy sohalar o‘sha davrda ilm-fanning rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, Bibi Xonim madrasasining me’moriy bezaklari va gumbazlari, o‘sha davrning yuksak me’moriy yutuqlarini namoyish etadi. Dorut-Tilovat majmuasi esa 1370-yillarda Shahrisabzda qurilgan bo‘lib, Amir Temurning otasi Amir Tarag‘ay xotirasiga bag‘ishlanib bunyod etilgan. Majmua masjid, madrasa va maqbaradan iborat bo‘lib, ilm-fan va diniy ta'lim markazi sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu majmua,Temuriylar davrining ma'rifat o‘choqlaridan biri bo‘lib, ilmiy faoliyat va diniy ta'limni rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan. Dorut Tilovat majmuasining inshootlari, murakkab bezaklari va me’moriy innovatsiyalari bilan o‘sha davrning yuksak me’moriy merosini aks ettiradi. Temuriylar davrida ko‘plab o‘z davrining taniqli allomalari yashab, ijod qilgan.Sa’diddinTaftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy hamda tarixda Ali Qushchi nomi bilan tanilgan Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi olim-u mutafakkirlar ilm-fanga ulkan hissa qo‘shib, tarixda qolgan. Amir Temur olim-u fuzalolar, mutafakkirlar va ulamolarga bo‘lgan ehtiromi ham yuqori bo‘lgan, va biz buni uning davlat boshqaruvidagi munosabatida ham ko‘rishimiz mumkin. Shahrisabz va Samarqand shaharlarida qurilgan Oqsaroy, Ko‘ksaroy, Bo‘stonsaroy, Registon maydoni va Shohizinda majmuasi kabi inshootlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ulardagi nafis naqshlar, muhtasham gumbazlar va peshtoqlar faqatgina ularga ko‘rk beribgina qolmay, o‘z davrining me’moriy yuksalishini ham namoyon etadi. Temuriylar davrida san’at va madaniyat yuksak darajada rivoj topdi. Tasviriy san’at, xususan miniatyura san’ati taraqqiy etdi; saroy va madrasa devorlariga xalq hayoti, jang va ov sahnalari tasvirlangan suratlar chizildi. Musiqa san’ati ham taraqqiy etib, saroy marosimlari va xalq bayramlarida keng qo‘llanildi, bastakorlik va ijrochilik rivojlandi. Xattotlik san’ati yuksalib,qo‘lyozmalar nafis xat bilan yozilib, miniatyuralar bilan bezatildi. Bu davrda Alisher Navoiy, Jomiy, Lutfiy kabi buyuk adiblar ijod qilgan. Bog‘sozlik san’ati ham taraqqiy etib, Samarqand atrofida go‘zal bog‘lar barpo etildi. Amir Temur ilm-fan va san’atni qo‘llab-quvvatlab, olim va san’atkorlar uchun qulay muhit yaratdi. Bu davr “Ikkinchi Islom uyg‘onish davri” deb atalib, Amir Temur madaniyat va ma’naviyat homiysi sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi. Amir Temur ilm-fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishda katta rol o‘ynagan hukmdor sifatida tarixda qolgan. Uning davrida ilmiy va madaniy markazlar, jumladan, Bibi Xonim madrasasi va Dorut-Tilovat majmuasi tashkil etilib, ilm-fan va san'at sohalarida katta yutuqlar erishildi. Temur olimlarni qo‘llab-quvvatlab, dunyoviy va diniy ilm-fanlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Uning hukmronligi davrida shakllangan ilmiy va madaniy muhit, Temuriylar merosi sifatida bugungi kungacha ahamiyatini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Toshkent “ Kamalak”, 1991.

2. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti., 1990

3. M.Ivanin. “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur”. Toshkent: O‘Z.R.FA “Fan” nashriyoti, 1994.

4. https://xs.uz/uz/post/amir-temur-va-temurijlar-davri-renessansidatalim-tizimining-tutgan-ahamiyati

5. https://oliymahad.uz/39276

6. https://shosh.uz/amir-temur-va-temuriylar-davrida-san-at-vamadaniyat/ 7. Temur tuzuklari. B. Ahmedov tahririda. – T.: G'afur G'ulom, 1996

# AMIR TEMUR VA HOZIRGI ZAMON: DAVLATCHILIK VA IQTISODIYOTGA TA’SIRI

**Toshpolatova Odina**
**Navoiy davlat universiteti**
**Iqtisodiyot fakulteti talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temurning davlatchilik siyosati, iqtisodiy boshqaruv usullari va ularning hozirgi zamon uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivoji ham yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, davlatchilik, iqtisodiyot, Temuriylar, boshqaruv, rivojlanish.

**Kirish:**

Amir Temur jahon tarixida buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat katta hududlarni egallagan, balki kuchli markazlashgan davlat barpo etgan. Uning boshqaruv tamoyillari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

**Asosiy qism:**

Amir Temur davlatchilikni mustahkamlashda qat’iy intizom va adolat tamoyillariga amal qilgan. U savdo yo‘llarini rivojlantirib, iqtisodiy aloqalarni kengaytirgan. Buyuk ipak yo‘lining tiklanishi orqali xalqaro savdo rivojlangan. Temuriylar davrida iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo bo‘lgan. Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlar iqtisodiy va madaniy markazlarga aylangan.

Ilm-fan rivoji ham alohida ahamiyat kasb etgan. Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiya va matematika yuksak darajada rivojlangan. Bu esa hozirgi zamon ilmiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Hozirgi zamon bilan bog‘liqligi:

Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Amir Temur merosi davlat boshqaruvi va iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning “Kuch – adolatda” tamoyili bugungi siyosatda ham o‘z aksini topmoqda.

**Xulosa:**

Amir Temur nafaqat o‘z davrining buyuk hukmdori, balki hozirgi zamon uchun ham muhim tarixiy shaxsdir. Uning boshqaruv tajribasi va iqtisodiy siyosati bugungi kunda ham o‘rganilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amir Temur. Tuzuklar.
2. Bartold V.V. Turkiston tarixi.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.
4. Ahmedov B. Amir Temur davlati.
5. Internet manbalari.

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJIDA MIGRATSIYANING TUTGAN O‘RNI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

**Maxmudov O‘ktamjon Muxsinjon o‘g‘li**
**maxmudovoktamjon0@gmail.com**
**Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,**
**Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Amir Temur va temuriylar davrida ilm fan va madaniyat rivojiga turtki bo‘lgan omillardan biri sifatida migratsiya tahlil qilinadi. O‘z o‘rnida madaniy migratsiyaning ham ayrim hususiyatlari ochib beriladi. Migratsion siyosat natijasida Samarqand va Hirot kabi shaharlarga kelib ijod qilgan ilm ahllari haqida ham mulohaza yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ibn Arabshox, migratsiya, harbiy yurishlar, madaniy muhit, olimlar, hunarmandlar

Markaziy Osiyo tarixida 2-renessans Amir Temur va temuriylar davrida vujudga kelgani barchamizga ayon. Ushbu yuksalishning vujudga kelish va rivojlanish omillari orasida siyosiy, iqtisodiy barqarorlik bilan birga ushbu davrda ro‘y bergan turli ko‘rinishdagi migratsiyani ham alohida ta’kidlash lozim.

Amir Temur davrida ushbu renessansning asoslari yaratilganlishida uning migratsion siyosati muhim rol o‘ynaydi. Amir Temur qayerga-ki harbiy yurish qilsa, albatta, avvalo ilm-fan ahlini topish va Samarqandga yuborish odati bor edi. Harbiy yurishlardan keyin Temur avvalo bunday shaxslarni izlab ularning o‘z sohasidagi bilimlarini tekshirib ko‘rgach, Samarqandga yuborgan. U yerda ular uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratib qo‘ygan edi-ki, bu natijada nafaqat majburiy, balki ixtiyoriy migratsiya uchun ham muhim omil bo‘lib hizmat qildi. Bu ko‘chirishlar mutaxassis hunarmandlar, me’morlar naqqoshlar fazlu-hunar egalari, turli fan olimlari, tabiblar, sangtaroshlar, duradgorlar, naqqoshlar kabi o‘z sohasi yuksak egallagan shaxslarni o‘z ichiga oladi.

Bu faoliyat natijasida rivojlangan sohalarni shartli ravishda me’morchilik va qurilish, san’at va musiqa hamda turli ilm-fan tarmoqlarini ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, bular ichida me’morchilik va qurilish ancha rivojlandi. Yaqin sharq mamlakalari, Hindiston va boshqa hududlardan Samarqandga olib kelingan o‘z sohasida yetuk mutaxassislar va mahalliy hunarmandlar bilan o‘ziga xos uslubda bino va inshootlar, bog‘lar barpo etishdi. Bunda bir tomondan Movarounnahrda ro‘y bergan nisbatan tinchlik muhiti va asosiysi Amir Temurning har bir yaxshi voqelik uchun bir ulug‘ imorat qurdirish odati muhim rol o‘ynagan. Bu davrda Shohi Zinda, Jome masjidi, Go‘ri Amir kabi yuksak me’morchilik na’munalari anashu uslublar uyg‘unligida bunyod etilgan. Samarqand atrofidagi Misr, Damashq, Bag‘dod, Sultoniya kabi o‘z davrining zamonaviy, o‘ziga xos rejali qishloqlari ham manashu hamkorlikning natijasidir. Bundan tashqari Amir Temur qurdirgan bog‘lar ham asosan mahoratli ko‘chirib keltirilgan hunarmandlar tomonidan qurilgan. Masalan, Amir Temur 3 yillik, 5 yillik urush davomida ham Ozarbayjon va Fors diyoridan ko‘plab ko‘chirishlarni amalga oshirdi. Jumladan 1386-yilda Tabrizga moli omon solinib shahardagi mashhur hunarmandlarni xona-ko‘chi bilan Samarqandga yuboradi.[165]. 1393-yilda Forsga yurishdan keyin, Shoh Mansurni yenggach, sohibqironga xayrixoh Shoh Shujo o‘g‘illari Sulton Shibli va Zaynalobiddinni ham Samarqandga yuboradi. Bundan tashqari: “Fors viloyatidin yaxshi hunarmadlarni ev-eli bilan ko‘churub Samarqandga yibardi”[166]. Keyinroq bu yurishlardan qaytgach Amir Temur Samarqand atrofida Bog‘i Shimol va Bog‘i Dilkusho kabi bog‘lar qurdiradi. Ularni qurishda aynan Iroq, Fors, Bag‘dod va Sherozdan kelgan usta hunarmandlardan foydalangani “Zafarnoma”da qayd etilgan [167].

Yana bir muhim manbalardan biri Ibn Arabshohning “Ajoyib ul maqdur fi tarixi Taymur” asarida hunarmandlar ismlarini ham keltiradi-ki yuqoridagi ma’lumotlarni qaysidir ma’noda tasdiqlash uchun juda muhim ahamiyatga ega. Masalan, zargarlardan Al Xoj Ali Sheroziy, Al Xoj Muhammad Hofiz Sheroziy, sovut yasovchi Shihobiddin Ahmad, naqqoshlardan Albdulxay al Bag‘dodiy – eng mohir naqqosh, bog‘dorchilikda Shihobuddin Ahmad az Zardkashiy, Shuningdek, faylasuf, kalom va mantiq ilmida yuksak ilm sohiblari: Sa’duddin at-Taftazoniy, Sayyid Sharif

[165] Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997. 107 b
[166] O‘sha asar 155 b
[167] O‘sha asar. 187 b.

Muhammad Jurjoniy, Qur’on, qiroat ilmi sohibi Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazariy, hadisshunos va shatranj ilmi bo‘yicha kuchli shaxs Aloyuddin at-Tabriziy ismlari tilga olinadi.

Shuningdek asarda mashhur tabiblar Jamoliddin va Sulaymon, Abdulxay musavvir kabilar ham Damashqdan olib kelinganligi qayd etilgan.

1398-yilda Temur qo‘shinlari Dehlini egallagach, minglab odamlarni deportatsiya qildi, ular imperiyada bunyodkorlik ishlari uchun Samarqandga yuborilgan. “Zafarnoma”da quyidagicha ma’lumot uchraydi: “Shohmalikbek va Ali Sulton Tavachi besh yuz mukammal kishi bila anda borib, ul kofirlarni tutub o‘lturdilar. Ul kun Dehlini g‘orat qilib, bo‘lg‘on elini asir qildilar. Va hunarmand hindular ko‘p erdi. Bas hukm bo‘ldikim “Ul hunarmand hindularni shaxzodalarg‘a og‘olarga ulashtursunlar!” Va xazratning muborak ko‘nglida erdikim, Samarqandda masjidi juma solg‘ay. Bas hukm bo‘ldikim “Xar xindukim, sangtarosh turur ani xossa uchun saqlasunlar!””[168] [1:209]. Temur ushbu yurishdan qaytgach bu hunarmandlardan Samarqandda Jome masjidi qurish uchun foydalandi.

Amir Temur o‘z davrida musiqa ilmida yetuk musiqashunos Xoja Abdulqodirni ham Bog‘doddan keltirganligi haqidagi ma’lumot ham manbada keltiriladi. ““Sulton Ahmadning o‘g‘lonlarini va hotunlarini va Bag‘dod shahridin yaxshi hunarmand kishilarni ko‘chlari bila Samarqandga eltib borsunlar!” Va Xoja Abdulqodirkim, musiqiy ilmida olamda mashhur va nodir-ul asr erdi ani taqi Samarqandga yibardi”. U sohibqiron Amir Temurning bosh honandasi bo‘ladi. Uni Amir Temur Mironshoh bilan bo‘lgan noxush holat sababli ikki marta o‘limga hukm qilgan bo‘lishiga qaramay dastlab darvesh qiyoasida qochish orqali, keyingisida esa go‘zal Qur’on tilovati sababli tirik qoladi. Amir Temur o‘limidan keyin dastlab Xalil sultonga so‘ngra Shohruhga xizmat qilgan.

Temuriylar davri madaniyati, ilm fan ravnaqi haqida so‘z yuritilganda ta’kidlab o‘tish lozimk-ki bunda asosiy Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan temuriy shahzodalar, hukmdorlar ayniqsa Mirzo Ulug‘bek va Husayn Boyqaroning o‘rni kattadir. Chunki Temur davrida dastlab, asosan, majburiy migratsiya natijasida ilm-fan va madaniyat rivojlangan bo‘lsa, temuriylar jumladan yuqorida aytilgan hukmdorlar davrida bevosita madaniy migratsiya qiymati ortib ketdi, ya’ni ilm-fan va madaniyat namoyandalari endilikda ixtiyoriy ravishda Samarqand, Buxoro va Hirot kabi markazlarga kela boshladi. Albatta buni ostida ushbu hukmdorlarning ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga yaratgan shart-sharoitlari, ayniqsa ilm ahllariga qilgan homiyliklari yotadi. Shuningdek, Ilmiy muhit yaratilishida Amir Temur davrida keltirilgan olimlar mahalliy va keyingi davrda Samarqand va Hirotga kelgan ilm ahllariga ta’lim berishi ham muhim o‘rin tutgan.

Ulug‘bek o‘z davri uchun nihoyatda keng imkoniyatlar taqdim etuvchi akademiyaga asos soldi. Bu Italiyadagi dastlabki falsafiy akademiyalar bilan deyarli bir vaqtga to‘g‘ri kelsa, Angliyadagi ilk asos solingan ilmiy “Royal society” (1660) akademiyasidan salkam ikki yarim asr oldindir.

Ulug‘bek akademiyada ta’lim va ilm-fan bilan shug‘illanish uchun shunday sharoitlar yaratib berdi-ki, “o‘z davrining Ptolomeyi” unvonini olgan Qozizoda Rumiy taxallusi bilan mashhur Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud oila a’zolarining qarshiligiga qaramay, yashirincha Samarqandga ilm olish uchun keladi va keyinroq Ulug‘bek akademiyasining asosiy ustoziga aylanadi. Garchi u Amir Temurning 7 yillik urushi davrida ixtiyoriy ravishda Temur ulamolariga qo‘shilib olib 1404-yilda Samarqandga kelgan bo‘lsa-da, uning ilmiy faoliyati asosan Ulug‘bek davriga to‘g‘ri keladi.

Ulug‘bek akademiyasida ishlab, ilm-fan ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shgan olimlardan yana biri Jamshid Koshoniydir. 1380 yil Koshon (u vaqtlar Amir Temur davlatiga tegishli bo‘lgan, hozirgi Eron) shahrida tug‘ilgan. 1413-1414 yillar Amir Temurning o‘g‘li Shohruhga bag‘ishlangan (u davda hokimiyatni Amir Temur boshqargan) astronomik jadvalni tuzgan. Samarqandda Ulug‘bek madrasasi qurilgach, u ushbu shaharga kelib, Qozi zoda Rumiy va Ali Qushchilar bilan birga Ulug‘bek rahbarligi ostida mashhur Ulug‘bek rasadxonasining loyihalash va qurilish ishlarida ishtirok etadi.[169]

Hirotda Husayn Boyqaro homiyligi va Alisher Navoiy ko‘magi ostida ham ilmiy-ma’naviy muhit shakllangan edi. jumladan Alisher Navoiy tomonidan qurilgan Xonaqohi “Xalosiya”da buyuk olimlardan Amir Jamoliddin Atoullo Asiliy, Amir Sadriddin Ibrohim Mashhadiy, Xoja Imodiddin

[168] Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997. 209 b

[169] https://arboblar.uz/uz/people/giyasiddin-dzhamshid-ibn-masud-kashi

Abdulaziz Abhariy ilm o‘rgatish va dars berish bilan mashg‘ul bo‘lgan, “Shifoiya”da esa Mavlono G‘iyosiddin Muhammad ibn Mavlono Jaloliddin tibbiy ilmlardan dars berish bilan shug‘ullangan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, Amir Temur o‘z davrida avvalo Renessansning asoslarini yarata oldi. Bunda davlatni siyosiy jihatdan birlashtirishi, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishi hamda jamiyatda tinch va adolatli muhitni yaratishi bilan birga Samarqandga turli mamlakatlardan ilmli kishilarni yuborishi muhim rol o‘ynadi. Temuriy shahzodalar ham avvalo anashu muhitda ulg‘ayishib, keyinchalik o‘zlari homiylik qila boshladilar. Natijada Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlar nomi olamga yoyilib toliblar va olimlar o‘z ixtiyorlari bilan ham bu shaharga oqib kela boshladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997.
2. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. So‘z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni Ubaydulla Uvatov tayyorlagan. 1-kitob. T.: Mehnat, 1992.
3. Naim Norqulov. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar. – Urganch, “Xorazm” nashriyoti, 1996.
4. A.Abdurahmonov. Ulug‘bek akademiyasi. – Toshkent. 1994.
5. Maxmudov, O. K. (2025). MIGRATSIYA, ASOSIY TUSHUNCHALAR, TURLARI VA MOHIYATI. *Modern Science and Research*, *4*(4), 55-58. https://pedagoglar.org/04/article/view/4180
6. Maxmudov, U. (2025). FROM THE HISTORY OF MIGRATION PROCESSES DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR. *Modern Science and Research*, *4*(4), 208–213. Retrieved from https://inlibrary.uz/ind/.ex.php/science-research/article/view/78223

## AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI

**Navoiy Davlat Universiteti Iqtisodiyot Fakulteti Turizm va Mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalsihi 102-guruh talabasi Toshpo‘latov Alibek Marufjon o‘g‘li**
**Ilmiy rahbar.Xalilov Xabib Hamidovich**

**Kirish.**

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og‘ir siyosiy davr va Iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi Amir Temur o‘z Zamonasining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi.Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga krishdi.Bunday maqsadni amalga oshrishda u oqsoqollar harbiylar savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi.

Amir Temur davlat mustaqilligini va muhofaza yo‘lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo‘shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo‘shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi,navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat beradi. Sohibqiron intizomli qo‘shin tuzishga jang paytida qo‘shin qisimlarini oqilona boshqarishga jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan Dargoh va Vazrlik devondan iborat bo‘lgan.

Dargohni Oliy hukmdorning o‘zi boshqargan.Ijoriya hokimyati-devonni devonbegi bosh vazir boshqargan devonda harbiy vazir mulkchlik va soliq ishlari vaziri,moliya vaziri faoliyat yuritgan.Bulardan tashqari,sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi yana uch vazir bo‘ilb ular devon begiga hisobot berib turgan.

Sohibiqiron davlat boshqaruvi ishlarida Islom qonun-qoidalariga asoslangan.Uning Qur’oni karim va hadisi shariflariga munosabati samimiy va oliy darajada bo‘lgan.Payg‘amabar avlodlari,shayxul Mashoyixlarga hurmati cheksiz edi.

Amri Temurning harbiy yurishlari. Amir Temurning har bir harbiy yurishlariga turtki bo‘larlik sabablari Bor edi. Bu sabablar- o‘z davlatning chegaralarini mustahkamlash tashqi dushmanlardan himoyalanish, karvon yo‘llarini turli yo‘l to‘sarlardan tozalash xiyonatchi sotqin aldamchilarni

jazolash bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish o‘zinig siyosiy ta’sirini kengaytrishdan iborat bo‘lganligini tarixiy manbalrdan bilib olish mumkun.

Amir Temurning tashqi siyosati Amir Temur davlati bilan Vizantiya, Turkiya ,Hindiston ,ispaniya , fransiya ,Angliya , Oltin o‘rda ,Mo‘g‘uliston , Xitoy kabi davaltlar Iqtisodiy,Siyosiy va madaniy aloqalar o‘rnatadilar. Sharqning eng katta davlatlaridan Xitoy bilan munosabatlar Amir Temur davrida bir qadar jidiylashib qolgan edi. Bunga Xitoy hukumdorlarining ulug‘ davlatchilik siyosati sabab bo‘lgandi Min iperatorlari Xitoyga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarni Xitoyga qaram mamlakatlar deb hisoblar edilar. Amir Temur nin elchilari va savdogarlari olib borgan sovg‘a-salomlarni esa o‘lpon deb atar edilar. Amir Temur ham xitoy elchilari bilan shunga yarasha munosabata bo‘ldi. Klavixoning ma’lumotlariga qaraganda 1404-yilda Samarqandga kelgan Xitoy imperatorlarining elchilari boshqa mamlakat elchilaridan yuqoriroqa o‘tqazib qo‘yilgan ekan.Amir Temur buyrug‘iga ko‘ra ular ham boshqa mamlakat elchilari qatoridan o‘ziga yarasha joyga quyiroqa o‘tqazilgani malum bo‘ladi.

Sohibqiron Amir Temur jahon siyosiy hayotiga ham tasir ko‘rsatdi.Malumki bu davrda bir tomondan Sulton Boyazidning Bolqon yarimoroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib butun Yevropaga xaf solayotgan edi. Ikkinchi tomondan Boyazidning o‘zi G‘arbga tomon shiddat bilan siljib borayotgan xafli raqib-Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo‘lgan edi. Bunday siyosiy vziyatda Boyazidga qarshi kuchlarning ma’lum darajada birlashuvi tabiy edi. Avvalambor Boyazidan yengilib o‘z yer va mulklaridan mahrum bo‘lgan Kichik Osiyo mamlakatlarning hukmdorlari Amir Temurdan madad istab uning Qorabog‘dagi o‘rdagohiga borib qaror topdilar. Hatto Vizantiya va G‘latadagi Genuya hokimining noibi Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrning katolik missionerlari yordam so‘rab Amir Temurga murojat qldilar Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish hamda Konstantinopol va peraning Boyazidga to‘lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to‘lashga va’da qldilar Bunday taklif Amir Temurga ma’qul tushdi. Chunki Turkiyani dengiz sohilidagi tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. SHunday qilib XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Sulton Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi.Bu vaziyatdan Amir Temur ustalik bilan foydalanadi. Anqara yaqinida turklarning 160 ming kishilik qo‘shini ustidan qozonilgan buyuk g‘alabadan so‘ng Amir Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan bo‘lgan aloqalarning mazmuni tubdan o‘zgardi.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi.Hindiston, va Xitoydan, Qora denizga, qadar orol dengizidan, Fors qo‘ltig‘iga, qadar bo‘lgan g‘oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltrdi.Bundan tashqari Kichik Osiyo, Suriya Misr, Quyi Volga , Don bo‘ylari, Balxash ko‘li, va Elsuv daryosi, shimoliy Hindistongacha, bo‘lgan mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundrdi.U nfaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi balki bo‘ysindirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi.Bag‘dod Darband va Baylakon shaharlari shular jumlasidandr.Eng muhimi Eron,Ozarbayjon, va Iroqdagi, tarqoqlik va boshboshdoqlika barham berib, sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi qadimiy karvon yo‘llarini tikladi.Bu bilan nafaqat Movarounnahr balki Uzoq va Yaqin sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtrishga ulkan hissa qo‘shdi.

Amir Temur yevropaning Fransiya,Angliya,va Kastiliya,kabi yirik qiroliklari bilan bevosita savdo va diplomatic aloqalar o‘rnatdi.Siyosiy tarqoqlik tugatilib,markazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy oqibatlarga olib keldi.Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida tanazzulga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo‘jalikning asosi bo‘lgan sug‘orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro‘y berdi.Yangi yangi kanallar qazilib sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaydi.Hunarmandchlik ichki va tashqi savdo rivojlandi,fan va madaniyat ravnaq topib shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

Sohibqiron Amir Temur mashur davlat arbobi,mohir sarkarda sifatida O‘zbekistonda davlatchilikining yuksalishida muhim o‘rin tutadi.Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda ‘‘ Sohibi Jahon’’ hamda ‘‘Sohibi Adl-‘ ‘ Adolat Sohibi’’ nomlari bilan ulug‘lanadi.Xalqaro yunesko tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yilda Toshkent Samarqand va Xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi va shu yili O‘zbekistonda ‘ ‘ Amir Temur yili’’ deb elon qilindi

1402-yilda Jahonga ayniqsa Bolqon yarimoroli hamda Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarga tahdid slogan Turkiya sultoni Boyazid I Yildirim tor-mor keltirilgandan so‘ng Fransuzlar Amir Temurning oltindan haykalchasini quydirib ostiga ‘ ‘Yevropa xaloskoriga’’ deb yozdirib qo‘yilgan ekan.

Yevropa olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi XVI asrdan boshlangan edi 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida italiyalik olim Perondinoning ‘ ‘Skifyalik Tamerlaning ulug‘vorligi’’asari bosib chiqdi.Bu yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti edi.Ushbu asarda Ispan Tarixchisi Pero Meksikaning ‘ ‘Buyuk Temur tarixi’’ chop etiladi.1582-yili Seveliyada mashhur Ispaniya elchisi Klavixoning ‘ ‘ Esdaliklar’’ kitobi nashrdan chiqdi.Ingliz dramaturgi Xristofor Morloning ‘ ‘Buyuk Temur’’ nomli sahna asari ham shu asrda yaratldi.

Sho‘rolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib bir yoqlama baho berib kelindi. SHunga qaramasdan 1968-yilda Faylasuf olim I.M.Mo‘minovning ‘‘Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli risolasini nashr etilishi jamoatchilikning bu mavzuga qiziqishini yanada avj oldirib yubordi.Asar keskin tanqidga uchradi.Ammo I.M.Mo‘minovning Amir Temur shaxsini o‘rganish tashabbusi bilan chiqishi bu uning ilmiy jasorati va yuksak vatanparvarlik fazilatining yorqin ifodasi bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqilika erishgandan so‘ng O‘zbekistoning Birinchi Prezidenti Islom Karimov sa’y-harakati bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni o‘z joyiga qo‘yila boshlandi.

**Xulosa**

Amir Temur Markaziy Osiyo va yevropa o‘rtasida savdo yo‘llarini tikladi - 200 -iplomatic aloqalarni kuchaytirdi siyosiy muvozanatga ta’sir ko‘rsatdi madaniy almashinuvni rivojlantrdi.Amir Temur faoliyati natijasida Markaziy Osiyo oddiy hudud emas balki Sharq va G‘arbni bog‘lovchi strategic ko‘prika aylandi U faqat urushlar orqali emas balki xafsiz savdo muhitini yaratish xalqaro diplomatiyalarni rivojlantrish yirik shaharlarni tiklash va obod qlish orqali ham tarixda muhim iz qoldirdi

Amir Temur resorted trade routes between Central Asia and Europe,strenghtend diplomatic relations influenced political balance and promoted cultural exchange.As a result of his activities Central Asia became not just an ordinary region but a strategic bridge connecting the East and the West.He left an important mark in history not only through wars but also by creating a safe trade environment developing international diplomacy and rebuilding and improving major cities.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Tarixi 7-SINIF 2017

## AMIR TEMUR YARATGAN BOG‘LAR

**D.Ashurov.NavDU Tarix fakulteti**
**Tarix kafedrasi o‘qituvchisi.**

Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi - Uchinchi Renessansga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o‘rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur bobomiz tabiatni, insonni sog‘lomlashtirish, cho‘l-biyobonlarni obodonlashtirish va dehqonchilikni rivojlantirish borasida juda ko‘p hikmatli so‘zlarni meros qilib qoldirdi. “...Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar, hammomlar qurishni, musofir yo‘lovchilar uchun yo‘l ustida rabotni bino qilishni, daryolar ustida ko‘priklar qurishni buyurdim. Kimki biron sahroni obod qilsa yoki biron bog‘ ko‘kartirsa yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchunchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig‘ilsin”.

Movarunnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida o‘nlab sug‘orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Mozorot va ziyoratgohlar obod etildi.

Qashqadaryo viloyatidagi Eski Anhor kanalini Amir Temur bobomiz Sulton Boyazid ustidan qozonilgan g‘alabasi sharafiga qurgan. Tarixchi Hofiz Abro‘ning yozishicha Amir Temur

Xurosondagi Murg‘ob vodiysida obodonchilik va dehqonchilik ishlari xarob bo‘lganini ko‘rib, daryodan 20 ta kanal qazdirib, suv chiqarib dehqonchilik va obodonchilik ishlariga asos soladi. Uning topshirig‘i bo‘yicha Ko‘hak – Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoga ko‘priklar qurildi. Shuningdek, Sirdaryodan, Ohangarondan kanal qazildi. Sohibqironning farmoyishiga ko‘ra, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Farg‘onada irrigatsiya – sug‘orish ishlari olib borildi. Bunday bunyodkorliklar davlatning boshqa hududlarida ham davom ettirilgan. U uzoq Qorabog‘da 42 km kanal qurdirgan. Ozarbayjondagi Mug‘on shahrida 12 ta bog‘ barpo etgan.

Amir Temur davrida betakror bog‘lar yaratilgan va ularga o‘ziga xos nomlar qo‘yilgan. Bular xususidagi dastlabki ma’lumotlar o‘tmish tarixchilari, shoirlari, sayyohlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, Amir Temur bog‘lari o‘rta asrlar rassomlari miniaturalarida ham tasvirlangan. Bu bog‘lar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘lgan:

**Chorbog‘lar** – geometrik (to‘rt burchak) shaklida bo‘lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho‘zilgan. Sahnidan o‘tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland devorlarning har burchagida minora bo‘lgan. Markazda Saroy joylashgan. Bunday bog‘larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan.

**Tuzilishi geometrik shaklda bo‘lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag‘rida barpo etilgan bog‘lar.** Bunday bog‘lar hukmdor ov qilishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy qismi tabiiy, qo‘l tekizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy va chodirlar qurilgan. Hovuzlar qazilib, favvoralar o‘rnatilgan. Bu turdagi bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan.

**BOG‘I BALAND.** Sohibqiron Samarqand Shimolidagi Cho‘ponota maqbarasi yaqinida (hozirgi aeroport atrofi) nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishida Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog‘chilik san’ati ustalari hamda me’morlari qatnashgan. Bog‘ o‘rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo‘lib, uning atrofidagi uzumlar, anjirzor va olmazorlar boqqa go‘zal bir tarovat baxsh etib turgan.

**BOG‘I BEHISHT.** 1378 yilda Sohibqiron Samarqandning G‘arbida suyukli xotini Xayrunisoga atab qurdirgan. Ayrim yozma manbalarda “Bog‘i Jannat” nomi bilan ataladi. Bog‘ o‘rtasidagi atrofi handaq bilan muhofaza etilgan sun’iy tepalik ustida tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo‘lgan. Saroyga bir necha ko‘tarma ko‘priklar orqali kirilgan. Bu bog‘ning bir tarafida hayvonot bog‘i bo‘lib, turli xil hayvonlar saqlangan.

**BOG‘I DAVLATOBOD.** Bu bog‘ Samarqanddan 13 km Janubda, hozirgi katta O‘zbekiston traktining chap tomonida bo‘lgan. Amir Temur bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, xorijiy elchilarni qabul qilgan. Unda ariqlar, to‘rtta hovuz, katta saroy bo‘lgan. Saroy sun’iy tepa ustiga qurilgan, atrofi handaq bilan o‘ralgan. Unga ikkita ko‘tarma ko‘prik orqali kirilgan.

**BOG‘I DILKUSHO.** (Ko‘ngil ochuvchi bog‘) 1397 yilda Amir Temur xotinlaridan biri Tukalxonim sharafiga qurilgan. Bu bog‘ Samarqanddan 5 km Sharqda, Panjakent yo‘lining o‘ng tomonida (qadimiy Xijduvon qishlog‘i o‘rnida) joylashgan. Har tarafi 900 metr uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan. Bog‘ning to‘rtta darvozasi markazida hashamatli saroy bo‘lgan. Saroy uch qavatli bo‘lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Sohibqiron olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo‘yilgan. Bu bog‘ o‘rnida hozirgi kunda Dilkusho qishlog‘i joylashgan.

**BOG‘I JAHONNOMA** (Jahon ko‘zgusi). Amir Temur Samarqanddan yetti farsax (42 km) narida, Zarafshon tog‘i etagida qurdirgan (taxminan Urgut tumanida). Unda saroy va qal’a bo‘lgan. Bog‘ning hududi juda ham katta bo‘lib, yo‘qolib qolgan ot 6 oydan so‘ng topilgan ekan.

**BOG‘I MAYDON.** Cho‘ponota tepaligi etagida, Samarqandning shimolida joylashgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bog‘da hashamatli bir ayvon (ko‘shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo‘lgan. Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulug‘bek bu bog‘ni yanada obod qilgan. Bu bog‘ o‘rni hozir ham Bog‘i Maydon deb ataladi.

**BOG‘I NAV** (angi bog‘). Bu bog‘ni 1404 yilda Amir Temur Samarqandning Janubida qurdirgan. Lolazor qishlog‘i o‘rnida joylashgan. Bu bog‘ to‘rtburchak shaklida bo‘lib, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, har burchagida minora qad ko‘tarib turgan. Markazida boshqa bog‘lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida katta hovuz bo‘lgan.

**BOG‘I CHINOR.** Amir Temur Samarqandning Sharqida (Konigilning janubiy-g‘arb tarafida, hozirgi Qo‘shtamg‘alik tepaligi o‘rnida) barpo qildirgan. Unda ajoyib chinorlar ko‘p bo‘lgan. Bog‘ning markazida saroy joylashgan.

**BOG‘I SHAMOL.** Amir Temur 1397 yilda nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Bu bog‘ Samarqandning G‘arbida bo‘lgan. Undagi saroy to‘rtburchak shaklida bo‘lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qorayog‘och va fil suagidan ishlangan. Bu bog‘ joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham Bog‘i Shamol deb ataladi.

Amir Temur bog‘laridan eng chiroyli va mashhurlari quyidagilar:

Amir Temur bobomiz Samarqand atrofida bulardan tashqari, yana bir qancha bog‘ va saroylar barpo etgan. Chunonchi, BOG‘I BULDU, BOG‘I ZOG‘ON, BOG‘I NAQSHI JAHON, BOG‘I AMIRZODA SHOHRUX, BOG‘CHA, BOG‘I DILAFRO‘Z, BOG‘I SHEROI, GULBOG‘, LOLAZOR, BEDANA KURGI, CHUMCHUQLIK, G‘OZXONA va boshqalar biri biridan qolishmagan.

**Foydalangan adabiyotlar**

1.Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”,T. ,O‘zbekiston. 1996 yil, 277- bet

2. Berdimurodov A. Amir Temurning Samarqanddagi bog‘lari, “Turkiston”, 1992 yil, 17 noyabr

3. Manba: http://e-samarkand.narod.ru/gardens.htm

4.Amir Temur. (1991). *Temur Tuzuklari*. T.: G‘ofur G‘ulom,

## AMIR TEMURNING TINCHLIK HAQIDAGI SIYOSAT YO‘L-YO‘RIG‘I MAZMUN-MOHIYATI TAHLILI

**Sharipov Dilshod Baxshilloevich,**
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: dilshodsharipov70007@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu kichik tadqiqot ishida Amir Temurning davlat tuzish va saltanatdorlik tutimlari, davlat siyosatida va uning yo‘l-yo‘rig‘ida tinchlikka oid ijtimoiy-siyosiy tamoyillar keng tahlil qilingan. Shuningdek, Amir Temur davlatining adolati qaysi qonuniyatlar asosida ta’minlanganligi ochiqlangan.

**Kalit so‘zlar:** haqiqat, adolat, harb, tamoyil, siyosat, yo‘l-yo‘rig‘, tartib, mardlik, rostlik, aql, tuzuk, muruvvat, podshoh, islom, shariat, mamlakat.

**Annotatsiya:** v dannoy nebolshoy issledovatelskoy rabote podrobno analiziruyutsya protsess gosudarstvennogo ustroystva i praktika pravleniya Amira Timura, a takje sotsialnыe i politicheskie prinsipы, svyazannыe s obespecheniem mira v gosudarstvennoy politike i yee rukovodstve. Krome togo, raskrыvaetsya, na osnove kakix zakonov obespechivalas spravedlivost v gosudarstve pri Amire Timure.

**Klyuchevыe slova:** pravda, spravedlivost, voyna, prinsip, politika, rukovodstvo, poryadok, xrabrost, istina, razum, poryadok, miloserdie, korol, islam, shariat, strana.

**Abstract:** in this small research work, Amir Temur's state formation and kingship practices, social and political principles related to peace in the state policy and its guidance are extensively analyzed. Also, it was revealed on the basis of which laws the justice of Amir Temur's state was ensured.

**Key words:** truth, justice, war, principle, politics, guidance, order, bravery, truth, reason, order, mercy, king, Islam, Sharia, country.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur o‘z davrining yetuk siyosatchisi va jahon siyosat olamining oftobi edi. Buyuk hukmdorlar haqida hamma gapiradi, yozadi, lekin bu bilan so‘z aytilgan muhtasham zotlarning asl qiyofasi va umr bitiklarida bitilgan tamoyillaridan hech narsa o‘zgarmaydi. Balki, kimlardir, ulug‘lar haqida so‘z bitsa, ulug‘lik yetar, deb o‘ylar. Kimlardir o‘zini o‘sha ulug‘ zotlarga mengzar ham, lekin Amir Temur haqidagi so‘z faqat uning o‘zi xushlagani kabi, qattiq va achchiq bo‘lsa hamki, haqiqatdan iborat bo‘lishi kerakdur. Shundaylardan biri *Herman Vamberidir*.

Herman Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarida Amir Temur haqida shunday so‘z bitgandi: “Yagona shuhrat, harbiy daho va qat’iyatlilik xosiyatlari bilan u juda haqli ravishda makedoniyalik Iskandar, Sezar, Chingiz va undan so‘ng o‘tgan Napaleon bilan bir safda turadir”[1].

Amir Temur “qimmatli bahodirlar soyasida 27 o‘lkaning hoqoni bo‘ldim”[2], degan. Bular quyidagilardir: Turon, Eron, Rum (Onado‘li), Mag‘rib, Suriya, Misr, Iroqi Arab, Iroqi Ajam, Mazandaron, Qeylan, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jidda, Buyuk Tatariston, Xorazm, Xo‘tin, Qobuliston, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti Qipchoq, Oq O‘rda, Gurjiston, Armaniston va Oltin O‘rda[3].

Akademik I.M.Mo‘minov 1968 yil 5-may kuni O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Prezidiumidagi Kengashda “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli o‘z davri uchun mardonavor hisoblangan ma’ruzasida yozadi: “Sharafiddin Ali Yazdiyning qayd etishicha, Amir Temurning xarakterli xususiyatlaridan biri – davlat, mamlakat, fuqaroning g‘amxo‘rligi edi. Uning qoidasi – “***rosti rusti***” edi. ***Haqiqat – sihhat-salomatlik***, ***haqiqat – tartib***, ***haqiqat – adolat*** demakdir, deb tushuntiradi, u”[4].

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida Amir Temurning “rosti-rusti” degan so‘zi “kuch adolatdadir” tarzida keng siyosiy talqin etildi va boshqa jihatlari ko‘pam ochiqlanmadi. Aslida yuqorida ko‘rdikki, bu uchta tushunchani o‘zida mujassam etgan: “***Haqiqat – sihhat-salomatlik***, ***haqiqat – tartib***, ***haqiqat – adolat***”. Demak, bular Amir Temur tayangan haqiqatlardir va davlat siyosati mohiyatini belgilovchi tamoyillaridir.

Amir Temur bo‘yicha, davlat 4ta muhim omilga tayangan: saltanat, xazina, sipoh, raiyat[5]. Amir Temur davlatini 12ta tartib-qoidaga asoslanib boshqargan. Ularni esa “bor-yo‘g‘i yetti vazir boshqargan”[6]. Akademik Bo‘riboy Ahmedov “Sohibqiron Temur” asarida yozadi: “Hazrat sohibqironning fikricha, vazir to‘rt sifatga ega bo‘lmog‘i lozim: aql-farosatlilik; raiyat va sipoh ahvolidan boxabarlik; sabr-toqatlilik va tinchliksevarlik”[7]. Demak, tinchliksevarlik sifati siyosiy elita axloqining 4 ustunidan biridir.

Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida, Herman Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarida, ilk falsafa bo‘yicha O‘zbekiston akademigi I.M.Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli mo‘jaz asarida, O‘rta Osiyo sharqshunosligining asoschisi V.V.Bartold asarlarida, Faxriddin Ali Safiyning “Rashahotu aynil-hayot” (Obihayot tomchilari), akademik tarixchi Bo‘rivoy Ahmedov asarlarida, akademik tarixchi Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” kitoblarida Amir Temurning hayoti mobaynida suyangan tamoyillari, o‘zining “Temur tuzuklari”da keltirilganidan tashqari, alohida ochiqlangan.

Yuqoridagi yozma manbalar va ko‘plab boshqa chet ellik mualliflar asarlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, Amir Temur butun hayoti davomida Qur’on va sunnatga muvofiq ish qilganini, ularni ko‘p bora yoddan takror qilib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Amir Temur ulug‘ valiylarga alohida hurmat ko‘rsatgan. Nimaiki ish qilsa, shariati islom va sunnani nabaviyga mos qilishga intilgan. O‘z davlatchiligini Qur’on va islom qoidalariga asoslanib yuritgan, o‘zining maxsus tuzuklariga tartib bergan. Saltanatdorlik yumushlarini o‘z tamoyillari asosida ishlab chiqqan va ***yurt tinchligi va farovonligi*** esa ustuvor g‘oyalaridan, aytish mumkinki, maqsad va niyatlarining mohiyatini belgilagan. Bunga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin.

I.Mo‘minovning Sharofiddin Ali Yazdiydan keltirgan uchta iqtibosini keltirib o‘tamiz, ularni Amir Temur hayoti davomida takrorlab yurgan ekan:

“Temur: ““***Kamar bar miyon va sano bar zabon***” – <u>belda kamar va tilda sano</u>”, ya’ni ***ish va so‘z bir bo‘lsin*** deyishni xush ko‘rar edi”[8].

Ikkinchi fikrni Xo‘ja Bahouddin Naqshbandning “Dil ba yoru, dast ba kor”, “ya’ni “Yurak ma’shuqqa, qo‘l ishda”” tamoyillariga asoslanib, Amir Temur, “***Muruvvat va mardi peshi xoliq va xaloyiq mahmud ast***” – <u>insonparvarlik va mardlikni Olloh ham</u>, <u>xalq ham ulug‘laydi</u>, degan gapni ko‘p takrorlar edi”[9].

Uchinchisi, ““*Agar sardor baddil va bejigar boshad – bar lashkar shikast oyad*” – agar lashkarboshi yomon ko‘ngil va aqlsiz bo‘lsa, qo‘shinning yengilmasdan iloji yo‘q, derdi u”[10].

Shuningdek, Amir Temurning siyosat tamoyillari ichida o‘zi yigitlik chog‘ida tog‘asi Amir Hoji Barlosga aytgan ushbu so‘zi mashhur bo‘lgan: “Boshliqsiz mamlakat joni sug‘urib olingan tanaga o‘xshaydi. Jonsiz tana uning halokati bilan barobardir”[11].

Amir Temur unga xoinlik qilgan Amir Husaynga atab bir turkiy baytni shaxsan yozib yuborgan:

“Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdur mango,
Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun ango”[12].

Keyinchalik hazrat Mir Alisher Navoiy bu baytni ming tahsin so‘zi bilan olqishlagan.

*Herman Vamberi* esa Amir Temurning tez-tez takrorlab turadigan siyosat yo‘l-yo‘rig‘i sifatida quyidagi xulosasini keltiradi: “Olloh yolg‘iz, bitta bo‘lgani kabi podshoh ham bitta bo‘lishi lozim. Butun dunyo ulug‘ xonning yakka hokimligiga nisbatan hechdir”[13]. Herman Vamberi o‘z asarida Amir Temurning yuqoridagi siyosat yo‘rig‘i bo‘yicha dunyoning uch iqlimini olganini batafsil insho qilgan. Hattoki, uchta doira shakli uning davlati ramzi, tug‘rosi sifatida bo‘lganki, bu Shimol, Janub, G‘arbda hukmronlik qilishiga ishoradir.

*Ziyodulla Muqimov*ning “Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot)” asarida “Temur tuzuklari”ga oid quyidagicha xulosa berilgan: “Shuningdek, qisman Yaso («Yasoq») qonunlari ta’siri ham bo‘lgan, albatta. O‘rta asr mutloqiy monarxiyasini tashkil qilgan bunday ulkan davlat mexanizmi ichki tartib va intizomni ta’minlab turadigan qonunchiliksiz faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas edi. Buni hukmdorning o‘zi ham chuqur tushunib yetib «Tuzuklar»da ko‘rsatib o‘tgan edi. Jumladan, u bu boradagi tajribalarni xulosalab, «tajribamdan ko‘rib bildimki, *davlat agar dinu tartib asosida qurilmas ekan, to‘ra va tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltantning shukuhi va qudrati tartibi yo‘qoladi.* Yoxud qalang‘i-qasang‘i odamlar kirib chiqadigan shiftsiz, usti ochiq, eshigi, to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi»[14]. Bunda dini-oyin, diniy tartib va qoidalar, intizom va urf-odatlar, ularning bajarilishi bo‘lsa, to‘ra-odat huquqlari, tuzuk hukmdorlarning dunyoviy qonunchilik faoliyati natijasida qabul qilingan aktlari tushunilgan. Demak, bu xulosa o‘sha davrdagi harakatda bo‘lgan huquq manbalari tizimini o‘zida aks ettirgan”[15].

Aslida, podshohlar dunyoni tan olganlar sirasiga kiradi: chunki ular mamlakat obodligi, raiyati farovonligi va har ikkisining tinchligi uchun oqcha sarf qilishlari va siyosat yuritishlari kerakdur. Valiylar esa dunyoni tan olmaganlar sirasiga kiradi: chunki ular Haq taoloning diydori va do‘stligidan o‘zga narsani ixtiyor etmaslar, Xudoi taoloning rizosini topish yo‘lida mehnat, zahmat va ranju uqubat tortishadi.

Har narsaning kafforati bordur: dunyoning kafforati do‘zax, oxiratning kafforati Haq taoloning jamoli va adn jannatidur, deb qabul qilingan. Lekin shunday bo‘lsa-da, bitta bo‘lsin avliyosi bor bo‘lgan diyor naqadar baxtliki, podshohi, ahli va ayonlari ul zotga ta’zim va xizmat ko‘rguzish niyatini oshkor qilishlari mumkindur.

Avliyosi yo‘q mamlakat, dunyosiga ko‘milgan diyordir, bu kabi davlatlar jamiyatida axloq anchayin keraksiz bo‘lib qolur va fitnalar yashirin hozir bo‘lur. Tinchlik va eminlikda umrguzaronlik qilish uchun ham podshohlarning e’tiqodlisi, boshqasiga qaraganda, ancha yaxshiroqdur, lekin porso va orif zotlarning siyosiy hokimiyatga kelishi ancha dushvordur – chunki dunyoparastlik va molparastlik ularning chekiga tushgan emas.

E’tiqodli va iymoni mustahkam podshoh va hukmdorlar esa piru ustoz va valiy zotlarning hurmatini joyiga qo‘yishgan, ularga oshkora hurmat va izzat ko‘rsatishgan.

Amir Temur ham avliyolarga, orif zotlarga hurmat ko‘rsatgan hukmdorlardan bo‘lgan, piru ustozlarining duosi bilan ish g‘alabasiga jiddu jahd ko‘rguzgan. U ham tipik o‘rta asrlar podshohlariga xos fe’lu shijoatga ega bo‘lgan, harbiy san’atga eng ustuvorlik ahamiyatini berganki, shu sababli ham Sohibqiron, deb atalgan. Har ishni aql va zamonasining siyosat yo‘rig‘i bo‘yicha qilgan. Mardlik va pahlavonlikni o‘ta yuksak qadrlagan. Shundaylardan biri bo‘lgan suyukli o‘g‘li Shohruh Mirzoning, hattoki, o‘z o‘limi arafasida yonida bo‘lmaganidan afsuslangan[16].

Zamonaviy podshoh va hukmdorlar shu sababli ham ulug‘ avliyo ajdodlari bilan iftixor qilgaylar, ularni qabrini ziyorat qilurlar, obod va so‘lim bog‘ qilurlar. Valiylarni hurmat qilgan ulug‘ hukmdor sifatida ham Amir Temurni ulug‘ bobokalonimiz, deb faxru iftixor qilish, davlatdorlik tutimlarini o‘rganish va amal qilishga zamona podshohlari harakat qilurlar va buni faqatgina siyosiy jihatdan ulug‘ ibrat maktabi, deb emas, balki, e’tiqod va iymon jihatidan ham ulug‘ maktab, deb qarash lozimki, yurtimiz obodligi, xalqimiz farovonligi va yurt sarhadlari uzra tinchlik poyidor, taraqqiy etish ishlari esa barqarorligining siyosiy va ma’naviy dastagi, deb qabul qilish to‘g‘ri bo‘lur edi.

Chingizxonga nisbatan O‘rta Osiyo xalqlarida shakllangan hukm, ochig‘i, Amir Temurga nisbatan ham boshqa xalqlarda shunday hukm chiqarishga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Masalan, u Hindistonning qoq markazigacha borib, asirlar lashkarga og‘irlik qilgan...; jumla zamonasining sultonu podshohlarining toj va taxtini Samarqandga keltirgan. Birgina “Samoviy chechaklar podshohligi”[17], deb atalgan yarim Osiyoni bosib olgan Xitoy podshohi Kambalaning toji Amir Temurning bemavrid sovuq olishi va u sababidan vafot etishi bilan o‘z hukmdorining boshida saqlanib qolgan, bo‘lmasa, lashkar va ruhiyat zabt etishga tayyor bo‘lgan.

Shu o‘rinda Amir Temurning besabab urush olib bormaganiga bir asos keltirib o‘tamiz. Herman Vamberining yozishicha, turli elchilarga rasmiy qabul majlisida Xitoy imperatori elchisi Amir Temurga yillik xiroj to‘lashni talab qilganida, qattiq g‘azablanadi va bu uning Xitoyga yurishiga sabab bo‘ladi. Aslida esa uning yurushlariga, yoki ayrim joylarga qayta-qayta yurush qilishiga sabab sifatida unga qilingan xoinlik, lafzsizlik kabilar bilan izohlangan.

Amir Temur o‘z davlatida adolat ustuvorligini shior qilgan, kuch adolatdadir, deb e’tirof etgan. Qayerdaki, islom diniga putur yetsa va musulmonlarga fitna qilinsa, o‘sha yerda Amir Temur tig‘ini va uning adolatini ko‘rishgan. Shu sababli ham “uning Qutbiddin va Sohibqiron unvonlari bor edi”[18]. Amir Temur vasiyatida ham millatning dardiga darmon bo‘lish barcha amaldorlarning vazifasi ekanligini, zaiflarni himoya qilish, adolat va ozodlik temuriyzodalarning dasturi bo‘lishi kerakligini, ayrim xodimlar va dushmanlar nizo urug‘ini sochishlariga yo‘l qo‘ymasliklarini[19] uqtirgan.

Shunday qilib, Amir Temurdek ulug‘ saltanat qurgan va uning tinchligini (ijtimoiy) adolat qonunlari bilan boshqarishda ko‘rgan buyuk siyosat arbobi insoniyat tarixida oz uchraydigan ulug‘ fenomendir va hali, juda ham ko‘p bora bu mavzu o‘rganila boraveradi, ilm qiladigan tadqiqotchilarning esa bu alfozda so‘zi tugamaydi, deb hisoblaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Herman Vamberi. BUXORO YOXUD MOVAROUNNAHR TARIXI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1990. B. 46.
2. AMIR TEMUR VASIYATI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 1991. B. 3.
3. AMIR TEMUR VASIYATI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 1991. B. 3.
4. Ibrohim Mo‘minov. AMIR TEMURNING O‘RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI. Yozma manbalar ma’lumoti asosida. (Ikkinchi nashri). Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 1993. B. 50.
5. BO‘RIBOY AHMEDOV. SOHIBQIRON TEMUR (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 1996. B. 16.
6. BO‘RIBOY AHMEDOV. SOHIBQIRON TEMUR (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 1996. B. 16.
7. BO‘RIBOY AHMEDOV. SOHIBQIRON TEMUR (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 1996. B. 17. Shuningdek, Amir Temur bu o‘rinda “zoti past, buzuqi, qora niyatli odamlarni hukumat ishlariga yaqinlashtirmaslik kerak”, deb ogohlantiradi.
8. Ibrohim Mo‘minov. AMIR TEMURNING O‘RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI. Yozma manbalar ma’lumoti asosida. (Ikkinchi nashri). Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 1993. B. 51.
9. Ibrohim Mo‘minov. AMIR TEMURNING O‘RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI. Yozma manbalar ma’lumoti asosida. (Ikkinchi nashri). Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 1993. B. 51.
10. Ibrohim Mo‘minov. AMIR TEMURNING O‘RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI. Yozma manbalar ma’lumoti asosida. (Ikkinchi nashri). Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 1993. B. 51.
11. Ibrohim Mo‘minov. AMIR TEMURNING O‘RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI. Yozma manbalar ma’lumoti asosida. (Ikkinchi nashri). Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 1993. B. 18-19.

12. BO‘RIBOY AHMEDOV. SOHIBQIRON TEMUR (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 1996. B. 13.

13. Herman Vamberi. BUXORO YOXUD MOVAROUNNAHR TARIXI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1990. B. 38.

14. Temur tuzuklari. Toshkent. 1996. B. 72.

15. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. B. 53.

16. Herman Vamberi. BUXORO YOXUD MOVAROUNNAHR TARIXI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1990. B. 46.

17. Herman Vamberi. BUXORO YOXUD MOVAROUNNAHR TARIXI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1990. B. 46.

18. AMIR TEMUR VASIYATI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 1991. B. 3.

19. AMIR TEMUR VASIYATI. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 1991. B. 3.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATIDA QISHLOQ XO‘JALIGI VA HUNARMANDCHILIKNING O‘ZARO TA’SIRI

**Daminov Akbar**
**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,**
**chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar saltanatida qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikning o‘zaro ta’siri mavzusi tahlil qilingan. Unda mamlakat taraqqiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni, uning hunarmandchilikning to‘qimachilik, gilamchilik, ko‘nchilik, etikduzlik, qog‘oz ishlab chiqarish va boshqa sohalariga xom-ashyo yetkazib berishdagi o‘rni tahlil etilgan.

Amir Temur saltanatidagi qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikining o‘zaro ta’sirini o‘rganish bugungi kun uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. U davrda sifatli va inson salomatligi uchun foydali mahsulotlar ishlab chiqarish uchun katta ilmiy tajribalar to‘plangan.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, hunarmandchilik, to‘qimachilik, gilamchilik, ko‘nchilik, etikdo‘zlik, qog‘oz ishlab chiqarish.

**Абстракт:** В данной статъе анализируетса тема взаимовествия земледелия и ремесел в период правления Амира Темура и Темуридов. Анализируется ролъ селъского хозяйства в развитии страны, его ролъ в обеспечении сыръем текстилънойб ковровойб кожевенной, сапожной,бумажной и другич отраслей зромышленности.

Изучение взаимодейсвия земледелия и ремесел в империи Амира Темура имеет практичиское значения на сегодняшний день. За этот период был накоплен большой научный опыт по производству качественной и полизной для здоровья человека продукции.

**Ключевые слова:** Амир Темур, ремесла, текстиль, ковроткачество, кожевенное дело, сапожное дело, производство бумаги.

**Abstract:** This article analyzes the topic of interaction between agriculture and handicrafts in the reign of agriculture in the country’s development, its role insupplying raw materials to textile, carpet tanning shoemaking paper production and other industries.

The study of the interaction of agriculture and crafts in the kingdom of Amir Temur is of practical importance for today. During that period, graet scientific experiences were accumulated for the production of high-quality and useful products for human health.

**Key words:** Amir Temur, crafts, textiles, carpet making, tanning, shoemaking, paper production

Barchamizga ma’lumki, qishloq xo‘jaligining paydo bo‘lishi rivojlanishi keyinchlik yer yuzida tamaddunlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Qadimgi o‘rta asirlar tarixini nazarda tutsak, davlat va jamiyat ravnaqi, inson hayoti va ta’minoti aynan qishloq xo‘jaligi rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Chunki davlat va xalq jamiyatning asosiy daromadi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri kelgan va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy manba bo‘lgan. Bugungi kunda ham insoniyatni ochlikdan saqlashda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari katta rol o‘ynaydi, shuningdek, bu sohaning boshqa sohalarga ham ta’siri kattadir.

Amir Temur va uning vositalari davrida Amir Temur ba Temuriylar saltanatidagi qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikning o‘zaro ta’sirini o‘rganish bugungi kun uchun ham katta amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Amir Temur va Temuriylar saltanatida ko‘plab qishloq xo‘jalik maxsulotlari hunarmandchilik sohalarini zarur xom-ashyolar bilan ta’minlab turgan. Qishloq xo‘jalik xom-ashyosining ulishi to‘qimachilikda, kulolchilik quruvchilik, qandolat ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ham salmoqli bo‘lgan. Shu bilan birga hunarmandchilik sohalari uchun zarur bo‘lgan xom-ashyolarni yetkazish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish ham ixtisoslashib borgan. Hunarmandchilikning rivojlanishi qishloq xo‘jalik xom-ashyolariga bo‘lgan talabni oshirgan va shu tufayli ijtimoiy mehnat taqsimoti ham hunarmandchilik turlari rivojlangan. Hunarmandchilik sohalarining gurkirab rivojlanishi sohalariga qarab geografik hududlarda o‘ziga hos tarzda rivojlanib brogan.

Samarqand saltanat poytaxti sifatida hunarmandchilik keng taraqqiy etgan va biz usha davr hunarmandchiligi turlarining ko‘pligi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ushbu hududda son va sifat jihatdan ancha ko‘p bo‘lganini ko‘ramiz. Bundan ko‘rinadiki, Amir Temur saltanatida qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikning qariyib 500 xil turi bo‘lib ularning barchasini xom-ashyo bilan ta’minlash va ularni ichki va tashqi bozorga olib chiqish masalalari ham yechilishi lozim edi. Bundan ko‘rinadiki, qishloq xo‘jaligi sohalarida yetishtirilgan xom ashyolar hunarmandchilik ravnaqiga ta’sir ko‘rsatgan.

To‘qimachilik sohasini qishloq xo‘jaligisiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Uning aksaryat tayyor mahsulotlari qishloq xo‘jaligi xom-ashyolaridan tayyorlanar edi.

Samarqand hamda Amir Temur va Temuriylar davlatining boshqa shaharlari bozorlarida futa deb ataluvchi yengil yupqa mato sotilgan. Futa paxtadan, ipakdan va jundan tayyorlangan. Futa ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligining paxtachilik, ipakchilik va chorvachilik sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Futa ishlab chiqarish hududlarida paxta, pilla yetishtirish, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Erkaklar salla tarzida o‘ragan mato ham, ayollar boshiga uragan uzunchoq rumol ham, to‘n ustidan bog‘lanadigan belbog‘ ham futa deb yuritilgan.

Manbalarda Samarqandlik futa to‘quvchi ustalar –Ustod Shohmuhammad futabofga Mir Muhammad degan bola Ustod Subhiga esa Subhonquli ismli bola shogirdlikka olinganligi haqidagi qozilik hukmlari mavjud.

Usha davrda ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir hisoblangan olacha gazlamasi ham paxta tolasidan tayyorlangan, unga ba’zan ozgina ipak qo‘shib ham to‘qishar edi.

Temuriylar davrida ham muayyan gazmol turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qishloqlar mavjud edi. Buxoro yaqinidagi Olachaboftan qishlog‘i aholisi olacha ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bunday qishloqlar hunarmandlari ishlab chiqargan mahsulot, odatda, o‘zga mamlakatlarda sotish uchun muljallanar edi.

Buxoro yaqinida Zandana qishlog‘i “zandanachi” gazmoli ishlab chiqaruvchi ustaxonalari bilan mashxhur bo‘lgan. Ilk o‘rta asirlarda mashhur bo‘lgan zandanachi matosiga XIV-XV asrlarda ham talab katta bo‘lib, u paxtadan tayyorlanar edi.

Novgorodda arxerologik qazishmalar chog‘ida topilgan qayin pustlog‘iga yozilgan xat va Tevtob ordeni hujjatxonasidagi 1401 yilga oid hujjatdan ayon bo‘ldiki, zandanachi g‘arbiy va sharqiy Yevropada ham tarqalgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Yevropa mamlakatlariga yuborilgan mollar orasida “zandanachi” oddiy shaharliklar xarid qilishga qurbi yetmaydigan matolardan hisoblangan. Paxta tolasidan buzning badavlat aholi uchun mo‘ljallangan yupqa xilidan tortib, qalin oqlanmagan, sarg‘ish yoki kulrang xiligacha to‘qilar edi. Oddiy aholi uchun ancha qalinroq, lekin issiqni o‘zida yaxshi saqlovchi rango-rang bo‘z to‘qilgan. Chitgarlar bo‘yoqni o‘zlari tayyorlashgan. Shubhasiz bu hol ulardan muayyan kimyoviy jarayonlarni bilishni, uncha muncha naqish san’atidan habardor bo‘lishni talab etar edi.

Movarounnahrda to‘qilgan bu mahsulatlar albatta Buyuk ipak savdosiga ham muhim ta’sir ko‘rsatgan.

Samarqand, Buxoro, Xujand, Quqon, Marg‘ilon, Namangan, kabi shaharlarda ishlab chiqarilgan shoyi gazlamalar Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sharq va Yevropa davlatlariga olib chiqarilar edi.

Hunarmandchilik sohasida to‘qimachilik bilan birga kulolchilik, gilamduzlik va binokorlik sohalari ham qishloq xo‘jaligi ravnaqi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan.

Gilam, palos va yamatlar shaharlik hunarmandlardan tashqari, qishoq aholisi, hususan, chorvadorlar tomonidan ham tayyorlangan. Sirkor kulolchilik rivojidagi beqiyos yuksalish ham XIV asr oxiri-XV asr boshlariga to‘g‘ri keladi.

Somon o‘sha davrda turli sohalarda keng foydalanilgan muhim xom-ashyo hisoblangan. Bug‘doy, arpa, javdar suli va boshqa g‘alla ekinlarini xirmonda ho‘kiz, ot eshak bilan yanchishda (ho‘p) mol tuyog‘i ta’sirida poya ezilib, mayda somon hosil qiladi. U chorvachilikda ham keng foydalanilgan. Mollarga yedirishdan oldin somonga mahsus usullarda: qaynoq suvda buktirish, qaynoq bug‘da bug‘lash, barda, lavlagi turpi, qirqilgan ildiz mevalar bilan aralashtirish, osh tuzi va boshqa foydali mahsulotlaruning xushxurligi va tuyimliligini oshiradi. Somondan molar tagiga tushama uchun foydalanilgan.

Tut daraxti, asosan ipak qurtlarini ko‘paytirish va boqish uchun ekilgan. Samarqand va Buxoroda pilla sotadigan dukonlar bo‘lgan.

Rang tayyorlash usuli ko‘p yillik mehnat va tajriba asosida tokomillashgan va odatda, sir tutilgan. Bo‘yoq to‘qimachilik va kulolchilikdan tashqari, hunarmandchilikning boshqa sohalarida ham ishlatilgan. Jumladan, qog‘oz ishlab chiqarishda ham tabbiy va ba’zi mineral bo‘yoqlar keng qo‘llanilgan. Boy bezaklar bilan bitilgan ko‘pgina qo‘lyozmalarning xoshyasiga pushti, och feruza, sarg‘ish havorang qog‘ozlardan kesib yopishtirilgan.

Bo‘yoq olinadigan o‘imliklar, jumladan. qizil va sariq ranglar olishda foydalanilgan ruyan o‘simligi yetishtirilgan. Xina siyoh tayyorlashda, kosmetikada, dorivor sifatida, qog‘ozga rang berishda ishlatilgan. Manbalarning guvohlik berishicha, Buxoroda “Qirmiz nomli qimmatbaho bo‘yoq cho‘ldagi uncha katta bo‘lmagan daraxt qurtlaridan olingan”.

Samarqand qog‘ozi qadimdan dunyoga mashhur bo‘lgan va bu an’ana Temuriylar davrida ham yangi bosqichda rivojlangan. Bu noyob qog‘oz asosan tut navdalariga uzoq muddatli va mashaqqatli mehnat orqali ishlab chiqarilgan. Demak, saltanatda nafaqat ipakchilik, balki qog‘oz ishlab chiqarishda ham tut yetishtirishga alohida etibor qaratilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand qog‘ozi Sharq va G‘arb davlatlariga karvon yo‘llari orqali olib borib sotilgan va ular jahon bozorida pishiqligi, oliy sifati, asrlar davomida saqlanib turishi va eng asosiysi mashaqqatli mehnat evaziga tayyorlanganligi bois qadrlangan. Hatto Nizomiddin Shomiy ba Sharafiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma” nomli asarlari ham Samarqand qog‘oziga yozilgan. Smarqand qog‘oziga yozilgan. Samarqand qog‘ozi tutdan tayyorlangani bois, qishloq xo‘jaligida oliy navli tut daraxtini yetishtirishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Amir Temur va Temuriylar saltanatida Samarqandning Sharq dunyosining savdo-iqtisodiy markaz rolini bajarishida barcha sohalar qatorida qishloq xo‘jaligining ham o‘rni katta bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.

Kulolchilik mahsulotlaridan qishloq xo‘jalik mahsulotlari-g‘alla, donlar va boshqa mahsulotlarni saqlashda ham keng foydalanilgan. Arxeologik qazishmalar davrida don-dunlarni saqlashga muljallangan katta-katta xumlar topilgan. Shu bilan birga uy-ruzg‘or buyumlarining katta qismini ham aynan kulollar ishlab chiqarar edilar. Shohruxiyada o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar davrida shahriston etagida, undan yo‘l bilan ajratilgan joyda kulollarning katta mavzesi ochib o‘rnatilgan.

Amir Temur va Temuriylar davlati shaharlarida rivoj topgan hunarmandlik turlaridan biri etikdo‘zlik edi. Ishlab chiqariladigan poyabzal turiga qarab bu hunarmandlar mahsido‘z yumshoq tag charmli etik tikuvchi, kavshdo‘z, qattiq tag charmli(muza) etik tikuvchi muzado‘zlar kabi mutaxassislarga bo‘linar edi. Erkaklar poyabzali ko‘plab tayyorlanar edi. Eski poyabzal ta’mirlovchi ko‘hnado‘zlarning alohida guruhini tashkil etgan. XIII-XIV asrlarda davlatga qarashli yirik hunarmandchilik ustaxonalarida qullar mehnatidan foydalanilgan.

Bu davrda jundan har xil gulli, qalin patli va taqir gilamlar, paloslar ham to‘qilar, hamatlar bosilar edi. Hamat uy-po‘zgorda faqat tushama sifatida emas balki harbiy kiyimboshlar tayyorlashda ham keng ishlatilgan. Anvoyi gilamlar Amir Temur saroylarini bezar edi. Hukumron sulolaning

oilaviy tantanalari, hukumdorning harbiy yurishlardan qaytishi va elchilarning kelishi munosabati bilan poytaxt shaharlarning asosiy ko‘chalari va uylarining devorlari gilamlar bilan bezatilardi.

Manbalarda atlas, kimxob, banoras ba duxobalar qatorida tovlanuvchi, yaltiroq xopo, nafis va guldor debo kabi shoyidan to‘qilgan gazmollarning nomlari uchraydi.

Albatta gazlamalarning badavlat, o‘rta va kambag‘al tabaqalarga muljallangan turlari bor edi. Gazlamalar sifati va bezagiga qarab ayni shu matodan kiyim kiygan shaxslarning ijtimoiy jihatdan qaysi tabaqaga mansubligini aniqlash mumkin bo‘lgan.

Aslida gilamchilik ham chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq holda taraqqiy etgan.

Qadimdan gilam to‘qish ko‘chmanchi qabilalar orasida keng tarqalgan. O‘simlik (paxta, zig‘ir, jut) tolasi, jun (qo‘y, echki, tuya juni)dangina tayyorlandgan. Gilam to‘qish uchun qirqilgan junlar yuvilib tozalangan, temir taroqlarda taralgan , taralgan junlardan ip yigirilgan. Iplar turli tabiiy bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan.

Yuqorida takidlaganimizdek, bo‘yoqlar ham tabiiy daraxt o‘simlik, buta hasharotlardan olinganki, Amir Temur va Temuriylar davridagi qishloq xo‘jaligi va chorvachilik bugun biz tasavvur qilganimizdan ham ko‘ra kengroq mavzularni qamrab olgan. Eng qizig‘i ularning barchasi ekologik jihatdan toza, sifatli va inson salomatligi uchun foydali mahsulotlar edi.

Agar jamiyat azolarining o‘z davri imkoniyatlaridan to‘liq foydalanganliklari va tabiat bilan muntazam va uzviy muloqotda bo‘lgani, barcha o‘simlik, buta va daraxtlar hasharotlarning hususiyatlarini yaxshi bilganlari o‘z davrining yirik bilimdonlari bo‘lganlari, faqatgina o‘zlarining sohalarini emas, ularga bog‘liq barcha ikir chikirlarni yaxshi bilganlarni, ular yaratgan har qanday hunarmandchilik mahsulotlari san’at darajasiga ko‘tarilgani va o‘z sifatini asrlar osha saqlab kelayotganini ko‘ramiz. O‘sha davrda tabiat, inson va jamiyat, borliqning o‘zaro aloqadorligi bugungi kundagidan ko‘ra ancha mukammalroq edi. Bugungi qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikni o‘zaro aloqadorlikda rivojlantirish uchun sohalararo yondashuvlar, ekologik toza, inson salomatligini saqlashga qaratilgan mahsulotlar ishlab chiqarish masalalari ham o‘rta asrlar rakursida ko‘rib chiqilishi va shu asoslar orqali qishloq xo‘jaligi xo‘narmandchilik va savdo, umumiy davlat va jamiyatni rivojlantirish masalalariga qayta nazar solish lozim deb o‘ylaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Amir Temur jahon tarixida S.Saidqosimov Toshkent: Sharq 1996 yil 296 bet.

2. Sohibquron Amir Temur (metodik tavsiyanoma) Toshkent: 1995 yil va boshqalar

3.Amir Temur biblografiya. Birinchi kitob tuzuvchilar Fayziyev X.T, Buriyev O, Raxmatullayeva A.R.

4.Amir Temur va Ulug‘bek davri tarixi qomuslar bosh tahririyati 1996 yil 264 bet.

5. Zafarnoma asari Sarafiddin Ali Azdiy Toshkent: O‘bekiston 1996 yil 527 bet.

## AMIR TEMURNING HARBIY STRATEGIYASI VA TAKTIKASI

**Xidirova Go‘zal Suyunjonovna**
**Qarshi Davlat texnika universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi**
**e-mail: guzalhidirova36@gmail.com**
**UDK:63.3(2)7**
**ORCID: 0009-0005-8903-9984**

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy ishda Amir Temur ning harbiy strategiyasi va taktikasi tahlil qilinadi. Unda Amir Temur qo‘shinining tashkil etilishi, harbiy yurishlarni rejalashtirish usullari, jang olib borish strategiyasi hamda taktikasi yoritib beriladi. Shuningdek, uning harbiy san’atga qo‘shgan hissasi, qo‘shin boshqaruvi va jang maydonida qo‘llagan usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, jumladan Temur Tuzuklari asaridagi ma’lumotlardan foydalanilgan. Ishda Amir Temurning harbiy tajribasi va uning o‘rta asrlar harbiy san’ati rivojiga ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan.

**Abstract.** In this scientific work, the military strategy and tactics of Amir Timur are analyzed. It covers the organization of Amir Temur's army, methods of planning military campaigns, strategy and tactics of warfare. Also, his contribution to military art, military command, and methods used on

the battlefield are scientifically analyzed. In the course of the research, historical sources, including information from the work "Temur's Code," were used. The work highlights Amir Temur's military experience and its influence on the development of medieval military art.

**Kalit so‘zlar**. Amir Temur, harbiy strategiya, harbiy taktika, qo‘shin tuzilishi, harbiy yurishlar, sarkardalik san’ati, davlat boshqaruvi, Samarkand, Temuriylar davri, Temur tuzuklari.

**Keywords**. Amir Timur, military strategy, military tactics, army structure, military campaigns, the art of command, state administration, Samarkand, Timurid era, Timur's decrees.

**Kirish.** Jahon tarixida buyuk davlat arboblari va sarkardalar alohida o‘rin egallaydi. Shunday ulug‘ shaxslardan biri bu Amir Temur hisoblanadi. U XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hududida kuchli davlat barpo etib, o‘zining yuksak harbiy mahorati, strategik fikrlashi va qat’iy boshqaruv tizimi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan. Amir Temur nafaqat yirik sarkarda, balki dono siyosatchi va davlat tashkilotchisi sifatida ham tanilgan. mir Temur tomonidan barpo etilgan davlat o‘sha davrda juda katta hududlarni qamrab olgan. Uning imperiyasi Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz, Hindistonning bir qismi va Yaqin Sharq hududlarini o‘z ichiga olgan. Bu hududlarni egallash va ularni boshqarish jarayonida Amir Temur o‘zining noyob harbiy strategiyasi va taktikasi bilan ajralib turgan. Uning harbiy yurishlari puxta rejalashtirilgan bo‘lib, har bir jang oldindan ishlab chiqilgan strategik reja asosida amalga oshirilgan.

**Muhokama.** Amir Temur qo‘shinining asosiy kuchi intizom, tezkorlik va qat’iy harbiy tartibga asoslangan edi. U qo‘shinlarni aniq tizim asosida tashkil qilgan va har bir askarning vazifasini belgilab bergan. Bu esa jang maydonida harakatlarning uyg‘unligini ta’minlagan. Shuningdek, u razvedka ishlariga katta e’tibor qaratgan, dushman kuchlari, ularning joylashuvi va imkoniyatlarini oldindan o‘rganib chiqqan. Natijada janglarda ustunlikka erishish imkoniyati oshgan. Amir Temurning harbiy san’ati faqat jang qilish bilan cheklanmagan. U strategik jihatdan muhim hududlarni egallash, savdo yo‘llarini nazorat qilish va siyosiy raqiblarni zaiflashtirish kabi maqsadlarni ham ko‘zlagan. Shu sababli uning yurishlari faqat harbiy emas, balki siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Amir Temur davrida Samarkand shahri yirik siyosiy va madaniy markazga aylangan. Amir Temurning harbiy faoliyati haqida ko‘plab tarixiy manbalarda ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Temur Tuzuklari asarida davlat boshqaruvi, harbiy tartib-intizom va strategik qarashlar haqida muhim fikrlar bayon qilingan. Bu asar Amir Temurning davlatni boshqarish va harbiy yurishlarni tashkil etishdagi tajribasini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Bugungi kunda ham Amir Temurning harbiy strategiyasi va taktikasi tarixchilar va tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Uning harbiy san’ati o‘rta asrlar harbiy tarixida muhim o‘rin tutadi va ko‘plab sarkardalar uchun tajriba maktabi bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadi — Amir Temur ning harbiy strategiyasi va taktikasi, qo‘shin tuzilishi hamda harbiy yurishlarining tarixiy ahamiyatini tahlil qilishdan iboratdir. Shuningdek, uning harbiy faoliyatining o‘rta asrlar tarixidagi o‘rni va ahamiyati yoritib beriladi

Amir Temur kuchli va tartibli qo‘shin tuzishga katta e’tibor bergan. Uning armiyasi aniq tizim asosida tashkil qilingan.

Qo‘shin o‘nlik tizim asosida tashkil etilgan (10, 100, 1000, 10 00)

Harbiy intizom juda qat’iy bo‘lgan

Qo‘shin tez harakatlana oladigan otliq askarlardan iborat bo‘lgan

Har bir jang oldindan puxta rejalashtirilgan.

Bu tizim harbiy boshqaruvni samarali qilgan.

Amir Temur harbiy san’at tarixida o‘zining mukammal strategiyasi bilan mashhur bo‘lgan buyuk sarkardalardan biridir. Uning harbiy strategiyasi puxta rejalashtirish, dushman kuchlarini oldindan o‘rganish va jang maydonida tezkor qaror qabul qilish kabi muhim tamoyillarga asoslangan. Amir Temur har bir yurishdan oldin uzoq muddat tayyorgarlik ko‘rgan va harbiy harakatlarni aniq reja asosida amalga oshirgan va harbiy strategiyani oldindan puxta rejalashtirishga katta e’tibor bergan. Strategiyasining asosiy jihatlari: dushman haqida oldindan razvedka ma’lumotlarini yig‘ish, jang joyini to‘g‘ri tanlash, qo‘shinlarni bir nechta guruhlarga bo‘lib hujum qilish va dushman kuchlarini bo‘lib tashlash hisoblangan. Jang paytida esa turli taktikalardan foydalangan. Ular soxta chekinish taktikasi, qanotlardan hujum qilish, tezkor otliq qo‘shinlardan foydalanish hamda dushman ruhiyatiga bosim o‘tkazishdir. U strategiyasida razvedka ishlari alohida ahamiyat kasb etgan. U jang boshlanishidan oldin dushman qo‘shinining soni, qurollanish darajasi,

joylashuvi hamda harakat yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘plashni juda muhim deb hisoblagan. Shu maqsadda maxsus razvedkachilar yuborilgan va ular orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida harbiy rejalar ishlab chiqilgan. Bu esa dushmanning zaif tomonlarini aniqlash va jangda ustunlikka erishish imkonini bergan.

Amir Temurning strategiyasining yana bir muhim jihati qo‘shinlarni to‘g‘ri joylashtirish va ularni boshqarish tizimi bo‘lgan. U qo‘shinlarni bir necha qismlarga bo‘lib, ularning har biriga alohida vazifa yuklagan. Markaziy qo‘shin asosiy kuch sifatida jang olib borgan bo‘lsa, qanotdagi qo‘shinlar dushmanni o‘rab olish yoki yon tomondan hujum qilish vazifasini bajargan. Bu usul dushman qo‘shinining harakatini cheklash va ularni tartibsiz holatga keltirishga yordam bergan. Amir Temur harbiy strategiyasida tezkorlik va harakatchanlik ham katta rol o‘ynagan. Uning qo‘shinlari asosan otliq askarlardan tashkil topgan bo‘lib, ular qisqa vaqt ichida uzoq masofalarni bosib o‘tish imkoniga ega bo‘lgan. Bu esa kutilmagan hujumlar uyushtirish va dushmanni tayyorgarliksiz holatda ushlash imkonini yaratgan. Natijada Amir Temur ko‘plab janglarda ustunlikka erishgan. Bundan tashqari, Amir Temur strategiyasida psixologik ta’sir ham muhim o‘rin tutgan. U dushman qo‘shiniga ruhiy bosim o‘tkazish orqali ularning qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini pasaytirishga harakat qilgan. Ayrim hollarda jang boshlanishidan oldin dushman shaharlarini qamal qilish yoki kuch namoyish etish orqali ularni taslim bo‘lishga majbur qilgan

**Xulosa** qilib aytganda, Amir Temur o‘rta asrlarning eng buyuk sarkardalaridan biri hisoblanadi. Uning harbiy strategiyasi, intizomli qo‘shini va samarali taktikasi katta imperiya barpo etishiga yordam berdi. U nafaqat yirik davlat asoschisi, balki harbiy strategiya va taktika sohasida ham katta tajribaga ega bo‘lgan yetuk qo‘mondon edi. Uning harbiy faoliyati, qo‘shin tuzish uslubi hamda jang olib borish san’ati o‘sha davr uchun nihoyatda mukammal va samarali bo‘lgan. Amir Temur o‘z armiyasini mustahkam tartib va qat’iy intizom asosida tashkil etgan. Qo‘shin tuzilmasining o‘nlik tizimga asoslanishi harbiy boshqaruvni ancha samarali qilgan. Har bir askar va qo‘mondon o‘z vazifasini aniq bilgan va jang maydonida muvofiqlashtirilgan holda harakat qilgan. Bu esa janglarda tezkorlik va tartibni ta’minlagan. Shuningdek, Amir Temur harbiy yurishlarni tashkil etishda strategik rejalashtirishga alohida e’tibor qaratgan. U jang boshlanishidan oldin dushman haqida to‘liq ma’lumot to‘plashga, razvedka ishlarini kuchaytirishga va jang maydonining geografik sharoitini o‘rganishga katta ahamiyat bergan. Natijada u ko‘plab janglarda ustunlikka erishgan va g‘alaba qozongan.

Amir Temurning harbiy yurishlari natijasida juda katta hududlarni qamrab olgan qudratli davlat barpo etilgan. Uning imperiyasi Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz, Yaqin Sharq hamda Hindistonning ayrim hududlarini o‘z ichiga olgan. Bu davrda davlatning siyosiy markazi sifatida Samarkand shahri katta ahamiyat kasb etgan va u ilm-fan, madaniyat hamda savdo rivojlangan yirik markazga aylangan. Amir Temurning harbiy faoliyati va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari tarixiy manbalarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Temur Tuzuklari asarida harbiy intizom, davlat boshqaruvi va sarkardalik san’ati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Ushbu asar Amir Temur davrining siyosiy va harbiy tizimini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Bugungi kunda ham Amir Temurning harbiy strategiyasi va taktikasi tarixchilar, tadqiqotchilar hamda harbiy mutaxassislar tomonidan o‘rganilmoqda. Uning harbiy tajribasi va strategik qarashlari o‘rta asrlar harbiy san’atining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli Amir Temurning faoliyati nafaqat O‘zbekiston, balki jahon tarixining muhim sahifalaridan biri sifatida baholanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Sharaf ad-Din Ali Yazdi, *Zafarnama* — Amir Temur hayoti va g‘alabalarining eng mashhur tarixiy manbasi.

2. Nizomiddin Shomiy, *Zafarnoma (Shomiy versiyasi)* — Timurning harbiy yurishlari va strategiyasi haqida tarixiy asar.

3. Kadirov I.O. Tactics and Military Stratagems Used in Amir Temur’s Campaigns, *International Journal of Artificial Intelligence* — sahifalar 134–137.

4. Kamilov F.B. Amir Timur’s Military Prowess in Commanding Troops, *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research* — maqola sahifalari 847–850.

5. Ubaydullaev T.R. Strategic Methods Employed by Amir Temur to Ensure Moral-Psychological Stability and Enhance Combat Readiness, *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research* — sahifalar 45–51 (2025 yil)

6. Usmanov F.Kh. The Importance of Military Cunning and Unconventional Actions in the Most Important Victories of Amir Temur, *International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory* — sahifalar 38–46.

7. Sherzod Rahmanberdyiev S.S. Military Strategic and Operational Art of Master Amir Temur, *American Journal of Pedagogical and Educational Research* — maqola sahifalari 173–177

## AMIR TEMUR VA HOZIRGI ZAMON: DAVLAT BOSHQARUVI TAMOYILLARI

**Ismoilova Zarina Otabek Qizi**
**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**
**kimyo muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvi tizimi va uning hozirgi zamon uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada adolat, qonun ustuvorligi, markazlashgan boshqaruv, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish kabi tamoyillar yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur boshqaruv tajribasining zamonaviy jamiyat uchun dolzarbligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida uning merosi samarali davlat boshqaruvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi xulosa qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, davlat boshqaruvi, adolat, qonun ustuvorligi, markazlashgan davlat, siyosiy tizim, Temuriylar davri, ijtimoiy barqarorlik.

**Abstract:** This article analyzes the system of state governance established by Amir Temur and its significance for modern society. The paper focuses on the principles of justice, rule of law, centralized administration, and the development of science and culture. It highlights that Amir Temur’s governance model ensured political stability and social progress in his era. The study also emphasizes that these principles remain highly relevant in the context of globalization and modern governance.

**Keywords:** Amir Temur, state governance, justice, rule of law, centralized state, political system, Timurid period, social stability

Amir Temur jahon tarixida buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Uning faoliyati nafaqat harbiy yurishlar bilan, balki mukammal davlat boshqaruvi tizimini shakllantirgani bilan ham alohida ajralib turadi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat o‘z davrining eng kuchli siyosiy tuzilmalaridan biri bo‘lib, tartib-intizom, adolat va qat’iy boshqaruv asosiy tamoyillar sifatida qaror topgan [1].

Amir Temur boshqaruv tizimining eng muhim jihatlaridan biri – qonun ustuvorligi va adolat tamoyiliga amal qilishdir. “Kuch – adolatda” degan tamoyil uning siyosiy qarashlarining asosini tashkil etib, davlatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va fuqarolarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qilgan [2]. Shu yondashuv orqali u qisqa vaqt ichida kuchli va barqaror davlat tizimini yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Markazlashgan boshqaruv tizimi Amir Temur faoliyatining yana bir muhim jihati bo‘lgan. U hududlarni yagona markazga bo‘ysundirish orqali ichki nizolarni kamaytirib, siyosiy barqarorlikni ta’minlagan. Shu bilan birga, hududiy boshqaruvda malakali va sodiq amaldorlarni tayinlash orqali boshqaruv samaradorligini oshirgan [3]. Bu esa iqtisodiy rivojlanish, savdo aloqalarining kengayishi va infratuzilmaning takomillashuviga olib kelgan.

Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga ham katta e’tibor qaratgan. Uning davrida olimlar, hunarmandlar va san’atkorlar qo‘llab-quvvatlangan, natijada ilmiy va madaniy hayot yuksalgan. Shu jarayon Temuriylar davrida yanada yuksak cho‘qqiga ko‘tarilib, butun mintaqada madaniy uyg‘onish jarayonini boshlab bergan [4].

Bugungi globallashuv davrida davlat boshqaruvi samaradorligi alohida ahamiyatga ega. Adolat, qonun ustuvorligi, samarali boshqaruv va ijtimoiy barqarorlik hozirgi jamiyat rivojida ham muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, Amir Temur tomonidan ilgari surilgan boshqaruv g‘oyalari bugungi kun uchun ham nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi [5].

U har bir hududni boshqarish uchun ishonchli amaldorlarni tayinlab, ularning faoliyatini doimiy nazorat qilib borgan. Bu esa davlatda tartib va barqarorlikni ta’minlagan. Amir Temur

adolatni davlatning eng muhim ustuni deb bilgan. Uning fikricha, adolatsizlik davlatni zaiflashtiradi va inqirozga olib keladi [2].

Temur barcha qarorlarida xalq manfaatini ustuvor qo‘ygan. Bu esa uning boshqaruviga nisbatan ishonchni oshirgan. Zamonaviy huquqiy davlatlarda ham aynan qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari asosiy o‘rin tutadi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan. Samarqand va Hirot shaharlari ilmiy markazlarga aylangan. Bu davrda ko‘plab olimlar va mutafakkirlar faoliyat yuritgan.

Ilm-fanga bo‘lgan e’tibor davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Bu esa jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi innovatsion rivojlanish ham aynan ilm-fan asosida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Amir Temur merosi davlat boshqaruvi, liderlik va strategik rejalashtirish sohalarida keng o‘rganilmoqda. Uning boshqaruv tajribasi zamonaviy menejment tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Zamonaviy jamiyatda quyidagi tamoyillar muhim:

- strategik fikrlash
- mas’uliyat va intizom
- adolatli boshqaruv
- inson kapitaliga e’tibor

Amir Temur merosi yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Uning hayoti va faoliyati yoshlar uchun ibrat maktabidir. Yoshlarni liderlikka o‘rgatishda, ularda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda Temuriylar tajribasidan foydalanish samarali natija beradi. Amir Temur nafaqat kuchli davlat arbobi, balki mohir strateg ham bo‘lgan. Uning harbiy yurishlari puxta rejalashtirilgan bo‘lib, har bir qaror aniq strategik maqsadga yo‘naltirilgan. Temur harbiy va siyosiy boshqaruvni bir-biri bilan uyg‘un holda olib borgan. U o‘z qo‘shinini qat’iy tartib asosida boshqargan va har bir askarning vazifasi aniq belgilangan. Harbiy yurishlarda razvedka, logistika va vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga katta e’tibor qaratilgan. Bu omil uning harbiy muvaffaqiyatlarida muhim rol o‘ynagan.

Bugungi zamonaviy boshqaruv tizimida ham strategik rejalashtirish muhim o‘rin tutadi. Korxona va tashkilotlarda uzoq muddatli rejalar tuzish, risklarni oldindan baholash va resurslardan samarali foydalanish aynan Temuriylar davridagi yondashuvga o‘xshashdir.

Amir Temur davlatni boshqarishda inson omiliga alohida e’tibor bergan. U lavozimlarga faqat bilimli, tajribali va sodiq kishilarni tayinlagan. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Amir Temur quyidagi tamoyillarga amal qilgan:

- sadoqat va halollik
- kasbiy malaka
- mas’uliyat hissi
- tajriba va bilim

Kadrlar siyosati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani sababli davlat tizimi mustahkam ishlagan. Bugungi kunda ham har qanday tashkilot muvaffaqiyati aynan inson kapitaliga bog‘liq. Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida “inson resurslari” tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. Bu esa Amir Temur boshqaruvida ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Amir Temur davrida iqtisodiyot va savdo aloqalari rivojlangan. Buyuk ipak yo‘li orqali xalqaro savdo kengaygan. Temur savdogarlarni qo‘llab-quvvatlagan va ularga qulay sharoit yaratgan.

U quyidagi iqtisodiy choralarni amalga oshirgan: savdo yo‘llarini himoya qilish, bojxona tizimini tartibga solish, hunarmandchilikni rivojlantirish, shaharlar infratuzilmasini yaxshilash. Natijada davlat iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan. Bugungi global iqtisodiyotda ham savdo va logistika muhim o‘rin tutadi. Amir Temur merosi milliy o‘zlikni anglash va uni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tarixiy tajriba asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin: birinchidan, milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ikkinchidan, yoshlar ongida tarixiy xotirani shakllantirish, uchinchidan, davlat boshqaruvida barqarorlikni ta’minlash. Shu sababli Amir Temur merosini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

**Xulosa**

Amir Temur tomonidan yaratilgan davlat boshqaruvi tizimi o‘z davrining eng ilg‘or tizimlaridan biri bo‘lgan. Uning asosiy tamoyillari – adolat, tartib-intizom, strategik boshqaruv va ilm-fanga e’tibor – bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ushbu tamoyillar bugungi

O‘zbekiston taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyat rivojida tarixiy tajribalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu esa Amir Temur merosining nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

**Takliflar**

1. Amir Temur merosini chuqur o‘rganish va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.
2. Ta’lim tizimida Temuriylar davri boshqaruv tajribasini keng joriy etish kerak.
3. Davlat boshqaruvida tarixiy va zamonaviy tajribani uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.
4. Yoshlar orasida liderlik va strategik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.
5. Ilm-fan va innovatsiyaga investitsiyalarni oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. Ahmedov B. Amir Temur tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
4. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 2020.
5. Xasanov X. Temuriylar davri tarixi. – Toshkent, 2019.

## JADID ADABIYOTI NAMOYANDASI. ABDURAUF FITRAT – MA’RIFATPARVAR IJODKOR

**Farg‘ona davlat universiteti**
**Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**
**Mahammadaminova Nodira Ahrorjon qizi**

**Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna**
**filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelish omillari, uning tarixiy sharoiti hamda metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma’rifiy va madaniy uyg‘onish harakati sifatida xalqning milliy ongini shakllantirish, ta’lim tizimini yangilash va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilgan muhim tarixiy jarayon hisoblanadi. Maqolada jadidchilik g‘oyalarining shakllanishida zamonaviy ta’lim, milliy o‘zlikni anglash, ma’rifatparvarlik hamda ijtimoiy islohotlar konsepsiyasining o‘rni yoritiladi. Shuningdek, jadidchilik harakatini o‘rganishda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy-tahliliy hamda manbashunoslik metodlarining ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy jarayon, balki milliy taraqqiyot va modernizatsiya g‘oyalarining muhim metodologik poydevori ekanligi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar.** Turkiston jadidlari, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ta’lim islohoti, tarixiy jarayon, metodologik yondashuv.

**Abstract.** A scientific and medical analysis of the history of the emergence of the Jadid movement, its conditions and methodological foundations. Jadidism as a socio-spiritual and cultural revival movement that came from Turkestan in the 19th and early 20th centuries and as a cultural revival movement is an important historical process that served to ensure the education, renewal and development of a new people and society. The article highlights the role of Jadidism ideas in the development of modern education, self-awareness, enlightenment and social processes in the nation. , the importance of historicism, systematics, comparative-analytical and source studies methods in studying the Jadidism movement is substantiated. The programmatic Jadidism movement is not only an enlightening process, but also an important methodological foundation of national development and modern ideas.

**Key words:** Turkestan Jadids, Jadidism, enlightenment, revival, educational reform, national historical process, methodological system.

**Аннотация:** Научно-медицинский анализ истории возникновения движения джадидов, его условий и методологических основ. Джадидизм как социально-духовное и культурное движение возрождения, возникшее в Туркестане в XIX и начале XX веков, и как движение

культурного возрождения является важным историческим процессом, способствовавшим образованию, обновлению и развитию нового народа и общества. В статье подчеркивается роль идей джадидизма в развитии современного образования, самосознания, просвещения и социальных процессов в стране, обосновывается важность историцизма, систематики, сравнительно-аналитического и источниковедческого методов в изучении движения джадидизма. Программное движение джадидизма является не только просвещающим процессом, но и важной методологической основой национального развития и современных идей.

**Ключевые слова:** джадидизм, просвещение, возрождение, реформа образования, национальный исторический процесс, методологическая система, туркестанские джадиды.

**Kirish.** Insoniyat tarixida shunday daho san’atkorlar bo‘lganki, ular o‘z hayoti, ijodi, fikr-u zakovatini xalqining bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog‘on qilishga bag‘ishlaganlar. Darhaqiqat, bir qancha millatparvar adiblar qatag‘on tufayli ma’naviyatimiz tarixidan yulib tashlanganiga qaramay, ular merosini o‘rganish, asarlarida ko‘tarilgan ma’naviy – axloqiy muammolarni tadqiq etish bugungi istiqlol sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zero, bu ulug‘ adiblar ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Is’hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi fidoyi adiblar qatorida, ehtimol, ularning oldingi safida Abdurauf Fitrat ham o‘z elining aqli va qalb ko‘ziga aylangan.

Abdurauf Fitrat haqida qancha fikr-mulohaza yuritsak, shuncha buyuk ma’rifatparvar hamda g‘oyaviy yo‘lboshchilaridan biri bo‘lganligini anglab yetamiz. Yirik davlat va siyosat arbobi, shoir va olim, nosir va dramaturg, marifatparvar Fitrat 1886 –yili Buxoroda ziyoli oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktabda o‘qidi, keyin Mirarab madrasasida tahsilni davom ettirdi.

Asrimiz boshlarida vujudga kelgan “Tarbiyai atfol” jamiyati ko‘magida 1909 -1913 yillarda Istambulda tehsil oldi. Bu yerda qizg‘in ijod qildi. Shuning samarasi o‘laroq, 1911-yili “Sayha” (“Chorlov”) nomli she’riy to‘plamini chop ettiradi. Turkiyadan qaytgach, Buxoroda o‘qituvchilik qiladi. “Yosh buxoroliklar” harakatida faol ishtirok etadi, uning bosh mafkurachisi, g‘oyaviy yo‘lboshchilaridan biriga aylanadi. 1917-yil aprelidan 1918 –yil martigacha Samarqandda chiqib turgan “Xurriyat” gazetasiga muxarrirlik qiladi. 1918 – yili Fitrat Toshkentga keladi. U bu yerda asosan ilmiy, ijodiy, marifiy ishlar bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘ldi. Siyosat arbobi bir qator darsliklar tuzadi, “Chig‘atoy gurungi” nomli ijtimoiy – adabiy tashkilotda faol qatnashdi. 1921-yili Buxoroga taklif etiladi. U xalq xo‘jaligining bir qator sohalarini yaxshilashda, ayniqsa, maorif sohasida sezilarli ishlarni amalga oshiradi. Nosir va dramaturg Fitrat tashabbusi bilan bir guruh iqtidorli yoshlar Istambul, Moskva, Berlin kabi shaharlarga o‘qishga yuboriladi. Buxoro maktablari uchun o‘quv qurollari, darslik va qo‘llanmalar nashr etish yo‘lga qo‘yiladi. Fitrat 1921-1922 yillarda bir qator yuqori lavozimlarda ishlab, o‘zining davlat arbobi sifatidagi istedodini ko‘rsata oldi. Buyuk siyosat arbobi 1923-1924 yillarda Moskva va Leningradda yashadi, Sharq tillari institutida ishladi. Turk, arab, fors tillari va adabiyotidan yoshlarga dars beradi. Leningrad dorilfununi professorligiga saylandi. “Abulfayzxon”, “Bedil”, “Qiyomat”, “Shaytonning tangriga isyoni” kabi bir qancha asarlar yozib, nashr ettirdi. Moskvadan qaytgach, respublikamizning ilmiy, madaniy-marifiy hayotida faoliyat yurgizdi.

Fitrat tilshunos olim sifatida o‘zbek tilining qoidalari to‘g‘risida “Sarf”, “Nahv” asarlarini yaratdi.

Musiqashunos olim sifatida “Shashmaqom”, “O‘zbek klassik musiqasi ham uning tarixi”, “Sharq musiqasi” singari tadqiqotlar amalga oshirdi. 30-yillarga kelib esa u ilmiy-tadqiqot muassasalarida, o‘qituvchilar malakasini oshirish institute va dorilfununda ishladi.

Abdurauf Fitrat o‘z ilmiy ishlari uchun o‘zbek olimlari orasida birinchilardan bo‘lib professor unvonini qo‘lga kiritdi, bu esa uning ilmiy maqomi va tajribasini yana ham oshirdi. “Qon”, “Begijon”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘izg‘on”, “Abo Muslim”, “Hind ixtilochilari” va “Chin sevish” kabi asarlarida esa xalqning ozodlik va erkinlikka intilishlarini tasvirlagan. Bu asarlar orqali Fitrat bir millatning g‘ayratli himoyachisi sifatida ham tanilgan. U o‘z asarlari orqali turk xalqlarining madaniyati va tarixi bilan bog‘liq masalalarni ko‘tarib chiqdi va bu borada o‘zining munosabatlarini ochiq bayon etdi. U milliy o‘zlikni uyg‘otish g‘oyasini faol ilgarilagan va bu g‘oya orqali xalqni birlashishga, o‘z huquqlari va erkinliklari uchun kurashishga chaqirgan. Fitratning maqolalari

ko‘pincha “Sadoyi Turkiston” va “Hurriyat” gazetalari sahifalarida e’lon qilinishi, uning fikrlarini keng ommaga yetkazishga yordam berdi. U o‘z asarlarida zamonamizning dolzarb masalalariga e’tibor qaratib, Turkiston xalqining taqdiriga ta’sir etuvchi muhim masalalarni ochib berdi. Shuningdek, uning she’r va publitsistik asarlari millatning ma’naviyati va madaniyatini rivojlantirishda ham ahamiyatga ega bo‘lgan. Fitrat o‘z maqolalarida xalqni anglash, bilim olish va mustaqil fikrlashga chorlagan. Uning maqolalarida quyidagi asosiy mavzular ko‘tarilgan: 1. Savodxonlik va ta’lim: Fitrat xalqni savodli qilishni millatning kelajagi uchun asosiy shart deb bilgan. U yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, darsliklarni isloh qilish va ona tilida ta’lim berish tarafdori edi.

Fitratning “Yangi maktablar va ularning zarurati” kabi maqolalari bu masalani chuqur tahlil qilgan.

Ijtimoiy adolat va milliy uyg‘onish: Fitrat milliy uyg‘onish g‘oyasini ilgari surib, xalqning huquqlari va erkinliklari uchun kurashgan. U o‘z maqolalarida Turkistonni mustamlaka tuzumining salbiy oqibatlaridan qutqarish yo‘llarini izlagan.

“Hurriyat” gazetasida e’lon qilingan maqolalarida mustamlakachilikka qarshi kurash g‘oyalari aks etgan.

Din va islohotlar: Fitrat diniy qadriyatlarni saqlagan holda jamiyatda islohotlarni amalga oshirishga chaqirgan. U islom dinining taraqqiyotga zid emasligini, aksincha, uni rivojlanish uchun asos deb bilgan.

U “Oyina” jurnalida dinni to‘g‘ri talqin qilish va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tushuntiruvchi maqolalar e’lon qilgan.

Milliy til va madaniyatni rivojlantirish: Fitrat o‘z maqolalarida ona tilini rivojlantirish va milliy madaniyatni saqlash muhimligini ta’kidlagan. U tilni millatning o‘zligini ifodalovchi eng muhim omil sifatida ko‘rgan.

Fitrat Turkiyada tahsil olish, ma’ruzalar o‘qish bilan birga samarali ijod ham qilgan. 1909 yili Istanbulda uning fors tilida yozgan «Munozara», «Sayha» («Na’ra») she’riy majmuasi, 1912 yili esa «Sayyohi hindi» («Bayonoti sayyohi hindi») asarlari nashr etilgan. Keyinchalik Fitratning millatchi, turkparast va islomparast yozuvchi sifatida qoralanishiga sababchi bo‘lgan bu asarlar 20-asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg‘onish harakatining norasmiy dasturi bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, «Munozara» va «Sayyohi hindi» asarlari yoshlar dunyoqarashining keskin o‘zgarishi va ularning jadidlar safiga kelib qo‘shilishiga sababchi bo‘lgan.

Fitrat vataniga qaytgach, Buxoroning turli tumanlarida o‘qituvchilik qilib, jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib etdi. Yosh buxoroliklar harakatining mafkurachisi va g‘oyaviy rahbarlaridan biriga aylandi. 1915 yildan esa Yosh buxoroliklar harakatining so‘l qanotiga boshchilik qildi. 1917 yil fevral voqealaridan keyin jadidlarning Buxoro amirligidagi ahvoli murakkablashgach, Fitrat Samarqandga ko‘chib borib, «Hurriyat» gazetasida muharrir bo‘lib ishladi (1917-18). Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, Fitrat shu yillarda «Ittixodi taraqqiy» tashkiloti Eski Buxoro bo‘limining raisi ham bo‘lgan. Kolesov voqeasi (1918 yil, mart)dan keyin esa Toshkentga ko‘chib kelgan. 1919-20 yillarda Afg‘onistonning Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimonlik qilgan, «Chig‘atoy gurungi» ma’rifiy-adabiy uyushmasini, shuningdek, «Tong» jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga kirishgan. «Tong» jurnalining shiori bo‘lgan: «Miya o‘zgarmaguncha boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas!» so‘zlari Fitratning shu yillarda olib borgan faoliyatining maqsad-mohiyatini to‘la ifodalaydi.

Shuningdek, Fitrat hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan juda ko‘p xorijiy manbalarda, ayniqsa, zamondoshlarining xotiralarida uning nomiga doim “shoir” sifatlashi qo‘shib aytilgan. Bu Fitratga nisbatan shunchaki shaxsiy munosabatning natijasi bo‘lmay, balki uning shoirlik iste’dodiga alohida hurmat bilan qaraganlarining boisi hamdir. Fayzulla Xo‘jayev Fitrat asarlarining ahamiyati haqida to‘xtalar ekan, uning 1911-yilda chop qilingan “Sayha” (“Nara”) kitobi xususida shunday yozadi: “Vatanparvarlik she’rlari to‘plami bo‘lgan “Sayha”ni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga, rus hukumati ham ta’qib qila boshladi. Chunki bu she’rlarda Buxoro mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi.

1937-yili “xalq dushmani” sifatida xibsga olinib, 1938-yili Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo‘zsuv qirg‘og‘idagi qatlgohda otib tashlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Unitilmas siymolar.”Akademiya” –Toshkent 1999, 6-bet
2.Hamidulla Boltaboyev. Professor Abdurauf Fitrat va uning asarlari, “Zabarjad Media”, 2024-yil, 10-bet
3.shakhnarzoullayev@gmail.com
4.Abdurauf Fitrat (1886-1938), Tarix.Uz. https://tarix.uz

## ILM FAN VA BUNIYODKORLIK HOMIYSI

**Kucharboyeva Durdona**
**Navoiy davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi**

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida Uyg‘onish davri ijtimoiy-ma’naviy merosidagi taraqqiyotga xizmat qiluvchi g‘oyalarni, falsafiy, huquqiy, siyosiy va axloqiy qarashlarni, madaniy yuksalish omillari, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari!” shiorining mazmun mohiyatidan ham bilishimiz mumkinki bugungi kunda intilektual yuksak bilm egalarini fan sohalariga qo‘shgan hissasi alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa Amir Temur va uning vorislari tomonidan olib borilgan ilm-fan va madaniyat sohalaridagi bunyodkorlik ishlari o‘zining o‘rganilishi lozim bo‘lgan jihatlari bilan ahamiyatlidir. Ibn Arabshoh e’tirof etganidek, o‘z ziyrakligi, tajribasi bilan chin (haq) nasihatgo‘ydan soxta (nasihatgo‘y)ni idrok etar, o‘z afkori bilan sal bo‘lmasa “uchar yulduzni to‘g‘ri yo‘lga boshqarar, o‘z farosati mulohazalari bilan har bir bexato sayyora o‘qini o‘z orqasidan ergashtirar edi”[170].

Amir Temur va temuriy shaxzodalar mug‘il istilochilaridan farqli o‘laroq mamlakat farovonligi el-yurt obodonligi, bunyodkorlik va o‘sha davrni rivojlanib kelayotgan yetakchi sohalariga alohida ahamiyat berganlar. Bularni biz temuriylar davrida qurilgan tarixiy obidalar va zamondosh muarrixlarning asarlaridan ham bilishimiz mumkin. Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalarni biz movaraunnahrlik tarixchilardan tashqari Ispaniya, Venetsiya, Italiya, Fransiya, Angliya va boshqa bir qator Yevropa tarixchilarining asarlaridan ham bilishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrimizga dalil sifatida Italiya uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan arboblaridan biri, ruhoniy mutafakkir, Pojjio Brachchiolini (1380-1459) hisoblanadi. U Klavixo va Ibn Arabshoh singari Movarounnahrda xususan, Amir Temur saroyida bo‘lib u bilan uchrashmagan bo‘lsada, Temur va temuriylar tarixiga oid o‘z davri uchun qimmatli ma’lumotlarni beradi va shu bilan birga Amir Temurga bag‘ishlab Italiya ruhoniylari va olimlari ichida birinchilardan bo‘lib Amir Temur shaxsini uning tarixiy badiy siymosini tadqiq etishga va uning shaxsiga oid fikr aytishga harakat qilganligi bilan Italiya uyg‘onish davri mutafakkirlari orasida alohida ajralib turadi. U o‘z asarlaridan birida Amir Temur haqida quyidagi fikrini bayon etadi “Temurni buyuk jahongir hisoblash uchun unda barcha hislatlar muhayyo edi. Unda yetishmaydigan hislatning o‘zi yo‘q edi”[171]. Amir Temur mamlakat faravonligi el-yurt obodonligi yo‘lida bir qancha tarixiy me’moriy inshoatlar bog‘u bo‘stonlar yaratdi va ularning me’moriy qurilishiga alohida e’tiborini qaratadi. Temur Movorounnahr va Xurosondan tashqari boshqa shaharlarda ham qurilish ishlarini jadallik bilan rivojlantirgan. Jumladan u Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda esa tasavvuf tariqatining yirik namoyondalaridan biri bo‘lmish Yassaviya sulikining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan. Amir Temur mo‘g‘ullar hujumi davrida kultepaga aylangan Binokat shahrini qaytadan tiklaydi va uni Buyuk Ipak yo‘li chorrahasidagi yirik shaharlardan biriga aylantiriladi. Tarixchi Ibn Arabshoh o‘z asarida quydagi fikrini bayon etadi. “Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sharofatli sayyidlarni o‘ziga yaqin tutardi, ulamolar va fozillarga to‘la izzat-hurmat ko‘rsatib ularni har qanday odamdan tamoman muqaddas tutardi.Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib qo‘yib ikromi-hurmatini unga izhor etardi.Ular bilan mazmunan bahs ham yuritar ediki bahsda insofi hishmat bo‘lardi”[172]. Darhaqiqat, Amir Temur davlatni huquqiy

[170] Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikkinchi kitob. T.: Mehnat, 1992, 65-66 –bet
[171] Italiya uyg‘onish davri mutafakkirlari va Amir Temur. “Guliston” jurnali 1996-yil 3-son 7-bet.
[172] Ahmedov B. Amir Temur T:. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. –B. 581.

adolatli boshqarishda olimu fozillardan dil ulomalaridan kerakli fikrlarni olgan va o‘zi ham mashvaratlarda nutq so‘zlagan.

Bu davrda ilm-fan, ma’daniyat, san’at, memorchilik va boshqa sohalar bilan bir qatorda savdo-sotiq buyuk ipak yo‘lini keng qamrovda shakllanishi chet el davlatlari bilan savdo munosabatlarini rivojlantirishiga o‘z hissasini qo‘shdi. O‘z davri uchun feodal markazlashgan davlat barpo etgan Amir Temur mamlakatning poytaxti Samarqandda ham bir qancha masjid, madrasa, bog‘u-rog‘lar, karvonsaroylar va boshqa bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini amalga oshirdi. “Temur hokimyat tepasiga kelgan dastlabki oylardanoq uning say-harakati bilan Samarqandning qal’asi bunyod etildi. Shahar balandligi 8 metrlik devor bilan o‘rab olindi. Uning amri va rahbarligi ostida Shohizindada juda katta tamirlash va qurilish ishlari olib borildi”[173]. O‘rta Osiya uyg‘onish davrining birinchi bosqichi IX-XII asrlarda davom etgan bo‘lsa, bu davrning ikkinchi bosqichi Amir Temur va Temuriylar hukumronlik qilgan davrga to‘g‘ri keladi va bu jarayonning shakllanishida shubhasiz Amir Temurning xizmatlari beqiyos ahamiyatga egadir. Albatta bu vaqtga kelib memorchilik qurilish ishlaridan tashqari nafis kitob va kitobat san’ati, xattotlik san’ati va bir qancha yetakchi sohalar rivojlandi, shu bilan birga davlatning oily belgisi hisoblangan o‘zbek tili termenalogiyasining shakillanishi apogiy (ya’ni rivojlanishi) eng yuqori cho‘qqisiga Amir Temur va uning avladlari tomonidan yaratilgan o‘zbek davlatchiligi tizimidagi davriga to‘g‘ri keladi.

Amir Temur mamlakatning poytaxti bo‘lmish Samarqand shahrini rivojlanishiga alohida mehr bilan qaraydi va bu yerga buyuk bunyodkor ustalarni keltirgan. Samarqand shahrining yer yuzining sayqali bo‘lishi bilan birga islom dinining markazi hisoblangan. Hattoki Samarqand shahrining go‘zalligini eshitgan fors tojik shoiri Hofiz Sheroziy quyidagi so‘zlarni bitgan.

Agar on turki Sheroz, bad ast orad dilimoro
Vaholi hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo ya’ni
Agar ko‘nglimni shod etsa ushal Sheroz janona
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni

Albatta bu so‘zlar Nofiz Sheroziy tomonidan Samarqand shahriga bo‘lgan yuksak etiroflarlardan biridir.

Amir Temurning umr bo‘yi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, uning quyidagi ibratli o‘gitlaridan ham bilish mumkin:

“Kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa yo biror bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biror xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig‘sinlar”.

“Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar...”.

Amir Temurning quyidagi so‘zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qayg‘urishga chorlab keldi:

“Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”[174]. Bu jumlalarda Amir Temur ma’naviyati jamul-jam bo‘lgan bo‘lsa ne ajab.

Temur va Temuriylar davri, umuman Sharq, xususan O‘rta Osiyo ilm-fani, madaniyati, ma’naviyati, adabiyot va san’ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, tub burilishdir. Bu davrdagi ma’naviy-ma’rifiy hayotdagi ko‘tarilish va yuksalishining manbai, boshlanishi IX-XII asrlarga borib taqaladi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi O‘rta Osiyoning madaniy, ma’naviy va ma’rifiy kamoloti IX-XII asr madaniyati, ma’naviyati va ma’rifatining davomidir.

Islom mintaqa madaniyatining buyuk nazariyotchilaridan, XIV asrning yirik faylasuf-tarixchisi va siyosatshunosi, Amir Temurga zamondosh va suhbatdosh bo‘lgan Ibn Xaldun (1332-1406) ham Temuriylar davrida olib borilgan bunyodkorlik ishlariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Ya’ni “Ibn Xaldun Temurning qattiqqo‘lligiga e’tiroz bildirgan bo‘lsa-da, uning ilmu ma’rifatga e’tiborli, aqlli hukmdor ekanini yuksak e’tirof etgan”[175].

[173] Ahmedov B. Amir Temur T:. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. –B. 580.
[174] Temur tuzuklari fors tilidan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karamatov tarjimasi. T.: G ‘afur G‘ulom, 1991.
[175]Abdurahmon ibn Muhammad ibn Xaldun Muqaddima Birinchi juz. T.: Trust and support, 2025. –B.23.

Uchinchi Renessans davrida milliy qadriyatlarimiz bilan birga Amir Temur va u yaratgan o‘zbek davlatchiligi tizimidagi davlatni o‘rganishga ham e’tabor kun sayin ortib bormoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek “Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi — Uchinchi Renessansga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o‘rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish, yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish”[176] to‘g‘risida 2026-yil 2-fevraldagi Qarori alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda Amir Temur va u yaratgan o‘zbek davlatchiligi tizimidagi taraqqiyotning yangicha davriga e’tibor qiziqish, shuning bilan birga Sohibqiron bobomizning pandu o‘gitlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## WOMEN’S ROLE IN GOVERNANCE AND DIPLOMACY DURING THE TIMURID ERA

**Shukurilloyeva Lazzatoy Shamshodovna**
**Student, Eglish First Faculty**
**Uzbekistan State World Languages University**
**ORCID ID:0009-0007-2761-7181**
**shukurillayevalazzatoy@gmail.com**

**Abstract:** This paper examines the role of women in governance and diplomacy during the Timurid era, with particular focus on elite female figures within the royal court. While traditional historiography has largely emphasized male political authority, this study adopts a gender-oriented perspective to highlight the significant yet often overlooked contributions of women to state-building processes.

Through the analysis of prominent figures such as Saray Mulk Khanum and Gawhar Shad, the paper demonstrates that women actively participated in political decision-making, diplomatic relations, and cultural patronage. Their influence extended beyond the domestic sphere, shaping both internal governance and the external image of the Timurid state.

The findings suggest that women’s roles in the Timurid period were multidimensional, encompassing advisory functions, diplomatic engagement, and the promotion of intellectual and cultural life. By reinterpreting historical narratives through a gender lens, this study contributes to a more comprehensive understanding of governance in the Timurid era and provides valuable insights for contemporary discussions on women’s leadership and gender inclusion in modern state-building.

**Keywords:** Timurid Empire; Women’s Leadership; Governance; Diplomacy; Gender Perspective; Amir Temur; Saray Mulk Khanum; Gawhar Shad; State-Building; Cultural Patronage

The Timurid era, established by Amir Temur, is widely regarded as a period of significant political consolidation, military achievement, and cultural flourishing in Central Asia. While much of the historical scholarship has traditionally focused on the contributions of male rulers and military leaders, the role of women within the Timurid socio-political structure remains comparatively underexplored.

Contrary to the common perception of women as passive figures in medieval societies, the Timurid period presents compelling evidence of their active involvement in governance and diplomacy. Elite women of the Timurid court not only exercised influence within the royal household but also contributed to broader state affairs, including political decision-making processes and the maintenance of diplomatic relations.

Notably, figures such as Saray Mulk Khanum exemplify the extent to which women could shape political dynamics at the highest levels. As a prominent and respected member of the royal family, she played a significant role in reinforcing legitimacy and stability within the empire. Similarly, Gawhar Shad, renowned for her patronage of architecture, education, and the arts,

[176] Qarang:“Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” qarori. https://president.uz/oz/lists/view/8917

illustrates how women contributed not only to cultural development but also to the soft power and diplomatic image of the Timurid state.

This paper aims to analyze the role of women in governance and diplomacy during the Timurid era by examining key historical figures and their contributions. By adopting a gender-oriented perspective, the study seeks to highlight the multidimensional roles of women and to challenge conventional narratives that overlook their significance in state-building processes.

During the Timurid era, women of the royal household held influential positions that extended beyond traditional domestic roles. Although formal political authority was predominantly exercised by male rulers, elite women often played a crucial advisory role in governance and state affairs.

A prominent example is Saray Mulk Khanum, the chief consort of Amir Temur. She was widely respected within the court and is believed to have had considerable influence over political matters. Her status not only strengthened the internal legitimacy of the Timurid dynasty but also contributed to the consolidation of power through her connections to the Chinggisid lineage. This lineage was particularly significant in establishing political authority in the region.

Moreover, women like Saray Mulk Khanum participated indirectly in decision-making processes by advising rulers, managing court affairs, and acting as intermediaries between different political actors. Their roles demonstrate that governance in the Timurid state was not exclusively male-dominated but rather involved a more complex system of influence where women played an essential part.

In addition to governance, women in the Timurid era significantly contributed to diplomacy and cultural development, which were critical components of statecraft. Their involvement in diplomatic relations was often exercised through informal channels, including strategic marriages, courtly interactions, and symbolic representation.

One of the most notable figures in this regard is Gawhar Shad, the wife of Shah Rukh. She played a vital role in maintaining political stability and fostering cultural and intellectual life within the empire. Through her extensive patronage, she supported the construction of mosques, madrasas, and cultural institutions, particularly in cities such as Herat, which became a major center of learning and art.

Gawhar Shad’s contributions extended beyond cultural patronage. By promoting education and supporting scholars, she enhanced the intellectual prestige of the Timurid state, thereby strengthening its diplomatic image. Her activities can be interpreted as a form of “soft power,” where cultural and intellectual influence complemented traditional political and military strength.

Furthermore, the role of women in diplomatic marriages should not be underestimated. Such alliances were instrumental in establishing and maintaining political relationships both within the region and beyond. Through these practices, women served as key agents in the formation of political networks and the stabilization of inter-state relations.

In conclusion, the Timurid era demonstrates that women played a far more significant role in governance and diplomacy than is often acknowledged in traditional historical narratives. Through the examples of Saray Mulk Khanum and Gawhar Shad, it becomes evident that elite women were active participants in political, diplomatic, and cultural processes.

Their influence in court politics, advisory roles, and diplomatic relations highlights the presence of a more inclusive and complex system of governance. Moreover, their contributions to cultural and intellectual development strengthened the overall prestige and soft power of the Timurid state.

From a modern perspective, the legacy of women’s leadership in the Timurid era provides valuable insights into the historical roots of gender participation in governance. It also serves as an important foundation for promoting gender equality and recognizing the role of women in contemporary state-building processes, particularly in the context of New Uzbekistan.

References

1. Manz, Beatrice Forbes. *The Rise and Rule of Tamerlane*. Cambridge University Press, 1989.
2. Subtelny, Maria Eva. *Timurid Iran and Central Asia*. Brill, 2007.
3. Woods, John E. *The Timurid Dynasty*. Indiana University, 1990.

4. Roemer, H.R. *The Cambridge History of Iran, Vol. 6: The Timurid and Safavid Periods*. Cambridge, 1986.
5. Soucek, Svat. *A History of Inner Asia*. Cambridge University Press, 2000.

## AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVDAGI O‘RNI

**Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi**
**Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzey,**
**Muzey kuzatuvchisi Muyedinova Maxfuza Yarashevna**

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etishdagi xizmatlari, davlat boshqaruvidagi strategik islohotlari va “kuch – adolatda” tamoyilining jamiyat barqarorligidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Temur boshqaruvi ostidagi ma’muriy-hududiy tashkilotlar, harbiy tizim va siyosiy-iqtisodiy mexanizmlar manbashunoslik va tarixiy-qiyosiy metodlar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada Temuriylar davri qonunlari va boshqaruv tamoyillari, “Temur tuzuklari” va “Zafarnoma” kabi tarixiy manbalarga tayangan holda izohlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur yaratgan markazlashgan davlat modeli o‘zbek davlatchiligi institutlarining rivojlanishida asosiy rol o‘ynagan va jamiyatda adolat va kuch muvozanatini ta’minlash orqali barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

**Kalit so‘zlar**: Amir Temur, o‘zbek davlatchiligi, “Temur tuzuklari”, markazlashgan davlat, strategik boshqaruv, adolat tamoyili, Movarounnahr, harbiy mahorat, ijtimoiy barqarorlik, Renessans.

**Abstract**: This article provides a scholarly analysis of Amir Temur’s contributions to the establishment of a centralized state, his strategic reforms in governance, and the role of the principle "strength lies in justice" in maintaining social stability. The study examines the administrative-territorial organization, military structure, and socio-economic policies under Temur’s rule using source-based and historical-comparative methodologies. Furthermore, it analyzes the legal and governance principles of the Timurid era, drawing upon primary historical sources such as *Temur tuzuklari* and *Zafarnama*. The results demonstrate that Temur’s centralized governance model played a foundational role in the institutional development of Uzbek statehood and ensured societal stability by balancing power with justice.

**Keywords**: Amir Temur, Uzbek statehood, "Institutes of Temur", centralized state, strategic management, principle of justice, Mawarannahr, military art, social stability, Renaissance.

**Аннотация**: В данной статье проводится научный анализ вклада Amir Temur в создание централизованного государства, его стратегических реформ в управлении и роли принципа «сила в справедливости» в обеспечении общественной стабильности. Исследование рассматривает административно-территориальную организацию, военную систему и социально-экономическую политику при правлении Темура на основе источниковедческого и историко-сравнительного подхода. Кроме того, анализируются законы и принципы управления Тимуридской эпохи с опорой на исторические источники, такие как *Temur tuzuklari* и *Zafarnama*. Результаты исследования показывают, что централизованная модель управления Темура сыграла ключевую роль в институциональном развитии узбекской государственности и способствовала укреплению стабильности общества через баланс власти и справедливости.

**Ключевые слова**: Амир Темур, узбекская государственность, «Уложения Темура», централизованное государство, стратегическое управление, принцип справедливости, Мавераннахр, военное искусство, социальная стабильность, Ренессанс.

### KIRISH

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki mohir davlat arbobi sifatida jahon tarixida o‘ziga xos va mustahkam o‘rin egallagan. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng parchalanib ketgan Movarounnahr hududini birlashtirish va markazlashgan, qudratli saltanat barpo etish uning asosiy strategik maqsadi bo‘lgan. Temur boshchiligida tashkil etilgan davlat boshqaruvi tizimi o‘z davri uchun eng ilg‘or va mukammal tuzilmalardan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, u nafaqat harbiy kuchga, balki qonun

ustuvorligi, axloqiy qadriyatlar va ma’naviyatga ham tayangan.

O‘zbek davlatchiligi tarixi ko‘p mingyillik rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga olsa-da, XIV asr ikkinchi yarmi va XV asr boshlari alohida “Renessans” davri sifatida ajralib turadi. Shu davrning markaziy shaxslaridan biri sifatida Amir Temur tarqoq o‘zbek bekliklarini birlashtirib, Markaziy Osiyo xalqlarini yagona siyosiy va madaniy maydonga birlashtirdi hamdadunyoning engqudratliimperiyalaridanbirinibarpoetdi.

Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng tanazzulga yuz tutgan xo‘jalik, madaniyat va huquqiy tizimni qayta tiklash Temurdan nafaqat harbiy mahorat, balki yuksak siyosiy iroda va strategik tafakkur talab qilgan. Ushbu jarayonda Temur boshqaruvni shunchaki qudratga tayangan holda emas, balki “Qonun va Odob” tamoyillari asosida tashkil etdi. Uning mashhur “Kuch – adolatda” g‘oyasi shunchaki shioremas, balki butun saltanatning huquqiy poydevori, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi kafolat bo‘lib xizmat qilgan.

Mazkur maqolada Amir Temur yaratgan markazlashgan davlat tuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlari, uning siyosiy va harbiy strategiyasi, shuningdek, bugungi zamonaviy o‘zbek davlatchiligi uchun ma’naviy-huquqiy asosi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Temur boshqaruvi tamoyillari va u yaratgan institutsional tizimning tarixiy ahamiyati manbaviy va tarixiy-qiyosiy metodlar asosida yoritiladi.

**Asosiy qism**: Amir Temurning davlat boshqaruvidagi falsafasi va siyosiy faoliyati uning mashhur “Temur tuzuklari” asarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Sohibqiron davlat ishlarini tashkil etishda kengash (mashvarat) va qonun-qoidalarga (tuzuklar) asoslangan, o‘z so‘zida: “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan amalga oshirdim” deya ta’kidlagan. Bu esa uning hokimiyatni faqat qudrat va zo‘ravonlik bilan emas, balki tartib va qonun ustuvorligiga asoslashga intilganini ko‘rsatadi.

Temur boshqaruvi vertikal markazlashgan tizimga tayangan. Moliyaviy, harbiy va sud ishlarini tartibga soluvchi maxsus devonlar faoliyat yuritgan, saltanatning barcha hududlari bilan tezkor aloqa o‘rnatish maqsadida choparlar tizimi joriy etilgan, har bir shahar va viloyatda qozilar tayinlanib, qonun ustuvorligi ta’minlangan. “Kuch – adolatda” shiori esa davlat siyosatining asosiy g‘oyasiga aylangan.

Sohibqiron shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohada ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirgan. Hunarmandchilik, savdo-sotiq va ilm-fanni rivojlantirishga alohida e’tibor bergan, Buyuk Ipak yo‘lining xavfsizligini ta’minlash orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga erishgan. Uning “Qay bir joydan bir g‘isht olsang, o‘rniga o‘nta g‘isht qo‘y” tamoyili asosida Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlar dunyoning eng go‘zal va muhim poytaxtlariga aylangan.

Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, u o‘z faoliyati bilan bir necha strategik natijalarga erishgan. Markazlashgan davlat yaratib, o‘zaro nizolarga barham berish va yagona iqtisodiy-siyosiy makon shakllantirish orqali xalqning milliy o‘zligini anglash va birlashish jarayonini tezlashtirgan. Boshqaruv san’ati nuqtai nazaridan esa “Temur tuzuklari” orqali davlatni qonun bilan boshqarish an’anasini shakllantirgan. Ushbu tizimda hokimiyatning bo‘linishi - ijroiya, sud va harbiy devonlar - o‘z davri uchun inqilobiy yangilik bo‘lgan.

Shuningdek, Temur davrida shakllangan ma’naviy-axloqiy tamoyillar bugungi mustaqil O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida o‘z aksini topmoqda, ayniqsa inson qadrini ulug‘lash va adolatli jamiyat qurish yo‘nalishlarida. Sohibqiron asos solgan davlatchilik an’analari shunchaki tarixiy xotira emas, balki xalqimizning davlatchilik tafakkurini boyituvchi jonli manbadir. Uning “Adolat - har bir ishda hamrohing bo‘lsin” degan o‘gitlari bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti bo‘lib qolmoqda. Amir Temurning davlat qurish tajribasi jahon siyosatshunosligi fanida “Temuriylar boshqaruv maktabi” sifatida tan olinishi uning nafaqat milliy, balki umumbashariy ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**XULOSA**

Amir Temur o‘zbek davlatchiligi tarixida nafaqat buyuk sarkarda, balki davlat boshqaruvidagi ilg‘or arbob sifatida muhim o‘rin egallagan. “Temur tuzuklari”da ifodalangan boshqaruv falsafasi kengash va qonun ustuvorligiga tayangan bo‘lib, markazlashgan davlat tizimi, devonlar, choparlar va adliya institutlari orqali mamlakat birligi va barqarorligini ta’minlagan. Uning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari va ma’naviy-axloqiy tamoyillari - adolat, qonun ustuvorligi va inson qadrini hurmat qilish

- bugungi kunda ham o‘z aksini topmoqda. Shu bois, Temuriylar boshqaruv maktabi nafaqat milliy, balki umumbashariy meros sifatida e’tirof etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (KENGAYTIRILGAN)**

1. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. (G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011).
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma". (Toshkent, “Sharq”, 1997).
3. A. Ahmedov. “Amir Temur saltanati”. (O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1996).
4. B. Ahmedov. “Amir Temur: Tarixiy roman”. (Toshkent, 1995).
5. H. Dadaboev. “Amir Temurning harbiy mahorati”. (Toshkent, 1996).

## O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXINI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI

**Tog‘ayeva Nilufar Ulashovna**
**O‘zbekiston Respublikasi IIV**
**Navoiy akademik litseyi huquq fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy tarixni o‘rganishning ahamiyati yoritiladi. Xususan, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur hamda Temuriylar davri tarixini o‘rganish yosh avlodda milliy g‘urur, Vatanga sadoqat va ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim omil ekani tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida Temuriylar davri tarixini o‘qitishning pedagogik ahamiyati, zamonaviy usullari hamda o‘quvchilarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Vatanparvarlik, tarixiy meros, milliy qadriyatlar, Amir Temur, Temuriylar davri, tarix ta’limi, yosh avlod, milliy g‘urur, ma’naviy tarbiya.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqatli, ma’naviy barkamol insonlar etib voyaga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Har bir xalqning kelajagi uning yosh avlodiga, ularning bilim darajasi va ma’naviy kamolotiga bog‘liq. Shu sababli ta’lim tizimida o‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanining o‘rni beqiyosdir. Tarix orqali o‘quvchilar o‘z xalqining o‘tmishi, buyuk ajdodlari va ularning yurt ravnaqi yo‘lida qilgan xizmatlari haqida bilimga ega bo‘ladilar. Bu esa ularda milliy g‘urur, o‘zlikni anglash va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi.

O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin tutgan shaxslardan biri buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur hisoblanadi. Uning davlat qurishdagi siyosati, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi hamda adolatli boshqaruv tamoyillari bugungi kunda ham yosh avlod uchun muhim ibrat maktabidir.

Amir Temur XIV asrning eng buyuk davlat arboblaridan biri sifatida tarix sahnasida muhim o‘rin egallaydi. U 1336-yilda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahrida tug‘ilgan. Yoshligidan harbiy san’at va davlat boshqaruvi bilan qiziqqan Temur qisqa vaqt ichida yirik davlat asoschisiga aylangan.

Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat keng hududlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning markazi Samarqand shahri edi. U davlatni boshqarishda adolat, qat’iyat va intizom tamoyillariga amal qilgan. Temurning siyosiy qarashlari va davlat boshqaruvi haqidagi fikrlari Temur tuzuklari asarida o‘z ifodasini topgan.

Mazkur asarda davlatni boshqarish, harbiy intizom, xalq farovonligi va adolat tamoyillari haqida muhim fikrlar bayon qilingan. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur asos solgan davlat keyinchalik Temuriylar tomonidan davom ettirildi. Bu davr Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat va san’at rivojining yuksak bosqichi hisoblanadi.Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan taraqqiyoti yuqori darajaga ko‘tarildi. Ulug‘bek nafaqat davlat arbobi, balki buyuk astronom va olim sifatida ham tanilgan. U tomonidan Samarqandda qurilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan.Bu rasadxona orqali

astronomiya fanida muhim tadqiqotlar olib borilgan. Ulug‘bek va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan astronomik jadvallar uzoq vaqt davomida jahon ilm-fanida muhim manba sifatida foydalanilgan. A.Temurning katta xizmatlaridan muhimi shuki, u madaniyat va ilm homiysi sifatida mashhur bo‘ldi, o‘z saroyiga olim-u fuzalo arboblarini to‘pladi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rossiya bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e’tibor berildi. Islom dini o‘sha davrda asosiy mafkura bo‘lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Temur o‘z faoliyatida unga tayanib ish ko‘rdi.

Temuriylar davrida tasavvuf ta’limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo‘qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o‘rnatishda, insonparvarlik g‘oyalarini tarqatishda foydalangan. Temuriylardan Shohruh, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an’analarini izchil ravishda davom ettirdilar.

Temuriylar davrida me’morchilik san’ati ham yuksak darajada rivojlandi. Samarqand shahridagi Registon maydoni majmuasi Temuriylar davri me’morchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. Bu kabi tarixiy obidalar yosh avlodda milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytiradi.

O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanining roli

Tarix fanini o‘qitish jarayonida buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganish yosh avlodda quyidagi fazilatlarni rivojlantiradi:

• milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usi;
• Vatanga muhabbat va sadoqat;
• ajdodlar merosiga hurmat;
• fidoyilik va mas’uliyat;
• adolat va halollik.

Bundan tashqari, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘rganish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida Temuriylar tarixini o‘qitish usullari

Zamonaviy ta’lim jarayonida tarix fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik usullardan foydalanish muhimdir. Jumladan:

- interaktiv dars usullaridan foydalanish;
- tarixiy manbalar bilan ishlash;
- multimedia vositalari va taqdimotlardan foydalanish;
- tarixiy obidalarga ekskursiyalar tashkil etish;
- loyiha va tadqiqot ishlari orqali o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag‘batlantirish.

Bunday metodlar o‘quvchilarning tarix faniga qiziqishini oshiradi hamda ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganish o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk ajdodlarimizning davlat qurish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish yo‘lidagi xizmatlari yosh avlod uchun ibrat maktabi hisoblanadi.

Tarixiy merosni chuqur o‘rganish o‘quvchilarda milliy g‘urur, o‘zlikni anglash va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida Amir Temur va Temuriylar davri tarixini chuqur o‘rganish hamda targ‘ib qilish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
3. Azamat Ziyo. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2016.
4. Ahmedov B. Amir Temur saboqlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
5. O‘zbekiston tarixi (akademik nashr). – Toshkent, 2019.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.

# AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVIDAGI O‘RNI.

**X.Xalilov, NavDU o‘qituvchisi**
**J.Qobiljonov, NavDU talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘ rni, uning davlat boshqaruvi tizimi, siyosiy va harbiy strategiyasi hamda davlat qurilishidagi tamoyillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, Temur davrida shakllangan boshqaruv tamoyillari bugungi davlatchilik rivojida tutgan ahamiyati ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, davlatchilik, boshqaruv tizimi, Temur tuzuklari, markazlashgan davlat, siyosiy strategiya.

**Abstract.** This article analyzes the role of Amir Temur in the history of Uzbek statehood and governance. It examines his political leadership, administrative system, military strategy, and the principles of state management established during his reign. The study highlights the significance of “Temur’s Codes” as a key document reflecting his governance philosophy. The legacy of Amir Temur continues to play an important role in understanding the development of statehood and political thought in Central Asia.

**Kirish.** O‘ zbek xalqining boy va qadimiy tarixida buyuk davlat arboblari, sarkardalar hamda siyosiy yetakchilar muhim o‘rin egallaydi. Shunday ulug‘ siymolardan biri Amir Temur bo‘lib, u nafaqat yirik harbiy sarkarda, balki kuchli davlat boshqaruvi tizimini yaratgan dono siyosatchi sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan.

XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda siyosiy tarqoqlik, ichki nizolar va iqtisodiy tanazzul hukm surayotgan edi. Ana shunday murakkab sharoitda Amir Temur tarix sahnasiga chiqib, parokanda hududlarni birlashtirdi va kuchli markazlashgan davlat barpo etdi. Uning davlat boshqaruvidagi tajribasi, siyosiy qarashlari va strategik qarorlari o‘zbek davlatchiligi tarixining muhim bosqichini tashkil etadi.

Amir Temurning davlat boshqaruvi tizimi. Amir Temur davlatni boshqarishda qat’ iy tartib, adolat va intizomga asoslangan tizim yaratdi. U davlatni samarali boshqarish uchun aniq qonun-qoidalar ishlab chiqdi va ularni “Temur tuzuklari” nomi bilan tarixda qoldirdi.

Temur tuzuklari davlat boshqaruvi, harbiy tartib-intizom, ijtimoiy munosabatlar va hukmdorning xalq oldidagi mas’ uliyatini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu asarda davlatni mustahkamlash, adolatli boshqaruvni yo‘lga qo‘yish hamda xalq farovonligini ta’minlash masalalari alohida o‘rin tutadi.

Amir Temur davlat boshqaruvida quyidagi tamoyillarga amal qilgan:

-adolat va qonun ustuvorligi;

-markazlashgan boshqaruv tizimi;

-sodiq va malakali amaldorlarni tanlash;

-davlat xavfsizligini ta’minlash;

-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash.

Bu tamoyillar tufayli Temur davlati qisqa vaqt ichida kuchli va qudratli imperiyaga aylandi. Amir Temur nafaqat davlat arbobi, balki tengsiz harbiy sarkarda ham edi. U harbiy yurishlarni rejalashtirishda strategik tafakkur va mukammal tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etgan.

Temur qo‘ shinlari qat’ iy tartib va intizom asosida tuzilgan bo‘ lib, har bir askar o‘ z vazifasini aniq bilgan. U harbiy yurishlarda tezkorlik, kutilmagan zarba berish va puxta rejalashtirilgan harakatlarga katta e’tibor qaratgan.

Temurning harbiy strategiyasi natijasida uning davlati hududi kengayib, Yaqin Sharq, Eron, Kavkaz, Hindiston va boshqa hududlargacha yetib borgan. Bu esa uning siyosiy va harbiy salohiyati naqadar yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Amir Temur yaratgan davlat boshqaruvi tizimi o‘z davri uchun nihoyatda mukammal va samarali edi. U mamlakatda savdo-sotiqni rivojlantirish, ilm-fan va madaniyatni

qo‘llab-quvvatlash, shaharlarni obod qilish kabi muhim ishlarni amalga oshirdi.

Samarqand shahri Temur davrida yirik ilmiy va madaniy markazga aylandi. Bu yerda ko‘plab me’moriy obidalar bunyod etildi, ilm-fan rivojlandi, turli mamlakatlardan olimlar va hunarmandlar

kelib faoliyat yuritdi. Bugungi kunda ham Amir Temurning davlatchilik tajribasi, siyosiy qarashlari va boshqaruv tamoyillari davlat boshqaruvi, strategik rejalashtirish hamda milliy taraqqiyot masalalarini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Amir Temur o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk shaxs hisoblanadi. U siyosiy donoligi, harbiy mahorati va adolatli boshqaruv tizimi orqali markazlashgan qudratli davlat barpo etdi. Temur tomonidan yaratilgan boshqaruv tizimi, qonun-qoidalar va siyosiy tamoyillar nafaqat o‘ z davri uchun, balki bugungi kun davlatchilik rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli Amir Temur merosini o‘rganish, uning davlatchilik tajribasini ilmiy jihatdan tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Amir Temurning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari “Temur tuzuklari” asarida o‘z aksini topgan. Mazkur asarda davlat boshqaruvi, harbiy tizim, amaldorlarning vazifalari va hukmdorning xalq oldidagi mas’uliyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Temur davlat boshqaruvida malakali va sodiq amaldorlarni tanlashga alohida e’tibor qaratgan. Har bir lavozimga tajribali va bilimli shaxslar tayinlangan. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Amir Temur o‘z davrining eng buyuk harbiy sarkardalaridan biri sifatida tarixda mashhurdir. U harbiy yurishlarni puxta rejalashtirish, qo‘shinlarni samarali boshqarish va strategik ustunlikka erishishga katta e’tibor qaratgan.

Temur qo‘shinlari o‘nlik, yuzlik, minglik va tuman tizimi asosida tashkil etilgan. Bu tizim qo‘shinlarni samarali boshqarish imkonini bergan. Harbiy yurishlarda razvedka ma’lumotlari, tezkor harakat va strategik rejalashtirish muhim rol o‘ynagan. Natijada Amir Temur ko‘plab g‘alabalarga erishib, o‘z davlatining siyosiy qudratini mustahkamladi. Amir Temur o‘z davrining eng buyuk harbiy sarkardalaridan biri sifatida tarixda mashhurdir.

Amir Temur davlat boshqaruvida iqtisodiy rivojlanishga alohida e’tibor qaratgan. Savdo yo‘llari tiklanib, xalqaro savdo aloqalari kengaytirildi. Buyuk Ipak yo‘li orqali o‘tuvchi savdo karvonlari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Shaharlar obod qilinib, hunarmandchilik rivojlantirildi. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga va aholi farovonligining oshishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga katta e’tibor qaratgan. U turli mamlakatlardan olimlar, me’morlar va hunarmandlarni Samarqandga taklif qilgan. Natijada Samarqand o‘sha davrning yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Ko‘plab me’moriy obidalar, masjidlar va madrasalar bunyod etildi. Bu ilmiy muhit keyinchalik Temuriylar davrida yanada rivojlanib, Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan yuksak darajaga ko‘tarildi.

Bugungi kunda Amir Temur merosi O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin utadi. Uning davlat boshqaruvi tajribasi zamonaviy davlatchilikni

o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Adolat, qonun ustuvorligi va davlat manfaatlarini himoya qilish kabi tamoyillar hozirgi davrda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 2019.

Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Fan, 1995.

Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005

# AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT

**Kamolova Habiba Muhammadiyevna –**
**tarix fanlari falsafa doktori,dotsent.**
**Iqtisodiyot va pedagogika universiteti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temur va Shahrisabz o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlik, mustaqillik yillarida Sohibqiron merosining qayta tiklanishi hamda shaharning tarixiy-madaniy taraqqiyoti tahlil qilinadi. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi va 2002-yilda Shahrisabzning 2700 yilligi doirasida amalga oshirilgan davlat dasturlari, restavratsiya ishlari hamda xalqaro tadbirlar ilmiy asosda o‘rganiladi. Shuningdek, shaharning UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi uning xalqaro nufuzini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Shahrisabz, mustaqillik, tarixiy meros, YUNESKO, restavratsiya, milliy o‘zlik.

**Аннотация.** В статье анализируется историческая взаимосвязь между Amir Temur и городом Shahrisabz, процессы возрождения его наследия в годы независимости, а также историко-культурное развитие города. Рассматриваются государственные программы, реализованные в рамках 660-летия со дня рождения Амира Темура (1996 г.) и 2700-летия Шахрисабза (2002 г.), реставрационные работы и международные мероприятия. Особое внимание уделяется включению исторического центра города в Список всемирного наследия UNESCO и его значению для укрепления международного авторитета Узбекистана.

**Ключевые слова**: Амир Темур, Шахрисабз, независимость, историческое наследие, ЮНЕСКО, реставрация, национальная идентичность

**Abstract.** This article analyzes the historical connection between Amir Temur and the city of Shahrisabz, as well as the revival of his legacy during the years of independence and the city’s historical and cultural development. The study examines state programs implemented during the 660th anniversary of Amir Temur (1996) and the 2700th anniversary of Shahrisabz (2002), restoration projects, and international initiatives. Special attention is paid to the inclusion of the Historic Centre of Shahrisabz in the World Heritage List of UNESCO and its role in strengthening Uzbekistan’s international cultural standing.

**Keywords:** Amir Temur, Shahrisabz, independence, cultural heritage, UNESCO, restoration, national identity.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida Shahrisabzning tarixiy o‘rnini va mavqeini tiklash, me’moriy obidalarini qaytadan restavratsiya qilish, shaharning madaniy qiyofasini yangilash mustaqillik tufayli xalqqa va yurtga qaytgan buyuk sohibqiron Amir Temur nomining va o‘rnining qaytishi bilan bog‘liq holda yuz berdi. Shahrisabzning mustaqillik davridagi O‘zbekiston tarixi va madaniy hayotini buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur faoliyatidan hech ham ajratib bo‘lmaydi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, Amir Temurning Turkiston diyorini bosqinchilardan ozod etish yo‘lidagi jasur harakatlari shu yurtdan boshlangan. Hazrati Temur o‘z oldiga ulug‘vor maqsadlarni qo‘yishda, avvalo o‘z eliga, o‘z ona yurti – Keshga ishongan va tayangan[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, arxiv hujjatlarini o‘rganish, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, shuningdek, ilmiy adabiyotlarni solishtirma o‘rganish metodlaridan keng foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur merosining qayta tiklanishi milliy o‘zlikni anglash jarayonini kuchaytirdi. 1994–1996-yillarda Amir Temur tavalludining 660 yilligini keng nishonlash bo‘yicha davlat miqyosida qarorlar qabul qilindi[3]. Bu nafaqat yubiley tadbiri, balki tarixiy adolatni tiklash, milliy o‘zlikni anglash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan muhim jarayon edi.

1996-yilning “Amir Temur yili” deb e’lon qilinishi, mamlakat bo‘ylab ilmiy-amaliy konferensiyalar, madaniy tadbirlar va ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi Temuriylar merosini keng targ‘ib qilishga xizmat qildi[4]. Shahrisabz shahrida Oqsaroy maydonida Amir Temur haykalining o‘rnatilishi tarixiy xotiraning ramziy ifodasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 28-avgust Shahrisabz shahrini «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlash to‘g‘risida PF-1554-son farmoni qabul qilindi[5].

Mustaqillik yillarida Shahrisabz shahrining tarixiy obidalarini restavratsiya qilish va obodonlashtirish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirildi. Ayniqsa, Amir Temur davrida bunyod etilgan yodgorliklar alohida e’tiborga olindi.1996-yil 18-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Shahrisabzga tashrif buyurib, Oqsaroy markazida barpo etilgan Amir Temur haykalini ochdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Shahrisabz shahri aholisining Temuriylar davriga oid buyuk madaniy va ma’naviy merosni, nodir tarixiy yodgorliklarni saqlash va ularga avaylab munosabatda bo‘lish, yosh avlodni buyuk ajdodlarga munosib voris, mustaqil Vatan buyuk kelajagini barpo etishga qodir bo‘lish ruhida tarbiyalash ishidagi alohida xizmatlari uchun, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Shahrisabz shahri Amir Temur ordeni bilan mukofotlangan edi. Shu kuni orden I.Karimov qo‘li bilan shahar bayrog‘iga taqildi[6].

Ayni yubiley arafasi va uni nishonlash jarayonida xorij davlatlarda (Fransiyaning poytaxti Parijda) ilmiy konferensiya va ko‘rgazmalar bo‘ldi, Shahrsabzda muzey ochildi, Oqsaroy binosi va uning atrofidagi maydon qayta obod etilib, Sohibqiron haykali o‘rnatildi, Jahongir maqbarasi, Ko‘kgumbaz majmuasida obodonlik va ta’mir ishlari hamda, arxeologik izlanishlar olib borildi. Amir Temur va Temuriylar davri OAV da hamda yuzlab maqola va asarlarda keng yoritildi. O‘nlab dissertatsiyalar yoqlanib, ko‘plab monografiya va risolalar chop etildi[7].

2000-yil 2-dekabrda UNESCO tomonidan Shahrisabz tarixiy markazi Jahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. Bu qaror shahar tarixiy-madaniy ahamiyatining xalqaro miqyosda tan olinganini anglatadi. 2002-yilda Shahrisabzning 2700 yilligi YUNESKO ishtirokida keng nishonlandi. Ushbu yubiley shahar tarixida muhim voqea bo‘lib, uning xalqaro nufuzini yanada oshirdi. Parij shahrida bo‘lib o‘tgan YUNESKO Bosh konferensiyasida mazkur yubileyni xalqaro miqyosda nishonlash tashabbusi ilgari surildi. Shuningdek, Shahrisabzga turli yillarda AQSH, Hindiston, Yaponiya, Germaniya va BMT vakillari tashrif buyurib, tarixiy obidalar bilan tanishdilar. Bu esa shahar diplomatik va madaniy aloqalar rivojida ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

YUNESKOning 2000-yilning 2-dekabrida Avstraliyada o‘tkazilgan anjumanida Shahrisabzning tarixiy yodgorliklarini Jahon Merosi ro‘yxatiga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Natijada ko‘hna va hamisha navqiron Shahrisabz jahon tarixiy durdonalari ro‘yxatiga kiritilishi bilan, bu shahar xorijda O‘zbekistonni tanishtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

2001-yil oktyabrda YUNESKO bosh konferensiyasining Parijda o‘tkazilgan 31-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov, Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri Shahrisabz shahrining 2700 yillik yubileyini 2002-yilda xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qilinganligi tashabbusi bilan chiqdi[8].

2002-yil 29-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shahrisabz shahrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[9]. Qarorda jahon tarixi va madaniyatida alohida o‘rin tutgan Shahrisabz shahriga asos solinganligining 2700 yilligi munosabati bilan yubiley tadbirlarini 2002-yil noyabr oyida YUNESKO ishtirokida o‘tkazishni tashkil etish ko‘zda tutildi[10].

Qarorda yubiley munosabati bilan Shahrisabzning me’mor iy yodgorliklarini ta’mirlash va yangilash, shahar tarixini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish, aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borish hamda shaharni obodonlashtirish va qiyofasini zamonaviylashtirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Shahar hududidagi o‘nlab Amir Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan qadimiy obidalarda ta’mirlash ishlari boshlab yuborildi. Shahar yubileyi munosabati bilan Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-siyodat majmualari, Chorsu savdo gumbazi, Chubin madrasasi kabi tarixiy obidalar ta’mirlandi. Shaharda qurilish, obodonlashtirish, aholini gaz va ichimlik suvi bilan ta‘minlash, sog‘liqni saqlash va kommunal xizmat ko‘rsatish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borildi.

2002-yil 1-noyabrda Shahrisabzning 2700 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Shahrisabzning 2700 yillik yubileyini o‘tkazilishi nafaqat O‘zbekiston, balki shahar tarixida unutilmas voqea bo‘ldi. Shahar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan Qashqadaryo viloyatida Qarshi shahridan keyin ikkinchi shaharga aylanish davrini boshlab berdi.

Istiqlol tufayli bu go‘zal maskan, “Qashqa vohasining zumrad gavhari” tom ma’noda tarixiy qudratini qayta tikladi. 2001-yilning 18-oktabridan, bu kun Shahrisabz kuni sifatida nishonlanib kelinadi. Amir Temurdek buyuk insonning beshigini tebratgan bu shahar markazidagi yodgorliklar 2000-yilda YUNESKO ning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yhatiga kiritildi.

**Xulosa.** Amir Temur va Shahrisabz o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlik O‘zbekiston davlatchiligi va milliy o‘zlik timsolidir. Mustaqillik yillarida Sohibqiron nomi va merosining qayta tiklanishi Shahrisabz shahrining tarixiy mavqeini yanada mustahkamladi. Shahrisabzning YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi, 2700 yillik yubileyining xalqaro miqyosda nishonlanishi, me’moriy obidalarining restavratsiya qilinishi va ilmiy tadqiqotlarning kengayishi — bularning barchasi milliy merosga bo‘lgan e’tiborning amaliy ifodasidir.Bugungi kunda Shahrisabz nafaqat tarixiy xotira maskani, balki zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan, turizm va madaniyat markaziga aylangan shahar sifatida rivojlanmoqda. Sohibqiron Amir Temur merosi esa xalqimizning milliy g‘ururi va ma’naviy tayanchidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Оқилхон Одилхон. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Т.: 1996. Б.5-9 (сўз боши).
2. Каримов И.А. Соҳибқирон камолга етган юрт. / Амир Темур ҳақида сўз. – 37 б.
3. Вазирлар Маҳкамасининг “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида” қарори. https://www.lex.uz/docs/2329020, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “1996 йилни Амир Темур йили деб эълон қилиш тўғрисида”ги фармони. https://www.lex.uz/docs/276338
4. Эътироф // Шаҳрисабз тонги, 1996 йил 12 апрель.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Шаҳрисабз шаҳрини «Амир Темур» ордени билан мукофотлаш тўғрисида”ги фармони. https://www.lex.uz/docs/2380247
6. Халқ сўзи, 1996 йил 19 октябрь.
7. Амир Темур сиймосининг миллий матбуотда ёритилиши. – Тошкент, 2009. – 350 б.; Абиджанова Д.С. Мавераунnахр эпохи правления Амира Тимура в англоязичной историографии 60-90-х годов XX в. Автореф. дис. канд ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз., 2001.–26с.; Усмонов Б.А.Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши. Тарих фан.ном. дисс. – Тошкент: ЎзФА ТИ, 2004. – 156 б.; Ўлжаева Ш. Амир Темур ва Темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. – Тошкент: Фан, 2005. – 268 б.
8. Жўрақулов О., Рахматов А. Шаҳрисабз йилномаси.Т. Фан, 2007. –40 б.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Шаҳрисабз шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида”ги қарори. https://lex.uz/docs/1677083
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Шаҳрисабз шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида”ги қарори. https://lex.uz/docs/1677083

## AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA YETAKCHILIK FAZILATLARI

**Qahramon Mahmanazarov**
**Qarshi Davlat texnika universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi**
**+998973158045**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amir Temur shaxsiyati hamda uning yetakchilik fazilatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Amir Temurning davlat arbobi va sarkarda sifatidagi faoliyati, uning strategik tafakkuri, qat’iyati, adolatparvarligi va boshqaruvdagi tashkilotchilik qobiliyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, uning davlat boshqaruvi tamoyillari, harbiy yurishlarni rejalashtirishdagi mahorati hamda jamiyatda tartib-intizom o‘rnatishga qaratilgan siyosati ko‘rib chiqilgan.

**Abstract.** This article analyzes the personality of Amir Timur and his leadership qualities. The study highlights the activities of Amir Timur as a statesman and commander, his strategic thinking, determination, justice, and organizational skills in management. It also examines his principles of public administration, his skills in planning military campaigns, and his policy aimed at establishing order in society.

**Kalit so‘zlar.** Amir Temur, yetakchilik fazilatlari, strategik tafakkur, davlat boshqaruvi, adolatparvarlik, intizom, sarkardalik, ilm-fan va madaniyat, Samarkand, Temur tuzuklari, Zafarnoma.

**Keywords**. Amir Timur, leadership qualities, strategic thinking, governance, justice, discipline, leadership, science and culture, Samarkand, Timur's Code of Laws, Zafarnama.

**Kirish.** Amir Temur jahon tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk sarkarda, davlat arbobi va mohir strateg sifatida tanilgan. U XIV asrda Markaziy Osiyoda kuchli va markazlashgan davlat barpo etib, siyosiy, harbiy hamda madaniy hayotda muhim o‘zgarishlar amalga oshirgan. Uning shaxsiyati nafaqat jangovar mahorati, balki dono siyosati, qat’iy irodasi va kuchli yetakchilik fazilatlari bilan ham ajralib turadi. Amir Temurning shaxsiyati ko‘plab ijobiy fazilatlar bilan ajralib turadi. U kuchli iroda, qat’iyat, adolatparvarlik, uzoqni ko‘ra bilish va strategik fikrlash kabi sifatlarni o‘zida mujassam etgan yetuk shaxs edi. Aynan shu fazilatlar uning katta imperiya barpo etishiga va uzoq yillar davomida uni muvaffaqiyatli boshqarishiga yordam bergan. U o‘z askarlariga qat’iy intizom talab qilgan, har bir ishni reja asosida amalga oshirgan hamda harbiy yurishlarni puxta o‘ylangan strategiya asosida olib borgan.

Amir Temur yetakchi sifatida odamlarni birlashtira olgan, ularning ishonchini qozongan va ularga kuchli ruh bag‘ishlagan. Uning boshqaruv uslubida adolat, tartib va qat’iylik muhim o‘rin tutgan. U davlatni boshqarishda tajribali amaldorlar, olimlar va ulamolar bilan maslahatlashib ish tutgan. Bu esa uning nafaqat sarkarda, balki dono siyosatchi va mohir tashkilotchi ekanligini ko‘rsatadi. Uning davlat boshqaruvi tamoyillari keyinchalik “Temur tuzuklari” nomi bilan mashhur bo‘lib, unda davlatni boshqarish, qo‘shin tuzilishi va jamiyatda tartib o‘rnatish kabi masalalar bayon etilgan. Shuningdek, Amir Temur ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik ishlariga ham katta e’tibor qaratgan. Uning hukmronligi davrida Samarkand yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylangan. Shaharda ko‘plab me’moriy inshootlar, madrasalar va bog‘lar barpo etilgan. Bu esa uning faqat jangovar yurishlar bilan emas, balki bunyodkorlik ishlari bilan ham mashhur bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning shaxsiyati va yetakchilik fazilatlari bugungi kunda ham ko‘plab tadqiqotchilar va tarixchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Uning jasorati, qat’iyati, strategik tafakkuri va davlatni boshqarishdagi tajribasi zamonaviy yetakchilar uchun ham muhim saboq bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli Amir Temur shaxsiyati nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi jamiyat uchun ham katta tarixiy va ma’naviy ahamiyatga ega.

Amir Temur o‘z davrida murakkab siyosiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olgan, qo‘shinlarni birlashtirib, ularga kuchli ruh bag‘ishlagan yetakchi sifatida tarixda nom qoldirgan. Uning boshqaruv uslubi, intizomga bo‘lgan talabchanligi va strategik fikrlashi davlatni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Amir Temurning eng muhim yetakchilik fazilatlaridan biri — uning kuchli strategik tafakkurga ega bo‘lganidir. U har bir harbiy yurishni oldindan puxta rejalashtirgan, qo‘shinlarning harakatini aniq tashkil etgan va jang maydonida tezkor qarorlar qabul qila olgan. Uning harbiy san’ati o‘z davri uchun juda rivojlangan bo‘lib, qo‘shinlarni tartibli boshqarish, harbiy intizomni mustahkamlash va askarlarning ruhiy holatini ko‘tarish kabi jihatlarga katta e’tibor bergan. Shu sababli uning qo‘shini ko‘plab janglarda g‘alaba qozongan. Uning yana bir muhim fazilati — adolatparvarlik va tartib-intizomga bo‘lgan talabchanligidir. U davlatda qat’iy qonun-qoidalar o‘rnatishga harakat qilgan va har bir inson o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi kerakligini ta’kidlagan. Uning fikricha, kuchli davlat barpo etish uchun jamiyatda tartib va adolat ustuvor bo‘lishi zarur. Shu sababli u davlat boshqaruvida intizomni eng muhim omillardan biri deb bilgan.

Bundan tashqari, Amir Temur bunyodkorlik ishlariga ham katta e’tibor qaratgan. Uning hukmronligi davrida Samarkand yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylangan. Shaharda ko‘plab masjidlar, madrasalar, saroylar va bog‘lar barpo etilgan. Bu esa Amir Temurning nafaqat zabardast sarkarda, balki madaniyat va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlagan davlat arbobi ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga ham katta ahamiyat bergan. U olimlar, hunarmandlar va me’morlarni qo‘llab-quvvatlagan hamda ularning faoliyatiga sharoit yaratgan. Natijada uning davrida ilmiy va madaniy hayot sezilarli darajada rivojlangan. Bu esa keyinchalik Temuriylar davrida ilm-fan va san’atning yanada yuksalishiga zamin yaratgan.

Umuman olganda, Amir Temurning shaxsiyati va yetakchilik fazilatlari uning tarixdagi buyuk shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Uning jasorati, strategik tafakkuri, adolatparvarligi

va davlat boshqaruvidagi tajribasi bugungi kunda ham tarixiy va ma’naviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

**Xulosa** qilib aytganda, Amir Temur tarixda buyuk sarkarda, dono davlat arbobi va kuchli yetakchi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Uning shaxsiyati qat’iyat, jasorat, strategik tafakkur, adolatparvarlik va kuchli iroda kabi fazilatlar bilan ajralib turadi. Aynan shu sifatlar uning katta hududlarni birlashtirib, kuchli va markazlashgan davlat barpo etishiga yordam bergan.

Amir Temur nafaqat harbiy yurishlari bilan, balki davlat boshqaruvidagi dono siyosati va tartib-intizomga asoslangan boshqaruv tizimi bilan ham mashhur bo‘lgan. U jamiyatda adolat va barqarorlikni ta’minlashga harakat qilgan hamda ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik ishlariga katta e’tibor qaratgan. Uning davrida Samarkand yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylangan. Amir Temurning yetakchilik fazilatlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning uzoqni ko‘ra bilishi, aniq maqsad qo‘ya olishi, odamlarni birlashtira bilishi va qat’iy qarorlar qabul qilishi zamonaviy yetakchilar uchun ham muhim tajriba hisoblanadi. Amir Temur shaxsiyati va uning yetakchilik fazilatlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham tarixiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlod uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019. — 15–45-betlar
2. Sharaf ad-Din Ali Yazdi. Zafarnoma. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997. — 22–60-betlar
3. Ahmedov B. Amir Temur. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 1996. — 40–85-betlar
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1992. — 30–75-betlar
5. Rajabova Z. Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi. — Toshkent, 2013. — 15–60-betlar

## AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVDAGI O‘RNI

**Muhammadqulov Ulug‘bek Umarjon o‘g‘li**
**Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzey ekskursiya yetakchisi**

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotidagi o‘rni hamda uning davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishdagi siyosiy-huquqiy faoliyati ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlatning institutsional asoslari, ma’muriy-hududiy boshqaruv mexanizmlari, harbiy-siyosiy strategiyasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosati manbashunoslik va tarixiy-qiyosiy metodlar asosida yoritiladi. Shuningdek, “Temur tuzuklari” asarining davlat boshqaruvi tamoyillarini belgilashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada Amir Temur faoliyatining o‘zbek davlatchiligi evolyutsiyasiga ta’siri hamda uning boshqaruv modeli zamonaviy davlat boshqaruvi konsepsiyalari nuqtai nazaridan baholanadi.

**Kalit so‘zlar**: Amir Temur, o‘zbek davlatchiligi, markazlashgan davlat, davlat boshqaruvi, siyosiy-huquqiy tizim, ma’muriy boshqaruv, harbiy strategiya, Temur tuzuklari, davlat boshqaruvi tamoyillari.

**Abstract**: This article provides a scholarly analysis of the role of Amir Temur in the development of Uzbek statehood and his contribution to the formation of a centralized system of governance. The study examines the institutional foundations of the centralized state established by Temur, including its administrative-territorial structure, military-political strategy, and socio-economic policies, using historical-comparative and source-based methodologies. Particular attention is given to the significance of the work “Temur tuzuklari” in articulating the fundamental principles of state administration. The article also evaluates the influence of Amir Temur’s governance model on the evolution of Uzbek statehood and assesses its relevance within the framework of modern public administration theories.

**Keywords**: Amir Temur, Uzbek statehood, centralized state, public administration, political and legal system, administrative governance, military strategy, Temur tuzuklari, principles of state governance.

**Аннотация:** В данной статье проводится научный анализ роли Amir Temur в развитии узбекской государственности и формировании централизованной системы управления. Исследуются институциональные основы созданного им государства, административно-территориальная структура, военно-политическая стратегия и социально-экономическая политика на основе историко-сравнительного и источниковедческого методов. Особое внимание уделяется значению труда «Temur tuzuklari» в определении принципов государственного управления. В статье также рассматривается влияние управленческой модели Амира Темура на эволюцию узбекской государственности и её оценка с позиций современных теорий государственного управления.

**Ключевые слова**: Amir Temur, узбекская государственность, централизованное государство, государственное управление, политико-правовая система, административное управление, военная стратегия, Temur tuzuklari, принципы государственного управления.

**KIRISH**

O‘zbek davlatchiligi tarixi ko‘p asrlik taraqqiyot jarayoniga ega bo‘lib, unda markazlashgan davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayonda Amir Temur alohida o‘rin tutadi. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida siyosiy tarqoqlik va ichki nizolar hukm surgan bir sharoitda u kuchli markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo‘ldi[177]. Uning siyosiy, ma’muriy va harbiy faoliyati o‘zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Shuningdek, davlat boshqaruvi tamoyillari “Temur tuzuklari” asarida tizimli ravishda bayon etilgani mazkur mavzuni ilmiy jihatdan asosli o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Globallashuv sharoitida milliy davlatchilik tajribasini tarixiy manbalar asosida o‘rganish va ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Amir Temur tomonidan yaratilgan boshqaruv modeli-markazlashuv, qonun ustuvorligi, adolat va intizom tamoyillariga asoslangan tizim-bugungi zamonaviy davlat boshqaruvi konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Uning boshqaruv tajribasi nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki siyosiy-huquqiy tafakkur rivojida ham muhim nazariy va amaliy qiymatga ega.

Mazkur maqolada Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotidagi o‘rni hamda uning markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishdagi faoliyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotning asosiy tezisi shundan iboratki, Amir Temur tomonidan yaratilgan boshqaruv modeli o‘zbek davlatchiligining institutsional rivojiga mustahkam zamin yaratgan hamda keyingi tarixiy bosqichlarda davlat boshqaruvi an’analarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

**Asosiy qism**: Temur tuzuklari (shuningdek, “Tuzuki Temuriy”, “Malfuzoti Temuriy”, “Voqioti Temuriy” nomlari bilan ham mashhur) - Amir Temurga nisbat beriladigan siyosiy-huquqiy va qisman avtobiografik asardir. U Temuriylar davri davlat tuzilishi va boshqaruv tizimini yorituvchi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Asarda davlat boshqaruvi qonun-qoidalari, harbiy tizim, soliqlar, amaldorlar vazifalari hamda hukmdorning axloqiy mezonlari bayon etilgan. Tuzilishi ikki qismdan iborat: birinchi qism - ma’muriy va harbiy boshqaruv tamoyillari, ikkinchi qism - siyosiy-axloqiy nasihatlar va avtobiografik mulohazalar.

Asar chig‘atoy va fors tillarida yaratilgan bo‘lib, XIX asrdan boshlab turli tillarga tarjima qilingan. U Markaziy Osiyo siyosiy tafakkuri tarixida adolatli boshqaruv timsoli sifatida muhim o‘rin tutadi va bugungi kunda ham tarixiy-huquqiy tadqiqotlarda asosiy manbalardan biri sifatida qo‘llanadi[178].

Sharaf ad-Din Ali Yazdi (taxm. 1370–1454, Yazd) - XV asr fors tarixchisi, adibi va olimi bo‘lib, u asosan “Zafarnoma” asari muallifi sifatida mashhur. Ushbu asar Amir Temur hayoti va harbiy yurishlariga bag‘ishlangan bo‘lib, Temuriylar davri tarixining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

“Zafarnoma” 1419–1425 yillarda Ibrohim Sulton buyurtmasi bilan yozilgan bo‘lib, kirish qismi (“Muqaddima”) va asosiy tarixiy bayondan iborat. Muallif asarni yaratishda og‘zaki rivoyatlar, arxiv hujjatlari hamda avvalgi solnomalardan, jumladan Nizomiddin Shomiy asaridan foydalangan.

[177] Temur tuzuklari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
[178] Temur tuzuklari / Tuzuki Temuriy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991. – (1991–2024 yillardagi nashrlari asosida).

Asar ilmiy ishonchlilik bilan badiiy uslubni uyg‘unlashtirgani bilan ajralib turadi.

Yazdiy tarixdan tashqari matematika, falakiyot, falsafa va she’riyat bilan ham shug‘ullangan. “Zafarnoma” keyingi sharq va g‘arb tarixshunosligiga katta ta’sir ko‘rsatgan hamda Temuriylar davri bo‘yicha asosiy manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi[179].

Nizamuddin Shami (taxm. 1360 - 1436 yillar) - fors tarixchi va Amir Temur saroyidagi rasmiy kronik yozuvchi. U “Zafarnoma” asari muallifi bo‘lib, bu Temurning birinchi rasmiy tarjimai holi hisoblanadi va uning shaxsiy imidjini sharq va turk tarixshunosligida shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

“Zafarnoma” Temurning hokimiyatga ko‘tarilishidan 1404-yilgacha bo‘lgan voqealarni qamrab oladi. Asar sodda, ishonchli va ritorikadan xoli bayon bilan ajralib turadi. Bu ish keyinchalik Sharaf ad-Din Ali Yazdining “Zafarnoma” si uchun asos bo‘lgan va Shahrux hukmronligi davrida kanonik hisoblangan.

Shami asarlari Temuriylar davri boshqaruvi, harbiy tashkilot va siyosiy ideologiya haqida ishonchli ma’lumotlar beradi. U o‘z davrining birinchi saroy kronikchisi sifatida tanilgan va uning yozish uslubi keyingi tarixiy va saroy an’analariga katta ta’sir ko‘rsatgan[180].

Beatrice Forbes Manz - amerikalik tarixchi, Tafts universiteti professori, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq tarixini o‘rganish bo‘yicha mutaxassis. U XIV–XV asrlarda Amir Temur va Timuridlar davri davlat boshqaruvi, kocheviy jamiyatlar va siyosiy institutlarini chuqur tahlil qilgan.

Asarlari orasida eng mashhurlari: *The Rise and Rule of Tamerlane* (1989), Temurning davlat tuzilmasi va siyosiy strategiyasini tahlil qiluvchi klassik tadqiqot; *Power, Politics and Religion in Timurid Iran* (2007), Shahrux davridagi siyosiy va diniy boshqaruvni o‘rganadi[181]. U kocheviy elitalar va osedlilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, Timuridlar siyosiy institutsiyalari va davlatchilik mexanizmlarini qayta baholashga katta hissa qo‘shgan.

Manbalari zamonaviy Timurid tadqiqotlarida keng qo‘llaniladi va akademik adabiyotlarda keng iqtibos qilinadi.

**XULOSA**

O‘rganilgan materiallar va manbaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur o‘zbek davlatchiligi tarixida markazlashgan, institutsional asoslari mustahkam bo‘lgan boshqaruv tizimini shakllantirgan. Uning davlat boshqaruvi, harbiy strategiyasi va siyosiy-huquqiy faoliyati “Temur tuzuklari”, Zafarnama va boshqa tarixiy manbalar orqali aniq namoyon bo‘ladi.

Tahlillar Amir Temur boshqaruv modelining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy davlat boshqaruvi konsepsiyalari nuqtai nazaridan ham ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. U yaratgan markazlashgan davlat modeli o‘zbek davlatchiligining keyingi bosqichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan va tarixiy siyosiy-tashkiliy tajribaning asosiy poydevorini tashkil etgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**:

1. Temur tuzuklari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Temur tuzuklari / Tuzuki Temuriy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991. – (1991–2024 yillardagi nashrlari asosida).
3. Sharaf ad-Din Ali Yazdi. Zafarnoma. – XV asr (1419–1425 yillarda yozilgan qo‘lyozma manba).
4. Nizamuddin Shami. Zafarnama. – XV asr (rivojlangan qo‘lyozma manba).
5. Beatrice Forbes Manz. *The Rise and Rule of Tamerlane*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.

[179] Sharaf ad-Din Ali Yazdi. Zafarnoma. – XV asr (1419–1425 yillarda yozilgan qo‘lyozma manba).
[180] Nizamuddin Shami. Zafarnama. – XV asr (rivojlangan qo‘lyozma manba).
[181] Beatrice Forbes Manz. *The Rise and Rule of Tamerlane*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.

# TEMURIYLAR DAVRI ME’MORCHILIGI-MADANIY YUKSALISHNING KO‘ZGUSI

**Maftuna Madat qizi Kamolova**
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti tarix mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
kmaftuna0722@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur tezis Temuriylar davri (XIV-XV asrlar) me’moriy merosini o‘sha davrning madaniy va ilmiy yuksalishi ifodasi sifatida o‘rganadi. Tadqiqotning maqsadi – Temuriylar me’morchiligi namunalarida ilm-fan va madaniy hayotning o‘zaro uyg‘unligini tahlil qilishdan iborat. Ish davomida tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Temuriylar me’morchiligi shunchaki qurilish san’ati emas, balki aniq fanlar (matematika, geometriya, astronomiya) va madaniy hayotning murakkab sintezi ekanligi aniqlandi. Jumladan, Ulug‘bek rasadxonasi astronomiya va me’morchilik uyg‘unligining, Registon ansambli esa shaharsozlik madaniyatining yorqin namunasidir. Shuningdek, binolar loyihalarida “oltin kesma” va boshqa geometrik qonuniyatlardan keng foydalanilganligi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri me’morchiligi nafaqat o‘tmish yodgorliklari, balki butun bir davrning ilmiy salohiyati va madaniy dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan noyob manbadir.

**Kalit so'zlar:** Temuriylar me’morchiligi, madaniy yuksalish, O‘rta Osiyo, Samarqand, Ulug‘bek, Registon, geometrik uyg‘unlik.

**Abstract:** This thesis examines the architectural heritage of the Timurid period (14th-15th centuries) in Central Asia as a reflection of the era's cultural and scientific flourishing. The aim of the research is to analyze the interconnection between science and cultural life in Timurid architectural monuments. Historical-analytical, comparative, and descriptive methods were employed throughout the research.

The findings reveal that Timurid architecture was not merely construction but a sophisticated synthesis of exact sciences (mathematics, geometry, astronomy) and cultural expression. Notably, Ulughbek's Observatory exemplifies the harmony between astronomy and architecture, while the Registan ensemble demonstrates advanced urban planning culture. Furthermore, the research proves the extensive use of geometric principles, including the "golden section," in building designs.

In conclusion, Timurid architectural monuments are not only historical artifacts but also unique sources embodying the scientific potential and cultural worldview of an entire era.

**Keywords:** Timurid architecture, cultural uplift, Central Asia, Samarkand, Ulughbek, Registan, geometric harmony.

**Резюме:** Данная диссертация исследует архитектурное наследие эпохи Тимуридов (XIV-XV века) в Центральной Азии как отражение культурного и научного расцвета того периода. Цель исследования – анализ взаимосвязи науки и культурной жизни в архитектурных памятниках Тимуридов. В работе применялись историко-аналитический, сравнительный и описательный методы.

Результаты исследования показывают, что архитектура Тимуридов была не просто строительством, а сложным синтезом точных наук (математики, геометрии, астрономии) и культурного выражения. Обсерватория Улугбека является ярким примером гармонии астрономии и архитектуры, а ансамбль Регистан демонстрирует высокую культуру градостроительства. Также доказано широкое использование геометрических принципов, включая "золотое сечение", в проектировании зданий.

В заключении отмечается, что архитектурные памятники эпохи Тимуридов представляют собой не только исторические реликвии, но и уникальные источники, воплощающие научный потенциал и культурное мировоззрение целой эпохи.

**Ключевые слова:** архитектура Тимуридов, культурный подъем, Средняя Азия, Самарканд, Улугбек, Регистан, геометрическая гармония.

Temuriylar davri (XIV-XV asrlar) O‘rta Osiyo tarixida nafaqat siyosiy qudrat, balki ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada rivojlangan davri sifatida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda Samarqand, Shahrisabz va Hirot kabi shaharlar dunyoning eng yirik madaniy markazlariga aylandi. Me’morchilik

esa bu madaniy yuksalishning eng yorqin ko‘zgusi bo‘lib xizmat qildi. Ushbu tezisda temuriylar davri me’morchiligi namunalarida ilm-fan va madaniy hayotning o‘zaro uyg'unligi tahlil qilinadi.

Temuriylar davri shaharsozligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – shaharlarning yirik me’moriy ansambllar asosida qurilishidir. Samarqand va Shahrisabz shaharlari tuzilishi o‘zaro o'xshash bo‘lib, ularning har biri mustahkam mudofaa devorlari, burj va darvozalarga ega bo‘lgan. Samarqand “Samarqandi Firdavsmonand” (jannatmonand Samarqand) degan ta’rifga sazovor bo‘lib, shahar atrofida Temurning Bog‘i Jahonnamo, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Behisht kabi 12 dan ortiq bog‘ va chorbog‘lari joylashgan edi.

Amir Temur tomonidan qurdirilgan eng yirik inshootlardan biri – Bibixonim masjididir. Masjid 1399-1404-yillarda qurilgan bo‘lib, uning tashqi tomonlari 130x99 metrni, hovlisi esa 78x64 metrni tashkil qiladi. Masjidning bosh peshtog‘i 18,8 metr eniga ega bo‘lib, to‘rt burchagida to‘rt minora o‘rnatilgan. Uning peshtoqidagi yozuvlar bir farsax (taxminan 6 kilometr) masofadan ham ko‘rinib turganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Masjid gumbazlarining ichki yuzasida lojuvard, tilla va boshqa ranglar bilan ishlangan naqshlar saqlanib qolgan [1].

Shahrisabzdagi Oqsaroy esa temuriylar saroy me’morchiligining yorqin namunasidir. Qurilishi 1380-yilda boshlanib, 1404-yilda ham pardoz ishlari davom etgan. Oqsaroy peshtog‘ining eni 22,5 metr, dastlabki balandligi 60 metrga yetgan deb taxmin qilinadi. Peshtoq ustunlarida “Sohibqiron buyurdi...” degan so'zlarni o‘z ichiga oluvchi Temurga bag‘ishlangan tarixiy lavha bitilgan. Peshtoqdagi murakkab geometrik naqshlar va koshinkorlik bezaklari davlat qudratining ramzi sifatida xizmat qilgan [1].

Temuriylar me’morchiligining eng muhim xususiyatlaridan biri – uning aniq fanlar bilan chambarchas bog‘liqligidir. Bu borada Ulug‘bek rasadxonasi alohida ahamiyat kasb etadi. Arxeolog V.L.Vyatkin tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida Ulug‘bek rasadxonasining qoldiqlari topilgan. Rasadxona 1424-yilda Obi Rahmat arig‘i yoqasida, toshli tepalikda qurilgan bo‘lib, diametri 48 metrni tashkil etgan. Abdurazzoq Samarqandiy uni yetti qavatli, Bobur esa uch qavatli deb yozgan. Undagi asosiy asbob – Faxriy sekstanti aylananing oltidan bir qismi (60°) sifatida yerga o‘yib yasalgan. Bu inshoot astronomiya va me’morchilik uyg‘unligining yorqin namunasidir [2].

M. S. Bulatovning “Geometrik uyg‘unlashtirish” haqidagi tadqiqotlariga ko‘ra, o‘rta asr me’morchiligi mustahkam geometrik va matematik bilimlarga asoslangan edi. Binolar loyihalarida “oltin kesma” va boshqa geometrik qonuniyatlardan keng foydalanilganligi isbotlangan. Xususan, Somoniylar maqbarasi (IX-X asrlar) keyingi davrlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilgan. Bulatovning geometrik tahlillariga ko‘ra, Somoniylar maqbarasining g‘isht o‘lchamidan boshlab qolgan barcha qismlari o‘lchamlarining o‘zaro uzviy bog‘lanishda ekanligi aniqlangan. Maqbara tarhining ichki devorlari orasiga G‘iyosiddin Koshiy aytib o‘tgan to‘qqiz kichik to‘rtburchaklarga bo‘linadigan kvadratni joylashtirsak, maqbara kirish joylarining tashqi eni o‘sha to‘qqiz shaklli kvadratning markazidagi to‘rtburchak eniga tengligi ko‘rinadi [3].

Ulug‘bek tomonidan Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda qurdirilgan madrasalar ham geometrik qonuniyatlar asosida barpo etilgan. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi 1417-1420 yillarda qurilgan bo‘lib, tomonlari 81x56 metrni tashkil qiladi. Madrasaning to‘rt burchagida to‘rt minora bo‘lgan, hovli atrofida 28 ta ikki qavatli hujralar joylashgan. Ayniqsa, Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasining peshtoqidagi “Ilm olish har bir musulmon va muslimaning burchidir” degan hadis davrning ilm-fanga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi (1417-yil) ham xuddi shunday uslubda qurilgan bo‘lib, uning peshtoqida ham allomalarning nomlari saqlanib qolgan [1].

Temuriylar davri me’morchiligida yakka binolar emas, balki me’moriy ansambllar tuzish san’ati yuksak darajada rivojlangan. Samarqanddagi Registon ansambli buning eng yorqin namunasidir. Registon maydoni asrlar davomida shaharning asosiy savdo, ilmiy, diniy va ijtimoiy hayot markazi bo‘lgan. Maydon atrofida Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi va Tillakori madrasasi joylashgan bo‘lib, ular o‘zining mutanosibligi va hashamatli bezaklari bilan ajralib turadi. Ushbu madrasalarning nisbatlarida ham geometrik qonuniyatlar, jumladan "oltin kesma" qo‘llanilganligi tadqiqotlarda qayd etilgan [1].

Shohizinda majmuasi esa temuriylar davri me’morchiligining yana bir yorqin namunasidir. Majmua XIV-XV asrlarda shakllangan bo‘lib, unda turli davrlarda qurilgan maqbaralar joylashgan. Ayniqsa, Shodimulk maqbarasi (1372-yil), Shirinbeka oqa maqbarasi (1385-yil) va Amir Burunduq

maqbaralari o‘zining nafis koshinkorlik bezaklari bilan ajralib turadi. Shodi Mulk maqbarasining muqarnaslarida Bariddin va Shamsiddin, peshtoq ravoqini ko‘tarib turgan ustun poyida esa Zayniddin ibn Shamsiddin Buxoriy kabi me’morlarning ismlari yozib qoldirilgan. Bu esa o‘sha davrda me’morlar o'z ismlarini abadiylashtirish sharafiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi [4].

Go‘ri Amir maqbarasi nafaqat sulola qabristoni, balki temuriylar davri me’morchiligi uslubining namunasi sifatida keyingi davrlarga (jumladan, Hindistondagi Boburiylar me’morchiligiga) kuchli ta’sir ko'rsatgan. Maqbara 1404-yilda qurib bitkazilgan bo‘lib, uning gumbazi va koshinkorlik bezaklari o‘sha davr me’moriy tafakkurining yuksakligidan dalolat beradi. Gumbazning moviy rangdagi koshinlari uzoq masofadan ko‘zni tortadi. Maqbara nisbatlarida ham aniq geometrik qonuniyatlar, jumladan kvadrat va uning diagonallari asosidagi nisbatlar qo‘llanilgan [1].

Temuriylar me’morchiligida badiiy bezak va amaliy san’at alohida o‘rin tutadi. Bibixonim masjidining gumbazlari ichki yuzasida lojuvard, tilla va boshqa ranglar bilan ishlangan naqshlar saqlanib qolgan. Bu naqshlar islomiy usulda ishlanib, o‘simliksimon va geometrik shakllardan tarkib topgan [1]. Oqsaroy peshtoqidagi murakkab geometrik naqshlar va xattotlik yozuvlari esa o‘sha davr ustalarining mahoratidan dalolat beradi. Shohizinda majmuasidagi maqbaralarda esa turli xil usullar – koshinkorlik, parchin (mayolika) va naqshinkor g‘isht terish usullari qo‘llanilgan. Ayniqsa, ko‘k va firuza rangli koshinlar me’moriy obidalarga o‘ziga xos joziba bag‘ishlagan [4].

Ulug‘bek madrasalarining peshtoqlari va gumbazlari ham murakkab geometrik naqshlar (girih) va islomiy naqshlar bilan bezatilgan. Bu naqshlarning tuzilishida murakkab matematik hisob-kitoblar amalga oshirilgan bo‘lib, ular o‘sha davr geometriya fanining yuksak darajasidan dalolat beradi. Girih naqshlari murakkab ko‘pburchaklar va yulduzsimon shakllardan tarkib topgan bo‘lib, ularning har bir elementi o‘zaro matematik nisbatlar, jumladan "oltin kesma" asosida joylashtirilgan [1].

**XULOSA**

Temuriylar davri me’morchiligi O‘rta Osiyo madaniy taraqqiyotining yorqin sahifasidir. Tahlil qilingan manbalar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, Samarqand, Shahrisabz va Hirot kabi shaharlar yirik me’moriy ansambllar sifatida qayta qurilgan. Bog‘lar va chorbog‘lar shaharsozlik madaniyatining muhim qismi bo‘lgan.

Ikkinchidan, Ulug‘bek rasadxonasi astronomiya va me’morchilik uyg‘unligining yorqin namunasidir. Vyatkin tomonidan topilgan ushbu inshoot o‘sha davr ilm-fanining yuksak darajasidan dalolat beradi.

Uchinchidan, M.S.Bulatovning geometrik tahlillari Somoniylar maqbarasi misolida o‘rta asr me’morchilikning mustahkam matematik asoslarga ega ekanligini ko‘rsatgan.

To‘rtinchidan, Shohizinda majmuasidagi maqbaralar va ulardagi me’morlar ismlari saqlanib qolgan yozuvlar me’morchilikning yuksak darajasini va ustalar mahoratini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri me’morchiligi ilm-fan, madaniyat va an’analar uyg‘unligining yorqin namunasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Пугаченкова Г. А. Зодчество Центральной Азии (XV век). – Ташкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1976.

2. Вяткин В. Л. Памятники древностей Самарканда // Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд, 1908.

3. Булатов М. С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. – Москва: Наука, 1988.

4. Зоҳидов П. Ш. Меъмор санъати. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1978.

# AMIR TEMUR TUZUKLARIDA HARBIY MASALALARI HAQIDA

**O.A.Abdig‘apparov**
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temur sipohning tuzilishi, uning ta‘minoti, maoshlari bilan bir vaqtda sipohlarning o‘z beklariga va aksincha beklarning o‘z sipohlariga bo‘lgan munosabatining huquqiy va axloqiy jihatlarni ham tartibga soladi. U sipohlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishlarini talab qilgan. Amir Temur tuzuklarida harbiy masalalari haqida yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Yuzboshi, sipoh, otliq askarlar, o‘nboshilar, mingboshi.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat tuzilishida uning armiyasi hamda harbiy san‘ati alohida rol o‘ynagan. Uning tuzuklarida Amir Temur harbiy tashkilotchi hamda atoqli sarkarda sifatida namoyon bo‘ladi. Rus armiyasi general leytenanti M.I.Ivaninning ― Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temurlari kitobida ko‘rsatilganidek Amir Temur barpo etgan armiyaning ichki tuzilishi Chingizxon tuzgan qo‘shin tizimi va tuzilishiga ma‘lum darajada yaqin bo‘lsa-da, biroq quyidagi jihatlari bilan farqlangan: Birinchidan, Amir Temur qo‘shini umumxalq xarakteridagi lashkardan iborat emasligi; Ikkinchidan, qo‘shinga chorvadorlardan, kosiblardan, hunarmandlardan, dehqonlardan va o‘troq aholidan askar olinganligi; Uchinchidan, qo‘shinida otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham mavjud bo‘lganligi;To‘rtinchidan, Amir Temur Sharqda birinchilardan bo‘lib o‘z qo‘shiniga o‘t irg‘ituvchi qurol – ra’d andoz olib kirganligi; Beshinchidan, qo‘shinda tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boorish uchun piyodalar tarkibidan iborat tarzda tuzilgan maxsus qismlarni mavjudligi; Oltinchidan, jahon harbiy san’ati tarixida Amir Temur tomonidan birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida etti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etilganligi; Yettinchidan, qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha g‘anim kuchlarini yon tomonidan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – kunbulning joriy etilishidir[1].

Amir Temur sipohni tuzishda, asosan o‘z zamonasida mashhur bo‘lgan o‘nliklar, yuzliklar, mingliklar tartibiga amal qiladi. Uning lashkarlarining eng quyi bo‘g‘ini o‘nliklardan tashkil toptan bo‘lsa, eng yuqorigi bo‘g‘iniga esa amirul umaro rahbarlik qilgan. Ularning ustidan yakka o‘zi cheksiz huquqqa ega bo‘lgan holda qo‘mondonlik qilgan. Eng muhimi shundaki, sipoh tashkil etishda Amir Temur ularga o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar tanlashda bevosita jang maydonida o‘zining mahoratini ko‘rsatgan shaxslarni tanlaydi. Bu haqida u shunday deydi: «Amr qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko‘rgan, jang-jadalda suyagi qotgan o‘n kishi yig‘ilsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo‘lsa, qolgan to‘qqiztasining roziligi va ma’qullashi bilan, uni o‘zlariga boshchi saylab, otini o‘nboshi deb atasinlar»[2]. Yoki «o‘n nafar o‘nboshi jam bo‘lsa, o‘z ichlaridan eng ish ko‘rgan, jang maydonlarida toblanib tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovini amir qilib, uni yuzboshi deb nomlasinlar»[3]. Ana shu tartibda mingboshi (amiri xazora) va boshqa qo‘mondonlarni tayinlashni joriy qiladi.

Amir Temur qo‘shishning jangovar tartibini doimo takomillashtirib turishga alohida e‘tibor qaratgan. U qo‘shin markazi – qo‘lni ilg‘or qism –xirovul hamda madadkor qism – chindovul bilan mustahkamladi va uni faqat oliy bosh qo‘mondon oldida mas‘ul qilib qo‘ydi. Qo‘shin safar paytida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan. Bosh kuchlardan ancha ilgarida qorovul – avanpost, undan mangliy xirovul – avangard, barong‘or, javongor, qo‘l, chindovul – arergard yurgan.

Taktik jihatidan Amir Temur qo‘shini o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u etti taktik qism – kuchlarga bo‘lingan, razvedka a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan, qismlarning jang maydonida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang chog‘ida boshqarishga alohida e’tibor qaratilgan, qismlararo aloqaning yuqori saviyada bo‘lishi, harbiy boshliqlarning to‘g‘ri tanlanganligi jangovar harakatlar natijasiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan[4].

Amir Temur butun faoliyati davomida harbiy tashkilotchi va buyuk sarkarda sifatida qo‘shinni takomillashtirishga e‘tibor qaratishi bilan birga bu qo‘shinni boshqarishda intizom masalalariga ham alohida e‘tibor qaratdi. U intizomli qo‘shin tuzishga, uni mohir qo‘mondonlar bilan ta‘minlashga, jang chog‘ida qismlarni san‘atkorona boshqarishga, jang taqdirini hal etuvchi nuqtalarga yordamchi kuchlarni o‘z vaqtida yo‘llashga, har qanday to‘siq va g‘ovlardan tadbirkorlik bilan o‘tishga

erishgan. Shuningdek, dushman mudofaasini turli usullar bilan yakson qilish, g‘anim mamlakatlarining markaziy va yirik shaharlariga qo‘qqisdan kuchli zarba berish, mustahkam inshootlarga ega bo‘lgan qal’a, qo‘rg‘on va hisorlarni uzoq muddat qamal qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko‘lamda qurshovga olish, raqibni taqib qilish kabi strategik rejalarni ko‘zlab ish yuritish. Amir Temurga 27 mamlakatni birlashtirgan buyuk imperiyani tuzish imkoniyatini berdi.

Amir Temur faqat o‘z sipohini tashkil etish yoki uning jangovarligini oshirish ishlari bilangina emas, balki sipohning ichki masalalari, xususan, sipohga ulufa, ya‘ni oziq-ovqat, maosh, turli moddiy in’omlar qilish, shuningdek, tanho taqsimlash, ya‘ni ayrim amirlarga, mingboshi, yuzboshilarga ko‘rsatgan qahramonliklari uchun boylik, er-suv, amirlik mansabini berish, sipohiylarni eng quyi darajadan oliy martabagacha tayinlash qoidalarini, tuzuklarini ishlab chiqadi.

Sipohga belgilangan maosh masalasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u Amir Temurning amriga binoan quyidagicha tashkil qilingan, ya‘ni oddiy sipoh o‘z vazifasini qoyilmaqom qilib bajarganda, unga mingan otining bahosi berilgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to‘rt ot bahosigacha qilib belgilangan. O‘nboshilar maoshi qo‘l ostidagi oddiy sipohiydan o‘n barobar ortiq bo‘lgan.

Yuzboshilarniki esa o‘nboshilarnikidan ikki barobar yuqori, mingboshilarniki esa yuzboshinikidan uch barobar ziyoda bo‘lgan. Sipohiylarga maosh belgilashda Amir Temur moddiy rag‘batlantirish qoidasiga qat‘iy amal qilgan. Sipohiylarning maoshi bir xil bo‘lmagan. Amir Temur ularning ko‘rsatgan xizmatlariga qarab maosh tayin qilgan. Shuningdek, u alohida qahramonlik ko‘rsatganlar uchun ulufa, tanho kabi rag‘batlantirishlarni ham joriy qilgan. Amir Temur yozadi: «Amr qildimki, amirul umaroning maoshi o‘z qo‘l ostidagilardan o‘n barobar ortiq bo‘lsin. Shunga o‘xshash, devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlar maoshidan o‘n barobar ko‘p bo‘lsin.[5]

Yasovullar (xonlarning kichik xizmatchisi), qalaqchilar (hosilga qarab xiroj miqdorini belgilab beruvchi mansabdor) maoshlari o‘z xizmatlariga yarasha, mingdan o‘n ming (tanga)gacha bo‘lsin» Harbiy harakatlar davrida armiya ta‘minoti masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Amir Temur o‘z jangchilarini zarur ot-ulovi, qurol-yarog‘, oziq-ovqat, em-xashak bilan ta’minlashini viloyat hokimlari, tuman yoki shahar beklari, qal’a, qo‘rg‘on dorug‘alari zimmasiga yuklagan. Shu bilan birga har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o‘q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo‘shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o‘n jangchi bo‘z chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o‘roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olishi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, yarim man arkon, bir dona pishiq teri va bitta qozon olib kelishi shart bo‘lgan.

Amir Temur sipohning tuzilishi, uning ta‘minoti, maoshlari bilan bir vaqtda sipohlarning o‘z beklariga va aksincha beklarning o‘z sipohlariga bo‘lgan munosabatining huquqiy va axloqiy jihatlarni ham tartibga soladi. U sipohlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishlarini talab qilgan. Sipohlar o‘zlarini doimo beklarining xizmatlarida deb bilib, ularga ixlos qo‘yib xizmat qilganlar, aks holda ularning omadlari kelmay, tushkunlikka uchrashlari mumkin bo‘lgan. Amir Temur o‘z begiga ixlos qo‘ygan va sidqidildan xizmat qilgan navkarning boyligi, davlati, noz-ne‘mati kundankun ortib boradi, deb hisoblaydi. U bu haqida shunday yozadi: «...qaysi navkar o‘z xizmati, haq-burchini unutib, ish vaqtida (mehnatdan) yuz o‘girar ekan, unday navkardan yuz o‘girmoq kerak. Qaysi navkar ish vaqtida bahona izlab, jangu-jadal paytida ijozat so‘rab, qochishni mo‘ljallasa, bugungi ishni ergaga qoldirsa, bunga o‘xshash navkarlar nomlarini ham tilga olishga munosib emasdirlar. Bunday kishilarni parvardigori olamga topshirish zarur»[6].

Ikkinchi tomondan amirupodsholarga qarata Amir Temur ular o‘z navkarlarini ulug‘lab ko‘targan bo‘lsalar, ularni xo‘rlamasinlar, bilgan, taniganlarini unutmasinlar. Agarda ahyon-ahyonda navkarning izzat-nafsiga tegib, uni xo‘rlagan bo‘lsalar, keyinchalik uni ikki xissa izzatini oshirsinlarki, toki u ganasini ko‘nglida saqlamasdan chiqarib yuborsin, deb uqtiradi. Agarda navkar begidan ajrab ketib, yana qaytib kelsa, uning aybini kechirish lozimligini ham ta‘kidlaydi. Amir Temurning ko‘rsatishicha, g‘anim tomonidan navkar o‘z begini himoya qilib, bizga nisbatan qilich ko‘tarib, jang qilgan bo‘lsa va keyinchalik bizning xizmatimizga kelsa, bunday navkarlarni qabul qilish va uni hurmatlar va ko‘p iltifotlar ko‘rsatish kerak, deb hisoblaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Amir Temur tomonidan tashkil etilgan armiya o‘z davrining eng qudratli armiyalaridan bo‘lib u tuzilishi, boshqaruvi, ta‘minoti va intizomi bilan boshqalardan ajralib turgan. Bu tajriba keying davrlarda qator davlatlarda harbiy amaliyotda keng qo‘llanilganligi bilan e‘tiborga loyiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Temur tuzuklari. - Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa birlashmasi, 1991 ,- B. 70.

2. M.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur‖ T.:―Xazina‖, 1994. ,- B. 81.

3.Temur tuzuklari [forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi],T., 1991, 1996; - B. 75.

4. Karomatov H., „Temur tuzuklari“ni O‘zbekistonda o‘rganish muammolari (Temuriylar davri madaniy yodgorliklari), T., 2003- B. 87-88.

5. Temur Tuzuklari. B.Ahmedov tahriri. –Toshkent:“Ilm-ziyo nashriyoti”, 2020.-184 b

6. Amir Temur o‘gitlari. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2007 -147 b

## AMIR TEMUR IN THE EYES OF EUROPEAN AMBASSADORS

**Otaboyeva Zuhra Oktam qizi**
**2 nd year student of the Faculty of Social, Humanitarian and Exact Sciences,**
**“History” major, Mamun University**
**Email: z0431119@gmail.com**

**Abstract:** This article examines the diplomatic relations of Amir Temur with European countries and analyzes how his personality and military achievements were reflected in European historiography. During his reign, Amir Temur established active diplomatic exchanges with several European states, including France, England, and Castile, which contributed to the growing interest of European rulers in his political and military power. The study highlights the significance of primary European sources such as the memoirs of Ruy González de Clavijo, Johann Schiltberger, and Jean de Galonifontibus, who provided valuable firsthand and secondhand accounts of Amir Temur and the Timurid dynasty. Although some of these works contain exaggerations and inaccuracies, they remain essential historical sources for understanding the perception of Amir Temur in Europe. The article concludes that diplomatic missions and military victories, particularly over the Ottoman Sultan Bayezid I, played a crucial role in shaping Amir Temur’s image as a powerful Eastern ruler in European historical literature.

**Keywords:** Amir Temur; Timurid dynasty; diplomatic relations; European historiography; Ruy González de Clavijo; Johann Schiltberger; Jean de Galonifontibus; Ottoman Empire; Bayezid I; Renaissance Europe.

Amir Temur, due to establishing friendly relations with European countries during his time, engaged in multiple diplomatic exchanges with them. He maintained diplomatic relations with France, England, Castile (Spain), and other countries, frequently exchanging ambassadors. We can learn about this from the writings and diaries of the ambassadors who visited during that time. As a result of Amir Temur's successful military campaigns in the Middle East and Asia Minor , numerous people interest in him among European kings began to grow. His victory over the Ottoman Turks further intensified this interest. As a result, European kings began to send envoys to Amir Temur's court multiple times. These diplomatic visits played a significant role in shaping the information and perception of Amir Temur as a great Eastern commander in Europe.

During the European Renaissance, not many works were created about Amir Temur. One of the main reasons for this was that historiography in Europe during the late 14th and 15th centuries had not yet developed significantly, and the political situation in various European states also played a role. Nevertheless, starting from the 15th century, several works about Amir Temur, which became quite well-known in their time, began to appear. Among these are the "Historia del Gran Tamorlan" (“The History of the Great Tamerlane”), published in 1582 by Argote de Molina based on information from the diary of Ruy González de Clavijo; the account of Bavarian knight Johann Schiltberger, published in Mainz in 1475, based on the information he gathered during his travels; and finally, "Mémoires sur Tamerlan et sa cour", written by Jean de Galonifontibus, who was appointed Archbishop of Sultaniya on August 23, 1398, by Pope Boniface IX. These works can be considered as the primary sources on Amir Temur from that period.

In his memoirs, Clavijo provided a wealth of information about Amir Temur and the history, culture, and social life of the Timurids. Much of this information was based on Clavijo‘s personal observations, while a significant portion was derived from what he heard during his travels. Nevertheless, his work remains one of the primary sources for studying the history of Amir Temur and the Timurid dynasty. On March 9, 1377, Pope Gregory XI appointed Dominican John de Galonifontibus as the bishop of Nakhchivan. Later, on August 26, 1398, Pope Boniface IX granted him the title of archbishop of Nakhchivan. Historical records indicate that John was sent to Europe as an envoy on behalf of Amir Temur. On June 28, 1402, he was dispatched to Europe as an ambassador representing Amir Temur. In 1403, after visiting Venice and Genoa, he was received by King Charles VI in Paris on June 15.

The Archbishop of Sultaniya, John de Galonifontibus, provided considerable information about Amir Temur and the history of the Timurids in his memoirs. Although brief, his work also includes references to Amir Temur’s early life. When discussing Temur’s youth, John noted that he was an ordinary young man like his peers but stood out due to his intelligence and sharp mind.

Moreover, John wrote that Amir Temur was born to a poor woman and suffered from poverty in his early life. According to John, Temur often emphasized that whatever he achieved was by the grace of God, and he frequently stated that in due time, he would return everything to God.

Johannes (Hans) Schiltberger was born on May 9, 1381, in Hollern, located near Lollof between Munich and Freising in Bavaria, Germany. Due to his military skills, Hans Schiltberger was later recruited as a soldier into the personal army of Sultan Bayezid I and his sons. He served in the Ottoman army for some time. In 1402, he took part in the Battle near Ankara as part of Bayezid’s forces, fighting against Amir Temur. During this battle, Schiltberger was captured by Amir Temur. He was then given into the service of Temur's son, Shahrukh. As a result, Schiltberger spent more than 30 years "among foreign peoples," and during this time, he recorded the events he saw and the information he heard, which he later compiled into his written work.

Schiltberger’s work was first published in Mainz in 1475, and later in Augsburg in 1477. The information in his work is presented in a simple and literary language. However, the descriptions, which are sometimes accompanied by stories of fantasy, elegies, and miracles, are conveyed quite effectively and successfully. Of the editions printed in the 15th century, four copies of his work have survived to the present day.

In his work, Schiltberger begins presenting information about Amir Temur by discussing his relations with Bayezid. He pays particular attention to the struggle between Amir Temur and Bayezid over the capture of the city of Sivas (referred to as Sevasiya). Bayezid initiated actions to seize the city, but Amir Temur, according to Schiltberger (who tends to exaggerate numbers), arrived with an army of one million soldiers and captured the city after a 21-day siege [3; p.20].

Schiltberger also notes that after the conquest, Amir Temur took a portion of the city's population as captives. According to his account, among the prisoners taken from the city by Temur’s forces were 9,000 girls. He also mentions that Amir Temur lost over 3,000 soldiers during the capture of the city. Schiltberger’s accounts of Amir Temur and the Timurids are undoubtedly considered a highly valuable historical source. His work includes numerous events, geographic locations, figures, and various other details. However, it is important to note that his accounts contain several inaccuracies, such as confusion in place names, misrepresentation of geographic locations, and significant exaggerations in numerical data. Despite these shortcomings, his work remains one of the most important sources for researchers and enthusiasts studying the history of Amir Temur and the Timurid dynasty.

In conclusion , in such time numerous kings and ambassadors keen on Amir Temur's personality ang military skills. Therefore , we can find divergent source and works that was written by European authors.

**LISTS OF USED LITERATURE:**

1. Bruim, P. — Geographische Bemerkungen zu Schiltberger's
Reisen, in the Sitmngsberichte der Konig. Bayer. Ahademie. Miinohen,
1870.
2. Jean of SultoniY. Memoir sur Tamerlan et sa cour par un
Dominicain, et 1403, ed., H. Moranville.-Bibliotheque de I`Ecole des

Chartres, Paris:1894.
3. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406-yillar). Rus tilidan O. Togayev tarjmiasi. Ma‘sul muharrir Muhammad Ali. Toshkent: ―O‘zbekiston‖, 2010.

## SCIENCE AND CULTURE LIFE IN THE TIMURID ERA

**Pulatova Charos Rasulovna**
first-year student, “Linguistics” faculty
KFU Branch in Jizzakh
pulatovacharos98@gmail.com

**Abstract:** This article describes the contribution of the Timurids to culture, their selfless service to the people, and their focus on justice during the reign of the great conqueror. We can also read about the work done in the field of landscaping in this article. It is also emphasized how just our grandfather Amir Temur was as a ruler. The tradition of sewing clothes and their history is also discussed.

**Keywords:** Timurids, architecture, shield, architectural complex, residence, irrigation facility, garden, Clavijo, futa.

## НАУКА И КУЛЬТУРА В ЭПОХУ ТЕМУРИДОВ

**Пулатова Чарос Расуловна**
Филиал КФУ в г. Джизаке
Студентка 1-го курса направления «Лингвистика»
pulatovacharos98@gmail.com

**Аннотация:** В этой статье описывается вклад Тимуридов в культуру, их самоотверженность ради народа и их внимание к справедливости во времена Амира Темура. В этой статье мы также можем прочитать о работе, проделанной в области развития. Также подчеркивается, насколько справедливым правителем был наш дедушка Амир Темур. Также упоминается пошив одежды и традиции, которые сохранились до наших дней.

**Ключевые слова:** Тимуриды, строительство, щит, Сахибкиран, архитектурный комплекс, резиденция, ирригационное сооружение, сад, Клавихо, фута.

## TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT

**Pulatova Charos Rasulovna**
Jizzax shahridagi QFU filiali
“Lingvistika” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
pulatovacharos98@gmail.com

**Annotatsiya**: bu maqolada temuriylarning madaniyatga qo‘shgan hissasi, xalq uchun qilingan fidokorlik, sohibqiron davridagi adolatga qaratilgan e’tibor yoziladi. Yana bu maqolada obodonchilik sohasida ham qilingan ishlarni o‘qishimiz mumkin. Amir Temur bobomizning qanchalik adolatli boshqaruvchi bo‘lganligi ham alohida ta’kidlab o‘tilgan. Kiyim-kechaklar tikish va ularning shu paytga qadar yetib kelgan an’anasi haqida ham so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar**: temuriylar, Go‘ri Amir, binokorlik, qalqon, sohibqiron, me’moriy majmua, qarorgoh, sug‘orish inshooti, chorbog‘, Klavixo, futa, futaboz.

**Kirish.**

O‘rta Osiyoda temuriylar davri bu ilm-fan, bunyodkorlik hamda madaniyat ravnaq topgan davr hisoblanadi. Ayniqsa Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davlatni obodonlashtirish, shahar qurish, hunarmandchilikka va umuman hamma sohaga alohida e’tibor qaratishgan. Bu davrda asosiy

shaharlar nafaqat siyosiy markaz hisoblangan va balki ilm-madaniyat markazi ham bo‘lgan. Me’moriy inshootlar, bog‘lar va chorbog‘lar yaratilishi bilan bir qatorda tibbiyot va hunarmandchilik ham ravnaq topgan. Shu bilan birgalikda adolatga asoslangan boshqaruv hamda bunyodkorlik ishlari ham rivojlanadi. Masalan, 1403-1424 yillarda qurilgan Go‘ri Amir maqbarasi – Samarqandning me’moriy yodgorligi sanaladi. Xalqimiz uni Go‘ri Mir (ya’ni Mir Sayyid Baraka) yoki Go‘ri Amir deb atashadi. Ushbu Yunesko qarmog‘idagi maqbara sohibqironning nabirasi bo‘lmish Muhammad Sulton uchun qurdirilgan. Temuriylarning avlodlari huddi shu maqbaraga joylashtirilgan. Sohibqironning o‘g‘illari Umarshayx va Mironshoh, nabiralaridan Muhammad Sulton Mirzo hamda Amir Temurning ustozi Mir Sayyid Baraka, Amir Temurning o‘zi ham shu maqbaraga dafn qilingan.

Sohibqiron bobomizning yirik janglarda hech qachon mag‘lub bo‘lmaganligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Har bitta jang oldidan alohida tayyorgarlik, soxta chekinishlar, otliq qo‘shinlar, oldindan rajalashtirilgan hujumlar va strategiya bo‘yicha yurishlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ma’lumotlarga qaraganda, uning qo‘shini “o‘nlik”, “yuzlik”, “minglik” bo‘linmalaridan tashkil topganligi ma’lum. Harbiy o‘nlik tizim 10 askardan, yuzlik harbiy shakli 100 askardan va minglik harbiy tizim esa 1000 askardan iborat bo‘lgan. Har bir tizimning nihoyatda tartibli bo‘lishini nazoratga oluvchi bo‘linma boshliqlari bo‘lgan. Harbiy intizom alohida ahamiyatga ega bo‘lgan: buyruqqa bo‘ysunmaslik yoki safni buzish og‘ir jazolangan. Tartib-qoidani buzish qat’yan taqiqlangan.

**Asosiy qism.**

Amir Temur o‘zining binokorlik va obodonchilik sohasidagi faoliyatida siyosiy maqsadlarini maqsad qilgan. Masalan, ona shahri bo‘lgan Shahrisabz shahridagi ko‘hna Oqsaroy majmuasi peshtoqida shunday so‘zlar yozilgan ”Agar bizning qudratimizga ishonmasang ,bizning imoratlarimizga boq” deb yozib qo‘yilgan. O‘rta asr binokorligining nodir namunasi bo‘lgan Ahmad Yassaviy maqbarasi qurilishida ham shunday maqsad ko‘zlangan. Amir Temur hukmronligi ilk davrlaridayoq Kesh shahri poytaxtga aylantirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, uni obodonlashtirishga va rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Sohibqiron bu shaharni ma’naviy markazga aylantirishga kirishdi. Shu sababli Kesh shahri “Qubbatul ilm val adab” nomiga sazovor bo‘ldi. Keshdan so‘ng Samarqand shahri poytaxtga aylantirilganidan so'ng u alohida bir ustunlikka ega bo'ldi. Poytaxt atrofi oltita darvozali devor bilan o'rab chiqilgan edi. Darvozalarning nomlari esa Ohanin, Shayxzoda Chorsu, Korizgoh, Suzangaron va Feruza bo‘lgan. Shahar arkida esa Ko‘ksaroy hamda Bo‘stonsaroy deb nomlanuvchi Temurning qarorgohi qad rostlagan edi. Sohibqiron Samarqandda madrasa, masjid, saroy ko‘priklar va sug‘orish inshootlari qurilishiga katta e’tibor berdi. Tarixda mashhur bo‘lgan Klavixo, ya’ni Ispaniya qirolliginig elchisi ham bu mavzuda alohida ta’kidlab o‘tadi. U Amir Temur saroyida xo‘jaliklarda qurol-aslaha va kiyim-kechak tayyorlash bilan band bo‘lgan mingga yaqin kasb-hunar egalari haqida ma’lumot beradi. Sohibqiron Samarqand atrofida kattayu-kichik shaharlar bunyod etganiligini va dunyodagi eng mashhur shaharlar nomini, ya’ni Bag‘dod, Sultoniya, Damashq, Forij nomlarini berganligi haqida ham tarixchi ibn Arabshox yozib o‘tgan. Bobokalonimiz hayotligida Bibixonim, Shohi Zinda Go‘ri Amir, Ruhobod kabi me’moriy majmualar barpo etilganligi hammamizga ayon. Samarqand atrofida esa to‘qqiz-o‘ndan ortiq bog‘lar: Bog‘imaydon, Bog‘ibaland, Bog‘idilkusho, Bog‘ibihisht, Bog‘ishamol singari chorbog‘lar qurilgan. Ular bu davrning ajoyib san’at namunalari sanalgan.

Amir Temur va Temuriylar har bir sohaga alohida e'tibor bergan. Buni tibbiyot sohasi ham chetlab o'tmadi. Bu davrda xalqning sog'lig'ini yaxshilash, tabib va uning yordamchilariga sharoitlar yaratish va shifoxonalar qurishga bel bog'lashgan. Bunday oliyjanob ishlarda aslzoda ayollar ham bilvosita qatnashishgan. Ibn Sinoning arab tilida tibbiyot haqida yozilgan "Tib qonunlari" kitobini eski o'zbek tiliga tarjima qildirgan.

Sohibqiron bobomiz kuchni adolatga birlashtirgan hukmdorlardan edi. Uning "Temur tuzuklari" nomli kitobini o'qigan o'quvchi o'git oladi, talaba o'qisa ilm oladi va rahbarlar o'qisa boshqaruvda adolat asosiy o'rindaligini tushinib yetadi. "Temur tuzuklari" oddiy kitob emas, u noyob hikmatlar jamlangan asar, xalqimiz qalbidagi ma'naviyati va insoniyligini mujassamlantirgan manbadir. Uni boshqaruvchi rahbarlar mutolaa qilishsa, boshqaruv jarayonida hech qiynalishmaydi. Harbiylar o'qishsa, janglarda adolatli bo'lishga da'vat etadi. Bolalar yoki o'quvchi yoshlar ko'z yugurtirishsa nasihat, o'git va ilm olishadi. Shu bilan bir qatorda ichidagi ikki qator fikrni eslatmoqchimiz: "Bolalarni yig'latmangiz, bu gunohi azim erur, millatning dardiga darmon bo'lmoq

vazifangizdir" deyiladi. Amir Temur bobomiz shu darajada adolatli va odamgarchilik xususiyatiga ega inson edilarki, hatto xalqdan soliq undirish jarayonida hosil pishib yetilmasidan oldin hech qanday soliq solinmasligi haqidagi buyrug'i bor. Unda soliq undirilishi haqida uchta tartib aniq qilib yozilgan. Birinchisi, xalqning o'zi soliqni olib kelib topshirsa, u yerga soliqchilarning borishi shart emas. Ikkinchisi, soliqni undirish jarayonida soliqchilar yaxshi so'zlar bilan muomala qilishi zarurligi. Uchinchisi esa soliq olishda urish, so'kish, kaltak ishlatish hamda kishan ishlatish ta'qiqlangan. Bundan tashqari, sohibqiron tashabbusi bilan favqulotda soliqlar bekor qilingan.

Oldin ta'kidlaganimizdek har bir yo'nalish, har bir soha gullab-yashnagan, hatto liboslar tikishda suvsar va olmaxon mo'ynalaridan foydalanishgan. Bu davrda qo'li gul ustalar qurol-aslaha yasash paytida, albatta, askarning tana tuzilishini asosiy e'tibor qaratishgan. Hatto tabiat bilan sodir bo'ladigan hodisalar ham inobatga olingan. Buni birgina o'sha paytdagi askarlarning bosh kiyimiga nazar solibgina bilib olishimiz mumkin. Ular uchli qilib, ya'ni nayzador qilib yasalgan. Buning asosiy sababi esa chaqmoqni qaytarish bo'lgan. Masalan, og'ir zirxli kiyimlar va albatta qurollar bilan yo'lga chiqqan o'n minglik qo'shin safarga chiqqan paytda, chaqmoq chaqib qo'shinga yashin urilsa, askarlarning boshlaridagi o'sha uchli qalqonlar himoya vazifasini bajargan. Ha, to'g'ri, kuchli chaqmoqdan panoh topish mushkul ish, lekin shu tariqa yaratilgan bosh kiyimlar yashinni qaytarish xususiyatiga egaligi bilan boshqalaridan ajralib turgan. Hattoki, sohibqiron saroyiga kelgan elchilarga ham mehmonlarga ham kimxob to‘nlar kiydirib sovg‘a qilishgan. Demak, hozirgi paytdagi to‘y marosimlarida qudalar tomonidan chopon kiydirish marosimi o‘sha davrdan beri an’anaga aylanib kelmoqda. Aholi orasida bo‘z matolari mashxur bo‘lganligini ham kitoblarda o‘qishimiz mumkin. Samarqand shahrida va boshqa bozorlarda futa deb nomlangan yuqa matoning xaridorlari juda ko‘p bo‘lganligini ham alohida ta’kidlablab o‘tilgan. Futaning jundan tayyorlangan har xil turlari ko‘p bo‘lgan. Bu davrda ayollarning ro‘mollari va belbog‘lar ham futa deb yuritilardi. Bu matodan turli xil sochiqlar ham tayyorlangani ham biz uchun ravshan. Ustod Shoxmuhammad futaboz hamda Ustod Suh Samarqandlik futa to‘quvchi ustalar bo‘lishganligini ham tarixdan bilib olishimiz mumkin. Espaniya elchisi Klavixo yozishi bo‘yicha Amir Temurning egnidasilliq gulsiz yaktak boshida esa telpak va bosh kiyimning yuqorisida qizil yoqut va boshqa turli javohirlar bo‘lganligini yozadi. Kitoblarda yozilishicha Temuriylarning hukmdorlari hamda aslzodalarning liboslari davr talabiga mos bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Turli rangdagi, to‘q qizil, zangori, och binafsha va jigarrang matolarga rang-barang naqshlar choklab kamzullar tikish ham urf bo‘lganligi ma’lum. Shu jihati qiziqki, bu davrda Samarqand, Shahrisabz, Xirot, Sheroz va Tabrizda modabop liboslar tikish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan shaharlar markazlari mavjud bo‘lgan.

**Xulosa**.

Islom Karimovning ushbu so‘zlarini eslatmoqchimiz: “Xayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an’ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir.”

O‘zbekiston tarixida Temuriylar davri ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik gullab yashnagan payt hisoblanadi. Sohibqiron qurdirgan bog‘lar, madrasalar va me’moriy obidalar hanuzgacha o‘zining o‘rnini yo‘qotmagan. Adolatli boshqaruv va ilm-fan rivojiga hissa qo‘shilganini also inkor qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda Temuriylar merosi yoshlarni ilmga intilish va madaniy meroslarni asrab-avaylashga undaydi. “Kimki o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temurning siymosini eslashi kerak!” degan edi O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov. Bu fikrga qo‘shilgan holatda Sohibqiron bobomiz va temuriylar merosi biz uchun vatanparvarlik ruhi va kelajakka ishonchning timsoli hisoblanadi. Ularning har bitta sohaga qo‘shgan hissasi insonda faxr va g‘urur tuyg‘usini ifodalaydi.

Temuriylar davri haqida so‘z borganda, albatta, qalbimizda faxr tuyg‘usi yetiladi. Shu boisdan xulosamizni buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur so‘zlari bilan yakunlamoqchimiz:

Tonglar har kim bir shafoat qilguvchiga uzatganda qo‘l,

Bizalar Muhammad mustafo va avlodi etagiga uzatgaymiz qo‘l.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘rta asrlar tarixi. (284-285-betlar)
2. To‘lqin Hayyit. Amir Temur xazinasi. Toshkent 2018
3. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent “Kamalak” 1994
4. www.ziyouz.com
5. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutaffakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. – Toshkent, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2014 yil, 16 may
6. Faxriddinxo‘ja Ashrafxo‘jayev, Ziyovuddin Jo‘rayev, Hazrati Zangi ota va sohibqiron Amir Temur. – Toshkent, “Navro‘z”, 2017
7. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi, 2008
8. Temur tuzuklari. 2020

## 1360-1370-YILLARDA AMIR TEMUR BILAN FAOLIYAT OLIB BORGAN HARBIY SARKARDALAR FAOLIYATI

**Boymurodov Shahzod Bahodir o‘g‘li**
*Mustaqil tadqiqotchi +99890 018 56 56*

Amir Temurning siyosiy va harbiy muvaffaqiyatlarining asosiy omillaridan biri, uning yuqori malakali va sadoqatli sarkardalarining faoliyati bilan bog‘liqdir. 1360-1370-yillarda Amir Temur nafaqat o‘zining shaxsiy mahorati, balki unga xizmat qilgan harbiy qo‘mondonlarning faoliyati orqali Movarounnahrda hukmronlikni mustahkamladi. Bu davrdagi Amir Temurning harbiy yurishlari va muvaffaqiyatlarida ko‘plab yirik janglarda qatnashgan sarkardalarning xizmatlarini eslab o‘tish kerak.

Amir Temur o‘zining harbiy yutuqlarini amalga oshirishda nafaqat o‘zining strategik fikrlash qobiliyatidan, balki uning rahbarligida harakat qilgan harbiy sarkardalarining mahoratidan ham foydalanishga muvaffaq bo‘ldi. Bu sarkardalar, Amir Temurning kuchli va qat’iy rahbarligi ostida, o‘zaro yaqin ittifoqlar tuzgan, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashgan. Amir Temur o‘zining yurishlari davomida ko‘plab janglarda, ichki nizolarni bartaraf etishda, va ko‘plab yangi hududlarni zabt etishda ushbu sarkardalarning katta yordamiga tayanib ishladi.

Amir Temurning harbiy sarkardalari faqat janglarda emas, balki siyosiy faoliyatda ham muhim rol o‘ynadilar. Ular, bir tomondan, Amir Temurga o‘zining siyosiy kuchini mustahkamlashda yordam berdilar, boshqa tomondan esa, davlatning ijtimoiy va harbiy tizimini rivojlantirishga hissa qo‘shdilar. Harbiy sarkardalar o‘z o‘rinlarida, o‘z hududlarida xavfsizlikni ta’minlab, yangi yerlarni zabt etishda va davlatni qudratli qilishda Amir Temurga yordam berishgan.

1360-1370-yillardagi Amir Temurning muvaffaqiyatli siyosiy va harbiy faoliyatining asosiy omili bo‘ldi. Ularning strategik mahorati, sodiqligi va Amir Temurning rahbarligidagi kuchli harbiy tashkilotlarning mavjudligi, Amir Temurni dunyo tarixidagi eng buyuk sarkardalardan biriga aylantirdi. Bu davrda Amir Temur va uning harbiy sarkardalari, Movarounnahrni mustahkamlash, yangi hududlarni zabt etish va kuchli imperiya yaratishda muhim rol o‘ynadilar. Harbiy sarkardalarning faoliyati, Amir Temurni o‘zining siyosiy va harbiy maqsadlariga erishishda yordam berib, uning tarixdagi o‘rnini mustahkamladi.

1370-yilda Amir Husayn bir yoqli qilinganidan so‘ng, Movarounnahrdagi ayrim shaharlarga o‘zi ishongan kishilarni hokimlikka qo‘ya boshladi. Bu jarayon Balx shahri hokimini almashtirishdan boshlandi. Chug‘om Barlos o‘g‘li Murodni Balx shahriga hokim qilib qo‘ydi[182].

So‘ng Kesh viloyatiga qaytdi va 2 oy shu shaharda to‘xtab turdi. Bu shaharda turgan vaqtida ma’muriy va siyosiy lavozimlarga o‘zgartirishlar kiritdi: Dovudbek Samarqand shahriga hokim va butun mamlakatningdevoni lavozimiga tayinlandi. Jakubek, Sayfuddinbek, Abbos, Iskandar, Oli shayx, Alqa qavchin, Ardasher qavchin, Qimori Inoq va Tamuka Qavchinning inisini cherik beklari

[182] Яздий Шарафуддин Али. Зафарнома / Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий таржимаси. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткич муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад. Ҳ. Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 68.

etib tayinladi. Bu shaxlarning ko‘plari amir temurning yoshlikdagi do‘stlari bo‘lishgan[183].

Sari Bug‘abek, Xusayn Barlos, Oqbug‘a, Xoji Maxmudshoh, Elchi Bug‘o Bahodir va Davlatshoh baxshilarni devon beklari lavozimiga tayinladi.

Xitoyi Baxodir, Shayx Ali Bahodir, Oq Temur Bahodir, Tobon Bahodir, Dakna Qavchin, Baxtishoh, Qaro Xindu, Tagnak va Apachi Kalta(Qiron Bug‘o Arslon)larni xirovul qilib tayinlab, har biriga bir saf berdi. Xitoyi Baxodir va Shayx Ali Bahodir barcha bahodirlarning ulug‘i bo‘ldi[184].

Amir Temur o‘zining keng hududlarga tarqalgan davlatini barqarorlashtirish, siyosiy va harbiy tizimini mustahkamlash, shuningdek, mamlakat ichidagi ijtimoiy va harbiy tartibni saqlash uchun eng sodiq va qobiliyatli harbiy sarkardalarini maxsus lavozimlarga tayinlashga katta e'tibor bergan. Uning asosiy maqsadi, o‘z qo‘mondonlarini, jumladan, Jakubek, Sayfuddinbek, Abbos, Iskandar, Oli Shayx, Alqa Qavchin, Ardasher Qavchin, Qimori Inoq va boshqalarni “cherik bek” lavozimiga tayinlash orqali, o‘z hukmronligini mustahkamlash va mamlakatda barqarorlikni ta’minlash edi. Ularning tayinlanishi faqat harbiy sohalarda emas, balki siyosiy tashkilotda ham muhim rol o‘ynagan.

Amir Temurning harbiy va siyosiy tizimi o‘ta murakkab va qat’iy tashkil etilgan edi. Uning davlat boshqaruvi va yurishlari, asosan, mustahkam hokimiyat, sadoqat va harbiy kuchga tayanardi. Har bir sarkarda o‘z hududida hukmronlikni ta’minlashi va Temurga sodiq qolishi lozim edi. Bunda, “cherik beklar” lavozimi Amir Temurning harbiy amirlariga yuqori ishonchni bildirar va ularning sadoqatini mustahkamlardi. Bunday sarkardalar, o‘z navbatida, Temurga yordam bera olgan va uning siyosiy maqsadlariga xizmat qilgan.

Amir Temurning siyosiy maqsadlari asosan ikki muhim omilga tayanardi: birinchidan, mamlakatni kengaytirish va mustahkamlash, ikkinchidan, ichki barqarorlikni ta’minlash. Buning uchun u o‘zining barcha harbiy rahbarlarini yaxshi tashkil etilgan tizimda boshqarishga harakat qilgan. Ularning bir qismi, ayniqsa Jakubek, Sayfuddinbek, Abbos, Iskandar, Oli Shayx, Alqa Qavchin, Ardasher Qavchin, Qimori Inoq kabi sarkardalar, muhim hududlar va janglarda Amir Temurning eng sodiq yordamchilari bo‘lishgan. Bunday tayinlovlar, avvalo, mamlakatda amirlar o‘rtasida kuchli sadoqatni shakllantirish, ikkinchidan, siyosiy hokimiyatni yanada mustahkamlashga yordam bergan.

Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatgan. Ularning harbiy faoliyatlari, Temurning yurishlarida qatnashishi va g‘alabalari, davlatning siyosiy kuchini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan. Quyidagi sarkardalarning faoliyati, ularning Amir Temur siyosatiga ta’sirini namoyish etadi:

1. **Jakubek** – barlo qabilasining yetakchi vakillaridan biri bo‘lgan. U Amir Temurning qaynotasi ham hisoblangan. Jakubek Amir Temurni mo‘g‘ullarga qarshi kurashish haqidagi niyatini bilganda uni birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatlagan. “Loy janggi”, Qarshi qal’asidagi jangda, Balxga qilingan yurishlarda Amir Temurning eng ishonchli va sadoqatli kishilaridan biri bo‘lib, yelkama-yelka holda kurashgan. Joku barlos Movarounnahrni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. U Amir Temurga sodiqligini isbotlab, ko‘plab janglarda g‘alaba qozonishga yordam bergan.

2. **Sayfuddinbek** – nukuz qavmining nufuzli vakili bo‘lgan. Sayfuddinbek ham Temurning sodiq sarkardalaridan biri bo‘lib, uning bir qator harbiy yurishlarida: “Loy janggi”da so‘l qanotiga[185], Amir Xusaynga qarshi yuborilgan qo‘shinng esa ilg‘or qismiga sardorlik qilgan.

3. **Abbos va Iskandar** – Bu sarkardalar Amir Temurga yangi hududlarni zabt etishda katta yordam bergan va ularning faoliyati, Amir Temurning siyosiy kuchini kengaytirishga xizmat qilgan. Xususan, Abbos bahodir qipchoq urug‘I vakili bo‘lib, Jete mo‘g‘ullariga qarshi urushda faollik ko‘rsatgan sarkardalardan biri bo‘lgan. “Loy janggi”da Sohibqiron cheriki qanotlarini himoya qiluvchi qanbulda turib jang qilgan.

---

[183] Арабшоҳ Ибн. Амир Темур тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. 1-китоб. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – Б. 69.

[184] Яздий Шарафуддин Али. Зафарнома / Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий таржимаси. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткич муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад. Ҳ. Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 68.

[185] Яздий Шарафуддин Али. Зафарнома / Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий таржимаси. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткич муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад. Ҳ. Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 68.

4. **Oli Shayx va Alqa Qavchin** – Bu amirlar Amir Temurning siyosiy va harbiy rejalari bo‘yicha ko‘plab janglarda qatnashgan va g‘alaba qozonish uchun yuqori harbiy mahoratni namoyish etgan.

5. **Ardasher Qavchin va Qimori Inoq** – Ular Amir Temur tomonidan tayinlangan va Movarounnahrni mustahkamlashda, shuningdek, yangi hududlarni zabt etishda muhim rol o‘ynagan.

6. **Tamuka Qavchin** – Tamuka Qavchin Amir Temurga o‘zining sodiqligini va harbiy mahoratini namoyish etgan va uning siyosiy va harbiy kuchini yanada kuchaytirishga yordam bergan.

Amir Temur harbiy rahbarlarining sadoqatini ta’minlash uchun ko‘plab strategiyalarni qo‘llagan. “Cherik beklar” sifatida tayinlangan amirlar o‘z navbatida, faqat Amir Temurga bevosita sodiq bo‘lishlari kerak edi. Bu, har bir sarkardaning o‘z hududida o‘z mas’uliyatini bajarishga va hukumatga sadoqatini saqlashga yo‘naltirilgan edi. Bunday tizim, Temurning siyosiy hokimiyatini barqarorlashtirishga, davlatning ichki tuzilmalarini kuchaytirishga va imperiyada ijtimoiy tartibni saqlashga yordam bergan.

Xulosa qililb aytganda, Amir Temur o‘zining siyosiy va harbiy tizimini tashkil etishda, Jakubek, Sayfuddinbek, Abbos, Iskandar, Oli Shayx, Alqa Qavchin, Ardasher Qavchin, Qimori Inoq va Tamuka Qavchin kabi sarkardalarni “cherik bek” lavozimlariga tayinlash orqali bir qator muhim maqsadlarni ko‘zlagan. Bu tayinlovlar orqali u o‘z imperiyasini mustahkamlash, harbiy kuchini kengaytirish, ichki barqarorlikni ta’minlash va yangi hududlarni zabt etishga muvaffaq bo‘lgan. Har bir sarkarda, o‘z hududida sadoqatli va malakali rahbar sifatida faoliyat yuritgan va Amir Temur siyosatining muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qilgan. Shunday qilib, Amir Temur o‘zining harbiy hokimiyatini kuchaytirib, siyosiy tizimini mustahkamlashga erishgan.

## O‘QITUVCHI SHAXSINING TARBIYADAGI O'RNI

**Shaymurodov Anvar**
**JDPU Sirtqi bo‘limi Pedagogika ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talablasi**
**Ilmiy rahbar: Davurova Go‘zal Akbarovna Email: anvarshaymurodov70@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchi shaxsining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, kasbiy kompetensiyalari va ularning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, uning tarbiyaviy ta'sir mexanizmlari va bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil etilgan. Xususan, o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va ularning yosh avlod tarbiyasiga qo‘shgan hissasi alohida yoritilgan. Muallif tomonidan o'qituvchi shaxsining tarbiya jarayonidagi transformatsion roli va uni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar**: O'qituvchi shaxsi, tarbiya, pedagogik kompetensiya, shaxsiy fazilatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik mahorat, ta'lim samaradorligi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'qituvchi shaxsiga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki aynan o'qituvchi orqali jamiyatning ma'naviy merosi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasi avloddan-avlodga o'tib keladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham ta'lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Pedagogika fanida o'qituvchi shaxsi muammosi doimo dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, uning kasbiy mahorati va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga bog'liq. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni shakllantiruvchi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi va axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy omildir[1].

Mazkur maqolaning maqsadi – o'qituvchi shaxsining tarbiyadagi o'rni va rolini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, uning tarbiyaviy ta'sir mexanizmlarini ochib berish va zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsion ahamiyatini asoslashdan iborat. O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari,

dunyoqarashi va muomalasi orqali o‘quvchilarda ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlar shakllanadi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar va ularning nazariy asoslari

O'qituvchi shaxsining tarbiyadagi o'rni haqida so'z yuritganda, avvalo, uning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish lozim. Pedagogik faoliyat murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u o'qituvchidan yuksak darajadagi kasbiy tayyorgarlik, chuqur bilim va keng dunyoqarashni talab etadi. Ammo shu bilan birga, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, uning axloqiy qiyofasi, insoniy munosabatlari ham tarbiya jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega[2].

Pedagogika tarixida o'qituvchi shaxsiga bo'lgan qarashlar evolyutsiyasini kuzatish mumkin. Qadimgi mutafakkirlardan Aristotel va Platon o'z asarlarida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy namuna bo'lishi kerakligini ta'kidlaganlar. Aristotelning fikricha, o'qituvchining adolat, sabr-toqat va bilimga bo'lgan ishtiyoqi tarbiya samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardir . Keyingi davrlarda Iogann Pestalotssi, Jan-Jak Russo kabi pedagog olimlar ta'lim jarayonining individuallashuvi va o'qituvchi shaxsining hissiy qobiliyatlari masalasiga alohida e'tibor qaratganlar[1].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o'qituvchi shaxsining quyidagi asosiy komponentlari ajratib ko'rsatiladi:

a. **Kommunikativ qobiliyatlar** – o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning ichki dunyosiga kirib borish;

b. **Empatiya va sabr-toqat** – o'quvchilarning hissiy holatini tushunish va ularga nisbatan sabrli bo'lish;

c. **Hissiy intellekt** – o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalarning histuyg'ularini anglash qobiliyati;

d. **Axloqiy mas'uliyat** – o'z faoliyati uchun javobgarlikni his qilish;

e. **Pedagogik etika** – kasbiy faoliyatda axloqiy me'yorlarga amal qilish

O'qituvchi shaxsining tarbiyaviy ta'sir mexanizmlari

O'qituvchi shaxsining tarbiyaviy ta'siri turli mexanizmlar orqali amalga oshadi. Bu mexanizmlarni tushunish tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

1. O'qituvchi namunasi orqali ta'sir ko'rsatish. O'qituvchining kundalik xattiharakatlari, muomala madaniyati, kiyingan tarzi, gapirish uslubi – bularning barchasi o'quvchilar tomonidan kuzatiladi va ko'pincha taqlid qilinadi. Boltaeva D. R. ta'kidlaganidek, "o'qituvchi – bu kasb emas, balki hayotiy da'vatdir. O'qituvchi bo'lish – har safar o'z shogirdlari bilan birga bolalikni qaytadan yashash demakdir" . O'qituvchi har bir bolaga mehr va g'amxo'rlik ulashadi, ularni hayotga muhabbat, ezgulik va mehr bilan yo'g'rishadi.

2. O'qituvchining munosabati orqali ta'sir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi iliq, ishonchli munosabatlar o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ispaniyada 21 126 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda ishtirokchi ta'lim uslubi va o'qituvchio'quvchi o'rtasidagi samimiy munosabatlar o'zaro bog'liqlikda akademik natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan .

3. O'qituvchining tarbiyaviy faoliyati. Bu o'qituvchining maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy tadbirlar, suhbatlar, darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga maqsadli ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Sapayev V. O. ning ta'kidlashicha, Tarbiya fanini o'qitishda o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, muhokama qilish va munozara yuritish imkoniyatini yaratish ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi[4]

**Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda o'qituvchi shaxsining o'rni** O'qituvchi shaxsining tarbiyadagi o'rni haqida so'z yuritganda, milliy qadriyatlar masalasiga alohida to'xtalish lozim. Chunki har bir xalqning o'ziga xos tarbiyaviy an'analari, qadriyatlari va mentaliteti mavjud bo'lib, ular tarbiya jarayonida hisobga olinishi kerak.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga, vatanga muhabbat tuyg'usining shakllanishiga xizmat qiladi. O'qituvchi milliy qadriyatlarni o'quvchilarga yetkazishda asosiy vositachi hisoblanadi. U o'z shaxsiy namunasi, bilimi va mahorati orqali yosh avlodga milliy an'analar, urf-odatlar, til va madaniyatga hurmat ruhini singdiradi[3].

Milliy qadriyatlarni tarbiyaga tatbiq etishda o'qituvchining quyidagi vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi:

I. Milliy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish;

II. Ularning zamonaviy hayotdagi ahamiyatini ko'rsatish; III. Milliy qadriyatlarga hurmat va ehtirom hissini shakllantirish; IV. O'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida hayotga tayyorlash[5].

O'qituvchi shaxsini takomillashtirish yo'nalishlari

O'qituvchi shaxsining tarbiyadagi o'rni va ahamiyatini inobatga olgan holda, uni doimiy takomillashtirish zarurati tug'iladi. Bu borada quyidagi yo'nalishlarni alohida ta'kidlash mumkin:

**Uzluksiz kasbiy rivojlanish**. O'qituvchi o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lishi, malaka oshirish kurslarida qatnashishi zarur.

**Shaxsiy o'sish va o'z-o'zini tarbiyalash.** O'qituvchi o'z shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, hissiy intellektini oshirish, kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirish ustida ishlashi lozim.

**Refleksiv amaliyot**. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash, ulardan xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

**Hamkorlik va tajriba almashish**. O'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish, hamkorlikda ishlash, bir-biridan o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega[6]

O'qituvchi shaxsi tarbiya jarayonining markaziy figurasi bo'lib, uning o'rni va ahamiyati hech qachon kamaymaydi. Aksincha, texnologik taraqqiyot va jamiyatdagi o'zgarishlar sharoitida o'qituvchining tarbiyaviy roli yanada murakkablashib, boyib bormoqda. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni shakllantiruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, ilhomlantiruvchi va suhbatdosh sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, uning axloqiy qiyofasi, kommunikativ qobiliyatlari va hissiy intellekti tarbiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchi shaxsini takomillashtirish uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish, shaxsiy o'sish, refleksiv amaliyot va hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Davlat va jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlikning kuchaytirilishi, uning nufuzi va maqomining oshirilishi tarbiya sifatini yaxshilashning muhim omillaridir.

Umuman olganda, o'qituvchi shaxsi tarbiya jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti va kelajagi ko'p jihatdan aynan o'qituvchining shaxsiy va kasbiy barkamolligiga bog'liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Turayeva, D., & Ziyoviddinova, A. Z. 2025. O'qituvchi shaxsiy xususiyatlarining olimlar tomonidan tadqiq etilishi

2. Xushboqova, N. 2025. Pedagogik faoliyatda o'qituvchining qobiliyati va milliy qadriyatlar asosida o'quvchi yoshlarni tarbiyalashning samaradorligi.

3. Sapayev, V. O. 2023. Tarbiya fanini o'qitishning ayrim dolzarb masalalari.

4. Niyozmetova, R. 2024. Roza Niyozmetovaning ilmiy maktabi. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

5. Sulliyeva, S.X., Tojiyeva, F.A., G‘aniyeva, G.I. 2023. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy tashkiliy shakllari.

6. Olimov, Sh.Sh. 2023. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA II RENESSANS MUTAFAKKIRLARI MEROSINING O‘RGANILISHI

**Shomirzayeva M.G‘.**
Guliston davlat universiteti Iahlab chiqarish texnalogiyalri fakulteti oziq-ovqat texnalogiyasi kafedrasi 1- bosqich magistr.
**madinabonushoymirzayeva@gmail.com**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston sharoitida II Renessans davri mutafakkirlarining ilmiy va ma’naviy merosini tahlil qilish hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy, tizimli yondashuv hamda manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodologik asoslar orqali II Renessans davriga mansub allomalarning ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy manbalar asosida kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu davr mutafakkirlarining ilmiy qarashlari va asarlari bugungi kunda ham muhim ilmiy va ma’naviy resurs sifatida ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy merosini chuqur o‘rganish hamda uni ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar jarayoniga integratsiya qilish milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlash, tarixiy merosga nisbatan hurmatni oshirish va yosh avlodning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, unda II Renessans mutafakkirlari merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish yo‘nalishlari asoslab berilib, ularni ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda samarali qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, mutafakkirlar merosi, ilmiy-falsafiy qarashlar, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot, tarixiy-ilmiy meros, milliy o‘zlikni anglash, ta’lim tizimida integratsiya.

**Abstract.** This article aims to analyze the scientific and spiritual heritage of thinkers of the II Renaissance period in the conditions of New Uzbekistan and reveal its significance in the development of modern society. The research process used historical-analytical, comparative, systematic approaches and source studies methods. Through these methodological foundations, the contribution of scholars of the II Renaissance period to the development of science, culture and spirituality was comprehensively studied on the basis of scientific sources. The results of the study show that the scientific views and works of thinkers of this period are still important as an important scientific and spiritual resource today. In-depth study of their scientific heritage and its integration into the education system and scientific research process serves to strengthen the awareness of national identity, increase respect for historical heritage, and develop the scientific thinking of the younger generation. The scientific and practical significance of the study is that it substantiates the directions of analyzing the heritage of the thinkers of the Second Renaissance based on modern scientific approaches, and practical recommendations are developed for their effective use in educational and spiritual and educational activities.


**Keywords:** New Uzbekistan, heritage of thinkers, scientific and philosophical views, spiritual and educational development, historical and scientific heritage, awareness of national identity, integration in the education system.

**Аннотация.** Цель данной статьи - проанализировать научно-духовное наследие мыслителей II Возрождения в условиях Нового Узбекистана и выявить его значение для развития современного общества. В процессе исследования использованы историко-аналитический, сравнительный, систематический подходы и методы источниковедения. На основе этих методологических основ всесторонне изучен вклад ученых II Возрождения в развитие науки, культуры и духовности с использованием научных источников. Результаты исследования показывают, что научные взгляды и труды мыслителей этого периода и сегодня остаются важным научно-духовным ресурсом. Углубленное изучение их научного наследия и его интеграция в систему образования и научно-исследовательский процесс способствуют укреплению национальной идентичности, повышению уважения к историческому наследию и развитию научного мышления молодого поколения. Научно-практическое значение исследования заключается в том, что оно обосновывает направления анализа наследия мыслителей Второго Возрождения на основе современных научных подходов и разрабатывает

практические рекомендации по его эффективному использованию в образовательной и духовно-воспитательной деятельности.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, наследие мыслителей, научно-философские взгляды, духовно-образовательное развитие, историко-научное наследие, осознание национальной идентичности, интеграция в систему образования.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot jarayonida II Renessans davri mutafakkirlari merosining o‘rganilish darajasi ilmiy adabiyotlar va ta’lim dasturlari asosida tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tahlil qilingan manbalarning 64 % i tarixiy-falsafiy masalalarga, 21 % i ilmiy merosning ta’lim tizimida qo‘llanilishiga, 15 % i esa uning madaniy-ma’naviy ahamiyatiga bag‘ishlangan[1].




Oliy ta’lim muassasalaridagi gumanitar yo‘nalishdagi fanlar o‘quv dasturlarining tahlili natijasida ularning 48 % ida II Renessans mutafakkirlariga oid mavzular alohida bo‘lim yoki mavzu sifatida kiritilgani qayd etildi [2]. Ilmiy nashrlar dinamikasini o‘rganish natijasida mazkur yo‘nalishda e’lon qilingan maqolalarning 70 % i so‘nggi besh yilga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Tadqiqotlarda eng ko‘p murojaat qilingan allomalar qatoriga Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy hamda Abdurahmon Jomiy kiradi[3]. Foydalanilgan manbalar tarkibi quyidagicha taqsimlangan: tarixiy qo‘lyozmalar va klassik asarlar - 52 %, zamonaviy ilmiy maqolalar - 33 %, o‘quv-uslubiy adabiyotlar - 15 %. Mazkur ko‘rsatkichlar tadqiqotda keltirilgan jadval va diagrammalarda aks ettirilgan.

**Natijalar muhokamasi.** Tadqiqot natijalari II Renessans davri mutafakkirlari merosini o‘rganish jarayoni so‘nggi yillarda yangi ilmiy yondashuvlar asosida rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ilmiy adabiyotlarning katta qismi mazkur davr allomalari merosining tarixiy-falsafiy talqiniga bag‘ishlangan. Bu holat ilmiy merosni konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqish va uning sivilizatsion ahamiyatini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar ustunligini ko‘rsatadi [1]. Shu bilan birga, ilmiy merosni ta’lim tizimiga integratsiya qilishga oid tadqiqotlar ulushining nisbatan pastligi ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar zarurligini anglatadi [2]. Olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan qiyoslanganda, II Renessans davri merosiga bo‘lgan ilmiy qiziqishning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Avvalgi tadqiqotlarda asosan alohida mutafakkirlarning hayoti va ijodiy faoliyati tavsifiy yondashuv asosida yoritilgan bo‘lsa, zamonaviy izlanishlarda ularning ilmiy qarashlari kompleks tarzda tahlil qilinmoqda [3]. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi ilmiy ishlari, Alisher Navoiyning adabiy-falsafiy qarashlari hamda Abdurahmon Jomiyning tasavvufiy va adabiy merosi turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida qayta tahlil qilinmoqda. Biroq ayrim manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, II Renessans davrining ayrim vakillari hamda ularning ilmiy asarlari hali yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati II Renessans davri ilmiy merosining tarixiy, falsafiy va madaniy

kontekstda yanada chuqurroq talqin qilinishiga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. Mazkur natijalar ilmiy merosni sivilizatsion rivojlanish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari II Renessans mutafakkirlarining ilmiy qarashlarini zamonaviy ta’lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga integratsiya qilish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlar II Renessans davri allomalarining kam o‘rganilgan qo‘lyozma manbalarini ilmiy muomalaga kiritish, ularning ilmiy qarashlarini zamonaviy fanlar kontekstida qiyosiy tahlil qilish hamda raqamli ilmiy bazalar orqali tizimlashtirish kabi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari II Renessans davri mutafakkirlari merosini Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri ekanini ko‘rsatdi. Ilmiy manbalar hamda ta’lim dasturlarining tahlili ushbu davrga oid tadqiqotlarning asosiy qismi tarixiy va falsafiy talqinlarga bag‘ishlanganini, ilmiy merosni ta’lim tizimida qo‘llash masalalariga bag‘ishlangan izlanishlar ulushi esa nisbatan kamroq ekanini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida II Renessans davri allomalarining ilmiy va ma’naviy merosi bugungi ilmiy tafakkur hamda ma’naviy taraqqiyot jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi tasdiqlandi. Jumladan, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy ishlari, Alisher Navoiyning adabiy-falsafiy qarashlari hamda Abdurahmon Jomiyning ilmiy-adabiy merosi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayonida muhim nazariy manba sifatida foydalanilmoqda. Shu bilan birga, ayrim mutafakkirlarning ilmiy asarlari hali to‘liq va tizimli tarzda o‘rganilmaganligi aniqlandi. Shu sababli kelgusidagi ilmiy izlanishlarda II Renessans davriga oid qo‘lyozma manbalarni chuqur manbashunoslik asosida tahlil qilish, mutafakkirlar ilmiy qarashlarini zamonaviy fanlar bilan qiyosiy o‘rganish hamda ushbu ilmiy merosni raqamli ilmiy platformalar orqali tizimlashtirish muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmedov B.A. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat. - Toshkent: Fan, 1996. – 214–216-b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 47-49-b.
3. Hayitmetov A. Alisher Navoiy va o‘zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: Fan, 1976. - 132-135-b.

## TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT

**Tarix fakulteti 3-kurs “B”guruh**
**talabasi Bahriddinova Madina**
**Ilmiy rahbar: “Tarix”kafedrasi o‘qituvchisi Muftillayeva U.T**

**Annotatsita:** Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada rivojlangan davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda Amir Temur va uning avlodlari tomonidan ilm ahliga katta e’tibor qaratilib, Samarqand va Hirot kabi shaharlar yirik ilmiy va madaniy markazlarga aylantirildi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiya, matematika va geografiya fanlari rivoj topdi, rasadxona faoliyati ilmiy kashfiyotlarga yo‘l ochdi. Adabiyot va san’at sohasida Alisher Navoiy ijodi alohida o‘rin egalladi. Me’morchilik, miniatyura san’ati va qo‘lyozma kitoblar bezagi ham yuqori darajada taraqqiy etdi. Umuman, Temuriylar davri Sharq uyg‘onishining muhim bosqichi bo‘lib, jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan

**Annotation:** The Timurid period is considered one of the most significant eras of scientific and cultural development in Central Asian history. During this time, great attention was given to scholars by Amir Temur and his descendants, turning cities such as Samarkand and Herat into major centers of knowledge and culture. In particular, under the rule of Mirzo Ulug‘bek, astronomy, mathematics, and geography flourished, and the construction of observatories led to important scientific discoveries. In literature and the arts, the works of Alisher Navoiy held a prominent place. Architecture, miniature painting, and manuscript decoration also reached a high level of development. Overall, the Timurid era represents a key stage of the Eastern Renaissance and made a significant contribution to world civilization.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar davri, ilm-fan, madaniyat, Samarqand, Hirot, rasadxona, adabiyot, me’morchilik, Ulug‘bek, Navoiy

**Keywords:** Timurid period, science, culture, Samarkand, Herat, observatory, literature, architecture, Ulugh Beg, Navoi

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, Amir Temur tomonidan asos solingan Temuriylar davlati nafaqat qudratli siyosiy tuzum sifatida, balki ilm-fan, ma’rifat va madaniyat taraqqiyotiga katta e’tibor qaratilgan davr sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda Movarounnahr va Xuroson hududlari Sharqning yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylangan bo‘lib, Samarqand va Hirot shaharlari ilm-fan, adabiyot va san’at rivojining markazlari sifatida shuhrat qozondi. Temuriylar sulolasi hukmdorlari ilm ahliga homiylik qilish, madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar barpo etish orqali jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratdilar.

Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ko‘plab olimlar, shoirlar va mutafakkirlar yetishib chiqdi. Xususan, astronomiya, matematika, tarix, tibbiyot va adabiyot sohalarida katta ilmiy yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu jarayonda Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda tashkil etilgan Ulug‘bek rasadxonasi va u yerda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, bu davrda Alisher Navoiy kabi buyuk adiblar ijodi turkiy adabiyotning rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Temuriylar davrining ilmiy va madaniy muhitida nafaqat erkak hukmdorlar va olimlar, balki saroy ayollari ham muhim rol o‘ynaganini ta’kidlash lozim.

Xususan, temuriy malikalar davlatning siyosiy barqarorligini ta’minlash, ilm-fan va ma’rifat rivojiga homiylik qilish hamda madaniy muhitni qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etganlar. Masalan, Saroy Mulk Xonim, Gavharshod Begim va boshqa temuriy malikalar tomonidan madrasa, masjid, kutubxona hamda boshqa madaniy-ma’rifiy inshootlarning bunyod etilishi ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilgan. Ularning tashabbuslari natijasida ta’lim maskanlari rivojlanib, ilm ahli uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Shu jihatdan temuriy malikalar faoliyati nafaqat saroy hayoti doirasida, balki davlatning umumiy taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutgan.

Mazkur maqolada Temuriylar davrida ilm-fan va madaniy hayotning rivojlanish jarayoni tahlil qilinib, ayniqsa temuriy malikalar tomonidan ilm-fan, ma’rifat va davlat ravnaqi yo‘lida amalga oshirilgan faoliyatning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ularning ta’lim, madaniyat va me’morchilik sohalaridagi tashabbuslari hamda davlat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tarixiy manbalar asosida umumiy tarzda tahlil qilinadi. Bu esa Temuriylar davrining nafaqat siyosiy, balki ilmiy va madaniy jihatdan ham yuksak taraqqiyot davri bo‘lganini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Tarixchi Sharafiddin ali yazdiyning yozishicha: “Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko‘rardi, shu sababli ham uning saltanatida bironta inson behuda ranjitilmagan,zulm ko'rmagan . U ilm-fanni ham , ilm ahlini ham hurmat qilar,eng ezgu maqsadi esa butun xalqni barqaror va farovon hayotga yetaklash edi. U o‘z saltanatida bilim va madaniyatni rivojlantirishga katta e‘tibor qilar, maktablar,madarasalar va kutubxonalar qurdirar,olimlar va faylasuflarni hurmat qilardi “[1:3]Amir temur olimlarga xayrixoh munosabatda bo‘lar va bilimi bilan halolligini ko‘rgan olimlarga ishonar edi. Tarixchi va faylasuflar, ilm-fan va ma‘muriy sohada bilimdon bo‘lgan kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan ham tushar edi “[2:211] Amir Temur va temuriylar davrida madaniy hayot gullab yashnadi ,hattoki o‘z qudratining cho‘qqisiga chiqa oldi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Sulola hukmronligi davrida nafaqat ilm fan balki madaniyatning turli sohalari yuksak darajada rivojlanib ,bizlar uchun boy ilmiy va madaniy meros qoldirildi .Amir Temur san‘at va madaniyatga ayniqsa me‘morchilikka nihoyatda katta e‘tibor qaratgan edi .

“Amir Temur me‘morchilik va dekorativ san‘atni his etar va yaxshi tushinar edi.

Uning hukmronligi davrida Samarqand va Keshda bunyod etilgan masjid, saroy va xonaqohlar fors yoki xitoy monumentlarining xushomadgo‘ylik bilan qilingan nusxasi edi. Ular o‘ziga xos xilma-xil xususiyat kasb etadi. Bu - buyuk Amir o‘z poytaxtini bezatishni ishonib topshirish asosida birlashtirgan madaniyati va texnikasi turlicha bo‘lgan ustalarning ijod mahsulidir”[3:206]

Amir Temur bobomizning 660 yilligi munosabati bilan Parijda tashkil qilingan ko‘rgazmaning ochilishida ishtirok etgan UNESCO bosh direktori Federiko Mayor ma‘ruzasida ta‘kidlab o‘tadi: “Amir Temurning Samarqanddagi saroyida bo‘lgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning esdaliklarini o‘qir ekanman,O‘rta Osiyoning mazkur qismining XIV asr madaniyati -ma‘naviy

boyliklarini,she‘riyat nafosatini ,texnik va ilmiy topqirligini,ushbu madaniyatga afsonaviy jahongir Amir Temurning ta‘sirini va hokazolarni kaahf etdim “.[4:34] Amir Temur davrida poytaxt Samarqand olim va ulamolar markaziga aylanib , ta‘lim markazlari madarasalarning vazifalari kengayi, vaqt o‘tgan sayin ilm-fan markaziga aylanib bordi Bu davrda buyuk markazlashgan davlatda me‘morchilik san‘ati, ilmu -ma‘rifat va islom dini rivojlandi. Ingliz san’atshunos olimi Fillipson Martin “Temuriylar singari san’ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo‘lmagan” . Taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksakka ko‘tarilgani bilan o‘lchanadi.[5:248]

Amir Temur vafotidan keyin mamalakatda ichki nizolar avj olgan bo‘lsada, ilm fan rivoji to‘xtab qolmadi . Uning vorislari ham ilm ma‘rifatning yuksalishida o‘z hissalarini qo‘shdilar Masalan Amir Temurning nabirasi, Shoxrux Mirzoning o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek buyuk alloma sifatida Farobiy, Forobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sino asarlarini batafsil o‘rgandi. Ularning asarlari orqali qadimgi yunon olimlari — Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel), Gippokrat, Ptolemeylarning klassik asarlari bilan ham tanishdi. Ulug‘bek Movarounnahrni ilm-fan markaziga aylantirishga harakat qildi. Uning farmoni bilan 1417 yilda Buxoroda, 1417–1420 yillarda Samarqandda va 1433 yilda G‘ijduvonda madrasalar bino qilindi.

Hatto Buxorodagi madrasaning darvozasiga: “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir”, degan kalima o‘yib yozilgan. Bu uch madrasa o‘sha davrning ilm-fan markazlari hisoblangan. Ularda Qur’on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun-qoidalari), hisob (arifmetika), handasa (geometriya), ilm-i hay’at(astronomiya), tibbiyot (meditsina), tarix, geografiya, arab tili va morfologiya kabi fanlar o‘qitilgan.

Ulug‘bekning Samarqand madrasasi ikki qavatli bo‘lib, hujralar, darsxona va masjiddan iborat edi. Madrasa ta’limida zamonasining yetuk olimlari faoliyat ko‘rsatgan. Ular orasida Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi mashhur allomalar bor edi. Qozizoda Rumiy Ulug‘bekning ustozlaridan biri bo‘lib, matematika va astronomiya fanlaridan dars bergan.

G‘iyosiddin Jamshid Koshiy esa o‘zining ilmiy ishlari bilan astronomiya va matematika rivojiga katta hissa qo‘shgan. Ulug‘bek 1424–1428 yillarda Samarqand yaqinida mashhur rasadxona qurdirgan. Bu rasadxona o‘sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, unda osmon jismlarini kuzatish va astronomik hisob-kitoblar olib borilgan. Rasadxonada katta sekstant asbobi o‘rnatilgan bo‘lib, uning yordamida yulduzlarning joylashuvi va harakati aniqlangan.[6:116]

Shu bilan birga Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksalishida yana bir muhim jihat bu ayrim hukmdorlarning hukmronligi davrida yaratilgan kutubxonalardir. Amir Temur – Sohibqiron o‘zi Samarqandda ulkan davlat kutubxonasiga asos solgan. U fath etgan mamlakatlardan, masalan, Kichik Osiyo va Shom hududlaridan eng nodir va qimmatbaho qo‘lyozmalarni poytaxtga keltirib, kutubxona fondini boyitgan. Mirzo Ulug‘bek – Samarqandda mashhur Ulug‘bek rasadxonasi bilan bir qatorda yirik kutubxona ham tashkil etgan. Bu kutubxonada asosan astronomiya, matematika va boshqa aniq fanlarga oid o‘n minglab noyob kitoblar saqlangan. Sulton Husayn Boyqaro – Hirotda hukmronlik qilgan davrida u yerda katta va boy kutubxona barpo etgan. Ushbu kutubxona o‘z davrining eng yirik madaniyat va san’at markazlaridan biri sifatida xizmat qilgan.

Shohruh Mirzo – Hirotda ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan va saroyda boy kutubxona tashkil etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur – Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solgach, u yerda yirik shohona kutubxonalar yaratgan. Bobur kitobsevar hukmdor sifatida tanilgan. Alisher Navoiy – Bevosita Temuriy shahzoda bo‘lmasa-da, Temuriylar davlati bosh vaziri sifatida Hirotda bir nechta kutubxonalar, jumladan, xalq foydalanishi uchun ommaviy kutubxona ham ochgan.

Shu tarzda, Temuriylar davri kutubxona va ilm-fan sohasida boy meros qoldirgan, ularning asarlari va kitob fondlari keyingi avlodlar uchun bebaho ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Temuriylar sulolasi davrida ilm-fan va madaniyat yuqori darajada rivojlangan. Bu davrda shaharsozlik, me’morchilik, urbanizatsiya va san’at yangi uslublar bilan boyitilgan, madrasalar esa ilm-fan markazlariga aylangan. Ilmiy faoliyat va madaniy rivojlanish shaharlarni olimlar va san’atkorlar uchun markazga aylantirgan, ilm-fan va ma’rifatning taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri nafaqat siyosiy qudrat bilan, balki ilm-fan, madaniyat va san’at sohasida ham boy meros qoldirgan davr sifatida tarixda mustahkam o‘rin egallaydi. Bugungi kunda Temuriylar merosi – me’moriy yodgorliklar, ilmiy markazlar, shaharsozlik va madaniy an’analar orqali nafaqat o‘z xalqi uchun, balki butun insoniyat uchun bebaho boyliksifatida

qadrlanadi. Ularning yaratgan merosi, olimlar va san’atkorlar uchun ilhom manbai bo‘lib, tarixiy bilim va madaniy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda davom etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997. – B. 3.

2.Amir Temur dunyo adiblari nigohida. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 211

3.Amir Temur dunyo adiblari nigohida. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 206.

4.Amir Temur va Fransiya. – T.: “Adolat”, 2016. – B. 34.

5.Brion, Marsel. Amir Temur. // A. Qodiriy. – T.: “Nurafshon Business” nashriyoti, 2020. – 248 -b.

6.Abdulahad Muhammadjonov "Temur va temuriylar saltanati"- qomuslar bosh tahririyati 1994.116-bet.

## AMIR TEMUR VA KASTILIYA (ISPANIYA) QIROLLIGI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

**Mamanov Anvar Abduvohid o‘g‘li**
**Jizzax davlat pedagogika unversiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi**
**E-mail: mamanovanvar13@gmail.com**
**TEL:+998770357306**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur (Tamerlan) imperiyasi va Kastiliya qirolligi (hozirgi Ispaniya) o‘rtasidagi XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi diplomatik aloqalar ispan, sharqiy va zamonaviy tadqiqot manbalari asosida chuqur tahlil etiladi. Xususan, Ruy Gonzales de Klavixoning noyob “Embajada a Tamorlán” (Tamorlan sari elchilik) kundaligi (1582, 1943 nashrlar; inglizcha tarjimasi Guy Le Strange, 1928; Clements Markham, 1859), López Estrada (1999), Manzano Moreno (2006) va boshqa ilmiy ishlar asosida aloqalarning boshlanishi, elchiliklar almashinuvi, Usmonli imperiyasiga qarshi strategik hamkorlik, savdo-madaniy oqibatlar, Xitoy elchisi bilan bog‘liq hodisa va zamonaviy meros yoritiladi. Maqola aloqalarning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, madaniy va sivilizatsiyalararo ko‘prik sifatidagi rolini ochib beradi hamda bugungi O‘zbekiston–Ispaniya hamkorligining tarixiy ildizlarini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Tamerlan, Kastiliya qirolligi, Enrike III, Ruy Gonzales de Klavixo, Embajada a Tamorlán, diplomatik munosabatlar, Anqara jangi 1402, Usmonli imperiyasi, Samarqand saroyi, Xitoy elchisi hodisasi, Silk Road, tsivilizatsiyalararo aloqalar, O‘zbekiston–Ispaniya hamkorligi, o‘rta asrlar diplomatiyasi, Temuriylar davri.

**Kirish**

Amir Temur davri nafaqat buyuk harbiy zabtlar, balki xalqaro diplomatiya va sivilizatsiyalararo munosabatlarning eng faol rivojlangan davri hisoblanadi. Sohibqironning tashqi siyosati Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarni faol rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu siyosatning eng yorqin namunasi Kastiliya va Leon qirolligi bilan o‘rnatilgan ikki tomonlama diplomatik munosabatlar edi. XIV asr oxirida Usmonli imperiyasining Yevropaga tahdidi kuchaygan paytda Amir Temurning 1402-yil 28-iyuldagi Anqara (Angora) jangidagi g‘alabasi butun xristian dunyosida katta rezonans uyg‘otdi. Bu voqea Kastiliya qiroli Genrix III (Enrike III, 1390–1406) ni Temur bilan strategik hamkorlikka undadi. Natijada vujudga kelgan aloqalar nafaqat siyosiy ittifoq izlash, balki savdo yo‘llari, madaniy almashinuv va Yevropa-Sharq o‘rtasidagi yangi ko‘prik yaratishga xizmat qildi. Ushbu munosabatlarning eng muhim birlamchi manbai – Ruy Gonzales de Klavixoning kundaligi bo‘lib, u Samarqand saroyining ichki hayoti, diplomatik marosimlari, Temur shaxsiyatini va imperiya markazining boyligini noyob tarzda yoritadi. Bu aloqalar o‘rta asrlar diplomatiyasining eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri sifatida bugungi kunda ham ilmiy va madaniy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

**Asosiy qism**

**1. XIV–XV asrlar boshidagi xalqaro siyosiy vaziyat va Anqara jangi**

XIV asr oxirida Usmonli sultoni Boyazid I ning Bolqon va Markaziy Yevropaga yurishlari xristian qirolliklarini, xususan Vizantiya va Kastiliyani qo‘rqitib qo‘ygan edi. Konstantinopol qulash xavfi ostida edi. 1402-yil 28-iyulda Anqara jangida Amir Temur Boyazid I ni mag‘lub etib, uni asir

oldi. Bu g‘alaba Usmonlilarning kuchini vaqtincha zaiflashtirdi va Yevropa davlatlari uchun katta yengillik bo‘ldi. Kastiliya qiroli Genrix III bu vaziyatdan foydalanib, Temur bilan aloqa o‘rnatishga qat’iy qaror qildi. Ikki kastiliyalik ritsar – Payo Gomes de Sotomayor va Ernan Sanches de Palasuelos Anqara jangidan keyin Temur saroyida bo‘lib, uni hurmat bilan qabul qilishgan. Temur ularni “Kastiliya qiroli – mening do‘stim” deb atab, sovg‘alar bilan qaytargan. Bu voqea ikki tomonlama aloqalarning boshlanishi bo‘ldi.

**2. Elchiliklar almashinuvi: aloqalarning boshlanishi va strategik maqsadlar**

Anqara jangidan so‘ng Temur Kastiliyaga o‘z elchisi Hoji Muhammad al-Qazi (Muhammad Qozi yoki Muhammad al-Kazi) ni xat, boy sovg‘alar va Boyazid I haremidan ozod etilgan nasroniy ayollar (jumladan, Angelina va Mariya) bilan yubordi. Bu xatda Temur Genrix III ni “o‘g‘li va do‘sti” deb atab, Usmonlilarga qarshi ittifoq taklif qilgan. Javoban, Genrix III 1403-yil 22-mayda (ba’zi manbalarda 21- yoki 23-may) Kadis yaqinidagi Santa Mariya portidan yangi elchilikni yo‘lga chiqardi. Elchilik rahbari – qirollik saroyining tajribali a’zosi Ruy Gonzales de Klavixo bo‘lib, uning hamrohlari dominikan ruhoniysi Fray Alonso Paes de Santa Mariya va qirollik qo‘riqchisi Gomes de Salazar edi. Elchilik Temurning elchisi Hoji Muhammad bilan birga jo‘nab ketdi. Bu ikki tomonlama elchilik almashinuvi Usmonlilarga qarshi potentsial hamkorlikning asosini qo‘ydi va Yevropa qirolliklarining (shu jumladan Fransiya) Temurga qiziqishini oshirdi.

**3. Klavixo elchiligi: uzoq va mashaqqatli sayohat**

Elchilik O‘rta yer dengizi orqali Balear orollari, Gaeta, Messina, Rodos, Xios, Konstantinopol (Vizantiya imperatori Manuel II qabul qilgan), Qora dengiz orqali Trapezunt (Trebizond), keyin quruqlik yo‘li bilan Arzinjan, Erzurum, Tabriz, Tehran, Nishapur, Mashhad, Balx va Buxoro orqali 1404-yil 4-sentabrda Samarqand chekkasiga yetib keldi. 8-sentabrda rasmiy qabul marosimi bo‘lib o‘tdi. Sayohat 15 oydan ortiq davom etdi va 5000 mildan ziyod masofani qamrab oldi. Samarqandga yaqinlashganda elchilar Talisiya (Khalvet) bog‘ida bir necha kun kutishdi – bu Temur saroyining qat’iy protokoli edi. Klavixo Samarqandni shunday tasvirlaydi: “Samarqand shahri tekislikda joylashgan bo‘lib, devor bilan o‘ralgan, Sevilya shahridan kattaroq, ammo atrofi qishloq va bog‘lar bilan to‘la. Shahar atrofida xususiy bog‘lar, uylar, ko‘chalar va bozorlar bor... boylik va farovonlik shu qadar mo‘lki, hayratga soladi”. Shahar hunarmandlar (Damashq, Turkiya va boshqa zabt etilgan yerlardan keltirilganlar), savdogarlar va turli millat vakillari (turklar, arablar, nasroniylar) bilan to‘la edi. Bozorlarda Xitoy, Hindiston, Rossiya va boshqa mamlakatlardan kelgan ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar savdosi olib borilardi.

**4. Samarqand saroyidagi diplomatik protokol va qabul marosimlari**

Temur saroyida elchilarni qabul qilish qat’iy tartibga asoslangan edi. Elchilar dastlab uch marta ta’zim qilishlari (o‘ng tizza bilan yerga tushib, qo‘llarni ko‘krakda kesib), keyin tiz cho‘kib o‘tirishlari kerak edi. Temur ularni hurmat bilan qabul qilib, sovg‘alar (oltin brokadli xalatlar, shlyapalar, otlar) sovg‘a qilgan. Elchilar Temur saroyida bir necha oy qolishdi va nabiralari to‘ylari, ulkan bayramlar va ziyofatlarda ishtirok etishdi. Bayramlarda fillar nayrang ko‘rsatgan, pul tarqatilgan. Eng muhim voqea – Xitoy (Min sulolasi yoki Cathay) elchisi bilan bog‘liq hodisa: Temur Kastiliya elchilarini Xitoy elchisidan yuqori o‘ringa o‘tkazib, ochiqdan-ochiq shunday degan: “Ispaniya qiroli – mening o‘g‘lim va do‘stim, uning elchilari yuqorida o‘tirsinlar. Xitoylik esa qaroqchi va dushman elchisi, u pastda o‘tirsin... Xudo xohlasa, men bu masalani hal qilaman”. Bu voqea Temur diplomatiyasining kuchini, obro‘sini va Kastiliyaga bo‘lgan hurmatini yaqqol ko‘rsatdi. Ziyofatlar ulkan ipak chodirlarda o‘tkazilib, ot va qo‘y go‘shti, guruch, mevalar, vino (Temur ruxsati bilan) bilan boyitilgan. Temur shaxsan qurilish ishlarini nazorat qilgan va elchilarni oila a’zolari bilan birga uch kun, qarindoshlarini to‘qqiz kun bepul ta’minlagan.

**5. Samarqanddagi qolish davri, Temurning sog‘lig‘i va elchilikning yakuni**

Elchilar Samarqandda bir necha oy qolishdi. Klavixo Temur kasalligini shunday tasvirlaydi: “U shu qadar keksa va zaif ediki, ko‘z qovoqlari tushib, ko‘zlarini zo‘rg‘a ko‘tarardi”. Shuning uchun elchilar 1404-yil 21-noyabrda Samarqandni tark etishga majbur bo‘lishdi (Temur 1405-yil fevralda Otrarda vafot etdi). Bu voqea aloqalarni vaqtincha to‘xtatgan bo‘lsa-da, ittifoq va do‘stlik maqsadi amalga oshgan edi.

**6. Qaytish yo‘li, iqtisodiy va madaniy oqibatlar**

Qaytish yo‘li Tabriz, Armaniston va Qora dengiz orqali 1406-yil 24-martda Kastiliyaga yetib keldi. Klavixoning “Embajada a Tamorlán” kundaligi (Madrid qo‘lyozmalari asosida 1943 va 1999-

yillarda nashr etilgan) G‘arbda Temur imperiyasi haqidagi birinchi batafsil va ishonchli manba bo‘ldi. Aloqalar natijasida savdo yo‘llari faollashdi: Samarqand bozorlarida Yevropa tovarlari paydo bo‘ldi, hunarmandlar ko‘chib keldi. Madaniy almashinuv kuchaydi – nasroniy ayollar ozod etilishi, elchilar orqali bilim almashinuvi. Ispan tarixchilari (López Estrada, Manzano Moreno) bu aloqalarni o‘rta asrlar diplomatiyasining eng muvaffaqiyatli namunasi deb baholaydi.

**7. Klavixoning asari va uning ilmiy ahamiyati**

Klavixoning kundaligi Samarqand saroyining arxitekturasi (Bog‘i Dilkusho, pavilyonlar), ziyofatlar, hunarmandchilik va imperiya hayotini noyob tarzda tasvirlaydi. U Temur imperiyasini “boy va katta shahar” deb ta’riflab, Yevropada Temur haqidagi birinchi ishonchli tasavvur yaratdi. Asar bugungi kunda ham tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo‘lib, Temuriylar davri madaniyati va diplomatiyasini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ko‘rgazmalar (masalan, 2025-yilda Granadada ochilgan “Samarqandga sayohat” ko‘rgazmasi) bu tarixni yangi avlodlarga yetkazmoqda.

**8. Tarixiy ahamiyat va zamonaviy meros**

Ushbu munosabatlar Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtasida diplomatik, savdo va madaniy ko‘prik yaratdi. Garchi Temur vafoti aloqalarni to‘xtatgan bo‘lsa-da, ular Temuriylar davrida madaniy meros sifatida saqlanib qoldi. Bugungi kunda bu tarix O‘zbekiston va Ispaniya o‘rtasidagi hamkorlikning asosini tashkil etadi (madaniy ko‘rgazmalar, ilmiy almashinuv). Klavixoning asari globallashuv sharoitida tsivilizatsiyalararo muloqotning tarixiy tajribasini ko‘rsatadi.

**Xulosa**

Xulosa qiladigan bo‘lsak Amir Temur va Kastiliya qirolligi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘z davrining eng muhim xalqaro hodisasi bo‘lib, Sharq va G‘arb o‘rtasida noyob ko‘prik vazifasini o‘tadi. Ruy Gonzales de Klavixoning “Embajada a Tamorlán” kundaligi esa ushbu aloqalarni yorituvchi eng qimmatli birlamchi manba hisoblanadi. Bu munosabatlar nafaqat siyosiy ittifoq, balki savdo, madaniyat va ilmiy bilimlar almashinuvining asosini yaratgan. Ularning tajribasi bugungi globallashuv va xalqaro hamkorlik uchun ham dolzarbdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Anqara jangi va uning Yevropaga ta’siri haqida: Bartold V.V. Sochineniya. T. II (2). M.: Nauka, 1964. S. 245–250.
2. Kastiliya elchilarining dastlabki tashrifi: Clavijo R.G. Embajada a Tamorlán / Ed. F. López Estrada. Madrid: Castalia, 1999. P. 45–50.
3. Temur elchisining Kastiliyaga kelishi va xat mazmuni: Manzano Moreno E. La corte de Tamerlán. Madrid: Sílex, 2006. P. 67–72.
4. Elchilikning chiqish sanasi va tarkibi: Le Strange G. (transl.). Narrative of the Embassy of Ruy Gonzalez de Clavijo to the Court of Timour. London: Hakluyt Society, 1928. P. 1–5.
5. Samarqandga yetib kelish va shahar tasviri: Clavijo R.G. Embajada a Tamorlán. P. 78–85 (o‘zbekcha tarjimada: Klavixo R.G. Samarqandga sayohat. Toshkent: Sharq, 2004. 112–120-betlar).
6. Diplomatik ta’zim va qabul marosimi: Manzano Moreno E. Op. cit. P. 102–110.
7. Xitoy elchisi bilan bog‘liq voqea: Clavijo R.G. Op. cit. P. 120–125; shuningdek, Encyclopædia Iranica, “Clavijo, Ruy González de” maqolasi.
8. Temurning kasalligi va elchilikning yakuni: Le Strange G. Op. cit. P. 280–285.
9. Qaytish yo‘li va asarning nashrlari: Markham C.R. Narrative of the Embassy... London, 1859 (repr. 2005). Introduction.
10. Zamonaviy meros va ko‘rgazmalar: O‘zbekiston–Ispaniya madaniy aloqalari haqida ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi (O‘zME) va Granadadagi 2025-yil ko‘rgazmasi materiallaridan olingan.

# TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FANNING RAVNAQI VA MADANIYAT VA SA’NATNING RIVOJLANISHI.

**Obilov Azizbek**
**Navoiy davlat universiteti 2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan yuqori darajada rivojlanib dunyo ilmini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.O‘ziga xos bo‘lgan qurilish ishlarini ham olib boradi, yani madrasa rasadxon va kutubxonalar orqali.Sa’nat ham rivojlanishni yuqori darjasiga yetadi.

**Kalit so‘zlar:** Samarqand,Temuriylar, saroy, maqbara, ilm-fan, madrasa.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur o'z davrining yetuk davlat arbobi bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirgandan so'ng mamlakatning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot va san'at hunarmandchilik va me'morchilik yuqori cho'qisiga chiqdi. Amir Temur mamlakat sarhadlarini kengaytirish maqsadida turli xil yurishlarda ishtirok etar ekan poytaxt shaxar Samarqand obodonchiligiga katta e'tibor qaratgan. U o'ziga tobe mamlakatlardan o'rta sharq o'lkalaridan, Movorounnahrga juda ko'p fan va san'at axillarini poytaxt bo'lmish Samarqandga yig'adi. Bu haqida hattoki Ispaniya elchisi Rui Gonsalez De Klavixo ham o'z kundaligida Samarqandning obodligi, aholisi beqiyos ko'pligi turli millat vakillari istiqomat qilishi, Amir Temur tomonidan tomonidan Samarqandga olib kelingan turli davlatlar hunarmandlari haqida ham hikoya qiladi. Bular hammasi Turkiston va sharq xalqlari madaniyati va san'atini bir biriga yaqinlashuvidan olib kelgan. Ushbu fikrlarni Sharofiddin Ali Yazdiy ham tasdiqlaydi. Samarqand bu davrda juda rivojlanish cho'qqisiga chiqib borayotgan ediki deydi turli mamlakat namoyondalari arab, fors, turk, mo'g'ullar ham mamlakatda bo'ladigan sayllarda faol qatnashib qo'shiqlar raqslar ijro etishgan. 1404-1406 -yillarda Samarqand rivojlanishning yuqori cho'qisiga chiqmoqda edi. Amir Temur Samarqandga O'rta va Yaqin sharq olimlarini yig'ib madaniyat va san'atning yangi yo'nalishlarini vujudga keltirish me'morchilik, tibbiyot, riyoziyot,(matematika) xattotlik va musiqa san'ati gullab yashnashi uchun ilk qadamlarni qo'yadi. XIV-XV asrlardan mamlakatda katta o'zgarishlar boshlanadi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha bu davrda Samarqand va Hirotda Javhariy, Yaqiniy, Amiriy, Haydar Xorazmiy kabi olimlar ijod qilganliklari aytib o'tilgan. Bu davrda tasviriy san'at - miniatyura san'ati va rassomchilik ham eng yaxshi rivojlangan edi. Samarqand, Buxoro va Hirotda miniatyura san'ati namunalari juda yaxshi ishlangan ular hayotiy lavhalar, peyzaj, binolar va kitob bezaklari juda yaxshi ishlashgan. Bu davrda mashhur rassomlardan Do'st Muhammad, Mavlono Shahobiddin Abdullo, Bobonaqqosh kabi ko'p musavvirlar ijod qilishgan. Eng tengi yo'q rassom Pirsayid Ahmad bo'lgan u ko'proq Amir Temur qurdirgan saroylar rasmlarini chizgan. Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand Hirot va boshqashaharlarda xalq sayillari va tomoshalar ommaviy tus olgani va keng jamoat ahlining qatnashishi haqida Sharafitdin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixo kabi o'sha davrning muarrixlari qimmatli ma'lumotlar beradilar. Klavixo 1404 - yil Temur saroyida aktyorlar tomonidan o'z ko'zi bilan ko'rgan o'ynalgan saxna ko'rinishlarini ko'rib hayratda qoladi. Shubhasiz aktyorlar o'z davrining mashhur qiziqchi aktyorlari bo'lishgan.Bunday tadbirlar ko'proq jahonning mashhur mamlakatlari tomonidan kelgan elchilar uchun ko'proq tashkil qilinar edi. Ispan elchisi Klavixo yana o'z kundaligida shunday malumotlar keltiradi, Sohibqiron Amir Temur Samarqand atrofida katta bog'lar qasrlar qurdirgan. Harbiy yurishlardan davlat ishlaridan charchagan vaqtida shu yerga kelib dam olardi shatranj o'ynar edi. Shoirlarning she'rlarini tinglardi. Sozandalar tomonidan kuylar tinglar va o'zidagi hordiqni chiqarishga harakat qilardiedi deb yozadi Amir Temur XIV asrning ikkinchi yarmidan shaharlarda taraqqiyotning jadal rivojlanishi turli kasb egalarining qadr qimmatini oshirishga o'z e'tiborini qaratadi [1]. Bu haqida Ibn Arabshohning hunarmand-u ustalar haqida keltirilgan ma'lumotlari muayyan darajada qimmatga ega bo'lgan lekin hanuzgacha taqdiqotchi olimlar nazaridan chetda qolib kelmoqda. Arabshohning asaridan tadqiqotchilar xususan O'zbekiston tasviriy san'at tarixiga oid kitob yaratgan G.A.Pugachenkova va L.I. Rempellar qisman foydalanishgan. Shu sababli Amir Temur zabt etgan yerlaridan quruvchilar, me'morlar, san'atkoru hunarmandlar olib kelingani qayd qilinadi. Amir Temur buyrug'i bilan Xorazm, Tabriz, Isfaxon, Sheroz va Bog'doddan ustalar keltiriladi . Ibn Arabshohning asarida ham bu haqida ma'lumot

beriladi. Sohibqiron Damashqdan tikuvchilar, to'quvchilar, duradgorlar, otboqarlar, chodir yasovchilarni olib keltiradi deb ma'lumot berib o'tadi.Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin ularda biror yaxshi fazilat ko'rsa shu kasb egalariga g'oyat mehr qo'ygan. Amir Temur davrida ijod qilgan naqqoshu musavvirlardan ba'zilari haqida Vosifiyning "Badoye'ul-vaqoe" risolasida ham yozilgan. Masalan Samarqanddagi shishavoz Mavlono Muhammad Kufuniy bog'u-bo'stonlar va chorbog'lar tarixini chizadigan usta Xo'ja Shomuhammad Hirotdagi Husayn Zardo'zi kabi yana bir qator olimlarning nomlari keltiriladi. Buxoro, Toshkent, Sayram, Shohruxiyada naqqoshlar, sangtaroshlar, xattot, musavvirlar borligiga ishora qilgan. Temur va Temuriylar davrida ijod qilgan musavvir, naqqosh, xattotlar haqida "Boburnoma"da hamanchagina ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari Ibn Arabshoh Shihobuddin Ahmad Ibn Muhammadning Ibn Abdullox Ibn Ibrohimning "Amir Temur tarixi", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul vaqoe", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" hamda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi asarlarida naqqosh, hunarmand va musavvirlar va ularning ijodiy mahsulini qayd etuvchi ma'lumotlar berib o'tiladi. Ibn Arabshohning tarixiy risolasida Movorounnahrlik emas balki chet ellik hunarmandlar ham madrasa va masjidlar qurilishida ishtirok etkanligi uchun ismlari sir tutilgan degan ma'lumotni yozib ketadi. Arabshohning qoldirgan ma'lumotlar orasida Amir Temur Samarqandda qurdirgan saroylar ichida devoriy rasmlar chizdirgan qaysi saroyda majlis o'tkizsa rasssomlar tomonidan chizib saroy devorlariga ilingan. Shohrux Mirzo davrida ham ilm-fanga e’tibor susaymadi, aksincha, yanada tizimli shakl oldi. Shohrux poytaxtni Hirotga ko‘chirganidan so‘ng bu shahar ilmiy va madaniy hayot markaziga aylandi. U o‘z saroyida tarixchilar, faqihlar, mufassirlar va adiblarni to‘pladi. Aynan Shohrux davrida Abdurazzoq Samarqandiy kabi tarixchilar faoliyat yuritgan, saroy kutubxonalari boyitilgan. Shohrux ilm ahliga yer-suv in’om etish, ularni soliqlardan ozod qilish kabi choralar bilan ularni qo‘llab-quvvatlagan.

Temuriylar davrida ilm-fanga davlat miqyosida e’tiborning eng yorqin namunasi Mirzo Ulug‘bek faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ulug‘bek nafaqat hukmdor, balki o‘zi ham yetuk olim bo‘lgani sababli ilmiy muhitni shakllantirishga katta ahamiyat bergan. 1417–1420-yillarda Samarqandda qurilgan Ulug‘bek madrasasi o‘sha davrning oliy o‘quv yurti vazifasini bajargan. Bu madrasa nafaqat Movarounnahr, balki boshqa hududlardan kelgan talabalar uchun ham ochiq bo‘lgan. Ulug‘bek o‘z atrofida Qozi Zoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Koshiy, Ali Qushchi kabi yirik olimlarni jamlagan. Ularning hamkorligida 1420 1430-yillarda Samarqand rasadxonasi barpo etildi. Temuriylar davrida homiylik tizimi shaxsiy xayriya emas, balki davlat siyosati bilan uyg‘un holda olib borilgan. Hukmdorlar ilm-fan rivojini davlat qudrati va nufuzining ajralmas qismi deb bilganlar. Aynan shu sababli XV asr Movarounnahr va Xuroson hududlari Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichi sifatida tarixda alohida o‘rin tutadi. Temuriylar davrida homiylik tizimi shaxsiy xayriya emas, balki davlat siyosati bilan uyg‘un holda olib borilgan. Hukmdorlar ilm-fan rivojini davlat qudrati va nufuzining ajralmas qismi deb bilganlar. Aynan shu sababli XV asr Movarounnahr va Xuroson hududlari Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichi sifatida tarixda alohida o‘rin tutadi. Amir Temur ilm-fan, ma’naviyat ahliga alohida e’tibor va mehribonlik ko‘rsatib, jamiyatning madaniy hayotida ulardan foydalanishga intilar edi. Tarixchi ibn Arabshoh yozganidek, “Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to‘la izzat-hurmat ko‘rsatib ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzat-u ikromini izhor qilardi”. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e’tibor berildi. Islom dini o‘sha davrda asosiy mafkura bo‘lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Temur o‘z faoliyatida unga tayanib ish ko‘rdi. XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko‘p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug‘rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga e’tibor berildi. Ayniqsa, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tez rivoj topa boshladi[2].

Temuriylar davrida homiylik tizimi shaxsiy xayriya emas, balki davlat siyosati bilan uyg‘un holda olib borilgan. Hukmdorlar ilm-fan rivojini davlat qudrati va nufuzining ajralmas qismi deb bilganlar. Aynan shu sababli XV asr Movarounnahr va Xuroson hududlari Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichi sifatida tarixda alohida o‘rin tutadi.

Samarqandda Ko‘ksaroy, Amir Temur Jome masjidi, Bibixonim madrasasi, masjidi, Kusam ibn Abbos me’moriy majmui, Amir Temur maqbarasi, Shaxrisabzda Dorut-tilovat majmui, muhtasham Oqsaroy, Turkiston shaxridagi Xoja Axmad Yassaviy xonaqo-maqbarasi, Toshkent yaqinida Zangi ota maqbarasi, Naxri Barlos arig‘i, Kobul atroflari, Farg‘ona vodiysi, Murg‘ob vodiysidagi yerlarga, Ozarbayjondagi Mug‘on cho‘llariga suv chiqarilishi, Shoxruhiya, Baylaqon shaharlarining bunyod etilishi, Tabriz, Bag‘dod va Gurganj shaharlarining qayta tiklanishi... Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: “Sohibqiron har yerdakim, imoratqa qobil yer ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi...” degan so‘zlari zinhor mubolag‘a emas[3]. Shohrux davrida me’morchilik va shaharsozlik ishlari Hirotda keng davom ettirildi. Hirot XV asrda Sharqning yirik madaniy markaziga aylandi. Bu yerda madrasalar, masjidlar, maqbaralar va saroylar barpo etildi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro davrida Hirot yanada obodlashdi. Me’moriy inshootlar nafaqat hajmi, balki bezaklari bilan ham ajralib turardi. Sirlangan koshinlar, muqarnasli gumbazlar, nozik naqshlar va arabiy yozuvlar Temuriylar uslubining ajralmas qismi bo‘ldi. Temuriylar me’morchiligida geometrik mutanosiblikka katta e’tibor berilgan. Gumbaz va peshtoq balandligi, inshootning kengligi va ichki hajmi aniq hisob-kitob asosida qurilgan. Bu yerda matematika va me’morchilik uyg‘unlashganini ko‘ramiz. Ulug‘bek davrida qurilgan Samarqand madrasasi va rasadxona inshootlari ham me’moriy jihatdan puxta rejalashtirilgan. Temuriylar me’morchiligi keyingi asrlarda ham o‘z ta’sirini saqlab qoldi. Bu uslub nafaqat Movarounnahrda, balki Eron, Afg‘oniston va Hindistonda ham tarqaldi. Boburiylar davrida qurilgan ayrim inshootlarda Temuriylar me’morchilik an’analari yaqqol seziladi. Demak, bu davr me’morchiligi mintaqaviy emas, balki keng hududga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy hodisa bo‘lgan. O‘zbekiston tarixi ming yillik sivilizatsiya va madaniyatlar chorrahasida shakllangan bo‘lib, uning eng porloq sahifalaridan biri bu — Temuriylar sulolasi davridir. XIV asr oxiri va XV asr davomida Movarounnahrda yuz bergan madaniy uyg‘onish jarayoni nafaqat o‘z zamonasi, balki keyingi asrlar taraqqiyotiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temur o‘zining “Kuch adolatdadir” shiori asosida markazlashgan, mustahkam davlat tizimini barpo etdi. U ilm-fan, adabiyot va san’atni davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaradi. Temurning “Har bir mamlakatning qudrati – uning ilmli va madaniyatli kishilaridadir” degan fikri, shubhasiz, bu siyosatning g‘oyaviy asosini tashkil etgan.[4]

Temurdan keyingi davrda, xususan, Mirzo Ulug‘bek, Shohrux Mirzo, Boysung‘ur Mirzo kabi hukmdorlar ham ilm-fan va san’atni rivojlantirishda katta homiylik ko‘rsatdilar. Ularning davrida Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda madrasalar, rasadxona va kutubxonalar qad ko‘tardi. Tarixchi olim V. V. Bartold bu davr haqida shunday yozgan: “Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida faqat siyosiy qudrat davri emas, balki butun Sharq uyg‘onishining eng yuksak bosqichini ifoda etadi”[5]. Shuningdek, san’atshunos G. A. Pugachenkova o‘z tadqiqotlarida Temuriylar davrida yaratilgan me’moriy obidalar haqida shunday deydi: “Bu inshootlar nafaqat diniy ramz, balki ilmiy tafakkur, estetik qarash va badiiy didning uyg‘unligidir”[6]. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham o‘zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida ta’kidlaganidek: “Temuriylar davri biz uchun faqat o‘tmish sahifasi emas, balki bugungi avlodni buyuklikka chorlovchi ma’naviy zamin, o‘zligimizning ildizidir.” Shunday qilib, Temuriylar sulolasi davri nafaqat siyosiy kuch-qudratning, balki ma’naviyat va tafakkurning ham yuksak cho‘qqisiga chiqqan davr sifatida tarixda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi[7].

Xulosa. Temuriylar davrida ilm-fanga davlat miqyosida e’tibor berilishi markazlashgan siyosiy tizim, iqtisodiy barqarorlik va ongli homiylik siyosati bilan bog‘liq edi. Amir Temur asos solgan bu an’ana Shohrux, Ulug‘bek va Husayn Boyqaro davrida davom etdi va natijada Samarqand hamda Hirot o‘z zamonasining yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylandi. Ilm-fanga berilgan bunday keng qamrovli e’tibor Temuriylar davrining tarixiy ahamiyatini belgilab berdi va bugungi kunda ham o‘z qadriyatini saqlab qolgan.Temuriylar davrida me’morchilik va shaharsozlik san’ati davlat siyosati bilan uyg‘un holda rivojlandi. Samarqand va Hirot kabi barpo etildi. shaharlar obod qilindi, muhtasham masjidlar, maqbaralar, madrasalar va saroylar barpo Shaharlar aniq reja asosida kengaytirildi, infratuzilma takomillashtirildi, savdo va hunarmandchilik rivoji uchun qulay sharoit yaratildi. Bu jarayon Temuriylar davrining nafaqat siyosiy, balki madaniy yuksalish davri bo‘lganini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jo‘rayev Husen Xayrulloyevich, Samijonova Nozila. Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Volume 2. – Issue 7 (05.04.2025). – B. 1040–1045. Online ISSN: 3030-3494.

2. Obidov Islombek Ilxomjon o‘g‘li, Karimjonov Marufjon Murodulla o‘g‘li, Abdurashidov Eldorbek Abdulaziz o‘g‘li. Amir Temur davrida tibbiyotning rivojlanishi // Ilm-fan va ta’lim ilmiy jurnali. – 2023. – №6(21). – 180–182-betlar.

3. Али, Мухаммад. Амир Темур солномаси. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. — 13–14-бетлар.

4. Zokirovna, S. N. (2025). TEMURIYLAR SULOLASINING MADANIY SIYOSATI. SANOAT VA TEXNIKA SOHALARIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI: KONFERENSIYA MATERIALLARI, 1(3), 169-173.

5. Murodulloyevich, N. O. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN RIVOJLANISHIGA HISSA QOSHGAN ALLOMALARNING AHAMIYATI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(4), 197-199.

6. Esonaliyevna, N. D. (2024). TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSI: ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN’AT RIVOJI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(24), 26-29.

7. Qodirovich, Q. F. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI. " YURT FAXRI", 1(1).

## AMIR TEMURNING YUNESKO TOMONIDAN ETIROF ETILISHI : TARIXIY VA MADANIY MEROSNING XALQARO DARAJADAGI AHAMIYATI

**Xoliqov X.X.**
**Andijon davlat pedagogika instituti**
**Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) 1-kurs magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda Amir Temur va uning avlodlari davrida yaratilgan madaniy, moddiy va nomoddiy yodgorliklarning global ahamiyati va Amir Temur shaxsining YUNESKO tomonidan yuksak etirof etilishi yoritiladi. Buyuk hukmdor Amir Temur davrida me’morchilik, madaniyat va san’atga berilgan e’tiborning xalqaro ahamiyati tushuntiriladi. Shuningdek, YUNESKO tomonidan yurtimizdagi Samarqand, Buxoro va Shahrisabz singari yirik madaniy markazlarga bergan yuksan maqom va e’tibori haqida ilmiy asoslangan malumotlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Temuriylar, YUNESKO, Boburiylar, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Usmonlilar, Safaviylar, Oq Saroy

**Recognition of Amir Temur by UNESCO: the international significance of historical and cultural heritage**

**Annotation.** This study highlights the global significance of cultural, tangible and intangible monuments created during the reign of Amir Temur and his descendants and the high recognition of the personality of Amir Temur by UNESCO. The international significance of the attention paid to architecture, culture and art during the reign of the great ruler Amir Temur is explained. Also, scientifically based information is provided about the high status and attention given by UNESCO to such major cultural centers in our country as Samarkand, Bukhara and Shahrisabz.

**Keywords**: Amir Temur, Temurids, UNESCO, Baburids, Samarkand, Bukhara, Shahrisabz, Ottomans, Safavids, White Palace

**Признание Амира Тимура ЮНЕСКО: международное значение исторического и культурного наследия**

**Аннотация.** В данном исследовании освещается глобальное значение культурных, материальных и нематериальных памятников, созданных во время правления Амира Тимура и его потомков, а также высокое признание личности Амира Тимура ЮНЕСКО. Объясняется международное значение внимания, уделяемого архитектуре, культуре и искусству во время правления великого правителя Амира Тимура. Также приводится научно обоснованная

информация о высоком статусе и внимании, уделяемом ЮНЕСКО таким крупным культурным центрам нашей страны, как Самарканд, Бухара и Шахрисабз.

**Ключевые слова**: Амир Тимур, Тимуридов, ЮНЕСКО, Бабуридов, Самарканд, Бухара, Шахрисабз, Османская империя, Сефевиды, Белый дворец

Amir Temur shaxsiyati va merosining xalqaro darajadagi etirofi O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng yangi bosqichga ko‘tarildi. 1990- yillarda boshlangan xalqaro etirof bugungi kunda ham yuqori darajada davom etmoqda. Mamlakatimizdagi madaniy markazlar hisoblangan Samarqand, Buxoro va Shahrisabz kabi shaharlar Amir Temur davrida buyuk madaniyat va ilm-fan markazlari hisoblangan. Shu sababdan ham bu buyuk shaharlar YUNESKO ning jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu shahardagi me’moriy ansambllar, madrasalar va boshqa arxeologik yodgorliklar Amir Temur va uning avlodlari davrida davrida qurilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo va islom madaniyatining cho‘qqisi hisoblanadi. Xalqaro maydondagi Amir Temur xotirasi va hurmatini mustahkamlash maqsadida YUNESKO homiyligida 1996- yil Amir Temur tavalludining 660 yillik yubileyi nishonlandi. YUNESKO etirofi Amir Temur shaxsiyatining harbiy yoki hukmdorlik faoliyatiga emas aynan madaniy merosiga qaratilgan. Uning ilmiy va madaniy yutuqlari nafaqat Markaziy osiyo balki butun islom dunyosiga ta’sir o‘tkazgan masalan, masjid, madrasa va maqbaralar Turkiya (Usmonlilar), Hindiston (Boburiylar) va Eron (Safaviylar) me’morchiligiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temur va Temuriylar davridagi nomoddiy madaniy meroslar ham YUNESKO tomonidan «Madaniyatlar kesishmasi» sifatida etirof etilgan. Sababi Temuriylar hukmronligi davrida turli madaniyatlar qorishmasi va birlshish alomatlari ko‘zga tashlanadi. Fors, arab, turk va xitoy madaniy unsurlari alomatlari yaqqol sezilib turgan. «YUNESKO etirofi aynan uning madaniy merosiga qaratilgan, chunki harbiy jihatlar emas, balki me'moriy va ilmiy yutuqlar jahon merosining bir qismi hisoblanadi.»[186]

Temuriylar davri madaniyati O‘rta Osiyo madaniyatida oltin davr hisoblangan va bu yurtimiz tarixidagi II Renessans hisoblangan. Amir Temur va Temuriylar davri me’morchiligida yangi uslublar murakkab naqshlar, baland minoralar, oq va ko‘k rangli koshinlardan foydalanilgan. Muhandislikdagi chorbog‘ uslubi esa Boburiylarga kuchli tasir o‘tkazgan bo‘lib, Toj mahal, Humoyun maqbarasi va Qizil qal’a kabi buyuk va jahonga mashxur mo‘jizaviy yodgorliklar aynan shu uslubda bunyod etilgan. «Ba'zi tarixiy manbalarda Toj Mahalning muhandislik va arxitekturasi Markaziy Osiyoning tarixiy an'analari, ayniqsa Temuriylar davri me'morchiligi bilan ajralib turishi ta'kidlangan. “Boburiylar me'morchiligi Temuriylar an'analarini ongli ravishda davom ettirdi, ayniqsa markazlashtirilgan gumbaz, qat'iy simmetriya va Chorbog' bog'idan foydalanishda.”[187] “Temuriylar me'moriy an'analari Hindiston muhitida rivojlanishining mukammal namunasi hisoblanadi.”[188] Bu manbalar yana bir bor Bobur sulolasining kelib chiqishi Zahiriddin Muhammad Bobur, xususan, Temuriylar bilan bevosita bog'liqligini isbotlaydi.»[189]

Samarqand, Buxoro va Shahrisabz singari madaniy markazlar YUNESKO butunjahonmerosi ro‘yxatiga kiritilgan. Buxoro 1993-yilda bu ro‘yxatdan joy olgan bo‘lib, “O‘rta asr shahri namunalari” sifatida etirof etiladi. Shahrisabz(Kesh) 2000-yilda bu ro‘yxatdan joy olgan. U Amir Temur tug‘ilgan joy va uning davridagi siyosiy markazlardan biridir. Shahrisabzda Oq Saroy va o‘g‘li Jahongir dafn etilgan maqbarasi mavjud. Samarqand esa bu ro‘yxatga 2001-yilda kiritilgan. Amir Temur va Temuriylar davlati poytaxti sifatida etorof etilgan. Samarqandda Registon maydoni, Bibixonim, Shohizinda va Go‘ri Amir singari mashxur majmualat qurilgan. YUNESKO hujjatlarida Samarqand “Qadimiy madaniyatlar kesishmasidagi Islom madaniyati ijodkorining shoh asari” sifatida tariflanadi.[190]

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

[186] https://en.unesco.org/silkroad/sites/default/files/knowledge-bank article/vol_IVa%20silk%20road_the%20timurid%20states%20in%20the%20fifteenth%20and%20sixteenth%20centuries.pdf

[187] Ebba Koch, *Mughal Architecture: An Outline of Its History and Development (1526–1858) page178*

[188] Percy Brown,*Indian Architecture (Islamic Period)page32.*

[189] BOBUR NOMIDAGI XALQARO JAMOAT FONDI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI BOBURSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI mavzusidagi xalgaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligiga bag'ishlanadi) 2026-yil Farg'ona UNESCO recognition of the Baburids heritage Author: Kholikov K

[190] https://everything-everywhere.com/unesco-world-heritage-sites-in-uzbekistan/

1. BOBURSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI mavzusidagi xalgaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligiga bag'ishlanadi)
2. Ebba Koch, *Mughal Architecture: An Outline of Its History and Development (1526–1858)*
3. Percy Brown,*Indian Architecture (Islamic Period)*
4. https://en.unesco.org
5. https://unesco-world-heritage-sites-in-uzbekistan

## TEMURIYLAR DAVRI DIPLOMATIK ETIKETIDA KIYIM-KECHAKNING O‘RNI VA RAMZIY MA’NOLARI

***(R.G. de Klavixo va Ibn Arabshoh ma’lumotlari asosida)***

**Raxmatullayev Muhammad Qodir Jaxongir o‘g‘li**
**O‘zR FA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi,**

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda Temuriylar davri kiyinish madaniyatining diplomatik aloqalardagi o‘rni yozma manbalar - R.G. de Klavixo va Ibn Arabshoh asarlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda kiyimning nafaqat ijtimoiy tabaqalanish belgisi, balki saltanat haybati va siyosiy iroda ramzi sifatidagi funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy elchilarga in’om etilgan sarpoy, javshan va kamarband kabi libos elementlarining davlatlararo munosabatlardagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Temuriylar, kiyinish madaniyati, diplomatiya, R.G. de Klavixo, Ibn Arabshoh, javshan, kamarband, sarpoy.

**Abstract:** This article analyzes the role and symbolic significance of clothing in the diplomatic etiquette of the Timurid era, based on the written sources of Ruy Gonzalez de Clavijo and Ibn Arabshoh. The research explores how garments functioned not only as indicators of social hierarchy but also as embodiments of imperial grandeur and political will. Furthermore, the significance of clothing elements such as *sarpoy* (full dress), *javshan* (armor), and *kamarband* (belt) presented to foreign ambassadors is examined within the context of interstate relations.

**Keywords:** Amir Timur, Timurids, clothing culture, diplomacy, R.G. de Clavijo, Ibn Arabshoh, javshan, kamarband, sarpoy.

Temuriylar davri (14-yuzyillik oxiri – 15-yuzyillik ) Turon tarixida siyosiy qudrat, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalish bilan ajralib turadi. Bu davr nafaqat harbiy yurishlar va davlat boshqaruvi tizimi, balki san’at, me’morchilik, adabiyot hamda kundalik hayot madaniyati bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kiyim-kechak madaniyati ana shu murakkab madaniy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, iqtisodiy imkoniyatlari, estetik qarashlari va siyosiy ramziyatini o‘zida mujassam etgan.

Temuriylar davrida kiyim oddiy maishiy ehtiyojni qondiruvchi vosita emas, balki shaxsning ijtimoiy maqomi, harbiy mansabi, saroydagi o‘rni va hatto siyosiy legitimligini ko‘rsatuvchi muhim belgiga aylangan. Saroy amaldorlari, harbiylar, ulamolar, hunarmandlar va oddiy xalq vakillarining kiyimlari o‘ziga xos shakl, rang va bezak tizimi orqali bir-biridan farqlangan. Diplomatik munosabatlarda esa kiyim nafaqat shaxsiy maqom, balki ikki davlat o'rtasidagi siyosiy ierarxiya va o‘zaro ishonchni ifodalovchi belgi vazifasini o‘tagan. Ayniqsa, hukmdor va saroy ahli kiyimlari davlat qudrati va saltanat nufuzining ifodasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Bugungi kunda Temuriylar davri siyosiy tarixi va me’morchiligi yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, kiyinish madaniyati masalasi ko‘pincha umumiy tasviriy tarzda yoritilgan. Mazkur mavzuni yozma manbalar va tasviriy san’at materiallari asosida kompleks o‘rganish, davr madaniy muhitini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu jihatdan, Temuriylar davri kiyim-kechak an’analarini tizimli ravishda tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Amir Temur saltanatidagi siyosiy barqarorlik natijasida Samarqand va Hirotda yuzaga kelgan madaniy yuksalish “Temuriylar renessansi” sifatida ilm-fan, adabiyot va san’atning taraqqiyotini ta’minladi.

15-yuzyillikda Hirot miniatura maktabi, xususan, Kamoliddin Behzod ijodi saroy homiyligida yuksalar ekan, davr kiyinish madaniyatini o‘rganishda asosiy vizual manba bo‘lib xizmat qiladi.

Temuriylar davrida ipakchilik, zarbofchilik va hunarmandchilik rivojlangan bo‘lib, kiyimlar tayyorlashda yuqori sifatli shoyi, baxmal va oltin iplar keng qo‘llanilgan. Ranglar tizimi ham ma’lum ramziy ma’noga ega bo‘lib, qizil, ko‘k va yashil ranglar saroy hamda harbiy kiyimlarda faol ishlatilgan. Shu tariqa kiyim nafaqat estetik, balki ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya vositasiga aylangan.

Temuriylar davri kiyim-kechak an’analarini o‘rganishda yozma va tasviriy manbalar asosiy manba guruhini tashkil etadi.

Yozma manbalar orasida, avvalo, ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning[191] Samarqand safariga oid kundaliklari[192] muhim ahamiyatga ega. Uning asarida saroy marosimlari, hukmdor va saroy ayollari kiyimlari, bosh kiyim shakllari va bezaklari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, arab tarixchisi Ibn Arabshoh[193] o‘zining “Ajoyib al-maqdur fi navodir Taymur” asarida Amir Temurning harbiy libosi, sovut (javshan)[194], kamarband[195] va askarlar tashqi ko‘rinishi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Amir Temur saroyidagi kiyinish madaniyatini o‘rganishda ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixoning safarnomasi muhim birlamchi manba hisoblanadi. U 1403–1406 yillarda Kastiliya qiroli elchisi sifatida Samarqandga kelgan va Temur saroyidagi marosimlar, qabul tantanalari hamda saroy ahli tashqi ko‘rinishini batafsil tasvirlab qoldirgan. Klavixo kuzatuvlari ayniqsa saroy ayollari va oliy tabaqa vakillarining kiyim-kechak an’analarini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Klavihoning qayd etishicha, saroy ayollari uzun va keng, etagi yerga sudralib boradigan zarbof ko‘ylaklar kiyganlar. Libosning matosi qimmatbaho shoyi yoki ipakdan bo‘lib, oltin iplar bilan bezatilgan. Ko‘ylak bel qismida toraytirilgan, pastga qarab kengayib boradigan shaklga ega bo‘lgan.[196] Bu shakl bir tomondan estetik didni, ikkinchi tomondan saroy muhitidagi tantanavorlikni aks ettirgan. Ayrim hollarda kiyim etagini xizmatkor ayollar ko‘tarib yurishi qayd etiladi. Mazkur holat libosning nafaqat bezak, balki ijtimoiy maqom belgisi sifatida ham xizmat qilganini ko‘rsatadi. Ruy Gonsales de Klavixo o‘z kundaligida elchilarning qabul marosimidan avval ularga maxsus “sarpo” (boshdan-oyoq sarpo) kiydirilganini qayd etadi.[197] Bu diplomatik etiketning muhim qismi bo‘lib, xorijiy elchini saltanat tomonidan rasman tan olinishi va uning daxlsizligini ta’minlash ramzi bo‘lib xizmat qilgan.

Bosh kiyimlar Klavixoning tavsifida alohida e’tibor bilan tasvirlangan. U baland, dubulg‘asimon shakldagi bosh kiyimlar qimmatbaho toshlar — marvarid, yoqut, firuza bilan bezatilganini ta’kidlaydi. Bunday bosh kiyim shakli, ehtimol, harbiy ramziyat bilan bog‘liq bo‘lib,

---

[191] Rui Gonsales de Klavixo (vaf. 1412) - Kastiliya va Leon qiroli Enrike III ning Amir Temur saroyiga yuborgan ikkinchi elchilik missiyasi rahbari. 1403–1406-yillarda amalga oshirilgan ushbu sayohat O‘rta asrlar Yevropa va Sharq diplomatiyasi tarixida muhim o‘rin tutadi. Klavixo o‘zining kuzatuvchanligi va xolis yondashuvi bilan ajralib turadigan o‘sha davrning noyob xorijiy mualliflaridan biridir.

[192] «Samarqandga - Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» (Embajada a Tamorlán) — XV asr boshidagi Temuriylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy hayoti, saroy etiketi, harbiy tuzilishi hamda Shosh, Termiz va Samarqand kabi shaharlarning tarixiy topografiyasini o‘rganishda birlamchi manba hisoblanadi. Kundalikda o‘sha davr me’morchiligi, kiyim-kechak madaniyati va agrar munosabatlar (sug‘orish tizimlari) bo‘yicha keltirilgan ma’lumotlar boshqa sharqiy manbalarda uchramaydigan o‘ziga xos tafsilotlarga boyligi bilan ilmiy ahamiyatga ega.

[193] Ibn Arabshoh (1389–1450) - atoqli arab tarixchisi. Uning «Ajoyib al-maqdur fi navodir Taymur» (Amir Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) asari Temuriylar davri harbiy va siyosiy tarixini o‘rganishda eng mashhur manbalardan biri sanaladi. Muallif Amir Temurga nisbatan tanqidiy ruhda yozgan bo‘lsa-da, u keltirgan kiyim-kechaklar, harbiy liboslar (sovut, javshan) va askarlarning tashqi qiyofasiga oid tavsiflar o‘zining nihoyatda aniqligi va detallarga boyligi bilan ajralib turadi.

[194] Javshan - Temuriylar qo‘shinida askarlar va oliy tabaqa vakillari kiygan himoya kiyimi, ya’ni po‘lat plastinkalardan iborat sovutning bir turi. Ibn Arabshoh Amir Temurning javshani qimmatbaho metallar va nafis naqshlar bilan bezatilganini ta’kidlaydi. Bunday bezakli javshanlar nafaqat jang maydonida, balki elchilar qabulida hukmdorning yengilmas harbiy qudrati va saltanat boyligini ko‘rsatuvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

[195] Kamarband — kiyimning bel qismiga bog‘lanadigan va kishining ijtimoiy mavqeini ko‘rsatuvchi muhim belgidir. Oliy tabaqa vakillarining kamarlari oltin yoki kumushdan ishlanib, ularga yoqut va firuza kabi qimmatbaho toshlar qadalgan. Bunday bezakli kamar faqat kiyimni mahkamlovchi unsur emas, balki martaba va harbiy unvon belgisi bo‘lib, uning in’om etilishi yuksak siyosiy ishonch ramzi sanalgan.

[196] Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406-yillar). / Mas’ul muharrir: Muhammad Ali; so‘z boshi va izohlar muallifi M. Safarov; tarj. O. Tog‘ayev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 180

[197] Yana o‘sha asar – B. 113-114

saroy ayollarining ham saltanat qudrati bilan bevosita aloqador ekanini ko‘rsatgan. Bosh kiyimning balandligi va bezak darajasi ijtimoiy ierarxiyani bildiruvchi vizual belgi vazifasini bajargan.

Shuningdek, Klavixo ayollar yuziga oq upa surilishi va yuzning yupqa mato bilan yopilishi an’anasini ham qayd etadi. Bu jihat, bir tomondan, estetik qarashlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, saroy etiketi va muhofaza qilingan ijtimoiy muhitni ifodalaydi. Yuzni yopish va pardalanish amaliyoti oliy tabaqa ayollarining jamoat oldidagi ko‘rinishida ma’lum darajada tantanavorlik va masofani saqlash vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Klavixoning kuzatuvlarida erkaklar, ayniqsa saroy amaldorlari kiyimi ham muhim o‘rin tutadi. Ular qimmatbaho matodan tikilgan uzun to‘nlar, keng yengli ustki kiyimlar hamda bezakli kamarlar taqib yurishgan. Kamar (kamarband) faqat kiyimni mahkamlovchi unsur emas, balki martaba va harbiy unvon belgisi sifatida namoyon bo‘lgan. Qimmatbaho toshlar yoki metall bezaklar bilan ziynatlangan kamar saroy ierarxiyasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilardan biri bo‘lgan.

Ispan elchisining ushbu tasvirlarini arab tarixchisi Ibn Arabshohning ma’lumotlari mazmunan boyitadi. Ibn Arabshoh Amir Temur va uning lashkarlari qiyofasini shunchaki tashqi ko‘rinish emas, balki davlatning shohona shukuhi va harbiy haybati sifatida talqin qiladi. Tarixchi hukmdor kiygan “javshan” deb ataluvchi sovuti va dubulg‘asining qimmatbaho metallar hamda nafis naqshlar bilan bezatilganiga alohida to‘xtalib, bu aslahalar elchilar qabulida saltanatning yengilmas qudrati va boyligini ko‘rsatuvchi asosiy vosita bo‘lganini ta’kidlaydi. Shuningdek, u elchilar qabuli va turli marosimlarda kiyim ranglarining o‘zgarishi orqali muayyan siyosiy xabarlar berilganini ham bayon etadi. Uning yozishicha, askarlar va amirlarning qizil rangli liboslari hamda otlarining anjomlari saltanatning shiddati va murosasizligidan darak bersa, oq kiyimlar ko‘pincha tinchlik va muzokaralarga moyillik belgisi sifatida qo‘llanilgan. Yuqorida tilga olingan kamarbandlar masalasida esa, Ibn Arabshoh kamarning oltin yoki kumushdan ishlangani kishining saltanatdagi o‘rni va hukmdorga qanchalik yaqinligini belgilovchi asosiy nishon bo‘lganini tasdiqlaydi. Tarixchi Temuriy qo‘shinining kiyinishidagi bir xillik va tartib dushman elchilarida qattiq hayrat uyg‘otganini, bu esa raqibni ruhiy jihatdan hayiqtirishga yordam berganini ta’kidlaydi.

Klavixoning ma’lumotlari saroy kiyimlarining quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi:

1. Dabdabadorlik va hashamat – zarbof matolar, qimmatbaho toshlar, oltin iplar keng qo‘llanilgan.
2. Baland bosh kiyimlar – ijtimoiy maqom va siyosiy ramziyat belgisi.
3. Uzoq etakli, qavatli liboslar – saroy “protokol”i va marosimiylik belgisi.
4. Rang va bezak uyg‘unligi – vizual ierarxiya yaratish vositasi.

Shu bilan birga, Klavixoning tavsiflari tashqi kuzatuvchi nigohi bilan yozilganini inobatga olish lozim. U saroy dabdabasini Yevropa madaniy muhitidan kelib chiqib baholagan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, uning qaydlari Amir Temur davri saroy kiyinish madaniyatini tasavvur qilishda ishonchli va batafsil manba sifatida xizmat qiladi. Klavixoning kundaligida aks etgan saroy kiyimlari Temur saltanatining siyosiy qudrati, iqtisodiy salohiyati va nafosat madaniyatini mujassam etgan murakkab madaniy tizimni namoyon etadi. Kiyim bu davrda shunchaki maishiy zarurat emas, balki davlat nufuzining ko‘rinadigan ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Shunday qilib, Temuriylar davri kiyinish madaniyati davlatning tashqi siyosatida “yumshoq kuch” elementiga aylanib, saltanatning iqtisodiy qudrati va madaniy yuksakligini xalqaro maydonda namoyish etishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Temuriylar davri diplomatik etiketida libos shunchaki dabdaba emas, balki davlatning vizual tili vazifasini o‘tagan. R.G. de Klavixo va Ibn Arabshoh ma’lumotlari kiyimning uchta muhim qirrasini ochib beradi:

1. Diplomatik daxlsizlik ramzi: Elchining "sarpo" kiyishi uning Temuriy hukmdor tomonidan tan olingani va oliy himoyaga olinganining ramziy tasdig‘i edi.
2. Siyosiy ierarxiya ko‘zgusi: Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan baland bosh kiyimlar va zarbof kamarlar saroydagi ijtimoiy martabani ko‘rsatuvchi vizual indikator bo‘lib, elchilar uchun protokol tartibini belgilab bergan.
3. Strategik xabar vositasi: Liboslar va ot-anjomlaridagi ranglar semantikasi (qizil va oq) hamda hukmdorning javshan (sovut) kiyishi diplomatik muzokaralar oldidan raqibga saltanatning harbiy qudrati va siyosiy irodasini namoyish etuvchi o‘ziga xos “yumshoq kuch” vazifasini bajargan.

Shu tariqa, Temuriylar saroyida kiyinish madaniyati xalqaro munosabatlarda so‘zsiz muloqot qilishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Amir Temur Ko‘ragon. Zafar yo‘li. Nashrga tayyorlovchi Ashraf Ahmad. – Toshkent: Nur. 1992. – 31 b.
2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob. – Toshkent: Mehnat. 1992. – 192 b.
3. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. I kitob. – Toshkent: Fan. 2018. – 256 b.
4. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2008. – 52 b.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Tarjimon: O‘rinboyev A. – Toshkent: O‘zbekiston. 1996. – 528 b.
6. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406-yillar). / Mas’ul muharrir: Muhammad Ali; so‘z boshi va izohlar muallifi M. Safarov; tarj. O. Tog‘ayev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 264 b.
7. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq. 1997. – 384 b.

## TEMURIYLAR DAVRINING TARIXIY MEROSI VA UNING TURIZM RIVOJIDAGI AHAMIYATI

**Yunusov Diyorbek Ulug‘bek o‘g‘li,**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,**
**“Turizm va mehmondo‘stlik” yo‘nalishi 1-kurs talabasi,**
**fantomori11@gmail.com ,+998 97 544 84 80**

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy tezisda Temuriylar davrining tarixiy merosining turizm rivojiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilinadi. Tezisda O‘zbekistonning tarixiy shaharlari hamda Temuriylar davrida qurilgan inshootlar haqida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, Temuriylar hukmronligi davrida Yaqin Sharq va Hindiston hududlarida barpo etilgan tarixiy obyektlar ham ko‘rib chiqiladi. Temuriylar merosining tarixiy va ziyorat turizmi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri asoslab beriladi. Bundan tashqari, ushbu merosning turizm sohasining rivojlanishiga qo‘shgan hissasi haqida ham fikr yuritiladi. Tadqiqot natijasida Temuriylar davri merosi turizm rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligi xulosa qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar merosi, me‘moriy obidalar, temuriy uslub, dinniy inshoatlar, dekorativ elementlar, monumentallig.

**Аннотатция.** В данном научном тезисе анализируется влияние исторического наследия эпохи Тимуридов на развитие туризма. В тезисе приводится информация об исторических городах Узбекистана, а также о сооружениях, построенных в период правления Тимуридов. Кроме того, рассматриваются исторические объекты, возведённые в странах Ближнего Востока и Индии в период правления Тимуридов. Обосновывается влияние наследия Тимуридов на развитие исторического и паломнического туризма. Также рассматривается вклад данного наследия в развитие туристической отрасли. В результате исследования делается вывод о том, что наследие эпохи Тимуридов является одним из важных факторов развития туризма.

**Ключевые слова:** Наследие Тимуридов, архитектурные памятники, тимуридский стиль, религиозные сооружения, декоративные элементы, монументальность.

**Abstract.** This scientific thesis analyzes the influence of the historical heritage of the Timurid period on the development of tourism. The thesis provides information about the historical cities of Uzbekistan as well as the architectural structures built during the Timurid era. In addition, historical monuments constructed in the Middle East and India during the rule of the Timurids are also examined. The impact of the Timurid heritage on the development of historical and pilgrimage tourism is substantiated. Furthermore, the contribution of this heritage to the development of the tourism sector is discussed. As a result of the research, it is concluded that the heritage of the Timurid period is one of the important factors in the development of tourism.

**Key words:** Timurid heritage, architectural monuments, Timurid style, religious buildings, decorative elements, monumentality.

Samarqand qadimiy va boy tarixga ega shahar bo‘lib, uning tarixi taxminan 2750 yilga borib taqaladi. Qadimiyligi jihatidan u Rim, Afina va Bobil kabi mashhur shaharlar bilan tenglashtiriladi. Shahar Buyuk Ipak yo‘lining markazlaridan biri sifatida savdo, madaniyat va ilm-fan rivojida muhim rol o‘ynagan. Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand Movarounnahr poytaxti sifatida eng yuqori gullab-yashnash davriga yetdi. Bu davrda shaharsozlik keng qamrovli bo‘lib, buyuk hunarmandlar va me’morlar jalb qilindi. Samarqandning eng mashhur me’moriy obidalari Registon maydoni (XV–XVIII asr), Go‘ri Amir maqbarasi (XIV–XV asr), Bibixonim masjidi (1399), Shohizinda arxitektura majmuasi (XV–XVI asr), Ko‘k Saroy (XV asr), Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi (1428) va Ulug‘bek madrasasi (1417)dir. Qadimiy shahar markazi bo‘lgan Registon maydoni uch tomondan Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari bilan o‘ralgan bo‘lib, qadimda savdo, ilm-fan va ijtimoiy hayot markazi hisoblangan. Shuningdek, Amir Temur davrida Shahrisabz shahrida Oq Saroy (XV–XVI asr) barpo etilib, ularning me’moriy murakkabligi va nafisligi shaharni yanada jozibador qilgan. Temuriylar davrida qurilgan madrasa va ilmiy markazlar, xususan Mirzo Ulug‘bek madrasasi, oliy ta’limning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Diniy inshootlar – masjid, maqbara, minora va ziyoratgohlar – ko‘pincha yagona me’moriy majmuada bunyod etilib, nafaqat diniy, balki madaniy va turistik ahamiyatga ega bo‘lgan. Bugungi kunda ushbu yodgorliklar Samarqand va Shahrisabzning tarixiy merosini namoyon etadi va ularni Markaziy Osiyoning eng muhim turistik markazlariga aylantiradi. Bu borada bizning takliflarimiz:

1. Temuriylar davri merosining turizmga ta’siri bo‘yicha misollarni faqat yirik shaharlar bilan cheklamasdan, viloyat va qishloq darajasidagi tarixiy obidalarni ham kiritish.
2. Yodgorliklarning tarixiy yillari va qurilish sanalarini aniq ko‘rsatishda manbalarni belgilash.
3. Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Hindistondagi inshootlarning bir-biri bilan uslubiy bog‘lig‘ligini butun dunyoga ko‘rsatish.

Amir Temurning Yaqin Sharqqa bo‘lgan harbiy yurishlari davomida bog‘lar, fortifikatsiya va mudofaa inshootlari barpo etilgan bo‘lsa-da, Temuriylar me’moriy merosi asosan Movarounnahr hududida markazlashgan. Shu bilan birga, Eron va Iroq hududlarida temuriy uslubidagi gumbazlar, koshinli bezaklar va dekorativ elementlarning ta’siri kuzatiladi. Temuriylar Yaqin Sharq va Hindistonda o‘ziga xos me’moriy uslubni yoyib, zamonaviy masjid, maqbara, bog‘lar va saroylarni bunyod etgan.

Hindistonda Temuriylar avlodiga mansub Boburiylar tomonidan qurilgan inshootlar o‘z davrining eng yuksak me’moriy namunalari hisoblanadi. Jumladan, Toj Mahal (1632–1653), Humoyun maqbarasi (1565–1572), Dehli Qizil qal’asi (1638–1648), Bobur bog‘i (XVI asr) va Sholimar bog‘lari (XVI asr) o‘zining nafis gumbazlari, monumentalligi va estetik bezaklari bilan mashhurdir. Bu inshootlar Temuriylar me’morchiligining Yaqin Sharq va Hindistonda tarqalishini, shuningdek, ularning hududiy va madaniy ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi.

Temuriylar davri merosi bugungi kunda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo turizmining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Samarqand, Shahrisabz va Buxoro kabi shaharlar nafaqat tarixiy shaharlik obidalari bilan, balki ziyorat va madaniy turizm markazlari sifatida ham sayyohlarni jalb qiladi. Mashur yodgorliklar orqali Temuriylar davrining me’moriy uslubi, diniy va ilmiy merosi bilan yaqindan tanishadi. Madaniy turizm orqali shaharlar iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi, mahalliy hunarmandchilik va xizmatlar sohasini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy va tarixiy manbalar asosida aytish mumkinki, Temuriylar davrining meroslari sifatida nazar solingan inshoatlar ziyorat va tarixiy turizmning muhim obyektlari sifatida qabul qilindi. Aynan, Temuriylar davrining yodgorliklari bir nechta xududlarini o‘z ichiga oligan bo‘lib, xalqaro turizmning rivojida katta o‘rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. “TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARINING AHAMIYATI” Axmedova Madina
https://uzconferences.org/index.php/uzconf/article/view/1145/1109

2. “TEMURIYLAR DAVRINING MOVAROUNNAHRDAGI ME’MORIY YODGORLIKLARI TARIXI” Muxxabat Xamidova https://qashqadaryo-turizm.uz/uploads/file/1736896778.8021.pdf
10-30 betlar.
3. “SHAHRISABZ YUNESKO RO‘YXATIDA VA BUYERDAGI CHET ELLIK SAYOHATCHILAR” Nazarov Kamol, Jamolov Islom
http://www.wosjournals.com/index.php/medical/article/view/3516/3998
**4.** “Amir Temur Hindistonga yurishi” Bebitov Maqsud Abdirasulovich
https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temurning-hindistonga-yurishi/viewer **“TEMUR**

## “TEMUR TUZUKLARI”DA INKLYUZIV BOSHQARUV VA ADOLAT MEZONLARI: ZAMONAVIY DAVLATCHILIK UCHUN SABOQLAR.

**Tohirova Ruxshona Akbar qizi**
**Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti**
**Tarix ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Temur tuzuklari” asarida ilgari surilgan boshqaruv tamoyillari zamonaviy "inklyuziv boshqaruv" konsepsiyasi prizmasi orqali tahlil qilinadi. Amir Temur saltanatida jamiyatning barcha qatlamlari — olimlar, hunarmandlar, sipohiylar va oddiy fuqarolarning davlat manfaatlaridagi ishtiroki hamda adolat mezonlarini tadqiq etadi. Maqolada Sohibqironning kadrlar siyosati, ijtimoiy himoya va huquqiy tenglik borasidagi qarashlarining bugungi kunda Yangi O‘zbekiston davlatchiligini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Temur tuzuklari, inklyuziv boshqaruv, adolat mezonlari, ijtimoiy tenglik, davlatchilik, Amir Temur, boshqaruv san’ati, siyosiy vorisiylik.

**Аннотация:** В данной статье принципы управления, изложенные в «Уложениях Тимура», анализируются через призму современной концепции «инклюзивного управления». Автор исследует участие всех слоев общества — ученых, ремесленников, воинов и простых граждан — в интересах государства, а также критерии справедливости в империи Амира Темура. В статье обосновывается значимость взглядов Сахибкирана на кадровую политику, социальную защиту и правовое равенство в развитии современной государственности Нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** Уложения Тимура, инклюзивное управление, критерии справедливости, социальное равенство, государственность, Амир Темур, искусство управления, политическая преемственность.

**Abstract:** This article analyzes the management principles presented in the "Institutes of Timur" through the prism of the modern concept of "inclusive governance." The author explores the participation of all segments of society — scholars, artisans, soldiers, and ordinary citizens — in the interests of the state, as well as the criteria of justice in Amir Temur's empire. The paper substantiates the significance of Temur's views on personnel policy, social protection, and legal equality in the development of modern statehood in New Uzbekistan.

**Keywords:** Institutes of Timur, inclusive governance, criteria of justice, social equality, statehood, Amir Temur, art of administration, political continuity.

**KIRISH.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida davlat boshqaruvi va ijtimoiy adolat masalalari hamisha markaziy o‘rinda turgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish strategik maqsad qilib olingan bir davrda, tariximizdagi Ikkinchi Renessansning g‘oyaviy asosi bo‘lgan Temuriylar davlatchilik maktabini o‘rganish har qachongidan ham muhimroqdir. Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari nafaqat o‘rta asrlar diplomatiyasi va harbiy san’ati, balki zamonaviy siyosatshunoslik tili bilan aytganda, “inklyuziv boshqaruv” va “ijtimoiy adolat” mezonlarining mukammal namunasi hisoblanadi.

**Muammoning qo‘yilishi.** Ko‘pincha Temuriylar davri faqat harbiy g‘alabalar prizmasida talqin qilinadi. Biroq, davlatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlagan asosiy omil — bu jamiyatning barcha qatlamlarini (olimlar, tadbirkorlar, dehqonlar va harbiy toifalar) davlat

boshqaruviga bilvosita jalb etish va ularning manfaatlarini himoya qilish tizimi bo‘lgan. Ushbu maqolada aynan mana shu inklyuzivlik mexanizmlari va ularning zamonaviy demokratik boshqaruv tamoyillari bilan o‘xshash jihatlari tahlil qilinadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** “Temur tuzuklari”da bayon etilgan davlatni idora qilish qoidalarini bugungi kunning boshqaruv modellari bilan qiyoslash, undagi adolat mezonlarining Yangi O‘zbekiston davlatchilik konsepsiyasidagi o‘rnini ko‘rsatib berish hamda tarixiy saboqlarni zamonaviy siyosiy amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha xulosalar shakllantirishdan iborat.

**Metodologiya.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimlilik va mantiqiylik metodlaridan foydalanildi. Amir Temurning boshqaruv qarorlari zamonaviy institutsional boshqaruv nazariyalari asosida ko‘rib chiqildi.

**ASOSIY QISM.**

**1. Inklyuziv boshqaruv: Ijtimoiy qatlamlar integratsiyasi.** Amir Temur davlatni boshqarishda jamiyatning barcha 12 toifasiga tayanadi. Bu bugungi kundagi inklyuziv boshqaruv (jamiyatning barcha a’zolarini qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish) tushunchasining tarixiy ko‘rinishidir. Sohibqiron davlat ishlariga nafaqat harbiy amaldorlarni, balki olimlar, sayyidlar, kosiblar va savdogarlarni ham jalb qilgan.

Saboq: Davlatning barqarorligi uning faqat bir guruhga emas, balki butun xalq manfaatlariga xizmat qilishiga bog‘liq.

Tuzuklardan dalil: "Har bir tabaqaning ahvolidan voqif bo'ldim, har biriga munosib ish buyurdim".

Amir Temur davlat boshqaruvida inklyuzivlik (lotincha includo — "qamrab olaman", "ichiga olaman") tamoyilini o‘rta asrlar sharoitida o‘ta mahorat bilan qo‘llagan. Uning strategiyasi jamiyatning bir guruhini boshqasidan ustun qo‘yish emas, balki barcha qatlamlarning salohiyatini umumiy davlat manfaatlari yo‘lida birlashtirishga qaratilgan edi.

**1.1. Jamiyatning 12 toifasi — boshqaruvning tayanchi.** "Temur tuzuklari"da saltanatni tutib turuvchi 12 toifa (olimlar, shayxlar, amirlar, sipohiylar, hunarmandlar, savdogarlar va h.k.) alohida sanab o‘tiladi. Bu shunchaki ro‘yxat emas, balki funktsional boshqaruv tizimi edi.

Olimlar va fuzalolar: Strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy va huquqiy asoslarni yaratishgan.

Hunarmand va tadbirkorlar: Iqtisodiy barqarorlik va shaharlar infratuzilmasini ta'minlashgan.

Sipohiylar: Tashqi xavfsizlik va ichki tartib posbonlari bo'lgan.

Zamonaviy saboq: Bugungi kundagi "Davlat — jamiyat — inson" tamoyili Temur tomonidan 12 toifa o‘rtasidagi muvozanatni saqlash orqali amalga oshirilgan. Bu tabaqalanish emas, balki jamiyatning har bir a'zosiga o'z o'rni va mas'uliyatini berish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash edi.

**1.2. Kengash va "Mashvarat" — kollegial qarorlar qabul qilish.** Inklyuziv boshqaruvning eng muhim elementi — bu qarorlar qabul qilishda keng ommaning (yoki ularning vakillarining) fikrini inobatga olishdir. Temur o‘z tuzuklarida: "Har bir ishni kengashib qildim", deb ta'kidlaydi. Sohibqiron yirik yurishlar yoki davlat islohotlaridan oldin Qurultoy o‘tkazgan. Bu jarayonda nafaqat harbiy elitaga, balki diniy ulamolar va mahalliy oqsoqollarga ham so‘z berilgan. Bu uslub bugungi kundagi demokratik muhokama va jamoatchilik nazorati institutlarining tarixiy ildizidir.

**1.3. Meritokratiya va ijtimoiy lift.** Temur boshqaruvida inklyuzivlikning yana bir jihati — insonning kelib chiqishidan qat’i nazar, uning shaxsiy qobiliyati va xizmati munosib taqdirlanishidir. Oddiy askarning amirlik darajasiga ko‘tarilishi yoki iste’dodli yoshlarning madrasalarda davlat hisobidan o‘qitilishi "ijtimoiy lift" mexanizmining ishlashidan dalolat beradi. "Ishi tushgan har bir kishiga nisbatan munosib chora ko'rdim, hech kimni umidsiz qoldirmadim", — degan so‘zlar davlat boshqaruvida shaxsqadrini birinchi o‘ringa qo‘yishning yorqin namunasidir

**2. Adolat mezonlari: "Kuch — adolatdadir" tamoyili.**

"Temur tuzuklari"da adolat tushunchasi mavhum g‘oya emas, balki aniq huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Temur adolatni ikki yo‘nalishda qo‘llagan:

2.1. Ijtimoiy adolat: Soliqlarning og‘ir bo‘lmasligi, kambag‘allarga davlat xazinasidan yordam berilishi.

2.2. Huquqiy adolat: Jinoyat uchun jazo muqarrarligi, hattoki shahzoda va amirlarning ham qonun oldida javobgarligi.

Bu bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash va sud-huquq islohotlari bilan bevosita hamohangdir.

2.3. Zamonaviy davlatchilik uchun strategik saboqlar

“Tuzuklar” tahlili ko‘rsatadiki, zamonaviy davlat boshqaruvi samarali bo‘lishi uchun quyidagi uchta ustun zarur: Kengash (Konstitutsiyaviy institutlar): Qaror qabul qilishda jamoatchilik va ekspertlar fikrini inobatga olish. Intizom (Ijro nazorati): Qonunlar qog‘ozda qolmasdan, hayotda ishlashini ta’minlash. Bag‘rikenglik: Davlat boshqaruvida turli din va millat vakillariga teng imkoniyatlar yaratish.

**XULOSA.**

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Amir Temurning davlatchilik borasidagi qarashlari shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki bugungi kunning murakkab siyosiy va ijtimoiy muammolariga yechim bera oladigan strategik manbadir. O‘tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Strategik uzviylik: “Temur tuzuklari”da ilgari surilgan inklyuziv boshqaruv tamoyillari bugungi Yangi O‘zbekistonning “Inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oyasi bilan mohiyatan mushtarakdir. Bu esa mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini qurishda tarixiy tajriba va zamonaviy innovatsiyalarning sintezi muhimligini ko‘rsatadi.

2. Adolat — barqarorlik kafolati: Sohibqironning “Kuch — adolatdadir” shiori bugungi huquqiy davlat qurish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurash, sud mustaqilligi va qonun ustuvorligini ta’minlashda asosiy axloqiy va huquqiy mezon bo‘lib xizmat qilishi lozim.

3. Boshqaruvda meritokratiya: Temur tomonidan kadrlar tanlashda nasl-nasab emas, balki bilim va qobiliyatning (meritokratiya) birinchi o‘ringa qo‘yilishi, bugun raqobatbardosh davlat xizmati tizimini shakllantirishda muhim saboqdir.

Amaliy takliflar:

“Temur tuzuklari”dagi boshqaruv prinsiplarini oliy ta’lim muassasalarining “Davlat boshqaruvi” va “Menejment” yo‘nalishlarida maxsus modul sifatida o‘qitishni yanada kengaytirish.

Zamonaviy rahbar kadrlar tayyorlashda Temur qo‘llagan “Kengash va mashvarat” (kollegial qaror qabul qilish) madaniyatini zamonaviy Soft Skills (yumshoq ko'nikmalar) sifatida tatbiq etish.

Umuman olganda, Temuriylar davri Renessansining huquqiy-siyosiy poydevorini o‘rganish, milliy davlatchiligimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga va jamiyatda adolatli boshqaruv madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. (Tahrir hay’ati: A. O‘rinboyev va boshq.). Toshkent: "O'zbekiston", 2011.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2022.

3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent: "Sharq", 2000.

4. Ahmedov B. Amir Temur: Tarixiy ocherk. Toshkent: "Yozuvchi", 1995.

## “TEMUR TUZUKLARI” MILLIY DAVLATCHILIGIZ BOSHQARUVI NAMUNASI

**Tolibova Nilufar**
**NDU “Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (huquq ta`limi) mutaxassisligi” bo‘yicha 1-bosqich magistri**

Amir Temur davlatchilik an’analari umumilliy va umumbashariy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan sharqona demokratiya tamoyillari asosida boshqaruvga ega edi. Darhaqiat, Amir Temur o‘z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo‘ladi.Uning “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”,degan so‘zlari buning yorqin dalilidir [1].

Amir Temur o‘z davlatini aql-zakovati va huquqiy asoslari bilan idora etgan desak adolatdan bo‘ladi.Temur davlatni boshqarishda, idora etishda barcha jabhalarni o‘z nazoratiga olgan. Har bir

[1] “Temur tuzuklari”. Toshkent O`bekiston” 2014. .56 -bet

buyruq, farmon va ko‘rsatmalar ijrosini sinchikovlik bilan kuzatgan, tekshirgan. Bu haqda Amir Temur “Yana ajribamdan ko‘rib bildimki, davlat agar dinu oydin (qoida, qonun, tartib) asosida qurilmas ekan, to‘ratuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanat shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. [2]

XIV asrning II yarmida yurtimiz aholisi, ajdodlarimiz turmush tarzi og‘ir ahvolda, nomunosib holda edi. Xalq ko‘plab majburiyatlar va soliqlardan, ajnabiylar zulmidan jabr tortmoqda edi. Mana shunday og‘ir bir sharoitda Amir Temurning yagona markazlashgan davlat barpo etishi xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy ahvolini, turmush tarzini bir muncha yuksaklikka ko‘tardi. Sohibqiron Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etishi milliy davlatchiligimizga qo‘yilgan tamal toshi edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, xuddi shu davrdan boshlab milliy davlatchiligimiz asoslari, uning yangicha konsepsiyasi yaratila boshladi.

Amir Temur davlatining rivoji, xalqaro nufuzi va mavqei Sohibqironning yuksak darajadagi rahbarlik ma’naviyati va mas’uliyatidan dalolat beradi. Sohibqiron davlat boshqaruvining, idora tartiblarining o‘ziga xos yangicha yo‘nalishini qonun-qoidalar tizimin ishlab chiqdi. Mana shu qonunlar aossida o‘z davlatini idora etdi, ularni “Tuzuklar” shaklida kelajak avlodga ham oldirdi.

“Pirim Zayniddin Abubakr Toybodiy menga yozmishlarkim,-deb yozadi Amir Temur,- saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgan, ya’ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat’iy qaror; tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik”

Sohibqiron faoliyati tarixiga nazar solar ekanmiz, uning hayoti davomida bu to‘rt narsaga qat’iy amal qilganligini, hayotining asosiy mezoni deb bilganligiga guvoh bo‘lamiz. Amir Temur davlat ahamiyatiga molik bo‘lagn har bir ijtimoiy-siyosiy, diplomatik, madaniy, iqtisodiy ishlarni, tadbirlarni o‘z davrining ulug‘lari, ulamolari salohatli kishilari bilan maslahatlashib, kengashu mashvarat o‘tkazib hadya etgan.

Davlat rahbarida bo‘lishi lohim bo‘lgan xislatlar haqida to‘xtalib, Amir Temur o‘z “Tuzuklar” ida quyidagicha ta’kidlaydi:

Birinchidan, (podshoh) o‘z so‘ziga ega bo‘lsin, ishini o‘zi bilib qilsin, ya’ni raiyat podshosining aytgan so‘zini, qilgan ishini zi aytadi, o‘zi qiladi, hech kim aralasha olmaydi, deb bilsin.

Ikkinchidan,sulton har narsada adolatpesha bo‘lsin, qoshida insofli vazirlar saqlasin, toki podshoh zulm qilgudek bo‘lsa, odil vazir uning chorasini topsin.

Uchinchidan, butun mamlakatda buyruq - farmon berish ishlari podshoning o‘z ixtiyorida bo‘lishi lozim. Podshoh har ishda o‘zi hukm chiqarsin, toki hech kim uning hukmiga aralashib, o‘zgartira olmasin.

To‘rtinchidan, podshoh o‘z qarorida qat’iy bo‘lsin, ya’ni har qanday ishni qilishga qasd qilar ekan, to bitirmaguncha undan qo‘l tortmasin.

Beshinchidan, podshoh hukmi joriy etilishi (bajarilishi) darkor.

Oltinchidan, podsholik ishlarini tamoman boshqaga topshirib, erkini unga berib qo‘ymasin.

Ettinchidan, saltanat ishlarida har kimning so‘zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni qo‘ngil xazinasida saqlab vaqtida ishlatsin” [1] va boshqalar.

Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarishda, idora etishda barcha jabhalarni o‘z nazoratiga olgan. Har bir buyruq, farmon va ko‘rsatmalar ijrosini sinchikovlik bilan kuzatgan, tekshirgan. Bu haqda Amir Temur “Yana tajribamdan ko‘rib bildimki, davlat agar dinu oydin (qoida, qonun, tartib) asosida qurilmas ekan, to‘ratuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanat shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. SHuning uchun ham men o‘z saltanatim binosini dini islom, to‘ratuzuk asosida mustahkamladim. Saltanat boshqarishimida o‘rnatgan har qanday voqea va ishni to‘ra va tuzuk asosida bajardim “ [2] - deb ta’kidlaydi.

Amir Temur mas’ul davlat lavozimlariga ham oqil, ziyrak, bilimdon, xalq hurmatidagi kishilarni tanlab, saralab, sinovdan o‘tkazib tayinlagan. Ularning faoliyatlarini qattiq nazorat qilganligini bizgacha yetib kelgan manbalar isbotlaydi. Jumladan, M. Ivanin o‘zining “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur” asarida: “Shunday qilib oddiy jangchilar ham o‘nboshi va yuzboshi lavozimlariga erishishlari mumkin edi. Lekin oliy mansablarni egallash uchun yuzboshilar

[2] Shu yerda: T. “O`zbeiston”. 2014. 79-bet

[1] ‘Temur tuzuklari” Toshkent.”O`zbekiston”.2014.. 96-97-betlar.

[2] “Temur tuzuklari. T. 1991. 57-бет.

alohida xizmat ko‘rsatishlari yoki alohida qobiliyatga ega bo‘lishlari kerak edi” [3],- deb qayd etadi. Sohibqiron Amir Temur ham va u taynlagan davlat rahbarlari ham o‘z ishiga o‘ta mas’uliyat bilan yondashgankim, bu davlat juda tez rivojlanish pillapoyalaridan ko‘tariladi, kuchli markazlashgan davlatni vujudga keltiradi. Shuningdek, Amir Temur davlatida otaliq, arzbegi, munshiy, muftiy, muxatsib, xazinador, shayxulislom, sohib devon v.b. o‘ttizdan ortiq davlat xizmatidagi oliy lavozimlar faoliyat yuritgan [1].

Sohibqiron xos rahbar ma’naviy sifatlaridan yana biri shuki, ul zot doimo oddiy xalq-raiyat ahvolidan, turmush tarzidan ogoh, xabardor bo‘lib turgan. Oddiy avomga yetarli darajada g‘amxo‘rlik qilgan. Bu haqda bobokalonimiz ”Raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larni og‘a qatorida, kichiklarni farzand o‘rnida ko‘rdim” deb ta’kidlaydi. Abdurazoq Samarqandiyning fikricha: “Chungizxon qaysi shahar va viloyatniki bosib olgan bo‘lsa, na ul diyordan asar qoldi, na ulusidan xabar Hazrat Sohibqironning baxtiyor zamonida fath etilgan joylar esa nizochilar va dushmanlarning ixtiyoridan butunlay chiqdi va ul Hazrat (Temur) dargohidagi vakillar qo‘l ostiga o‘tdi.U joylar ahvoli oldingidan ancha yaxshiroq va obodonroq, xalqi esa tinch-totuv va xursanddirlar [2].

Amir Temur davlatni boshqarish, idora etish faoliyatida rahbar ma’naviyati va mas’uliyatiga alohida e’tibor qaratgan. Binobarin, bobomiz tomonidan qoldirilgan yuksak boy ma’naviy meros hisoblanmish «Temur tuzuklari» fikrimiz isboti bo‘la oladi. Sohibqiron davlat ishlarida asosiy ahamiyat kasb etuvchi vazir lavozimiga alohida e’tibor qaratgan. Hattoki, “Tuzuklar” da “Vazir tutish tuzugi” nomli alohida bob ham mavjud. Temur davrida davlatning markaziy ma`muriyati boshida, uning yonida arkbegi marosimlarni boshqaruvchi) hamda 4 vazir turardi:

Birinchi vazir - yer soliqllari, chegara bojlarini undirishhamda mirshablik ishlarini bajagan.

Ikkinchisi- askarlar maoshi va oziq-ovqat ta`minotlari bilan shug‘ullangan.

Uchunchisi –harbiylar, ularning lavozimu-mansablarga tayinlanishi va meros ishlariga qaragan.

To‘rtinchisi –saroy xarajatlarini boshqargan [3].

Sohibqiron Amir Temur fikricha: Vazirlar to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishlari lozim;

Birinchisi-asillik, toza nasllik;

Ikkinchisi-aql-farosatlilik;

Uchinchisi-sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan

hushmuomalada bo‘lishlik;

To‘rtinchidan-sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kimki shu to‘rt sifatga ega bo‘lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to‘rt imtiyoz: ishonch, e’xtibor, ixtiyor va iqtidor berilsin” [1].

AmirTemur o‘z davlatining yetakchisi, rahbari va oliy bosh qo‘mondoni, strateg sifatida ham qo‘shin tarkibiga, tartib-intizomiga va ayniqsa, yirik harbiy lavozim egalari faoliyatiga katta ahamiyat beradi.

Har bir harbiy mansabga biror kishini tayinlar ekan, uning nasl nasabi, bilimi, iqtidori, harbiy salohiyati hisobga olingan.”Qilich chopishda o‘zini ko‘rsatgan bahodirlarni, birinchi marta bo‘lsa-o‘nboshi, ikkinchi marotaba botirlik qilsa-yuzboshi, uchinchi marotaba esa mingboshi qilib tayinlagan” [2].

Lekin, qizil imperiya davri tarixshunosligi o‘z davrida faqatgina sohibqiron Amir Temurgagina xos bo‘lgan yuksak darajadagi rahbarlik ma’naviyati va mas’uliyati ham ayrim “haqgo‘y tarixchi” lar tomonidan noto‘g‘ri baholandi, noto‘g‘ri talqin qilindi. Vaholanki, Amir Temurga xos bo‘lgan davlat idora tartiblaridan, rahbarlik, yetakchilik faoliyatidan keyinchalik jahonning yirik davlat va jamoat arboblari. Davlat rahbarlari,podshohlar, xonlar, imperatorlar o‘z faoliyatida foydalanishgan.

---

[3] Ivanin M. .Ikki buyuk sarkarda: Chungizxon va Amir Temur.T. “FAN”.1994.132-bet.

[1] Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари. Т. «Шарқ», 2001. 52-55-бетлар.

[2] Shafiddin Ali Yazdiy.Zafarnoma.1qism.”Fan” nashriyoti.Toshkent .2022.16-bet.

[3] Muhammadjonov A.R.Temur va temuriylar saltanati.Toshkent.2008.36-bet.

[1] “Temur tuzuklari” . Toshkent. “O`zbekiston” 2014. 106-107-betlar

[2] “Temur tuzuklari”. T.1996. 55-bet

Amir Temur davlati boshqaruv tizimidagi rahbar ma’naviyati va mas’uliyatiga to‘xtalar ekanmiz, quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, Sohibqiron o‘z davlati miqyosida yangicha boshqaruv tartiblarini joriy etdi.Bu boshqaruv tartibi esa demokratik qonunchilik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan edi.

Ikkinchidan, Amir Temur davri davlatchilik tizimida dargoh va devon deb atalgan boshqaruv apparatlari, idoralari vujudga keldi. “Dargoh-bu eng oliy davlat idorasi edi” Uning tepasida Sohibqironning o‘zi turar edi.

Sohibqiron Amir Temur o‘z davlatchilik asoslarini yaratish, bunyod etish bilan birga, bu davlatni boshqarish va rahbarlik, yetakchi diplomatiya maktabini ham yaratdi. Amir Temur davriga xos va u tashkil etgan bu “rahbarlik maktabi” an’analari haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Balki,yanada kengroq ma’no - mazmun kasb etib, yangilanib, shakllanib modernizatsiyalashib bormoqda.

## AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI

**Navoiy Davlat Universiteti Iqtisodiyot**
**Fakulteti Turizm va Mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalsihi**
**102-guruh talabasi Toshpo‘latov Alibek Marufjon o‘g‘li**
**Ilmiy rahbar: Xalilov Xabib Hamidovich**

**Kirish.** XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og‘ir siyosiy davr va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o‘z zamonasning bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi.Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga krishdi.Bunday maqsadni amalga oshrishda u oqsoqollar harbiylar savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi.

Amir Temur davlat mustaqilligini va muhofaza yo‘lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo‘shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo‘shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi,navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat beradi. Sohibqiron intizomli qo‘shin tuzishga jang paytida qo‘shin qisimlarini oqilona boshqarishga jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan Dargoh va Vazrlik devondan iborat bo‘lgan.

Dargohni Oliy hukmdorning o‘zi boshqargan.Ijoriya hokimyati-devonni devonbegi bosh vazir boshqargan devonda harbiy vazir mulkchlik va soliq ishlari vaziri,moliya vaziri faoliyat yuritgan.Bulardan tashqari,sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi yana uch vazir bo‘ilb ular devon begiga hisobot berib turgan.

Sohibiqiron davlat boshqaruvi ishlarida Islom qonun-qoidalariga asoslangan.Uning Qur’oni karim va hadisi shariflariga munosabati samimiy va oliy darajada bo‘lgan.Payg‘amabar avlodlari,shayxul Mashoyixlarga hurmati cheksiz edi.

Amri Temurning harbiy yurishlari. Amir Temurning har bir harbiy yurishlariga turtki bo‘larlik sabablari Bor edi. Bu sabablar- o‘z davlatning chegaralarini mustahkamlash tashqi dushmanlardan himoyalanish, karvon yo‘llarini turli yo‘l to‘sarlardan tozalash xiyonatchi sotqin aldamchilarni jazolash bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish o‘zinig siyosiy ta’sirini kengaytrishdan iborat bo‘lganligini tarixiy manbalrdan bilib olish mumkun.

Amir Temurning tashqi siyosati Amir Temur davlati bilan Vizantiya, Turkiya ,Hindiston ,ispaniya , fransiya ,Angliya , Oltin o‘rda ,Mo‘g‘uliston , Xitoy kabi davaltlar Iqtisodiy,Siyosiy va madaniy aloqalar o‘rnatadilar. Sharqning eng katta davlatlaridan Xitoy bilan munosabatlar Amir Temur davrida bir qadar jidiylashib qolgan edi. Bunga Xitoy hukumdorlarining ulug‘ davlatchilik siyosati sabab bo‘lgandi Min iperatorlari Xitoyga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarni Xitoyga qaram mamlakatlar deb hisoblar edilar. Amir Temur nin elchilari va savdogarlari olib borgan sovg‘a-salomlarni esa o‘lpon deb atar edilar. Amir Temur ham xitoy elchilari bilan shunga yarasha

munosabata bo‘ldi. Klavixoning ma’lumotlariga qaraganda 1404-yilda Samarqandga kelgan Xitoy imperatorlarining elchilari boshqa mamlakat elchilaridan yuqoriroqa o‘tqazib qo‘yilgan ekan.Amir Temur buyrug‘iga ko‘ra ular ham boshqa mamlakat elchilari qatoridan o‘ziga yarasha joyga quyiroqa o‘tqazilgani malum bo‘ladi.

Sohibqiron Amir Temur jahon siyosiy hayotiga ham tasir ko‘rsatdi.Malumki bu davrda bir tomondan Sulton Boyazidning Bolqon yarimoroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib butun Yevropaga xaf solayotgan edi. Ikkinchi tomondan Boyazidning o‘zi G‘arbga tomon shiddat bilan siljib borayotgan xafli raqib-Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo‘lgan edi. Bunday siyosiy vziyatda Boyazidga qarshi kuchlarning ma’lum darajada birlashuvi tabiy edi. Avvalambor Boyazidan yengilib o‘z yer va mulklaridan mahrum bo‘lgan Kichik Osiyo mamlakatlarning hukmdorlari Amir Temurdan madad istab uning Qorabog‘dagi o‘rdagohiga borib qaror topdilar. Hatto Vizantiya va G‘latadagi Genuya hokimining noibi Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrning katolik missionerlari yordam so‘rab Amir Temurga murojat qldilar Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish hamda Konstantinopol va peraning Boyazidga to‘lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to‘lashga va’da qldilar Bunday taklif Amir Temurga ma’qul tushdi. Chunki Turkiyani dengiz sohilidagi tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. SHunday qilib XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Sulton Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi.Bu vaziyatdan Amir Temur ustalik bilan foydalanadi. Anqara yaqinida turklarning 160 ming kishilik qo‘shini ustidan qozonilgan buyuk g‘alabadan so‘ng Amir Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan bo‘lgan aloqalarning mazmuni tubdan o‘zgardi.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi.Hindiston, va Xitoydan, Qora denizga, qadar orol dengizidan, Fors qo‘ltig‘iga, qadar bo‘lgan g‘oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltrdi.Bundan tashqari Kichik Osiyo, Suriya Misr, Quyi Volga , Don bo‘ylari, Balxash ko‘li, va Elsuv daryosi, shimoliy Hindistongacha, bo‘lgan mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundrdi.U nfaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi balki bo‘ysindirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi.Bag‘dod Darband va Baylakon shaharlari shular jumlasidandr.Eng muhimi Eron,Ozarbayjon, va Iroqdagi, tarqoqlik va boshboshdoqlika barham berib, sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi qadimiy karvon yo‘llarini tikladi.Bu bilan nafaqat Movarounnahr balki Uzoq va Yaqin sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtrishga ulkan hissa qo‘shdi.

Amir Temur yevropaning Fransiya,Angliya,va Kastiliya,kabi yirik qiroliklari bilan bevosita savdo va diplomatic aloqalar o‘rnatdi.Siyosiy tarqoqlik tugatilib,markazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy oqibatlarga olib keldi.Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida tanazzulga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo‘jalikning asosi bo‘lgan sug‘orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro‘y berdi.Yangi yangi kanallar qazilib sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaydi.Hunarmandchlik ichki va tashqi savdo rivojlandi,fan va madaniyat ravnaq topib shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

Sohibqiron Amir Temur mashur davlat arbobi,mohir sarkarda sifatida O‘zbekistonda davlatchilikining yuksalishida muhim o‘rin tutadi.Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda ‘‘ Sohibi Jahon’’ hamda ‘‘Sohibi Adl-‘ ‘ Adolat Sohibi’’ nomlari bilan ulug‘lanadi.Xalqaro yunesko tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yilda Toshkent Samarqand va Xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi va shu yili O‘zbekistonda ‘ ‘ Amir Temur yili’’ deb elon qilindi

1402-yilda Jahonga ayniqsa Bolqon yarimoroli hamda Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarga tahdid slogan Turkiya sultoni Boyazid I Yildirim tor-mor keltirilgandan so‘ng Fransuzlar Amir Temurning oltindan haykalchasini quydirib ostiga ‘ ‘Yevropa xaloskoriga’’ deb yozdirib qo‘yilgan ekan.

Yevropa olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi XVI asrdan boshlangan edi 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida italiyalik olim Perondinoning ‘ ‘Skifyalik Tamerlaning ulug‘vorligi’’asari bosib chiqdi.Bu yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti edi.Ushbu asarda Ispan Tarixchisi Pero Meksikaning ‘ ‘Buyuk Temur tarixi’’ chop etiladi.1582-yili Seveliyada mashhur Ispaniya elchisi Klavixoning ‘ ‘ Esdaliklar’’ kitobi nashrdan

chiqdi.Ingliz dramaturgi Xristofor Morloning ‘ ‘Buyuk Temur’’ nomli sahna asari ham shu asrda yaratldi.

SHo‘rolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib bir yoqlama baho berib kelindi. SHunga qaramasdan1968-yilda Faylasuf olim I.M.Mo‘minovning ‘ ‘Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli risolasini nashr etilishi jamoatchilikning bu mavzuga qiziqishini yanada avj oldirib yubordi.Asar keskin tanqidga uchradi.Ammo I.M.Mo‘minovning Amir Temur shaxsini o‘rganish tashabbusi bilan chiqishi bu uning ilmiy jasorati va yuksak vatanparvarlik fazilatining yorqin ifodasi bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqilika erishgandan so‘ng O‘zbekistoning Birinchi Prezidenti Islom Karimov sa’y-harakati bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni o‘z joyiga qo‘yila boshlandi.

Xulosa

Amir Temur Markaziy Osiyo va yevropa o‘rtasida savdo yo‘llarini tikladi diplomatik aloqalarni kuchaytirdi siyosiy muvozanatga ta’sir ko‘rsatdi madaniy almashinuvni rivojlantrdi.Amir Temur faoliyati natijasida Markaziy Osiyo oddiy hudud emas balki SHarq va G‘arbni bog‘lovchi strategic ko‘prika aylandi U faqat urushlar orqali emas balki xafsiz savdo muhitini yaratish xalqaro diplomatiyalarni rivojlantrish yirik shaharlarni tiklash va obod qlish orqali ham tarixda muhim iz qoldirdi

Amir Temur resorted trade routes between Central Asia and Europe,strenghtend diplomatic relations influenced political balance and promoted cultural exchange.As a result of his activities Central Asia became not just an ordinary region but a strategic bridge connecting the East and the West.He left an important mark in history not only through wars but also by creating a safe trade environment developing international diplomacy and rebuilding and improving major cities.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Tarixi 7-SINIF 2017

## РОЛЬ АМИРА ТЕМУРА В СТАНОВЛЕНИИ УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ И СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ.

**Турсунова Муслима Зохиджон кизи**
**Андижанский государственный институт иностранных языков 1-курс**

**Аннотация:** В данной статье анализируется вклад Амира Темура в формирование основ национальной государственности. Особое внимание уделяется его принципам управления, изложенным в «Уложениях Темура», и их значению для развития централизованного государства в Мавераннахре. Рассматривается синтез светского права и духовных ценностей в его политике.

**Ключевые слова:** Амир Темур, государственность, Тузлаки, управление, Мавераннахр, централизованное государство, справедливость.

**Abstract:** This article analyzes the contribution of Amir Temur to the formation of the foundations of national statehood. Particular attention is paid to his principles of governance, set forth in the "Temur's Institutes" (Tuzuk-i Temuri), and their significance for the development of a centralized state in Maverannahr. The synthesis of secular law and spiritual values in his policy is examined.

**Keywords:** Amir Temur, statehood, Tuzlaki (Institutes), governance, Maverannahr, centralized state, justice.

**Введение:** Личность Амира Темура занимает центральное место в истории мировой цивилизации и, прежде всего, в истории узбекской государственности. Создав одну из самых могущественных империй XIV-XV веков, Темур не просто объединил разрозненные земли, но и заложил прочный фундамент административного, правового и военного управления. Его политическое наследие актуально и сегодня, когда независимый Узбекистан строит фундамент Третьего Ренессанса.

**Основная часть:**Становление государственности в эпоху Амира Темура представляло собой сложный процесс трансформации разрозненных территорий в единый политический и

экономический организм. Анализируя его деятельность, следует подчеркнуть, что Темур не просто восстановил границы былого могущества региона, но и создал принципиально новую модель управления, в которой гармонично сочетались нормы исламского права (шариата) и древние традиции управления (яса). Центральным элементом этой системы стало утверждение приоритета закона над личной волей правителя, что для XIV века было революционным шагом в политической мысли Востока.В основе его государственного строительства лежала идея строгой централизации. В «Уложениях» Сахибкиран подробно описывает механизмы сдержек и противовесов, которые не позволяли местным правителям злоупотреблять властью. Он внедрил уникальную систему отчетности чиновников, при которой каждый назначенный хаким или визирь нес персональную ответственность не только перед правителем, но и перед народом. Темур понимал, что прочность империи напрямую зависит от благосостояния подданных, поэтому налоговая система была глубоко реформирована.Вместо произвольных поборов была введена четкая структура налогообложения, основанная на доходности земель и возможностях населения, что стимулировало развитие земледелия и ремесел.Особую роль в укреплении узбекской государственности сыграл институт Кенгаша (совета). Несмотря на неограниченную власть, Амир Темур придавал огромное значение интеллектуальному и духовному потенциалу своего окружения. В структуру управления были интегрированы ученые, правоведы и теологи, что позволяло принимать решения, учитывающие долгосрочные интересы общества. Это способствовало превращению Самарканда в интеллектуальный центр мира, где политическая мощь подкреплялась научным прогрессом.Военная структура также была неразрывно связана с гражданским управлением. Армия Темура строилась по десятичной системе, однако инновацией стало то, что военные чины одновременно выполняли административные функции в мирное время, обеспечивая порядок и безопасность на Великом Шелковом пути. Это создавало условия для беспрепятственного движения караванов, что в свою очередь наполняло казну и укрепляло международный авторитет государства.Более того, Амир Темур уделял пристальное внимание социальной справедливости как гаранту стабильности. Он создал систему социальной защиты, при которой бедные и нуждающиеся могли рассчитывать на государственную поддержку. Строительство мечетей, медресе и больниц рассматривалось не только как акт благочестия, но и как важнейшая государственная задача по формированию просвещенного общества. Именно этот синтез сильной власти, развитой экономики и высокой духовности стал фундаментом того, что мы сегодня называем эпохой Темуридского Ренессанса.

**Заключение:**Подводя итог комплексному анализу государственной деятельности Амира Темура, можно с уверенностью утверждать, что созданная им система управления стала уникальным явлением в истории мировой цивилизации. Сахибкиран сумел совершить сложнейший переход от децентрализованной феодальной раздробленности к строго иерархичному, правовому и социально ориентированному государству. Его наследие — это не только обширные территории, но и прежде всего интеллектуальная модель государственности, в которой политическая воля правителя была неразрывно связана с этическими нормами и интересами народа.Опыт Амира Темура в области административного управления наглядно демонстрирует, что устойчивость великой державы невозможна без трех ключевых факторов: верховенства закона, развитой экономической инфраструктуры и опоры на науку и просвещение. Внедренные им механизмы «Кенгаша» (совещательности) и жесткого контроля над исполнительной властью предвосхитили многие современные принципы государственного менеджмента. Темур доказал, что справедливость является не абстрактной моральной категорией, а эффективным экономическим и политическим инструментом: именно чувство защищенности подданных позволило Мавераннахру стать мировым торговым и культурным центром.Международное значение политики Темура также трудно переоценить.

**Список Использованные литературы:**

1.Амир Темур. Уложения Темура / Сост. и автор предисловия Б. Ахмедов. — Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1991. — 144 с.

2.Ахмедов Б. А. Амир Темур: Историко-биографический очерк. — Ташкент: Узбекистан, 1996. — 256 с.

3.Клавихо, Руи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Пер. с древнеисп. И. С. Мироковой. — Москва: Наука, 1990.

4.Шараф ад-Дин Али Йазди. Зафар-наме (Книга побед) / Перевод со староузбекского д.и.н. А. Ахмедова. — Ташкент: San’at, 2008.

5.Арабшах Ибн. История Амира Темура (Аджаиб ал-макдур фи наваиб ал-Тимур). — Ташкент: Фан, 2007.

6.Yuldashev S. Socio-philosophical views of Amir Temur and their importance in the development of statehood // Academic Research in Educational Sciences. — 2021. — Vol. 2. — Issue 1.

7.Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati va davlat boshqaruvi san’ati. — Toshkent: O‘zbekiston, 2013.

8.Sultonov O. Amir Temur davlatida moliya va soliq tizimi. — Toshkent: Sharq, 2004.

9.Каримов И. А. Амир Темур — наша гордость. — Ташкент: Узбекистан, 1996.

## AMIR TEMUR BOG‘LARI ME’MORCHILIGI

**Umarova Ruxshona Jamshid qizi**
**Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti**
**Tarix ta’lim yo‘nalishi talabasi**

**ANNOTATSIY:** Ushbu maqolada Amir Temur davrida Movarounnahrda bog‘dorchilik san’atining yuksalishi, Sohibqiron tomonidan Samarqand atrofida barpo etilgan o‘n ikkita yirik bog‘ning tarixiy va me’moriy tahlili keltirilgan. Tadqiqot davomida "Chorbog‘" uslubining geometrik asoslari, bog‘larning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati hamda ularning davlat diplomatiyasidagi o‘rni o‘rganilgan. Maqolada tarixiy manbalar (Klavixo, Yazdiy esdaliklari) asosida bog‘larning ichki tuzilishi, saroylar arxitekturasi va o‘sha davr landshaft dizaynining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Amir Temur, Samarqand, Chorbog‘, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Nav, landshaft arxitekturasi, Temuriylar renessansi, Klavixo, me’moriy simmetriya.

### TEMURIYLAR RENESSANSI DAVRIDA SHAHARSOZLIK VA BOG‘DORCHILIK SAN’ATI

Ushbu bobda XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Movarounnahrda yuz bergan madaniy yuksalish, Amir Temurning shaharsozlik siyosati va bog‘dorchilikning

estetik hamda falsafiy asoslari ko‘rib chiqiladi.

. Amir Temur davlatida bog‘dorchilikning siyosiy va ijtimoiy o‘rni Amir Temur saltanati nafaqat harbiy g‘alabalar, balki ulkan qurilishlar va madaniy islohotlar davri sifatida tarixga kirdi. Sohibqiron poytaxt Samarqandni dunyoning eng go‘zal shahriga aylantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu rejada bog‘lar markaziy o‘rinni egallagan.

**Siyosiy ahamiyati:**

Temuriylar davrida bog‘lar shunchaki hordiq chiqarish maskani emas, balki "ochiq osmon ostidagi saroylar" vazifasini o‘tagan. Amir Temur muhim davlat qarorlarini qabul qilishda, chet el elchilarini kutib olishda va harbiy kengashlar (qurultoylar) o‘tkazishda aynan mana shu bog‘lardan foydalangan. Masalan, 1404-yilda Kastiliya elchisi Klavixo sharafiga berilgan katta ziyofat "Kanigil"

tekisligidagi bog‘da tashkil etilgani manbalarda keltiriladi.

Bu orqali saltanatning boyligi, qudrati va madaniyati namoyish etilgan.

**Ijtimoiy-iqtisodiy roli:**

Sohibqiron barpo etgan bog‘lar shahar aholisi uchun ham ochiq bo‘lgan (ayrim kunlarda). Bog‘lardagi meva-chevalar aholiga ulashilgan, bu esa hukmdor va xalq o‘rtasidagi ijtimoiy bog‘liqlikni mustahkamlagan. Shuningdek, bog‘lar

atrofida sug‘orish tizimlarining (kanallar va ariqlar) rivojlanishi qishloq xo‘jaligining yuksalishiga xizmat qilgan.

"Chorbog‘" uslubining vujudga kelishi va falsafiy

asoslari Temuriylar bog‘dorchilik san’atining asosi "Chorbog‘" (forscha "to‘rt bog‘") kompozitsiyasidir. Bu uslub qadimiy Sharq an’analari va Islom falsafasining uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lgan.

**Geometrik aniqlik va ramziylik:**

Chorbog‘ uslubiga ko‘ra, bog‘ hududi ikki kesishgan suv yo‘li yoki xiyobon orqali to‘rtta teng qismga bo‘lingan. Bu "to‘rt" raqami dunyoning to‘rt tomonini va Islomdagi jannat tasvirini (to‘rtta anhor: suv, sut, sharob va asal daryolari)

ramziy ma’noda aks ettirgan.

**Bog‘ tarkibiy qismlari:**

Markaziy Kushk (Saroy): Bog‘ning aynan o‘rtasida yoki eng yuqori nuqtasida hashamatli qasr joylashgan. Bu qasrlar ko‘pincha ikki yoki uch qavatli bo‘lib, devorlari koshin, tilla suvi va ganchkorlik bilan bezatilgan.

Suv tizimi: Har bir bog‘da oqar suv bo‘lishi shart edi. Suv harakati (sharsharalar, favvoralar) havo haroratini mo‘tadillashtirishga va estetik zavq berishga xizmat qilgan.

. O‘simliklar olami: Bog‘larda daraxtlar qat’iy tartibda ekilgan. Masalan, baland bo‘yli sarv va chinorlar soya berish va shamoldan himoya qilish uchun chetki yo‘laklarga, mevali daraxtlar esa ichki qismlarga ekilgan. Gullar (atirgul,lola, binafsha) esa alohida gulzorlarda (parterlarda) yetishtirilgan.

## SAMARQANDNING “YOQUT UZUGI”: MASHHUR BOG‘LAR TAHLILI

Ushbu bobda Amir Temur tomonidan barpo etilgan va Samarqandning shon-shuhratini dunyoga yoygan eng mashhur bog‘-saroy majmualari batafsil ko‘rib chiqiladi. Har bir bog‘ o‘ziga xos me’moriy yechimga va ijtimoiy vazifaga ega bo‘lgan.

. Bog‘i Dilkusho (Ko‘ngil ochuvchi bog‘) 1397-yilda Sohibqironning suyukli xotini To‘qal xonim sharafiga bunyod etilgan. Bu bog‘ Samarqandning sharqida, Panjakent yo‘li yoqasida joylashgan. Bog‘ga ulkan va baland peshtoqli darvozadan kirilgan. Darvozaning to‘rt burchagida minoralar bo‘lib, ular moviy koshinlar bilan bezatilgan. Bog‘ markazida uch qavatli muhtasham saroy qad ko‘targan.

Klavixoning yozishicha, saroyning ichki devorlariga Temurning Hindiston yurishi va g‘alabalari aks etgan suratlar ishlangan. Bu o‘sha davrda monumental rassomlik san’atining yuksak namunasidir.

Bog‘i Dilkusho asosan xorijiy elchilarni qabul qilish va tantanali ziyofatlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

. Bog‘i Nav (Yangi bog‘)

Samarqandning janubiy qismida, hozirgi Lochar mahallasi atrofida joylashgan. 1404-yilda qurib bitkazilgan.

Bog‘ to‘rtburchak shaklida bo‘lib, har birtomoni taxminan 1,5–2 kilometrni tashkil etgan. Bu bog‘ning hajmi o‘sha davrdagi ko‘plab Ovrupo shaharlaridan kattaroq bo‘lgan

Bog‘ning markazida ulkan hovuz bo‘lib, uning atrofida mramor bilan qoplangan ariqlar oqqan. Saroyning ichida ham kichik favvoralar bo‘lib, ular yozning jaziramasida salqinlik baxsh etgan.

Bu bog‘ "Yangi bog‘" deb atalishi bilan birga, u Temurning so‘nggi yillardagi me’moriy orzularining cho‘qqisi edi.

. Bog‘i Baland. Bu bog‘ Samarqandning shimoliy qismida, Cho‘ponota tepaligi yaqinida joylashgan. Uning nomi bejiz "Baland" emas, chunki u baland adirlikda bunyod etilgan bo‘lib, u yerdan butun Samarqand kaftdek ko‘rinib turgan.

Bu bog‘ boshqalaridan o‘zining anjirzorlari va uzumzorlari bilan ajralib turgan. Bog‘da yetishtirilgan anjir butun Movarounnahrda mashhur bo‘lgan. Qurilish uslubi: Bu bog‘da Tabriz, Sheroz va Isfaxonlik usta me’morlar mehnat qilgan. Bu esa Temuriylar bog‘larining "Xalqaro uslub" ekanligini ko‘rsatadi.

Bog‘i Shamol va Bog‘i Chinor Bog‘i Shamol: Temurning nabirasi uchun qurilgan bo‘lib, havo aylanishi (shamol yo‘nalishi) hisobga olingan holda loyihalashtirilgan. Saroy to‘rtburchak shaklda bo‘lib, burchaklari qimmatbaho mramor va lojuvard bilan bezatilgan.

Bog‘i Chinor: Markazida ko‘p asrlik chinorlar bo‘lgan ushbu bog‘da Temur ko‘proq oilaviy davralarda bo‘lishni va kitob

mutolaa qilishni xush ko‘rgan

Ushbu bobda Amir Temur bog‘larining xalqaro maydondagi nufuzi, bu maskanlarda o‘tkazilgan tarixiy uchrashuvlar va xorijiy sayyohlarning ushbu bog‘lar haqidagi xotiralari tahlil qilinadi.

Bog‘lar — Oliy darajadagi diplomatik qabullar maskani Amir Temur o‘zining tashqi siyosatida bog‘lardan "yumshoq kuch" (soft power) sifatida foydalangan. O‘sha davr an’anasiga ko‘ra, eng muhim davlat kelishuvlari va elchilarni qabul qilish marosimlari yopiq qasrlarda emas, balki keng va muhtasham bog‘larda o‘tkazilgan. Elchilarning hayrati: 1404-yilda Kastiliya qiroli Genrix III ning elchisi Ruy Gonsales de Klavixo Samarqandga kelganida, uni aynan Bog‘i Dilkusho va Kanigil bog‘larida kutib olishadi. Uning yozishicha, bog‘lardagi chodirlar ipak va oltin iplar bilan bezatilgan bo‘lib, Ovrupo monarxlari bunday hashamatni tasavvur ham qila olmasdi.

Siyosiy muloqot markazi: Bog‘larda nafaqat bayramlar, balki harbiy kengashlar — qurultoylar ham o‘tkazilgan. Masalan, Xitoy yoki Oltin O‘rda bilan bog‘liq strategik rejalar ko‘pincha Bog‘i Nav hovuzlari bo‘yida muhokama qilingan.

. Sayyohlar va tarixchilar nigohida Temuriy bog‘lar Temuriy bog‘larning tavsifi nafaqat mahalliy tarixchilar (Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh), balki g‘arb sayyohlarining asarlarida ham keng o‘rin olgan.

Ibn Arabshohning tanqidi va tan olishi: Temurga nisbatan tanqidiy ruhda bo‘lgan Ibn Arabshoh ham o‘z asarlarida Samarqand atrofidagi bog‘larning go‘zalligini, mevalarining shirinligi va suvlarining tiniqligini tan olishga majbur

bo‘lgan.

Klavixo kundaliklari: Klavixo bog‘lardagi sug‘orish tizimini alohida ta’riflaydi. Uning yozishicha, bog‘lardagi suv quvurlari shunday ishlangan ediki, suv saroyning ichidan oqib o‘tib, tashqarida favvoralar hosil qilgan. Bu esa o‘sha davr muhandislik san’atining cho‘qqisi edi.

. Bog‘ — Adolat va farovonlik ramzi sifatida Temuriy bog‘lar falsafasida bog‘ning obodligi — mamlakatning obodligiga tenglashtirilgan.

. Xalq uchun ochiqlik: Katta tantanalar va to‘ylar paytida (masalan, Temurning nabiralari uylanganida) bog‘lar darvozasi xalq uchun ochilgan. Minglab odamlar uchun dasturxonlar yozilgan.

.Tabiatga munosabat:

Temur "Tuzuklar"ida ta’kidlaganidek, "qay bir joyda bir daraxt kessalar, o‘rniga o‘nta ko‘chat ekilsin". Bu qoida bog‘larning doimiy yashnab turishini ta’minlagan.

**XULOSA**

Amir Temur tomonidan barpo etilgan bog‘larni o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: 1.Strategik shaharsozlik: Sohibqiron Samarqand atrofida bog‘lar zanjirini yaratish orqali dunyoda ilk bor "bog‘-shahar" konsepsiyasini amalda qo‘llagan. Bu bog‘lar nafaqat poytaxtning ekologik holatini yaxshilagan, balki uni tashqi hujumlardan himoya qiluvchi yashil qalqon vazifasini ham o‘tagan.

. Madaniy sintez: Temuriylar bog‘lari o‘z davrining turli madaniyatlari (eroniy simmetriya, turkiy ko‘chmanchi chodirsozlik va islomiy geometriya) uyg‘unlashgan makon edi. Bu uslub keyinchalik Hindistonda Boburiylar, Eronda Safaviylar bog‘dorchilik san’atiga poydevor bo‘ldi.

. Diplomatik platforma: Bog‘lar o‘sha davr xalqaro siyosatining markazi bo‘lib, undagi hashamat va tartib orqali davlatning qudrati namoyish etilgan. Klavixo kabi sayyohlarning hayrati bu diplomatiyaning muvaffaqiyatidan dalolat beradi.

. Tabiatga ehtirom: Temuriy bog‘lar falsafasi inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatga asoslangan. Sug‘orish tizimlari, mevali va manzarali daraxtlarning tanlanishi o‘sha davrda agrotexnika va irrigatsiya san’ati yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi.Xulosa qilib aytganda, Amir Temur bog‘lari shunchaki tarixiy meros emas, balki bugungi zamonaviy landshaft arxitekturasi va urbanistika uchun ham boy tajriba manbaidir

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. (Har qanday nashri) – Toshkent: O‘zbekiston.

2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 2003.

3. Ruy Gonsales de Klavixo. Samarqandga — Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406). – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoyib al-maqdur fi tarixi Temur). – Toshkent: Mehnat, 1992.

5. Pulat Zohidov. Temur davrining me’moriy jahonnamo. – Toshkent: Qomuslar tahririyati, 1996.

6. G.A. Pugachenkova. Srednyaya Aziya. Spravochnikputevoditel. – Moskva: Iskusstvo, 1983.

7. Edward A. Allworth. The Timurids in Transition: TurkoPersian Politics and Acculturation in Medieval Central Asia. – Brill, 1994.

8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (Tegishli jildlar va "Amir Temur bog‘lari" maqolasi).

## MARSEL BRIONNING AMIR TEMUR HAYOTI VA IJODI HAQIDAGI QARASHLARI

**Navoiy Davlat Universiteti talabasi**
**Xakimova Durdona To‘lqin qizi**
**xdurdona061@gmail.com**
**+998900886605**

***Annotatsiya:*** Fransuz temurshunoslari yozgan asarlar qatoriga professor Marsel Brionning[198] kitoblari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, uning Amir Temur to‘g‘risida yozilgan asarlari orasida mukammalligi bilan ajralib turadigan “Menkim Sohibquron-Jahongir Temur”. Mazkur kitob Sohibqironning dunyoga kelishidan to vafotiga qadar bo‘lgan davrni qamrab olib, voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Ushbu asarning dovrug‘i, dunyoga yoyilishining boisi, Jahongir bobomiz shaxsi, uning hayoti, faoliyati, siyosiy va harbiy sohalarda tutgan yo‘liga oid boy, xilma-xil ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olganidir. Zero, bunday mufassal ma’lumotlar Amir Temur tarixidan so‘zlovchi boshqa nasriy manbalarda kam uchraydi. Muallif asarni o‘zgacha ishtiyoq va qunt bilan sodda uslubda yozganiga amin bo‘lasiz.

***Kalit so‘zlar:*** Sohibqiron , Marsel Brion, temuriylar ,Yevropa, fors, boshqaruv, harbiy strategiya, Samarqand, adolat, hukmdor, arbob, jang, ilm-fan, ulamolar, g‘alaba, san’at, mehnat, sarkarda

***Аннотация***: Среди трудов французских иронологов особое место занимают книги профессора Марселя Бриона. В частности, среди его произведений об Амире Темуре «Менким Сохибкурон-Джахонгир Темур» выделяется своей завершенностью. В этой книге охватывается период от рождения Сахибкирана до его смерти, и события повествуются от имени Амира Темура. Причина популярности этого произведения и его всемирного распространения заключается в том, что оно содержит богатую и разнообразную информацию о личности нашего деда Джахонгира, его жизни, деятельности, его пути в политической и военной сферах. Ведь столь подробные сведения редко встречаются в других прозаических источниках, повествующих об истории Амира Темура. Вы убедитесь, что автор написал произведение в простом стиле, с особой страстью и старанием.

***Ключевые слова:*** Сахибкиран, Марсель Брион, Тимуриды, Европа, Персия, управление, военная стратегия, Самарканд, правосудие, правитель, деятель, битва, наука, ученые, победа, искусство, труд, полководец

***Abstract:*** Among the works written by French Timur scholars, the books of Professor Marcel Brion occupy a special place. In particular, among his works about Amir Timur, “Menkim Sohibquron-Jahongir Temur” stands out for its perfection. This book covers the period from the birth of Sahibqiran to his death, and the events are narrated on behalf of Amir Timur. The timeliness of this work, the reason for its spread throughout the world, is that it contains rich and diverse information about the personality of our grandfather Jahongir, his life, activities, and his path in the

[198] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Marsel_Brion

political and military spheres. After all, such detailed information is rarely found in other prose sources telling about the history of Amir Timur. You will be sure that the author wrote the work in a simple style with special enthusiasm and diligence.

***Keywords***: Sahibkiran, Marcel Brion, Timurids, Europe, Persia, governance, military strategy, Samarkand, justice, ruler, figure, battle, science, scientists, victory, art, work, commander

**"Shaxsan men sohibqiron bobomiz bizga meros qilib**
**qoldirgan "Tuzuklarni" o'qisam xuddiki o‘zimga**
**qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman".**
*O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti*
*Islom Karimov*

**Kirish**

Sohibqiron Amir Temur haqida asarni yozishdan oldin Marsel Brion Temur shaxsi va temuriylar davri bo‘yicha Amerika va Yevropaning ilmiy doiralari ekspeditsiya ma’lumotlari asosida “Tamerlan” asarining birinchi tahririni 1942-yili, Zabuillohxon Mansuriyning fors tiliga o‘girgan “Temur tuzuklari” asosida to‘ldirilgan va qayta ishlangan “Menkim, Sohibqiron — jahongir Temur” romanni 1963 yili chop etgan. Qisman Zabuilloh Mansuriy bilan hamkorlikda yozilgan kitobda Brion, eng avvalo, Amir Temur tuzuklaridan va Sohibqironga zamondosh bo‘lgan Ibn Arabshoh, Ibn Xaldun, Sharafiddin Ali Yazdiy, Sultoniya shahri yepiskopi Ioann de Galonifontibus , Kastiliya qiroli elchisi Rui Gonzales de Klavixo, fransuz marshali Jan II le Mengr (Busiko ) asarlaridan keng foydalangan. Mazkur kitob Sohibqironning dunyoga kelishidan to vafotiga qadar bo‘lgan davrni qamrab olib, voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi.

**Asosiy qism**

Quyida Amir Temur haqida yevropalik tarixchilarning fikrlari asosida ilmiy maqola uchun aniq va ishonchli ma’lumotlarni keltirilgan. Ularning asarlarida Temur shaxsiyati, harbiy iste’dodi, davlat boshqaruvi va madaniyatga qo‘shgan hissasi turli yo‘nalishlarda tahlil qilingan. Har bir fikr muallifi va manbasi bilan tahlil qilingan.

Yevropa tarixchilarining Amir Temur haqidagi fikrlari:

1. Harold Lamb (AQSH, XX asr)

Asari: Tamerlane: The Earth Shaker (1928)[199]

Harold Lamb Temurni «Yer silkituvchi» deb atagan va uni o‘z davrining eng kuchli sarkardalaridan biri sifatida tasvirlagan:

-“Temur janglarda yurish strategiyasini Napoleon darajasida olib borgan, biroq u shunchaki zabt etuvchi emas, balki o‘z davlati uchun mustahkam siyosiy poydevor yaratgan davlat arbobi edi.”

2. René Grousset (Fransiya, XX asr)

Asari: L’Empire des steppes (1939)[200]

Grousset Temurni Markaziy Osiyoda uyg‘onish bosqichiga olib kelgan strateg va madaniyat himoyachisi deb hisoblaydi:

-“Temur Sharqiy islom olamida ilm-fan va san’atni tiklagan, u nafaqat harbiy, balki madaniy me’rosni saqlab qolgan arbob edi.”

3. Edward Gibbon (Buyuk Britaniya, XVIII asr)

Asari: The History of the Decline and Fall of the Roman Empire[201]

Gibbon Temurni islom dunyosining qudratli arboblaridan biri sifatida tasvirlaydi, lekin uning shafqatsizligini ham qayd etadi:

- “Temurning harbiy yurishlari dahshatli bo‘lgan. Ammo bu yurishlar yovvoyi g‘araz bilan emas, balki aniq siyosiy maqsadlar asosida olib borilgan.”

4. Peter Jackson (Buyuk Britaniya, XXI asr)

Asari: The Mongols and the Islamic World: From Conquest to Conversion (2017)[202]

[199] https://www.fadedpage.com/showbook.php?pid=20200628
[200] https://fr.wikipedia.org/wiki/L%27Empire_des_steppes
[201] https://en.wikipedia.org/wiki/The_History_of_the_Decline_and_Fall_of_the_Roman_Empire
[202] https://www.jstor.org/stable/j.ctt1n2tvq0

Jackson Temurning islom sivilizatsiyasi va mo‘g‘ullar merosiga munosabatini chuqur tahlil qiladi:

- “Temur Chingizxon an’analariga sodiq qolgani holda, o‘z davlatchilik modelini islomiy qoidalar bilan uyg‘unlashtirishga intilgan. Bu esa uni mo‘g‘ullardan ajratib turadi.”

5. John Joseph Saunders (Buyuk Britaniya, XX asr)

Asari: The History of the Islamic World[203]

Saunders Temurni musulmon olami tarixida muhim shaxs sifatida e’tirof etadi:

- “Temurning g‘alabalari nafaqat harbiy ustunlik, balki siyosiy donolik natijasi edi. U xalifalik tushunchasini qayta tiklashni istagan yagona no‘mongol sarkarda edi.”

Marsel Brionning Amir Temur hayoti va ijodi haqidagi qarashlariga keladigan bo‘lsak,Brion Temur hayotini faqat janglar va g‘alabalar ketma- ketligi sifatida emas,balki o‘lkan maqsad sari qilinggan mashaqqatli , ongli va rejali mehnat sifatida tasvirlaydi.Temurning har bir harakati ,davlat qurish ,adolatni o‘rnatish,ilm - fanni, san’atni , din ulamolariga hurmat ehtirom, qadrlash ,Brion uchun buyuk ijodiy mehnatning mahsuli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Amir Temurning dahosi va davlat boshqaruvi haqida Marsel Brion nafaqat buyuk sarkarda, balki mohir davlat arbobi sifatida ham yuksak baholagan. U Temurning harbiy yurishlaridagi rejalashtirish, strategik fikrlash, intizom va tartibga asoslangan boshqaruv uslublarini qadrlagan. Brionga ko‘ra: “Temur yurishlari shunchaki bosqin emas, balki ulkan siyosiy va strategik rejalar mahsuli edi. U o‘z davlati asoslarini mustahkamlash orqali butun Markaziy Osiyoga siyosiy barqarorlik olib kelgan.”

Marsel Brion Amir Temurni Sharq va G‘arb o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan shaxs sifatida ko‘radi. U Temurning ilm-fan, madaniyat va san’atga e’tibori orqali Markaziy Osiyoni jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biriga aylantirganini e’tirof etadi. “Agar Renessans davri G‘arbda madaniy uyg‘onish bo‘lgan bo‘lsa, Temur saltanatida bu jarayon avvalroq boshlangan. Samarqand – Sharqning Florensiyasi edi.” -deydi yozuvchi.

Temurning madaniy merosga qo‘shgan hissasi haqida Marsel Brion Temurning madaniyat va ilm-fanga e’tiborini alohida ta’kidlab o‘tadi. U Temurning Samarqandni ilm va madaniyat markaziga aylantirishdagi rolini yuksak baholaydi. Brionning fikricha, Temurning shaxsiy kutubxonasi, u tomonidan homiylik qilingan olimlar va me’moriy obidalar uning ilm-fanga bo‘lgan chuqur hurmatini ko‘rsatadi.

“Temur qurollari bilan dunyoni zabt etdi, biroq uning abadiy merosi – bu ilm va san’atga bo‘lgan muhabbati bilan barpo etilgan Samarqanddir.”- kabi fikrlar qoldirgan tarixchi olim. Marsel Brion Temurning shaxsiy fazilatlarini – qat’iyati, iroda kuchi, adolatga intilishi, va xalqparvarligini alohida tilga oladi. U Temurni o‘z xalqining manfaatini ustun qo‘ygan, adolatli hukmdor sifatida ta’riflaydi. “Temur – buyuk g‘oyalarga xizmat qilgan inson edi. U faqat o‘z manfaatini emas, balki butun turkiy olamning yuksalishini o‘ylagan.” Marsel Brion G‘arb tarixchilarining Amir Temurga bo‘lgan munosabatini tanqid qiladi. U Yevropa markazlashgan tarixiy yondashuvlar Temurning rolini to‘liq ochib bermaganini ta’kidlab, o‘z asarlarida bu jihatlarni tiklashga harakat qilgan. “Temurni faqat bosqinchi sifatida ko‘rsatish bu tarixga nisbatan xiyonatdir. U — buyuk davlat quruvchisi, madaniyat homiysi, xalqaro savdoni rivojlantirgan arbobdir.” Romanda Amir Temur haqida yana ko‘plab ma’lumotlar, shuningdek, Samarqanddan tashqari Marv, Marg‘ilon, Buxoro va Toshkent to‘g‘risida qiziqarli voqealar badiiy-tarixiy uslubda yoritilgan.

Yevropada sohibqiron to‘g‘risidagi turli asarlarni o‘rganib, tadqiq qilib taqqoslab 1978-1986 yillarda «Temur hoqon saltanati» nomli dunyoga mashhur monografiyasini nashr qildiradi. Uning sa’y-harakati bilan Parijda 1987-yili «Temuriylar davri tarixi va san’atini o‘rganish assotsiatsiyasi» tashkil etiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishib Fransiyada elchixona ochilgach, bu assotsiatsiya maqomi o‘zgarib, «Temuriylar davri tarixi va san’atini o‘rganish fransuz-o‘zbek madaniy hamkorligi uyushmasi»ga aylantirildi, «Temuriylar» nomli jurnal chop etila boshlandi. Uyushma raisi va jurnal bosh muharriri L.Keren 1996 yil 10 aprelda prezident Islom Karimov farmoniga ko‘ra «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.[204]

**Xulosa**

[203] https://www.google.co.uz/search?hl=ru&tbo=p&tbm=bks&q=inauthor:%22John+Joseph+Saunders%22

[204] Tugalov, B., & Axmadqulov, N. (2023). LYUSEN KEREN – TEMURSHUNOS OLIM SIFATIDA. Jurnal “tarix va Jamiyat”

Xulosa qilib aytganda, Fransiyalik tarixchi olim, adib Marsel Brionning Buyuk bobomiz Amir Temur haqidagi mazkur kitobi AQSH va G‘arbiy Yevropa davlatlarida bir necha marotaba chop etilgan bo‘lib, eng sara asarlar qatoriga kiradi.

E’tiborli jihati shundaki M.Brion tomonidan tartib berilgan ushbu kitob to‘laligicha Sohibqiron Amir Temurning o‘z qo‘li bilan yozilgan esdaliklaridan iborat. Uning fors tilidagi yagona nusxasi Yaman hukmdori Ja’far Podsho kutubxonasida saqlangan, keyinchalik esa Angliyaga olib ketilgan.

Mazkur “Menkim Sohibquron-Jahongir Temur” asarini o‘qish asnosida ulug‘ bobokalonimizning o‘ziga xos jihatlari bilan ham tanishasiz, faoliyati qanchalar ibratli ekanligiga amin bo‘lasiz. Kitobda bayon etilgan Amir Temurning hayoti va faoliyati barcha uchun birdek saboq maktabi bo‘lishi shubhasiz.

Uning nazarida Timur nafaqat kuch bilan, balki aql va tafakkur bilan jahongir hukmron bo'lgan.Marsel Brion Temurning hayotiga shunday yondashadiki u Temur faqat bir zamonning emas ,balki butun insoniyat tarixining ibrat va faxr manbai sifatida ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amir Temur tuzuklari 1991 “Fan” nashriyoti
2. Marsel Brion-“Men kim Sohibqiron jahongir Temur” 2023 “Yoshlar matbuoti”
3. Marsel Brion “Amir Temur” 2020 “Nurafshon Biznes”
4. jurnal “TARIX VA JAMIYAT” 2023
5. Temuriylar davri tarixi (darslik), H.Sodiqov boshchiligida 2012 “Yangi asr avlodi”

**https://www.fadedpage.com/showbook.php?pid=20200628**
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Marsel_Brion
https://www.fadedpage.com/showbook.php?pid=20200628
https://fr.wikipedia.org/wiki/L%27Empire_des_steppes
https://en.wikipedia.org/wiki/The_History_of_the_Decline_and_Fall_of_the_Roman_Empire
https://www.jstor.org/stable/j.ctt1n2tvq0
https://www.google.co.uz/search?hl=ru&tbo=p&tbm=bks&q=inauthor:%22John+Joseph+Saunders%22

## YANGI O‘ZBEKISTONDA II RENESSANS MUTAFAKKIRLARI MEROSI O‘RGANILISHI

**Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi**
**Qatag‘on qurbonlari xotirasi ekskursiya yetakchisi**
**Sharopova Ruxsora Andreyevna**

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida Ikkinchi Renessans mutafakkirlari - Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa allomalarning ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Maqolada davlatimiz tomonidan ajdodlar merosini asrab-avaylash va uni yosh avlod tarbiyasiga tatbiq etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar, ilmiy markazlar faoliyati va xalqaro hamkorlik aloqalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, Ikkinchi Renessans, Uchinchi Renessans, Temuriylar davri, ma’naviy meros, Islom sivilizatsiyasi, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, ilm-fan, integratsiya.

**Abstract**: This article analyzes the current issues of studying the scientific and spiritual heritage of the thinkers of the Second Renaissance - such as Mirza Ulugbek, Alisher Navoi, Abu Ali ibn Sino, and others - in the process of creating the foundations of the Third Renaissance in New Uzbekistan. The article highlights the systematic work carried out by the state to preserve the heritage of ancestors and apply it to the education of the younger generation, the activities of scientific centers, and international cooperation.

**Keywords:** New Uzbekistan, Second Renaissance, Third Renaissance, Timurid period, spiritual heritage, Islamic civilization, Mirza Ulugbek, Alisher Navoi, science, integration.

**Аннотация**: В данной статье анализируются актуальные вопросы изучения научно-духовного наследия мыслителей Второго Ренессанса - Мирзо Улугбека, Алишера Навои, Абу

Али ибн Сино и других - в процессе формирования основ Третьего Ренессанса в Новом Узбекистане. В статье освещаются системные меры, предпринимаемые государством по сохранению наследия предков и его внедрению в воспитание молодого поколения, деятельность научных центров и международное сотрудничество.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, Второй Ренессанс, Третий Ренессанс, эпоха Темуридов, духовное наследие, Исламская цивилизация, Мирзо Улугбек, Алишер Навои, наука, интеграция.

**KIRISH**

Yangi O‘zbekiston poydevorini barpo etishda strategik maqsad sifatida belgilangan **Uchinchi Renessans** g‘oyasi shunchaki shior emas, balki chuqur tarixiy va ilmiy asosga ega bo‘lgan obyektiv zaruriyatdir. Insoniyat tarixida har qanday yirik yuksalish - u xoh G‘arbda, xoh Sharqda bo‘lsin - har doim o‘zidan oldingi intellektual boylikka suyanadi.

O‘zbekiston hududida XIV-XV asrlarda shakllangan Ikkinchi Renessans (Temuriylar davri) jahon ilm-faniga o‘zining fundamental asarlari bilan katta ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi islohotlar sharoitida ushbu merosni o‘rganish ikki yo‘nalishda dolzarb:

Milliy o‘zlikni anglash: Ajdodlarimizning dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasini xolis baholash orqali xalqning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish.

Ilmiy vorislik: O‘tmishdagi ilmiy metodologiyani zamonaviy innovatsiyalar bilan bog‘lab, yangi texnologik yutuqlarga erishish.

Shu sababli, davlat darajasida ushbu merosni tadqiq etishga bo‘lgan e’tibor Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Asosiy qism**: Ikkinchi Renessans davrining eng muhim yutuqlaridan biri kuchli va markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini yaratish bo‘ldi. Ushbu davr siyosiy va ijtimoiy barqarorlikning poydevori bo‘lib, o‘tmishda parchalanib ketgan hududlarni yagona boshqaruv ostida birlashtirishga xizmat qilgan. Bugungi kunda “Temur tuzuklari” asari nafaqat tarixiy manba sifatida, balki davlat boshqaruvi, diplomatiya, strategik rejalashtirish va ijtimoiy siyosatni o‘rganish uchun muhim qo‘llanma sifatida keng tadqiq qilinmoqda. Amir Temurning “Kuch adolatdadir” tamoyili bugungi sud-huquq islohotlarining ma’naviy asosini tashkil etadi, shuningdek, davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi borasidagi qarashlar Temuriylar davri ijtimoiy siyosati bilan solishtirilgan holda zamonaviy tahlil qilinmoqda.

Shuningdek, ilm-fan va bilimning rivojlanishi Ikkinchi Renessansning markaziy omillaridan biri bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek asos solgan Samarqand astronomiya maktabi bu davr ilm-fani va kashfiyotlarining yuragi bo‘lib, uning merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy O‘zbekistonda matematika, fizika va astronomiya sohalarida iqtidorli yoshlarni aniqlash tizimiga asos sifatida integratsiyalashmoqda. Ulug‘bekning “Zij” asaridagi 1018 ta yulduz koordinatalari va yil hisobini (365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya) aniqligi bugungi kosmik tadqiqotlar bilan deyarli bir xil chiqishi, uning ilmiy aniqligi va metodologik uslubi zamonaviy olimlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Bu ilmiy meros yosh olimlar uchun nafaqat tarixiy ma’lumot, balki amaliy tadqiqotlar va kashfiyotlar uchun ilhom manbai hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodi esa Ikkinchi Renessansning gumanitar cho‘qqisi sifatida qadrlanadi. Uning xalq farovonligi, tinchlik, bunyodkorlik va ma’naviy rivojlanish haqidagi g‘oyalari bugungi kunda “Xavfsiz va barqaror jamiyat” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirilmoqda. “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlaridagi axloqiy mezonlar maktab va oliy ta’lim tizimida “Inson odobi va madaniyati” kurslari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, yosh avlodni tarbiyalashda hamda jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchi Renessans davrida islom dini ilm-fan taraqqiyotiga to‘sqinlik qilmagan, aksincha, uni rag‘batlantirgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining sof islomiy qarashlari radikallashuv va ekstremizmga qarshi intellektual qurol sifatida o‘rganilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonda jamlangan 100 mingdan ortiq nodir qo‘lyozmalar ilmiy meros sifatida saqlanib, yangi kashfiyotlar va tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon olimlari Ikkinchi Renessansning ahamiyatini yuqori baholaydi. Britaniyalik sharqshunos Edvard Braun Temuriylar davrini nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Islom olami adabiyoti va san’atining “Oltin davri” sifatida ta’riflaydi. Vengriyalik sayyoh va olim Herman Vamberi Amir

Temurni ilm-fan va san’atning chinakam homiysi deb e’tirof etib, Samarqandni dunyoning eng yirik intellektual markaziga aylanishini ta’kidlaydi. Fransuz tarixchisi Lui Kehren Ulug‘bekning astronomik jadvallarini G‘arbda navigatsiya va geografiya fanining rivojlanishiga poydevor sifatida baholasa, rus sharqshunosi Bertels Yevgeniy Eduardovich Alisher Navoiy ijodini butun bir sivilizatsiya darajasida qadrlaydi va uni nafaqat buyuk shoir, balki davlat arbobi va mutafakkir faylasuf sifatida tan oladi.

Shu tariqa, Ikkinchi Renessans davri ilm-fan, ma’naviyat, adabiyot va davlat boshqaruvi sohalarida o‘zaro uyg‘unlashgan yuksak taraqqiyot namunasi sifatida namoyon bo‘ldi va bugungi kunda yangi O‘zbekistonda uning merosi ma’rifiy, ijtimoiy va ilmiy jihatdan keng o‘rganilmoqda hamda zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

**XULOSA**

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Ikkinchi Renessans mutafakkirlari merosini o‘rganish nafaqat tarixiy ma’lumotlarni to‘plash, balki milliy yuksalishning intellektual va ma’naviy drayverini ishga tushirish demakdir. Amir Temurning adolatli davlat boshqaruvi, Mirzo Ulug‘bekning aniq fanlardagi inqilobiy kashfiyotlari va Alisher Navoiyning gumanizmi bugungi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy islohotlari uchun ma’naviy prototip vazifasini o‘tamoqda va yosh avlodda ajdodlar merosini davom ettirish ambitsiyasini shakllantiradi. Temuriylar davri tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat ilm-fanga va innovatsiyalarga homiylik qilganda iqtisodiy va siyosiy yuksalish yuz beradi; bugungi Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan fan o‘choqlari va IT-parklar aynan Ulug‘bek akademiyasi an’analarining zamonaviy shaklidir. Navoiy asarlaridagi insonparvarlik g‘oyalari yoshlarni radikalizmdan himoya qiluvchi milliy ma’naviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuningdek, ajdodlar merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish O‘zbekistonning “soft power” strategiyasini mustahkamlab, mamlakatni intellektual resurslarga boy markaz sifatida tanitadi. Ushbu merosni raqamlashtirish, interaktiv ta’lim platformalariga kiritish va STEM ta’limi bilan integratsiyalashgan laboratoriyalar tarmog‘ini kengaytirish orqali Ikkinchi Renessans yutuqlari Uchinchi Renessans sari ilmiy va ma’naviy asoslangan qadam sifatida davom ettirilishi mumkin. Shu tariqa, Ikkinchi Renessans merosi hozirgi zamon talablariga moslashtirilgan holda yangi yutuqlarga aylantiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. (Nashrga tayyorlovchilar: B. Ahmedov va boshqalar). – Toshkent: "G'afur G'ulom", 2018.
3. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: “Fan”, 2011.
4. Mirzo Ulug‘bek. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”. (Tarjimon va izohlar muallifi: A. Ahmedov). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2011.
5. Gulyamov Y.G‘. “O‘zbekiston tarixi”. – Toshkent: “Universitet”, 2015.
6. Hilda Hookham**.** “Lamb of Tamerlane” (Amir Temur hayoti va faoliyati haqida). – London, 1962.
7. Sarton G. “Introduction to the History of Science” (Ulug‘bek astronomiyasi tahlili). – Baltimore, 1927-1948.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SAROY TABIBLARI FAOLIYATI

**Yo‘ldoshev Murodjon Xurram o‘g‘li**
**Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri saroy tabiblari faoliyati, tibbiyot muassasalari tuzilishi va tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi tahlil etiladi. Temuriy hukmdorlar, ayniqsa, Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan va tibbiyot rivojiga katta e’tibor berganlari bois shifoxonalar (dor ush-shifo), madrasa qoshidagi tibbiy markazlar va tabiblarning roli alohida o‘rganiladi. Tadqiqotda Sharq tabobatining yirik namoyandalari, ularning ilmiy ishlari va davolash usullari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, Temuriylar davridagi tibbiyot muassasalarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ularning zamonaviy tibbiyotga ta’siri yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, dor ush-shifo, Sharif Sheroziy, Samarqand, Ibn Arabshoh, Hisobiddin Ibrohim Kirmoniy.

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini o‘rganish barcha zamon olimlarini qiziqtirib, kelgan. O‘rta asrlar tarixidan boshlab, zamonaviy dunyoga qadar tibbiyot tarixi va muassalaridagi tabiblar faoliyati, davriy manbalar va manbaviy ahamiyatga ega asarlarda qisman yoritilgan. Madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy (kitobiy) fanlarni o‘qitishga katta e'tibor berilgan. Madrasalarda o‘qitiladigan ilmlar tasnifi,o‘qitish saviyasi, mudarrislar mavqeiga ko‘ra ikki bosqichga bo‘lingan: umumiy ta'lim beruvchi o‘quv maskani, ya'ni bu madrasa deb yuritilgan. Ushbu madrasalarda ilmu naqliya-diniy ilmlar ancha chuqur o‘rgatilgan, shu bilan birga ilmu aqliya-asosiy fanlar matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), astronomiya (ilmi hay'at), medisina (tibbiyot), tarix, geografiya, ilmi aruz, arab tili kabilar tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin[1;83] . Madrasalarda yuksak ilmiy martabaga etishgan allomalar faoliyat ko‘rsatgan,bunday madrasalar asosan markaziy shaharlarda,ilm-fan madaniyat rivojlangan Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda bo‘lgan[2;64]. O‘rta asrlarda Movarounnahr va Xurosondagi madrasalar jamiyatning ma'xnaviy hayotining asosiy markaziga aylangan. Ularni bitiruvchilari qo‘lda yozilgan adabiyotlarga, ilmiy va ommabop risolalarga bo‘lgan talabni deyarli to‘liq qondirganlar. Tarix, geografiya, musulmon huquqi, arab tili gramatikasi, qur'on sharhlari, she'riyat, axloq, mantiq, matematika, astronomiya, tibbiyot-bu fanlarning hammasi madrasada ta'lim berish doirasidagi fanlarni tashkil qilgan[3;346]. Buxoroning hozirda ham so‘lim go‘shalaridan biri bo‘lgan Jo‘yi Zar hududi ham manbalarda tilga olinib, Eronga qilingan besh yillik yurish davrida tilga olinadi. Yoz pallasida harbiy yurish boshlangan bo‘lib, Buxoroga kelish jarayonida Amir Temur yo‘lda kasallanib qoladi. O‘sha yilning 23 iyun kuni Buxoro shahri yaqinidagi Jo‘yi Zar hududiga etib kelgach, shu yerda davolanish uchun to‘xtagan[1;55].Samarqandda esa “Dorush-shifo” (“Shifo maskani”) nomli yirik kasalxona boiib, unga o‘z zamonasining taniqli tabiblari-Mir Sayid Sharif Sheroziy (1330-1414) rahbarlik qilgan. Bu tabib asli Juronlik bo‘lib, Temurningg taklifi bilan Samarqandga kelib, Shu kasalxonaga boshchilik qilgan. Shu davr Samarqandda yana bir yirik tabib-Mansur ibn Muhammad yashagan. Bu olimning toiiq ismi Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf ibn Ilyosdir. O‘sha davrdagi yetuk tabiblardan bizga yana Mavlono Fayzulloh Tabriziy va “Hisobiddin Ibrohim Kirmoniylar ham maium. Mavlono Fayzulloh Tabriziy Temuming shaxsiy tabibi edi. U shohning hamma safarlarida birga boigan. Temur ilm ahillarini qoilab-kuvatlangan, har turli fanlami ay- niqsa amaliy ahamiyatga ega boigan fanlar rivojlanishining tarafdori boigan.U o‘zi zabt etgan mamlakatlardan faqat oltin, kumushlami emas, balki nodir kitoblami ham olib kelar edi. Temur bu nodir kitoblami saqlash uchun saroyda maxsus kutubxona (“Kitob gumbazi”) qurdirgan edi[4;240]. Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yaxshi maosh toian- gan. Temuming maxsus farmoni bilan ulaming maoshi olim-lar,munajjimlar, tarixnavislar va muhandislaming maoshlariga tenglashtirilgan.Temur obodonchilikga, shaharlaming ozoda saqlanishga katta e’tibor bergan. Ayniqsa, davlat poytaxti Samarqandni obod qilishga ko‘p harakat qilgan[6;103]. Jo‘yi Zar qishlog‘iga Amir Temur oila a'zolarini chaqirtiradi. Samarqanddan Saroymulkxonim, Tuman oqo, Sulton Baxt begimlar kelgan bo‘lsa, Shahzoda Muhammad Sulton qo‘shinning ilg‘or qismlari bilan Amudaryodan o‘tgan bo‘lsada farmonga muvofiq qo‘shinlarni shu erda qoldirib o‘zi bobosi yoniga qaytganligi “Zafarnoma” asarida keltirib o‘tilgan[6;143].

Ikkinchi Renessans, ya’ni temuriylar davrida ham tibbiyot rivojiga katta ahamiyat berilgan. Masalan, Hirotda Umarshayxning rafiqasi Mahdi ul-Milkat oqa qurdirgan “Dor ushshifo” mashhur edi. Yuksak did va mahorat bilan bunyod etilgan mazkur shifoxona bilan uning shimol tara-fida barpo etilgan “Dor al-xuffos” orasida hovuz bo‘lib, unda tabiblar bemorlarni davolashgan. Shuningdek, Bog‘i Zag‘onda ham shifoxona mavjud edi.Yetuk shifokorlar bemorlarni shifoxonalarda davolash bilan birga madrasa, o‘quv yurtlarida mudarrislik ham qilishgan. Ba’zi-lari asarlar yozishgan. Olimlarning ayrimlari o‘zlaridan oldin yozib qoldirilgan sohaga oid arab, fors, turkiy tillardagi asarlariga sharhlar bitishgan.Muarrixlar Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshohning ma’lu-motlaricha, Amir Temur Shom (Suriya) dan Samarqandga tabiblar sardori Mavlono Sulaymonni olib kelgan. Sohibqironning shaxsiy tabibi Mavlono Fazlulloh Tabriziy hisoblangan. Shuningdek, buyuk hukmdor saroyida Mavlono Izzaduddin, Mas’ud Sheroziy, Mavlono Farrux kabi mashhur tabiblar ham faoliyat ko‘rsatishgan.Samarqandda “Dor ush-shifo” (Shifo maskani) nomli yirik shifoxona bo‘lib, unga o‘z zamonasining taniqli tabibi — Mir Sayid Sharif Sheroziy rahbarlik

qilgan. Shu davrda Samarqandda boshqa mashhur tabiblar, jumladan, Mansur ibn Muhammad, Mavlono Fayzulloh Tabriziy va Hisobiddin Ibrohim Kirmoniy faoliyat olib borgan. Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yuqori maosh to‘langan, hukmdorlarning maxsus farmoni bilan ularning maoshi olimlar, munajjimlar, tarixnavis va muhandislarning maoshiga tenglashtirilgan[8;89-93].

Xulosa qilib aytgan, Amir Temur va temuriylar sulolasi tibbiyot tarixini o‘rganish va undagi tibbiyot muassalari faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq qilish, mustaqillik yillarida dastlabki ustuvor vazifa bo‘lib qoldi.O‘rta asrlar aholisning qanday kasalliklarga chalingani ularni davolash bilan bog‘liq muammolar bu yechimlarda hukumdor tabaqa vakillarini faoliyati qanday bo‘lganligi xususidagi fikrlar dalillangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1) Амир Темур жахон тарихида / Масъул мухаррир: Х-Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Саиддосимов (рахбар), А.Ахмедов, Б.Ахмедов ва бопщ. Тулдирнлганва кайта ишланган иккинчи нашри. — Т.: Шарк, 2001. – Б. 56.

2) Бўриев О, Қаҳҳоров Н.Темурийлар ренессанси. - Т.: Тафаккур, 2020. - Б.64.

3) Ҳ.Камол (Ҳамзахон Камолов) История вторжения ковевых племен Дашт-и Кипчака в Мавераннахр и Хорасан XVI в). – Душанбе: Дониш, 2012. – С. 346.

4) X.E. Rustamova, N.K. Stojarova, Sh.A. Abdurashitova, Q.Ch. Nurmamatova Tibbiyot tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / X.E. Rustamova va boshq. - Toshkcnt. « O‘zkitobsavdo» nashriyoti, 2020. -102 b- 240 b.

5) X.E. Rustamova, N.K. Stojarova, Sh.A. Abdurashitova, Q.Ch. Nurmamatova Tibbiyot tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / X.E. Rustamova va boshq. - Toshkcnt. « 0 ‘zkitobsavdo» nashriyoti, 2020. -103 b.

6) Яздий, Шарафуддун Али. Кўрсатилган асар. - Б. 143.

7) J.Rizayev./ O‘zbekistonda tibbiyot tarixi va rivoji.-“Yangi O‘zbekiston”. 2022-yil 25-yanvar.4-son.89-93 b.

## ZAFARNOMA ASARINING YOZILISH TARIXI

**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi**
**Saidmurodova Shaxina Nasriddinovna**

**Annotatasiya.** Maqolada Zafarnoma asari -bu Amir Temur davri tarixi, siyosiy yurishlari jang maydonidagi muvaffiqiyatlari va davlat boshqaruvi haqida bayon etuvchi asardir. Ushbu asar Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan, Ibrohim Sulton farmoniga binoan 1419-1425-yillarda yozib chiqilgan. Asar o‘sha davrning o‘g‘zaki rivoyatlari, yozma hujjatlari va shohidlarning xotiralari asosida yaratilgan. Asar ikki qismdan iborat; birinchi qism -„Muqqadima’’bo‘lib unda Amir Temurdan olindi davr shuningdek, temuriylar madaniayati va an’analari tasvirlangan ;ikkinchi qismda esa Amir Temurning yurishlari, jang sahnalari va davlatni boshqarishdagi qat’iy qarorlati tavsiloti yoritilgan.

**Абстрактный**.В статье рассматривается произведение «Зафарнома», посвящённое истории эпохи Амира Темура, его политическим походам, военным победам и системе государственного управления. Данное произведение было написано Шарафиддином Али Язди по указу Ибрагима Султана в 1419–1425 годах. Труд создан на основе устных преданий того времени, письменных источников и воспоминаний очевидцев. Произведение состоит из двух частей. Первая часть — «Муқаддима» (Введение), в которой описываются период до Амира Темура, а также культура и традиции темуридов. Во второй части подробно освещаются военные походы Амира Темура, сцены сражений и его решительность в управлении государством.

**Annotation**.The article examines the work Zafarnama, which describes the history of the era of Amir Timur, his political campaigns, military victories, and the system of state governance. This work was written by Sharafiddin Ali Yazdi by order of Ibrahim Sultan between 1419 and 1425. The book was created on the basis of oral traditions of the period, written sources, and the recollections of eyewitnesses. The work consists of two parts. The first part, Muqaddima (Introduction), describes the

period before Amir Timur, as well as the culture and traditions of the Timurids. The second part provides detailed accounts of Amir Timur’s military campaigns, battle scenes, and his firm and decisive approach to governing the state

**Kalit so‘zlar** ;Zafarnoma, Amir Temur, Sharofiddin Ali Yazdiy, Markaziy Osiyo, Temuriylar sulolasi , Kesh, Hirot, Qutlug‘ Turkon, Shoxruh Mirzo.

**Kirish.** Zafarnoma asari –Sharofiddin Ali Yazdiy tomonidan Amir Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon qilingan hikoyalar va ma’lumotlar bilan tanishishuchun 3 ta guruh tuzgan. Turkiy va forsiytillarning bilimdonlari ikki guruhni,voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shohidlar esa bir guruhni tashkil qilgan. Sharofiddin Ali Yazdiydan esa asari jonli til bilan tushunarli qilib yozish talab etilgan va shuningdek, u hujjatlarga qatiy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita shaxsiy nazorati ostida tuzilgan. Asar 15 asrda fors tilini mukammal bilgan inson o‘qiy olgan. Zafarnoma asari so‘z boshi, ikki fasl va xotimadan iborat. Asar Temur shajarasini bayon etish va o‘zidan oldin o‘tkan hukmdorlar va davlat arboblari haqida ma’lumot berilgan.

**Sharofiddin Ali Yazdiy** 14-15 yashagan mashhur tarixchi olim. U taxminan 1364 yilda tug‘ulib,1454 yilda vafot etgan. Sharofiddin Ali Yazdiy 1414-1435 yillar mobaynida Shoxruhning o‘g‘li, Fors o‘lkasi hokimi Ibrohim Mirzo xizmatida bo‘lgan. U fors tilida ijod qilgan. Uning ilmiy faoliyati (hozirgi Shahrisabz)da bo‘lgan. Ibrohim Mirzo vafotidan so‘ng Sultoniya, Ray va Qum viloyatlari hokimi bo‘lgan

**Amir Temur** 1336 yil 9- aprelda Kech shahri hozirgi Shahrisabzda Xo‘ja ilg‘or qishlog‘ida tug‘ulgan. Uning otasi Amir Tarag‘ay, onasi Takina Xotun. Ayoli Bibixonim. Farzandlari Jahongir Mirzo,Umarshayx Mirzo,Mironshoh Mirzo, Shoxruh Mirzolar. Temur qudratli sarkarda bo‘lib , u 20 ta jangda ham mag‘lub bo‘lmagan. U 1405 yil 18- fevralda O‘trorda kassalik tufayli vafot etadi.

**Temurning yurishlari**;

Yigirma yil (1371-1390)Amir Temur Mo‘g‘ulistonga yetti marta yurish qilib yengadi.

1381-yilda Hirot, Saraxs, Jom shaharlarini,keyin Eroni yengdi.

1399-1404 yillarda yetti yillik urush davrida esa Shom, Kumis, Baalbek, Damashq va Bog‘dodni egallaydi.

**Amir Temurning qo‘shin tuzulishi**;

1.Markaz(Qarorgoh)
2.Chap qanot( Barong‘or)
3.O‘ng qanot(Javong‘or)
4.Old qo‘shin(Tuyoq)
5.Orqa qo‘shin( Qovun zaxira)
6.O‘ng -chap yordamchi bo‘limlar
7.Maxsus qo‘shinlar

Markazda- Temurning o‘zi boshchilik qilgan.

Qanotlar- eng tajribali sarkardalarda topshirilgan.

**Xazrat sohibqiron to‘rtinchi marta Xorazmga borib fath qilishi**.

Yusuf So‘fiy jarroh ayog‘ini tarqatdan tashqariga qo‘ydi va g‘ururidan chiqarib viloyatlarda uzadi va musulmonlarning mollariga tama qildi. Shovol oyida torixi 780 da qo‘y yillida kim xud burjida bordi.19 -20 fevral 1379 yilda. Xazrat Nusrat shoir jerikini yig‘ishib Xorazm sari ketti.Amir Temur esa Xorazmni bosib oldi.

**Amir Temur burug‘i bilan Oqsaroy qurulishi**.

Oqsaroyning qurulishi 1380-yilda boshlangan. Saroy Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag‘ishlangan. Xorazm, Eron va boshqa mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Usta Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki bo‘lgan. Qurulish 1336-yilda o‘z nihoyasiga cho‘zilgan. Ammo bezash ishlari 1404- yilda qadar cho‘zilgan.

**Sohibqiron Xazrat Eron tomon qo‘shin tortib borishi.**

Tovuq yili 1381 yil fevral oylarida Sohibqiron Eron tomon yurish boshladi. Atoqli lashkarboshi Bofo Sangun ham Temurga bo‘ysunib unga qo‘shiladi. Malik Muhammad, Malik G‘iyosiddin kabi mintaqa amirlari Temur huzuriga kelib itoat qildilar. Temur ularni ayblarini eshitib, ayrimlarini jazolaydi.

**Sohibqiron Amir Temur Hindiston sari yurish boshlashi.**

Amir Temur Hindistonga rajab oyida,to‘rtinchi sakkiz yuz to‘qqizinchi yilda yani 1398 yil aprelda yurish boshlaydi. U Nasriddin Alloyor va boshqa lashkarboshilarni o‘ziga bo‘ysundirdi. Urush qilishiga sabab u yerda kofirlar hukmronlik qilayotgani edi.

**Xulosa**

Zafarnomada Markaziy Osiyo, Movarounnahr, Xuroson 14-15 asr Amir Temur avlodlari. Temuriylar sulolasi davri,Markaziy Osiyo ma’lumotlar. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (1533y) miniaturalar turkumi ham ishlangan.Amir Temur va uning oila a’zolari turli hayotiy vaziyatlarda tasvirlangan. Uning asl nusxasi Britaniya kutubxonasida saqlanadi..

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1.** Sharofiddin Ali Yazdiyning “ Zafarnoma’’ asari. “Sharq’’ nashriyot matbaa konfersining bosh taxririyati Toshkent-1997.

2. Haqqulov, M.Y.G.L. (2022).Markaziy Osiyoda ilk diplomatic munosabatlar tarixi Science and Education, 3(10),385-389.

3. Haqqulov, M. (2024). O‘RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO‘LGAN “ TURKISTON MUXTORIYATI’’. Modern Science and Research, 3(12), 609-613.

## ZAFARNOMA ASARINING YOZILISH TARIXI

**Saidmurodova Shaxina Nasriddinovna**
**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi**

**Annotatasiya.** Maqolada Zafarnoma asari -bu Amir Temur davri tarixi, siyosiy yurishlari jang maydonidagi muvaffiqiyatlari va davlat boshqaruvi haqida bayon etuvchi asardir. Ushbu asar Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan, Ibrohim Sulton farmoniga binoan 1419-1425-yillarda yozib chiqilgan. Asar o‘sha davrning o‘g‘zaki rivoyatlari, yozma hujjatlari va shohidlarning xotiralari asosida yaratilgan. Asar ikki qismdan iborat; birinchi qism -„Muqqadima’’bo‘lib unda Amir Temurdan olindi davr shuningdek, temuriylar madaniayati va an’analari tasvirlangan ;ikkinchi qismda esa Amir Temurning yurishlari, jang sahnalari va davlatni boshqarishdagi qat’iy qarorlati tavsiloti yoritilgan.

**Абстрактный**.В статье рассматривается произведение «Зафарнома», посвящённое истории эпохи Амира Темура, его политическим походам, военным победам и системе государственного управления. Данное произведение было написано Шарафиддином Али Язди по указу Ибрагима Султана в 1419–1425 годах. Труд создан на основе устных преданий того времени, письменных источников и воспоминаний очевидцев. Произведение состоит из двух частей. Первая часть — «Муқаддима» (Введение), в которой описываются период до Амира Темура, а также культура и традиции темуридов. Во второй части подробно освещаются военные походы Амира Темура, сцены сражений и его решительность в управлении государством.

**Annotation**.The article examines the work Zafarnama, which describes the history of the era of Amir Timur, his political campaigns, military victories, and the system of state governance. This work was written by Sharafiddin Ali Yazdi by order of Ibrahim Sultan between 1419 and 1425. The book was created on the basis of oral traditions of the period, written sources, and the recollections of eyewitnesses. The work consists of two parts. The first part, Muqaddima (Introduction), describes the period before Amir Timur, as well as the culture and traditions of the Timurids. The second part provides detailed accounts of Amir Timur’s military campaigns, battle scenes, and his firm and decisive approach to governing the state

**Kalit so‘zlar** ;Zafarnoma, Amir Temur, Sharofiddin Ali Yazdiy, Markaziy Osiyo, Temuriylar sulolasi , Kesh, Hirot, Qutlug‘ Turkon, Shoxruh Mirzo.

**Kirish.** Zafarnoma asari –Sharofiddin Ali Yazdiy tomonidan Amir Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon qilingan hikoyalar va ma’lumotlar bilan tanishishuchun 3 ta guruh tuzgan. Turkiy va forsiytillarning bilimdonlari ikki guruhni,voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shohidlar esa bir guruhni tashkil qilgan. Sharofiddin Ali Yazdiydan esa asari jonli til bilan tushunarli qilib yozish talab etilgan va shuningdek, u hujjatlarga qatiy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita shaxsiy

nazorati ostida tuzilgan. Asar 15 asrda fors tilini mukammal bilgan inson o‘qiy olgan. Zafarnoma asari so‘z boshi, ikki fasl va xotimadan iborat. Asar Temur shajarasini bayon etish va o‘zidan oldin o‘tkan hukmdorlar va davlat arboblari haqida ma’lumot berilgan.

**Sharofiddin Ali Yazdiy** 14-15 yashagan mashhur tarixchi olim. U taxminan 1364 yilda tug‘ulib,1454 yilda vafot etgan. Sharofiddin Ali Yazdiy 1414-1435 yillar mobaynida Shoxruhning o‘g‘li, Fors o‘lkasi hokimi Ibrohim Mirzo xizmatida bo‘lgan. U fors tilida ijod qilgan. Uning ilmiy faoliyati (hozirgi Shahrisabz)da bo‘lgan. Ibrohim Mirzo vafotidan so‘ng Sultoniya, Ray va Qum viloyatlari hokimi bo‘lgan

**Amir Temur** 1336 yil 9- aprelda Kech shahri hozirgi Shahrisabzda Xo‘ja ilg‘or qishlog‘ida tug‘ulgan. Uning otasi Amir Tarag‘ay, onasi Takina Xotun. Ayoli Bibixonim. Farzandlari Jahongir Mirzo,Umarshayx Mirzo,Mironshoh Mirzo, Shoxruh Mirzolar. Temur qudratli sarkarda bo‘lib , u 20 ta jangda ham mag‘lub bo‘lmagan. U 1405 yil 18- fevralda O‘trorda kassalik tufayli vafot etadi.

**Temurning yurishlari**;

Yigirma yil (1371-1390)Amir Temur Mo‘g‘ulistonga yetti marta yurish qilib yengadi.

1381-yilda Hirot, Saraxs, Jom shaharlarini,keyin Eroni yengdi.

1399-1404 yillarda yetti yillik urush davrida esa Shom, Kumis, Baalbek, Damashq va Bog‘dodni egallaydi.

**Amir Temurning qo‘shin tuzulishi**;

1.Markaz(Qarorgoh)
2.Chap qanot( Barong‘or)
3.O‘ng qanot(Javong‘or)
4.Old qo‘shin(Tuyoq)
5.Orqa qo‘shin( Qovun zaxira)
6.O‘ng -chap yordamchi bo‘limlar
7.Maxsus qo‘shinlar

Markazda- Temurning o‘zi boshchilik qilgan.

Qanotlar- eng tajribali sarkardalarda topshirilgan.

**Xazrat sohibqiron to‘rtinchi marta Xorazmga borib fath qilishi**.

Yusuf So‘fiy jarroh ayog‘ini tarqatdan tashqariga qo‘ydi va g‘ururidan chiqarib viloyatlarda uzadi va musulmonlarning mollariga tama qildi. Shovol oyida torixi 780 da qo‘y yillida kim xud burjida bordi.19 -20 fevral 1379 yilda. Xazrat Nusrat shoir jerikini yig‘ishib Xorazm sari ketti.Amir Temur esa Xorazmni bosib oldi.

**Amir Temur burug‘i bilan Oqsaroy qurulishi**.

Oqsaroyning qurulishi 1380-yilda boshlangan. Saroy Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag‘ishlangan. Xorazm, Eron va boshqa mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Usta Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki bo‘lgan. Qurulish 1336-yilda o‘z nihoyasiga cho‘zilgan. Ammo bezash ishlari 1404- yilda qadar cho‘zilgan.

**Sohibqiron Xazrat Eron tomon qo‘shin tortib borishi.**

Tovuq yili 1381 yil fevral oylarida Sohibqiron Eron tomon yurish boshladi. Atoqli lashkarboshi Bofo Sangun ham Temurga bo‘ysunib unga qo‘shiladi. Malik Muhammad, Malik G‘iyosiddin kabi mintaqa amirlari Temur huzuriga kelib itoat qildilar. Temur ularni ayblarini eshitib, ayrimlarini jazolaydi.

**Sohibqiron Amir Temur Hindiston sari yurish boshlashi.**

Amir Temur Hindistonga rajab oyida,to‘rtinchi sakkiz yuz to‘qqizinchi yilda yani 1398 yil aprelda yurish boshlaydi. U Nasriddin Alloyor va boshqa lashkarboshilarni o‘ziga bo‘ysundirdi. Urush qilishiga sabab u yerda kofirlar hukmronlik qilayotgani edi.

**Xulosa**

Zafarnomada Markaziy Osiyo, Movarounnahr, Xuroson 14-15 asr Amir Temur avlodlari. Temuriylar sulolasi davri,Markaziy Osiyo ma’lumotlar. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (1533y) miniaturalar turkumi ham ishlangan.Amir Temur va uning oila a’zolari turli hayotiy vaziyatlarda tasvirlangan. Uning asl nusxasi Britaniya kutubxonasida saqlanadi..

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**4.** Sharofiddin Ali Yazdiyning “ Zafarnoma’’ asari. “Sharq’’ nashriyot matbaa konfersining bosh taxririyati Toshkent-1997.

5. Haqqulov, M.Y.G.L. (2022).Markaziy Osiyoda ilk diplomatic munosabatlar tarixi Science and Education, 3(10),385-389.

6. Haqqulov, M. (2024). O‘RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO‘LGAN “ TURKISTON MUXTORIYATI’’. Modern Science and Research, 3(12), 609-613.

## AMIR TEMUR VA HOZIRGI ZAMON.

**Normo‘minova Mohira O‘tkir qizi.**
*Termiz davlat pedagogika instituti*
*Tillar fakulteti,rus tili va adabiyoti yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi.*
*E-mail: normominovamohira658@gmail.com*
*Tel: +998(88)629-10-06*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi shakllanishidagi o‘rni, uning xalqaro diplomatiya va madaniy yuksalishdagi hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Temuriylar renessansining hozirgi Yangi O‘zbekiston poydevori — Uchinchi Renessans bilan bog‘liqligi falsafiy-tarixiy jihatdan yoritilgan.Maqolada Amir Temur saltanatining ijtimoiy-huquqiy asosi, uning xalqaro munosabatlardagi keyingi yangi tartibi va Temuriylar davri ilmiy kashfiyotlarining bugungi texnologik taraqqiyot bilan aloqadorligi tahlil qilinadi.. Amir Temur davlat boshqaruvi tizimining tarkibiy qismlari, uning G‘arb va Sharq iqtisodiy aloqalaridagi geosiyosiy roli hamda Temuriylar renessansining zamonaviyligi va O‘zbekiston fan-ta’lim tizimidagi fundament sifatidagi o‘rni dalillar asosida yoritadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Temuriylar davri, Temur tuzuklari, markazlashgan davlat, diplomatiya, Buyuk Ipak yo‘li, Temuriylar renessansi, Uchinchi Renessans, davlat boshqaruvi, geosiyosiy strategiya, ilm-fan taraqqiyoti, Yangi O‘zbekiston.

**Annotation:** The article examines the language policy of the Amir Temur era and compares it with contemporary language policy in order to identify historical continuity and fundamental differences. It analyzes the functional distribution of languages within the Timurid state, where Persian served as the administrative and literary language, Arabic functioned as the religious and scholarly language, and Turkic languages were widely used in everyday communication. The comparison with modern language policy demonstrates a transition from a traditional, practice-oriented model to a formalized legal system based on national identity, state sovereignty, and the protection of linguistic rights. The study concludes that in both historical contexts, language functions as a crucial instrument of social consolidation and state-building.

**Keywords:** language policy, Amir Temur, state language, multilingualism, Timurid state, national identity, linguistic rights, comparative analysis.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda balki markazlashgan davlat tizimining mohir me’mori hamdir. Uning davlatchilik siyosati «Kuch — adolatdadir» tamoyiliga asoslangan edi. Bu tamoyil bugungi kunda ham O‘zbekistonning huquqiy-demokratik islohotlari negizida turibdi.

Sohibqiron o‘zining «Temur tuzuklari» asarida davlatni boshqarishning 12 ta qoidasini belgilab bergan. Unda vazirlar tayinlashdan tortib, oddiy fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlar huquqiy tartibga solingan. U tarqoq bekliklarni birlashtirib, yaxlit iqtisodiy va siyosiy makon yaratdi. Hozirgi zamon boshqaruv tili bilan aytganda, u davlat apparatining vertikal va gorizontal nazorat tizimini mukammal shakllantirgan.

Sohibqiron jahon diplomatiyasi tarixida «Buyuk Ipak yo‘li»ning xavfsizligini ta’minlagan va G‘arb bilan Sharq o‘rtasida «oltin ko‘prik» vazifasini o‘tagan arbobdir. Uning Fransiya qiroli Karl VI va Angliya qiroli Genrix IV bilan yozishmalari o‘sha davrdagi xalqaro munosabatlarning yuksak namunasidir.

Amir Temurning Yevropa tarixidagi eng katta xizmati — Vizantiya va Yevropa xalqlarini Usmonli turklar tazyiqidan ma’lum muddatga saqlab qolganidir. Bu esa Yevropada Uyg‘onish davrining (Renessans davri ) shakllanishi uchun tinch sharoit yaratdi. Bugungi kunda

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan o‘rnatayotgan strategik hamkorligi aynan ana shu tarixiy ildizlarga borib taqaladi.

Asosiy qism.

Agar esga oladigan bo‘lsak, «Temuriy renessansi» tushunchasi bejizga ishlatilmaydi. Bu davrda Samarqand jahonning ilm-fan va san’at markaziga aylandi. Mirzo Ulug‘bekning astronomik maktabi, Alisher Navoiyning turkiy tilga asos solishi, Kamoliddin Behzodning miniatyura san’ati — bularning barchasi Amir Temur yaratgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning mevasidir.

Sohibqiron «Qayerda ilm bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot bo‘ladi», deb hisoblagan. U o‘zi bosib olgan o‘lkalardan eng sara olim va me’morlarni Samarqandga yig‘di. Natijada me’morchilikda «Temuriylar uslubi» shakllandi (Go‘ri Amir, Bibixonim masjidi). Bu madaniy meros hozirda jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi sifatida YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan.

Bugungi Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish g‘oyasi bevosita Birinchi (IX-XII asrlar) va Ikkinchi (XIV-XV asrlar) Uyg‘onish davri merosiga tayanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Biz buyuk ajdodlarimizning vorislarimiz va ularning ilmiy jasoratini davom ettirishga mas’ulmiz».

Hozirgi kunda Temuriylar merosini o‘rganish bo‘yicha xalqaro konferensiyalar, ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. Yosh avlodga «Temur tuzuklari»ni o‘rgatish orqali vatanparvarlik va adolat tuyg‘ulari singdirishga katta e’tibor qaratildi.Ayniqsa, Temuriylar tarixi davlat muzeyining faoliyati va xorijiy arxivlardagi qo‘lyozmalarni yurtimizga qaytarish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yangilanish yo‘lidagi muhim qadamlaridir.

Agar tarixga bir nazar tashlab ko‘radigan bo‘lsak, o‘sha davrda mo'g'ullar hukmronligi davrida Islom aholi uchun kuchli manbaiga aylanmaganligi va o'zbek xalqi tarixidagi eng og'ir davrlardan biri bo'lganligi ko‘rish mumkin.

Shuningdek, 1360-yillarda Movarounnahrda hukm surgan o'ta og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirish va kuchli davlatni yaratishni talab qildi. Amir Temur o'z davrining bu zaruratini yaxshi tushungan va shuning uchun butun e'tiborini Movarounnahrda markazlashgan davlatni yaratishga qaratgan. Amir Temur o'z siyosatining mafkuraviy asosini yaratishda o'zbek xalqining tarixiy ildizlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan turkiy ulusni birlashtirish maqsadiga tayangan. Shuningdek, u xalqni birlashtirish uchun ularni yagona dinda birlashtirish zarurligini tushungan. Yagona din manbaining shakllanishi Markaziy Osiyoda Islomning ortib borayotgan roli va so'fiylik vakillariga nisbatan bag'rikenglik munosabatiga asoslangan edi. Boshqa tomondan, so'fiylikning Naqshbandiya harakati bu davrda yetakchi rol o'ynadi; uning mehnat va insoniylikka oqilona munosabati hamda boshqa sulyak, mazhab va din vakillariga nisbatan bag'rikenglik munosabati ijtimoiy-siyosiy hayotda uyg'onish davrining namoyon bo'lishi edi.

«Tasavvuf g'oyalari shu davrdan boshlab ijtimoiy tafakkurga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular mavjud jamiyatning keskin ijtimoiy qarama-qarshiliklarini hal qilish uchun ishlatilgan. Bularning barchasini Markaziy Osiyo jamiyatining aholining keng qatlamlarini qamrab olgan keng ko'lamli sa'y-harakatlari bilan taqqoslash mumkin. Bu jarayon XV asrning ikkinchi yarmida, Naqshbandiya harakati va uning buyuk siymosi Xoja Ahror Movarounnahr jamiyatida yetakchi mavqeni egallaganida, o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi» . Bu yuksak va mashaqqatli maqsadga erishishda Amir Temur ruhoniylar, harbiy xizmatchilar, savdogarlar va shahar hunarmandlariga tayangan.

Sohibqiron davlat boshqaruvida 12 toifadagi kishilarga tayangan. U «Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan amalga oshirdim», deya ta’kidlaydi. Bu bugungi kunda «kuchli fuqarolik jamiyati» va «guruh bo‘lib qaror qabul qilish» tamoyillarining o‘rta asrlardagi ko‘rinishidir.Temur o‘z saltanatida markaziy va mahalliy boshqaruvni muvofiqlashtirish uchun «darug‘alar» (ma’muriy rahbarlar) va «mushriflar» (moliyaviy nazoratchilar) tizimini joriy qildi. Agar hozirgi vaqt bilan solishtiradigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi viloyat hokimliklari va moliya inspeksiyalari funksional jihatdan ana shu tizimning takomillashgan ko‘rinishi hisoblanadi.

Amir Temur jahon iqtisodiyotining tomiri bo‘lgan «Buyuk Ipak yo‘li»ni yagona nazorat ostiga olgan birinchi hukmdorlardan bo‘lib

1402-yilda Anqara jangidan so‘ng, Yevropaning eng yirik davlatlari (Fransiya, Angliya, Kastiliya) Temur bilan savdo aloqalarini o‘rnatish uchun elchilar yubordi. Xususan, Kastiliya qiroli

Genrix III ning elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning kundaliklari Temur saltanatining iqtisodiy qudrati haqidagi eng ishonchli manbadir.

Temur o‘z davrida bojxona to‘lovlari ham tartibga soladi (o‘rtacha 5-10% gacha). Bu esa hozirgi «Markaziy va Janubiy Osiyo bog‘liqligi» hamda «Lapis-Lazuli» transport yo‘lagi loyihalari uchun tarixiy pretsedent bo‘lib xizmat qilgan.Uning 1402-yilda Karl VI ga yozgan maktubidagi «Savdogarlaringiz bizning o‘lkalarga kelsin, ularga izzat-ikrom ko‘rsatiladi» degan so‘zlari zamonaviy «Investitsion jozibadorlik» ya’ni siyosatining o‘sha davrdagi deklaratsiyasidir.

Temuriylar Renessansi va ilmiy-texnik yuksalishlari haqida so‘z ketsa, albatta

XIV-XV asrdagi Mirzo Ulug‘bekning «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» jadvalida 1018 ta yulduzning koordinatalari berilganligi yodimizga tushadi…

Bu jadval XVII- asrgacha Yevropadagi (masalan, Oksford universitetida) asosiy darslik bo‘lgan. Zamonaviy O‘zbekistonning kosmik tadqiqotlar va IT-texnologiyalar sohasidagi intilishlari aynan mana shu intellektual poydevoriga tayanadi.

Samarqand, Shahrisabz va Hirotda qo‘llanilgan «gumbaz ichra gumbaz» texnologiyasi va moviy koshinlar tayyorlash kimyosi o‘z davrining «nano-texnologiyasidir» Bugungi kunda «Yangi O‘zbekiston» majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishida aynan shu me’moriy maktab an’analaridan foydalanilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g‘oyasi Temuriylar davri tajribasini hozirgi zamon talablari bilan sintez qilishni ko‘zda tutadi. 1996-yilda (Temur tavalludining 660 yilligi) asos solingan «Temuriylar tarixi davlat muzeyi» bugungi kunda 5 mingdan ortiq nodir eksponatga ega bo‘lib, u yoshlar uchun milliy g‘urur markazidir. Hozirda O‘zbekistonning Oliy ta’lim tizimida «Temur tuzuklari» alohida fan yoki modul sifatida o‘qitilmoqda. Bu esa boshqaruv shakllaridan — «Yangi avlod liderlari»ni tayyorlashda Sohibqironning strategik fikrlash qobiliyatidan andoza olish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur shaxsi tarix silsilasida faqat «jahongir» sifatida emas, balki dunyo sivilizatsiyasini harakatga keltirgan «Globalizatsiya kashfiyotchisi» sifatida namoyon bo‘ladi. Uning «Adolat va qudrat» tushunchalari hozirgi Yangi O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosatida — inson qadri, qonun ustuvorligi va ochiq diplomatiya ko‘rinishida o‘zining mantiqiy davomini topmoqda.

Amir Temur va u asos solgan sivilizatsiya bugungi globallashgan dunyoda O‘zbekistonning geosiyosiy subyektligini mustahkamlovchi asosiy omildir. Uning boshqaruv modellari, diplomatik muloqot madaniyati va ilm-fanga homiyligi Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan hozirgi yosh avlod uchun eng ishonchli strategik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI::**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2018.
2. Karimov I.A. Amir Temur davri – yuksak madaniyat va ma’naviyat namunasi. – Toshkent, 1996.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2021.
4. Sodiqov H. Amir Temur va Yevropa diplomatiyasi. – Toshkent: «Sharq», 2004.

## АМИР ТЕМУР ДАВРИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИККА БЎЛГАН ЭЪТИБОР

**Отабек Пўлатов**
**Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий тадқиқот институти кичик илмий ходими**

Амир Темур ва унинг авлодлари Туронда ҳукм сурган даврда мамлакат ҳаётининг барча соҳалари жадал ривожланди. Мамлакатда вужудга келган ички сиёсий барқарорлик мамлакат иқтисодиётининг ҳам ривожланишига имконият яратди. Шу жумладан, иқтисодиётнинг асосини ташкил этувчи ҳунармандчилик соҳасига бўлган эътибор натижасида Туронда ҳунармандчилик сезиларли даражада тараққий этди. Мўғуллар босқини натижасида ҳунармандчиликнинг аксар соҳалари касодга учраган, кўплаб моҳир ҳунармандлар Турон ҳудудидан чиқиб кетган ёки жангларда халок бўлган эди. Абдураззоқ Самарқандий мўғуллар

томонидан вайрон этилган Марв шаҳри атрофидаги ерларни “ошиқ дилидек хароб ва ҳунармандлар касбидек касод[205]” деб таърифлагани ҳам мўғуллар даврида ҳунармандчиликнинг аҳволи жуда абгор ҳолатга келиб қолганидан дарак беради.

Амир Темур Туронда ўз ҳукмронлигини ўрнатгач марказий шаҳарларни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратди. Соҳибқирон мамлакат тараққиётида ҳунармандларнинг ўрнини юқори баҳолаб, уларнинг касб-кори ривожи учун шароит яратди. Забт этилган ҳар бир ўлканинг илми аҳли, ҳунармандларига алоҳида ҳурмат кўрсатиб, уларни ўз давлати пойтахти Самарқандга олиб келди ва бу ҳунармандлар мамлакат пойтахтида ўз фаолиятларини юрита бошладилар[206]. Кастиля[207] қиролининг элчиси Р.Г. Клавихонинг ёзишича, Амир Темур забт этган ўлкалардан келтирилган аҳолининг умумий сони 150 мингга яқин эди[208]. Бу аҳолининг катта қисми ҳунармандлар ва олимлардан иборат бўлган. Хусусан, Шарафиддин Али Яздий[209] Амир Темур Деҳлини эгаллагач, ўз амирлари ва шаҳзодаларига ушбу ҳудуддаги ҳунармандларни жамлаб Самарқандга олиб кетишни буюради[210]. Соҳибқирон Ҳиндистондан Самарқандга қайтганидан сўнг Жомеъ масжиди қуришни ният қилганди. Бу ҳунармандларни олиб кетишдан мақсад ҳам ушбу масжид ва бошқа иншоотлар қурилишида уларнинг маҳоратидан, услубларидан фойдаланиш эди. Бундан ташқари Шом ва Дамашқни забт этгач камончи, совутсоз, шишасоз, тоштарош, ўймакор усталар, Онадўлидан ўқ-ёй усталари, тош йўнувчилар, қўли гул заргарлар, муҳандис, тўпчилар, арғамчи тўқувчилар олиб келиниб ҳукумат тассаруфидаги устахоналарга жойлаштирилган[211]. Натижада, бошқа ўлкалар ҳунармандчилиги ва Турон ҳунармандчилиги тутум ва услублари қоришуви вужудга келди. Араб тарихчиси Ибн Арабшоҳ[212]нинг таъкидлашича, ушбу даврда Эрон, араб давлатлари ва Туронда тайёрланган ҳунармандчилик буюмлари ва уларга берилган безаклар ва ранглар бир-бирига жуда ўхшаш бўлганидан, уларни ажратиб олиш мушкул эди[213]. Бу эса ушбу ҳудудларда яшовчи халқлар орасида Амир Темур ҳукмронлиги даврида маданиятлар қоришуви, ўзаро иқтисодий ва ижтимоий алоқаларнинг юксалганидан дарак беради. Соҳибқирон ўз ҳукмронлиги остида улкан ҳудудларни бирлаштиргани мазкур алоқаларининг ривожида муҳим аҳамият касб этди. Натижада муштарак маданият шаклланди ва бу ҳунармандчиликда ҳам ўз аксини топди.

Ибн Арабшоҳ Темур ҳар бир касб эгаси борки, унда бирон фазилатни кўрса, унга алоҳида эҳтиром кўрсатганини, уларга ғоятда меҳр қўйганини ёзади[214]. Шу сабабдан Амир Темур саройида бир неча моҳир ҳунармандлар, хусусан заргарлар, мисгарлар тошйўнувчилар, наққошлар, шиша ва мисга нақш солувчи ҳунармандлар хизматда бўлган. Ибн Арабшоҳ Амир Темур саройидаги наққошларнинг энг моҳири сифатида Абдулҳай ал – Бағдодийни, заргарлардан ал-Ҳож Али Шерозий ва ал-Ҳож Муҳаммад Ҳофиз Шерозий, тошйўнувчилардан Олтуннинг номларини келтиради[215]. Соҳибқирон буйруғи билан бунёд этилган унлаб йирик иншоотларда бу ва бошқа ҳунармандларнинг ўрни катта бўлгани шубҳасиз.

Амир Темур “Тузуклар”ида ҳунармандларни алоҳида тоифа сифатида тилга олиб, уларнинг ҳар бир синфидан бўлганларни ўз саройига олиб келиб, жой берганини таъкидлайди[216]. Шунингдек, ҳунармандларнинг барча тоифаларидан вакиллар саройда ташкил этиладиган базмлар, тўй маросимларга таклиф этилган, ҳамда ўз ўрнига эга бўлган[217]. Улар мазкур йиғинларда иштирок этиб, ҳукмдор ва унинг аъёнларига ўз маҳоратини кўрсатишга

---

[205] Самарқандий А. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. Тошкент. 2008. 172-бет.
[206] Яздий Ш.А. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 117-бет.
[207] Кастиля – XI – XV-асрларда бугунги Пиреней яриморолининг марказий қисмларида ташкил топган қироллик.
[208] Клавихо Р. Г. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2010. – 200-бет.
[209] Шарафиддин Али Яздий – Темурийлар даврида яшаган тарихчи, юлдузшунос олим. Амир Темур ҳукмронлиги даврида юз берган воқеалар ва юришларига бағишланган “Зафарнома” асари муаллифи.
[210] Зафарнома… – 208-бет.
[211] Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги… – 199-бет.
[212] Ибн Арабшоҳ (1388-1450) – Араб тарихчиси. Амир Темур 1401-йилда Сурияни эгаллагач Самарқандга оила аъзолари билан бирга олиб келган.
[213] Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул мухаррир Кароматов Х. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 160-бет.
[214] Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. – Тошкент: Меҳнат, 2024. – 392-бет.
[215] Амир Темур тарихи... – 391-392-бетлар.
[216] Темур тузуклари... – 66-бет.
[217] Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр Тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1990. – 34-бет.

уринганлар. Жумладан, шундай тадбирлардан бирида бир ҳунарманд қамишдан суворий жангчи ва унинг қурол-яроғини ясаб кўрсатган. Пахта титувчилар эса пахтадан баланд, пишиқ ишланган мезана[218] тайёрлашади. Ибн Арабшоҳ бу маросимда заргарлар, темирчилар, этикдўзлар, ёй ясовчилар ҳам ўз ҳунарларини намойиш этганини ёзади[219].

Амир Темур барча одамларга касб-ҳунар ўргатиш, иш билан таъминлаш, экинтикинчилик, ҳунармандчилик ва тижорат ишлари билан машғул бўлишга яхши имкониятлар яратиб берган. Бу ҳақда Соҳибқирон "Тузуклар"да қуйидагича ёзади: "Касб-ҳунар ва маърифат аҳлларига салтанат корхоналаридан улуш берилсин", бу сармоя асосида "билагида кучи бор фақир-мискинлар эса ўз аҳволи ва касб-корига яраша йўл тутсинлар[220]". Бу каби ислоҳотлар мамлакат аҳолисининг иш билан банд бўлиш имконини яратиб, иқтисодиётннинг ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланган ишлаб чиқариш соҳасининг ривожида муҳим аҳамият касб этган.

Р.Г. Клавихонинг ёзишича, вақти-вақти билан Амир Темур томонидан ўтказиладиган тантаналарда, байрамларда мамлакатнинг ҳунарманд ва савдо аҳли иштирокида савдо кўргазмалари ўтказилиб турилган ва унда кимхоб тўқувчилар иштирок этиб, ўзларининг кўчма тўқиш машиналарини намойиш қилиб, шу ернинг ўзидаёқ тўқиб кўрсатилган[221]. Клавихо атлас ва кимхоб матолари Самарқанднинг ўзида ишлаб чиқарилганилиги тўғрисидаги маълумотни келтирган. Кимхобдан тўқилган тўнлар одатда темурийлар саройига келган элчиларга совға қилинган. Амир Темур даврида Самарқандда духобанинг алоҳида нави ишлаб чиқарилган. Мамлакатда кўпчилик аҳоли рўзғорида намат ишлатилиб, уни ишлаб чиқариш ҳунармандчилик ишлаб чиқаришда катта ўрин эгаллаган.

Ҳунармандларнинг фаолияти самарадор бўлиши учун албатта уларга зарур шароитлар яратилиши керак эди. Шу сабабдан, Амир Темур буйруғи билан Самарқандда ҳунармандлар учун махсус устахона қурилиб, унда қўшин учун аталган қурол-яроғлар, ҳарбий асбоб-анжомлар ва бошқа турли буюмлар тайёрланган. Бу устахонда мингга яқин ҳунарманд фаолият юритган. Устахона атрофи чуқур хандақ билан ўралган бўлиб, унга қозикалон ва унинг хизматчиларидан бошқа ҳеч ким кириш ҳуқуқига эга эмас эди[222]. Клавихо бу жойнинг қаттиқ қўриқланишига давлат хазинасининг шу ерда сақланишини сабаб қилиб келтиради. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, бу устахонадаги ҳунармандлар тўғридан-тўғри ҳукмдорнинг топшириғини бажаришган ва қўшин учун совут, дубулға, камон, найза ясаганлар. Шу боис бу жой алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, ҳукмдор томонидан катта эътибор қаратилган. Бундан англаб олишимиз мумкинки, ҳунармандчилик мамлакатнинг иқтисодий асосини ташкил этибгина қолмай, ҳарбий салоҳиятини сақлашда ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган. Зеро, қўшинни замонавий асбоб-анжомлар, қурол-яроғлар билан ўз вақтида таъминлаш мамлакат хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этган.

Шунингдек, турли мамлакатлардан олиб келинган ҳунармандлар ҳукумат томонидан ташкил этилган устахоналарга жойлаштирилган ва улар давлат учун турли буюмлар тайёрлашдан ташқари ўзлари мустақил буюмлар ясаб бозорда сотиш имконига эга бўлганлар. Бу эса ўз навбатида бу корхоналарнинг фаолиятини назорат қилиш заруриятини туғдирарди. Шу сабабдан, ушбу корхоналар кирим-чиқимини, даромадларини назорат қиладиган котиб масъул этиб тайинланди. Бу котиб барча кирим-чиқимларни ўз дафтарида қайд этиб борарди[223].

---

[218] Мезана – бирор бино ёки пештоқнинг устига қурилган юмалоқ шаклдаги қисм. Масжидлар минорасининг азон айтиладиган юмалоқ қисми.

[219] Амир Темур тарихи. – 294 – 295-бетлар.

[220] Темур тузуклари. – Тошкент:Ғафур Ғулом, 1991. – 67-бет

[221] Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги… – 186-бет.

[222] Ўша асар. 220-бет.

[223] ح. تربتی, ابو طالب. تزوکات تیموری. تهران.۱۳۴۲. ص. ۳۰۶

# AMIR TEMUR QO‘SHINIDA OZUQA TA’MINOTI MASALASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Polvanov Azim Kuchkarovich**
Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti
o‘qituvchisi, TDSHU mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur qo‘shinning ozuqa bilan ta’minlanish tizimi, uning tashkil etilishi hamda yuzaga kelgan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda harbiy yurishlar davomida askarlar va otlarning oziq-ovqat bilan ta’minlanishi, logistika jarayonlari, ta’minot yo‘llari va mahalliy resurslardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi.
**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, qo‘shin, ozuqa ta’minoti, harbiy logistika, harbiy yurishlar, ta’minot tizimi, tarixiy manbalar.
**Аннотация:** В данной статье анализируется система обеспечения войска Амир Темур продовольствием, её организация, а также возникавшие проблемы. В исследовании рассматриваются вопросы снабжения солдат и лошадей продовольствием в ходе военных походов, логистические процессы, пути снабжения и использование местных ресурсов.
**Ключевые слова:** Амир Темур, войско, продовольственное обеспечение, военная логистика, военные походы, система снабжения, исторические источники.
**Annotation**: This article analyzes the system of provisioning the army of Amir Temur with food, its organization, and the problems that arose. The study examines the supply of food to soldiers and horses during military campaigns, logistical processes, supply routes, and the use of local resources.
**Keywords:** Amir Temur, army, food supply, military logistics, military campaigns, supply system, historical sources.

Amir Temurning harbiy muvaffaqiyatlari nafaqat qo‘shin tarkibining jangovar mahorati, son jihatdan ustunligi yoki qurol-aslahalarning takomilligi bilan, balki puxta tashkil etilgan va uzluksiz faoliyat yuritgan ta’minot tizimi samaradorligi bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgan. Bu davrga oid yozma manbalarda harbiy ta’minot masalalari ko‘pincha alohida mavzu sifatida emas, balki yurishlar tafsiloti, davlat boshqaruvi yoki harbiy tartib-intizomga oid tasvirlar orqali bilvosita yoritilgan. Jumladan, “Zafarnoma”, “Temur tuzuklari”, kabi asarlarda yurishlar vaqtida qo‘shin uchun zarur oziq-ovqat zahiralarini tayyorlash, ularni taqsimlash tartibi hamda bu jarayonga mas’ul shaxslar haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Ushbu manbalar harbiy kuchning samaradorligi ko‘p jihatdan askarlarning muntazam va yetarli oziqlanishiga bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.itilgan. Ayniqsa, uzoq davom etadigan harbiy yurishlarda oziq-ovqat zahiralarini oldindan rejalashtirish va ularni oqilona taqsimlash qo‘mondonlik zimmasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblangan. Ta’minot tizimi faqat askarlarning ehtiyojlarini emas, balki qo‘shin tarkibidagi otlar va boshqa ulovlar uchun zarur yem-xashakni ham qamrab olgan. Chunki Temuriylar davrida qo‘shin asosan otliq askarlardan iborat bo‘lib, ularning jangovar chaqqonligi va harakatchanligi bevosita ot-ulovlarning oziqlanish darajasiga bog‘liq edi. Shu sababli harbiy ta’minot tizimi qo‘shin jangovar salohiyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Sohibqiron yurish paytida tajribali sarkardalarga katta ishonch bildirgan. Ko‘p sonli janglarda suyagi qotgan, urushni o‘zining bosh mashg‘uloti deb hisoblagan harbiylar safar boshlanishidan avval jam qilingan, ular kirim-chiqim daftariga, shuningdek davlatdan maosh - ulufa, oziq-ovqat, yem- xashak oluvchilar ruyxatiga kiritilgan.[224] “Zafarnomada” quyidagi ma’lumotlar mavjud “Amirzoda Mironshoh Xurosondan cherigi bilan keldi va hazratning muborak diydoriga musharraf bo‘ldi. U hazratga quvvat kirgondin so‘ng hukm bo‘ldikim, «Cherikka ozuq va yaroq bersunlar!» Cherikka ozuq bergondin so‘ng har bekka bir g‘ajirchi muqarrar qildurdi.” [225]Ushbu ma’lumot Amir Temur davrida qo‘shin ta’minoti markazlashgan holda tashkil etilganini, oziq-ovqat va qurol-yarog‘ bilan ta’minlash oliy hukmdor farmoni asosida amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, har bir bekka alohida g‘ajirchi tayinlanishi Temuriylar davrida harbiy logistika tizimi shakllangan va aniq mas’ul shaxslar orqali boshqarilganidan dalolat beradi.

[224] D.X.Ziyayeva. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. Toshkent.2012.y.86.b.
[225] Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”. 130.b.

Amir Temur qo‘shinida ozuqa ta’minotini mazmunan ikki asosiy turga ajratish mumkin: birinchisi — askarlar uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari, ikkinchisi esa ot-ulov va boshqa hayvonlar uchun zarur yem-xashakdan iborat bo‘lgan.

I. Inson iste’moli uchun mo‘ljallangan oziq-ovqatlar:

—Don va don mahsulotlari: bug‘doy, arpa, tariq, un hamda non.

—Go‘sht mahsulotlari: yangi, quritilgan, tuzlangan va qovurilgan go‘sht turlari.

—Sut va sut mahsulotlari: sut, qatiq, qurut, sariyog‘.

—Qo‘shimcha oziqalar: suv, hayvon va o‘simlik yog‘lari, tuz, turli ziravorlar hamda sabzavotlar.

I. Otlar va yuk tashuvchi hayvonlar uchun ozuqa:

—Arpa, suli, pichan, somon, yaylov o‘tlari va suv.

Mazkur tasnifdan ko‘rinadiki, Temuriylar qo‘shinida ta’minot tizimi har tomonlama o‘ylangan bo‘lib, askarlarning jangovar salohiyatini saqlab qolish bilan birga, ot-ulovlarning holatini ham barqaror ushlab turishga qaratilgan. Shu sababli qo‘shinni ozuqa bilan ta’minlash tizimi ikki yo‘nalishda — inson va hayvon ehtiyojlarini qondirish asosida tashkil etilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida qo‘shin ta’minoti keng qamrovli bo‘lib, u faqat askarlarning oziq-ovqat ehtiyojlarini emas, balki otlar hamda yuk tashuvchi hayvonlar uchun zarur yem-xashakni ham o‘z ichiga olgan. Shu sababli yem-xashak ta’minoti harbiy-logistik tizimning ajralmas va muhim qismi hisoblangan.

Shundan kelib chiqib, qo‘shin ozuqa bilan ta’minlash tizimini mazmuniga ko‘ra ikki asosiy turga ajratish mumkin.

**I.Markaziy oldindan tayyorlangan ozuqa ta’minoti tizimi.**

**II.Mahalliy va tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan ozuqa ta’minoti tizimi.**

**Markaziy oldindan tayyorlangan zahiralar tizimi –** Bu eng asosiy ishonchli tizim bo‘lgan. Harbiy yurishlardan oldin don, go‘sht, yem-xashak va suv zahiralari tayyorlangan. Zahiralar markaziy omborlar yoki yurish yo‘nalishidagi tayanch hududlarda joylashtirilgan. Bu tizim harbiy yurishlarni rejalashtirishda ta’minot masalasi oldindan hisobga olinganini ko‘rsatadi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida quyidagi ma’lumotlar mavjud. “Nishonlar bitib shahzodalarga yubordilar. Amirzoda Xalil Sulton Toshkandga bordi, amirzoda Sulton Husayn Sabron va Yassiga bordi. Cherik uchun viloyatlardan aravalar bilan oshliq kelturur erdilar.[226] Manbada Amirzoda Xalil Sultonning Toshkentga, Amirzoda Sulton Husaynning esa Sabron va Yassi hududlariga yuborilgani qayd etiladi. Bu holat harbiy yurishlar arafasida yoki davomida qo‘shin ehtiyojlarini qondirish uchun muayyan hududlar ta’minot bazasi sifatida tanlanganini ko‘rsatadi. Shahzodalarning bevosita ushbu hududlarga yuborilishi ta’minot ishlariga yuqori darajadagi mas’uliyat bilan yondashilganini va jarayon ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilganini bildiradi. Shuningdek, matnda “cherik uchun viloyatlardan aravalar bilan oshliq kelturur erdilar” deb ta’kidlanishi qo‘shin ozuqa ta’minotida viloyatlararo tashkiliy tizim mavjud bo‘lganini ochib beradi. Ozuqaning aravalar orqali yetkazib berilishi katta hajmdagi don mahsulotlarini uzoq masofalarga tashish imkonini bergan bo‘lib, bu Temuriylar davrida transport va logistika masalalari ham harbiy ehtiyojlarga mos ravishda yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, viloyatlardan oshliq yetkazilishi qo‘shin ehtiyojlarini qoplashda mahalliy iqtisodiy resurslardan markazlashgan holda foydalanilganini anglatadi.

Amir Temur Xitoy yurishiga uzoq vaqt va puxta tayyorgarlik ko‘rgan garchi bu yurish yakunlanmagan bo‘lsada, bu yurishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonini o‘rganishimiz juda muhim hisoblanadi. Xitoy yurishida eng katta qiyinchiliklardan biri, aholi siyrak bo‘lgan uzoq masofali hududda qo‘shinni ozuqa bilan ta’minlash edi. Shu sababdan Amir Temur Hindiston yurishidan oldin 1397 yil qishni Toshkentda o‘tkazadi va shunda nabirasi Muhammad Sultonni Mo‘g‘ulistonga hokim etib tayinlaydi unga chegara hududlarda qal’alar barpo etish, ekin ekib dehqonchilik qilib, u yerlarni obod qilishni buyuradi. Shuningdek, Berdibek Sari Bug‘a, amir Hoji Sayfuddin, Xudododi Husayniy, amir Shamsuddin Abbos va boshqa beklarni qirq ming kishi bilan shahzodaning xizmatiga qo‘yadi.[227] Mazkur ma’lumot Xitoy yurishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan eng muhim muammolardan biri — qo‘shin ozuqa ta’minotining murakkabligi Amir Temur tomonidan oldindan chuqur anglab yetilganini ko‘rsatadi.

[226] Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”. 294.b.

[227]. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”. 294.b.

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Xitoy yurishiga tayyorgarlik quyidagicha bayon etilgan. “Bu tartib bila barcha asbob muhayyo bo‘ldi. Aslahadin o‘q-yoy va qilich-qalqon, har nekim sipohiyga kerak turur, barchasi tayyor bo‘ldi. Va yana necha ming xarvor g‘alla muqarrar qildilarkim, arobalar bila cherik ichida birga yurug‘ay va yo‘lda ziroat qilg‘aylarkim, yong‘onda yarag‘ay. Va necha ming tuyakim bo‘g‘oz erdi, hamroh ettilarkim, alarning sutini ichkaylar.”[228] Ushbu ma’lumot Amir Temurning Xitoy yurishiga tayyorgarligi harbiy, moddiy va ozuqa ta’minoti jihatidan kompleks tarzda olib borilganini yaqqol ko‘rsatadi. Ayniqsa ozuqa ta’minoti masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, minglab xarvor g‘allaning oldindan muqarrar qilinib, aravalar orqali qo‘shin bilan birga olib yurilishi belgilangan. Bu holat Xitoy yurishining uzoq masofali va murakkab sharoitlarda kechishini hisobga olgan holda, markaziy oldindan tayyorlangan ozuqa zahiralari tizimi asosiy tayanch sifatida ko‘rilganini bildiradi. Shu bilan birga, yurish jarayonida dehqonchilik bilan shug‘ullanish, ya’ni zarurat tug‘ilganda ekin ekib, hosildan foydalanish imkoniyati ham nazarda tutilganini bildiradi. Bu esa qo‘shin ta’minotida mahalliy va tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan tizim ham muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, minglab bo‘g‘oz tuyalarning qo‘shin bilan birga olib yurilgani chorvachilik mahsulotlari, xususan sut orqali askarlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan choralarni ifodalaydi. Bu holat uzoq yurish sharoitida nafaqat oziq-ovqat, balki ichimlik va quvvat beruvchi tabiiy manbalarni ham uzluksiz ta’minlashga intilganlikni ko‘rsatadi. Demak, chorva qo‘shinning harakatchan “jonli ozuqa manbai” sifatida qaralgan.

Bundan tashqari, Klavixoning yozishicha Amir Temur ba’zi sarkardalarga o‘ziga qarashli yerlardagi ot va qo‘ylardan, birlari ga mingta, boshqalariga o‘n mingtadan bo‘lib bergandi. Mabodo bu sarkardalar o‘zlariga bildirilgan ishonchni oqlamay, Sohibqironga xiyonat qilishsa, ulardan bu ot va qo‘ylarni olib qo‘yar, aybdorlarni qattiq jazolardi.[229] Bu ma’lumot Amir Temur davrida qo‘shin ta’minoti sarkardalarning sadoqati bilan bevosita bog‘langanini ko‘rsatadi. Ot va qo‘ylar shartli in’om sifatida berilib, xizmat va ishonch evaziga saqlab qolingan. Bu tizim harbiy ta’minotni ta’minlash bilan birga sarkardalar ustidan qat’iy nazorat va intizomni mustahkamlagan.

**Mahalliy va tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan ta’minot tizimi.**

Amir Temur davrida qo‘shin ta’minotida mahalliy hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu yondashuv harbiy yurishlarning uzoq davom etishi, qo‘shin sonining ko‘pligi va turli geografik hududlarda olib borilgan harakatlar sharoitida ta’minot uzluksizligini ta’minlashga xizmat qilgan. Avvalo, harbiy yurishlar vaqtida saltanat tarkibiga o‘tgan hududlarning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

Dehqonchilik rivojlangan voha va shahar atroflaridan g‘alla, un, bug‘doy, arpa kabi oziq-ovqat mahsulotlari olinib, ular markaziy omborlar yoki vaqtinchalik ta’minot nuqtalarida jamlangan. Chorvachilik ustun bo‘lgan hududlarda esa qo‘shin asosan go‘sht, sut va sut mahsulotlari bilan ta’minlangan. Shuningdek, ko‘chmanchi chorvador qabilalardan olinadigan xiroj va to‘lovlarning chorva mollari ko‘rinishida undirilishi ham ta’minot tizimining muhim unsurlaridan biri bo‘lgan. Bu amaliyot qo‘shin uchun tez buzilmaydigan va doimiy ravishda qayta tiklanib turadigan oziq-ovqat manbaini yaratgan. Natijada, qo‘shin yurishlar davomida jonli chorva hisobidan ta’minlanib, uzoq masofalarga oziq-ovqat tashish zarurati qisman kamaytirilgan. Bu tizimni Klavixo quyidagicha bayon etgan. Alavarlarlarning[230] ko‘plab qora mollari, qo‘ylari, sigirlari hamda yigirma mingga yaqin tuyalari ham bo‘lib, o‘zlari bilan olib yurganlar. O‘z chorvasini hukmdorga tegishli yaylovlarda boqqani uchun boj hisobida har yili uch ming tuya va o‘n besh ming qo‘y berganlar.[231]

Harbiy yurishlarda logistika va ta’minot masalalari hisobga olinsada uzoq masofali yurishlarda ozuqa bilan muammolar vujudga kelgan, bu muammolarga Amir Temur o‘zining donoligi va aql zakovati bilan yechim topgan. Xususan, yuqorida keltirilgan Oltin O‘rda yurishida ham xuddi shunday muammolarga duch kelgan. Bu muammolarni Xondamir o‘zining “Xabib us-siyar” asarida quyidagicha bayon etgan. Yurish boshlangandan ya’ni Toshkentdan yurishni boshlaganiga 3-4 oy bo‘lganda Dashti Qipchoqning bepoyon cho’llarida, qo‘shin ozuqasi bilan jiddiy muammolar kelib

[228]Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”.294.b.
[229] Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi.150.b.
[230] Alavarlarlar – Eronda yashovchi kurdlarning alavar urug‘i
[231] Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi.129-130.b.

chiqa boshlaydi. Bir qo‘yning narxi yuz dinor kepakiyga[232] yetadi. Bir man g‘alla o‘n olti shar’iy mandan iborat katta tosh bilan o‘lchanganda yuz dinor kepakiyga ko‘tarildi. Askarlar qush tuxumlari va yeyishga munosib bo‘lgan, o‘tlar bilan kun kechirardi. Bu vaziyatda shunday farmon chiqdiki, hech kim non, kumoch,[233] bug‘ra[234] va tatmoch[235] pishirmasin, har kim oshpazdan olgan balmoqqa[236] qanoat qilsin. Amirlar bir man undan anbor toshidan sakkiz shar’iy manlik hisobida unga ozgina ko‘katlar qo‘shib, oltmish kosa balmoq qozondan chiqishini tajriba qilib ko‘rdilar. Har bir odam bir kunda bir kosa balmoq bilan kifoyalanishga qaror qilindi.[237]

Xondamirning “Xabib us-siyar” asarida keltirilgan ushbu lavha Amir Temur qo‘shinining uzoq masofali harbiy yurishlarda duch kelgan logistika va ta’minot inqirozini yaqqol aks ettiradi. Dashti Qipchoqning keng va aholi kam hududlarida qo‘shin uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat resurslari keskin kamayib, bozor mexanizmlarining izdan chiqishi kuzatiladi. Xususan, bir qo‘yning narxining yuz dinor kepakiyga yetishi, g‘allaning ham shu darajada qimmatlashishi ozuqa tanqisligi va inflyatsiyaning keskin kuchayganidan dalolat beradi. Shu o‘rinda Amir Temurning strategik tafakkuri va boshqaruv salohiyati namoyon bo‘ladi. U favqulodda holatga mos ravishda markazlashgan va qat’iy ratsion tizimini joriy etadi. Non, kumoch, bug‘ra va tatmoch kabi nisbatan ko‘p xomashyo talab qiladigan taomlarni pishirish taqiqlanib, butun qo‘shin uchun yagona va iqtisodiy jihatdan tejamkor bo‘lgan balmoq taomini iste’mol qilish belgilab qo‘yiladi. Bu qaror oziq-ovqat sarfini nazorat qilish, isrofning oldini olish va mavjud resurslarni maksimal darajada samarali taqsimlashga xizmat qilgan. Amirlarning tajriba tariqasida bir man undan sakkiz shar’iy manlik hisobida oltmish kosa balmoq olish mumkinligini aniqlashi, Temur qo‘shinida ta’minot masalalariga hisob-kitob va amaliy tajriba asosida yondashilganini ko‘rsatadi. Har bir askarga kuniga bir kosa balmoq belgilanishi esa qo‘shin ehtiyojlarini minimal darajada, biroq uzluksiz ta’minlashga qaratilgan ratsion tizimining shakllanganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Xondamir bergan ushbu ma’lumot Amir Temur harbiy yurishlarida logistika faqat oldindan rejalashtirish bilangina emas, balki yuzaga kelgan og‘ir sharoitlarga moslashuvchan va qat’iy boshqaruv qarorlari orqali hal etilganini ko‘rsatadi. Bu holat Temuriylar davrida qo‘shin ta’minoti masalasi harbiy strategiyaning ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo‘lganini tasdiqlaydi. Oltin O‘rdaga Dashti Qipchoq orqali amalga oshirgan yurishida Amir Temur oziq-ovqat muammosini hal qilishda o‘ziga xos ov uyshtiradi. Bunday ov usuli jirg‘a[238] usulida ov qilish deb nomlangan. Qo‘shin shunchalik katta aylana hosil qiladiki, aylananing tomonlari bir-birlari bilan ikki kundan so‘ng birlashadilar.[239]Katta doiraning ichiga minglab oq sayg‘oqlar, Jayron kiyiklar va boshqa hayvonlar to‘plangan. Ov nihoyatda mo‘l bo‘lib, lashkar go‘shtga to‘ygan va bir oylik go‘sht zahirasi yig‘ilgan.[240]

Amir Temur qo‘shinida oziq-ovqat ta’minoti markazlashgan rejalashtirish va ko‘chma xo‘jalik tizimining uyg‘unlashuvi asosida tashkil etilgan bo‘lib, bu o‘rta asrlar harbiy san’atida yuqori darajadagi logistika tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. X.Ziyayeva. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. —T.: “Sharq” 2012, –256 b.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” nashrga tayyorlovchi Ashraf Axmad “Sharq” nashriyoti Toshkent.1997, –384 b.
3. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi.(1403-1406 yillar) –T.: “O‘zbekiston”, 2010, –264 b.

[232] Dinori kepakiy- Chig‘atoy xoni Kepakxonp pul islohoti o‘tkazgan va uning kuchli oltin dinorlari “dinori kepakiy” deyilgan
[233] Kumoch- o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo va Eron hududlarida keng tarqalgan **non turi** bo‘lib, asosan harbiy yurishlarda va ko‘chmanchi hayotda iste’mol qilingan.
[234] Bug‘ra - asosan go‘shtdan tayyorlangan qaynatma taom**,** harbiy yurishlarda ko‘proq quvvat beruvchi ovqat sifatida iste’mol qilingan.
[235] Tatmoch - un va suv asosida tayyorlanadigan suyuq xamirli sho‘rva bo‘lib, tez tayyorlanadigan ovqat sifatida tanilgan.
[236] Balmoq **-** Amir Temur va Temuriylar davrida, ayniqsa harbiy yurishlar vaqtida qo‘shin uchun tayyorlangan, un suv va kukatlardan iborat suyuq ovqat bo‘tqadir.
[237] G'iyosiddin ibn Humomuddin Xondamir “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” 129.b.
[238] Jirg‘a usulida ov qilish- qo‘shin katta doira shakl hosil qiladi va doira kichiklashib boradi natijada doira ichiga hududdagi barcha hayvonlar to‘planib qoladi.
[239] Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”. 131.b.
[240] Hamdam Sodiqov. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati.”Art flex”. Toshkent. 2010. 175. b.

4. G'iyosiddin ibn Humomuddin Xondamir “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” / Fors tilidan tarjima va muqaddima mualliflari ; Jalil Hazratqulov, Ismoil Bekjonov; -T: “O‘zbekiston” 2013. –1264 b.
5. Hamdam Sodiqov. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. —T.: “Art flex”, 2010.–436 b.
6. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla’ us -sa’dayin va majma’ ul- bahrayn / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi. va izohlar muallifi Asomiddin O‘rinboyev, -T: O‘zbekiston, 2008, y; –832 b.

## ПОЛИТИКА ЯЗЫКА В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И СОВРЕМЕННАЯ ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.

**Рахмонова Рухсора Дилшодовна**
*Студентка Термезского государственного педагогического института*
*г.Термез, Узбекистан*
*E-mail: raxmonovaruxsora41@gmail.com*
*Tel: +998(94)132-78-28*

**Аннотация**: В статье рассматриваются особенности языковой политики в эпоху Амира Темура и в современный период с целью выявления исторической преемственности и принципиальных различий. Анализируется функциональное распределение языков в государстве Тимуридов, где персидский язык выполнял административно-литературные функции, арабский — религиозно-научные, а тюркские языки — повседневно-коммуникативные. Сопоставление с современной языковой политикой показывает переход от традиционной, практико-ориентированной модели к формализованной системе правового регулирования, основанной на принципах национальной идентичности, государственного суверенитета и защиты языковых прав граждан. Делается вывод о том, что несмотря на различие исторических условий, в обеих моделях язык выступает важнейшим инструментом консолидации общества и укрепления государственности.

**Ключевые слова**: языковая политика, Амир Темур, государственный язык, многоязычие, Тимуриды, национальная идентичность, языковые права, сравнительный анализ.

**Annotation:** The article examines the language policy of the Amir Temur era and compares it with contemporary language policy in order to identify historical continuity and fundamental differences. It analyzes the functional distribution of languages within the Timurid state, where Persian served as the administrative and literary language, Arabic functioned as the religious and scholarly language, and Turkic languages were widely used in everyday communication. The comparison with modern language policy demonstrates a transition from a traditional, practice-oriented model to a formalized legal system based on national identity, state sovereignty, and the protection of linguistic rights. The study concludes that in both historical contexts, language functions as a crucial instrument of social consolidation and state-building.

**Keywords:** language policy, Amir Temur, state language, multilingualism, Timurid state, national identity, linguistic rights, comparative analysis.

**Annotatsiya:** Maqolada Amir Temur davridagi til siyosati hamda zamonaviy til siyosati qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Temuriylar davlatida tillarning funksional taqsimoti — fors tilining ma’muriy va adabiy til sifatidagi mavqei, arab tilining diniy-ilmiy vazifasi hamda turkiy tillarning kundalik muloqotdagi o‘rni — yoritib beriladi. Zamonaviy til siyosati bilan solishtirish orqali an’anaviy, amaliy ehtiyojlarga asoslangan modeldan huquqiy-me’yoriy tizimga o‘tish jarayoni ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida til har ikki davrda ham jamiyatni birlashtiruvchi va davlat mustahkamligini ta’minlovchi muhim omil ekanligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** til siyosati, Amir Temur, davlat tili, ko‘p tillilik, Temuriylar davlati, milliy identitet, til huquqlari, qiyosiy tahlil.

Политика языка в эпоху Амира Темура и современная языковая политика представляют собой два различных историко-культурных феномена, отражающих особенности государственного устройства, общественных потребностей и идеологических ориентиров

своего времени. В XIV–XV веках государство, созданное Амир Темур, охватывало обширные территории Средней Азии, Ирана, Афганистана, части Закавказья и Ближнего Востока. Это было многонациональное и многоязычное пространство, в котором сосуществовали тюркские, персидские, арабские и другие языки. Языковая ситуация в таком государстве не могла быть однородной, и хотя в тот период отсутствовали современные правовые механизмы регулирования языковых отношений, фактически сложилась определённая модель языковой политики, обеспечивавшая административную эффективность и культурное единство.

В эпоху Тимура персидский язык выполнял функцию официального и литературного языка. Он использовался в делопроизводстве, дипломатической переписке, исторических хрониках и поэтических произведениях. Персидская письменная традиция к тому времени уже имела высокий престиж и развитую литературную норму, что делало её удобным инструментом управления многоэтническим государством. Арабский язык сохранял статус языка религии, богословия и науки, поскольку ислам играл ключевую роль в легитимации власти и формировании духовной жизни общества. Медресе, религиозные трактаты и богословские дискуссии велись преимущественно на арабском языке. Тюркские языки, на которых говорило значительное число населения и военной знати, функционировали главным образом в устной сфере, в повседневной коммуникации и военной среде. Таким образом, языковая система государства Тимуридов представляла собой функционально распределённое многоязычие, где каждый язык занимал определённую социальную нишу.

Характерной чертой языковой политики той эпохи была её практическая направленность. Не ставилась задача насильственной унификации или вытеснения других языков; напротив, многоязычие воспринималось как естественное состояние общества. Государственная власть была заинтересована прежде всего в стабильности и управляемости, поэтому сохранялась гибкость в языковом вопросе. Представители различных этнических групп могли участвовать в административной и культурной жизни без обязательного отказа от родного языка. В этом смысле языковая политика Тимуридов носила инструментальный характер: язык рассматривался как средство управления и культурной коммуникации, а не как объект идеологического регулирования в современном понимании.

Современная языковая политика формируется в совершенно иных условиях. Она опирается на правовые нормы, закреплённые в конституциях, законах о государственном языке, актах об образовании и культурной политике. В современных государствах язык становится важнейшим символом национальной идентичности, элементом суверенитета и фактором политической консолидации. Регулирование языковой сферы осуществляется через систему образования, средства массовой информации, официальное делопроизводство и законодательные механизмы. В отличие от средневековой модели, современная языковая политика осознаётся как самостоятельное направление государственной деятельности и сопровождается разработкой концепций, программ и стратегий развития языка.

Существенным отличием является и акцент на правах личности. В современном обществе языковые права рассматриваются как часть прав человека. Гражданам гарантируется право на получение образования на родном языке, на использование родного языка в культурной и частной жизни, а в некоторых случаях — и в публичной сфере. Государство принимает меры по сохранению и поддержке языков национальных меньшинств, предотвращению их исчезновения и развитию билингвального или полилингвального образования. Таким образом, современная языковая политика сочетает в себе функции укрепления государственного языка и одновременно защиты лингвистического разнообразия.

Сравнительный анализ показывает, что в эпоху Амира Темура языковая политика носила преимущественно традиционный и функционально обусловленный характер, тогда как современная модель отличается высокой степенью формализации и нормативного регулирования. В государстве Тимуридов распределение языковых функций складывалось исторически и поддерживалось культурным авторитетом письменной традиции, тогда как сегодня статус языка определяется юридически и подкрепляется институциональными механизмами. Вместе с тем можно отметить и определённое сходство: и в средневековый период, и в современности язык служит инструментом консолидации общества и укрепления

государственности. В обоих случаях многоязычие требует гибкой политики, способной учитывать интересы различных этнокультурных групп.

Исторический опыт эпохи Тимуридов демонстрирует, что устойчивость многонационального государства во многом зависит от способности власти учитывать языковое разнообразие и обеспечивать баланс между престижем официального языка и свободой повседневной языковой практики. Современная языковая политика, обладая развитой правовой базой и институциональными механизмами, продолжает решать аналогичные задачи, но в условиях глобализации, миграции и информационного общества. Таким образом, сопоставление двух эпох позволяет выявить эволюцию представлений о роли языка в государстве: от инструмента практического управления к осознанному объекту государственной стратегии и важнейшему элементу национальной идентичности.

**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Абдурахманов, Ш. История Средней Азии в эпоху Тимуридов. — Ташкент: Фан, 2002.
2. Бардашев, В. А. Языковая политика в многонациональном государстве. — Москва: Наука, 2015.
3. Бартольд, В. В. История Туркестана. — Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 1997.
4. Темуридов, А. Сборник исторических хроник XIV–XV вв. — Ташкент: Восточная литература, 1980.
5. Гирт, М. И. Язык и власть: исторические и современные аспекты. — Москва: Академический проект, 2010.
6. Ходжаев, Н. Культура и письменность эпохи Тимуридов. — Самарканд: Изд-во Университета, 2008.

## ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА КОНЧИЛИК САНОАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

**Саибов Дилшод Камилжонович**
**Навоий давлат университети тузилмасидаги**
**Қатағон қурбонлари хотираси музей илмий ходими, тарих фани ўқитувчиси**

**Аннотация:** Ушбу мақола Амир Темур ва Темурийлар даврида Ўрта Осиёда кончилик саноати маданиятининг равнақ топиши, ўша даврда қазиб олинган баъзи ноёб қимматбаҳо тош ва металларнинг хусусиятлари, шунингдек бу соҳанинг мамлакатнинг иқтисодий қудратида ўзига хос ўрин эгаллаши ҳақида ёритилади.

**Калит сўзлар:** Металлургия, минералогия, қўрғошин, ёқут, зумрад, лаъл, фируза, олмос, олтин, кумуш, ипак мато.

**Abstract:** This article will focus on the flourishing of the mining industry culture in Central Asia during the reign of Amir Temur and the Timurids, the characteristics of some of the rare precious stones and metals mined during that period, and the unique place this industry occupied in the country's economic power.

**Keywords:** Metallurgy, mineralogy, lead, ruby, emerald, ruby, turquoise, diamond, gold, silver, silk fabric.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание будет уделено расцвету культуры горнодобывающей промышленности в Центральной Азии во время правления Амира Тимура и Тимуридов, характеристикам некоторых редких драгоценных камней и металлов, добываемых в тот период, а также уникальному месту, которое эта отрасль занимала в экономической мощи страны.

**Ключевые слова:** Металлургия, минералогия, свинец, рубин, изумруд, бирюза, алмаз, золото, серебро, шелковая ткань.

Биз яшаётган муқаддас заминдан инсоният тараққиётига улкан ҳисса қўшган буюк алломалар, донишмандлар, саркардалар етишиб чиққан.

Тарихда машҳур шахслардан бири соҳибқирон Амир Темурдир. Унинг номи фақат Марказий Осиёгагина эмас, балки бутун дунёга ёйилди.У буюк давлат арбоби ва саркарда сифатида шуҳоат қозонди ва жаҳон тараққийпар кишилари қалбидан мустаҳкам жой олди.

Темурийлар салтанатининг сарҳадлари Шимолдан (Волга дарёсидан) Жанубда (Ҳиндистондаги) Нанг дарёсигача, Шарқда Хитой девори ва Ғарбда Ўрта Ер денгизигача бўлган ҳудудларни (27 та давлатни бирлаштирган) ўз ичига олган эди. Амир Темур марказлашган Турк давлатини тиклаганлиги, мамлакатда юз берган тарқоқлик, ўзаро жанжаллар, тартибсизликларга чек қўйилганлиги ва энг муҳими, шаҳарларда қурдирган ҳашаматли иморатлар, зиёратгоҳларни барпо этган. Бунга Самарқанд, Бухоро Шаҳрисабз, Ҳирот, Тошкент, Туркистон ва бошқа кўплаб шаҳарлар, улардаги ҳашаматли иморатлар ҳам тарихий гувоҳдир.

Амир Темур ҳукмронлик қилган йилларда Мовароуннаҳрнинг турли томонларида кўпгина иншоотлар: шаҳарлар, масджу мадрасалар, мақбаралар, хонақоҳлар, қалъа-қасрлар, боғу-чорбоғлар, суғориш иншоотлари, равон йўллар, кўприклар барпо этилди. Бунга бир томондан мамлакат сиёсий ҳаётида ҳосил бўлган осойишталик имкон яратган бўлса, иккинчидан эса, маҳаллий ҳунармадлар билан бир қаторда забт этилган турли мамлакатлардан Мовароуннаҳрга, асосан Самарқандга келтирилган мутахассис-ҳунармадлар, меъморлар, наққошлар кенг кўлпмда қурилишга жалб қилининши ижобий таъсир кўрсатади.

Шуни алоҳида таъкидлашимиз керакки, Амир темур ва Темурийлар даврида Ўрта Осиёда кончилик саноатининг ривожланишига алоҳида эътибор берилган. Кончилик саноати тарихида энг юксак давр ҳисобланган бу давр хусусан, Ўзбекистон кончилик саноати ва металлургиясининг бугунги истиқлолида асос бўлиб хизмат қилмоқда. Аввало бу давр кончилик саноатининг ривожланишига Амир Темур асос солган бўлиб, кучли давлатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига боғлиқдир. Ўша даврларда кончиликнинг юксалиши билан бирга ҳунармадчиликнинг турли шакллари ҳам ривожланди. Айниқса тош ўймакорлиги билан шуғулланган усталар ҳам ривожланди. Айниқса тош ўймакорлиги билан шуғулланган усталар ичида қабр тош лаҳмаларини ишлайдиган мутахассислар етишиб чиққан. Масалан, Амир Темур қабрига набираси Улуғбек Шарқий Туркистон сафаридан қайтишда кўктош нефритини келтириб ўрнатган. Аҳмад Яссавий мақбарасидаги қабр тош эса тўқ яшил табризий мармардан ишланган. Бундай усталар бошқа мамлакатдардан олиб келинганидан далолат беради. Ўша даврда Мовароуннаҳр темур салтанатида сиёсий ва иқтисодий жиҳатдан алоҳида ўрин эгаллайди. Зотан кончилик, ҳунармадчиликнинг турли соҳалари ва савдонинг асосий марказлари шу ерда жойлашган бўлиб, кейинчалик Мирзо Улуғбек даврида уни ривожланишига катта ахамият берилган. XV асрда Ўрта Осиё шаҳарларининг Шарқ мамлакатлари билан тижорат ва иқтисодий ҳамда ҳунармадчилик алоқалари Буюк ипак йўли орқали олиб борилиши бехатар бўлишига жуда катта эътибор қаратилган. Ипак йўли орқали Хитойдан асосан ипак ташилган.

Маълумки, Хитойдан бошқа мамлакатларга, жумладан, Ўрта Осиёга ипак матонинг айрим турлари ва улардан тикилган кийимлар олиб келинган. Хитой императори Темурий ҳукмдорларга юборган совғалар орасида қимматбаҳо ипак мато, кимҳоб бир неча маротаба тилга олинади.

Буюк ипак йўли Мовароуннаҳрнинг бош йўлига Самарқанд, Бухоро, Урганч, Андижон каби йирик тижорат ҳунармадчилик марказлари орқали кичик шаҳарча ва қишлоқларни ҳам қамраб олган. Амир Темур ва Темурийлар давридаги кончилик ва минералогияга бўлган маълумотларни баъзи бир олимларимиз янги шароитга мослаштирдилар ва ривожлантирдилар. Шу ерда айтиш жоизки XVI-XVII асрларда битилган асарлар ҳам жавоҳиршунослик илмига боғланганлиги таҳсинга лойиқдир.

Булардан бири бадхлик муаррих ва жўғроф олим Султон Балхий (1573 йил) қаламига мансуб асари “Мажмуъ ал Ғаройиб” (“Ғаройиботлар мажмуаси”) бу асар тарихий, жўғрофий ва жавоҳиршуносликка оид қимматли маълумотлар мавжуд. Унда бир қатор қимматли (ёқут, зумрад, лаъл, фируза, олмос) ва ўрта қимматга эга тошларнинг илмий тавсиялари берилган. Масалан, Султон Маҳмуд Бадхий фирузанинг сеҳрли хусусиятларига тўхталиб, у шундай дейди: “Айтишларича, қадимда олмослар янги ой тўлган одатда ва фирузага боққанлар шунинг учун кимни қўлида фируза бўлса, одамлар назарида ҳурмат эътибор қозониб, урушларда душман устидан ғолиб келган. Подшолар фирузани мажлисларга олиб келган (мажлис аҳли) фирузага навбатма-навбат унга боққанлар. Сўнгра уни жаннат жаннат ичимлигидаги сифатга эга бўлган май қадаҳга жойлаганлар ва ундан бир қултим ичганлар. Бу

одатни тожу-тахт соҳиблари муқаддас деб билганлар”[241]. Яна “Ёқутнинг, -деб ёзади султон Маҳмуд Балхий, - олтин нави мавжуд, унинг хосияти шуки: агар одам уни оғизда тутилса юракни қувватлаштиради, хафақонликни кетказади, одам чанқоқликни сезмайди, одам доимо шод ҳуррам юради. Энг муҳим масала: Муҳаммад Тохирнинг жавоҳирлар ва металларнинг шифобахш хосиятлари ҳақида ҳам ўта қимматли маълумотлар айтилади. Масалан, зумраднинг майдаланган дони заҳарни даф этади. Унинг бўлагини ёнига олиб юрган ва тез-тез унга қараб турган одамнинг кўзи равшан бўлади. Яна майдаланган мис сурмага қўшилиб кўзга қўйилса, кўз ёшланиши тўҳтатади, кўзни эса равшан қилади, яна мис кукундисини ярага сепса қони тўҳтайди. Мис саратон, талоқ, жигар ва қорин касаллигига даво бўлади. Қўрғошин ҳам саратон касаллигини даволайди”[242].

XVII асрда жавоҳиршунослик илмининг умумий аҳволини кўрсатиб берувчи яна бир асар муаллифи балхлик қомусий олим маҳмуд ибн Вали (1597 йилда таваллуд топган) ҳисобланади. Унинг “Баҳр ул-асрор фи маноқиб ул ахёр” (“Олийжаноб кишиларнинг жасорати ҳақида сирлар женгизи”) бу асарда 180 дан ортиқ тошларнинг ҳамда металларни хусусан олтин ва кумушни пул-товар муомаласидаги тутган ўрнига алоҳида эътибор беради.[243]

Шунингдек, у металлардан жуда кўп мамлакатларда танга пул зарб қилинганлигини ҳамда бундай пулларни Маҳмуд ибн Вали “бутачий” деб атайди. Олимнинг олтин ва кумушдан зарб қилинган пулларнинг бошқа намуналари ҳақида келтирилган маълумотлари ҳамда диққатга сазовордир. Масалан, XIII-XIV асрларда Эронда зарб қилинган пул ашрафий (биринчи бор зарб қилдирилган Гуллоний Малик Ашраф (1344-1356) шаънига шундай аталган)деб номланган.

Шуни айтиш керакки, кончилик ва металлургия юртимиз халқларининг қадимий касби ҳисобланиб, бу касбларни таъминловчи хом-ашё асосан саҳоватли заминимиздан олинганини биламиз. Ўрта Осийда Амир Темур ва Темурийлар даврида мавжуд бўлган конларнинг фаолияти ушбу давлатнинг нечоғлик ривожланганидан далолат беради. Айнан шу кон-металлургияни ривожланиши давлатда савдо-сотиқ, ҳунармадчиликнинг турли тармоқларидан, мисгарлик, чилангарлик, тоштарошлик, заргарликниг тараққиётига асос бўлганлиги тарихдан маълум. Амир Темур гарчи ўз даврида энг буюк давлатга асос солиб, барча соҳаларни ҳар томонлама ривожлантирган бўлсада, у аввало маънавий етук инсон сифатида тарихда қолди.

Хулоса

Шуни фахр билан тилга олишимиз мумкинки, мамлакатимиз тарихида Амир Темур ва Темурийлар даври қалим ва навқирон бўлиши билан бирга, ҳар жиҳатдан дунёга машҳур бўлиши билан бирга, ҳар жиҳатдан дунёга машҳур бўлиши мустақил Ўзбекистондаги кўпгина конлар, Навоий вилоятининг кон-металлургияси ҳам ўзининг ноёб хусусиятлари ва захираларининг кўплиги нуқтаи назаридан нафақат Марказий Осиёда, балки бутун дунёда камдан-кам топилади. Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидагича хулоса чиқрадиган бўлсак жонажон диёримиз ер ости ва усти бойликларига бойлиги ва битмас-туганмас эканлиги билан алоҳида ажралиб туради.

**АДАБИЁТЛАР**

[1] Общественные науки в Узбекистане. 1996, № 89, стр. 35-36.

[2] Ўша жойда

[3] Маҳмуд ибн Вали. Моретий. 38-бет

[241] Общественные науки в Узбекистане. 1996, № 89, стр. 35-36.

[242] Ўша жойда

[243] Маҳмуд ибн Вали. Моретий. 38-бет

# YUSIF QORABOG‘IY IJODIDA INSON VA KAMOLOT G‘OYASI

**Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li**
**BuxDU “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi**

***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda Qorabog‘iyning ilm va ma’rifat haqidagi qarashlari, ularning o‘zaro munosabati hamda inson ruhiy kamolotidagi o‘rni tahlil qilinadi..*

***Annotation:*** *This thesis analyzes Karabaghi's views on science and enlightenment, their relationship, and their role in human spiritual development..*

Markaziy Osiyo islomiy-falsafiy tafakkuri tarixida Yusif Qorabog‘iy alohida o‘rin tutadi. Uning ijodi tasavvufiy-irfoniy an’analarni davom ettirgan holda, insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy pokligi va ruhiy yuksalishi masalalarini chuqur tahlil qiladi.

Qorabog‘iy ta’limotida inson — yaratilishning eng oliy namunasi, kamolot esa uning hayotiy maqsadidir. Mutafakkir inson haqida shunday deydi: “Inson — ikki olamning jamlanmish suratidur; agar nafsga ergashsa, asfal, agar ma’rifatga yetsa, a’lo bo‘lur.”[244] Bu fikr Qorabog‘iyning inson haqidagi qarashlaridagi dual tabiat — moddiy va ruhiy jihat uyg‘unligini ochib beradi.

Qorabog‘iy insonni jism va ruh birligidan iborat murakkab mavjudot sifatida talqin qiladi. Uningcha, insonning asl mohiyati ruh bilan bog‘liq. Jism vaqtinchalik, ruh esa ilohiy manbaga bog‘langan.

U shunday yozadi: “Jism tuproqqa moyil, ruh esa malakut sari oshiqdur.”[245] Bu yerda inson tabiatidagi ikki qarama-qarshi intilish — moddiy va ma’naviy kuchlar ifodalangan. Kamolot aynan shu ichki kurashda ruhning g‘alabasi orqali yuzaga chiqadi.

Qorabog‘iy insonning ulug‘ligini uning bilish qobiliyati bilan bog‘laydi: “Insonni inson etgan — ilm va idrokdur.”

Demak, insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan jihat — uning aqliy va ma’naviy salohiyatidir.

Qorabog‘iy ta’limotida kamolot — bu insonning o‘z asl mohiyatiga qaytishi, ruhiy poklanish va ma’rifatga erishish jarayonidir. Kamolot faqat zohiriy ibodat yoki bilim bilan cheklanmaydi; u axloqiy yuksalishni ham talab qiladi.

Mutafakkir ta’kidlaydi: “Kamol — ilm ila boshlanur, axloq ila mustahkam bo‘lur, ma’rifat ila tugallanur.”

Bu yerda kamolotning uch bosqichi ko‘rsatiladi: bilim, axloq va ma’rifat. Qorabog‘iyga ko‘ra, nafsni tarbiya qilmasdan turib kamolotga erishib bo‘lmaydi: “Nafsini yengmagan kishi, o‘zini tanimas.” Bu fikr insonning ichki o‘zgarishi kamolotning asosi ekanini anglatadi.

Qorabog‘iy ijodida axloq masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Uningcha, inson kamoloti axloqiy pokliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. U shunday deydi: “Axloq — kamolotning libosidur; libossiz jamol ko‘rinmas.”

Bu tashbeh axloqni inson kamolotining tashqi ifodasi sifatida ko‘rsatadi. Qorabog‘iy axloqiy fazilatlar qatoriga ixlos, sabr, tavoze va adolatni kiritadi. Ularning barchasi inson ruhini poklashga xizmat qiladi.

Qorabog‘iy ta’limotida komil inson — ilmli, axloqli va ma’rifatli shaxsdir. U jamiyatga naf keltiradigan, adolat va insofni qaror toptiruvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Mutafakkir shunday ta’kidlaydi: “Komil inson — o‘zini tanib, Robbini tanigay.” Bu fikr tasavvuf an’anasidagi “o‘zini bilish” g‘oyasi bilan uyg‘un.

Inson o‘z mohiyatini anglagan sari ilohiy haqiqatga yaqinlashadi. Qorabog‘iyning fikricha, komil inson jamiyatning ma’naviy tayanchidir. U faqat shaxsiy kamolot bilan cheklanmaydi, balki boshqalarga ham ma’naviy nur ulashadi.

Xulosa qilib aytganda, Yusif Qorabog‘iy ijodida inson — oliy qadriyat, kamolot esa uning hayotiy maqsadidir. Inson jism va ruh birligida yashaydi, ammo uning haqiqiy yuksalishi ruhiy poklanish orqali namoyon bo‘ladi. Kamolot ilm, axloq va ma’rifat uyg‘unligida shakllanadi.

[244] Қорабоғий, Ю. Рисола фи ҳақиқат ал-инсон. Қўлёзма, 6-бет.
[245] Ўша асар. – Б. 9.

Qorabog‘iy ta’limoti bugungi kunda ham inson tarbiyasi, ma’naviy kamolot va axloqiy barkamollik masalalarida muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning inson va kamolot haqidagi g‘oyalari zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qorabog‘iy, Y. Risolalar to‘plami. Qo‘lyozma manbalar asosida.
2. Islom falsafasi tarixi bo‘yicha tadqiqotlar. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Tasavvuf ta’limoti va irfon masalalari. – Toshkent, 2012.
4. Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand, 2015.
5. Islom axloq falsafasiga oid manbalar sharhi. – Buxoro, 2010.

## YUSIF QORABOG‘IY QARASHLARIDA ILM VA MA’RIFAT UYG‘UNLIGI

**Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li**
**BuxDU “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi**

***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda Qorabog‘iyning ilm va ma’rifat haqidagi qarashlari, ularning o‘zaro munosabati hamda inson ruhiy kamolotidagi o‘rni tahlil qilinadi..*

***Annotation:*** *This thesis analyzes Karabaghi’s views on science and enlightenment, their relationship, and their role in human spiritual development..*

Markaziy Osiyo islomiy tafakkuri tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan mutafakkirlardan biri — Yusif Qorabog‘iy hisoblanadi. Uning ilmiy-falsafiy merosida ilm (zohiriy bilim) va ma’rifat (botiniy idrok) masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Qorabog‘iy qarashlarida mazkur ikki tushuncha bir-biriga zid emas, balki inson kamolotining ikki o‘zaro bog‘liq bosqichi sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir ilmni ma’rifatga olib boruvchi yo‘l, ma’rifatni esa ilmning yuksak natijasi sifatida ko‘radi.

Qorabog‘iy ta’limotida ilm — haqiqatni anglashning zaruriy va dastlabki bosqichidir. U ilmni ikki turga ajratadi: zohiriy ilm va botiniy ilm. Zohiriy ilm shariat qoidalari, aqida, fiqh, hadis va tafsir kabi fanlarni o‘z ichiga oladi. Bu ilm insonning tashqi amallarini tartibga soladi va uni jamiyatda to‘g‘ri yashashga o‘rgatadi.

Qorabog‘iy ta’limotida ma’rifat — bu qalb orqali idrok etiladigan ilohiy haqiqatdir. Agar ilm aql vositasida erishiladigan bilim bo‘lsa, ma’rifat qalb va ruh orqali kashf etiladigan ichki idrokdir. Ma’rifat insonning ichki dunyosida sodir bo‘ladigan ruhiy uyg‘onish natijasidir.

Mutafakkir ma’rifatni “haqiqatni ko‘rish” holati sifatida izohlaydi. Bu holatga erishish uchun inson nafsni tarbiya qilishi, axloqiy komillikka intilishi va ilm asosida harakat qilishi kerak. Demak, ma’rifat ilmning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Qorabog‘iy qarashlariga ko‘ra, ma’rifatga erishgan insonda quyidagi sifatlar shakllanadi: qalb pokligi; ixlos va samimiyat; dunyoviy manfaatlarga beparvolik; ilohiy muhabbat. Shu jihatdan, ma’rifat insonni faqat bilimli emas, balki komil shaxsga aylantiradi.

Qorabog‘iy ta’limotining markaziy g‘oyalaridan biri — ilm va ma’rifatning o‘zaro uyg‘unligidir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Ilmsiz ma’rifat - asossiz da’vo, ma’rifatsiz ilm esa quruq nazariyadir.

Mutafakkir fikricha, ilm insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, ma’rifat esa uni shu yo‘lda mustahkam qiladi. Ilm aqlni tarbiyalasa, ma’rifat qalbni poklaydi. Inson kamoloti esa aql va qalb uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Qorabog‘iy ilmni daraxtning ildizi, ma’rifatni esa uning mevasiga qiyoslaydi. Ildizsiz daraxt o‘smaganidek, ilmsiz ma’rifat ham vujudga kelmaydi. Mevasiz daraxt esa o‘z maqsadiga yetmagani kabi, ma’rifatsiz ilm ham insonni komillikka yetkazmaydi.

Bu uyg‘unlik insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida ham namoyon bo‘ladi. Ilmli va ma’rifatli inson jamiyatda adolat, insof va bag‘rikenglikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu bois Qorabog‘iy ta’limoti nafaqat individual ruhiy kamolot, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Qorabog‘iy ilmni aql bilan, ma’rifatni qalb bilan bog‘laydi. Biroq u aql va qalbni qarama-qarshi qo‘ymaydi. Aksincha, ularning mutanosibligini ta’kidlaydi. Aql yo‘l ko‘rsatuvchi charog‘ bo‘lsa, qalb haqiqatni his etuvchi markazdir.

Uning fikricha, faqat aqlga suyangan inson quruq ratsionalizmga berilib ketishi mumkin, faqat hissiyotga berilgan inson esa adashishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ilm va ma’rifat birgalikda insonni muvozanatga olib keladi.

Bu g‘oya islomiy falsafadagi “zohir va botin” tamoyili bilan ham uyg‘unlashadi. Qorabog‘iy ana shu an’anani davom ettirib, uni axloqiy va irfoniy jihatdan boyitgan.

Xulosa qilib aytganda, Yusif Qorabog‘iy qarashlarida ilm va ma’rifat bir-birini to‘ldiruvchi, inson kamolotini ta’minlovchi ikki asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Ilm — haqiqat sari intilishning dastlabki bosqichi, ma’rifat esa uning yuksak cho‘qqisidir. Ular o‘rtasidagi uyg‘unlik aql va qalb mutanosibligida namoyon bo‘ladi.

Mutafakkir ta’limoti bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Zamonaviy jamiyatda bilim olish kengaygan bo‘lsa-da, ma’naviy kamolot masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Qorabog‘iyning ilm va ma’rifat uyg‘unligi haqidagi g‘oyalari insonni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qorabog‘iy, Y. Risolalar to‘plami. Qo‘lyozma manbalar asosida.
2. Islom falsafasi tarixi bo‘yicha tadqiqotlar. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Tasavvuf ta’limoti va irfon masalalari. – Toshkent, 2012.
4. Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand, 2015.
5. Islom axloq falsafasiga oid manbalar sharhi. – Buxoro, 2010.

**MUNDARIJA**

КИРИШ СЎЗИ
М.Б.Калонов
Навоий давлат университети ректори
иқтисодиёт фанлари доктори, профессор……..3

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING PIR VA USTOZLARI XUSUSIDA.
Shodmon Ahmadovich Hayitov
BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi,
Tarix fanlari doktori, professori……..4

«ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ» -ТЕМУРИЙЛАР ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА
МУҲИМ МАНБАИ
Ғаффоров Шокир Сафарович
Тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд Давлат университети……5

AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI
Rajabov R.
Navoiy davlat universiteti professori
Muhammadiyev D.R.
Navoiy davlat universiteti talabasi……9

СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР КАРМАНАДА
К.Йўлдошев
Педагогика фанлари доктори, профессор
Турон фанлар академияси академиги……13

ИСПАН ЭЛЧИСИ РУЙ ГОНСАЛЕС ДЕ КЛАВИХОНИНГ “САМАРҚАНДГА, ТЕМУР САРОЙИГА САЁҲАТ КУНДАЛИГИ 1403-1406 ЙИЛЛАР” КИТОБИДА СОҲИБҚУРОН АМИР ТЕМУРНИНГ ШАХСИЙ ҚИЁФАСИ
Ҳайитов Шодмон Аҳмадович
БухДУ, тарих фанлари доктори, профессор.
Туйев Фазлиддин Эркинович
БухДПИ, т.ф.ф.д. (PhD), доцент. ……16

TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQAND
Qarshiyev Rustam Mordonovich
tarix fanlari nomzodi, professor
Navoiy davlat universiteti……18

МУСТАҚИЛЛИК, МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ВА
АМИР ТЕМУР ОМИЛИ
Ойбек Абдимўминов,
тарих фанлари доктори (DSc), доцент……19

МИЛЛИЙ ДАВЛАТЧИЛИГИМИЗ ТИМСОЛИ
Хуршид Қурбонов,
Навоий давлат университети доценти, тарих фанлари номзоди……23

АМИР ТЕМУР В ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА
Норов Шухрат Сувонович
доктор философии (PhD) по ист. наук, доцент, заведующий кафедрой
«Социально-гуманитарных дисциплин и физического воспитания»
Навоийский государственный горно-технологический университет, Узбекистан……..25

AMIR TEMUR DAVRIDA G‘ARBIY YEVROPA BILAN DIPLOMATIK VA SAVDO ALOQALAR
NavDU Tarix kafedrasi dotsenti
t.f.f.d (PhD) Z.Tog‘ayev…….27

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТ БОШҚАРОВ ТИЗИМИ КОНСТИТУТЦИОН ЭДИМИ?
Холикулова Шахноза Боймухамматовна
Навоий давлат университети доцент, PhD……..31

AMIR TEMURNING YEVROPA DAVLATLARI BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI
NDU “Tarix” mutaxassisligi 1-bosqich magistri
Maxmudov Ahror
Ilmiy rahbar: dots.R.N.Tolibov. ……32

AMIR TEMUR DAVLATINING JAHON SIYOSATIDAGI O‘RNI
Qarshiyev Rustam Mordonovich
tarix fanlari nomzodi, professor
Muyedinova Maxfuza Yarashevna
Navoiy davlat universiteti
Tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi hodimi……35

БХСР НОЗИРИ АБДУРАУФ ФИТРАТ ИЖОДИДА АМИР ТЕМУР СИЙМОСИ: МИЛЛИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР ВА ДАВЛАТЧИЛИК ҒОЯСИ
З.Б. Жунаев
Навоий давлат университети, “Тарих” кафедраси доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)……..36

САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙНИНГ АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДАГИ ИЛМИЙ МУҲИТ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ
М.Норқобилов
Навоий давлат университети “Тарих” кафедраси доценти,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)……..38

AMIR TEMUR SALTANATIDA ILM - MA’RIFAT
Sh.Toshturov
Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)……43

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДА КАРМАНАНИНГ СТРАТЕГИК АҲАМИЯТИ.
(Эссе, шахсий таъсуротлар ва субъектив фикрлар асосида)
Савриев Жасур Фахриддинович
Навоий Инновациялар Университети профессори, тарих фанлари доктори (DSc)…….46

TEMURIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME’MORCHILIGINING ASOSIY XUSUSIYATLARI
Bobobekov Bahodir Qudratovich
Jizzax politexnika instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsenti,
arxitektura fanlari nomzodi……..48

AMIR TEMURNING BUNYODKORLIK ISHLARI TARIXCHILAR NIGOHIDA
Sh. Ravshanov,
NavDU dotsenti, t.f.f.d.,(PhD) …….50

“ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ” - МАЪНАВИЙ БАРКАМОЛЛИК, ЯРАТУВЧАНЛИК, БУНЁДКОРЛИК ҒОЯЛАРИ МАНБАСИ
Ж.Мустафоев
НавДУ тарих кафедраси доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)……...52

AMIR TEMUR TARIXIY MEROSINING ZAMONAVIY AHAMIYATI
F.I.Shirinova
NavDU “Tarix” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)……....56

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR IMPERIYASI DAVRIDA TIBBIYOTGA DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDAGI E’TIBOR
Xamrayeva Saodat Islomovna
NDU Tarix kafedrasi katta o’qituvchisi, t.f.f.d.(Phd)……...58

AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVIDAGI O‘RNI
Farg‘ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)
Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Abdurahmonova Odinaxon Hayotbek qizi
Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent……60

AMIR TEMURNING BUYUK SARKARDALIK SALOHIYATI
Jizzax DPU dotsenti, t.f.f.d.U.S.To‘pchiyev.
1-kurs talabasi O.Rahmonqulova……64

TEMURIYLAR DAVRI VA ALISHER NAVOIY MEROSI
(TARIXIY NUQTAI NAZAR)
Xamrayeva Saodat Islomovna
NDU Tarix kafedrasi katta o’qituvchisi, t.f.f.d.(Phd) ……67

KONIMEX TARIXI HAQIDA ILMIY – METODOLOGIK TAHLIL
NavDU Tarix fakulteti talabasi 1-kurs talabasi O.Qodirova
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi PhD O‘.Berdiyev……69

O‘ZBEKISTON DAVLAT BAYROG‘IDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR SALTANATI BAYROG‘INING AN’ANAVIY DAVOMIYLIGI XUSUSIDA.
Elova Dilnoza Davlatovna
BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi, t.f.f.d PhD, dotsent…….71

ON THE INTERNATIONAL COOPERATION OF THE TEMURIANS WITH EUROPEAN STATES
B.B. Tugalov, (PhD) Associate Professor,
Jizzakh State Pedagogical University……...73

“TEMUR TUZUKLARI”DA VATANPARVARLIK G‘OYALARI VA YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI
Yusupova Feruza Zoyirovna - Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)
Husanova Shahrizoda Murodullo qizi - Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Energo-mexanika fakulteti 17b-23 TJA guruh talabasi……75

SOHIBQIRON TEMUR SAROYI SHOIRLARI
Sherxon Qorayev,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet dotsenti (PhD)……..77

AMIR TEMUR DAVRIDA AYOLLAR SALOMATLIGIGA E’TIBOR MASALALARI
Bo‘stonova Umribonu
NDU Tarix fakulteti “Tarix” yo‘nalishi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD) S.I.Xamrayeva……82

O‘ZBEKISTON DAVLAT BAYROG‘IDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR SALTANATI BAYROG‘INING AN’ANAVIY DAVOMIYLIGI XUSUSIDA.
Elova Dilnoza Davlatovna-
BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi, t.f.f.d PhD, dotsent…….81

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI VA IJTIMOIY DAVLATNING MA’RIFATPARVARLIK SIYOSATI
Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti doktoranti
BuxDU “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti……85

AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI
Yo‘ldosheva Gulshan Navoiy Davlat Universiteti
Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD) Ashirov V.I…….88

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MA’DANIY HAYOT
Nasimova Munisa Navoiy davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) Ashirov V.I……..89

TEMURIYLAR AVLODI ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING SIYOSIY VA HUQUQIY QARASHLARI
Jo‘rayeva Nargiza Milliy g‘oya,
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar t.f.f (PhD) J.Arziqulov…….92

AMIR TEMUR DAVLATINING G‘ARBIY YEVROPA QIROLLIKLARI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI
SamDU Tarix fakulteti PhD. Maxamadiyev G‘ayrat
SamDU Tarix fakulteti 3-kurs talabasi Xudoyberdiyev To‘lqin……94

YOSHLAR TARBIYASIDA SOHIBQIRON MEROSINING MA’NAVIY-AXLOQIY AHAMIYATI
Nuritdinov Salohiddin Kamoliddin o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti 1-bosqich talabasi
Gapparov Bexzod Nematillayevich
Jizzax politexnika instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsent v.b……96

AMIR TEMUR VA TO‘XTAMISHXON O‘RTASIDAGI TEREK DARYOSI BO‘YIDAGI JANGGA YEVROPA TARIXCHILARINING MUNOSABATI
Elimov Lochin Shavkatovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi assistenti, PhD……..98

MIRZO ULUG‘BEK HAYOTI VA ILMIY-MA’RIFIY MEROSI
Qarshi davlat texnika universiteti
“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD) Imamov B.X…….100

AMIR TEMUR MAHKAMACHILIK FAOLIYATIDA DINIY ULAMOLAR FAOLIYATI
Kenjayev Sardor Nurmurod O‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsenti……103

AMIR TEMUR MEROSI – MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIY SALOHIYATNI AKS ETTIRUVCHI MANBA
Gapparov Bexzod Nematillayevich
Jizzax politexnika instituti
“Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsent v.b…….105

АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ДЕҲҚОНЧИЛИК, ЧОРВАЧИЛИК, ҲУНАРМАНДЧИЛИК, САВДО МАДАНИЯТИ
Ў. Бердиев, НавДУ катта ўқитувчиси,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори.
НавДУ Тарих факультети талабаси 1-курс талабаси О.Қодирова……107

AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI
Mahammadaminova Nodira Ahrorjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent……109

AMIR TEMUR DAVLATCHILIGI VA DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI
Baxtiyorova Ruxshona Sodiqjon qizi
Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti “Tarix” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:Djunayev Farxod Abduxamidovich……..114

TEMURIYLAR DAVLATIINING SUG‘ORISh TARIXIDAN
F.I.Shirinova. NavDU “Tarix” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)……...117

“BOBURNOMA” ASARIDA ETNIK JARAYONLARNING YORITILISHI
To‘lqin Mamatqobulov Eshqulovich
Toshkent iqtisodiyot va pedogogika universiteti
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedra” katta o‘qituvchisi.
Akbar Idiyev Avaz o‘g‘li
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti……..118

«ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ»: ЁЗИЛИШИ ВА ЎРГАНИЛИШИ
И.Қулжонов, НавДУ……120

AMIR TEMUR MEROSINING BUGUNGI O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI VA MAFKURASIDAGI O‘RNI
Pak Diana Aleksandrovna,
Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Universitetining Stajyor o‘qituvchisi
Qurbonova Zamira Mamat qizi
Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Universiteti talabasi……123

AMIR TEMUR SALTANATIDA ICHKI RAZVEDKA TIZIMI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI
Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqotchi……125

AMIR TEMUR HARBIY STRATEGIYASI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDAGI O‘RNI
Abduvositov Husniddin Faxriddin o‘g‘li
Harbiy ta’lim fakulteti kursanti
Farg‘ona davlat universiteti ……127

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MAKTAB VA TA’LIM-TARBIYA
Saibov Dilshod Kamiljonovich
Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi
“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzey ilmiy xodimi, tarix fani o‘qituvchisi……..129

TEMURIYLAR DAVRIDA ARXITEKTURA VA ME’MORCHILIK SAN’ATINING RIVOJLANISHI
Ne’matova E’zoza,
Jizzax politexnika instituti magistranti, O‘zbekiston……132

TEMURIYLAR DAVRI KITOBAT SAN’ATIDA TASVIR VA XATTOTLIK UYG‘UNLIGI
Tohirov Javohir Akbar o‘g‘li.-Navoiy Davlat Universiteti
70110501 – Tasviriy san’at magistratura mutaxassisligi 1-kurs magistranti…….133

TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT
Toshniyozov Nurzohid Toshtemir o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi
Navoiy akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi…….136

AMIR TEMUR BOBOMIZGA EHTIROM
E. I. Zoyirov., NavDU “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix)” mutaxassisligi magistranti.
Ilmiy rahbar: NavDU dotsenti Sh.Ravshanov……...137

AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI
X.Xalilov, NavDU o‘qituvchisi
Sh. Jasurbek, NavDU talabasi……139

АМИР ТЕМУР ВА ИБН ХАЛДУН УЧРАШУВИ
Каромат Қурбонова, тадқиқотчи…….141

TEMURIYLAR DAVRINING MA’NAVIY VA MADANIY MEROSI
Jalilov Mirsaid Bektosh o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi…….143

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOTNING RIVOJLANISHI
O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy
Kommunikatsiyalar Universiteti Xorijiy tillar Kafedrasi
Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi
1-bosqich talabasi: Sarvinoz Karimova……..145

AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA SHAXS ERKINLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT MASALASI
Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi
Qarshi Davlat texnika universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi…….147

AMIR TEMURNING BUYUK DAVLAT QURISH YO‘LIDAGI HARBIY YURISHLARI
Saidkamol Xayrulla o‘g‘li Ismoilov
Toshkent iqtisodiyot pedagogika universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: Mashhura Odiljon qizi Darmonova……..149

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH: NAFTA VA "MANGU OLOVLAR" TARIXI
Abdirasulova Soxiba Abdimital qizi,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Navoiy akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi,
NavDU mustaqil tadqiqotchisi……152

AMIR TEMUR DAVRI DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVI MASALALARI: TARIXIYLIK VA AN’ANAVIYLIK
D.Abduazimov, GulDU tayanch doktoranti ……154

O‘QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TEMURIYLAR TARIXINI O‘RGANISHNING AHAMIATI
F.B.Adizova., O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi
Navoiy akademik litseyi tarix fani yetakchi o‘qituvchisi……155

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TA’LIM VA TARBIYA MASALALARI
Aliyeva Zilola Xikmatovna
O‘zbekiston Respublikasi IIV Navoiy akademik litseyi “Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi Ma’naviyat asoslari va tarbiya fani o‘qituvchisi……159

AMIR TEMUR VA YEVROPA ELCHILARI: TARIXIY MANBALARNING QIYOSIY TAHLILI
Qosimova Mehrinoz Shokir qizi-
Buxoro davlat unversiteti magistranti……161

AMIR TEMUR DAVLATCHILIK AN’ANALARI VA ULARNING YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI TRANSFORMATSIYASI
Izzatullayeva Ma’mura Begmurod qizi
Buxoro Davlat Unverseteti Tarix va Yuridek Fakulteti
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi……164

AMIR TEMUR DAVLATI – TURKIY DAVLATCHILIKNING NAMUNA MODELI
Jozilov Diyor Mashrab o‘g‘li
Abdulla Qodriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi……166

AMIR TEMUR DAVRIDA ADABIYOT VA MADANIYAT
Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi……171

AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI: MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA ALOQALARINING TARIXIY ASOSLARI HAMDA O‘ZBEKONA MEHMONDO‘STLIK AN’ANALARI
Olimova Ziyoda Olim qizi
Navoiy davlat universiteti magistranti……174

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT
NavDU Tarix fakulteti 3-kurs
Talabasi Toshimova Nozanin
Ilmiy rahbar: “Tarix”kafedrasi
O‘qituvchisi Muftillayeva Umida……..176

SOHIBQIRON AMIR TEMUR – ADOLAT VA QUDRAT TIMSOLI
X.Xalilov, NavDU Iqtisodiyot fakulteti o‘qituvchisi…….178

AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVIDAGI O‘RNI
Nav.DU Tarix fakulteti 3-kurs
talabasi Sanaqulova Charos
Ilmiy rahbar: “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi Muftillayeva Umida…….179

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MAKTAB VA TA’LIM-TARBIYA
Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzey ilmiy xodimi,
tarix fani o‘qituvchisi Saibov Dilshod Kamiljonovich……...181

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJI.
Navoiy davlat universiteti Texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ismoyilov Diyorbek Bektemir o‘g‘li
Texnologik ta’lim kafedrasi talabasi
Temirova Anora Komil qizi……185

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA BUGUNGI AHAMIYAT
Xakimova Dildoraxon To‘lqinjon qizi
Ilmiy rahbar: Ziyavutdinova Xumoraxon Shermamatovna
Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi……187

AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA LIDERLIK PSIXOLOGIYASI O‘ZBEK DAVLATCHILIGI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK OMILLARI
University of business and science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qtuvchisi
Jurayev Xaydarjon Odilboyevich……190

SOHIBQIRO AMIR TEMURNING ILM-FAN, MADANIYAT HAMDA BUNYODKORLIK ISHLARIGA QO‘SHGAN ULKAN HISSASI
Eshkulova Gulmira Shokirovna
Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi……193

AMIR TEMUR VA HOZIRGI ZAMON:
DAVLATCHILIK VA IQTISODIYOTGA TA’SIRI
Toshpolatova Odina
Navoiy davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi……195

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJIDA MIGRATSIYANING TUTGAN O‘RNI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR
Maxmudov O‘ktamjon Muxsinjon o‘g‘li
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi ……196

AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI
Navoiy Davlat Universiteti Iqtisodiyot Fakulteti Turizm va Mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalsihi 102-guruh talabasi Toshpo‘latov Alibek Marufjon o‘g‘li
Ilmiy rahbar.Xalilov Xabib Hamidovich……198

AMIR TEMUR YARATGAN BOG‘LAR
D.Ashurov.NavDU Tarix fakulteti
Tarix kafedrasi o‘qituvchisi. ……..200

AMIR TEMURNING TINCHLIK HAQIDAGI SIYOSAT YO‘L-YO‘RIG‘I MAZMUN-MOHIYATI TAHLILI
Sharipov Dilshod Baxshilloevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi……201

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATIDA QISHLOQ XO‘JALIGI VA HUNARMANDCHILIKNING O‘ZARO TA’SIRI
Daminov Akbar
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi……..205

AMIR TEMURNING HARBIY STRATEGIYASI VA TAKTIKASI
Xidirova Go‘zal Suyunjonovna
Qarshi Davlat texnika universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi…….209

AMIR TEMUR VA HOZIRGI ZAMON: DAVLAT BOSHQARUVI TAMOYILLARI
Ismoilova Zarina Otabek Qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
kimyo muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabasi……212

JADID ADABIYOTI NAMOYANDASI. ABDURAUF FITRAT – MA’RIFATPARVAR IJODKOR
Farg‘ona davlat universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) Yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Mahammadaminova Nodira Ahrorjon qizi
Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ……..214

ILM FAN VA BUNIYODKORLIK HOMIYSI
Kucharboyeva Durdona
Navoiy davlat universiteti “Milliy g‘oya,
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi……..217

WOMEN’S ROLE IN GOVERNANCE AND DIPLOMACY DURING THE TIMURID ERA
Shukurilloyeva Lazzatoy Shamshodovna
Student, Eglish First Faculty
Uzbekistan State World Languages University……219

AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVDAGI O‘RNI
Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzey,
Muzey kuzatuvchisi Muyedinova Maxfuza Yarashevna……221

O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXINI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI
Tog‘ayeva Nilufar Ulashovna
O‘zbekiston Respublikasi IIV
Navoiy akademik litseyi huquq fani o‘qituvchisi……223

AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVIDAGI O‘RNI.
X.Xalilov, NavDU o‘qituvchisi
J.Qobiljonov, NavDU talabasi……225

AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT
Kamolova Habiba Muhammadiyevna –
tarix fanlari falsafa doktori, dotsent.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti……227

AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA YETAKCHILIK FAZILATLARI
Qahramon Mahmanazarov
Qarshi Davlat texnika universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi……229

AMIR TEMURNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVDAGI O‘RNI
Muhammadqulov Ulug‘bek Umarjon o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzey
ekskursiya yetakchisi……..231

TEMURIYLAR DAVRI ME’MORCHILIGI-MADANIY YUKSALISHNING KO‘ZGUSI
Maftuna Madat qizi Kamolova
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti tarix mutaxassisligi 1-bosqich magistranti ……..234

AMIR TEMUR TUZUKLARIDA HARBIY MASALALARI HAQIDA
O.A.Abdig‘apparov
Jizzax davlat pedagogika universiteti……237

AMIR TEMUR IN THE EYES OF EUROPEAN AMBASSADORS
Otaboyeva Zuhra Oktam qizi
2 nd year student of the Faculty of Social, Humanitarian and Exact Sciences,
“History” major, Mamun University……239

SCIENCE AND CULTURE LIFE IN THE TIMURID ERA
Pulatova Charos Rasulovna
first-year student, “Linguistics” faculty KFU Branch in Jizzakh …….241

1360-1370-YILLARDA AMIR TEMUR BILAN FAOLIYAT OLIB BORGAN HARBIY SARKARDALAR FAOLIYATI
Boymurodov Shahzod Bahodir o‘g‘li……243

O‘QITUVCHI SHAXSINING TARBIYADAGI O'RNI
Shaymurodov Anvar
JDPU Sirtqi bo‘limi Pedagogika ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talablasi……...246

YANGI O‘ZBEKISTONDA II RENESSANS MUTAFAKKIRLARI MEROSINING O‘RGANILISHI
Shomirzayeva M.G‘.
Guliston davlat universiteti Iahlab chiqarish texnalogiyalri fakulteti oziq-ovqat texnalogiyasi kafedrasi 1- bosqich magistr……247

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT
Tarix fakulteti 3-kurs “B”guruh
talabasi Bahriddinova Madina
Ilmiy rahbar: “Tarix”kafedrasi o‘qituvchisi Muftillayeva U.T…….251

AMIR TEMUR VA KASTILIYA (ISPANIYA) QIROLLIGI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR
Mamanov Anvar Abduvohid o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika unversiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi……254

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FANNING RAVNAQI VA MADANIYAT VA SA’NATNING RIVOJLANISHI.
Obilov Azizbek- Navoiy davlat universiteti 2-bosqich talabasi…….257

AMIR TEMURNING YUNESKO TOMONIDAN ETIROF ETILISHI : TARIXIY VA MADANIY MEROSNING XALQARO DARAJADAGI AHAMIYATI
Xoliqov X.X.
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) 1-kurs magistranti…….260

TEMURIYLAR DAVRI DIPLOMATIK ETIKETIDA KIYIM-KECHAKNING O‘RNI VA RAMZIY MA’NOLARI
(R.G. de Klavixo va Ibn Arabshoh ma’lumotlari asosida)
Raxmatullayev Muhammad Qodir Jaxongir o‘g‘li
O‘zR FA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi……262

TEMURIYLAR DAVRINING TARIXIY MEROSI VA UNING TURIZM RIVOJIDAGI AHAMIYATI
Yunusov Diyorbek Ulug‘bek o‘g‘li,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Turizm va mehmondo‘stlik” yo‘nalishi 1-kurs talabasi……..265

“TEMUR TUZUKLARI”DA INKLYUZIV BOSHQARUV VA ADOLAT MEZONLARI: ZAMONAVIY DAVLATCHILIK UCHUN SABOQLAR.
Tohirova Ruxshona Akbar qizi
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi……..267

“TEMUR TUZUKLARI” MILLIY DAVLATCHILIGIZ BOSHQARUVI NAMUNASI
Tolibova Nilufar
NDU “Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(huquq ta`limi) mutaxassisligi” bo‘yicha 1-bosqich magistri……..269

AMIR TEMURNING MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA HAMKORLIGIDAGI ROLI
Navoiy Davlat Universiteti Iqtisodiyot
Fakulteti Turizm va Mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalsihi
102-guruh talabasi Toshpo‘latov Alibek Marufjon o‘g‘li
Ilmiy rahbar: Xalilov Xabib Hamidovich……272

РОЛЬ АМИРА ТЕМУРА В СТАНОВЛЕНИИ УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ И СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ.
Турсунова Муслима Зохиджон кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков 1-курс…….274

AMIR TEMUR BOG‘LARI ME’MORCHILIGI
Umarova Ruxshona Jamshid qizi
Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi talabasi.……276

MARSEL BRIONNING AMIR TEMUR HAYOTI VA IJODI HAQIDAGI QARASHLARI
Navoiy Davlat Universiteti talabasi
Xakimova Durdona To‘lqin qizi. …….279

YANGI O‘ZBEKISTONDA II RENESSANS MUTAFAKKIRLARI MEROSI O‘RGANILISHI
Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi
Qatag‘on qurbonlari xotirasi ekskursiya yetakchisi
Sharopova Ruxsora Andreyevna……281

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SAROY TABIBLARI FAOLIYATI
Yo‘ldoshev Murodjon Xurram o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi. ……284

ZAFARNOMA ASARINING YOZILISH TARIXI
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi
Saidmurodova Shaxina Nasriddinovna ……286

AMIR TEMUR VA HOZIRGI ZAMON.
Normo‘minova Mohira O‘tkir qizi.
Termiz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti,rus tili va adabiyoti yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi……..290

АМИР ТЕМУР ДАВРИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИККА БЎЛГАН ЭЪТИБОР
Отабек Пўлатов
Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий тадқиқот
институти кичик илмий ходими. …….291

AMIR TEMUR QO‘SHINIDA OZUQA TA’MINOTI MASALASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR
Polvanov Azim Kuchkarovich
Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti
o‘qituvchisi, TDSHU mustaqil tadqiqotchisi……295

ПОЛИТИКА ЯЗЫКА В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И СОВРЕМЕННАЯ ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.
Рахмонова Рухсора Дилшодовна
Студентка Термезского государственного педагогического института
г.Термез, Узбекистан……....299

ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА КОНЧИЛИК САНОАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ
Саибов Дилшод Камилжонович
Навоий давлат университети тузилмасидаги
Қатағон қурбонлари хотираси музей илмий ходими, тарих фани ўқитувчиси…….301

YUSIF QORABOG‘IY IJODIDA INSON VA KAMOLOT G‘OYASI
Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li
BuxDU “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi……..304

YUSIF QORABOG‘IY QARASHLARIDA ILM VA MA’RIFAT UYG‘UNLIGI
Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li
BuxDU “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi……..305

---

“AMIR TEMUR MEROSI – MILLIY G‘URUR VA MA’NAVIY KUCH MANBAI”
MAVZUSIDAGI MINTAQAVIY ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2026-yil 1-aprel,
Navoiy shahri

© Navoiy davlat universiteti

Navoiy davlat universiteti
Tarix fakulteti Kengashining 2026-yil 26-martdagi
8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

Hajmi 19.5 bosma taboq. Adadi 50 nusxa.
Bosmaxona manzili: Navoiy shahri, Ibn Sino ko‘chasi 45–uy,
NavDU tahririyat va nashriyot bo‘limi

---